



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)



QARSHI - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**JADIDCHILIK HARAKATI VA
UNING TURKIY XALQLAR
ADABIYOTIGA TA’SIRINI
O‘RGANISH MUAMMOSI**

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)

2023-yil 13-oktabr

Qarshi
“Nasaf” NMIU
2023

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘ining 1-ilovasi “2023-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejası”ga muvofiq Qarshi davlat universitetida 2023-yil 13-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta‘sirini o‘rganish muammosi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislarni o‘z ichiga oladi.

Konferensiya materiallarida o‘zbek mumtoz adabiyoti va jadidchilik masalalari, jadidchilik g‘oyalari va yangi o‘zbek adabiyoti, jadidchilik va turkiy xalqlar adabiyoti, jadidchilik va turkiy tillar muammosi, ta‘lim bosqichlarida jadidchilik va jadid adabiyotining o‘qitilishi masalalari qamrab olingan.

To‘plam soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar hamda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

KONFERENSIYA TASHKILY QO‘MITASI TARKIBI:

D.H.Nabiyev – universitet rektori, professor

A.E.Xolmurodov – o‘quv ishlari prorektori, professor

I.R.Bekpo‘latov – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor

O‘.Sh.Abdullayev – yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, PhD, dots.

X.G‘.Djurayev – moliya-iqtisod ishlari prorektori

B.X.Rizayev – Filologiya fakulteti dekani, PhD, dots.

D.J.Rahmatova – universitet tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori, PhD, dots.

MAS‘UL MUHARRIR:

N.N.Shodmonov – f.f.d., prof.

MAS‘UL KOTIB:

G.H.Ernazarova – f.f.d., prof.

TAQRIZCHILAR:

N.A.Jabborov – f.f.d., prof.

O.R.Jo‘raboyev – f.f.n., katta ilmiy xodim

TAHRIR HAY‘ATI:

D.To‘rayev – f.f.d., prof.

B.Yo‘ldoshev – f.f.d., prof.

G.Imomova – f.f.d., dots.

Sh.Nuriddinov – f.f.d., dots.

R.Jumayev – PhD, dots.

S.Mo‘minova – f.f.n., dots.

N.Umarova – PhD, dots.

G.Ravshanova – PhD, dots.

U.Abdullayeva – PhD, dots.

G‘.Shodmonov – PhD, dots.

*Qarshi davlat universiteti Kengashining 2023-yil
5-oktabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

© To‘plam, 2023-yil

© “Nasaf” NMIU, 2023-yil

ISBN 978-9910-9711-9-8

FIDOYI MA'RIFATPARVARLAR FAOLIYATI – ILMIY TADQIQOTLAR KO'ZGUSIDA

Yurtimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari alohida ahamiyatga ega bir davr hisoblanadi. Chunki bu davrda millatimizni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan uyg'otishga qaratilgan jadidchilik nomi ostida katta kuch harakatga keldi. Jadid bobolarimizning eng muhim g'oyasi va vasifasi qullikka mahkum bo'lgan xalqni chin ma'noda hurlikka olib chiqish, savodsizlik zulmatida qolgan avlodga ilm-ma'rifat ziyosini yetkazish edi. Buni jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi, ma'rifatparvar Avloniyning "qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga" kirishilgani haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi.

Ta'kidlash joizki, mazkur davrda Turkiston milliy-taraqqiyparvarlik harakati – jadidchilikning muhim markaziga aylangan edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi juda murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Davrning ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar ana shunday murakkab va qiyin sharoitlarda ham ezgu maqsadlaridan bir qadam ortga chekinmay ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etishga jiddu jahd qildilar. Chunki ular faqat ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat bilangina ozodlikka, taraqqiyotga erishish mumkinligini yaxshi anglaganlar. Hurlikka erishmagan xalq esa taraqqiyotdan ham begona bo'ladi. "Kamolotning yagona omili o'z aqliga, o'z mulkiga, o'z mehnatiga egalikdir", degan edi yirik jadidshunos olim Begali Qosimov "Mustaqillik o'zlikni tanimoqdir" nomli maqolasida.

Akademik Naim Karimov jadidlarining bu olijanob tashabbus va harakatlari haqida shunday degan edi: "Bu voqea, garchi o'sha davrda kutilgan natijani bermagan bo'lsa-da, yetmish nafar o'zbekistonlik talabaning Germaniyadagi o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi o'z davrida qanday katta aks sado bergan bo'lsa, hozir ham o'zbek jamiyatini shunchalik haya-jonlantirib keladi". Lekin afsuski, millat ziyolilari, jadidlar va butun xalq umidi bo'lgan bu talabalar taqdiri sovet davlati va mustabid tuzum tufayli fojiali yakun topti. Butun millat orzusi va ezgu maqsadlari uchun vatanlariga qaytgan, qator sohalarning rivoji yo'lida xizmat qilishni boshlagan sobiq talabalar qirib tashlandi. Omon qolganlari esa o'zga mamlakatlar taraqqiyotiga hissa qo'shdilar.

Tarixga nazar solinsa, o'zbek millati shon-sharaflı yo'llar bilan birga musibat va qayg'uga to'la uzoq qonli yo'llarni ham bosib o'tganiga guvoh bo'lish mumkin. Millatimiz tarixida ana shunday unutilmas fojia 1938-yil sodir bo'ldi. Bu ulkan fojiada hurriyat uchun kurashgan 1,5 million Vatan fidoyilari qatag'on etilgan. Istiqolga intilgan 700 ming millat qahramonlari otib tashlangan. Ular orasida Rahim Inog'omov, Usmonxon Eshonxo'jayev, Rustam Islomov, Fayzulla Rahimboyev, Akbar Islomov, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev kabi davlat va jamoat arboblari, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi xalqning ardoqli shoir va yozuvchilari, G'ozı Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Otajon Hoshimov, Majid Qodirov, Zıyo Saidov, Munavvar Qori, Botu, Usmon Nosir kabi ma'rifatparvar kishilar zulm va zo'ravonlik qurboni bo'ldi. Millat ma'rifatiga, diniga, asliyatiga, umuman uning kelajagiga bolta urilgan bu alamli, iztirobli kunlarni xalqimiz hech qachon unutmaydi. Chunki butun bir millat ziyolilarining o'ldirilishi shu millatning taraqqiyotini 100 yillarga kechiktirtib yubordi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ko'plab nutqlari, uchrashuv va tadbirlarda tilga olingan quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: "Agar jadidlarimiz qirg'in qilinmaganda edi, hozir bizda "to'rtinchi renessans" bo'lardi. Agar ota-bobolarimiz qirib tashlanmaganda edi, ularning bilimi, ularning ilmi bilan katta kashfiyotlar qilinardi". "...tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi".

Bugun mamlakatimizda millat qahramonlari bo'lgan jadidlar nomini tiklash, xotirasini abadiylashtirish va ma'naviy-marifiy merosini o'rganishga jiddiy e'tirbor qaratilmoqda. Mustaqilligimizning 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida prezidentimiz bu xususida quyidagilarni bayon qilgan edi: "Biz yurt ozodligi yo'lida kurashgan, nohaq ayblanib,

bu dunyodan armon bilan ketgan vatandoshlarimizning pok nomlarini tiklashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan edik. So'nggi uch yilda ularning 856 nafari Oliy sud tomonidan oqlandi. Biz bunday ezgu ishlarni albatta davom ettiramiz. Zero, bu masalada adolat qaror topishi shart... Agar 3 ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo'shganiga guvoh bo'lamiz. Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug' zotlarning avlodimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo'lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an'analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda".

Shu ma'noda, bugun Qarshi davlat universitetida xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan "Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta'sirini o'rganish muammosi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumaning ham ahamiyati juda yuqori deb hisoblaymiz. Mazkur anjuman ham jadid ma'rifatparvarlarining hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini o'rganishga, shuningdek, ularning millatimiz, xalqimiz ozodligi yo'lida chekkan zahmatlari, kurashlari, umuman, barcha xayrli ishlarini bugungi avlod ongu shuuriga singdirishga katta hissa qo'shadi deb ishonamiz. Anjumaning barcha qatnashchilariga yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilaymiz.

D.H. Nabiyev,
Qarshi davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

1-SHO‘BA. O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK MASALALARI

TURKISTON MATBUOTIDA MILLAT VA MILLIYAT MASALALARINING YORITILISHI

Nurboy JABBOROV,
O‘zbekiston, TDO‘TAU,
filologiya fanlari doktori, professor,

Islam JEMENEY,
Qozog‘iston, Qozoq Milliy universiteti Turon-Eron
ilmiy tadqiqot markazi
filologiya fanlari doktori, professor,

Annotatsiya. Maqolada Turkiston jadid matbuotida millat va milliyat masalalarining talqini xususiyatlari tahlil etilgan. Mualliflar ushbu mavzuni, birinchidan, millat va uning taraqqiysi masalasi, ikkinchidan, Vatan va millat tarixiga doir qarashlar ifodasi, uchinchidan, milliy axloqni saqlash zaruratiga doir chiqishlar tarzidagi tanif asosida tadqiq qilgan. Bog‘chasaroyda nashr etilgan “Tarjimon”, Turkiston jadidlari ta’sis qilgan “Oyna” va Orenburgda chiqqan “Sho‘ro” jurnallari, “Taraqqiy”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Ishtirokiyun” gazetalarida bosilgan maqolalarda millat va milliyat masalalari yoritilishining ko‘lami, konseptual asoslari, jamiyat hayotiga ta’siri yuzasidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: jadid matbuoti, millat, milliyat, gazeta, jurnal, milliy axloq, milliy til.

“Millat” atamasi ikki xil – e’tiqodiy va etnik birlik ma’nolarida tushunilgani ma’lum. Bu so‘z Qur’oni karimda o‘n besh marta, tabiiyki, e’tiqodiy birlik mazmunida, aksar “millati Ibrohim” tarzida qo‘llangan. Alisher Navoiy asarlarida Abdurahmon Jomiy *nur ul-millati vad-din*, Shayx Iroqiy *faxr ul-millati vad-din*, Xavofiy *zayn ul-millati vad-din*, Xoja Hofiz Sheroziy va Pahlavon Muhammad *shams ul-millati vad-din* deya ulug‘lanadi. Hazrat Navoiyning nisbasi *nizomul-millati vad-din* bo‘lgani ayon. Bunda din – e’tiqod manbai, millat – shu asosda birlashgan qavm ma’nosini anglatgani sir emas. Jadidlarda bu so‘z dastlab har ikki ma’noda ham birdek faol qo‘llangan. Keyinchalik etnik birlik ma’nosi kuchayib borgani kuzatiladi.

“Milliyat” – millatning asl xususiyatlarini saqlash va shu asosda yaxlit bir vujudga aylanishini nazarda tutuvchi tushuncha. Vatan va Millat taraqqiysini bosh maqsad qilganlari uchun ham jadidlar Millat va milliyatni hayot-mamot masalasi deb bildilar. Jadid adabiyoti shakllanishining dastlabki kezlardanoq asosiy e’tibor shunga qaratildi. Millat va milliyat masalalarining jadid adabiyotida yoritilishini quyidagi tasnif asosida ko‘rib chiqamiz:

1. Millat va uning taraqqiysi masalasi.
2. Vatan va millat tarixiga doir qarashlar.
3. Milliy axloqni saqlash zaruratiga doir chiqishlar.

Ilk milliy gazeta “Taraqqiy” deb nomlanishidayoq jadidlarning bosh maqsadi aks etgan. Gazetaning birinchi sonida tahririyat nomidan e’lon qilingan maqolaga: “*Biz musulmonlarni(ng) hurriyatda haqlari bormu? Yo‘q! Qarindoshlar, yuz marotaba yo‘q!*” degan so‘zlar epigrafi sifatida tanlangan. Gazeta bosh muharriri Ismoil Obidiy buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: “...bu ikki yid ichida hama xalq tortishdi va kurashdi, musulmonlar uxlashdi. Demak, o‘tgan yillarda Peterburx, Moskvadagi kurashlar, jang-jadallar va hama mamlakatlarda ish tashlamoqlig‘lar; Dog‘iston, Lahiston va Bahri Boltiq kanorlarida bo‘lg‘on harakat va tortishlar; tarixlarning har sahifalarida hama millatlardan hurriyat uchun xizmat etuvchilar bo‘ldi”. Boshqalar kurash yo‘liga kirib, so‘z, matbuot va vijdon erkinligini beruvchi manifest e’lon qilinishiga erishdilar. Muallifning ta’kidicha, “...bunda biz musulmonlarning hissamiz deyarli yo‘q. Muallif bu holatdan chiqmoq zarurligini uqtiradi. Uning mana bu so‘zlari “Taraqqiy”ning asosiy maslagini ifoda etgani jihatidan ahamiyatlidir: “Gazetamiz “Taraqqiy”

isminda o‘lub, bora-bora jismi ham ismiga muvofiq o‘lub, millatimizni keyin qolmog‘ig‘a, jaholat va g‘aflati oliyda o‘lub, boshqa millatlardan kam darajada qolmog‘ig‘a aslo rozi emasmiz... Binoan alayh gazetamizning najotimizg‘a, dunyo va oxiratda mas‘ud o‘lmoqimizg‘a yolg‘uz ilm bobidir, demak birinchi vazifasidir” [5, 121-b]. Millat va milliyat masalalariga alohida diqqat qaratilgani uchun ham “Taraqqiy” – birinchi milliy gazeta, uning muharriri esa Ismoil Taraqqiy degan nom oldi [8, 59-b].

Munavvarqorining gazetaning 1- va 2-sonlarida bosilgan “Bizning jaholat – jahli murakkab” maqolasida taraqqiyotdan ortda qolishimiz sabablari haqida so‘z boradi. Uningcha, millatning jaholatda qolishiga asosiy sabab ta‘lim-tarbiya usulining zamon talablariga javob bermasligi. Shu bois o‘qitish usulini isloh etish hayotiy ehtiyoj.

Millat taraqqiysi masalasini kun tartibiga qo‘ygan jadidlar bunda milliyat tuyg‘usining o‘rnini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmasligi haqidagi xulosaga kelganlar. Tatar ma‘rifatparvari Yusuf Oqchuraning mana bu so‘zlari ham shunga dalolat qiladi: “Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hech bir kuch bas kela olmadi. Yuz minglarcha haybatli qo‘shin bu fikr qarshisida yengildi. Milliyat atalmish bu buyuk qudratga bugun to‘p va miltiq bas kela olmaydi...”.

Darhaqiqat, milliyat tushunchasi jadidlarga ruh berdi. Ularni, garchi muayyan bo‘linishlar bilan bo‘lsa-da, yagona mafkura atrofida birlashtirdi. Vatan va millat taraqqiysi uchun, milliy ozodlik uchun kurashga boshladi. Ular qalbida jasorat, ma‘rifat va fidoyilik tuyg‘usini paydo qildi. “Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi, – deb yozgan edi jadidshunos Begali Qosimov. – Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko‘zda tutiladi. Shular asosida millatning uyg‘onishi, o‘z-o‘zini anglashida muhim rol o‘ynagan, lekin so‘ngroq asossiz ravishda ayblovlari vasiqasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo‘ldi. Ularning ayrimlari o‘z davrida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo‘lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi” [8, 68-b].

Ismoilbek Gaspralining “Tarjimon” gazetasida bosilgan “Dor-u-r-rohat musulmonlari” asarida ta‘kidlanishicha, islom dunyosi, xususan turkiy xalqlar “faqir holda. Va bu faqirlik, nochorlik birgina mulkda, sarmoyada emas, ilmida, fanda, maorifda, san‘at va hunarda” hamdir. Muallif millatni Ovrupo ilmini egallashga chaqiradi. Biroq buning muhim bir sharti borligi, o‘zlikni anglash va saqlash zarurligi haqida yozadi. Yaponlarni misol keltiradi. Chala-chulpa o‘qimaganliklarini, yuz-yuzlab Ovrupo, Amerika universitetlarida tahsil olganliklarini, madaniyat atalmish qozonda armonsiz qaynaganliklarini, ishtirokiyunchilikni ham obdan ko‘rganliklarini, biroq “maslaki milliyalarini, tarixlarini bo‘lar-bo‘lmas xayollarga fido etmagan”liklarini uqdiradi. “Nom, shuhrat, rohat, saodatni **milliyatlari** doirasida hal qilish, vujudga keltirish uchun kurashgan”liklarini qayd etadi.

Millatning millatligi, birinchi navbatda, tilida namoyon bo‘ladi. Milliy matbuotda til masalalariga ham jiddiy e‘tibor qaratildi. Saidrizo Alizodaning “Oyna” jurnali 1914 yil 11-sonida e‘lon qilingan “Har millat o‘z tili ila faxr etar” sarlavhali maqolasi buning yorqin dalili. Muallif til sofligi masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Ruscha kalimalarning xalq tilida tez-tez tilga olinuvi, hatto drama, vaqtli matbuot tilida ham ruscha, arabcha va tojikcha so‘zlarning aralashuvini tanqid qiladi: “Ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus yo qaysi bir arman o‘z tilini qo‘yib bir-birovi ila turkcha so‘ylaydur. Ammo bizning so‘zlashganimiz vaqtda har bir jumlada bir kalima rus so‘zi eshitilur... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘shabersak, bir oz zamonda til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur” [1, 836-b].

“Oyna”ning dastlabki sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim”ligiga diqqat qaratgan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” [3, 632-b] maqolasida tilga doir munozaraga munosabat bildiradi. Uning fikricha, tillar bir-biridan so‘z olishi tabiiy. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizcha ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligi”ni bunga dalil sifatida keltiradi. Muallif asosiy e‘tiborni adabiy til, til birligi masalalariga qaratadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy til masalasiga alohida diqqat qaratgan. XX asr avvalida Turkiston, Rossiya, Kavkazorti va boshqa hududlardagi turkiy xalqlar ziyolilari o‘zaro faol aloqada

bo'lgani ma'lum. Ziyo Saidning "Oyna" jurnali haqida: "Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o'qildi" [6, 44-45-b.], degan fikrlari ham o'sha davrda matbuotning xalqaro miqyosda, ayniqsa, turkiy dunyo o'rtasida tarqalish darajasi nechog'liq keng bo'lganini ko'rsatadi. O'z navbatida, Turkiston jadidlari Orenburgda chop etilgan "Sho'ro" jurnali va "Vaqt" gazetasi, Bog'chasaroyda bosilgan "Tarjimon" gazetasi, Ozarbayjonda nashr qilingan "Mulla Nasriddin" jurnali bilan doimiy ravishda tanishib borgan. Akademik Naim Karimovning yozishicha: "Shu yillarda shakllana boshlagan mahalliy ziyolilar... Tatariston, Ozarbayjon, Hindiston va Misrda nashr etilgan gazeta va jurnallarga ham mushtariy bo'lib, ularni ham muntazam ravishda o'qib turganlar" [7, 31-b].

Mazkur matbuot nashrlarida Turkiston mavzusi yetakchi o'rin tutgan. Buxoro amirining tarjimoni Bahrombek 1911 yilda "Sho'ro" jurnaliga "Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma'lum bo'lib turub... na uchun sarta ataydurlar?" degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning "Sarta so'zi majhuldur" degan javobi bosiladi. 19-sonida Behbudiyning "Sarta so'zi majhuldur" degan javobi bosiladi. 24-sonida esa samarqandlik Baqoxo'ja "Sarta so'zi aslsizdur" degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosilganday bo'ladi. Biroq oradan 2-3 yil o'tib, "Sadoyi Farg'ona"ning 1914 yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining "Sarta so'zi ma'lumdur" degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, "ma'lum" deb da'vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy "Sarta so'zi ma'lum bo'lmadi" degan maqola yozib, "Sadoyi Farg'ona"ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so'ng muallif maqolani o'z jurnalida (1914-yil 39-son) berishga majbur bo'ladi. Mazkur bahs-munozaralar jadidlar uchun millat va milliyat masalasi nechog'liq muhim bo'lganini ko'rsatadi.

Abdurauf Fitrat keyinroq "Ishtirokiyun"da bosilgan maqolasida ona tilimizga ta'rif berar ekan, uning «dunyodagi eng boy va eng baxtsiz til» bo'lganini ta'kidlaydi. Buni, birinchidan, shu til vakili bo'lgan mutafakkirlarning o'zga tilda asarlar yozgani, ikkinchidan, tilga nisbatan loqaydligimiz bilan izohlaydi. Bu loqaydlik, taassuflarki, bugun ham qaysidir darajada davom etayotir.

"Turkiston tarixi kerak" maqolasida Behbudiy mana bunday yozadi: "...bizning o'z shevamizda Turkistonda o'tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvolig'a doir "Turkiston tarixi" bor bo'lgonda, oni ko'z oldimizda qo'yub, burung'i qahramon bobolarimizning na yo'l ila taraqqiy va madaniyat davrig'a kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo'lub ketganlarini o'qub, bilub, xeyli ibrat olar eduk. O'shandoq hozirgi holimizni bobolarimiz davridagi hollarg'a bir daraja muqoyasa etmak ila barobar o'z-o'zimizdan bir infiole daruniy (ichki hayajon) his edub, yuzlarimiz qizarar edi. Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g'ofil va bexabardurmiz".

Ma'lumki, Behbudiyga qadar juda ko'p tarixiy asarlar yozilgan. Ko'plab muarrixlar Turkiston tarixining eng qadimgi davridan to o'z zamonlarigacha bo'lgan voqealarni xronologik tarzda yozib qoldirganlar. Xo'sh, unda Behbudiy nima sababdan Turkiston tarixi yaratilmagan, degan fikrni ilgari surmoqda?

Allomaning o'zi bunga quyidagicha izoh beradi: "Chunki hanuz Turkiston tarixi haqida yangi tadqiqot ila yozilgan, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg'a kelgani yo'q. To'g'risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o'g'lonlaridan hanuz maydonga chiqg'oni yo'qki, bu esa turk bolalarining noxalaf bo'lub, chin o'g'ul emasliklarig'a dalildur. Bu so'zlardan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor".

Demak, Behbudiy zamon talablari darajasida, "yangi tadqiqot ila yozilgan", mukammal "Turkiston tarixi"ni orzu qilmoqda. Uning fikricha, ruslar va boshqa ovrupoyilar foydalanayotgan Turkiston tarixiga bag'ishlab burungi asrlarda yozilgan turkiy, forsiy va arabiy tillardagi kitoblar "muxtaliif tillarda yozilgan". Ya'ni ularda bir hodisa turlicha talqin etilgan, bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar ko'p. Behbudiy ana shu farqli jihatlar tadqiq etilgan mukammal tarixni yaratish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda.

Bu juda dolzarb muammo edi. Binobarin, Behbudiyning fikricha, haqqoniy tarixdan xabardor bo'lmagan turib, hech bir millat o'z ahvolini tahqiq eta olmaydi. O'z tarixidan g'ofil va bexabar millat esa taraqqiyotdan ortda qolishi aniq.

Afsuski, Behbudiyning bu orzusi amalga oshmay qoldi. Millatning fidoyi farzandlari qatori allomaning o'zini-da mahv etgan totalitar tuzum millatni tarixidan, ajdodlari kechmishidan imkoni boricha uzoqlashtirish siyosatini olib bordi.

Mustabid Chor Rossiyasi, undan keyin sho'ro istibdodi hukm surgan murakkab va ziddiyatli bir davrda milliy axloqni saqlash masalasi kun tartibida turgan dolzarb masalalardan edi. Jadidlar milliy axloqni milliyatning asosi deb bildilar. "Taraqqiy" gazetasining 16-sonida Rossiyaning arkonib davlatlari bo'lgan ma'murlar (amaldorlar) to'g'risida maqola chop etilgan. Maqolada buzuvchi axloqni Turkistonda ana shular joriy etgani ta'kidlanadi: "Jami axloqi fosida (buzuvchi axloq)ni bular nashr etdilar... Zulm qilmoq, fuqaroning huquqini toptamoq, ilm-fanga sad tortmoq, muxtalif millatlar orasiga adovat solmoq kabi "asbobi madaniyat" bo'lg'on hunarlarga ham mahorat kasb etdilar... Sulh va do'stlik uzra yashamoqqa oncha ma'murlar yo'l bermayurlar. Jam'iyatdan ba'zi bir zotlar mazkur marizlarga iloj qilmoqqa kirishsalar ham, bu muqaddas ishga kirishmamlari ila barobar, jam'iyatning ko'zidan g'oyib bo'lurlar... Bularni qilg'on ishlarini mulohazaga olinsa, ularni vijjonsizlik, insoniyatsizlik ila hukm qilmoqqa, alarga byuroqrot... nomini bermoqqa majbur etadur".

Cho'lpon "Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914 yil 6 iyun sonida bosilgan "Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar" maqolasida mana bunday yozadi: "Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidin, shishasidan, buzuvchi axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'ingiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuvchi axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!

Ovro'poning maktab, madrasa, ilm-fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat- qullikdin qutulturadur. Birodarlar, ko'zlaringizni ochib, yaxshi o'ylanglar!" [9, 26-b].

Rus akademigi V.V.Bartoldning yozishicha: "Erli aholi ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o'rganishi natijasida rus hayotining asosan tashqi, salbiy tomonlarini o'zlashtirdilar. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga o'rgandilar. Hatto ulamolar, din ahlari ham shunday yaramas hayot kechira boshladilar" [2, 345-b].

Jadidlar ana shu axloqiy tanazzulning oldini olishga jiddu jahd qildilar. Afsuski, o'sha zamondagi tarixiy vaziyat bunga yo'l bermadi. Biroq ma'rifatparvar jadidlarning millat va milliyat borasida urgan bonglari fikri ochiq ziyolilarimizni hanuz ogohlikka, Vatan va millat taraqqiysi yo'lida birdamlikka da'vat etib kelayotir.

Adabiyotlar:

1. Ализода Саидризо. Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар. //Ойна, 1914, 11-сон.
2. Бехбудий, Махмудхўжа. Тил масаласи. //Ойна, 1915, 11-12-сонлар.
3. Бартольд В.В. Сочинения. II том (часть I), Издательство восточной литературы, М., 1963.
4. Гаспринский, Исмоилбек. Дору-р-роҳат мусулмонлари. / Ҳаёт ва мамот масаласи (Таржимон, тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Бегали Қосимов, Зайнобидин Абдурашидов). – Тошкент: Маънавият, 2006.
5. Дўстқораев, Бойбўта. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009.
6. Зиё Саид, Танланган асарлар. – Тошкент, 1974.
7. Каримов, Наим. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.
8. Қосимов, Бегали. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
9. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда темир йўллар. // Садои Фарғона, 1914 йил 6 июнь, № 26

JADID ESTETIKASINING SHAKLLANISHI

**Uzoq Jo'raqulov,
O'zbekiston, TDO'TAU, f.f.d., prof.**

Annotatsiya: Tadqiqotda o'zbek jadid estetikasining shakllanish omillari xususida so'z yuritiladi. Yangi estetikani shakllantirgan madaniy-tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy, badiiy-estetik omillarga diqqat qaratiladi. Jadid mutafakkirlari qalamiga mansub ilmiy-adabiy asarlar ayni faktorlar asosida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: Estetika, etika, adabiyotshunoslik, badiiyat, janr, syujet, she'riy shakl, epik asarlar, dramaturgiya, teatr, dramatik janrlar, muallif, mualliflik, ramz, timsol.

XX asrning birinchi choragida Turkistonda yangi estetika shakllandi. Buning qator obyektiv va subyektiv omillari bor, albatta. Avvalo shuni aytish joizki, Turkiston xalqi yangi asrga mustamlaka o'laroq qadam qo'ydi. Mustamlakachilik siyosati bir tomondan millatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga g'ov bo'lgan bo'lsa, boshqa yoqdan uning bu yo'lda yangi imkoniyatlar izlashiga, uyg'onishiga zamin hozirladi. Ixtiyorsiz ravishda Turkistonni G'arb sivilizatsiyasi bilan bog'lab turuvchi tranzistor vazifasini o'tadi. Ikkinchidan, chor hukumati va uning tasarrufida bo'lgan mustamlaka millatlar madaniy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar Turkiston xalqlari ijtimoiy-madaniy tafakkur tarziga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Uchinchidan, mustamlaka miqyosida sodir bo'lgan favqulodda hodisalar (turli xarakterdagi urushlar, isyonlar, inqiloblar) millat ongida o'z muhrini qoldirdi. To'rtinchidan, dunyo xalqlari bilan bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar ham beiz ketmadi. Beshinchi va, eng asosiy omil shuki, Turkiston xalqi bir paytlar dunyo tan olgan Sharq sivilizatsiyasining vorisi edi. Ushbu xalq bu davrga kelib, o'zining qadim an'alarini muayyan darajada yo'qotayozgan bo'lsa-da, ma'naviy qadriyatlar va genetik nuqtai nazardan bunday vorisiylik tabiiy, qonuniy asosga ega edi.

Demak, XX asr boshlari Turkistonda yangi estetika yuzaga kelishi haqida fikr yuritganda, ushbu o'zaro bog'liq besh omilni hisobga olish joiz. Ularning qay biri samaraliroq, ahamiyatliroq, degan masala esa bevosita bu davr ilmiy-adabiy muhiti tadqiqi jarayonida ko'rinadi.

Yangi estetikaning shakllanishi tom ma'noda dialektik qonuniyat asosida bo'ldi. Shakllanish jarayonida sanaganimiz omillar ba'zan fikrlar xilma-xilligi, ba'zida ziddiyatli bahslar tusini oldi. Xususan, adabiy an'analarning siyqa takrori, yangi badiiy kashfiyotlar qilish salohiyatidan yiroqlashish, estetik tafakkurda ko'ringan turg'un holat, deb baholana boshladi. Shu o'rinda sharqshunos A.N.Samoylovichning 1908 yili Xiva adabiy muhiti bilan yaqindan tanishuvi natijasida kelgan xulosalari e'tiborimizni tortadi: "Ahmad Tabib va boshqa xevaliklarning, umuman O'rta Osiyoliklarning, - deb yozadi olim, Chig'atoy adabiyoti oltin asrining she'riy asarlarini chindan ham ko'r-ko'rona, rangsiz va jonsiz takror etuvchi hozirgi O'rta Osiyo turkiy she'riyatiga noxush munosabatlarida mutaassib O'rta Osiyo va boshqa musulmon-turkiy mamlakatlar va oblastlarda bo'lgani kabi yangi davrning boshlanishidan bir nishona ko'raman".

Professor Begali Qosimov shoir va dramaturg Ibrohim Davronning "Adabiyotimiz va shoirlarimiz" (TVG, 1909, 47-son.) nomli maqolasini yangi estetik qarashlar nuqtai nazaridan tekshirar ekan, shunday xulosaga keladi: "Muallif (I. Davron – U. J.) shoirning ijtimoiy tushunchasini, davr ehtiyojlarini his etish va qondira olish darajasini iqtidor mezoni qilib olmoqda" [21, 92-b]. Shunga yaqin qarashni biz Hoji Mu'inda ham uchratamiz: Professor Begali Qosimov shoir va dramaturg Ibrohim Davronning "Adabiyotimiz va shoirlarimiz" (TVG, 1909, 47-son.) nomli maqolasini yangi estetik qarashlar nuqtai nazaridan tekshirar ekan, shunday xulosaga keladi: "Muallif (I. Davron – U. J.) shoirning ijtimoiy tushunchasini, davr ehtiyojlarini his etish va qondira olish darajasini iqtidor mezoni qilib olmoqda".

Guftan az she'r naguftan a'lo,

Maqsud az she'r biboshad ma'no...

(Ya'ni she'r aytishdan maqsad, mazmun-ma'no bo'lmas ekan, uning aytilganidan aytilmagani yaxshi.) [21b]. Cho'lponning "Adabiyot nadir?" deb nomlangan maqolasida:

“Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotining taraqqiysig‘a chalishmag‘on va adiblar yetishtirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum o‘lub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”, degan jummalarni o‘qiymiz. [18].

Ko‘rinadiki, mavjud estetik qarashlardan qoniqmaslik (Ahmad Tabibiy) badiiy asarda davr muammolarini ko‘rish istagi (I.Davron), badiiy asar qimmatini yangi mazmunda deb bilish (H.Mu‘in), adabiyot ravnaqini jamiyat, millat taraqqiyoti bilan bir butunlikda talqin etish (Cho‘lpon) yangi estetikaning ilk bosqichi uchun xos xususiyat bo‘lgan. Qisqa fursatda bunday qarashlar estetik bahs tusini oldi. Matbuot bahs maydoniga aylandi.

Mirmuhsin Shermuhammedovning “Shoir janoblarga iltimos” maqolasi o‘sha davr adabiy tafakkurida ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlardan dalolat edi. Maqolada zamondosh shoirlar ijod etayotgan asarlar g‘oyaviy-tematik jihatdan ikkiga ajratiladi: ishqiy she‘rlar, milliy she‘rlar. Muallif ishqiy she‘rlar deganda, asosan, an‘anaviy she‘rlarni nazarda tutadi. An‘anaviy shaklning ko‘r-ko‘rona takroriga, xususan, muvashshaxchilikka qarshi chiqadi. Milliy o‘laroq zamonaviy mazmun va shaklga ega bo‘lgan asarlar yozilishi, ularda millatning orzu-armonlari aks ettirilishi, har qanday badiiy asar millat taraqqiysiga xizmat qilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Tatar zamonaviy she‘riyati, jumladan Abdulla To‘qay ijodini ibrat qilib ko‘rsatadi [15].

Mirmuhsinga javoban Vasliy Samarqandiy “She‘r va ilmi balog‘at” nomli maqola bilan chiqadi [11]. Sharq adabiyotshunosligida “ilmi balog‘at” va “muhassinoti lafziya” kabi istilohlar she‘rning mazmun-mohiyati, shoirning ifoda yo‘sinidagi noziklik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Bu ilmlar turkiy she‘riyatda ham (Navoiy, Bobur, Furqat kabilar ijodida) o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan, Vasliy kabi davrning an‘anaviy shoirlari esa bu ilmni mukammal egallagan edilar. Biroq keyingi davrlarda ilmi balog‘at ba‘zan o‘ta jo‘n, hatto bir yoqlama talqin etilardiki, Mirmuhsin aynan shunday jihatlarni tanqid etgan edi. Ikkinchidan, u milliy she‘rlar deganda yangi zamon she‘riyatining xalqchillashuvini nazarda tutgan, an‘anaviy ilmi badi‘ ruhida shakllangan Vasliyning yangi estetik prinsiplarni (bunday qarashlar Vasliygacha tanqid ruhida yetib kelganini hisobga olganda) birdan qabul qila olmasligi tabiiy edi. Shu sabab bo‘lsa kerak, u Mirmuhsinga nisbatan “ilmsiz”, “ilmi balog‘at”, “muhassinoti lafziya”dan bexabar, degan so‘zlarni qo‘llaydi.

Vasliy maqolasi munosabati bilan qilgan chiqishida Mirmuhsinning she‘r va shoir haqidagi qarashlari ijtimoiy-estetik tezis shaklini olgan. U qat‘iy suratda “shoir zamonaning lisoni” bo‘lishini, o‘z asarlari bilan milliy tafakkur rivojiga xizmat qilishi lozimligini aytadi [19].

Professor B. Qosimov Mirmuhsinning bunday xulosaga kelishida turk adibi Tavfiq Fikratning ta‘siri borligini yozadi [21, 97].

Umuman, bunday bahslarning 1915-16 yillarda “Oyna”, “Al-isloh” jurnallari sahifalarida ham davom etgani ma‘lum.

Abdulla Avloniyning mashhur “Gapurmanglar” radifli she‘rini ham ma‘lum ma‘noda o‘z zamondosh shoirlariga murojaati, joriy adabiy qarashlar bilan bahsi deyish mumkin. Quyidagi misralarda adibning mavjud estetik tamoyillardan qoniqmayotganligi yaqqol aks etgan:

Siza arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,

Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar!..

She‘rning so‘nggi baytida yangi estetik qarashning uchqunlarini ko‘ramiz. Xususan, u:

Keling, emdi yozayluk, so‘zlashayluk kamchiliklardan,

Yetar Hijronlig‘ emdi, jomi ishratdan gapurmanglar!.. [1, 149-150].

deb yozar ekan, aynan millatning ma‘naviy, iqtisodiy turmushidagi “kamchiliklar”ni ko‘zda tutadi. Bunday fikrlari bilan A.Tabibiy, I.Davron, M.Fikriy, H.Mu‘in, A.Cho‘lpon qarashlarini tasdiqlaydi.

Davrining yetuk shoirlaridan bo‘lgan Anbar Otin bir g‘azalida:

Shoir ersang, vaqti-vaqti birla mushoira qil,

Ul Haziniy to‘dasig‘a kiribon munozara qil...

deb yozgan, biroq munozaraning maqsadi borasida ma‘lum ishoralar bilan cheklangan edi. Asosiy maqsad shoironing boshqa bir she‘rida ochiq-oydin ifoda topgan. Mazkur g‘azal

davrining ilg'or shoiri: diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-ma'rifiy mavzularda qalam tebratgan Karimbek Kamiyga murojaat tarzida yozilgan.

Ey, Kamiy shoirlik ichra muncha qilmang lof-qof,
Muhyidek muncha uzoqqa ketdingiz to Ko'hi qof?
Ul Haziniy payravi bo'lmoq ila topmas nazar,
Shoir o'lmoqdan umidi bo'lsa qilmas hech lof.

Ushbu misralar mazmunidan shoironing an'anaviy estetikadan ko'ngli to'lmayotgani, demakki o'zining muayyan qarashlarini o'rta tashlashga hozirlanayotgani anglashiladi. Keyingi misralarda ("She'r yozsangiz xaloyiq holidin mavzu eting, Avvalo o'ylang, el ichra zindagi qay xildadir") [20, 29]. shoironing estetik pozitsiyasi to'la namoyon bo'ladi. U xalq, millat hayotidan yozish, xalqning turmush tarzini yoritish zamonaviy shoirning vazifasi ekanini aytadi. Soddaroq shaklda bo'lsa-da, adabiyotning xalqchilligi, ifodada realistik yo'lni yoqlaydi. Ushbu olti baytli g'azalda Kamiy, Haziniy, Muhyi kabi shoirlarning ijodiy yo'lga nisbatan Anbar Otinning oppozitsiyasi ochiq ko'rinadi. Shoir o'zi bilan maslakdosh shoirlar sifatida Muqimiy, Zavqiy va Shavqiylarni tilga oladi. Bundan shakllanib kelayotgan yangi estetika bevosita an'anaviy estetikaning tarkibidan o'sib chiqqani anglashiladi. Negaki, shoir ajratib ko'rsatgan har ikki guruh vakillari ijodida vaqti-vaqti bilan an'anaviy estetika hamda yangi estetikaning sintezi ko'zga tashlanadi.

Masalan, Anbar Otin bevosita murojaat etgan Kamiy ijodida, hali XIX asrning 90-yillaridayoq yozilgan shunday misralar uchraydiki, uning mazmuniga e'tibor qilaylik:

O'qung ash'ori bikru fikrni aylang tasarrufkim,
Atorud tashlasun qo'ldan qalamni ko'kda hayratdin... [6, 18].

Ya'ni: shunday she'r o'qingki, undagi mazmun (fikr)ning zo'rligidan Atorud (qalamkashlarga homiy yulduz) hayratda qolsin va qo'lidagi qalamini tashlab yuborsin. Demak, shoir she'rdagi fikr (intellekt)ning ahamiyatini yuqori qo'ymoqda. She'rning ta'sir kuchini, badiiy yuksakligini mazmunda, deb ta'kidlamogda.

O'zbek adabiyotiga yangi adabiy tur va janrlarning kirib kelishi o'ziga xos estetik hodisa, millat tafakkuridagi ko'tarilish jarayoni desak, xato bo'lmaydi. Ma'lumki, 10-yillarda o'zbek adabiyoti yangi she'riy shakllar bilan bir qatorda, tamoman noan'anaviy bo'lgan nasriy va dramatik janrlar bilan ham boyidi. Jumladan, dramaturgiya qisqa fursat ichida ommalashib ketdi. Yangi janrlar tatbiqi bilan bog'liq ilk estetik bahslar ham aynan dramaturgiya borasida bo'ldi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr nadur?" nomli maqolasi drama asarlarini targ'ib etish yo'lidagi dastlabki jiddiy urinishlardan edi [2]. Maqola mohiyat e'tibori bilan ko'proq tanishtiruv, axborot, targ'ibot xarakterida. Chunki Behbudi o'z maqolasida, asosan, o'quvchi va dramatik asar, millat va teatr kabi masalalarga to'xtalgan. Mavjud jamiyatning intellektual darajasi, ma'naviy qadriyatlari, qiziqishlari, intilishlaridan kelib chiqib, ma'lum tushunchani izohlashga uringan. Biroq xuddi shu birlamchi tadqiqot o'ziga xos nazariy-estetik mohiyat ham kasb etadi. Muallif teatrni "ibratxona", "ta'ziri adabiy", "oyna" deb ta'riflar ekan, dramatik turning muayyan auditoriya vositasida rivojlanishi, ijtimoiy-estetik ahamiyati, hayotiy hodisalarni aks ettirish usuli kabi sof nazariy masalalar ham tabiiy talqinini topadi. Holaversa, Behbudi dramatik turning: tragediya, komediya, drama janrlari ustida muxtasar to'xtalib o'tadi. Bu janrlarga xos eng muhim xususiyatlarni ko'rsatishga harakat qiladi.

Behbudi qarashlarini axloqiy-estetik tamoyillar asosida tahlil qilish yo'lida Vasliy Samarqandiy "Shariati Islomiya" maqolasini yozgan [12]. Behbudi talqinlarining fiqhiy masalalar bilan naqadar mos kelishi borasida fikr yuritgan. Muammoni shariat mezoni asosida hal etishga uringan va asosiy masala borasida Behbudi dalil va mantiqqa ko'ra tanqid ostiga olgan. Inkori etgan. "Oyna" jurnalining 1915 yil 50-sonida Vasliyga javoban Behbudiyning "Teatr, musiqa, she'r" nomli maqolasi chop etilgan. Behbudi dastlabki maqolasida bildirgan fikr-qarashlarini endilikda she'riy, axloqiy, ijtimoiy jihatdan mukammallashtiradi. Millat, xususan, islom millati manfaatlaridan kelib chiqib tushuntiradi. Jadid estetikasining asoschilaridan biri sifatida teatrning millat tarbiyasidagi ahamiyati urg'u beradi.

Xullas, yangi estetikaning shakllanish bosqichidagi bahs-munozaralar adabiyotning mohiyati, millat, umuman, insoniyat hayotidagi o'zni, vazifasi, ijodkor shaxsiyati, dunyoqarashi, ijod qilishdan maqsadi; jumladan dramaturgiyaning o'ziga xosliklari, estetik qimmati, tarbiyaviy ahamiyati kabi muammolar atrofida kechdi. Bahsning tug'ilishi, borishi, ko'tarilgan muammolar tabiiy, aniqrog'i dialektik qonuniyat asosida bo'ldi. Natijada shakllanayotgan yangi estetik tafakkur millatning ijtimoiy turmushi, intellektual, ma'naviy taraqqiyoti bilan uyg'unlashib ketdi. Shu bilan birga, XX asr o'zbek estetik tafakkuri tarixida muhim bir bosqich bo'lib qoldi.

Akademik Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi» kitobida "adabiyot" so'zining "maxsus tor lug'aviy ma'nosini" belgilash yo'lidagi dastlabki urinish sifatida A. Avloniyning "Adabiyot. Milliy she'rlardan birinchi juz" (1909) asarini ko'rsatadi. 20-yillar adabiy jarayoni "adabiyot" terminini hayot tasdig'idan o'tkazgani... Ammo bu "adabiyot" terminini barqarorlashtirish jabhasidagi kurashning tamom bo'lganini ko'rsatmasligi»ni aytadi. Dalil qilib, "adabiyot" termini bilan "yozg'ich" so'zining parallel ishlatilganini ko'rsatadi [5, 8]. Ushbu fikrlarga shuni ilova qilish mumkinki, 10 yillarda Avloniyga zamondosh boshqa adiblar ijodida ham bu yo'lda ma'lum urinishlar bo'lgan. Masalan, Cho'lpon o'zining badiiy adabiyot haqidagi fikrlari tajassum topgan maqolalaridan birini "Adabiyot nadir?" deb nomlangan. Demak, adabiyot istilohini maxsus tor ma'noda qo'llagan. Ashurali Zohiriy "Ona tili" nomli maqolasida ("Sadoyi Farg'ona". 1914, 13 aprel) "... kitob, risola, gazeta, jurnal va boshqalarga bir so'z bilan "adabiyot (litrotur) deyiladi", deb yozadi. Bu bilan istilohning tor va keng ma'nolarini bir butunlikda talqin etadi. Fitrat "She'r va shoirlig" maqolasida "...adabiyotdagi eng katta hunarimiz bo'lg'on taqlidchilikdan turk she'ri boshini saqlamoq lozim", deb yozganida, shubhasiz, adabiyot istilohini maxsus ma'nosida qo'llagan [16]. Demak, 20-yillarda tom ma'noda adabiyotning tor lug'aviy ma'nosi belgilandi deyishimiz uchun yetarli asoslar bor. Negaki, bu davrga kelib, turli yo'nalishdagi ilmiy-adabiy tadqiqotlarda istilohni maxsus ma'noda qo'llash rasmga kirgan. Dalil tariqasida ushbu muxtasar tasnifni keltirish mumkin:

A) adabiyot tarixi va adabiy jarayon haqidagi maqolalarda (Sa'diy A. "Oktabr o'zgarishi va o'zbek adabiyoti" 1921, "Go'zal san'at dunyosida" 1922, "Chig'atoy va o'zbek adabiyoti ham shoirlari" 1922; Noma'lum muallif: "Jadidchilik davriga bir qarash" 1923 ("Turkiston gazetasi"); Mahmud V. "Navoiygacha turk adabiyoti" 1926; Sharafiddin O. "Adabiyot to'g'risida xato bir nazar" 1925; Fitrat A. "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash" 1929, "Chig'atoy adabiyoti" 1929 va h.k.;

B) adabiy merosga doir majmualarda, adabiyot tarixini davrlashtirishda Ayniy S. "Namunahoi adabiyoti to'chik" 1926; Fitrat. "Eng eski turk adabiyoti namunalari" 1927, "O'zbek adabiyoti namunalari" 1928 va h. k.;

V) nazariy yo'nalishdagi maqola va risolalarda Sa'diy A. "Adabiy ham nazariy adabiyot darslari" 1923; Mahmud V. "Navoiygacha turk adabiyoti" 1926; Fitrat A. "Adabiyot qoidalari" 1926; Hoshim O. "Proletariat va Chig'atoy adabiyoti" 1928, "Adabiy meros va Chig'atoy adabiyoti" 1929 va h. k.

Demak, 10-20-yillarda, ba'zi istisnoli jihatlaridan qat'i nazar, adabiyot istilohining tor lug'aviy ma'nosi belgilangan. Adabiyot tarixi, adabiy jarayon va adabiyot nazariyasiga oid ishlarda maxsus ma'noda qo'llanilgan. Adabiy meros namunalari adabiyot nomi ostida chop etilgan va ilmiy asosda davrlashtirilgan.

1913 yilda Behbudiyning "Padarkush" pyesasi nashr etilgan, 1914 yilning 27 fevralida "Turon" truppassi tomonidan sahnalashtirilgan. Shu munosabat bilan "Oyna" jurnalining 14-sonida "Turkistonda birinchi milliy teatr" sarlavhali ilk teatr taqriziga duch kelamiz. Mazkur teatr taqrizi aktyorlar mahorati, pyesaga tamoshabinlarning munosabati haqidagi fikrlardan va asar syujetining jo'nroq takroridan iborat. Biroq taqrizning birinchi parda haqidagi bo'limida muallifning (muallifning kimligi noma'lum) shunday xulosasi bor: "Bu pardaning natijasi kulgu va ibrat, hatto ma'naviy yig'lamoq". Ushbu maqola va uning muxtasar xulosasidan teatr san'ati, xususan, dramaturgiyaning ta'sir doirasi, undagi uch muhim jihat haqidagi fikrlar anglashiladi. Birinchidan, pyesa voqealari bevosita auditoriya (tomoshabin) hayotidan olib yozilgani; "kulgu"dan murod adabiyotning kuchi tufayli tomoshabin (jamiyat) o'z-o'zidan kulishi.

Ikkinchidan, kulgi asnosida undan ibratlanishi. Uchinchidan, pyesa ta'sirida iztirobga tushishi, o'z holiga o'zi "ma'naviy yig'ilishi", ilmiy termin bilan aytganda, katarsis holatining ro'y berishi. Xullas, birinchi milliy pyesaning sahnalashtirilishi munosabati bilan yozilgan, yuzaki qarashda o'ta ibtidoiydek tasavvur beradigan mazkur teatr taqrizida dramaga xos ba'zi nazariy jihatlar yoritilgani ma'lum bo'ladi.

Adabiyotshunos Sh.Rizayevning aniqlashicha, 1911-16 yillar oralig'ida o'ttizdan ortiq milliy pyesalar yozilgan [10, 128-129]. 10-20-yillar matbuotidan bizga ma'lumki, chop etilgan, sahnalashtirilgan har bir pyesa xususida maxsus chiqishlar bo'lgan. Bu yo'lda birgina Ashurali Zohiriyning "Tomoshabin" taxallusi bilan o'nlab taqrizlar yozgani yoki Mirmulla Shermuhammedovning "Ishtirokiyun" gazetasi sahifalarida" yigirmaga yaqin taqrizlari e'lon etilgani haqida mutaxassislar ma'lumot beradilar [3]. Xuddi shu yillarda Fitrat pyesalari munosabati bilan o'ttizga yaqin teatr taqrizlarining yozilgani bizga ma'lum.

Demak, drama janrining adabiyotga hamda jamiyat hayotiga kirib kelishi ilmiy-adabiy muhitni o'ta jonlantirib yuborgan. Estetik tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Bu nimalarda ko'rinadi: birinchidan, garchi teatr taqrizlarida muayyan pyesaning sahna varianti xususida so'z ketsa ham, asar tili, g'oyasi, syujeti, qahramonlari, voqelikning (aktyor tomonidan) talqini, pyesa va tomoshabin masalalariga e'tibor qaratilgan. Ya'ni sahna asarlariga faqat millat hayotidagi yangi madaniy hodisa deb emas, balki adabiyotdagi yangi estetik jarayon sifatida ham yondashilgan. Bunday xususiyatlar, ayniqsa, A.Fitrat, V.Mahmud, A.Cho'lponlar yozgan taqrizlarda yaqqol ko'rinadi. Ikkinchidan, taqrizchilik, keyingi bosqichlarida, biror pyesaning yaxlit tadqiqotiga aylangan. Buning natijasida adabiy-nazariy tahlil prinsiplari shakllana borgan.

V. Mahmudning "Hind ixtilolchilari" (Fitrat asariga bag'ishlangan) maqolasi shunday ishlar sirasiga kiradi[7]. Kuzatishlar mazkur maqola quyidagi xususiyatlari bilan teatr taqrizlaridan farq qilishini ko'rsatadi:

A) teatr taqrizlaridagi kabi tadqiqot obyekti qilib pyesaning sahna varianti emas, balki asl matn olinishi;

B) pyesa mohiyatini ochishda badiiy tahlilning yetakchiligi;

V) asar qahramonlari aktyorlar talqinida emas, aynan muallif talqinida o'rganilishi;

G) pyesaga badiiy hodisa sifatida qaralishi va h. k.

V. Mahmud maqolasining o'ziga xosligi quyidagilarda ko'rinadi:

1. "Hind ixtilolchilari" (umuman drama asari) o'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk bor "uch birlik" qonuniyati asosida tekshirilgan.

2. Pyesadagi qahramonlar dunyosi hayotiy va badiiy mantiq sintezi asosida kuzatilgan.

3. Muallif va qahramon munosabati falsafiy dunyoqarash va badiiy nutq muammosi yuzasidan o'rganilgan.

4. Asarning tili va uslubiga e'tibor qaratilgan.

Ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarning hammasi ham maqolada mukammal aks etgan deb bo'lmaydi. Ularning biri yaqqolroq ko'zga tashlansa, boshqasi faqat element tarzida namoyon bo'ladi. Ba'zi o'rinlarda muallifning tahlil usulida jo'nlashish holatlari seziladi. Ammo, bundan qat'i nazar, ushbu tadqiqot 20-yillar o'zbek milliy estetik tafakkuridagi muayyan siljishdan dalolat beradi.

20-yillarning o'rtalariga kelib, ma'lum adib ijodi yoki biror davr adabiyotining ijtimoiy-estetik jihatdan o'rganishga intilish kuchaygan. Hatto 10-yillardayoq bunday xarakterdagi chiqishlar boshlangani ma'lum (mas., M. Shermuhammedovning "Shoir janoblarga iltimos", Rasuliyning "Shoir va milliy she'rlarimiz", Ibrohim Davronning "Ishoqxon Ibrat" maqolalari). Biroq ularda ko'proq tanishtiruv, targ'ib, ijtimoiy tanqid ruhi yetakchilik qilgan. Biz nazarda tutayotgan maqolalarda esa ilmiy-nazariy talqin bosh planga chiqadi.

"Turkiston" gazetasining 1923 yil 29 avgust sonida chop etilgan "Jadidchilik davriga bir qarash" maqolasi shunday tadqiqotlardan biridir. Maqolada jadidchilik harakatining maydonga kelish davri, ijtimoiy mohiyati, ba'zi vakillari va eng muhimi jadid adabiyotiga xos tamoyillar haqida gap ketadi. To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), A. Avloniy kabi jadid shoirlari ijodidan namunalar keltiriladi. Ushbu namunalar misolida jadid adabiyotining an'anaviy adabiyotdan

farqli tomonlarini ko'rsatishga harakat qilingan. Demak, 20-yillarning boshlariga kelib, yangi estetikaning shakllanish jarayoni nihoyalana boshlagan. Natijada uni ilmiy-nazariy nuqtai nazardan baholash uchun sharoit yetilgan.

V. Mahmudning "Turk shoiri Ajziy" maqolasi ham yuqoridagi xulosalarimiz tasdig'iga xizmat qiladi.¹⁹ Bir qarashda maqola adabiy portret yo'nalishida yozilgandek tasavvur beradi. V. Mahmud ijodini o'rgangan B. Karimov ham mazkur maqolani aynan "adabiy portret" ("Jadid munaqqidi Vadud Mahmud". – T.: Universitet, 2000.), deb beradi. Bunga ma'lum asos ham bor, albatta. Biroq maqolani, umuman yangi davr estetik tafakkuri nuqtai nazaridan kuzatganimizda, Ajziyning bir vosita, asosiy maqsad esa jadid estetikasining yetakchi prinsiplarini belgilash ekani ma'lum bo'ladi. Vosita bo'lib aynan Siddiqiy-Ajziy xizmat qilgani ham tasodif emas. Chunki u jadid adabiyotining tipik vakillaridan, V. Mahmud ta'biri bilan aytganda, "jadid bo'lish ila eski (an'anaviy ma'nosida – U. J.) she'rlarini yirtib, yondirub tashlag'on" adiblardan edi.

Maqolada estetik idealni belgilovchi mezon qilib sharqona "ishq" istilohi olingan. V. Mahmud: "Ajziyning ishq" deganda aynan uning adabiy-estetik qarashlarini, shu bilan birga, jadid adabiyotiga xos estetik tamoyillarni nazarda tutganiga shubha yo'q. U e'tibor qaratgan birinchi masala an'anaviy estetika bilan yangi estetika orasidagi nozik farqlanishlarni nazariy asoslab berishdan iborat edi. An'anaviy Sharq estetikasida ishqning asosan, ikki ko'rinishi farqlanadi. Bular: ishq majoziy, ishq haqiqiy. V. Mahmud ishq istilohini estetik prinsip sifatida talqin etar ekan shunday yozadi: "Buning ishq (Ajziy nazarda tutiladi – U. J.) na u tasavvuf ishqidur, na realist shoirning zohiriy ishqidur. Shoirimiz oshiqdur, ma'shuqa esa xalqdur, millatdur" [9, 76-85].

V. Mahmud jadid adabiyotiga xos estetik prinsiplarni Ajziy she'riyatidagi obraz va timsollarning ichki funksional o'zgarishi misolida ko'rsatadi. Ya'ni an'anaviy oshiq yor vasliga intizor bo'lsa, Ajziy o'z intizorligini shunday izhor etgan:

Vatan xarobasi istilohina intizoridayam,

Bu intizorima bir intizordur bois...

Na o'ldi millat o'lub e'tibordir mahrum,

Bu yo'lda maslaki bee'tibordur bois [9, 79].

Shu tariqa an'anaviy oshiq – ma'shuqa, do'st – ag'yor, hajr – visol, soqiy – may kabi poetik obraz va timsollar jadidona, yangi ijtimoiy talqin topadi.

V. Mahmudning fikricha, ijtimoiy tafakkur estetik tafakkur bilan aynan bir narsa emas. Balki ijtimoiy tafakkur estetik tafakkur takomili jarayonidagi bir bosqich xolos. Maqolaning ikkinchi bo'limi "Ajziyning ijtimoiy fikri", deb nomlanishi ham shundan darak berib turibdi. Muallif ajziylar ijtimoiy tafakkuridagi o'zgarishlarga bosh sabab qilib, rus istilosini ko'rsatadi. Adabiy manbalar va bevosita o'zi kuzatgan real voqelik misolida jadid estetikasiga xos ikki bosqichni farqlaydi. Birinchi bosqich ma'rifatchilik, ikkinchi bosqich ijtimoiy-siyosiy bosqich. Jadid adabiyotining yirik tadqiqotchisi B. Qosimov xulosalari bilan yuqoridagi fikrlar deyarli farq qilmaydi. "Turkistonni savodli va ma'rifatli, to'q va farovon, ozod va obod vatanga aylantirish, - yozadi B. Qosimov, - birinchi navbatda mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo'lish, jadidchilik harakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi" [22, 22].

Estetik hoisalarni davr, ijodkor, adabiy oqimlar, ijtimoiy harakat nuqtai nazaridan o'rganish tamoyili 20-yillarda yozilgan boshqa ko'plab tadqiqotlarda ham ko'zga tashlanadi. A. Fitratning "Ahmad Yassaviy. Yassaviy maktabi shoirlari", A. Sa'diyning "Imom G'azzoliy", V. Mahmudning "Fuzuliy Bog'dodiy", Tursunqul (Rahim Hoshim)ning "Sidqiy to'g'risida mulohazalarim" kabi maqolalari shu jumlagi kiradi. Ma'lum bo'ladiki, 20-yillarning o'rtalaridan boshlab, adabiy nazariy tafakkur (10-yillardagiga nisbatan) teranlashgan. Talqinlarda ilmiylik, manba tanlashda kenglik, serqirralik yetakchi tamoyilga aylangan.

Yangi estetikaning yana bir muhim qirradi 20-yillar ilmiy-adabiy jarayonida kechgan bahs va munozaralarda ko'rinadi.

20-yillarda A. Sa'diyning "O'zbek yosh shoirlari" nomli maqolasi e'lon etilgan. Maqolaning birinchi qismi Fitrat ijodiga (qisman Avloniyga), ikkinchi qismi Cho'lpon ijodiga [4] bag'ishlangan. Muallif ushbu shoirlar ijodini badiiy-estetik nuqtai nazardan talqin etishga

urinadi. Xususan, Cho‘lponning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi, uslubi, badiiy mahorati kabi masalalarga asosiy e‘tiborini qaratadi. Garchi biroz publitsistik ruhda bo‘lsa-da, xolis baholaydi. Masalan, shoirning uslubi haqida shunday yozadi: “Uslubi ham umuman iqtisodlik bir uslubdir. Fikr va uslubda ohang jihatidan ham yosh o‘zbek shoirlari ichida bu shoir eng ustki o‘rinni hozircha boshqalarga bermaydir Uning fikrlari quyuq, tig‘iz, o‘xshatish va istioralari, kinoyalari yangi, ham o‘zichadir. So‘rog‘ xitoblari va she‘riy sifatlari ham o‘tkir, keskin bo‘lib chiqadir”. Shu o‘rinda Cho‘lponning so‘z qo‘llashi, badiiy mahoratiga doir ba‘zi tanqidiy fikrlarni ham bildiradi. Adabiy ta’sir borasida shunday fikrlarni aytadi: “Garchi ruh va ohang e‘tibori bilan usmonlilar ta’siri ostida bo‘lsa ham, uning o‘ziga xos tili – uslubi bor”.

Umuman, ma’lum ijodkor asariga ilmiy-nazariy mezonlar asosida yondashish, g‘oya va badiiyat jihatlarini bir nuqtaga olib tekshirishga urinish, bu yillar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun yangilik hisoblanadi. Bunday maqolalardan yana biri “Cho‘lponning “Buloqlar”i” nomli maqoladir [14].

Maqola muallifi V.Mahmud Cho‘lpon she‘riyatining milliy ruhi, zamonaviyligini yuqori bahlaydi. “Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir, shuning uchun o‘zbek elining bugungi ruhiy holi, sezgisi “Buloqlar”da qaynaydir, o‘zbek tili, o‘zbek ohangi “Buloqlar”da sayraydir”, deb yozadi bu haqda muallif. Shu yillarda yozilgan boshqa bir maqolasida V.Mahmud zamondosh shoirlarining e‘tiborsiz jihatlarini deb quyidagilarni ko‘rsatadi: “Ularning mavzulari bilan olg‘on shakllari, qabul qilg‘on vazn va ohanglari, so‘z tuzilishlarining aloqasi yo‘q hukmidadir. Bu robitalarni eski she‘rga usta Fitrat va yangi she‘rimizning birinchi namoyandasi Cho‘lponning oz-moz rioya qilganini ko‘ramiz” [8]. V.Mahmud fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, bu davrda adabiyotda millat ijtimoiy hayotining real badiiy talqini, milliy ruh ustivorligi masalasi estetik ehtiyoj darajasiga yetgan. Shakl va mazmun birligi muammolari ko‘tarilgan.

A.Sa‘diy “O‘zbek yosh shoirlari” maqolasining birinchi qismida Fitrat va Avloniy ijodiga xos ba‘zi jihatlarini tanqid ostiga oladi. Maqolaning umumiy ruhidan tanqidga sabab, ushbu adiblar ijodidagi deklorativlik, badiiy asarning didaktik (Avloniy) yoki intellektual (Fitrat) asosga qurilganligi, ularda ijtimoiy mavzuning yetakchi bo‘lganligi anglashiladi. Sa‘diy bu o‘rinda Fitrat va Avloniy asarlariga nisbatan sof san‘at talabini qo‘yadi. Uning Avloniy ijodi to‘g‘risidagi fikri bunga dalil: “Uning tizimlaridan siz qancha she‘r izlasangiz, shuncha fikr ham va‘zga uchraysiz. Undan hamon bol o‘rniga qora non yeyarsiz” [13].

V.Mahmud Sa‘diyning shu kabi fikrlarini inkor etib, shoirning ijodi haqida gapirganda, u yashagan davr “ijtimoiy va iqtisodiy hayotini” nazarda tutish lozimligini aytadi. Uni Avloniy va Fitratlar she‘riyati mohiyatiga chuqur kira olmaslikda ayblaydi [17].

A.Sa‘diy va V.Mahmud o‘rtasidagi bahslar shu bilan tugamagan, keyinchalik ham davom etgan. Masalan, Sa‘diyning Alisher Navoiy haqida yozilgan “Adabiy tarixiy savodsizlikka qarshi” maqolasiga javob tarzida yozilgan V.Mahmudni “Sa‘diyning savodi” maqolasi bunga dalil. Ushbu bahslarda bir qadar jo‘nlik, etikaga rioya qilmaslik hollari ko‘rinishidan qat’i nazar, ular mohiyatan sof adabiy-estetik bahslar edi. Asosiysi adabiy jarayon bilan bog‘liq bunday munozarali chiqishlar muhim ilmiy izlanishlar, adabiyot nazariyasiga doir darslik va qo‘llanmalarining yuzaga kelishi uchun zamin hozirladi.

Umuman, yangi milliy estetikaning shakllanishi, an‘anaviy estetika va jadid adabiyoti poetikasiga doir nazariy tamoyillarni belgilash yo‘lidagi jiddiy harakatlar o‘tgan asrning 10-yillaridan boshlanib 20-yillarning oxiriga qadar izchil va qizg‘in davom etdi. Milliy ziyolilar, adabiyotshunoslar, ijodkorlarning birortasi bu dolzarb muammoga befarq qaramadilar. Adabiyot taraqqiyotining milliy ma’naviyat rivoji, yangi adabiyot tashakkuli uchun muhim ekaniga urg‘u berdilar. Sof badiiy materiallar asosida bahs-munozara, tahlil va mushohada yuritishar ekan, yangi estetikaning fundamental asoslarini belgilashga urindilar. Ayni muammoni davr, ijtimoiy muhit, ilmiy-nazariy potentsiallari doirasida hal etishga erishdilar.

Adabiyotlar:

1. Авлоний А. Икки жилдлик, I-жилд, - Т.: Маънавият, 1998.
2. Бехбудий М. Театру надур [\Ойна](#) журналы, 1914, 29-сон.

3. Болтабоев Х. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Ф, ф.д.дисс. автореф.-Т., 1996.
4. “Зарафшон” газ., 1924, 25 февраль.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
6. Камий. “Дилни обод айлангиз...” Нашрга тайёрловчи Олим Олтинбек. – Т.: Маънавият, 1998.
7. Маҳмуд В. “Ҳинд ихтилолчилари” [\Туркистон](#) газетаси, 1923, 21 октябрь.
8. Маҳмуд В. Бу кунги шеърларимиз ва санъаткорларимиз\ Маориф ва ўқитғучи, 1925, 5-6, 7-8-сон.
9. Миллий уйғониш даври ўзбек филологияси масалалари. – Т.: Университет, 1993.
10. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997.
11. “Садойи Фарғона” газ., 1914, 68-сон.
12. “Садойи Фарғона” газ., 1914, 83-сон.
13. Саъдий А. Ўзбек ёш шоирлари [\Туркистон](#) газетаси, 1923, 10 декабрь.
14. “Туркистон” газ., 1923, 10 декабрь.
15. ТВГ газ., 1914, 72-сон.
16. Фитрат А. Шеър ва шоирлик // Иштирокиюн газетаси, 1919, 25 июль.
17. Маҳмуд В. Адабий танқидга бир назар //Туркистон газетаси, 1924, 22 январь.
18. Чўлпон А.Адабиёт надир? //Садойи Туркистон газетаси, 1914, 3 июнь.
19. Шермухаммедов М. Шеърим ва унинг натижаси. ТВГ газ., 1914, 85-сон.
20. Ўзбек шоирлари баёзи: Дилшод, анбар Отин. – Т., 1994.
21. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т. : Ғ.Ғулом, 1983.
22. Қосимов Б. Жадидчилик /Миллий уйғониш даври ўзбек филологияси масалалари китобида.-Т.:Университет, 1993.
23. Ҳожи Муъин (Меҳрий). Шеър ва шоир //Самарқанд газ., 1913, 13 август.

ISMOIL GASPRINSKIYNING ALISHER NAVOIY IJODIGA MUNOSABATI

Zaynabidin ABDIRASHIDOV

*Turkiya, Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi,
filologiya fanlari doktori, professor*

Annotatsiya. XIX asrning so‘ngi choragida shakllana boshlagan jadidchilik qisqa muddatda Chor Rossiyasi qo‘l ostida qolgan turk xalqlarining istiqloлга eltuvchi harakatga aylanib ulgurdi. Ayni shu davrda milliy adabiyot yangi bosqichga ko‘tarildi va tarixga jadid adabiyoti nomi bilan kirdi. Jadidchilik harakatining asoschi Ismoil Gasprinskiy umumturkiy adabiy til haqida yozar ekan Alisher Navoiy ijodiga juda katta ahamiyat qaratadi. Mutafakkirning asarlarini chop qiladi va “Tarjimon” gazetasi o‘quvchilariga hadya qiladi.

Ushbu maqolada Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodi va shaxsiya bo‘lgan munosabati birlamchi manbalar asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Ismoil Gasprinskiy, Alisher Navoiy, adabiyot, adabiy til.

O‘zbekiston yangi tarixida XIX asrning so‘nggi choragida maydonga kelgan va tarixga “jadidchilik”, “milliy uyg‘onish davri”, adabiyot tarixiga esa “jadid adabiyoti”, “milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” nomi bilan kirgan siyosiy-ijtimoiy va adabiy-madaniy harakatining asos nuqtalaridan biri, bu turkiy tilda so‘zlashuvchi millatlar uchun yagona adabiy til yaratish bo‘lgan edi. Ushbu g‘oyaning asosiy targ‘ibotchisi, yuqorida tilga olingan jadidchilik harakatining tamal toshini qo‘ygan shaxslardan biri, qrimlik Ismoil Gasprinskiy edi.

Ismoil Gasprinskiy yagona umumadabiy til yaratishga “Tarjimon” gazetasiga asos solgan 1883-yildan qattiq kurashdi va ma’lum natijalarga erishganligini o‘sha davrda yaratilgan turli

adabiy-badiiy manbalar ko'rsatib turibdi. Gasprinskiyning turkistonlik izdoshlari ham "Tarjimon" gazetasi "tili"da yozishga harakat qildilar va bu "til"da talaygina asarlar ham yaratdilar. Gasprinskiy umumadabiy turkiy tilni targ'ib qilar ekan, eng avvalida turkiy tilning asoschisi hisoblanmish Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga juda katta qiziqish bilan qaradi. U Navoiyni *"turk olamining eng buyuk bir shoiri, eng buyuk bir adibi"* [4, 2-b.] hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda Turkistonda keng yoyilgan, Gasprinskiyning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, turkiy tilning "chig'atoy shevasi"ni aynan Alisher Navoiy qayta tiriltirgan. [3] Gasprinskiy ushbu "chig'atoy shevasi"da so'zlashuvchi turkistonliklarning "adabiy" tili va adabiyoti, ayrim rus tadqiqotchilarining nazdida, biror "ilmiy" ma'lumot berish uchun yaramasligi haqidagi puch fikrlariga qarshi qat'iy fikr bilan kurashdi ham. Shu ma'noda Gasprinskiyning "Turkestanskie Vedomosti" gazetasining 1900-yilgi sonlaridan birida chop etilgan noma'lum muallifining mahalliy millat adabiyotiga oid maqolasiga bergan javobi diqqatga sazovor. Noma'lum muallif "sartlar" tili va adabiyoti haqida fikr yuritib, u haqda o'ta salbiy va noma'qul xulosa bergan edi. Unga ko'ra, turli foydali ma'lumotlar va ilmiy asarlarni "sart" tiliga tarjima qilishga xojat yo'q, bunday tarjimalar foydadan ko'ra ko'proq ziyon keltiradi; "sart" tili o'ta sodda, unda turli terminlarni ifoda etish imkoniyati yo'qligi sabab ilmiy va adabiy tarjimaga yaroqli emas. Gasprinskiy ruslarning bu kabi fikrlariga munosabat bildirar ekan, noma'lum muallif fikr yuritgan "sart" tili chig'atoy turkiysining mahalliy shevasi ekanligi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa turkistonlik adiblarning yaratgan o'lmas asarlari *"sart" tilining allaqachon adabiy til sifatida shakllanib bo'lgani hamda "sart" tili boshqa "taraqqiy" etgan millatlar tili kabi keng tarqalmagan bo'lsa-da, mahalliy aholiga mo'ljallangan turli ma'lumot beruvchi ilmiy asarlar uchun yetarli darajada yaroqli* ekanligini isbot qilib berdi. [2]


Gasprinskiyning Navoiy asos solgan turkiy til borasidagi fikrlariga yana bir misol. 1911-yilning boshlarida Rossiya Davlat Dumasi turli mintaqalarda tashkil etilgan rus-tuzem maktablarida olib boriladigan ta'limning tili borasida Farmoyish qabul qildi. Ushbu Farmoyishga muvofiq *"Turkistonda mahalliy adabiy til mavjud bo'lmagani bois rus-tuzem maktablarida barcha darslar to'liq rus tilida olib borilishi kerak"* edi. Maktab ta'limi bilan bog'liq bu muhim Farmoyish o'sha davrdagi barcha gazetalarning asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Xususan "Tarjimon"ning ham. Gasprinskiy Farmoyishni tanqid qilar ekan, Turkistonda joriy muomalada bo'lgan va keng tarqalgan "chig'atoy" tili turkiy xalqlarning eng qadimgi tillaridan biri ekanligini ko'rsatishga tirishdi va *"ilmning barcha sohalari bo'yicha o'nlab buyuk olimlarni yetishtirgan xalq qanday qilib adabiy tilga ega bo'lmisligi mumkin"*, degan savolni o'rta tashlaydi. Gasprinskiy ushbu savolga yana o'zi javob berish barobarida Alisher Navoiyning *"Muhokamatu-l-lug'atayn"* asarini misol tariqasida keltiradi va ushbu asarda turkiy til adabiy til sifatida fors tilidan, hatto ayrim o'rinlarda, ustun kelishi isbot etilganligini ko'rsatib berdi [5].

Shu bilan bir qatorda Gasprinskiy Navoiy qalamiga mansub asarlarni nashrdan chiqardi va ularni o'zi targ'ib qilgan umumturkiy adabiy tilga o'g'irgan shaklda o'quvchilarga taqdim qildi. Gasprinskiy nashr qilgan asarlardan biri Alisher Navoiyning *"Muhokamatu-l-lug'atayn"* (Ikki til muhokamasi) risolasidir.

Noshir ushbu asarni *"Mukolamatu-l-lug'atayn"* (Ikki til suhbat) nomi bilan 1902-yili nashrdan chiqardi. Ushbu nashrga so'z boshi sifatida yozilgan kichik maqola *"Mir Alisher Navoiy"* deb nomlangan va unda buyuk shoir haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan: *"Bu daf'a bir cho'q asarlaridan biri o'lan "Mukolamatu-l-lug'atayn" risolasini nashr etdigimiz Mir Alisher Navoiy turk olamining eng buyuk bir shoiri, eng buyuk bir adibidir. Movarounnahr va Turkiston qit'asinda joriy va mo'tabar o'lan chig'atoy shevasinda qalam chekkanlardan eng buyugi, ulug'i bir zotdir. Xolis turkcha so'yladigi she'r va g'azallari bir cho'q devonlarga doxil o'lub, bu kuna qadar namunai imtisol tutiliyurlar. Shoh Temur xonadonina mansub kibor oiladan, 844 sanai hijriyada Hirot shahrinda dunyoga kelmishdir. Zamonincha g'oyat mukamal tahsili ulum etdikdan so'ngra davlat xidmatina kirib voliy va vazir poyalarini bo'lmishdir.*

Ma'muriyat ila bo'ldig'i shuhrat buyukdir, ammo qalam ila kasb etdigi nom va nishon daha buyukdir. Ma'muriyat ila o'z zamonina, o'z makonina xidmat etmish esa, qalami ila zamonlarga, makonlarga xudam o'lmish bir nodiri vujuddir. Forsiy va turkiy dillarini tamoman bilib, har ikki

dilda ibrozi kamolot etdigindan “ikki dilli” (zu-l-lisonayn) laqabi foxirasini olmish edi. Turkiyda “Navoiy”, forsiyda “Foniy” ila talaxxus edardi.



Mir Alisher g'oyat olim bir amir va amir sifatinda bir olim edi. Komil va tadbirli vazir, so'zi o'tkun bir adib, xayoli maydon bir shoir edi. Lisoni forsiyi sevar edi, lekin ona dili o'lan turkiya daha ziyoda muhabbat edardi.


Bu adibning zamoninda Turkistonda forsiy pek mo'tabar va maqbul o'lub, turk va o'zbek ulamosi va shuarosi ona dillarini tark edar darajasina vorib hab forsiy ila so'ylar, yozarlar edi. Bu hol esa turklarning, o'zbeklarning jahl va tadanniysina bois o'liyur edi. Chunki umum uchun forsiy tahsili nomumkin edi. Ishta, marhum Mir Alisher bu holi fahm edib jumlaning odat va havasina aks o'laroq avlodi turk turkcha so'ylab, yozmoq lozim o'ldig'ini kamoli jasorat ila maydonga qo'yib zamonina qarshi adibona mujodalalar edmishdir.

Nazman va nasran yozdig'i bir cho'q asarlarini chig'atoy shevai turkiysinda yozib va forsiydan turkchaya bir xeyli asarlar tarjima edarak turk dilining isloh va taoliysina g'ayrat etmishdir. Va bu dilning iste'dod va maydonlig'ini jumlaya ko'starmishdir. Bir iddaosi daha – turk dilining forsiydan daha vosi', daha kenish o'ldig'idirki, bu maslakina binoan ushbu “Mukolamatu-l-lug'atayn” risolasini yozmishdir. Do'rt yuz sanalik bu asar bu kun daxi ahamiyatdir, rag'batdan tushmamishdir.

Mir Alisher Navoiy yetmish ikki (aslida oltmish. Z.A.) yoshina kelib 906 sanai hijriyasinda dori fanodan kechmishdir" [4, 2-3].

Ko'rinib turganidek, Ismoil Gasprinskiy Navoiy shaxsiyati va ijodiga yuksak baho beradi.

Gasprinskiy 1898-yili "Tarjimon"ga ilova tarzida nashr qilgan va yosh bolalarga mo'ljallangan "Maktab" gazetasining 1-sonida "turk dilina jon vermish zoti oliy" bo'lmish Alisher Navoiy haqida muxtasar maqola beradi. Ushbu maqola maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkinga bag'ishlangan maqola bilan birga berilgan. Maqolaning sarlavhasi yuqoridagi maqola kabi "Mir Alisher Navoiy" deb nomlangan. Maqolaning to'la matni quyidagicha: "Turk millatining eng buyuk va eng eski shoiri va adibi Mir Alisher Navoiydirki, 844 nchi sanai hijriyada Hirot shahrinda dunyoya kelmishdir. Mashhur Sulton Husayn Boyqaro ila barobar bir maktabda tahsil etdigi holda bu ikki shogird do'stlashib, umri vori bir-birina al yordam o'lmaya va'd etmishlar. Sulton Husayn Hirot qit'asina podshoh o'lub bolalig'i yodina keldikda hamon do'sti Mir Alisher(n)i izlatmish. Samarqandda bo'lindig'ini angladig'i ila maxsus odam yo'llab Hirot(g)a oldirmish. Bo'ylaja Sulton Husayn Boyqaroning saroy mushoviri va ba'da voliysi, vaziri o'lub, Mir Alisher sohibi mol va mansab o'lmush edi. Lekin umuri mulk va siyosatdan ziyoda ilm va adabiyot ila mashg'ul o'lub, o'n sakkiz kitob va devon tasnif etmishdir.



Forsiy va turkiy dilinda pek go'zal nazm va she'r yozar edi. Lekin o'zi turk o'g'li o'ldig'indan turk dilini daha ziyoda sevar edi. Hatto, "Mukolamatu-l-lug'atayn" nom mashhur asarinda turk dili forsiydan daha zangin, daha maydon o'ldig'ini isbota cholishmishdir. Yozdig'i go'zal kitoblar ila turk dilini mo'tabar edib va usuli adabiya ko'starib turk millatina buyuk xidmat etmishdir. Qalama kelmaz, qalama yarashmaz zan o'linan turk dilini maydona chiqaran Mir Alisherdir. Bundan avval turkcha yozan oz edi. Bundan so'ng turk adiblari va shoirlari cho'g'oldi, ko'b o'ldi.

Mir Alisher turk dilina jon vermish zoti oliydir. Yozdig'i shaylar Movarounnahrda qo'llanilan "chig'atoy" shevasindadir. Hijriy 906 nchi sanada vafot o'lub, nomi boqiy qolmishdir. Xonlar va xidmatchilar, ulamo va udabo Mir Alisherning shogirdi va muhibi edilar" [3].

Ismoil Gasprinskiy Alisher Navoiy haqida bergan xabarlarini qisqa biografik ma'lumotlardan iborat bo'lib, asosan gazeta o'quvchilarini buyuk shoir bilan yana-da yaqinroq tanishtirishga mo'ljallangan. Bundan tashqari Gasprinskiy Alisher Navoiy qalamiga mansub "Arba'iy" asarini "Qirq hadis" nomida nashr etib, "Tarjimon" gazetasi o'quvchilariga bepul hadya qildi. Ushbu asar kichik formatda 1907-yili bosmadan chiqdi. Kitobning muqaddimasida noshir quyidagi ma'lumotni ilova qiladi: "*Qirq hadis. Mavlaviy Jomiy hazratlarining forsiycha va Mir Alisher Navoiyning turkiycha tarjimalari ila muharrir va noshiri jaridai "Tarjimon" Ismoilbek Gasprinskiyning himmati ila shahri Bog'chasaroyda nashr o'lindi.*" [1, 2-b.]

Ismoil Gasprinskiyning buyuk adib va mutafakkir Alisher Navoiy hayoti, shaxsiyati va ijodiga bo'lgan qiziqishi ayniqsa uning umuadabiy til borasidagi qarashlarida yaqqol ko'rinadi. Gasprinskiy Navoiy haqida turli ma'lumotlarni gazeta o'quvchilariga taqdim qilish barobarida adibning asarlaridan o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlash uchun asosiy manba sifatida foydalandi hamda o'z izdoshlarini shoirning ijod namunalari bilan bahramand qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahon Jomiy, Alisher Navoiy. Qirq hadis. Bog'chasaroy: "Tarjimon" jaridasining elektrik bosmaxonasi. 1907.
2. Adabiyoti sartiya // Tarjimon, 48-son 1900-yil.
3. Mir Alisher Navoiy // Maktab ("Tarjimon" gazetasiga ilova), 48-son 1898-yil.
4. Mir Alisher Navoiy. Mukolamatu-l-lug'atayn. Noshiri muharriri "Tarjimon" Ismoil Gasprinskiy. Bog'chasaroy: Matbaai Tarjimon, 1902.
5. Chig'atoy dili // Tarjimon, 10-son 1911-yil.

FITRAT – MASHRABSHUNOS

Rashid JUMAYEV,
O'zbekiston, QarshiDU, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqola professor Abdurauf Fitrat tomonidan Boborahim Mashrab hayoti, tasavvuf tariqatidagi yo'li, adabiy merosining o'rganilishiga bag'ishlangan. Bunda shoir g'azallarining o'ziga xosligi va "Mabdayi nur" asarining muallifi masalasidagi Fitrat nuqtai nazarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fitrat, Mashrab, tadqiqot, shoir, g'azal, tasavvuf, mutasavvif, tariqat, qalandariya, qalandar, "Mabdayi nur", muallif, manba, manoqib, manqaba, ma'xaz, tazkira.

Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslik sohasida olib borgan tadqiqotlari o'zining ilmiy manbalarga asoslanganligi, muammolarni keng va atroflicha tahlil hamda talqin qilinganligi bilan alohida ajralib turadi. Fitratning mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlari orasida XVII-XVIII asrlar o'zbek adabiyotining mashhur vakili, mutasavvif shoir Boborahim Mashrab hayoti, adabiy merosi, tasavvufiy yo'li, qalandariya tariqatida tutgan o'rni va mavqei, lirikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida yaratilgan "Mashrab" nomli tadqiqoti ayrica ahamiyatga egadir [1, 82-105]. Mazkur tadqiqot mavjud ilmiy manbalar – tazkiralari, tarixiy asarlar, manoqiblar

ma'lumotlariga tayangan holda yaratilgan bo'lib, muallif uni uch qismdan iborat qilib amalga oshirgan.

Tadqiqotning dastlabki qismida Mashrab ijodining o'z davridagi va keyingi davrlardagi shuhrati va nufuzi haqida, alalxusus, shoir g'azallarining xalq orasidagi shuhrati, mashrabxonlik an'analari, ularning tartib hamda rasmi rusum va odoblari to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari tadqiqotning mazkur qismida Mashrab ijodining o'rganilishi bilan bog'liq bir qancha qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Fitrat Mashrab hayoti va ijodining Yevropada o'rganilishini rus sharqshunos olimlari faoliyati misolida qayd qilib o'tadi. Rus olimi N.S.Likoshinning "Divana-i Mashrab" nomli tarjimasi bilan P.V.Vyatkinning "Ferganskiy mistik devana-i Mashrab" nomli tadqiqotini keltiradi. P.V.Vyatkinning mazkur tadqiqoti 1923 yilda Turkiston Sharqshunoslik institutining A.D.Shmidtga bag'ishlab nashr qilingan to'plamda e'lon qilingan edi. Abdurauf Fitrat maqola muallifi haqida "... Mashrabning bir tarixiy shaxs ekaniga shubha bilan qarab, uning afsonaviy ekaniga hukm qilmoqchi bo'ladilar va XVII-XVIII asrlarg'a oid Farg'ona taraflarida Mashrabning tarjimai holi nari tursin, uni eslagan bir iboratga ham uchramag'anidan shikoyat qiladir" [1, 83] deb P.V.Vyatkinning bu fikrlari asossiz ekanligini ko'rsatish uchun Mashrab haqida ozmi-ko'pmi ma'lumotlar berilgan bir qancha manba va ma'xazlarni ko'rsatib o'tadi. "Mashrab haqqida yozilgan va O'zbekistonning har tomonida ma'lum va mashhur bo'lgan "Devoni Mashrab" yoxud "Devonai Mashrab" kitobining afsonaviy bir manqabadan boshqa narsa bo'lmaganiga bizning ham shubhamiz yo'qdir, lekin bu shubhasizlik Mashrabning haqiqatan tarixiy bir shaxs ekaniga ishonishdan bizni man' qila olmaydir. Biz P. Vyatkinning "yo'q!" deyishiga qaramay, XVII-XVIII asrlarga oid ma'xazlarni topdik", [1, 83] deydi va ularni nomma-nom sanaydi. Bular: Muhammad Bade' Malehoiy Samarqandiyning 1689-1692 yillar oralig'ida tuzilgan "Muzokir ul-as'hob" tazkirasi, Abdul Muttalib Xo'ja Fahmiyning 1763 yilda yozilgan "Majmuayi Fahmiy" tazkirasi, 1842 yilda Said Hakimxonto'ra Xo'qandiy tomonidan yozilgan "Muntaxab ut-tavorix" tarixiy asari, Mirza Olim ibn Muhammad Toshkandiyning "Ansob us-salotin" asari, Majzub Namangoniyning "Tazkirat ul-avliyo" si. Fitratning tadqiqot havolasida ko'rsatishicha, ushbu ma'lumotlarni u Sadridin Ayniyning "Namunahoyi adabiyoti tojik" kitobidan olgan ekan.

Fitrat bu beshta asarda Mashrab haqida berilgan ma'lumotlar juda oz bo'lganligi bois shoir tarjimai holi to'g'risida yetarlicha tasavvur hosil qilish mushkil, deydi. Shuning uchun ham Fitrat yuqorida zikr etilgan manbalardagi ma'lumot bilan manqabada keltirilgan ma'lumotlarni muqoyasa qilib, Mashrabning tarjimai holi haqida birmuncha tasavvurga ega bo'ladigan darajada ma'lumotlar yig'ish mumkin degan qarorga keladi. Fitrat bu bilan bir tomondan Mashrabning tarixiy shaxs ekanligini isbotlashni, boshqa tarafdin uning nisbatan to'liqroq bo'lgan tarjimai holini yaratishni maqsad qiladi. Buning uchun u Mashrabning tug'ilgan yili, tug'ilgan joyi, ustoz Mulla Bozor Oxunddan ta'lim olgan davri, Ofoq Xo'ja huzuriga yo'l olgan yillari, o'sha paytda necha yoshda bo'lganligi, sayru safarlari (Mashrab yurgan yo'llar, shaharlar va o'lkalar nomi), shoir hayotining muhim tarixiy lavhalari, necha yil umr ko'rgani va qaysi yillar oralig'ida yashagani, jumladan, Qunduz shahrida fojiali o'limi kabi ko'plab savollarga javoblarni ana shu beshta manbadagi ma'lumotlar asosida ko'rsatib beradi. Bizningcha, Fitrat ushbu manbalardan Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-as'hob" tazkirasidagi ma'lumotlarga ko'proq tayangan ko'rinadi. Buning asosiy sababi Maleho Samarqandiy Mashrabning asrdoshi, zamondoshi bo'lgan hamda Fitratning qayd qilishicha, Mashrabning Samarqandga qilgan safarlaridan birida "Muzakkir ul-as'hob" muallifi uni ko'rgan. Maleho Samarqandiy shoir tarjimai holi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni shaxsan Mashrabning o'zidan eshitgan bo'lishi ham mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi qismida Fitrat shoirning tasavvufiy yo'li haqida so'zlaydi. U dastavval qalandarlik yo'li, uning o'ziga xosliklari haqida fikr-mulohazalar bildiradi. "Haft qulzum" va "Bahori Ajam" tafsiriy lug'atlariga tayanib, qalandar istilohini sharhlaydi. Shuningdek, malomatiylik va qalandariylikning qiyoslab, bu ikki yo'l o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. U qalandariya tariqati odob va arkonlari, g'oyaviy o'ziga xosliklar haqidagi fikrini yakunlar ekan, bu tariqat vakillari yurtimizda XX boshigacha faoliyat olib borganligini

ta'kidlab o'tadi: "Qalandariya musulmon tasavvufining sho'basidir. Bu maslak bizning o'lkamizda so'ng kunlargacha davom qildi" [1, 92].

Fitrat Hoji Abdurahim Buxoriy ismli bir qalandarning milodiy 1672 yilda yozilgan "Risolayi odobi tariq" nomli asari asosida qalandarlarning kulohi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi: "Qalandar kulohi to'rt turli bo'lgan: kulohi amir, kulohi ro'yat, kulohi subhoni, kulohi ota. Bu to'rt turli kulohdan har birining to'rt burchagi bo'ladur. Kulohning burchagiga forsi(y)cha "tark" derlar. Qalandarlar so'z o'yini qilib, bu forsi(y)cha "tark"ni arabcha (tashlamoq, qoldirmoq, qo'ymoq) ma'nolaridag'i "tark" so'ziga aylantiradilar, ... (unga) turli tasavvufiy ma'nolar beradilar" [1, 93]. Qalandarlarning kamari to'g'risida mana bunday deydi: Qalandarlarning kamarida yettita band bo'lib, har bandi tasavvuf tariqatidagi murid tomonidan bajarilishi zarur hisoblangan bir shartga ishora ekan. Fitrat "Odobi tariq"ga tayanib, qalandarlarning dalq kiyimi haqida shunday yozadi: "... mutasavviflar kiyaturlig' an libos "dalq" atalib, bu uch turlidir: xirqa, kafaniy, janda...". Uning qayd etishicha, qalandarlar kachkul, kadui matbax va aso haqida ham "uzun-uzun tasavvufiy ishoratlar va ramzlar taqadirlar". Abdurauf Fitratning qalandariya tariqati haqidagi quyidagi fikri ham e'tiborga molikdir: "Mundin yarim asr – bir asr burung'i zamonga kelgan va O'rta Osiyo shaharlarining eng obod joyi qalandarxonalar edi" [1, 94].

Mashrab haqidagi tadqiqotining uchinchi qismi mutasavvif shoir badiiy merosining o'rganishga bag'ishlangan. 1906-yilda Qozon shahrida bosilgan "Boqirg'on kitobi"da Mashrab taxallusli shoirga tegishli bo'lgan "o'n parcha" she'r hamda "Mabdai nur" va "Kimiyo" asarlari mavjud bo'lgan. Fitrat "Boqirg'on kitobi"ga kiritilgan she'rlarni "Qissai devonai Mashrab" manqabasidagi she'rlar bilan qiyoslab, ularni haqiqatdan ham Mashrabga tegishli ekanligini aniqlaydi.

Ma'lumki, "Qissai devonai Mashrab" shoir vafotidan keyin tuzilgan va xalq qissachiligi janridagi yozilgani bois turli tabaqa va toifa o'rtasida juda mashhur bo'lgan. Qissada keltirilgan g'azallar Mashrab hayotining solnoma(yilnoma)siga muvofiq qilib joylangan. Bu holat Fitratda ayrim she'rlar qissa tuzuvchisi bo'lgan kotib, xattot yoki Mashrab muridi tomonidan yozilgan bo'lishi mumkin degan shubhani uyg'otadi. Fitrat "Qissai devonai Mashrab"ning bir necha (2ta qo'lyozma va 1ta bosma) nusxasini o'zaro taqqoslab, shunday natijaga keladi: turli nusxalardagi she'rlar soni bir xil emas, qissada boshqa taxallus bilan yozilgan she'rlar ham kiritilgan.

Shundan so'ng Fitrat diqqatini shu manqabaga kirgan she'rlarni uslubiga qaratadi va Mashrabning o'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlarini tahlil hamda talqini jarayonida ularning aksariyati diniy-ma'rifiy, tasavvufiy-falsafiy mazmunda ekanligini ta'kidlar ekan, Mashrab: "O'z falsafasini "kashf ul-haqq'a" tayandiradur", [1, 97] deydi. Shoir she'rlaridagi yuqori darajadagi his-hayajonni, tantanavorlik va jo'shqinlik ohanglarini, ularni tasavvufiy ma'no-mazmun va ramzu majoz orqali ifodalash xususiyatlarini Mavlono Jaloliddin Rumiya izdoshlik deb biladi. Mashrabning "O'zum" radifli g'azalidan namunalar keltirib, uni quyidagicha sharhlaydi: "Mashrab(ning) mutasavvif Jaloliddin Rumiyning ta'siri ostida yozilgan bu g'azalida "vahdati vujud"ning manmanligi o'zini ochiq ko'rsatadir. Jaloliddin Rumi kabi Mashrab ham "har narsa o'zimdand iboratdir", deydi." Shu bilan birga Mashrabning fors-tojik tilidagi she'rlarini uning zamondoshi hindistonlik shoir Mirzo Abdulqodir Bedilga ham o'xshashligini qayd qilib o'tadi: "Mashrabning she'rlarida, ayniqsa, forsiy she'rlarda Bedilning ta'siri ko'rinadir" [1, 98].

Biroq, Fitratning mazkur tadqiqotida Mashrab g'azallari ko'p jihatdan, xususan, mavzusi, mazmun-mohiyati, tasavvufiy yo'nalishi va ramziy-majoziy xususiyatlari bo'yicha Jaloliddin Rumi g'azallariga yaqin va o'xshashligi qayta-qayta ta'kidlangan. Buni Mashrabning bir qator o'zbek va fors-tojik tilidagi g'azallarining Mavlono Rumi g'azallari bilan qiyosiy tahlili misolida ko'rsatib bergan [1, 97-102]. Bu o'z navbatida Mashrabning Mavlono ijodiga bo'lgan qiziqishi va muhabbatidan dalolat beradi. "Mabdayi nur" asari muallifi masalasida ham Fitrat aynan Mashrabning Rumi ijodiga bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishini asos sifatida ko'rsatadi. Mavlono ijodiga muhiblik Mashrabning Ofoq Xo'ja qo'lida tariqatdagi kasbi kamoli davridan boshlangan. To'g'ri, Ofoq Xo'ja huzuridan ketganidan keyin Hindiston, Samarqand va Buxoro safaridan so'ng Mashrab Qarshi shahriga keladi. Fitrat Majzub Namangoniyning "Tazkirat ul-avliyo"sida keltirilgan ma'lumotga asoslanib, Mashrab Qarshida Ofoq Xo'janing mashhur

muridlaridan Xo‘jam podshoh(asl ismi Hasanxo‘ja)ni uchratib, to‘rt yil davomida (Qarshi shahrida) undan tasavvuf ilmini o‘rganadi, deydi. Ammo Mashrabning Mavloni ijodi bilan bog‘lanishi, “Mabdayi nur” asarini yaratilishiga turtki bo‘lgan hamda Fitrat tomonidan “Mabdayi nur” asari muallifi masalasida hech ikkilanmasdan Mashrabning ko‘rsatilishi mutasavvif shoirning Ofoq Xo‘ja dargohidagi faoliyati bilan bog‘liq. Fitrat 1912 yilda Buxoroda toshbosma usulida bosilgan “Mabdayi nur” asarining nusxasi asosida va unda keltirilgan ma‘lumotlarga tayanib, o‘z nuqtayi nazarini bayon qilarkan, prof. P.Vyatkinning mashrabshunoslik ilmidagi keltirib chiqargan chalkashliklarini shunday izohlaydi: “P.Vyatkin mana shu tarixiy Mashrab (“Mabdayi nur” muallifi demoqchi – ta’kid bizniki) bilan manqaba ahramoni bo‘lgan Rahim bobo – Mashrabning bir kishi ekanini ocha olsa edi, bu davrda yana bir afsonaviy Mashrab o‘ylab chiqarishga luzum qolmas edi, albatta” [1, 103].

Fitrat Mashrabni “Mabdayi nur” asari muallifi sifatida ko‘rsatar ekan, o‘z nuqtai nazarini “Mabdayi nur”ning tili manqabadagi she‘rlar bilan bir xil ekanligi, Fitrat tadqiq qilgan “Devonayi Mashrab” kitobidagi masnaviy-she‘rlar uslubi bilan “Mabdayi nur” uslubining aynan o‘xshashligi, Ofoq Xo‘ja muridlari orasida Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”ini o‘zbekcha sharhlashga ayrica ahamiyat berilgani, “Mabdayi nur” muallifining Ofoq Xo‘ja muridlaridan biri ekanligi kabilar bilan asoslab beradi.

Umuman olganda, Fitratning Mashrab haqidagi tadqiqoti o‘zbek adabiyotshunosligida mashrabshunoslik ilmining shakllanishi va taraqqiyoti uchun munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan, deyishga yetarlicha asoslar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – 208 бет.
2. Мумтоз адабиёт масалалари. Мақолалар тўплами. 1-китоб. – Т.: 2006. – 133 бет.
3. Машраб. Абдай нур // Нашрга тайёрловчи Ҳожи Исмаиуллоҳ Абдуллоҳ. – Тошкент: Фан, 1994. – 316 бет.

YO‘L OBRAZI: AN‘ANA VA NOVATORLIK

Odiljon AVAZNAZAROV,
O‘zbekiston, TDYU,
PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada dunyo adabiyotida keng qo‘llanuvchi, eng muhim va ahamiyatli, uzoq takomil tarixiga ega hamda ko‘pqatlamli ma‘no-mazmun tashiydigan obrazlardan biri – yo‘l obrazi tadqiqqa tortilgan. Tadqiq obyektini sifatida mumtoz adabiyotning yirik namoyondasi Alisher Navoiy hamda jadid adabiyoti vakili Abdulhamid Cho‘lpon ijodi tanlangan.

Kalit so‘zlar: obraz, yo‘l, yo‘lovchi, safar, manzil, tasavvuf, an‘ana, yangilik.

Homerning “Illiada” va “Odissey” asarlari orqali ham bilish mumkinki, yo‘l antik davr adabiyotidayoq yetakchi obrazlardan bo‘lgan. Qur‘ongacha bo‘lgan ilohiy kitoblar hamda Qur‘onda ham yo‘l bilan bog‘liq holatlar talay. Jumladan, Qur‘onning ilk surasidayoq “siroti mustaqim” – to‘g‘ri yo‘l kalimasi uchraydi. Albatta, yo‘l xususida shakllangan ijodiy tajriba va ilohiy bitiklar mumtoz hamda zamonaviy adabiyotimizga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti yo‘lining xilma-xil ma‘no qirralarini kashf qildi. Xususan, turk olimi professor Suleyman Uludag‘ning “Tasavvuf atamallari so‘zligi”da yo‘lining tasavvufga aloqador yigirmaga yaqin ma‘nolar tashigani ko‘rsatiladi: “1. Tariq, tariqat, roh. 2. *tas.* Haqqa boradigan va solikni ilohiy huzurga yetkazadigan vosita. **Yo‘lga kirmoq:** tariqatga kirmoq; **yo‘lga keltirmoq:** bir kimsaning tariqatga kirishini ta‘minlamoq; **yo‘l rahbari:** birovning tariqatga kirishini ta‘minlagan yo‘l ko‘rsatuvchi, tolibni murshidning huzuriga chiqargan kishi; **yo‘l ko‘rsatmoq:** irshod etmoq; **yo‘ldosh:** ayni tariqatga mansub kishi; **yo‘ldan qolmoq:** tariqatda bo‘shanglik, tanballik qilmoq; **yo‘lda qolmoq:** bir bekatda (manzilda) turib qolmoq; **yo‘lsizlik:** tariqat odob

va arkoniga mos bo'lmagan harakatlar qilish; **yo'l bermog'i**: shayxning muridiga izn bermog'i; **yo'l qoidalari**: odob, arkon; **yo'ldan urmoq**: Haqqa boradigan yo'lda yo'l to'smoq, soxta shayxlik qilmoq; **yo'ldan uruvchi**: rohzan, soxta shayx; **yo'ldan ketgan horimas**: tariqat odob va usuliga amal qilgan charchamay, zahmat chekmay Haqqa yetadi; **mashaqqatli yo'l manzildan a'lodir**: qiyin bo'lsa-da yo'l yurmoq bir manzilda turib qolmoqdan yaxshidir; **yo'l farzandi**: murid" [2, 387-388].

Buyuk so'fiy shoir Yunus Emro esa yo'lning "tariqat" ma'nosidan tashqari "shariat" ma'nosini ham anglatishini ta'kidlab, uning mohiyatini shunday izohlaydi:

Şerî'at-Tarîkat yoldur varana

Hakikat-Ma'rifet andan içerü [3, 223]

Ya'ni:

Shariat, tariqat – yo'ldir yurganga,

Ma'rifat, haqiqat andin ichkari.

Turk adabiyotida mazkur obrazning har jihatdan kamoloti, shubhasiz, hazrat Alisher Navoyi ijodida ko'zga tashlanadi. Navoyining birgina "G'aroyibu-s-sig'ar" idagi "fano yo'li", "din yo'li", "porso yo'li", "adam yo'li", "xonaqah yo'li", "hijron yo'li", "falak yo'li", "ishq yo'li", "sarsar yo'li", "faqr yo'li", "ko'z yo'li", "sirishk yo'li", "rizo yo'li", "talab yo'li", "haq yo'li", "nazar yo'li", "ko'ngul yo'li", "ovoralig' yo'li", "xarobot yo'li" kabi o'nlab birliklar yo'lning mohiyatini ochishga, uning muallif badiiy niyatini yuzaga chiqarishda qanchalik muhimligini anglashga xizmat qiladi. Ulug' mutafakkirning dostonlarida ham yo'lning yangidan yangi badiiy talqinlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xossatan, "Hayratu-l-abror"ning "Basmala" bobida shunday baytlar keladi:

Yo'qki erur maxzani vahdatqa yo'l,

Yo'l-u ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Lekin erur ham qatig-u ham maxuf,

Uylaki ojizdurur andin vuquf [1, 6].

Ya'ni, "u Vahdat xazinasi sari bir yo'l, yo'l bo'lganda ham shunday yo'lki, eng yaqin yo'ldir. Lekin ham mashaqqatli, ham xavfli bu yo'lni bosib o'tish uchun xabardorlikning o'zi yetarli emas!". Muallif navbatdagi baytlarda ikki toifa – ahli qabul va ahli ra'd uchun bu yo'lning bor xatarlari va sinovlarini batafsil yoritadi. Bobdan anglashiladiki, shoir tavsif etayotgan, barcha birdek bosib o'tishga majbur bo'lgan bu sinov Yo'li – "Bismillah" kalimasi, mohiyatan najot va saodat dini – Islomdir.

XX asr boshlarida keng quloch yoya boshlagan zamonaviy she'riyatimizda ham bu obraz takomili to'xtab qolmadi. Ayniqsa, buyuk Cho'lpon "yo'l"ni yangi ma'no-mazmun, fikr, g'oya, hissiyot bilan boyitdi. "Yo'l"ga urg'u berilgan "Mening yo'llarimda", "Dala yo'llaridan", "Yo'lchi", "Ulug' yo'lovchiga" kabi o'nlab she'rlar yozdi. She'rlarida "to'g'ri yo'l", "haq yo'l", "istak yo'llari", "umid yo'li", "uzoq yo'l", "og'ir yo'l", "yiroq yo'l", "qurbon yo'li", "haq yo'li", "ulug', vahm yo'li", "olis yo'l", "mushkul yo'l", "taraqqiy yo'li", "jaholat yo'li", "istiqlol yo'li", "gulli yo'l", "yo'ldan ozdirmoq", "uxlagan yo'lchi", "kuchsiz yo'lchi", "buyuk yo'l boshchi", "yo'lga solmoq" kabi o'nlab yo'l va unga aloqador obraz hamda iboralarni qo'llab, ushbu obrazni har jihatdan qayta ishladi, boyitdi. Quyida ularning ba'zilariga to'xtalish bilan chegaralanamiz.

Cho'lpon 1921-yilda yozilgan "Suygan choqlarda" she'rida "go'zallarning malikasi"ga qarata shunday deydi:

Yo'llaringda "shitir" etsa so'lgan barg,

Qulog'imga musiqalar keltirur [4, 3].

Yo'l, so'lgan barg va uning yor oyoqlari ostida ezg'ilanib shitirlashi oshiq qulog'ida musiqa kabi yangraydi. Shuningdek, bargning "so'lgan"i, yorning yo'llarida ekani xazon fasli – kuz manzarasiga, kuz esa qandaydir mahzunlik, g'ashlikka ishora qiladi. Bandning keying misralari esa bu mahzun kayfiyat bejiz emasligini tasdiqlaydi:

Qachon sening musiqali ovozing

Sening meni "suyganingni" bildirur?.. [4, 3]

Shunday qilib *xazon faslidagi yo‘l, yor poyiga to‘shalgan tilla barglar shitiri* manzarasi lirik qahramon qalbida ajib romantik, shu bilan birga mahzun kayfiyatni paydo qiladi hamda bu kayfiyat she‘rxon ruhiyatiga ham ko‘chib o‘tadi.

“Qalandar ishq” she‘ri matla‘sida esa “yo‘l” obrazining boshqa bir ma‘no tovlanishi yuzaga chiqadi:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku,

Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarli yo‘lda qotdim-ku.

Ushbu misralarda muhabbat saroyining kengligi muhabbatning ham har xil ko‘rinishi borligidan, shuningdek, yo‘lning ham ikki turi – xatarsiz va xatarnok yo‘llar mavjudligidan darak beradi. Bu navbatdagi baytlarning birida yanada ochiqlanadi:

Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar,

Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Demak, yo‘llarning biri – to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, undan narigi dunyoni o‘ylaganlar yursa, bu dunyoga muhabbat qo‘yib, u dunyoni bahosiz pulga sotganlar xatarli yo‘lda yo‘llarini yo‘qotishar ekan. Cho‘lponning ushbu she‘rda kelgan yo‘l, yo‘lni yo‘qotgan yo‘lovchi xususidagi qarashlari hazrat Navoiy “Hayratu-l-abror”da ko‘rsatib o‘tgan hidoyat yo‘lidan yurgan *ahli qabul* va yanglish yo‘lda yurgan *ahli radni* xotirga keltiradi.

Cho‘lponning “Ulug‘ yo‘lda” she‘rida millatning tipik vakili bo‘lgan yo‘lovchi “*belga kamarni mahkam bog‘lab, Sharqning eski chigallarini yechish*” kabi ulug‘ maqsadlar bilan yo‘lga chiqadi [4, 8-9]. Mullanur Vohidov ruhiga bag‘ishlangan “Sharq nuri” she‘rida esa yo‘l *metod, usul* ma‘nosida keladi:

Biroq Sharqqa qutulishning yo‘lini

Ko‘rsatkuchi ulug‘ dohiy sen eding;

Sendek kishi Sharq eliga tansiqdi... [4, 14].

Cho‘lponning o‘z hayoti ham ulug‘ yo‘lda, ulug‘ maqsadlar bilan o‘tdi. Muqaddas mafkura yo‘lida kurashdi. Uning “Ulug‘ yo‘lovchiga” she‘ridagi mana bu satrlari o‘zi va bu yo‘lda unga safdosh bo‘lgan qanchadan-qancha millat qahramonlariga atalgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi:

Ketgan yo‘ling yiroq yo‘ldir, keti yo‘q,

Boshlanishi: quruq va keng bir bo‘shliq,

Tugalishi: yana cheksiz bir yo‘qliq,

Biroq qaytmoq yo‘qdir tushgan yo‘lingdan [4, 52].

Millatning buyuk farzandi o‘zining pok istak bilan uzoq va og‘ir yo‘lda ekanini bot-bot takrorlaydi. Jumladan, 1922-yil Buxoroda yozilgan “Yurt yo‘li” she‘rida shunday deydi:

Uzoq... og‘ir yo‘lga chiqqan yo‘lchimen,

Bu yo‘llarda qilog‘uzim yulduzdir;*

Men yurtimning pok istakli kuchimen,

U yulduzning tugalishi kunduzdir.

Tomirlarim olov kabi qaynagan

Qonlarini kechmishlardan olmishdir,

Bilagimda irg‘ib, chopib o‘ynagan,

Unutmakim, oyoqlaring tolmishdir.

Uzoq yo‘lning yo‘lchisimen, boramen,

Istagimni bu yo‘llardan olamen!.. [4, 23]

**qilog‘uz – yo‘l ko‘rsatkich*

Shoir “Ziyoli qamar” she‘rida: “Bu yo‘lda jonimi – hech shubhasiz – fido ediram...” [4, 31] deya bu muqaddas yo‘lda barchasiga tayyorligini takrorlaydi.

Albatta, adabiy manbalarimizda keng qo‘llangan yo‘l hamda unga aloqador obrazlar mohiyati, poetikasini yaxlit bir tizim sifatida kichik bir tezis yoki maqola hajmida mufassal ifsho etish imkonsiz. Lekin kelgusida bu borada katta tadqiqotlar yaratish adabiyotshunosligimizdagi ilmiy ehtiyojlardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. J. 6: Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – 812 b.
2. Süleyman Uludağ. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul: Kabalcı Yayıncılık, 2016. – 438 s.
3. Yûnus Emre dîvânî. Hazırlayan: Dr. Mustafa TATCI. – İstanbul: Yayın Kodu, 2008. – S: 545.
4. Cho'lpon. Asarlar: 3 jildlik / O.Sharafiddinov tahriri ostida. Jild: 1. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – 448 b.

JADID SHE'RIYATIDA MUMTOZ AN'ANALAR TAKOMILI

Zilola NAMOZOVA
O'zbekiston, Qarshi DU, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid vakillarining ijodi o'rganilar ekan, Cho'lpon, U.Nosir kabi shoirlarning she'rlarida mumtoz an'analarning tutgan o'rni tahlil etiladi. Shu orqali jadidlarning adabiyotimiz tarixidagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidlar, aruz vazni, barmaq vazni, rukn, turoq

XX asr boshlarida o'zbek she'riyati takomili taraqqiyotida shakl va mazmunda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, mumtoz she'r tizimi – aruzning o'rnini barmaq vazni egallay boshladi. Buning ortidan keyinchalik, erkin she'rlar ommalashdi. Mazkur o'zgarishlar natijasida she'riyatimizning ritmik-intonatsion imkoniyatlari ortdi. Mumtoz janrlar, xususan, g'azal janri bu davrda ham faolligicha qoldi. Hattoki, mazkur janrning mavzu mundariyasi va shakl xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarishga uchradi. Ayniqsa, jadid she'riyatida aruz va barmaq vaznlarda teng ijod etish bilan birga, barmaq she'r tizimida aruzning ayrim qonuniyatlari sintezlashuvi yuzaga kelishi, xususan, aruz vazniga turoqning kirib kelishi kuzatila boshladiki, bu jadidlarga qadar mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lmagan xususiyat edi. Bunday holat Cho'lpon, U.Nosir kabi shoirlar ijodida, keyinchalik, mumtoz va jadid adabiyoti ta'sirida shakllangan A.Oripov, E.Vohidov kabi ijodkorlar she'riyatida yaqqol ko'zga tashlandi.

XX asr boshlarida aruzdan barmaq vazniga o'tilgan bo'lsa-da, jadidlar ijodida mumtoz an'analar ustivor ekanini kuzatish mumkin. Ana shunday jihatlardan vazn va badiiy takomil masalalariga diqqat qarataylik. Masalan, Usmon Nosir va Cho'lponlar, asosan, barmaq vaznida ijod qildi, lekin ularning she'riyati mumtoz adabiyotimiz sarchashmalaridan to'laqonli oziqlanganini e'tirof etishimiz lozim. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Jadidlarning barmaq va aruz vaznida teng ijod qilishi;

2. Aruz vaznidagi rukn o'rnida turoqning kirib kelishi;

3. Mumtoz timsollarning ijtimoiylashishi.

Jadid she'riyatini kuzatar ekanmiz, Cho'lpon, Kamiy, Hamza, Ibrat kabilar ijodida g'azal janri ustivorlik qiladi. Biroq jadidlar davridagi mazkur janr mavzu va g'oyasida ijtimoiylashish hodisasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, vatanparvarlik, millat qadriyati, inson ruhiyatidagi isyonkorlik va erk kabi tuyg'ular, siyosiy va ijtimoiy masalalar tarannum etildiki, endi aruz vaznidagi she'rlar, xususan, g'azal janri takomilida mavzuviy mundarija o'zgarishga yuz tutdi. Masalan, Cho'lponning barmaq va erkin vaznlarda she'rlar yozish bilan birga, aruzning ramal, hazaj, hafif, mujtass bahrlarida ellikka yaqin she'rlar yozgani ma'lum. Adabiyotshunos U.To'ychiyev ta'kidlashicha, aruzning hazaj va ramal bahrlari mumtoz adabiyotimizda juda ko'p qo'llangan. Cho'lpon bu an'anani davom ettiradi. Uning 16 ta she'ri ramalda, 12 ta she'ri hazajda yozilgan, ammo mujtass bahri shoir she'riyatida 24 marta uchraydi, demak, bu bahr shoir aruzida eng faol shakldir. Biroq ushbu she'rlarda ijtimoiy tengsizlik, adolat va adolatsizlik o'rtasidagi kurash, inson erki, milliy qadriyatlar, millat ravnaqiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar va unga qarshi isyon, vatanga bo'lgan muhabbat, ijodkor tabiatiga va ruhiyatiga xos bo'lgan

tuyg'ular tarannum etiladi. Inchunun, Cho'loning xazaji musammani solim vaznida yaratilgan "Kishan" she'rini kuzataylik [1, 37]:

*Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitgani yo 'qdur,
Temir barmoqlaring dog'i butkul ketgani yo 'qdur.*

V --- // V --- V --- // V ---

V --- // V --- V --- // V ---

Kishan – inson, millat ravnaqiga to'siq bo'luvchi, uning harakatini cheklovchi timsol. Ijodkor undan qutulish uchun qayg'urar ekan, umidsiz ruhiyatidagi so'lg'inlikni ifoda etadi. Kishanning og'riqlari taftini mazkur she'rga yuqtiradi.

Bundan tashqari, jadidlar ijodida yuz bergan adabiy hodisalardan yana biri aruz vazniga turoqning kirib kelish hodisasidir.

Cho'loning "Ko'ngul" she'rini kuzataylik [1, 38]:

*Ko'ngul, sen bunchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor –
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi,
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmu?
(Hazaji musammani solim)*

Aruz vaznida turoqning kirib kelishi aruz vaznida ham, sarbast va erkin vaznlarda ham mavjud bo'lmagan holat edi. Bunday holat U.Nosir ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga g'arbcha uslubni olib kirdi. Ayniqsa, shoir ijodida rus adabiyotining ta'siri katta bo'ldi. Masalan, shoir she'riyatida mavjud bo'lgan sarbast (erkin) she'rlar rus adabiyoti ta'sirida shakllangan edi. Erkin she'r – (ruschadan kalka: "волний стих") – rus she'riyatidagi sillabo-tonik she'r tizimi asosida paydo bo'lgan, misralaridagi stopalar soni bir xil bo'lmagan she'r shakli ekani ma'lum.

"Geyne bilan o'rtoq tutindim, Lermontovdan ko'mak o'tindim" degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining maftunkor fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga, Sharq adabiyoti va xalq og'zaki ijodining boyliklarini ham egallashga intildi. Shoirning "Yurak" she'riga e'tibor qarataylik [2, 5]:

Yurak sensan mening sozim,

V --- // V ---

Tilimni nayga jo'r etding.

V --- // V ---

Ko'zimga oyni berkitding,

V --- // V ---

Yurak – sensan, ishqibozim.

V --- // V ---

She'r bir qaraganda, barmoq vaznida yozilgandek tuyuladi. Chunki unda rukn emas, turoq bo'lganligi sababli barmoq vaznidagi kabi yengil o'qiladi. Ma'lumki, aruz qoidasiga ko'ra, bu vazn hijolarning miqdori, uzun-qisqaligiga asoslanadi. Bu she'r ruknlarning miqdori, tarkibi, tartibi mazkur vazn qonuniyatlariga asoslanadi. Demak, bu lirik parcha aruzning hazaji murabba'i solim vaznida yozilgan.

Yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim: Jadidlar rus adabiyoti ta'siriga tushib ijod etgan emas. Ularning badiiy tafakkuri mumtoz adabiyotning sara ijodkorlari asarlari bilan sug'orildi, kamolga yetdi. Biroq rus adabiyoti ta'sirida qayta ommalashgan barmoq va sarbast vaznlarida (bu vaznlarning dastlabki na'munalari "Devonu lug'oti-t-turk" asarida uchraydi!) tuyg'ularni ifoda etishda yangicha usul va uslublar zaruriyat ekani, uzoq davom etgan klassik janrlardagi shakl va mazmundagi turg'unlikdan bir qadar zerikish bo'lganligini, shuningdek, XX asrda mavjud ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni qalamga olish uchun uchun barmoq va sarbast

vaznlarning qulayligi va imkoniyatlarning chegaralanmaganini nazarda tutilganda, janrlada jadid adabiyotining mazmun va shakl jihatidan yangilanishi tabiiy ehtiyoj edi. Shu nuqtai nazardan mumtoz an'alarga o'zgarish kiritish vaqti kelgandi. Shu sababli, asrlar davomida yetakchi bo'lgan bu tizim o'z o'rnini barmoq vazniga bo'shatib bera boshladi. Natijada, aruzdagi badiiy topilmalar va timsollar ijtimoiylasha bordi, aruzdadi ayrim qonuniyatlar barmoq vazni ta'sirida o'zgarishga uchradi. Natijada, barmoqda yengil o'qiladigan she'rlar turoqlarga emas, aruz vaznidagi ruknlarga asoslandi. Ba'zi hollarda esa to'lig'icha g'azal shakllari saqlanib qoldi. Biroq g'oyaviy jihatdan ijtimoiylashish hodisasi yuz berdiki, bu – janrlar takomilida muhim burilish bo'ldi.

Jadid adabiyotining qaysi biy vakilining tarjimai holiga qaraydigan bo'lsak, hammasi yoshligidanoq mumtoz asarlarni o'rganganini kuzatamiz. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi shoirlar ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. Buni U.Nosir ijodida ham ko'rish mumkin. U mumtoz ijodkorlarimizning durdona asarlarini ichki teran nigoh bilan tahlil qilib chiqdi va ularning natijasi o'laroq takrorlanmas sara asarlar yarata boshladi. An'anaviy bilimlar uchligi bo'lgan: vazn, qofiya va badiiy san'atning takrorlanmas jilolari aynan go'zal satrlarida tajalli etdi. Ya'ni Turob To'la ta'kidlaganidek: "She'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yuboradigan" shoir, nazmning turli mavzularida ijod etdi. O'sha paytlarda adabiyot olamida "Sharqda Pushkin, O'zbekistonda Lermontov paydo bo'libdi", – degan xabarlar tarqaldi. Uning asarlari turli tillarga zudlik bilan tarjima qilinib, she'rlari va dostonlari yod olingan. Chunki uning asarlari oddiy xalqona tilda yozilgani uchun tez tanila boshladi. "Dengiz oyna kabi yaltirar" she'rida: "Dengiz oyna kabi yaltirar" tashbehi ko'z o'ngingizda sarhadsiz dengizni ifodalab, qimirlab turgan to'lqinlar beixtiyor oynada aks etayotgan oppoq nurni paydo qilgandek tasavvur uyg'otadi. Oqqushlarning mungli ovozi shoirning qalbini o'rta, ko'nglida jo'sh urayotgan toshqin tuyg'ularni mavjlantirib hayratga tushiradi, uning suqini keltiradi va go'zal manzaradan ko'z uzolmaydi:

*Qanday yaxshi, kechqurun yolg'iz
Yursang, ko'ngil asti to'ymasa,
Oy go'yoki parishonhol qiz,
Sochlarini yozib oynasa. [4, 163]*

Usmon Nosirning ijodiy merosidagi bu takrorlanmas jihatlar, xususan, oyni parishonhol qizga o'xshatilishi yoki uning nurlari yoyilgan sochga qiyoslanishi go'zal tashbeh. Mumtoz adabiyotda oy obrazi yorning yuzi, ma'shuq visoli kabilarni ifodalashda ishlatilgan. Bunday tashbehtar shoirning shakllanishida klassik adabiyot vakillari ijodining ta'siri naqadar yuksak ekanini ko'rsatadi. Usmon Nosir she'rlarida oy, dengiz, to'lqin, shamol kabi obrazlarni yaratar ekan, ularni goh kuldiradi, goh oynatadi, goh yig'latadi, xullas, insonlar kabi harakatlantiradi. Shoir o'z she'rlarida oy timsoliga ko'p murojaat qiladi. Masalan:

*Yurganmisiz birga oy bilan,
Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?
Maysalarga shabnam qo'nganda,
Shunday yaxshi tun bo'lar ekan. [3, 162]*

Boshqa bir o'rinda Usmon Nosir shunday yozadi:

*Sening oying menikidan chiroylimi?
Ayriliqqa bardosh berib chidaydimi?
Qayg'usini kulgi bilan,
Shodligini yig'i bilan
Izhor qila oladimi?*

Dastlab, "oying" so'zining ma'nosi tahlil qilinsa, ikki xil ma'no ifodalaydi: 1-ma'no: "sevgili mahbuba"; 2-ma'no: "oy" ya'ni osmondagi oy mazmunida qo'llangan. O'zbek mumtoz adabiyotida iyyom san'ati bo'lib, "shubhaga solish" degan ma'noni ifodalaydi. Bu san'at haqiqiy va majoziy ma'nolarga ega, yohud shaklan bir, ma'no jihatdan har xil bo'lgan so'z yoki so'z birikmasini she'riyatda qo'llagan holda bir baytda ikki xil ma'noni ifoda etishdir. Yoki shu misrada "Qayg'usini kulgi bilan, shodligini yig'i bilan izhor qila oladimi" tarzidagi fikr bor. Bir

qarashda tazod san'ati deb o'ylaysiz-u, lekin unda muqobala shaklidagi san'at borligini misra mazmundan anglab olish mumkin. Muqobala "qarshi kelish" "ma'nosini ifodalaydi va she'r baytlarida bir-biriga zid tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni keltirib, ular vositasida muayyan bir g'oya, fikrni ta'sirchan ifodalash san'ati hisoblanadi. Inson boshiga tushgan sinovli kunlarni mardona kulgi bilan yengib, shod bo'lgan damlarida izzatli onlarni ham unutmaslik kerak degan fikrni ifodalash uchun aynan shu san'at turidan unumli foydalangan. Demak, Usmon Nosir mumtoz adabiyot namunalarini mukammal bilgani va ularning biri-birini takrorlamaydigan jihatlarini shoirona sa'jiya bilan farqlagani uchun shunday durdona asarlar yaratgan. Bu jihat uning barcha she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar o'zbek poeziyasi tarixida mavjud an'analarning rivojlantiruvchisi va yangicha uslublarning yaratuvchisi sifatida yangicha barmoq she'r tizimida mumtoz an'analarni olib kirdi va keyingi davr ijodkorlarining shakllanishida muhim vazifani o'tadi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho'lpon. Binafsha. – T. Adabiyot, 2021.
2. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. – T: O'z.Dav'nashr, 1959.
3. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 1-tom. – T: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
4. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. 2-tom. – T: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.

MUHSINIY SHE'RIYATIDA IJTIMOIIY MUHIT TALQINI

**Furqat TO'XTAMURODOV,
O'zbekiston, TDO'TAU, PhD**

Annotatsiya. Husaynquli Muhsiniy XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni lirik asarlarida o'ziga xos tarzda tasvirlab bergan. Shoir she'riy asarlari zahiriga yurt va millat boshiga tushgan ko'rgiliklarning sabablarini ko'rsatadi va bu musibatlardan qutulish yo'llari haqida fikrlarini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: jamiyat, davr, g'azal, mavzu, ijtimoiy, ozodlik.

Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy devonida ijtimoiy mavzu yoritilgan asarlar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Zero, shoir yashagan davr ijodkorlari asarlari ijtimoiy mazmun kasb etishi bilan xarakterlidir. Adabiyot ushbu paytda kelib, millat hayotining og'ir va ayanchli ahvolini yoritishdek muhim bir vazifani bajarishga kirishgan edi. B.Qosimov XX asr boshlari o'zbek milliy she'riyati haqida quyidagicha yozadi: "Biroq 10-yillar she'riyati ma'rifatni maqsad emas, vosita deb bildi. "Kuchlik" millatlar – "jahon Jayhunlari" haqida yozdi. "Kuchisiz"larning ularga luqma ("tu'mai tayyo") bo'layotganliklariga (Avloniy) diqqatni qaratdi". Bugina emas, she'riyat yangi qurilajak davlat va jamiyatning siyosiy tuzumidan axloqiy turmushigacha, iqtisodidan madaniyatigacha qiziqdi. Xullas, 10-yillardagi yangi o'zbek she'riyati, bu birinchi navbatda, ijtimoiy-siyosiy she'riyatdir [1, 215-216].

Turkiston o'lkasining ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy-ijtimoiy jihatdan inqirozga yuz tutganini ko'rib, bundan hadsiz izzat chekkan ma'rifatparvar hamda jadidlar qatori Muhsiniy ham she'rlarida jaholat, adolatsizlik va jabr-zulmni qoraladi.

Muhsiniy nechog'lik murakkab va ziddiyatli davrda yashaganini she'rlarida mana bu tarzda ta'sirli ifodalaydi:

*Jahon lazzatig'a ko'p chekmag'il ranj,
Achchig'durkim oxiri ta'mi noranj.
El ichra o'lg'usi qadri ziyoda,*

Sadoqat birla o'lsa kim suxansanj.

Nifoq-u kufr birlan to'ldi olam,

Buxoro, xoh Farg'ona, ham Urganj [2, 21-22].

Shoir fikricha, bu olam lazzatidan bahramand bo'la olmadim deb ranj-u alam chekish to'g'ri emas. Chunki noranj – apelsinning oxirini esangiz, ta'mi achchiq. Adib bu dunyoni apelsinga o'xshatgan va uning o'ziga xos iztirobli sinovlari borligini ta'kidlagan. Kimki sadoqatli, so'zamol bo'lsa, el ichida hurmat va izzat topadi. Ammo bu olam nifoq va kufrga to'ldi. Shu sababli shoir nobakorlar, ilmsizlar ulug'lanayotgan zamondan o'ksinadi. Butun Turkiston – Buxoro, Farg'ona va Urganch kabi shaharlar ham shu ahvolga tushib qolganidan afsuslanadi. Shoir millat ahlini ilimli, din-u diyonatli, ozod ko'rishni xohlaydi, uning taraqqiy etishini orzu qiladi. Albatta, bu orzularga erishish uchun ilm-ma'rifatni asosiy vosita deb biladi, millat ahlini ma'rifatli bo'lishga chaqiradi. Shoir xuddi jadidlar kabi maktab ochishga xayrixoh bo'lib, islom dini ahkomlarini ham unutmashlikni o'z she'rlarida ifodalaydi. Adib she'rlari mazmun-mohiyatiga ko'ra jadidlar g'oyalariga hamohangdir. Zamon manzarasini mana bu g'azalida yaqqol tasvirlab beradi:

Ketti Farg'onadin insof-u diyonat afsus,

Bu sababdin boshimiz uzra kelib qavmi o'rus.

Qildi Xo'qand shahi o'rdau Arki oliysin

O'zig'a butxona, osub anga jalojil noqus.

Qolmadi yosh-u qari o'rtasida sharm-u hayo,

Ketti odob, yana or ila nangu nomus [2, 39-40].

Muhsiniy tom ma'noda taqvodor inson bo'lganligi uchun zamondagi o'zgarishlarni, ayniqsa, islom dini qoidalariga mos kelmaydigan yangi odat va amallarni o'z vaqtida tez tushunib etgan. Bu kabi “yangiliklar” yurt ravnaqi va millat ma'anaviyatiga raxna solishini ta'kidlaydi. Shuning barobarida, Chor hukumati siyosatining asl maqsadini anglagan ijodkorlardan edi. Shu bois shoir jamiyatdagi illatlarni lirikasida achchiq til bilan bayon etgan:

Vahki, Farg'ona eli motamsaro bo'ldi, darig',

Sifla, dunlar – shoh, shahlarkim gado bo'ldi, darig' [2, 50].

deya afsus-nadomat chekkanida uning Vatan taqdiri uchun nechog'lik kuyungani, ko'ngil iztiroblarini qanchalik ta'sirli ifodalagani yaqqol namoyon bo'ladi. Keyingi baytlarda shoir xalq ichida mustabid Rusiya hukumati qonunlari, nizomlari joriy bo'lganidan afsuslanadi, shariat ahkomlari va payg'ambarimiz sunnatlarining qadrsizlanganidan nadomat chekadi. Hukumat qonunlari zolim poraxo'rlarga ayni muddao bo'ldi, deya ayrim nafs-u havo quli bo'lgan amaldorlarga nafratini izhor etadi. Mana o'sha bayt:

Xalq aro joriy o'lub, dasturu qonunu nizom,

Ham xilofi shar'i amri Mustafo bo'ldi darig' [2, 50].

Shoir g'azalning keyingi baytida barcha zamonlar va davlat boshqaruvida mavjud bo'lgan zulm, poraxo'rlik kabi jamiyatni tanazzulga olib boradigan illatlarni avj olganidan afsus chekib, bilan shunday yozadi:

O'ldilar zolim hukumat ahli rishvat olibon,

Xotirig'a poraxo'rlik muddao bo'ldi darig' [2, 51].

Muhsiniy boshqa bir g'azalida olam mo'min odam uchun zindon-u qafasga aylanganidan yozg'uradi. Uning sababi esa jannatmonand buyuk tarixga ega yurt yahudiy va cherkaslar qo'lida zalil bo'lganidan. Shuning uchun fazl-u hunar sohiblari barchasi xor qilingan, hamma pastkash, nokaslar muhtaram ko'rilganidan nadomat chekadi. Shoir she'rlari orqali o'zi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini ifodalab beradi. Quyidagi baytlar yuqorida keltirgan fikrlarimizni asoslaydi:

Bu jahon mo'mina zindon-u qafas,

Ravzai xuldi yahudiyi, charkas.

Donish-u fazl-u hunur zumrasi xor,

Muhtaramdur hama dun-u nokas [2, 40].

Shoir bir g'azalida umrni behuda o'tkazish, havo nafsga qullik, shariatni zalil-u poymol

etish, jaholat va qabohat singari shaxsni kamolotdan, jamiyatni taraqqiydan to'suvchi nuqsonlar qattiq tanqid qilinadi. Bu hol, o'z navbatida, yurtning mustamlaka girdobiga tushishiga sabab bo'lgani g'azalning quyidagi baytida ta'sirchan ifodalangan:

*Ketmasa insof eldin, kelmag'aydi yurtg'a,
Rus qavmikim, sarig' ruxsora-yu feruza ko'z [2, 36].*

Eldan insof-diyonatning ketganligi Yurt boshiga tushgan ko'rgiliklar – sarig' yuzli, feruza ko'zli rus qavmini kelishiga sabab bo'lganga urg'u beradi.

G'azal janriga oid she'rlar matnida aksar hollarda shoirning lirik kechinmasi bilan bir vaqtda ijtimoiy voqelik ham badiiy talqin etiladi. Matnda o'zgartirish va tahrirlar ba'zan ijodkorning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Matnshunos Nafas Shodmonovning yozishicha: "...matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar ta'sirida matnning ayrim o'rinlariga munosabatini o'zgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va o'zgartirishlar matnning materiali, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g'oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi" [4, 22].

Yuqorida bayti keltirilgan g'azal ijtimoiy voqelikning badiiy talqin qilinishi bilan Muhsiniy lirikasida muhim o'rin tutadi. Ushbu g'azal nashr qilingan devonda 10 bayt shaklida berilgan. So'ggi kuzatishlarimiz natijasida 7392 inventar raqamli qo'lyozma devonda esa, mazkur g'azal 11 bayt bo'lib, 10-bayt nashrdan tushirib qoldirilgan. Mana, o'sha bayt:

اصلزاده نسبتدین قالمدی فرغانه ده
قالغانی قیر غز قیچاق تاجیک مرغیت یوز

Aslzoda nisbatidin qolmadi Farg'onada,

Qolg'oni qirg'iz-u qipchoq, tojik-u mang'it-u yuz [3, 7392.35^a].

G'azalning dastlabki baytlarida ifodalangan fikrlarning asl sababi mazkur misrada ochiqqlanadi. Ya'ni yurtning tanazzulga yuz tutishi, xalq orasidan insof-u diyonatni ko'tarilishi va mustamlaka girdobiga tushib qolishi aslzoda, mard, vatanni boshqaradigan insonlar qolmaganidan deb biladi.

Shuningdek, ijtimoiy mavzudagi 11 baytli boshqa bir g'azalning maqta'si nashrda aks etmagan. Ushbu g'azal maqta'i asliyatda quyidagicha berilgan:

محسنی کچه قرانغوسی ایرور حامله دار
توغا دور صبح سعا دت انکا اولمه مایوس

Muhsiniy kecha qorong'usi erur homilador,

Tug'odur subhi saodat anga o'lma ma'yus [3, 7392. 36^b].

G'azal maqta'i shoir ijodiy niyatining xulosasi ifodalangan bilan alohida ajralib turadi. Maqta'ning tushirib qoldirilishi she'r matnining mantiqiy jihatdan yakunlanmay qolishiga sabab bo'lgan. Natijada shoirning g'oyaviy maqsadi, izhor etmoqchi bo'lgan fikri kitobxon nazaridan chetda qolgan. She'rda Vatan va xalq boshiga tushgan qora kunlardan shikoyat ohangi ustuvorlik qiladi. Shoir mustamlakachilik siyosatini kecha qorong'isiga o'xshatsa, subhi saodat – baxt tongini erk va ozodlikka qiyoslaydi. Ya'ni, zulm kechasi qorong'i bo'lsa ham u ozodlikka, hurlikka homilador. Ey Muhsiniy, shu bois sen g'amdan ma'yus bo'lma, yurtning ozodlikka erishish kunlari yaqindir – baytda ana shu mazmun betakror badiiy ifoda etilgan. Darhaqiqat, kecha qanchalik qorong'u bo'lmasin, undan keyin yorug' tong keladi. Tunning subhi saodatga homilador bo'lishi – o'zga biror shoirda uchramaydigan ohorli tashbeh! Ko'rinadiki, shoir boshqa ko'plab zamondoshlari singari millat, el-yurt dardi bilan yashagan, uning erk va ozodlikka erishmog'ini orzu qilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Husaynquli Muhsiniy XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarini teran o'tkir nigoh bilan ko'ra olgan jadidlarga hamohang ijodkorlardandir. Muhsiniy lirik asarlarida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va muammolarini badiiy ifodalay olgan, hamda o'zining munosabatini bildirgan shoirlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимов Б. ва бошқа; Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти –Т.: Маънавият, 2004. –Б 215-216.
2. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.168.
3. ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма.
4. Шодмонов Н. “Шоҳид ул-икбол” – адабий манба. – Тошкент: Muharrir, 2009. – Б.22.

KOMIL XORAZMIY MASNAVIYLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Dilnoza XUDAYAROVA,
O‘zbekiston, Urdu, o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva adabiy muhiti va mumtoz adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri Komil Xorazmiy ijodining masnaviy janri namunalari tahlilga tortilgan. Ularning badiiy xususiyatlari va g‘oyaviy o‘ziga xosligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Komil Xorazmiy, masnaviy, obraz, ishq, oshiq, an‘ana, mahorat.

Masnaviy janrida ijod qilish Komil uchun o‘z fikr-mulohazalarini kengroq ifodalash imkonini bergan. Ikki misradan tashkil topuvchi baytlar mustaqil qofiyalanish tizimiga ega bo‘ladi. Komil lirik merosida 8 ta masnaviy mavjud. Matnshunos Sh. Nuriddinovning ta’kidlashicha, ularning eng kichigi 13 bayt bo‘lsa, eng kattasi 168 baytni tashkil qiladi. Shuningdek, shoir masnaviylariga xos xususiyatlardan biri ulardan oldin asarning yaratilish tarixi aks etgan izoh-sarlavha berilishi, deb ta’kidlab o‘tadi va quyidagi كرم بحرى دُرّ غلطانى deb boshlangan masnaviy yaratilish tarixini esa muallif quyidagicha izohlaydi: “Amir-ul umaroning devonbegisi Muhammadniyoz devonbegi muhriga qozdurmoqg‘a bir saj’ darkor bo‘lub, faqirg‘a oytib yiboribdurkim, bir saj’ mashq yiborsa, muzchig‘a bir tanga berurmiz deb. Oning so‘zi javobida bu masnaviy bitilib erdi va yana Muhammadrizo mirob al-mulaqqabi bal Ogahiykim, amiri mazkur g‘a xurufat g‘azal va qasidai g‘arro mashq qilib eltkonda jungan in‘om qilur erdilar. Ul dog‘i ushbu zakovatdin erdi” ushbu masnaviy shoirning “Tanlangan asarlar” to‘plamiga ham kiritilgan bolib, masnaviyning dastlabki 6 bayti qisqartirilib berilgan. Masnaviyning qisqartirilgan baytlarida shoir Allohning go‘zal sifatleri, himmati, uning cheksiz karam sohibi ekanligini ta’kidlab, shunday misralar bilan boshlaydi.

Ey karam bahrining durri g‘altoni,
V-ey saxovat javohiri koni.
Ey vafo durjining samin gavhari,
V-ey saxo bog‘i nahlining samari,
Ey guli gulistoni hilm-u hayo,
Oftobi spehri bazl-u ato.
Ham kaloming erur guhar yanglig‘,
Qadrdonlig‘aro naziring yo‘q.
Bo‘limg‘on dahr aro asiring yo‘q.
Himmating ollida jahon moli,
Bir ovuch tiyra xok tamosholi. [1, 27]

So‘z – she‘r va shuaroning asosiy ta’sir quroli. So‘zning hayotbaxsh qudrati doimo yuqori baholangan. Ammo Komil o‘z davrida so‘zga, so‘z ahliga munosabat borasida o‘z haqiqatlarini ayta olgan. So‘z gavharlarining jugancha qadri, qiymati yo‘qligidan afsuslanadi:

Yo javohirshunos emasmu alar,
Tanimaslar jungan bila gavhar.
Yo g‘alat deb dururlar ahli sadaf,
Yo jungan bordurur guharga xalaf.
Yoki lafzi qadimda derlar

Jugari otini alar gavhar. [1, 27]

Navoiy lirikasining Komil she'riyatiga ta'sirini ushbu masnaviyda ifoda etilgan estetik qarashlarida o'zaro uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Hazrat Navoiy ta'rifida so'z "inson zoti ma'danining javohiri serobi durur" deya uqtirib, uni nazmda shunday ifodalaydi:

So'z guharig'a erur oncha sharaf,

Kim bo'la olmas unga gavhar sadaf. [1, 27]

Komil ham Navoiyga hamohang tarzda so'zni gavharga, durga qiyoslaydi. Lekin o'z zamonasida durni juganga sotish fan bo'lganligidan shikoyat qiladi.

So'zni gavhar demishlar o'tkanlar,

Fazl do'konini yuritganlar,

Bu zamonda guhar jungan bo'lmish,

Durni sotmoq juganga fan bo'lmish. [1, 27]

Shoir fikrlarini davom qildirar ekan, so'zni guhardin qimmatbaho, nazmi purma'no zamondoshi Ogahiyini fazl-u donish sohibi sifatida ta'riflaydi:

Ulki ogahlarning ogahidur,

Fahm-u donish sipehrining mahidur.

So'zi ortiqdurur guhardin ham,

Fazl-u donishda olam ichra alam. [1, 27]

Masnaviy xotimasida so'zining qadrsizligidan shikoyati tarzida xalqona ruhda achchiq kinoya bilan yakunlaydi.

So'zuma hech kishi jungan bermas,

Bersalar ham samon - yamon ermas. [1, 27]

Komil ijodkor mehnatiga bepisandlik, so'zga bepisandlik bilan munosabatda bo'lgan kishilarga o'z haqiqatlarini ayta oldi. Ilm va ma'rifat yo'lida haq so'zni aytgani sababli hayot ziddiyatlari bilan to'qnashdi, azob-u kulfatlarga chidadi.

Komil o'z masnaviylarida zamonga, ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabatlarni bayon etgan. Jumladan, uning "Hazrati a'lo hoqoniyning to'raliq ayyomida Ya'qubxo'jakim, xizmatlarida mahram-u nadim, devon-u munshiylik bobida bu faqirg'a sharik-u sahim erdi. Ondin kulahmand bo'lub, ushbu masnaviy tahrir silkiga chekilib erdi" sarlavhali masnaviysi ijtimoiy-siyosiy lirikaning yorqin namunasi bo'la oladi. Unda muallif zamonasidagi amaldor qiyofasini berish orqali jamiyatdagi illatlarni, achchiq haqiqatlarni ochib berdi.

Har kunda olur tilla-u tanga,

Bermas birin bu holi tanga,

Hosil kirar onga ikki yondin,

Shahzodadin-u shahi jahondin.

So'zlashganimizda der: "sharikim"

Topg'onini yakka yer sharikim. [1, 27]

Komil Xorazmiy masnaviylari orasida hasbi hol tarzida yozilgan va juda ko'plab ilmiy bahslarga sabab bo'lgan masnaviysi haqida M.Yunusov va M.Berdimurodovlarning turlicha xulosalari, fikrlari, munosabatlari berilgan. M.Berdimurodova Komil merosini tadqiq qilgan M.Yunusov bu hodisaga biryoqlama noxolis munosabat bildirgan deydi: "Komil tarjima jarayonida ba'zi masalalar haqida Rojiiy bilan maslahatlashadi. Asar tayyor bo'lgach, xonga taqdim etadi. Biroq Rojiiy "Asarni Komil emas, men tarjima qildim" degan da'vo bilan chiqadi. Xon esa surishtirmay-netmay, qilingan xizmatning mukofoti sifatida Rojiyga bir hujra berib, ko'p iltifotlar ko'rsatadi" – deydi-yu, ammo bu ma'lumotni qaysi manbadan olganini yozmaydi. Ushbu fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi, deya noxolis baho bergan tadqiqotchimiz aslida bu ma'lumotni M.Yunusov asl manbaga, ya'ni masnaviyda keltirilgan fikrlarga tayanib aytgan. Masnaviyni kuzatar ekanmiz, shoir bu voqealarni shunday aytadi:

Xizimating sarbasar bo'lub zoye,

Bo'ldi Rojiyning otig'a shoye',

Sen chu qilding bu xizmat izhori,

Kechdi Rojiyning otig'a bori

Sen bo‘lub tiyri ta’na omoji
 Topdi altofi shohni Rojiy
 Sen bo‘lub dard-u g‘ussa pomoli,
 Shoh anga berdi hujrai oliy.
 Shuningdek, tadqiqotchi Komilning tarjima borasidagi ushbu misralarini keltiradi:
 Turk oni Rojiy qilmamish erdi,
 Lekin andak anga ko‘mak berdi.
 Chu bir ustod etar bir ishni bunyod,
 Berur anga ko‘mak, necha ustoz. [2, 40]

Komil Xorazmiy Rojiy unga ko‘mak berganini aytib turib ustoz qatorida ulug‘layapti, degan noto‘g‘ri fikrni beradi. Aslida masnaviyni boshdan-oyoq kuzatsangiz, tadqiqotchi aniq va tugal fikr berishda xatoga yo‘l qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu misralarni masnaviyda shoir qanday maqsadda qo‘llaganini va misralarga xolis baho berish uchun masnaviyni quyidagi misralari bilan birgalikda tahlil qilsa, asl mazmunga aniqlik kiritilgan bo‘lar edi.

Uchrabon yo‘lda beki fahmida,
 Dedi: ey charxdin sitamdida.
 Kecha bu nav’ dedi shohijahon.
 Bo‘ldum ul lahza man dog‘i hayron
 Ki, dedim xusravo falak joho.
 Shahriyoro, sipehri dargoho,
 Turk oni Rojiy qilmamish erdi,
 Lekin andak onga ko‘mak berdi.
 Chun iki qatla bu so‘z eshittim.
 Lol bo‘lub, aql-u hushdim ketdim.[3, 24]

Ko‘rinadiki, Komil Rojiy tarjima jarayonida ko‘mak berganini yozadi. Rojiyni ustoz deb e’tirof etganida, ushbu voqeani eshitgan shoir ikki qatla so‘z eshitib, aql-u hushdin lol bo‘lub ketdim, degan fikrlarni yozmas edi. Demak, M.Berdimurodova M.Yunusov fikrlariga baho berganda bir yoqlama yondashgan.

Bu bilan Komil Rojiyga nisbatan dushmanlik kayfiyatidan bo‘lgan demoqchiasmiz. Saroy muhitida ijod qilgan bu ijodkorlar to‘g‘risida xulosaviy fikr aytishdan oldin ularning ijtimoiy muhitini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Bizningcha, Komil bu masnaviyda Rojiyga bo‘lgan munosabati yoki shohning unga qilgan iltifotini ko‘rsatishni maqsad qilmagan. Aslida shoir shohni adolatli bo‘lishini, mazlum bir kishi sifatida nola-fig‘onini bayon etadi va shohning lutfi doim yor bo‘lishini istaydi.

Komil lirikasining asosini tashkil qiluvchi ishq mavzusi shoir masnaviylarida yangicha ohang va jozibada takrorlanmas tarzda ifodalandi. Komilning ishqiy masnaviysi “Bir mahbub taashshuqi hangomida bitilib erdi” deb nomlanadi. Masnaviy 150 misradan tashkil topgan, unda shoir oshiqning aql-u xiradini olishiga, subhini shom, yuzini zard bo‘lishiga sabab bo‘lgan “inson sifat-u farishta siyrat” ma’shuqaning go‘zal tasvirini berishdan boshlaydi. Bu tashbeh-u istioralar mumtoz an‘analarni eslatsa-da, Komil nazmining ifoda imkoniyatlari o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shoir yorning husn-u jamoli ila podshoh, mahbublig‘ osmoni mohi, deya takrorlanmas tashbehlar qo‘llash bilan bir qatorda, uning go‘zal xulqi va ilmiga alohida urg‘u beradi:

Jabhangda nishoni hilm paydo,
 Nutqingda ramuzi ilm paydo,
 Zoting kelibon vafoga ma’dan,
 Ondoqki yuzing hayoga ma’dan. [3, 25]

Oshiq oshiqlik ishida sodiqligini ta’kidlaydi: ishqini necha zamon yoshurgani, firoqidin kimsaga so‘z aytmagani, el yonida tilni lol qilganini, oshiqlik ishini bajo keltirishini izhor qiladi:

Husnungni chu ko‘rdim oshiq o‘ldum,
 Oshiqlik ishida sodiq o‘ldum.
 Ishqingni necha zamon yoshurdum,
 G‘am xanjarini ko‘ngulga urdum.

Ne kimga dedim firoqdin so‘z,
Ne mehnati ishtiyoqdin so‘z.
Ne kimsaga sharhi hol qildim,
El yonida tilni lol qildim. [3, 25]

Lirik qahramon ma’shuqaning ham unga bo‘lgan munosabatlaridan ko‘ngli to‘lib, xushxulq sohibi ekanligini ham ta’kidlab o‘tadi:

Ko‘z manzarida vatan qilurdin,
Doim manga lutf erdi shioring,
Xulqi xush edi hamisha koring,
Ag‘yor so‘ziga boqmas eding,
Afsuni bila uloqmas erding. [3, 25].

Komil masnaviyda oshiq va ma’shuqa, raqib obrazlari vositasida voqeani izchillikda bayon qiladi. Masnaviyda har bir obrazga xos xususiyatlarni hayotiy tasvirlar bilan beradiki, xuddi ko‘z oldingizda bu manzaralar jonlanadi. Oshiq raqib tufayli ma’shuqadan qanchalar jabrlanganini ta’kidlasa ham, uning nozik ko‘ngliga ozor bermaganligini ruju san’ati vositasida quyidagicha ifodalaydi.

Gustohliq ila so‘z dedimmu?
Yo g‘ayrdin ulfat uz dedimmu?
Yo amringi ayladimmu ta’xir?
Yo xizimating aylaganda taqsir? [3, 25]

Masnaviyi yakunlar ekan, shoir ruju san’atini qo‘llashda o‘ziga xos original tasvir va holatni bera olgan. Chunki, oshiq bir vaqtning o‘zida yor ko‘ngliga ozor bermaganligini aytish bilan birga ma’shuqaning husnda tengsizligiga, uning har bir a’zosiga chiroyli tashbehlar qo‘llash bilan alohida urg‘u beradi. Bu bilan shoir o‘quvchi tasavvurini ikki holat: oshiqning o‘z gunohini so‘rash holati va ma’shuqaning go‘zallikda tengsiz durdonaligini tasvirlash holatini beradi.

Yo orazingi quyosh dedimmu?
Yo sanga hilol qosh dedimmu?
Xolingni dedimmu nuqtayi jon?
Yo la’li lalingni obi hayvon? [3, 25]

Xullas, Komil masnaviylarida oshiq va ma’shuqaning ishqiy kechinmalarini jonli, hayotiy, badiiy lavhalar orqali tasvirlagan. Oshqlik ishida sodiq – oshiq pok zamiri pok su’rat – ma’shuqaga bo‘lgan sof muhabbat orqali insonning buyuk yaratganga bo‘lgan pokiza tuyg‘ulari ulug‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. 1975. 213-bet.
2. Юнусов М. XIX аср шоири Комил Хоразмий ижодиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 1948. – 161 б.
3. Komil Xorazmiy. “Tanlangan asarlar”. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti. 1961.

KOMIL XORAZMIYNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI TO'G'RSIDA

Nigora BO'TAYEVA,
O'zbekiston, Jizzax DPU, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvarlik davri o'zbek adabiyotining zabardast vakili Komil Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy ma'rifiy qarashlari aks etgan lirik asarlari o'rganilgan. Shoirning ilm, ma'rifat va insoniy fazilatlarini egallash masalalariga bag'ishlangan g'azallari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: g'azal, insoniy fazilatlar, tama', fozillik, jaholat, kamolot, g'oya, mohiyat.

Komil Xorazmiy g'azalyotida insonga xos qusur va illatlarning qoralanishi, fazilatlarining ulug'lanishiga misollar ko'plab uchraydi. Masalan, shoirning "Tama'" radifli g'azalida insonning zalolatiga sabab bo'ladigan, uni xorlikka muhtalo qiladigan illat qoralanadi. Shoir ko'ngilga murojaat qilib, agar jismingda jondan umidvorlik bo'lsa, zamona ahliidan aslo tama' kayfiyatida bo'lmaslik lozimligini uqtiradi:

Ey ko'ngul, zinhor qilma ahli davrondin tama',

Bor esa bu xasta jismingga agar jondin tama'. [2, 88]

G'azalda shoir o'z zamonasining, bu o'tkinchi dunyoning dahri dun (teskari dunyo) ekanini, undan mukammallik istamoq foydasiligini ta'kidlar ekan, shunday yozadi:

Solim o'lmoqning sipehr osibidin imkoni yo'q,

Qilma hargiz ofiyat kunjin bu vayrondin tama'. [2, 88]

Bu o'rinda sipehr osibi – zamon ahliidan yetadigan musibatlardan inson hayotida tugallik, to'kislik umid qilib bo'lmaydi, deydi shoir. Bunday vayronadan tinchlik, omonlik tilamoq foydasiz.

Xoni vaslig'a raqibidin ionat istamak,

Aylagan yanglig' gado ilkidag'i nondin tama'. [2, 88]

Tirikchilik ilinjida raqiblardan yordam kutish go'yo gado qo'lidagi nondan umid qilgan kabi.

G'azal maqta'si shoirning bu boradagi qarashlarining xulosasi sifatida namoyon bo'ladi:

Olam ichra gar bo'lay desang azizu arjumand,

Aylama Komil kabi juz zilli subhondin tama'. [2, 88]

Tiriklik olamida o'ziga azizu arjumandlik tilagan inson tama'din yiroq bo'lmog'i lozim.

Lirikada inson tabiatining ikki qutbi – fozillik va johillikning ziddiyati ko'hna mavzu. Buni ko'plab mumtoz ijodkorlarning asarlarida o'z aksini topganini ko'ramiz. Shu jumladan, Komil she'riyatida ham ayni mavzudagi ikki g'azal fikrimizni dalillaydi. "Fuzalo" radifli g'azalning matla'sidayoq shoir o'ziga ezgu fazilatlarini kasb qilgan insonlar uchun dunyoning barcha mashaqqatlari qurshovida yashash qismat ekanidan yozg'iradi:

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,

Kulfat o'qig'adur nishon fuzalo. [2, 154]

Nozik qalb egalari doimo qiyinchiliklar girdobida – umrlari mashaqqatlar o'qiga nishonda. Ular uchun qalamu kitobdan boshqa do'st va dildosh yo'q:

Qalam ila kitobdin o'zga,

Tobmag'ay yoru hamzabon fuzalo. [2, 154]

Ularning yaxshiligi evaziga oladigan "mukofoti" ham johillarning tubanligi natijasida oladigan yomonlikdan boshqa narsa emas:

Kimga ko'rsatsa birgina behbud,

Topar o'truda ming ziyon fuzalo. [2, 154]

Johillarning qanchalik xizmatini qilmasin fozillar buning badaliga yemoqqa non topmaydilar. Nasibalari esa may o'rniga qon yutmoq:

Juhalog'a qilib mulozimliq,

Topmadilar yemakka non fuzalo.

Mayi gulrang oʻrnigʻa tayyor –

Koʻzlari sogʻarida qon fuzalo. [2, 154]

Shoirning “Juhalo” radifli gʻazali yuqorida tahlilga tortganimiz gʻazalning mantiqiy davomi sifatida yaratilgan, nazarimizda. Negaki, bu ikki gʻazal mohiyatan bir-birini toʻldiradi. Shoir “Fuzalo” sheʼrida asl odamlar toʻgʻrisida, ularning jamiyat xor-zor ekanliklari toʻgʻrisida fikr yuritgan boʻlsa, “Juhalo” sheʼrida shunga tamoman qarama-qarshi manzarani chizadi: razil pastkash odamlarning izzat va rohatda yashayotganlari, hukmfarmo ekanliklarini aks ettiradi” [1, 247]:

Boʻlubon jolisi avrangi jaholat juhalo,

Urdilar olam aro koʻsi jalolat juhalo. [2, 155]

Johillar mudom jaholat taxtida oʻtiradilar va olam aro buyuklik nogʻorasi (koʻsi jalolat) ni chaladilar. Adolat rasmini bilmaydilar, ishlari poraxoʻrlik. Ulusning arzu dodi ularni mutlaqo bezovta qilmaydi:

Noʻsh etib rishva mayin, yetmay ulus dodigʻa,

Bilmadilar dame oyini adolat juhalo. [2, 155]

Ular musulmon jamiyatining turmush tarzini tartibga soluvchi shariat ahkomlariga ham parvo qilmaydi.

Hokimi sharʻgʻa tuz yoʻl aro boʻlmay homiy,

Qildilar rohi zalolatgʻa hidoyat juhalo. [2, 155]

Shariat hukmlarining ijrosi asosiy vazifalari boʻlsa-da, nuqul jamiyatni gumrohlikka, tubanlik yoʻliga boshlaydilar. Bu yoʻlda hatto shariat peshvolariga, ulamolarga xalal berib, oʻzlari singari johilu nodonlar rahnamolik qilishdan ham toymaydilar. Elning arz-dodini eshitish, shariat ahkomlariga tayanib uning muammolarini hal qilish oʻrniga quruq gap-soʻz va odatlariga aylanib qolgan parvosizlikdan nariga oʻtmaydilar:

Ulamogʻa berib ijroyi shariatda shikast,

Berdilar johilu nodongʻa himoyat juhalo.

Arzu dod amrida ahkomi shariatni qoʻyub,

Yurutub oʻrnigʻa qavliyat odat juhalo. [2, 155]

Sohibi dillarning nodon insonlardan chekkan aziyatlari, qilmishlaridan kelgan uqubatlar, ularning qalbini ozurda qilgan illatlar, jahl ahlining rohat-farogʻatda yashashi har ikki gʻazalda mahorat bilan tasvirlanadi.

Komil gʻazalyotida insonning kamolotga intilishi lozimligi boʻrtib turadigan, inson umrining mohiyati toʻgʻrisidagi masalalar koʻp bora qalamga olinadi. “Komil kishilarni doimo oʻqib-oʻrganishga, oʻz shaxsiy kamolati, aqliy rivoji uchun harakat qilishga, kurashga undar edi. Bu jihatdan uning “Kamol” radifli gʻazali xarakterlidir” [4, 85].

Gʻazal inson hayotining mazmuni, uning kamoloti moddiyatda – mol-mulkda emas, deya uqtiradi shoir. Aksincha, ilmu hunarni qoʻlga kiritish kamolotning asosi:

Emas kishiga bu dunyoda mulku mol kamol,

Husuli ilmu hunar keldi bezavol kamol.

Shoir nazdida ilmdan muddao nafaqat oxiratda najot topish, balki bu dunyoda ham izzat va ulugʻlikning sababidir:

Ulumdin sharafi oxirat emas yolgʻuz –

Ki, munda ham sababi izzatu jalol kamol.

Gʻazalda ilgari surilgan gʻoyalar, inson kamoloti borasidagi qarashlar shoirning salafi hazrat Navoiyning “Kamol kasbiga dalolatu nuqsonidin izhori malolat” sarlavhali quyidagi qitʼasini esga soladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz oʻlimgʻay gʻamnok chiqmoq.

Jahondin notamom oʻtmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq. [3, 710].

Bu, o'z navbatida, Komilning o'z salaflari ilgari surgan g'oyalar, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlariga ergashgan va ularga izdoshlik yo'lidan borib munosib javob ayta olgan ijodkor ekanidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Komil Xorazmiy g'azalyotini kuzatar ekanmiz, o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari, yuksak axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan beqiyos ma'naviy merosi bilan o'zbek mumtoz adabiyotida munosib o'rin tutgan ijodkor ekaniga guvoh bo'lamiz. Shoir lirik merosining ushbu jihatlarini alohida tadqiq qilish esa adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri ekani shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966.
2. Комил. Девон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.
3. Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. Ўн жилдлик. V жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2011.
4. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. V том. Тошкент: Фан, 1980.

SALOHIIYNING GUL VA BULBUL OBRAZI JADID ADABIYOTI NAMOYANDASI ABDULLA AVLONIY TALQINIDA

Surayyo SHODIYEVA,

O'zbekiston, Qarshi DU tayanch doktranti,

Yusuf AMONOV,

O'zbekiston, o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy obrazlar hisoblanmish gul va bulbul timsoli mumtoz va jadid adabiyotida qanday majoziy ma'nolar kasb etishi Salohiy hamda Avloniy ijodlari misolida talqin etilgan. Mazkur obrazlar o'zlarining an'anaviy ma'nolaridan butunlay uzoqlashgan va zamon talabiga mos yangi mazmun hamda ohang kasb etganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Salohiy, Avloniy, gul, bulbul, poetik obraz, tasavvuf, lirik qahramon, ijtimoiy muhit.

Har bir ijodkor o'z asaridagi muayyan g'oyani qator obrazlarda, ularning xatti-harakati, intilishi, qarashlari, kishilarga, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlari orqali ifodalaydi. Boshqacha aytganda, asardagi har bir obrazga alohida mas'uliyat qo'yilgan bo'lib, muallif ular orqali muayyan maqsadni amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, XVIII asrda yashab ijod etgan Salohiddin Salohiyning 1740-yil turkiy tilda yozilgan "Gul va Bulbul" dostonida ham muallifning ijodiy niyatiga mos tarzda bir qancha obrazlar yaratilgan. Salohiyning "Gul va Bulbul" dostoni tasavvufiy xarakterdagi asar bo'lganligi uchun unda ishtirok etuvchi obrazlarning barchasida tasavvuf timsollari aks ettirilgan. Asarning bosh qahramoni – Gul. Chunki Bulbulning bosh maqsadi unga yetishdan iborat. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Gul – Haqqa yetishish timsoli. Bulbul – Haq vasliga talabgor solik timsolidir.

Chin oshiq haqiqiy ishqqa yetish uchun esa endi jismdan ham voz kechish lozim. Majoziy ishq kamolga yetib borgan sari nafsning hissasi kamayaveradi. Xuddi shunday hol Bulbulda ham sodir bo'ladi:

Ki Gul ishqida Bulbul chekdi bir oh,

Ki ul oh ila joni chiqdi nogoh. [8, 46].

Mutasavvuf shoir – Salohiyning mazkur dostonni yozishdan asosiy maqsadi, ishq majoziydan ishq haqiqiyini kuylash bo'lgan.

Gul va bulbul obrazi keyingi davrlarda, xususan, jadid adabiyotida ham ramziy ma'noda qo'llanilib, ijodkorlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga mohirona singdirilgan. Mumtoz

adabiyotimizda ko'p yillardan beri qo'llanib kelingan gul, bulbul kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida o'zgacha ohang va mazmun kasb etadi: Shoirning "Fig'oni bulbul", "Sadoyi bulbul", "Ta'rifi gul", "Hijroni bulbul", "Bola ila gul", "Bulbul", "Gulistondan bir manzara", "Bahor keldi", "Go'zal bahor" kabi she'rlarida bu holat yaqqol tasvirlanganligini kuzatishimiz mumkin. Avloniyni quyidagi she'rida gul obrazi qo'llanilganki, u ma'shuqa go'zalligi-yu, oshiq iztiroblarini ifoda etmaydi:

Xor alindan bag'ri qon o'lmish, bo'yanmish qona gul,
G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gul...
Yuzdagi holi emas, zolim tikonning yorasi,
Kecha – kunduz zahmi g'am birlan butun o'rtona gul...
Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,
Xor zulmindan to'kar ko'z yoshini durdona gul... [2, 184].

Ushbu she'rdagi "gul" obraziga chuqur ijtimoiy mazmun yuklangan bo'lib, gulning qizilligi – xordan chekkan iztiroblari, g'unchaning gulga aylanishi – bag'rini chok qilishi, yuzidagi hol esa zolim tikanning yarasidir. Subhidamdagi tomchilar bo'lsa shabnam emas, gulning ko'z yoshlaridir. Bunday tasvirlar mustamlakachilik istibdodidan bag'ri qon bo'lgan xalqning ramziy ifodasidir.

Jadid adabiyoti namoyondalarining asosiy maqsadi va vazifasi Turkistonning barcha o'g'il-qizlariga yangi ta'lim va tarbiya berish orqali ularning ong-u shuurini uyg'otish (ko'zini ochish), ozodlikka bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish, mustamlakachilik zulmidan qutulish hamda ona zaminining hur va ozod bo'lishini ta'minlash edi. Avloniyni "Bulbul" she'rida ushbu g'oyalarning barchasi mujassamdir:

Bahor o'ldi bu on bulbul,
Ochildi guliston bulbul.
Yuraging bo'ldi qon bulbul,
O'qu oromijon, bulbul...
Yoz o'lmazsa, gul o'lmazdi,
Chamna ham bulbul o'lmazdi.
O'qugon johil o'lmazdi,
O'qu, ey xushfig'on bulbul.

Shoir bulbul deganda yosh o'g'il-qizlarni nazarda tutadi hamda ularga "o'qu" deb bong uradi. Shoir oxirgi parchada o'z taxallusini keltirib, o'zini yurtining ma'naviyatini, mudroq qalbini uyg'otuvchi "bulbul"ga qiyoslaydi:

Bahor ayyomidir ayyom,
Demish shoir Umar Xayyom.
Ketur, ey soqi, gulgun jom,
Bo'lur Hijron chunon bulbul. [2, 206].

Bulbul obrazi aksariyat hollardagi gul (ma'shuqa) ishqida yonib o'rtanayotgan oshiq emas, balki Turkistonga qarata: "Uyg'on!" – deb jar solayotgan lirik qahramon – shoir obrazini ifodalaydi:

Qo'nub gul shoxiga bulbul der: "Ey insonlar, insonlar!
Qilursiz tobakay g'ofil yotib afg'onlar, insonlar". [2, 151].

Yoki:

Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,
O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul.
Ko'rub gul yafrog'ini hajridin dod etdi bir bulbul,
Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul. [2, 113].

Avloniyni "Hijroni bulbul" she'rida yuqoridagi fikrlar tadriji davom etadi:

Bahor o'lsa, shabi hijron hamisha zor o'lur bulbul,
Gulining ishqida faryodi xushguftor o'lur bulbul. [2, 185].

Mazkur she'rda qo'llanilgan bulbul obrazi ma'shuqining ishqida faryod urib, muhabbat mulkida sulton bo'lgan oshiq emas. Bu she'r "asrlarni yig'latgan sevgi" haqida ham emas. Balki

mustamlaka zulmining achchiq qamchisini yegan, xalq dardida yashagan bulbullar-u o'sha davrda jahannam maydoni bo'lgan Turkiston haqidadir.

Xulosa qilib aytganda, Asrlar osha ishq va u bilan bog'liq tuyg'u-kechinmalarni yoritishga qaratilgan gul hamda bulbul kabi an'anaviy obrazlar mumtoz adabiyotimiz vakili – Salohiyning tasavvufiy dunyoqarashidan shakllangan bo'lsa, jadid shoirlari, xususan, Avloniy ijodida davr, zamon va ijtimoiy hayot bilan bog'liq muammolarni ifodalashga yo'naltirilgan. Bu esa XX asrning boshlarida jadid she'riyatining shakli va mazmuni, obrazlar olamida yangilanishlar yuz bera boshlaganligini bildiradi. Zero, obraz muayyan dunyoqarash bilan yo'g'rilgan aql mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017, 4 август.
2. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 272 b.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. -152 б.
4. Имомназаров М. Ҳақиқат ва мажоз (2 - 3-мақолалар) // Шарқ юлдузи. - Тошкент, 1989. - №4; 1991. - №4.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 448 б.
6. Олимов С. Ишқ, ошиқ ва маъшук. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992. – 80 б.
7. Salohiy. Gul va bulbul tasviri. O'zFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 577

AVOIYNING FORSIY MEROSI FITRAT TALQINIDA

Ziyadulla KENJAYEV,
O'zbekiston, QarDU, mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Navoiyning forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida” maqolasi haqida so'z boradi. Fitratning Navoiyning forsiy she'riyatda tutgan o'rni, forsiy devonlari to'g'risidagi ilmiy qarashlari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, Navoiy, Fitrat, forsiy she'riyat, Foni, fors shoiri.

XIX asr 80-yillaridan Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida yangi harakat – jadidchilik harakati maydonga keldi. Davlatchilik, siyosiy tuzum, davlat boshqaruvi, ta'lim tizimini isloh etish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, erkin va ozod vatan, obod va farovon hayot qurish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Jadidlar orasidagi yetuk olimlar, davlat va madaniyat arboblari, shoir va yozuvchilar, zamonaviy fikrli pedagoglar yurt obodligi va Vatan mustaqilligi yo'lida fidokorona faoliyat olib borishdi.

Shu o'rinda ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, adabiyotshunos olim Abdurauf Fitratning turkiy adabiyot namunalarini o'rganish, nashr etish, ilm ahliga tanishtirish borasida amalga oshirgan ishlarini ta'kidlab o'tish zarur. Fitrat Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-t-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlarining ilk tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. Fitratning ilmiy faoliyatida Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Turdi, Muhammad Solih, Mashrab, Bedil, Umar Xayyomlar haqida ham tadqiqotlar o'rin olgan. Xususan, “Navoiyning Forsiy shoirlig'i ham uning forsiy devoni to'g'risida” maqolasi o'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi bo'yicha yozilgan tadqiqot sifatida Navoiyshunoslik yo'nalishini boshlab bergan. Professor H.Boltaboyevning ma'lumot berishicha, maqola ilk bor “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalining 1925-yil 12-sonida chop etilgan. 1993-yili “Sharq mash'ali” ilmiy majmuasining 1-sonida qayta nashr etilgan.

Maqolada Fitrat Navoiyni nafaqat turkiy adabiyotda, balki forsiy nazmda ham ulkan ijodkor ekanini o'z davrining mashhur shoirlari: Davlatshoh Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, XV-XVI

asrlarda yashab ijod etgan mashhur fors tazkirachisi Som Mirzo (Somiyl), XIX asr tazkirachi va tarixchilaridan Rizo Qulixon Hidoyat, Husayn Voiz Koshifiylar ham tasdiqlaganini ta'kidlaydi.

“Boburnoma”da keltirilgan “Navoiyning forsiy she’rlari turkiy she’rlariga ko’ra kuchsizdir”, degan fikriga munosabat bildiradi. Navoiyni mashhur fors shoirlaridan Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Salmon Sovajiylarning bir qator mashhur asarlariga forsiy naziralar bitgani, “u zamonning eng katta fors shoirlari o’z she’rlarini ko’rsatgan, tuzatib berishlarini so’rag’anlar”ini [1, 5] aytib, “Navoiyning boshqalar bilan bo’lg’an adabiy munozaralari va mana bu chiroylik namunalar Navoiyning fors tilida ham teran, usta bir san’atkor ekanin ko’rsatadi, Uning forsiychada kuchsiz bo’lg’ani to’g’rida Bobirning ma’lumotini ko’b-da qabul etkusimiz kelmaydi”[1, 8] deb Boburning fikrini inkor etadi.

Fitrat maqolada Navoiy Salmon Sovajiyning “Safoyi safvati ro’yat birext obi bahor, Havoyi jannati ko’yat ba baxt mushku tanor” (Tarjimasi: Pokiza yuzining sofligi bahor suvini to’kdi, jannatdek manzilning havosi xushbo’ylik tarqatdi.) baytidagi tarse’ sana’ti haqida e’tiroz bildirgani aytadi. Baytni tahlil qilib Navoiyning e’tirozi to’g’ri ekanini ta’kidlaydi. Ma’lumki, tarse’ san’ati misralardagi har bir so’zning o’zaro ohangdoshligiga asoslanadi. Fitrat Navoiyning fikriga qo’shilgan holda Sovajiyning yuqoridagi baytidagi “ob va mushk” so’zlari bunday xusisiyatga ega emasligiga e’tibor qaratadi [1, 175].

Professor H.Boltaboyevning ta’kidlashicha, Fitratning ushbu maqolasi bilan navoiyshunoslikda uning forsiy adabiyotning ulkan vakili ekanini hali tadqiq etilmagan bir paytda, nafaqat Foniyning, balki ushbu taxallusni qo’llagan boshqa shoirlarning ijodini yoritishda ham salmoqli hissa qo’shgan [1, 173].

Fitrat Navoiyning forsiy devoni, Foniyl taxallusini qo’llagan boshqa shoirlarning devonlari haqida fikr bildiradi. Navoiyning forsiyda qo’llagan taxallusiga aniqlik kiritadi. Qo’lyozma nusxalarni qiyoslab Navoiy ijodiga aloqador yoki boshqa Foniyl taxallusli shoirga tegishli ekanligini isbotlaydi.

Fitrat buxorolik Muso Saidjonov va Qozi Muhammad Sharif Sadrlarning xususiy kutubxonalarida 2 ta qo’lyozma devon topilgani va ancha vaqt bu devonlar Navoiyga nisbat berib yurilganini, ammo bu boshqa bir Foniyl taxallusli shoirning devoni ekanligini misollar orqali isbotlaydi. Devondagi baytlarni tahlil qilar ekan, devon muallifining kashmirlik ekanini, she’riyatda “Shohiy”, “Sultoniyl” laqablarini olganini aniqlaydi. Navoiyning Kashmirda yashamaganligi, she’riyatda esa bunday unvonlar olmaganini e’tiborga olib yuqoridagi ikki devon Navoiyga tegishli emas deb hisoblaydi. Fitrat ushbu fikriga Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lom” tazkirasidan yana bir isbot keltiradi. Tazkirada keltirilishicha, asli buxorolik Muhammad Miskin keyinchalik Hindistonga ko’chib Kashmirda yashab qolgan. Yuqorida aytilgan ikki devondagi ma’lumotlarga asoslanib, Fitrat bu devonlar Muhammad Muhsin Foniyl qalamiga mansub ekanligi haqida xulosa chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, Fitratning ushbu kichik tadqiqoti navoiyshunoslikda ulkan vazifa bajargan. Navoiyl forsiy devoni haqidagi yangilish fikrlarni aniqlashtirishga, Navoiyning forsiy ijodi bilan shug’ullanayotgan tadqiqotchilarga to’g’ri yo’nalish ko’rsatishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. “Tanlangan asarlar” II jild, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.
2. Abdurauf Fitrat, “Tanlangan asarlar IV jild”, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006
3. Fitrat, “Eng eski turk adabiyoti namunalarini”, Toshkent, “Mumtoz so’z”, 2008.

KOMIL XORAZMIY IJODIDA AN'ANAVIY POETIK OBRAZLAR TADRIJI

Muhayyo YAMINOVA,
O'zbekiston, NamDU, magistrant

Annotatsiya. Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida aks etgan an'anaviy poetik obrazlar tadriji tahlil etilgan. Mumtoz adabiyotga oid badiiy obrazlarning Komil Xorazmiy ijodiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyparvar shoir, musiqashunos, tarixshunos, tarjimon, obraz, tasvir, talqin, badiiy mahorat.

Ona diyorimiz qadimdan buyuk ijodkorlar va qomusiy allomalarni, san'at ahllarini yetishtirib, ilm-fan va madaniyatning ko'plab sohalari rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Xalqimiz qoldirgan boy ijodiy xazinasini haqida gap ketganda ijodkorlar yashagan davr va muhitni alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi xazinalarning boyib borishiga asosan yirik amaldorlar-u davlat rahbarlari va diniy ulamolar rahnamolik qilishgan. Xalqimizning XVI-XIX asrning birinchi yarmida xonliklar va Buxoro amirligining xalq ta'limi va madaniyati haqida fikr yuritar ekanmiz, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallari edi. Komil Xorazmiy ijodi bilan yaqindan tanishqanimizda ham uning g'azallarining aksariyatida payg'ambarlar va tarixiy shaxslar obrazi ya'ni: Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Iskandar Bahrom, Sulaymon, Vomiq, Uzro, Jamshid, Yaqub Yusuf Iso Masih kabilarni uchramiz. An'anaviy doston qahramonlari bo'lgan ishq-muhabbat timsollari Komil Xorazmiy ijodida ham alohida o'rniga ega:

Shirin ila Layli sanga Farhod ila Majnun,

Uzrou Zulayho sango qurboni malohat [1, 31].

Yuqoridagi baytda shoir o'zining yorga muhtoj holatini ifoda etib, uning go'zalligini shirin so'zi oldida Farhod va Shirin ham Layli va Majnunni ham qurbon qilajagini aytadi. Komil Xorazmiy nafaqat Navoiy ijodining bilimdoni balki u Qur'oni Karim va Hadisi sharif bilimlaridan ham xabardor ekanligini shoirning quyidagi baytlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Turkiy adabiyotda Yusuf mavzusiga bag'ishlangan asarlar talaygina bo'lib: durbe "Yusuf va Zulayho" dostoni, A. Jomiy asari, Rabg'uziy qissasi, Andalib dostoni, Navoiy tarixini hamda mumtoz she'riyatdagi Yusuf obrazining ko'plab poetik manzarasini misol qilib olishimiz mumkin. Yusufning ishq, hijron, tuhmat, razolat, kibr, zalolat kabi qiyinchiliklar oldidagi matonati va saboti uni adabiyotda xususan she'riyatda oshiq timsoliga aylantirdi.

Necha Shirinu Layli kokiling ag'loliga mag'lul

Zanaxdoning zahi ichra base Yusuf erur masjun [1, 62].

Layli-yu Shirinlar husning oldida sochin halqasi bilan mashg'uldir, go'zallik timsoli bo'lgan Yusuf ham dudog'i husningga bog'langan ya'ni tobedir deya mashuqa go'zalligini haddi a'losiga qo'yib tasvirlaydi.

Netong, giryon esa o'z kulbasida Komil, ey Yusuf,

Hamisha sensiz ul Yaqub erur, baytul hazandur bu [1, 75].

Ushbu baytda esa shoir yorga to'g'ridan to'g'ri Yusuf deb murojaat qilib, yorsiz o'zining holi Yoqub singari g'amgin bo'lib qolishini anglatmoqda. Mumtoz adabiyotimiz na'munalarida Yusuf payg'ambar va uning otasi ko'pincha yonma yon qo'llanib o'ziga xos ramziylikni ifoda etadi. Komil xorazmiy ham ayni shu kompozitsiyadan oqilona foydalana bilgan. Shoirning yana boshqa g'azalida esa yaqubning hijroni Kanon ahlining mahzunligi shunday tasvirlanadi:

Ro'z shab zindoni g'amda yig'laram Yoqubdek,

Bo'lg'ali man xastasidin ul mahi Kan'on malul [1, 84].

Komil Xorazmiy "Yusuf" qissasi va undagi sodir bo'ladigan voqealarni o'z g'azallarida misol sifatida keltirib o'tadi va xususan "Ey, ko'ngul" radifli g'azalida har bir do'stingman degan kishiga ishonavermaslik kerakligini, xususan, Yusufga birodar bo'lgan Sham'un ham vafu qilmaganini misol tariasida keltirib o'tadi.

Iyman o'lma qaydidin, yoru birodarman debon,
Ne jafolar qilmadi Yusufg'a Sham'un, ey ko'ngul. [1, 65]

Bundan tashqari Komil Xorazmiy "Xamsa" dostonlari va ularga tegishli bo'lgan qahramonlar shaxsiyati, xarakteri va qobiliyatlaridan ham g'azallarida mahorat bilan foydalanib o'zining naqadar bilimdon ekanini namoyish eta olgan. Xususan quyidagi g'azalda "Farhod va Shirin" dostoni tarkibida uchrovchi Ahriman dev timsolini keltirib o'ziga xos talmeh yaratgan.

Erursan sen parizodu chu devi Ahrimandur bu.

Netong, giryon esa o'z kulbasida Komil, ey Yusuf.

Komil Xorazmiy nafaqat Navoiy balki qolgan xamsanavis ijodkorlar, xususan Jomiy dostonlarining qahramonlaridan ham o'z g'azallarida badiiy obraz sifatida foydalangan.

Yuz shukr toptim ul shahi xo'bon bashoratin,

Absolning nechukki Salomon bashoratin. [1, 182]

Salomon obrazi Jomiy dostoning bosh qahramonlaridan biri bo'lin nihoyatda xushsurat, kelishgan shahzoda sifatida ta'rif etiladi. Uning enagasi Absol ham o'z navbatida go'zal, xushbichim deya tasvirlanadi. Shoir Komil Xorazmiy yorining go'zalligi haqida xabarga yetishganini aytib, ul yorning chiroyini dastlab Absolga so'ngra undanda g'zal bo'lgan Salomonga qiyos etadi. Bundan tashqari Komil xorazmiyning ushbu obrazlarni talmeh sifatida keltirib, g'azal nafaqat insonning insonga bo'lgan ishq balki insonning ollohga bo'lgan ishq haqida ekanligiga ham ishorat etadi. Chunki "Salamon va Absol" dostoniga ko'ra Salomon va Absolning o'zlarini gulxanga tashlashlari misolida ruhning gunohlardan forig' bo'lishiga urg'u beriladi. Gunohlardan forig' bo'lgan ruhgina yaratuvchining go'zalligi va yagonaligini anglab yetadi. Komil Xorazmiy an'anaviy bilim, donishmandlik timsoli bo'lib kelgan Luqmon va Aflotun obrazlarini ham o'z g'azallarida keltirib o'tadi va o'ziga xos ohoriy yor tavsifini yaratadi.

Hirad ishqingda bo'ldi ul sifat devonai Majnun

Ki, bilmaslar ilojin emdi yuz Luqmon, ming Aflotun. [1, 176]

Xususan, yuqordagi bayt mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "hirad" so'zi izohli lug'atlarda "aql" ma'nosini anglatadi. Bayt esa quyidagicha ma'no kasb etadi: aql sening ishqingda devonasifat bo'lib qoldi, endi esa uni ilojini yuzta Luqmon hakim ham, mingta Aflotun ham topa olmayapti. G'azalda Komilning, oshiqning, aqldan ozib Majnun holiga kelib qolgani e'tirof etiladi.

Xususan, xalq dostonlarida Majnun obrazi ham Layli ishqida devonasifat holga kelib qolgani ifoda etiladi. An'anaviy qahramonlarining talmeh sifatida qo'llanishiga misollarni Komil Xorazmiy ijodida talaygina topish mumkin.

Quyidagi baytda ham Iskandar, Doro, Bahrom, Jamshid podshohlar keltirilib, talmeh san'ati yaratilgan va o'z navbatida birinchi misradagi dunyo o'tkinchiligi va hech kim unda abadiy qola olmasligi, xoh shoh, xoh gado bo'lsin baribir bir kun bu dunyodan ko'z yumishini aytib misol tariqasida o'z zamoning yuksak kuchga ega bo'lgan podshohlarini ham abadiy yashamaganing misol tariqasida keltirib o'tadi va o'z navbatida tazod san'atidan ham foydalanadi.

Borurda dahri fonidin barobardir gadovu shoh,

Qani Iskandaru Doro qani Bahromu Jam, ahhob. [1, 128]

Komil Xorazmiy ijodida Iso va Masih obrazlari ham yetakchi o'rin egallaydi. Ularning jonbaxsh etuvchi nafaslaridan o'zining ishqdagi holatini ifodalashda ko'p bor unumli foydalanadi.

Nofi ermasdur Masih anfosi ko'nglum ranjig'a,

Lali jonbaxshidin oyru bo'ldi bemori hadis. [1, 110]

Chunonchi, yuqoridagi g'azalda yorining jabr-u jafolaridan ko'ngli ranj chekkanini bu dardga xattoki Masih nafasi ham kor qilmasligini aytib o'tadi. Shoirning yana bir "Arz" radifli g'azalida ham Masih hamda Iso obrazlaridan foydalanadi.

Jonu ko'nglum justu jo'y ichra ma'dum o'lg'onin,

Ul Masih anfosi bor Iso atvorimg'a arz. [1, 158]

Ushbu baytda esa endi yorining shirin kalomini jon baxsh etuvchi Masih nafasi-yu Iso xulqiga mengzaydi. Va ushbu yorning shirin soʻzlarigina uning koʻngliga malham boʻla olishini aytadi. Bundan tashqari Komil Xorazmiy ijodida Sulaymon paygʻambar obrazi ham alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, shoir gʻazallarida Sulaymon paygʻambar boshqara olish qobiliyatini yor goʻzalligiga oʻzgacha usulda bogʻlay olgan.

Xusn eli boʻlsa sango borcha musaxxar, ne ajab,

Ul parivashlarga sendursan Sulaymon, ey pari. [1, 172]

Yaʼnikim, yor goʻzallik borasida yagona, xusn elining shohi boʻlgani holda barcha goʻzallar unga boʻysunadi, huddi sulaymonga jonzotllar boʻysungani kabi deya ohoriy oʻxshatishlar yaratadi. Bayt tarkibida Sulaymon Paygʻambar nomini keltirish orqali shoir talmeh sanʼatini “husn eli” birikmasini qoʻllash orqali tashbeh sanʼatini yuzaga keltirgan. Shoirning yana bir gʻazalida esa Sulaymon paygʻambar va chumoli obrazini oʻzgacha talqinda koʻrishimiz mumkin:

Moʻrdek ojiz etdi hijroning

Holima rahm et, ey Sulaymonim. [1, 129]

Sulaymon va moʻrcha haqidagi hikoyaga asosan, chumoli aqli donishda Sulaymondan ustun chiqadi. Yuqoridagi baytlarda esa chumolining aql qobiliyati emas balki jismoniy tarafdin zaifligiga urgʻu berilib shoir oʻzini chumoliga oʻxshatib, gozal yorini qudratli Sulaymonga mengzaydi.

Hujum etkan ushshoqmu davringa

Va yo moʻr girdi sulaymon aro. [1, 76]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komil. Devon. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1975.

2-SHO‘BA. JADIDCHILIK G‘OYALARI VA YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI

BEHBUDIY PUBLITSISTIKASINING MAVZUIY XARAKTERI

Nafas SHODMONOV,
O‘zbekiston, QarDU, f.f.d., prof.

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalari mavzuiy jihatdan tahlilga tortilgan. Ularda turkiston xalqlarining milliy istiqlolga erishishi va uni saqlab qolishi uchun eng muhim masalalar yoritilgani isbotlangan. Behbudiy publitsistikasi boshqa tur va janrlardagi faoliyati kabi alohida tadqiqot manbai bo‘la olishi xususida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, publitsistika, maqola, matbuot, usuli jadidiya, irodai mustaqila, mashrutai avomiya, kadetlar, Rusiya musulmonlari ittifoqi.

Turkiston xalqlarini, millatlarini zamonaviy ilmlar bilan hurriyati, muxtoriyati va taraqqiysiga borini safarbar qilib, taraqqiyparvarlarning ustozlari va peshvosiga aylangan, ularga fidoyilik namunasini ko‘rsatgan buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyoqarashining shakllanishi va o‘zib borishi uning publitsistikasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Zotan, u nafaqat pedagog yoki ijodkor, balki, birinchi navbatda, jadidchilik g‘oyalarini yoniq satrlarda ifoda qilgan harakatning faol publitsisti ham edi.

Behbudiyning maqolalari XX asr boshida Turkistonda ma‘lum va mashhur bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Sadoi Turkiston”, “Sho‘ro”, “Sadoi Farg‘ona”, “Samarqand”, “Oyina” kabi matbuot organlari orqali ommaga keng tarqatib turilgan. Ulardan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali bevosita Behbudiyning o‘zi tomonidan ta‘sis qilingan [1, 298]. U o‘z maqolalarini asosan 1906 – 1918 yillar oralig‘ida yozgan. Bu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy atrof-olamni anglab olgan, ma‘lum darajada tajriba to‘plagan edi. Umuman, maqolalarning mavzulari quyidagi masalalarga doir:

1. *Mamlakat siyosiy va ijtimoiy holati tahlili.*
2. *Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar tayyorlash masalasi.*
3. *Pedagogika, usuli jadidiya maktablari uchun muallimlar tayyorlash.*
4. *Zamonaviy ilmlar rivoji va taraqqiyot uchun zararli illatlardan xalos bo‘lish g‘oyasi.*
5. *Yuksak madaniyatli va ma‘naviyatli jamiyat orzusi.*

Biz bu yerda Behbudiy publitsistikasining janriy va poetik xususiyatlariga to‘xtalmaymiz. Shuningdek, uning sayohatnomalarini tahlil qilishni ham nazarda tutmaymiz. Chunki ularning har biri alohida tadqiqotlarni taqozo qiladi. Binobarin, yuqoridagi masalalarga alohida-alohida to‘xtalishni lozim topamiz.

Mamlakat siyosiy va ijtimoiy holati tahlili. Behbudiy hayoti mamlakatda ijtimoiy-siyosiy keskin o‘zgarishlar davri bo‘ldi. U umri davomi uch siyosiy bosqichni ko‘rdi. Shuning uchun undan bir xillikni talab qilish mumkin emas. Zero, dastlab chorizm siyosati, ijtimoiy muhitida yashab, unda Turkiston musulmonlarining ahvolini o‘z hayoti, turmushida to‘la his qilgan, boshidan kechirganlariga ko‘ra hamda Rusiyada harakatda bo‘lgan siyosiy kuchlarning tub mohiyatini chuqur o‘rgangan Behbudiy paydo bo‘lsa, so‘ng Turkiston muxtoriyati, undan so‘ng esa o‘zi avval rad etgan sho‘ro sharoitida millat taqdirini halokatdan asarab qolish yo‘llarini axtargan zot gavdalanadi. Chorizm haqida so‘zlar ekan, Behbudiy “Hozir Rusiya davlati tariqi hukmronligi (siyosiy tuzumi) noqis ekanligiga har bir xabarlik kishi iqroridir”, deb yozadi “Xayru-l-umuri avsatuhu” (“Ishlarning o‘rtachasi yaxshidir” – hadis) nomli maqolasida [2, 147]. Bu noqislikning sababi mamlakatda maydonga chiqqan har xil siyosiy firqa – partiyalarga bo‘lingan xalqni idora qilishda “irodai mustaqila” – samoderjaviya, imperator irodasining ustuvorligi va uning imzosi “zakun” sanalib, joriy qilinishida edi. XX asr boshida Rossiya va Turkiyadan Yevropaning boshqa barcha davlatlarida bu boshqaruvdan voz kechilgan edi. Biroq

Rusiya “irodai mustaqila”si sabab fuqarolar “ahvoli siyosiya, diniya va dunyoviya va oliyasi durust bo‘lmay, kundan-kun tanazzulda” edi [2, 148].

Behbudiy o’sha vaqtda mavjud to‘rt firqaning (Mustabid firqasi; Mashrutai avomiya – kadetlar partiyasi; sotsial-demokratlar: mensheviklar, bolsheviklar; Rossiya musulmonlari ittifoqi) maqsad va mafkuralarini qisman bayon etib, Turkiston xalqiga ulardan qaysi biri yaqinroq va foydaliroq ekanini tushuntiradi. Muallif fikricha, kadetlar partiyasi g‘oyalari xalq uchun ko‘proq foydali. Shuning uchun Turkiston musulmonlarining kadetlar partiyasiga qo‘shiluv zarurligi uqtiriladi. “Turkistonning muhtaram muallif va muharrirlari g‘araz, nafsoniy hasad, bahs va munozarai shaxsiyalarini tark etib, shu maslak va shu jam‘iyatga tobe’ va xodim bo‘lmoqlari – xidmati din va davlat, obro‘yi Vatan va Millatdur”.

Mahmudxo‘ja Turkiston muxtoriyatini zo‘r mamnuniyat bilan qarshi oldi. Lekin u muxtoriyatning nechog‘li zaif, kuchli dushmanlari uni bo‘g‘ib tashlashga qodiru hozir ekanini yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni faqat yerli xalqlarning birlashmoqlari orqaligina saqlab qolinishi mumkinligini jon jahdi bilan tushuntirishga, uqtirishga harakat qildi. “Qozoq qardoshlarimizg‘a ochiq xat”, “Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz” maqolalarida bu yaqqol ko‘rinadi.

“Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e‘lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, berilmas... Biz bo‘shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo‘liga sa‘y qilmasak, albatta, hozirgi qog‘oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo‘q qilurlar...” So‘zlarining ta‘sirini oshirish uchun muallif “Qur‘on” so‘zlari bilan maqolani tugatadi: “Allohning ipiga birlashingiz va tarqalib ketmangiz!” [2, 205].

Holatni tahlil qilib, yaxshi tushunib turgan Behbudiy “qog‘oz ustidagi” muxtoriyatni yo‘q qiluvchi illat milliy birlik va ahillikning yo‘qligi, amaldorlarning nafsoniyat va g‘urur havosiga berilishi ekanidan ogohlantiradi, istiqlolni amaliyotga aylantirish uchun turli tabaqalarning ittifoq tuzib, unga xizmat qilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Jumladan, samarqandliklarga qarata Mahmudxo‘ja shunday deydi: “Ey hazrati ulamo! Ey tujjor, ahli kasaba va ag‘niyo! Ey, g‘ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-biriga dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to‘yg‘azolmayturgon yetim va bevalar haqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilib, xoliq Xudoning naf‘ig‘a, din va millat yo‘liga xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g‘urur emas” [2, 208].

Yuqoridagi so‘zlarda 42 – 43 yoshli ziyolining jamiyatning nufuzli ulamolari – din rahnamolari, katta mulkdor boy tabaqasiga qarata mardona da‘vati undagi katta jasoratni, jur‘atni ko‘rsatadi.

Ulug‘ ma‘rifatparvar qo‘ldan berilgan ozodlik oqibatida xalq yuz yillar asirlik domida qolib, o‘z qadr-qimmatini, juda ko‘p moddiy va ma‘naviy zararlar ko‘rib keyin ketishidan nadomat chekadi: “Aziz hamshaharlaring‘a, mo‘tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo‘lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, Xudoning bergan hurriyat ne‘matidan naf‘lanmoq harakatida bo‘lmoq kerak va al‘on (hozirgi holatda) bizning harakatsizligimiz hurriyatni ketkurub, yana boshqalarga bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila keyin ketarmiz. Bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizga rahmat o‘rnig‘a la‘nat o‘qurlar”.

Behbudiy bu so‘zlarini hukman to‘g‘ri so‘zlar deydi. Bu so‘zlari uchun ba‘zi yoshlar ham, qarilar ham ranjishi mumkinligini aytadi. Biroq “to‘g‘rini aytmaguncha, ishlar to‘g‘rilanmas”.

Alloma umrining oxirgi taxminan ikki yili ilk sho‘ro davriga to‘g‘ri keladi. Uning xorijiy tillarni bilishi, keng mushohada va ko‘p bilim egasi ekani sho‘rolarning turli jabhalarda boshlagan “inqilobiy” ishlariga jalb etilishiga sabab bo‘ldi. U hatto Eron va Afg‘oniston davlatlariga konsul qilib yuborishgacha taklif qilingan. Biroq Behbudiy o‘z sog‘ligi yomonligini bayon qilib bosh tortadi. Lekin mamlakatda turkistoniylarning o‘z maqomiga, sekin-asta o‘z davlatiga ega bo‘lishi uchun harakat qilish, davlat ishlarida ko‘proq ishtirok etish lozimligini tinmay uqtiradi. “Oxirinda maa-t-taassuf (afsus bilan) iqror etamanki, - deb yozadi u, - siyosiy, ilmiy, maishiy va askariy yo‘llarda zamon bizdan ko‘p ishlar talab etadur... Ammo bizda ishlayturg‘on odam oz va bori ham ishlaymaydur va yoinki egri ketadur. Bu fursatlar o‘tganlaridek o‘tib ketar. So‘ngra pushaymonlikdin boshqa qo‘lda bir narsa qolmas...”

Milliy davlatchilik uchun milliy kadrlar tayyorlash masalasi. Ma'rifatli jamiyatning muhim jihatlari biri malakali kadrlarga ega bo'lishdir. Kadrlar tanqisligi yoki umuman yo'qligining o'zi mamlakat salohiyatining pastligidan dalolat. Xonliklar davrida boshlangan iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy sohalaridagi tanazzul sabab O'rta Osiyoda XX asrning boshiga kelib ham juda ko'p sohalarida zamonaviy kadrlar yo'q hisobida edi. Lekin bu degani musulmon xalqlarining, jumladan turkistonliklarning azaliy jaholatidan dalolat emas. "Tarixdan bexabar ba'zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirg'acha nodon, vahshiy ko'rsaturlar. Musulmonlar dunyoda hech nima ixtiro qilmadi... derlarki, ul g'alatdur", deb yozadi Mahmudxo'ja. Uzoq ajdodlarning ilmda dunyoni lol qilib ko'rsatgan nash'u namolari ma'lum. Ular "ushbu kungi ixtirolar uchun asbob (asoslar) hozirlab qo'ydi"lar [3, 163]. Ammo xalqimiz keyingi asrlarda "ixtiroi bashar"dan chetda qolgani haqiqat esa-da, ma'rifat bilan uyg'onmoq mamlakat qaddini tiklashni ta'minlaydi. "Hozir faranglar navbatidur, - deb davom etadi Behbudiy. – Bir zamon kelurki, navbat boshqalarga tegar, bul dunyoning odatidur". Bu yerda "boshqalarga" deyilganda ehtimoliy "bizga" mazmuni bor.

O'n to'qqizinchi yuz yillik o'rtalarida ham O'rta Osiyo xalqlari dunyodan uzilib qolgan, boshqa davlatlar bilan muomala va munosabati yo'q edi. Bunday sharoitda chorizm istilohidan so'ng yerli xalqlardan ularning manfaatlarini qonunlar asosida himoya qiluvchi kadrlar juda zarur edi. "Davlat dumas nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurg'an kishimiz yo'q. Boshimiz og'risa do'qtirga boramiz, ammo dardimizni aytmoqg'a til yo'q. O'zimizdin do'qtir yo'q". Yana bir o'rinda: "Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz "muhandis" ismini bilmaymiz", deb yozadi Behbudiy. Shuningdek, u Turkiston mevasi, donasi, toshi, tuprog'i, shohi, adras, beqasam, alocha kabilari ham Yevropa bozorlarida o'zga ellar dallollari tomonidan arzon olib ketilib, bir necha barobar qimmatga sotilayotganidan, bunday ishni qilish uchun bizning til biladigan, soha ilmidan xabardor zamonaviy savdo kishilarining yo'qligidan zorlanadi. Hatto, tojir va boylarning ilmi tijorat, hisob-buxgalterlik biladigan bir odamlari yo'qligini ta'kidlaydi. Vaqt o'tgan sayin eskicha mutaxassislar ham tugab borayotgani haqiqatan achinarli edi. 1913 yilda yozilgan "Ehtiyoji millat" maqolasida 30 yil burun Samarqandning birgina Yomini mahallasida 300 alochabof ishchi bo'lgani, ayni zamonda ulardan 30 nafari qolgani va yana o'n yildan keyin ular tugab ketishi xavfi borligi ta'kidlanadi. Bularning hammasiga sabab ma'rifat, maorifning yo'qligi, bilimsizlik edi. "Bu ketishning oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun", deydi muallif [2, 200].

Behbudiy bu muammolarni yechish uchun yoshlarni avval zamonaviy maktablarda so'ng Rossiya dorulfununlarida o'qitish g'oyasini ilgari suradi. Bizda, hatto, oddiy dorulmuallimin (o'qituvchilar instituti) ham yo'qligi, ularni bir emas, ko'pini ochish lozimligini davr ziyoli olimlari va mulkdorlari oldidagi vazifa sifatida belgilab beradi.

Pedagogika, usuli jadidiya maktablari uchun muallimlar tayyorlash. Bugun zamonaviy o'zbek maorifi, pedagogikasining asoschisi kimligi haqida o'ylansa, buning javobi Mahmudxo'ja Behbudiy deyilsa, adolatdan bo'ladi. Uning "Kitobatu-l-atfol", "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy" kabi darsliklari o'z davri ta'limida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, "Padarkush" dramasi va maqolalari tarbiyaviy xarakteri bilan pedagogika fani shakllanishiga undan ham ko'proq xizmat qildi, deya olamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Behbudiyning pedagoglik faoliyati umumiy jadidchilik harakatining bir qismi bo'lib, Yevropada kechayotgan jamiyatni modernizatsiya qilish, zamonaviylashtirishning sharqona ko'rinishidan iborat edi. Shuning uchun ham maktablar islohoti va mamlakat taraqqiyoti masalasi uning chiqishlarida uyg'un olib boriladi. "Boshqa millatlarga qaralsa, ko'rilmurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki "dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur".

Yana bir o'rinda u deydi: "Millatlar taraqqiyig'a bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo va ag'niyoning hamiyat va g'ayratlaridur". Bu yerda hamiyatli ilm ahli zamonaviy bilimlarni o'zlashtirib, uni yoshlarga yetkazishi, g'ayratli mulk egalari esa ularni, umuman ta'limni qo'llab-quvvatlashi bilan taraqqiyotga erishilishi haqida gap bormoqda.

Jadid maktablarining mohiyati Behbudiy tomonidan qisqa va lo'nda qilib shunday talqin qilinadi: "... Zamon har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyani darbar (o'zida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilar". Binobarin, ana shunday odamlarni o'qitib, tarbiyalab yetishtirish jadid maktablarining maqsadi edi. Lekin "johilona taassublik"ka berilgan, qadimchilar hisoblangan kishilar bu maqsad mohiyatini tushunmas, jiddiy qarshiliklar qilar edilar. Ularga qarshi Behbudiy bir og'iz so'z bilan "Kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas", deya javob beradi.

Behbudiyning Turkiya, Misr, Qirim, Kavkaz, Qozon, Rossiya, Yunoniston, Bolgariya, Avstriya, Germaniya, Ukraina, Saudiya, Suriya va boshqa bir qator yurtlarda bo'lib, ulardagi hamda Ismoilbek G'aspirali kabi jadidchilik asoschilaridan ta'lim haqidagi ma'lumotlar olgani maktablar islohoti borasidagi qarashlarini mukammallashtirdi [3, 71 – 162]. Ta'limda ilg'or mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sohalarda ham peshqadamligiga havas bilan qaradi. Turkistonni ham ana shunday davlatlar qatorida bo'lishini orzu qildi. 1914 yilda "Oyna" jurnalida bosilgan "Muhtaram yoshlarga murojaat"ida nadomat bilan shunday fikrlarni yozadi: "Yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini(ng) ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihatdan intizomi va akmoliga ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar". Behbudiy bu hissiyotlarni vatanparvarlik omili sifatida tushunadi. Muallif dunyodagi urushlar va iqtisodiy tortishlarni o'sha diyonat va milliyat hissiyoti natijasi sifatida ko'radi. Turkiston xalqida bunday hissiyotning yo'qligidan qayg'uradi. Uning fikricha, bu hissiyotni maktablar tarbiyalashi kerak. Jadidlar ustozlari maktablarni "taraqqiyni boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi" hisoblaydi.

Lekin maktablar haqiqiy ustozlar bilangina kutilgan natijani berishini tushungan Mahmudxo'ja Turkistonda o'qituvchilar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari yo'qligidan qayg'uradi, lekin umidsizlanmaydi. Madrasalarda ta'lim olib, kasbi kamol topgan ustozlar, jumladan, muallimlikka havasmand yoshlarning Munavvar qori huzuriga borishlarini tavsiya, targ'ib qiladi. Ma'rifatparvar jadid Munavvar qori maktabining keyinroq hozirgi Milliy universitet ochilishiga asos bo'lganini mushohada qilsak, Behbudiyning kelajakni bexato tasavvur qilganiga, zamonaviy til bilan aytganda, prognozlashtirganiga amin bo'lamiz.

Zamonaviy ilmlar rivoji va taraqqiyot uchun zararli illatlardan xalos bo'lish g'oyasi. Behbudiy kelajak davrni "tamaddun asri" deb ataydi. Bunday davrda zamonaviy ilmlarsiz, quruq, chirik tassaobot bilan yashab bo'lmaydi. Shuning uchun u jadid maktablarida ko'proq zamonaviy dunyoviy fanlarni o'zlashtirishga diqqat qaratadi. Dunyoviy fanlarni esa, jahonning tarqqiy qilgan xalqlari ilm-fani orqali o'rganish ko'zda tutiladi. Shuning uchun ham rus, nemis, fransuz, ingliz, italyan, arab, yapon tillaridan birini, bu tillar mutaxassisi bo'lmasa, Kavkaz yoki Qirim adabiy tillaridan birini o'rganish shart deb belgilaydi u. Ulug' ma'rifatparvar yoshlarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, zamonaviy ilmlarni o'rganishga shu qadar ko'p tashviq qiladiki, bugungi kunda ham bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Biz hamon ko'p sohalarda dunyo fanining zamonaviy yutuqlarini egallab, o'zlashtirib olishda muammolarimiz borligi ma'lum.

Behbudiyning zamonaviy ilmlarga da'vati hamon dolzarb bo'lgani kabi ularni egallashda monelik qiladigan illatlardan ham xalos bo'lmadik, balki ular ortmoqda. Taraqqiyotga to'siq bo'ladigan illatlar uning nazdida quyidagilar:

Birinchisi, to'y va aza dabdabalariga berilish. Bu illatlar sil yoki maxovlikdan ham yomon, inqirozga, tahlakaga, jahannamga sabab bo'luvchi, xonavayron va g'arib etuvchi illatlar sifatida Behbudiy tomonidan juda ko'p marta ta'kidlanadi. To'y xoh nikoh bo'lsin, xoh xatna xalqimizda o'lmaguncha qutulib bo'lmaydigan balo bo'lsa, azada go'yoki o'likning hurmati sifatida yetimlarning yoki bevalarning holi o'ylanmasdan, ba'zan qarzlarni ado qilishni ham unutib, ayniqsa, ba'zan qarz olib qilinadigan xarajatlar millat uchun kulfat ekanidan nadomat chekadi. Bechora sag'ir, mushtipar ayollar merosdan haqlarini ololmay, xudoyi, xayrot, yirtish va hokazo sarf-xarajatlar nafaqat isrof, balki katta gunohlar sifatida tushuntiriladi. Negaki, bu xarajatlar xalqning foydasiga, mamlakatning taraqqiysiga, millatning yuksalishiga emas, ularning xorlikka mahkum etilishiga bois bo'ladi.

“Bir necha boyvachchani bilmamanki, - deb yozadi Behbudiy, - eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi nedur – ilmsizlik. Holbuki alarning to‘yiga atosi 5 ming so‘m sarf etib edi”. To‘y yoki aza dabdabasi hech kimga hech narsa bermaydi. Bular ba‘zan boylarning bir-ikki kun nomini chiqarsa ham, tez unutiladi, boshqa natija bermaydi. Shuning uchun ham, “Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorulfununlar soladurlar, faqir va yetimlarning o‘qumog‘i uchun vaqf-istependiyalar ta‘yin qilur. Boshqa millat miliyo‘nerlari maktabi ila istependiyasi-la, idora qilaturgan gazet va majallasi-la, bino qilgan dorul‘ojizini, barpo qilgan jam‘iyati xayriyasi-la faxr qiladur”. Bu so‘zlar o‘z davrida ibrat uchun edi, albatta. Lekin millat taqdiri masalasi bilan yondashilsa, ular o‘zining abadiy ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Ikkinchisi, soxta obro‘ va hasham ishtiyoqi. Har qandan soxtalik aslida nuqsonni, ojizlikni, notovonlikni xaspo‘shlashga urinishdir. Soxta obro‘ va hashamga ruju‘ qo‘yish kishini haqiqatdan uzoqlashtiradi va oxir-oqibat xorlikka muhtalo qiladi. Behbudiy bu masalada ham juda ko‘p to‘xtaladi. Jumladan, uning “Zo‘raki boy” maqolasida keltirilgan ibratli hikoyasi nafaqat davr ahli bugungi soxtakorlikka berilgan kishilarga ham tanbehdir. Unga ko‘ra, soxta obro‘ga intilayotgan kishi vijdon, imoni bilan (agar bor bo‘lsa!) o‘z ishini taftish qilsa, o‘ziga zarar qilayotganini anglaydi. “Bilib turib o‘z zararini qilmoq aqlsizlikdir”. Zo‘raki boy 15 ming so‘mlik moli bor do‘konida qarz-qavala qilib pulini ikki barobarga yetkazadi. Aqli uchgan do‘kondor yaxshi ot va aravalar, ekipaj foytun oladi. Nihoyat to‘y boshlab dabdabani haddidan oshiradi va isrofni shu qadar ko‘paytiradiki, oxirda ahlu ayoli bilan butunlay qashshoqlikka giriftor bo‘ladi.

Uchinchisi, vaqtni zoye‘ qilishdan qaytarish. Behbudiy vaqt qadrini ilm va unga amal qilingan foydali faoliyat bilan bog‘laydi. Lekin hayotda foydasiz harakatlar bilan umrini o‘tkazayotgan kimsalar ham borki, ularning kasratidan jamiyatning ilgari ketishi, taraqqiyot bo‘lishiga zarar yetadi. Behbudiy buni ko‘pkari misolida zikr etadi: “O‘n-yigirma chaqirimga to‘y bo‘ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo‘yub, otlanib ko‘pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo‘ldi, ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar. Birgina kun so‘ngra yig‘ilgan uchun yog‘inga qolib, ba‘zan xirmanlar chirib ketar”.

Muallif ma‘lum bir shaharda yahudiylar o‘liklarini oqshom eltib ko‘mishlarini eslatib, bunga ularning kunduz odamlarni ishdan qoldirmaslik maqsadi sabab ekanini ta‘kidlaydi. Bizda bo‘lsa, to‘y, ma‘rakalar uchun haftalar, ba‘zan oylar uvol ketishidan ozorlanadi u. Shuningdek, yoshlarni vaqtning qadriga yetishga, vaqtni imkon qadar ilm-fan o‘rganishga sarflashga da‘vat etadi.

To‘rtinchisi, rishva – pora berish. Pora Behbudiy va undan oldin o‘tganlar tilida rishva deyiladi. Ko‘pincha, rishva oluvchilar qoralanadi. Lekin Behbudiy rishva beruvchilarni la‘natlaydi. Chunki ular zamona ilmini bilmaganidan, o‘zga millat vakillari bo‘lgan amaldorlar oldida ojizliklaridan pora berishga majbur bo‘ladilar. Ishini pora bilan bitkazgan notavon bir umr shu aqidada qoladi, ya‘ni porasiz ish bitmasligiga o‘rganib, kelajagini qorong‘u qilib qo‘yadi.

Beshinchisi, ilm ahliga nopisandlik. Ko‘p bilgan dunyoni ko‘proq anglashi ayni haqiqat. Dunyoni anglagan hamma yutuqlar ortida ilm turganini ham tushunadi. Dunyodagi katta yutuqlarning hammasi ham shundan. Kichik moddiy muvaffaqiyatlar avomnigina emas, haqiqiy ilm ahli bo‘lmaganlarni ham chalg‘itadi. Haqiqiy taraqqiyot, chin yutuqlar uchun haqiqiy ilm ahlini tarbiyalab yetishtirmoq lozim. Avom ilm ahliga ergashsagina haqiqiy taraqqiyga, yutuqqa erishiladi, degan xulosaga keladi Behbudiy va deydi: “Boshqa millat ulamosiga tobe‘ ekan, bizning ulamo bil‘aks avomg‘a tobe‘dur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma-o‘ttuz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonlik ilm va odob ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”.

Yuksak madaniyatli va ma‘naviyatli jamiyat orzusi. Behbudiy fikrlarini umumlashtirib xulosa qilinadigan bo‘lsa, Turkiston xalqining har bir a‘zosini o‘qimishli, milliy qadriyatlari jonkuyari, o‘zligini anglagan, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand, ular istifodasiga qodir, milliy taraqqiyotga monelik qiluvchi illatlardan xalos bo‘lgan va ularga qarshi kurashuvchi shaxslardan iborat bir jamiyat, ya‘ni yuksak madaniyatli va ma‘naviyatli jamiyat orzu qilingan. “Oh! Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarga uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir (kofirga chiqarish) va tal‘in (la‘natlash) ila vaqt o‘tkarurmiz”.

deydi u. Ko‘zlangandek jamiyat a‘zolari bo‘lishlari, jahonda munosib o‘rin egallashlari uchun millatdoshlarining ikki emas, to‘rt tilni bilishlari lozimligi kun tartibiga jiddiy masala qilib qo‘yiladi.

Ma‘naviy yetuklik, madaniy barkamollik o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘z yoki farzandi ismining boshqalar tomonidan noto‘g‘ri atalishi, yozilishiga qarshi tura olmaydigan, uni to‘g‘rilashga kuchi yetmaydigan odamdan qanday qilib yetuklik, barkamollik kutish mumkin. Shuning uchun ham Behbudiy bu masalani alohida muammo sifatida ko‘tarib chiqadi. Abdussamadni Absamat, Absat deb, Yodgorni – Jodigar, Lutfulloni – Nutfulla deb yozish mirzolarining savodsizligi tufayli yuzaga kelsa ham, bunga ism egasining ilmsizligi va didsizligi sabab. Xuddi shunday, do‘kon va korxonalarning nomlarida ular egasi qo‘ygan nomlarning “Abdukodir”, “Patxulla”, “Obduraxmon” kabi buzib yozilishi yoxud bolalarga Norqul, Toshmurod, Boltaqul kabi ma‘nosiz ismlar qo‘yilishi ham maqsadga muvofiq ko‘rilmaydi. Bularning tuzatilmasligiga aybdor kim? Behbudiy aybni jamiyatdagi jaholatga qo‘yadi. “Bir zamon bu g‘alat ismlarni to‘g‘ri yozib mahkamaga berilsa, mahkamadan to‘g‘rini g‘alat deb qaytararlar...” Bu muammolarni hal qilish ijtimoiy ma‘rifatni talab qiladi.

Zamonaviy, madaniyatli kishining fazilatlaridan biri san‘at orqali estetik saviyasini oshirib borishdir. Bunda teatr eng maqbul san‘atdir. Chunki unda juda ko‘p san‘atlar birlashadi. Shuning uchun ham Behbudiy unga alohida e‘tibor qaratadi: “Teyotr bir nav’ maktab hukmindadir”. “Teyotrxonalari masxarabozxona bo‘lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis (aktyor) bo‘laturgonlar o‘yunchi va masxaraboz bo‘lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar”. Behbudiy bu san‘atning nozik xususiyatlari haqida ham mulohazalar bildiradi: “Teyotr uchun muharrirni(ng) (dramaturg) ne qadar chuqur o‘ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo‘lsa, mushaxxislarning ham tovon va muqallid va har nimarsani o‘zidek qilib ko‘rsatguvchi, nuktadon bo‘lishi lozim bo‘lub, bul alohida bir san‘atdurki, ovruopolilar munga ham alohida maktab ijod qilganlar”.

Behbudiy teatrni tushunmay, uni din yo‘li bilan man’ qilishga urinuvchi kimsalarga “Padarkush”ni misol qilib: “Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko‘rgonlari gunah bo‘lgon joyini ko‘rsatsalar”, deydi. Umuman, din himoyachisi sifatida ham Behbudiy yoshlarga dunyoviy ilmlarni puxta o‘rganish diniy e‘tiqodni kuchaytirishi to‘g‘risida misollar keltirib o‘git beradi: “Zotan, islomiyat shunday bir dini matin va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniy ko‘p o‘qusa, insonni yana dini islomga aqidasi shuncha mustahkam bo‘lur”.

Madaniy va ma‘naviy yuksalishda tanqidiy munosabatning ham o‘ziga xos o‘rni borligi olim tomonidan alohida ta’kidlanadi. Odamlarga “Xotir qolmasun” (ko‘ngliga tegmasin) tamoyili bilan munosabatda bo‘linsa, illatlardan ko‘z yumishga to‘g‘ri keladi. Illatga qarshi kurashilmasa, u rivojlanadi va jamiyat salohiyatiga putur yetkazadi. Illatga qarshi kurashning eng maqbul yo‘li tanqiddir. Tanqid ham ma‘rifat bilan amalga oshirilishi kerak. “Zamonning muhlik asbobig‘a qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor bo‘lsa, ul-da maorifdur”.

Behbudiyning publitsistik merosi ancha salmoqdor. Allomaning adabiy-badiiy, tarixiy va ilmiy merosi qatori publitsistikasi ham hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Taniqli adabiyotshunos va tarix ilmi bilimdoni P.Ravshanov ta’kidlaganidek, Behbudiyning “har bir asari ahamiyati va qimmatini bo‘lakcha” [4, 17]. Ular yirik tadqiqotlarga manba bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б. Танланган асарлар. Уч жилдлик. II жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2022. – 640 бет.
2. Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 280 бет.
3. Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар. Икки жилдлик. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 312 бет.
4. Равшанов П. Бехбудий ҳақиқати. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 128 бет.

JADIDCHILIK VA MILLIY ADABIYOT

Gulnoza ERNAZAROVA,
O'zbekiston, QarDU, f.f.d., prof.

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik va milliy adabiyotni isloh qilish, milliyat va adabiyot tushunchalarining bir-biriga mushtarak ekanligi, taraqqiyotning turli davrlarida Turkiy xalqlarning og'zaki va yozma adabiyotida ham milliyat shuuri izlarini payqash mumkinligi ta'kidlangan. Milliyat shuuri Turkistonda millatning ruhi va ongini o'zgartirish, ma'rifiy kamolotga yetkazish, o'zligini tanitishni birlamchi vazifa deb bilgan ijodkorlar ijodi bilan belgilangan. Ijtimoiy va siyosiy islohotni millatning uyg'onishi bilan ro'y berishi muqarrar bo'lgan tadrijiy jarayon sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: millat, milliyat, islomiyat, jadid, adabiyot, shuur, ong, tafakkur, jamiyat, siyosat.

“Jadidchilik Turkistonda o'ttiz yil nari-berisi davom etdi. ... Biroq shu qisqa davr katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongi uyg'onib dunyoqarashi o'zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi” [1, 131]. Ko'rinib turibdiki, bu harakat milliy ma'naviyatini kamol toptirishdan san'at va adabiyotning kuchiga tayangan edi. Chunki, millatning o'zligi anglash jarayonida adabiyotning o'rni biqiyosdir. Asrimiz boshlarida O'zbekistonda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarda ham milliy adabiyot muhim o'rin tutdi. “Adabiyot hech qachon bu qadar keskin g'oyaviy-siyosiy kurashlar maydoniga aylanmagan edi – degan fikr XX asr boshlarida adabiyotning tutgan mavqeini aniq ko'rsatib bera oladi. Milliy uyg'onish haraktida adabiyotning yetakchilik qilish hodisasi jahon taraqqiyoti uchun yangilik emas. XIX asrda Rossiyada paydo bo'lgan “xalqchilik” (narodnik) harakati rus millatini jaholat botqog'idan qutqarish uchun kurashgan va rus millati shakllanishida muhim o'rin tutgan harakat edi. Bu harakatning asosiy kuchi adabiyot vakillari edilar.

Turkiyaning iste'dodli ijodkorlari XIX asr o'rtalarida “tanzimot” davri islohtlarida yetakchilik qildilar. XX asr boshlarida Hindistonning milliy istiqlol yo'lidagi kurashlarini esa Tagor va uning izdoshlari ijodisiz tasavvur etish mushkul. Chunki “har bir milliy madaniyatda demokratik ideologiyaning tug'ilishi hamda rivojlanishi jamiyatning, keng mehnatkashlar ommasi hayotining moddiy shart-sharoitlaridan kelib chiqadigan zaruriy, qonuniy hodisadir” professor B.Qosimov ma'lumotlariga qaraganda “1905-1917 yillarda O'rta Osiyoda saksondan ortiq ijod ahli yashagan va ijod qilgan” [2, 28]. Ularning ijodiy faoliyatlari, ayniqsa, 1905-1925 yillar oralig'ida janr jihatdan rang-barangligi, mavzuda milliyat va Vatan istiqloli, ma'rifati g'oyalarining yetakchilik qilgani bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan jadidchilik harakati va jadid adabiyoti: “XVIII asr Fransuz utopik sotsialistlari yo XIX asr rus narodniklari singari jahon tarixida ezgu tilaklari bilan qolishga munosib bo'lgan, amalda o'z xalqining milliy uyg'onish ishiga ulardan ko'ra ko'proq xizmat qilgan va shu tariqa inqilobiy ahamiyatga molik bo'lgan harakat edi” [2, 28].

Jadidlar adabiyotni millatning milliy ongini o'stirish va milliy tafakkur ko'zini ochishda xalqqa eng yaqin vosita deb bildilar. 1907 yilda tatar shoiri A.To'qay “... bizning millat ham boshqa millatlarning taraqqiylariga sabab bo'lgan chinakam yozuvchilarga muhtoj” [3, 10] – deb yozgan edi.

Jadid adabiyoti shaklan va mazmunan milliy bo'lgan adabiyot sifatida namoyon bo'ldi. Jadid adabiyotining xalq manfaatlarini himoya qilib chiqishining o'zigina uni xalqqa yaqinlashtira olmasdi, albatta. Bu adabiyot, eng avvalo, xalqonaligi bilan xalqning eng quyi tabaqalariga qadar kirib bora oldi va “Adabiyotning o'z nima?! U qanday bo'lmog'i?!” degan savolni qo'yi, “Uning vazifasi xalqni uyg'otmoq, millatni birlashtirmoq” – degan g'oyani ilgari surdi. Shu mazmunda yozilgan maqolalar ichida A.Cho'lponning “Adabiyot nadur?” nomli maqolasi alohida e'tiborga molik. Maqolada adabiyotning burchi va vazifalari masalasi ko'tariladi. 16 yoshli o'spirin Cho'lpon qat'iyat bilan “Adabiyot yashacha, millat yashar!” degan xulosani ilgari suradi.

“Adabiyoti o‘lmog‘i va adabiyotning taraqqiysiga chalishmag‘on va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilhon millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur” [5, 35]. Cho‘lpon bu fikrlar bilan adabiyotning millat hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatib berar ekan, uning bunday xulosaga kelishida XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan adabiyot ahlining, adabiy muhitning o‘rni katta bo‘lgan albatta. Darhaqiqat, milliy uyg‘onish davrida har bir siyosiy arbob, xalq yetakchisi adabiyot bilan jiddiy shug‘ullangan va har bir adabiyot ahli ijtimoiy-siyosiy hayotda salmoqli faoliyat ko‘rsatgan edi. Aynan shu sababdan bu davrda yozilgan har qanday adabiy asarda millatni jaholatdan qutqazish, istibdod zanjirlaridan xalos bo‘lish g‘oyalari aks etgan. Eng muhimi, imkon qadar ularda g‘oyaning badiiylilik bilan birikib ketishi, yaxlitlik ta‘minlangan. Mashhur adabiyotshunoslarimizdan biri ta’kidlaganidek, “... adabiyot quruq g‘oyalar majmuasi emas, balki birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan hodisadir. U odamning shuuridagina emas, his-tuyg‘ulariga ham ta’sir etishi, ularni quvontirib, yoxud maxzun ahvolga solib, shu orqali ijtimoiy burchini o‘tashi zarur”. Jadidlar adabiyotining aynan ana shu xususiyatlariga e’tibor qaratdilar. Fitrat: “Adabiyot fikr-tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordamida tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir” [6, 22] – degan fikrlari bilan jadid adiblarining niyati adabiyot vositasi bilan o‘z “fikr” va “tuyg‘ularini” millat shuurida ham uyg‘otish ekanini qisqa qilib ifodalab beradi. Aynan ana shu jihatlari bilan milliy uyg‘onish davrida adabiyotning tutgan o‘rni beqiyos bo‘ldi. Adabiyotning xalq bilan bevosita muloqot o‘rnata oladigan poeziya va dramaturgiya janrlari yetakchi kuchga aylandi. Adabiyot maydoniga Hamza, Fitrat, Behbudiy, Avaz O‘tar, Avloniy, S.Ajziy, Cho‘lpon kabi yangi avlod kirib keldi. Ular o‘z asarlarida millat ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida xizmat qiladigan madaniyatlarni qo‘llab-quvvatladilar. Millat ozodligi, yurt qayg‘usini har narsadan aziz bildilar, “ular adabiyotga yangi ruh, yangi mazsun kiritdilar. Adabiyotning mavzu doirasi kengaydi, mazmuni o‘zgardi”. Ular she’riyatida ma’rifat mavzusi millatparvarlik g‘oyalari bilan birikib ketganini payqash qiyin emas, ya’ni A.Avloniy “Adabiyot yohud milliy she’rlar to‘plamidagi deyarli barcha she’rlarida millat ahvoli, ma’rifatsizligi, “fandan, ziroatdan, sanoatdan xabarsiz, besamar” ekanligidan kuyinadi va:

Yotursan tobakay g‘aflat quchog‘inda, uyon millat,
 Jaholat jomasin ustingdan irg‘it, tur, zamon, millat,
 Ketib hamrohlar, san yo‘lda qolmakdan o‘ton, millat,
 Ko‘zing och, yotma g‘aflatda o‘son millat, omon, millat.

deya uyg‘onishga chorlaydi. Hamza she’riyatida esa millat mavzusi bir davriylik kasb etdi. Uning 1905 yildan 1915 yilga qadar yozgan she’rlarda bosh mavzu darajasiga ko‘tarildi. U:

Esiz, esiz Turkiston, qani avvalgi holi?
 Olamga ziyo bergan ul xurshidi iqboli?
 Abri g‘aflat qurshadi, tun bo‘ldi istiqboli,
 Xor bo‘lsa millatimiz, tutmasmikan uvoli.
 Zulmat toshi yog‘ilsada, ko‘zi ochilmaz,
 Ruhsiz tandir, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Yoki:

Qachon ilmsiz qoldik, maqsadga yetmay toldik,
 Mundog‘ hollarga qoldik, yig‘la millat, yig‘lay(l)ik.

kabi misralarida Turkistonning, millatining najot yo‘lini izlaydi. Mazlumsevar shoir Avaz O‘tar ijodida yurt qayg‘ulari, ezilgan el ahvoliga chora izlash motivlari yanada kuchayganini uchratamiz:

Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat?
 Topib ilmu hunar birla maorifdin nishon millat?

Yoki:

Xalqi olamni bori aylar taraqqiy kunbakun
 Biz tanazzul aylabon qolduk, eduk ne qora xalq.

deya iztirobga tushgan millat ertasiga umidni faydan topishni bilmagan shoir o'z haq huquqini talab qilish, javobgarlar izlash, topish darajasiga o'sadi:

Bizni aylab xoru-zor notavon etmak uchun,
Bermayin osori hurlik bandi zindon etdingiz,
Bu falokatlar uchun mas'ul o'lursiz oqibat,
Zulmu istibdod ila millatni vayron etdingiz.

Bu shoirlar she'riyatidagi uyg'onish va fikriy o'sish zamon xarakteridagi yangilikka tashnalik bilan uzviy birlikda edi. "Badiiy ijodda ba'zan shunday she'rlar dunyoga keladiki, ular alohida shoirlarninggina emas, davr va zamon she'riyatining hal qiluvchi nafasini belgilashga xizmat qiladi". XX asr boshlarida milliy tafakkurning uyg'onishi va o'sishida aynan ana shunday she'rlarning ahamiyati katta bo'ldi. Millat ahvoliga ayainish she'riyat ahli ijodida tub burilish yasadi. Bu davr she'riyatning xarakterli xususiyatlari shundaki, undagi "shaxsiy men" "milliy men"ga o'sib chiqdi. Shoirlarda millatga rahnomalik tuyg'usi yetildi. Ular o'zlarini millat uchun javobgar deb bila boshladilar va shuning uchun ham faqatgina badiiy ijod bilangina shug'ullanib qolmadilar, balki gazeta va jurnallar nashr ettirdilar, maktablar ochdilar, teatr truppalari tuzdilar, spektakllar sahnalashtirdilar.

1905 yildan boshlab tom ma'noda yangi adabiyot-milliy uyg'onish adabiyoti paydo bo'ldi va faoliyat ko'rsata boshladi. Bunday yangicha qarashlar adabiyotning poeziya janrida Furqat, Muqimiy, Anbar Otin ijodida XIX asr oxirlarida paydo bo'lgan bo'lsada, XX asrning boshlariga kelibgina jadid adabiyotida yetildi va to'laligicha milliyatchilik shuuri bilan sug'orildi. 1910 yillarga kelib millat ijtimoiy-siyosiy ongini o'zgartirish uchun faqatgina mavjud adabiy tur va janrlarning o'zi kifoya qilmay qoldi. Jadidlar o'zlarining haqiqatlari-millatni uyg'otishni yanada tezlashtirish uchun o'z harakatlarining birinchi bosqichidayoq (ma'rifatchilik davri nazarda tutilmoqda) sahna adabiyotini yarata boshladilar.

Turkistonning jadidlarining ma'naviy otasi Behbudiyning 1911 yilda yozgan "Padarkush" dramasi bu yo'ldagi ilk qadam bo'ldi va 1917 yilga qadar o'zbek milliy sahna adabiyoti tom ma'noda yaratildi. "Teatr dramaturgiya jadidchilik harakatining va jadid adabiyotining bag'oyat muhim jabhalaridan bo'lgani uchun harakatning ma'rifiy, ijtimoiy hamda siyosiy maslaklari tomon yo'naltirildi, shu bilan mutanosib rivojlandi".

Ziddiyatlarga va qarama-qarshiliklarga to'la davrda ham adabiyotdan eng avvalo estetik zavq beradigan asl go'zallik, yuksak badiyat talab qilinadi. Shu sabab ham adabiyotning hech qaysi janrida soxtakorlikka yo'l qo'ymaslikka tirishildi. Gazeta va yoki jurnalda e'lon qilingan har bir yangi she'r, bo'yog'i qurib ulgurmagan yangi to'plam, sahnaga ilk bor qo'yilgan har qanday asar o'zbek ziyolisining nazaridan va matbuotda e'lon qilingan munosabatidan chetda qolmadi. "Turkiston matbuotida XIX asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab, adabiyot san'at, teatr, til va imlo kabi masalalarga bog'liq qator adabiy*tanqidiy va tanishtiruv vazifasini o'z zimmasiga olgan ilk nazariy maqolalar e'lon qilina boshlagan. Ayniqsa, jadid matbuoti nomi bilan tarixga kirgan o'nlab nashrlarda chop qilingan maqola va xabarlar... adabiy tanqid qanchalar faol bo'lganini ko'rsatadi". Zotan, "milliy tafakkurning o'sishida alohida bosqich bo'lgan milliyatchilik adabiyotining rivojlanganlik darajasi adabiy-tanqidiy tafakkurning qay darajada shakllanganligiga bog'liq". Adabiyotda ma'rifatparvarlik qarashlari bilan taraqqiyparvarlik g'oyalari rivoj topayotgan XX asr boshlarida ro'y bergan 1917 yilgi Oktabr inqilobi adabiyot ahlini sarosimaga solib qo'ydi. Ayrim mutaxassislar to'ntarish deb baholagan va mohiyati shunga yaqin bo'lgan bu voqealarini jadidlar xavotir bilan kutib oldilar. "... 25 oktabrda qishki saroyning egallanishi va muvaqqat hukumatning qamoqqa olinishi munosabati bilan Fitratning "Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi – bolshavik balosi" degan qaydiga duch kelamiz. Shoir so'ngroq bu voqeani "yurt qayg'usi" sifatida baholadi". Biroq adabiyot o'z qarashlari va vazifasidan chekinmadi. Millatning ijtimoiy turmushi esa kundan-kunga ayanchli holga tusha boshladi. "Bir pud bug'doyning narxi Turkistonda 1916 yildagiga nisbatan 32 baravar oshdi".

Yurtning ochlikdan xo'rlanishi, millat ahvolining tangligi jadidlarda inqilobdan norozilik kayfiyatini uyg'otdi. Jadidlar "1917 yildagi fevral inqilobidan keyin haqiqatni milliy muxtoriyatdan axtara boshladilar va o'z ijodlari orqali Turkistondagi milliy mustaqillik

harakatini qo'llab-quvvatladilar". 1918 yilda jadidlar "iymonlariga o'rab saqlagan" (Fitrat) Turkiston muxtoriyati inqilob nomi bilan tugatildi. Qo'qon qonga botirildi. Biroq adabiyot ahli birdaniga bolsheveklar tomoniga o'tib ketgani yo'q. 1919-1921 yillarda mavjud bo'lgan "Chig'atoy gurungi" adabiy to'garagi milliy shuurni, millatning milliy tafakkurini uyg'otish, "milliy men"likni anglatish maqsadlari bilan faoliyat ko'rsatdi. "Chig'atoy gurungi" o'zbek millatchiligi, o'zbek tili, o'zbek adabiyoti shoirlari ostida panturkist to'dalariga va shunga berilgan o'ng jadidlarga qarshi kurashdi".

Faqatgina 20-yillarning boshlariga kelib siyosiy taraqqiyotda bolsheveklar g'alabasi muqarrar bo'lib qolgachgina, jadid adabiyoti, ya'ni milliy uyg'onish adabiyoti mazmun va mohiyatidagi milliy mustaqil davlat qurish umidlari sarobga aylana boshladi. Milliy istiqlool g'oyalari ruhan taslim bo'la olmaydigan shoirlar she'riyatidagi misralarda botiniy mazmun kasb etdi. Bunday she'rlarni ham hamma shoirlar yozganlari yo'q albatta. Bunday she'rlar A.Fitrat ijodida va asosan Cho'lpon ijodida salmoqli o'rin tutadi. Qayd etib o'tganimizdek, XX asr o'zbek adabiyoti uchun g'oyat murakkab va ziddiyatli bir davr bo'ldi. Bu davrda milliyatparvarlik, milliy uyg'onish g'oyalari, milliy tafakkur adabiyotimizda yetakchilik qildi. 30-80 yillarda SHo'ro tuzumi va mafkurasi tufayli iste'dodlar ijodida botiniy tarzda ifoda etildi. 80-yillarga kelib yana bosh g'oya darajasiga ko'tarildi. Millatning madaniy darajasi, o'ziga xos milliy tafakkur tarzini, umuminsoniy qadriyatlar va jahon madaniy saviyasini mezon qilib olishga intildi.

Binobarin, XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti nafaqat jadidchilik qarashlari bilan sug'orilgan, balki jahon madaniyatining ilg'or fikrlarini ham o'zida jamlab ola olgan va millat manfaatlarini himoya qilib chiqqan milliy uyg'onish adabiyoti bo'ldi. Bu adabiyotning maydonga chiqishida quyidagi faktorlar muhim o'rin tutadi:

Turkiy xalqlar ruhiyatidagi milliyatchilik shuurining qadim asoslari mavjudligi.

Milliy tafakkurning uyg'oqligi va yuksalishi.

Chor Rossiyasi va so'ngroq sho'ro hukumatining ruslashtirish siyosati.

Jadidchilik harakatining milliyat yo'nalishida ketganligi.

Mustamlaka tuzumidan qutilib mustaqil davlat qurish intilishlari.

Yuqoridagi faktorlarning adabiyotida aks etishi, tabiiy ravishda XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotini milliy uyg'onish adabiyoti darajasiga ko'tardi. Adabiyot millatni uyg'otuvchi asosiy kuchga aylandi. Shu jihatlari bilan ham adabiyotda aks etgan mavzular asosan ijtimoiy-siyosiy voqelikning badiiy ko'rinishi tarzida namoyon bo'la boshladi. Milliyat masalalarning adabiyotda bunday keskin va ko'ndalang qo'yilishi asosan 1925 yillarga qadar davom etdi. Sho'ro tuzumining siyosiy qatag'onlari 1938 yilda avj olgan bo'lsa-da uning qora sharpasi adabiyot ahli, ziyolilar ustiga 20-yillarning o'rtalaridayoq ko'lanka tashlay boshlagan edi. Chunki, bu davrda o'zining iste'dod qudratini namoyon qila olgan adabiyot ahlining aksariyati jadidchilik harakatidan o'sib chiqqan va milliy istiqlool tarafdori bo'lgan ijodkorlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Ризев. "Жадид драмаси" Т.: Шарқ 1997 йил .
2. Б.Қосимов . "Излай, излай топганим..." . Т.: Ф. Гулом 1984 й.
3. Каримов Н. «XX аср Ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиклол мафкураси»докторлик диссертацияси автореферат. 10-бет.
- 4.А.Тўқай. Асарлар тўрт томлик. 3-том. Қозон – 1976.
5. А.Чўлпон. "Адабиёт надир". Т.: "Чўлпон" 1994.
6. А.Фитрат "Адабиёт қоидалари" Т."Ўқитувчи" 1994.

MISKINNING MA'RIFIY QARASHLARI

Shahobiddin NURIDDINOV,
O'zbekiston, Qarshi DU, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili Mulla Qo'shoq Miskinning ma'rifiy qarashlari aks etgan lirik asarlari o'rganilgan. Shoirning ilm, maktab va maorif masalalariga bag'ishlangan g'azal, muxammas va musaddaslari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish, matbuot, maktab, maorif, ilm, ma'rifatparvarlik, millat

XX asr avvalida mustamlaka Turkistonda milliy ozodlik shiori ostida jadidchilik harakati paydo bo'ldi va jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Bu harakatning asosiy g'oyasi bo'lgan ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik jadid adabiyotining bosh mavzusiga aylandi. Jadidchilik ham shaklan, ham mohiyatan butunlay yangi adabiyotni shakllantirdi. Turkiston ma'rifatparvar ziyolilari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Siddiqiy-Ajziy, Hamza, Kamiy, Xislat, Miskin kabi ijodkorlar ilmsizlik, ijtimoiy qaramlik, ma'naviy-ma'rifiy qoloqlik illatlaridan qutulish va ma'rifatga erishish g'oyalarini o'ziga xos badiiy talqin etdilar. Maorif sohasini yuksaltirish, ma'rifat orqali xalqni zalolatdan qutqarish davr talabi, hayotiy ehtiyoj edi.

Jadid ijodkorlari orasida Toshkent adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakili Mulla Qo'shoq Miskinning ham alohida o'rni bor. Matbuot bilan yaqindan tanish bo'lgan Miskin ma'rifatparvarlik mavzusida o'nlab she'rlar yaratdi. Uning ijodida "O'z holimizga bir nazar", "Kimga dey", "Biz qanday holdamiz", "Istariz", "Maktab haqinda" kabi she'rlar uchraydiki, ular Vatanni ozod, millatni mutaraqqiylar bilan baqamti ko'rmoq orzusining o'ziga xos poetik ifodasidir.

Akademik N.Karimov ta'kidlaganidek: "O'tgan asrning 10-yillarida ma'rifatparvarlik kuylarini baralla chalgan o'zbek she'riyatida Miskinning ham ovozi jaranglab turgan"[2]. Shoir nazarida, ilm – barcha mushkulotlarning kaliti. Ilmsizlik millatni oxir-oqibat xarob qiladi. El-yurt boshiga har qanday azob, har qanday xaroblik kelsa, bu – jaholat oqibatidir. Shoirni millatdoshlarining ilmsizligi, jaholat girdobida qolgani va eng achinarlisi, bundan or etmasligi qattiq iztirobga soladi. She'rlarida vatandoshlarini ilm ziyosiga da'vat etishi sababi shunda:

Yig'la, ey ko'z, holimizga dam-badam san emdi qon,
Jahl domig'a asir o'lduk ilmsizlik bilon,
O'zga millat ilm uchun sarf aylayurlar molu jon,
Biz ajab choyxonayu mayxonada aylab makon,
Oh! G'afolat uyqusida uxlashibbiz onchunon,
Har taraf kelgay sado "Tur!" deb uyonmasmiz hamon. [3, 64]

Oxir-oqibat nima bo'lishini oldindan ko'ra bilgan shoir ilmsiz qolsak, keyin bu damlar bizga motamdur, deydi. Bunday holning oldini olish zarurligini anglagan shoir dilidagi tuyg'ularini yana asarlari zamiriga singdirib, bunday yozadi:

Ilmsizlikdan bo'lur bo'lsa qayu millat xarob,
Ilmsizlikdan kelur millatga kelsa har azob,
Ilmsizlikdan qilur cho'x g'ayrilar bizga itob,
Ilmsizlikdan erur to'ti uyi joyi g'u'rob, [3, 62]

Miskin Toshkandiyning ayrim she'rlarida vatanparvarlik, millat uchun qayg'urish, insoniy kamolot, diniy ma'rifat mavzulari uyg'un holda tasvirlanadi. Shoirning "Maktab haqinda" she'ridan olingan quyidagi misralar ham bu fikrni tasdiqlaydi:

Barcha anvoyi hunarni peshvosi ilm erur,
To'g'ri yo'lga boshlamakni rahnamosi ilm erur,
Zuhdu taqvoni asosi, muttakosi ilm erur,
Bu jaholat zulmatin nuru ziyosi ilm erur. [3, 65]

Professor Begali Qosimov shoirning ma'rifatparvarlik mavzusidagi she'rlari xususida to'xtalar ekan, "...keng xalq ommasini, asriy jaholatdan uyg'onishga chaqirdi... Xalqimizga erk va ozodlik ruhini singdirish, ularni haq-huquq uchun kurashga uyg'otishda hissasini qo'shdi", - deb yozadi [5, 110]. Bu xulosa shoirning ma'rifatparvarlik she'riyatiga berilgan to'g'ri va xolis bahodir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'p ijodkorlarning she'riyati mazmunan bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, Abdulla Qodiriy bir g'azalida jaholatda yotgan xalqidan norizo bo'lib:

Ko'r bizing ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz, – [4, 21]
desa, Abdulla Avloniy bu mavzuni quyidagicha talqin etadi:
Yotursan tobakay g'aflat quchog'inda, uyon millat

Jaholat jomasin ustingdan irg'it tur, zamon millat.

Miskinning ilmsizlik va millatdoshlarining bundan or etmasligi haqidagi "Biz qanday holdamiz" she'ri yuqoridagi nazm namunalariga mohiyatan uyg'undir:

Ilm erur, beshak, bilingiz, dardimizning chorasi,
Ilmsiz bitmas marizu jahlimizning yorasi,
Ilm ila bo'lgay musaffo ko'nglimizning qorasi,
Guldin ortiq ilgimizg'a kirs a ilmning xorasi,
Ilma aylaylik taraddud vaqt g'animat, do'ston!
Ilm ila Miskin kabi vayronalar ham bo'ston! [3, 64]

Bu misralar xalq va vatan hayotidagi nuqson va illatlar ilmsizlik sababli sodir bo'lgani o'sha davr she'riyatida ana shunday izchil va mushtarak tasvirlanganidan dalolat beradi. Xulosa tarzida aytish mumkinki, ma'rifatparvarlik lirikasi Miskinning o'z davri peshqadam ziyolisi hamda yetuk ma'rifatparvari ekanini ko'rsatadi.

Shoir sifatida u millatdoshlarini ma'rifatga da'vat etish barobarida jamiyatdagi ayrim norasolliklar bilan murosa qila olmadi. E'tirozlari quyma misralar bo'lib she'rlariga ko'chdi:

Uyondi barcha millat, biz hanuz g'aflatga qonmaymiz,
Chunon uyqudamiz, yuz ming sado o'lsa uyonmaymiz,
Jahon ilm ila obod o'ldi, derlar, inonmaymiz,
O'qib biz ham o'zimizni nechun odamga sonmaymiz,
Ajab bid'atparastdurmiz, ado bo'lduk, o'sonmaymiz,
Xarob o'lduk jaholatdin, hanuz ham, oh, yonmaymiz. [3, 60]

Miskin ijodida **maktab va maorif** masalasi alohida o'rin tutadi. XX asr avvalida millat ziyolilari diqqat markazida bo'lgan maktab masalasi xususida bu davrning ilg'or ma'rifatparvar adiblari ijodida ko'plab asarlar yaratilgan. Davrning yetuk ziyolisi sifatida Miskin ham bu mavzuga ko'p bora murojaat qiladi. Milliy uyg'onish harakatining bosh g'oyasi Vatan va millat ozodligi edi. Bu esa o'z-o'zidan va osonlik bilan ro'y beradigan jarayon emas. Modomiki, maqsad jamiyatni, millatni qutqarish ekan, yangi avlod tarbiyasi bunga asos bo'lmog'i mumkin. Taraqqiyot poydevori maktab ekanligini anglagan ma'rifatparvarlar butun ijodini, faoliyatini ana shu buyuk maqsad uchun tikishdi. Mashhur ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy bu masalaga to'g'ri va haqqoniy yondashgan: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha (zamonga mos) isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradin mahrum qolub, sanoye' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas" [1, 176].

Millat taraqqiysi, yurt ravnaqining asosini maktabda deb bilgan shoir "Maktab haqinda" she'rida shunday yozadi:

Ma'dani izzu ulou lutfi Rab maktab erur,
Maxzani mehru vafou zu-l-hasab maktab erur,

Manbai hilmu hayo, bobi adab maktab erur,

Fozilu dono, rasolarga sabab maktab erur. [3, 65]

Shoir maktabni azizlik va yuksaklik ma'dani, mehru vafoning xazinasini, yumshoq tabiatlilik va hayo manbai, odob eshigi deya e'tirof etadi. Uning nazdida maktab – millat koriga yaraydigan fozilu donolarning kamolotiga sabab bo'luvchi oliy maskan.

Ilmu maorifga e'tiborni bir daqiqa bo'lsa-da, kechiktirib bo'lmashligini anglagan shoir bugungi g'ayratsizlik zamirida ertaning xorligi, hatto motami xavfidan tashvishlanadi. Jaholat girdobida qolgan avom har yerda mulzam, begonalar esa ilm ila xurram ekanidan iztirob chekadi:

Jon nisor etsak hamisha ilm uchun kamdur bu dam,
Ilmsiz qolsak, keyin bizlarga motamdur bu dam,
Ibrat olingiz, avom har yerda mulzamdur bu dam,
Ko'rasiz begonalar ilm ila xurramdur bu dam. [3, 65-66]
Musaddas janrida yaratilgan mazkur she'rning har bandi so'ngida
Ziynati millat Ajamdin to Arab maktab erur,
Ko'z oching atrofi olamga, talab maktab erur,-

misralarini takror qo'llar ekan, shoir maktabning millat taraqqiysi uchun "ulug' imorat" (Behbudiy iborasi) ekanligini qayta-qayta ta'kidlayotgandek bo'ladi. Kamiyning "Murabba'i dar ta'rifi maktab" she'rida *"Maktabki, malja'i Ajamu ham Arab erur"* (Ma'nosi: Maktab – barcha Arab va Ajam xalqlari uchun sig'iniladigan joy) misrasi beriladiki, bu ikki ijodkor qarashlaridagi mushtaraklikni bildiradi.

Haqiqatan, bir zamonlar har sohada G'arb uchun o'rnak bo'lgan ko'hna Sharq so'nggi uch-to'rt asr davomida yuz bergan buhronlar oqibatida taraqqiyotdan uzila bordi. Natijada G'arb ustunlikni o'z qo'liga oldi. Shoir ilmu fan, madaniyatni taraqqiyot ancha ilgari ketgan Yevropa xalqlarini o'z millati bilan qiyoslar ekan, ko'p o'rinlarda millat kelajagi uchun qayg'urish, uning ahvolidan afsuslanish ohanglari sezilib turadi:

Boqing maktab, madoris-chun ajoyib, bizda yo'q jur'at,
Hama millat arosida erurmiz turfa beg'ayrat,
Na bizda ittifoq vordir, na bir osori jam'iyat,
Hama yig'gonimiz bo'lsa, qilurmiz to'y uchun himmat,
Ajab bid'atparastdurmiz, ado bo'lduk, o'sonmaymiz,
Xarob o'lduk jaholatdin, hanuz ham, oh, yonmaymiz. [3, 60]

Yoki

Oh, millat, deb g'amingda kuydi jonim, kimg'a dey?
Bir eshitmaysan fig'onimni fig'onim kimg'a dey?

Dardi hajring torta-torta surx rangim o'ldi zard,
Furqatingdin emdi ro'yi za'faronim kimg'a dey?

Barcha o'z aysh-u huzuri birla ermish shodmon,
Man sani qayg'ungda doim, bag'ri qonim, kimg'a dey?...

Ming fig'on, beilm g'aflat ilgida bo'ldum ado,
Bu adolig'da meni chekkan ziyonim kimg'a dey?...

Ilmliklarni ko'romen, doimo dilshod erur,
Ilmsizlikdin oqar ashki ravonim kimg'a dey? – [3, 21]

misralari orqali ilm olmoq hech qachon va hech qanday holda kechiktirib bo'lmaydigan muddao ekani ta'kidlanadi. Chunki "bugun islohi maktab-madrasa, ya'ni islohi millatga ko'shish qilinmasa, rabi asr so'ngi diyonat barbod bo'lur va aning javobi mas'uliyati bugungilarga qolur, bu mas'uliyatdin qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o'rnini maktab va madrasadir"

[1, 203]. O‘z-o‘zidan ayonki, ilm, maktab, maorif masalalari Miskin ijodining ajralmas qismi bo‘lgan ma‘rifatparvarlik mavzusining yetakchi motivlaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999.
2. Karimov N. “Ilm ila vayronalar ham bo‘ston” // “O‘zAS” 2006 yil 14 iyul.
3. Miskin. Izlarman. – Toshkent: Tafakkur, 2011.
4. Qodiriy A. Diyori bakir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
5. Qosimov B. Salom, kelajak. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.

FITRATNING ADABIY TUR VA JANRLARGA MUNOSABATI

Orzigul HAMROYEVA,
O‘zbekiston, TDO‘TAU, f.f.d.(DSc) dots.

Annotatsiya. O‘z davrining yirik olimi sifatida Abdurauf Fitrat ilmiy risola va maqolalaridagi adabiy tur va janrlar, ularning ilmiy-nazariy qoidalari va amaliy tatbiqiga oid tahlillar adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada olimning bu boradagi ilmiy qarashlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy tur, janr, lirika, yurakchilik, rivoya, tomosha, drama, nazm, nasr.

Adabiy tur va janrlar masalasi, unga doir tahlillar Fitrat ilmiy maqola va risolalarining asosini tashkil etadi. Olimning “Adabiyot qoidalari” asarida badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlariga umumiy qarash yetakchilik qilsa, “Navoiyning forsiy shoirlik‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Chig‘atoy adabiyoti”, “XVI asr so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”, “O‘zbek shoir Turdi”, “Muhammad Solih”, “Mashrab”, “Fors shoiri Umar Xayyom”, “Farhod va Shirin” dostoni haqida”, “She‘r va shoirlik”, “Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” kabi maqolalarida lirik janrlarning poetik tahliliga oid ilmiy-nazariy qarashlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Fitrat badiiy adabiyot tushunchasi va unda yozma va el adabiyotining o‘z o‘rni borligini “Adabiyot qoidalari” asarida atroflicha tahlilga tortgan. Olim e‘tiborga tortgan dastlabki masala: yozma va el adabiyotining farqli jihatlari nimalarda ko‘rinadi? Bu ikki turdagi adabiyotni shakliga ko‘ra ajratish qay darajada to‘g‘ri bo‘ladi? Bu borada Fitrat Vadud Mahmud fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Vadud Mahmudning “Navoiygacha bo‘lgan turk adabiyoti” maqolasida el adabiyotining xususiyatlari to‘g‘risida fikrlari keltirilgan bo‘lib, Fitrat tomonidan ahamiyatli deb topilgan bu yondashuv “Adabiyot qoidalari”da tahlilga tortilgan [2, 18]. Unga ko‘ra ikki olim ham el adabiyotining qay shaklda (og‘zaki, yozma) yaratilgani bu ikki turga ajratilishiga asos bo‘la olmasligini ta’kidlaydilar. Deylik, bir asar yozma shaklda yaratilib, yo‘qolsa, keyinchalik uning parchalari og‘izdan og‘izga ko‘chib, muallifi unutilishi va el adabiyotiga aylanishi mumkin. Yoki aksincha maqol, matal, dostonlar keyingi avlodga yozma shaklda yetib kelishi - tabiiy jarayon. Shu sabab bilan Fitrat el adabiyotining asosiy xususiyati shakli, muallifi ma‘lum yoki ma‘lum emaslikda deb belgilash noto‘g‘ri ekanligini ta’kidlab, fikrining isboti sifatida Muqimiy, Furqat, Haziniy kabi ijodkorlarning bir qancha she‘riy parchalari ommalashib, el adabiyotiga aylanib ketganini keltiradi. Shu asosda el adabiyotining maxsus janrlari va ularning tahliliy natijalari asosida ilmiy xulosalarini taqdim etadi.

Fitrat yozma adabiyotning deyarli barcha janrlariga oid parchalarini tahlilga tortgan va janrlarning ilmiy-nazariy qoidalarini salafлари manbalaridagi xususiyatlari bilan qiyosiy o‘rgangan, davriy yangilanish va tadrijiy xususiyatlarini qayd qilgan. Fitrat yozma adabiyotning uch adabiy turini o‘ziga xos tarzda nomlaydi:

1. Yurakchilik – lirika
2. Rivoya – epos
3. Tomosha [6, 78]

Olim adabiy turlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib nomlaydi. Lirik turgʻuni ifoda etishi, nasr voqeani bayon qilish, dramaturgiya koʻrsatib berishga asoslangani bois ayni atamalar tanlangan. Fitrat tomosha deb nomlagan adabiy tur adabiyotchilar tomonidan drama deb nomlanishi, drama keng maʼnoda adabiy tur, tor maʼnoda dramaturgiyaning bir janri sifatida ishlatilishini taʼkidlab, qiyinchilik tugʻdirmasligi uchun drama soʻzini tor maʼnoda qoʻllashni afzal koʻrganligini izoh sifatida keltiradi. Fitrat dramaga voqeaning tasviri shoir, yozuvchining tilidan emas, shu voqeaga aralashgan kishilar tilidan bayon qilinishiga asoslanuvchi adabiy tur deya taʼrif beradi. Fitrat XX asr boshlarida dramaning yorqin namunasini yaratgan ijodkor sifatida drama muvaffaqiyatini taʼminlovchi asosiy sabablardan biri sifatida dramaturg va aktyorlarning oʻz vazifalarini mahorat bilan bajarishlarini koʻrsatadi va shu bilan birgalikda muvaffaqiyat shartlari keltiriladi:

1. Toʻlalik
2. Birlik
3. Toʻgʻrilik.

Bu uch shart dramatik asarni mukammal yaxlit asar sifatidagi takomilini taʼminlab beradi. Unga koʻra asarda qahramonlarning xarakterlari toʻla ochilgan boʻlishi(toʻlalik), asardagi har bir tasvir, voqelik bir-biriga bogʻlangan boʻlishi(birlik), tabiiy boʻlishi(toʻgʻrilik) drama muvaffaqiyatini taʼminlab beradi. Fitrat dramaturgiyaning komediya, tragediya, drama janrlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlari borasida yetarlicha maʼlumotlar keltiradi. Adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asarning tarkibiy qismlari sifatida taqdim qilingan boshlanma, voqealar rivoji va tugallanma dramatik asarda Fitrat tomonidan

1. bogʻlanish
2. borish
3. bitish

tarzida nomlanadi, ularning asardagi oʻrni va vazifalari borasida fikrlar keltiriladi [6, 80]. Fitrat komediyaga Uygʻunning “Turkiston tabibi”, tragediyaga Behbudiyning “Padarkush”, oʻzining “Abulfayzxon”, “Abo Muslim” asarlarini namuna sifatida keltiradi, tahlil qiladi, janr imkoniyatlarini ochib beradi. Fitrat dramaning sahna va musiqa bilan uygʻun janri – operaga ham eʼtibor qaratadi, opera janrida yozilgan dastlabki asar sifatida Gʻulom Zafariyning “Halima” asarini koʻrsatadi. Koʻrinib turibdiki, Fitrat XX asr boshlarida kirib kelgan dramaturgiya xususida yetarlicha bilim va tahlil koʻnikmasiga ega boʻlgan.

Abdruaf Fitrat “Adabiyot qoidolari”da rivoya adabiy turiga masal, doston, hikoya, roman janrlarini namuna tarzida keltiradiki, olim janrlar taqimotini asarlarning yozilish shakliga qarab emas, voqealarni adib tomonidan tasvir etilishiga asoslanishiga koʻra ajratganiga guvoh boʻlamiz. Xususan, masal janri xususida toʻxtalganda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” va Gulxaniyning “Zarbulmasal”, Elbekning “Ikki tulki” masallarini namuna sifatida keltiradi. Doston janri xususida maʼlumot keltirilganda ham, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabʼai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayxo”, Muhammad Soliyning “Shayboniynoma”, Gʻulom Zafariyning “Choʻlpon temir”, “Vonnaycha” asarlari tahlilga tortiladiki, bu asarlar bugungi kundagi nasrga toʻgʻri kelmaydi. Bu dostonlarning barchasi sheʼriy shaklda yozilgan boʻlsa-da, voqeyilikka asoslangani bois olim tomonidan rivoya adabiy turini janrlaridan biri sifatida keltirilgan.

Fitrat bu adabiy turning muhim janrlaridan biri - hikoyaning imkoniyatlarini oʻz davrida yaratilgan hikoyalarning mohiyatidan kelib chiqib izohlaydi, “tirikchiligimizda boʻlub turgʻan koʻb voqealarning qorongʻu puchmoqlarini oydinlatib koʻrsatadir” deya taʼrif beradi. Choʻlponning “Qor qoʻynida lola”, “Oydin kechalarda” kabi hikoyalarini muhim, Abdulla Qodiriyning “Tinch ishi”, “Uloqda” hikoyalarini goʻzal, shoir Elbekning “Qoʻshchi turgʻun” hikoyasini uzun hikoya sifatida taʼriflaydi.

Fitrat roman rivoya asarlar orasida muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab, roman yozish juda mushkul ish ekanligini aytadi, roman janrining yagona namunasi sifatida Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” asarini keltiradi. Chunki ayni davrlarda “Oʻtkan kunlar”dan boshqa roman yaratilmagan edi.

Abdurauf Fitrat nasriy va dramatik asarlarni alohida sarlavhalar ostida taqdim qiladi, lirika janrlar borasida esa o'ziga xos uslubni qo'llaydi. Olim lirika janrlar vazn bilan bog'liq ekanligini yaxshi anglaydi va mumtoz lirik janrlarni "Fors-arab aruzida tizim shakllari" sarlavhasi ostida taqdim etadi. Barmoq vazni uchun maxsus lirik janrlar keltirilmaydi. Buning asosiy sababi sifatida XX asr boshlaridagi adabiy jarayon: aruz va barmoq vazni elementlarining bir-biriga o'tgan holatdagi she'riy shakllarning yaratilishi va endigina kirib kelgan barmoq vazniga oid yangi janrlarning shakllanmaganini ko'rsatish mumkin. Shu sabab Fitrat faqat mumtoz lirik janrlar izohi bilan cheklangan. "Adabiyot qoidalari"da lirik janrlardan 10tasi haqida ma'lumot keltiriladi.

"Adabiyot qoidalari" risolasida dastlabki janr sifatida g'azal izohlanadi. Matla'ning o'zaro qofiyadosh bo'lishi, 12 baytdan oshmasligi borasidagi xususiyatlari keltirilib, Alisher Navoiyning "Ko'rmadim" radifli g'azali namuna sifatida keltiriladi [6, 39]. Olimning fikriga ko'ra g'azal fors adabiyoti uchun yangi emas, fors shoirlari masnaviy va qasida yozish barobarida g'azal ham yozganlar. Demakki, bu uch janr fors adabiyotida parallel ravishda rivojlangan. Olim "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida g'azalchilik qasida "mo'dadan chiqq'anidan" keyin yaxshiroq ko'tarilganini qayd etadi [5, 139]. Turkiy adabiyotida uning takomili Navoiy ijodida ko'zga tashlanishiga e'tibor qaratadi.

Fitrat 12 baytdan ortiq she'r shaklini qasida deb nomlaydi. Ayni o'rinda Fitrat negadir adabiyot tarixida bir qancha qasidalar mavjud bo'lishiga qaramay, "bizning o'zbek-chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li judayam kengaymagani, chiroylik namuna o'rnaklari oz"ligini ta'kidlaydi [6, 80]. Olim "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida qasida janrining tarixiga to'xtaladi. Qasida arab adabiyotining qadimiy janrlaridan biri ekanligini ta'kidlab, adabiyot tarixida "Qasidai lomiya" nomi bilan mashhur qasidaning yaratilish tarixi va mazmuni bilan tanishtiradi.

Lirik janrlar orasida masnaviy olim tomonidan juda ko'p tadqiq etilgan janrlardan biri sanaladi. Olimning "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", "Muhammad Solih", "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida, "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolalarida masnaviyning keng imkoniyatlari yoritilgan, masnaviy doston va maktublar yoziladigan janr sifatida izohlangan. Olimning "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida "Fors adabiyotig'a umumiy bir qarash" sarlavhasi ostida fors adabiyotining muhim janrlari sifatida masnaviy, qasida, g'azal, ruboiy janrlari tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiriladi [5, 135]. Ayni maqolada Fitrat masnaviyning eng qadimgi janrlardan biri sifatida baholaydi, hijriy IV asrda yashagan B.Balxiy, Daqiqiy, Rudakiy; hijriy V asrda yashagan Asadiy, Firdavsiy asarlarini ilk namuna sifatida ko'rsatadi.

Fitrat lirik janrlar tahlilida Navoiy asarlariga ko'p bora murojaat qiladi. Xususan, ruboiy janri haqida to'xtalganda, Navoiyning ruboiy hazaj bahrining 24 vaznida yoziladi degan fikriga o'z munosabatini bildiradi. Olimning fikriga ko'ra bu 24 vazn bir-biriga shunchalar yaqinki, hatto Navoiyning o'zi ham namuna keltirayotganda ularni aralashtirib yuborgan. Shuning uchun ham Fitrat "Aruz haqida" risolasida ruboiyning 24 vaznini 15 tasini keltiradi [4, 259]. Olimning forsiy ruboiylar borasida fikrlari "Fors shoiri Umar Xayyom" maqolasida keltirilgan bo'lib, olim maqolada ruboiy va masnaviy janri forslarga arab adabiyotidan emas, eski milliy adabiyotlaridan kirib kelganligini asoslaydi. Olim ruboiyning har bir misrasiga alohida e'tibor qaratadi. Adabiyotshunoslar ruboiyning eng chiroyli misrasi sifatida 4-misrasini e'tirof etadilar. Fitrat ham bu fikrni tasdiqlaydi. Hatto turkiy adabiyotdagi to'rtliklarda ham 4-misrada asl maqsad aks etishini ta'kidlaydi. Shu asosda ruboiyning ildizlarini shu kabi to'rtliklarga bog'lash kerakmikan degan fikrni ham ilgari suradi. Biroq qat'iy isboti bo'lmagani bois ruboiyni Eron xalq adabiyotidan olingan degan ehtimolda qoladi. Olim maqolada fors shoirlarining har bir misrasi bir shoirga tegishli bo'lgan mashhur ruboiylarini tahlilga tortadi, shu orqali ruboiyning imkoniyatlarini ochib beradi [3, 141].

Fitrat ruboiy janri izohida tuyuqqa to'xtalib o'tadi, tuyuqni ruboiyning ikkinchi bir shakli sifatida taqdim qiladi. Ahmad Taroziy ham "Funun ul-balog'a" asarida 10 janrni izohlar ekan, tuyuqni ruboiyning bir shakli sifatida ko'rsatgan edi [1, 43]. Fitrat ham Ahmad Taroziy izidan borib, tuyuqni ruboiyning ikkinchi shakli sifatida ko'rsatadi va Navoiyning "Mezon ul-avzon"

asariga murojaat qiladi. Navoiyning tuyuq ramal bahrida yozilishi kerak degan fikrini keltirib, Navoiyning mashhur “Yo labmudur” tajnisli tuyug‘ini namuna sifatida keltiradi. Shu o‘rinda Fitrat o‘z davrida tajnisli shaklda yaratilayotgan to‘rtliklarga ham e‘tibor qaratadi, shoirlar tomonidan aruz vazniga yaqin jinsli she‘r shakllari yaratilayotganiga ishora qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Fitratning mumtoz lirik janrlar haqidagi fikrlariga Navoiyning ilmiy-nazariy qarashlari asos bo‘lgan. Bu holat olimning mustazod borasidagi fikrlarida ham ko‘zga tashlanadi. Chunki Fitrat mustazod janri haqidagi ma’lumotlarni Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridagi ma’lumotlarga tayanib keltiradi, Navoiyning ma’lumoti asosida mustazod “turk kuylariga to‘g‘ri keltirib o‘qumoq uchun so‘ngra tuzulg‘an bir shakl” degan xulosaga keladi.

Fitrat “Adabiyot qoidalarini”da musammat janriga keng o‘rin ajratadi, musammatning misralar miqdoriga ko‘ra va yaratilishiga ko‘ra turlari xususida ma’lumotlar keltiradi. Namuna sifatida Husayniyning Alisher Navoiyning “Netay” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmis muxammasini keltiradi.

Fitrat murakkab janr sifatida tarji‘band va tarkibband xususida ham to‘xtaladi. Bu ikki janrning o‘ziga xos va farqli jihatlarini, qofiya tizimi va vosila bayt misolida Navoiy tarji‘bandi asosida tushuntirib beradi.

Fitrat “Ahmad Yassaviy”, “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar” maqolalarida hikmat janri xususida to‘xtaladi [3]. Olim Ahmad Yassaviy she‘rlarining har bir parchasiga “hikmat” unvoni berilganini ta’kidlab, hikmatlarning shakli va uslubiga qarab ularning muallifligi masalalariga e‘tibor qaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur va janrlar masalasiga jiddiy e‘tibor qaratgan. Badiiy asar tahlilini amalga oshirishda ularning janriy imkoniyatlari inobatga olgan va shu orqali janriy o‘zgarishlar ko‘rsatib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a -T.: Xazina, 1996.
2. Vadud Mahmud. Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyot. Maorif va o‘qitg‘uchi. № 1. 1926.
3. Fitrat. Ahmad Yassaviy. Tanlangan asarlar. 2-jild. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboev.) – T.: Ma’naviyat, 2000.
4. Fitrat. Aruz haqida. Tanlangan asarlar. 5-jild. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboev.) – T.: Ma’naviyat, 2010.
5. Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar. 2-jild. -T.: Ma’naviyat. 2000.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalarini. Tanlangan asarlar. 4-jild. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboev.) – T.: Ma’naviyat, 2006.
7. Hamroyeva O.J. XX asr boshlari matnshunosligi taraqqiyotida Fitrat majmualarining o‘rni. Monografiya. Akademnashr, 2019.

JADID HIKOYALARIDA MILLIYLIK VA AN’ANA MASALALARI TALQINI

**Gulchehra IMOMOVA,
O‘zbekiston, Qarshi DU, f.f.d., dots.**

Annotatsiya. Mazkur maqola jadid hikoyalarida milliylik va an’ana masalalari muammolarini obrazlar, xarakterlar va voqealar tahlilida ilmiy -nazariy aspektida ochib beradi.

Kalit so‘z va iboralar: milliylik, an’ana, vorisiylik, dunyoqarash, syujet, sintez, xarakter, obraz, detal, portret, konflikt, sath.

Insoniyat an’analar vorisiyligi bilan barhayotdir. Bevosita an’analar vorisiyligi tufayli jamiyat rivojlanib boradi. Shunday ekan, so‘z san’ati ham an’analar davomiyligidan xoli emas. An’ana nima o‘zi? An’ana umumiy ma’noda biror avlod tomonidan yaratilgan narsaning keyingi avlodlar tomonidan aynan yoki muayyan o‘zgarishlar bilan davom ettirilishidan iborat noyob

hodisadir. U ayrim shaxslar ko'rsatmasi bilan emas, balki hayotning talab va ehtiyojlari asosida amal qiladi.

Adabiyotda salaf ijodkorlar tomonidan yaratilgan ayrim tajriba va usullarning keyingi avlod ijodkorlari tomonidan qo'llanilishi adabiy an'analarning mohiyatini anglatadi. Marhum adabiyotshunos olim M. Yunusovning quyidagi so'zlari buni to'liq tasdiqlaydi: "...traditsiya deganda dunyoni badiiy idrok etish sohasida davrdan-davrga, bo'g'indan-bo'g'inga o'tib kelgan adabiy tajribalarni ko'zda tutamiz. Ya'ni, traditsiya kekka bo'g'in ijodiy laboratoriyasida sinalgan, jilosi o'chmaydigan vositalarni yosh bo'g'inga topshirish demakdir" [1, 17].

Biz an'analar sathidagi badiiy sintez deganimizda "an'ana" terminini shartli ravishda sal o'zgacharoq ma'noda qo'llaymiz. Bunda biz badiiy asar konfliktining yechimi yoki syujet voqealarining tuguni, rivoji kabilarni amalga oshirishda ijodkorning xalq turmushi hamda hayotiy tajribalarida shakllangan rasm-rusum, urf-odat va marosimlarga murojaat qilishini nazarda tutamiz.

O'zbek hikoyalari tadrijini ko'rsatadigan bo'lsak, ko'plab adiblarning ana shunday an'analarga yondashib ijobiy yutuqlarga erishganliklarini ko'ramiz. Ayrim hikoyalarda xalq hayotidagi ba'zi an'analarga salbiy munosabat ifodalansa, ba'zi hikoyalarda zamonaviy muammolarni badiiy hal etishda uzoq ajdodlarimiz turmushida qo'llanilgan urf-odatlariga kinoyaviy ma'noda ijobiy munosabatda bo'lganliklarini ko'ramiz. Nima bo'lganda ham, o'zbek realistik hikoyachiligida an'analar sathidagi badiiy sintez barqaror shakllangan va adiblarimiz ushbu usulga ijodiy yondashib barkamol asarlar yaratmoqdalar.

An'analar sathidagi badiiy sintez murakkab ijodiy jarayon bo'lib, uni har qanday adib muvaffaqiyatli qo'llay olmaydi. Chunki bunday sintez, birinchidan, katta bilim, keng dunyoqarash talab etsa, ikkinchidan ijodkordan tasvirlayotgan voqelikning mohiyatini va sintezlamoqchi bo'lgan an'ananing o'z mavzuiga chuqur aloqador ekanligini bilishni talab etadi. Mana shuning uchun an'analar sathidagi badiiy sintez hodisasi o'zbek adiblarining barcha hikoyalarida uchrayvermaydi.

Chinakam iste'dodli ijodkor hamma vaqt xalq an'alariga, urf-odat va marosimlariga o'z munosabatini bildirib kelgan. Bu munosabatlar turlicha bo'lishidan qat'i nazar ularni badiiy asar shaklida o'quvchilar qalbida bir umrga muhrlab qo'yadi. Sababi ijodkor qalamga olmoqchi bo'lgan urf-odat yoki marosimning rang-barang tafsilotlarini keyingi avlodlarga yetkazishga urinadi. Atoqli adib Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi fikrimizni dalillaydi.

1916 yilda yozilgan "Uloqda" hikoyasi o'zining badiiy qimmatini, sehrkor tili nuqtai nazaridan adibning keyingi asarlari bilan tenglasha olmaydi. Hikoyaning qimmatli jihati, unda muallif uloq chopish an'anasining xalq o'rtasida naqadar qiziqarli ekanligini, unga katta-yu kichikning talpinishini nihoyatda oddiy va samimiy tasvirlagan.

Yozuvchi Eson akaning fojiali yakunlangan hayotini uloq voqeasi bilan bog'liqlikda ko'rsatar ekan, ushbu musobaqaning qanchalar halokatli ekanligini baholashga intilgan. Hikoya boshlanishidagi ota-onasining Turg'unboyni uloq chopishga borishini ta'qiqlashining boisini yuqorida aytilgan halokatli hodisa bilan izohlash mumkin.

Hikoyada an'analar sathidagi badiiy sintezning namoyon bo'lishi shundaki, oddiy kundalik voqea – uloq sababli yuz bergan falokatli voqea bilan chambarchas bog'lab yuborilgan. Ammo Esonboy chavandozning fojiali o'limi o'spirin Turg'unboy va uning atrofidagi boshqa yigitlarga qay darajada ruhiy ta'sir ko'rsatmasin, tasvirlangan voqelik ijodkorning g'oyaviy-estetik munosabatini aniq ifodalashga imkon bermaydi. Bu – haqiqiy badiiy sintezning yetakchi alomati. Chunki adib uloq chopish an'anasini yo ijobiy, yo salbiy jihatdan baholasa, bunday baho xalqning urf-odatlariga, an'alariga bo'lgan munosabatiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun Abdulla Qodiriy o'z hikoyasida uloq chopish an'anasiga bo'lgan munosabatini aniq bildirmaydi. Uloq chopish an'ansi xalqimiz o'rtasida ko'p asrlardan buyon davom etib keladi. Er kishilarning mardligi, jasorati, jismoniy va ruhiy jihatdan chidamliligini, ularning chapdastligi, abjirligini isbotlovchi sport turlaridan biri hisoblanadi. Adib bu an'ananing xalq turmushida nechog'li o'rin tutishini ko'rsatish barobarida uning xavfli hamda noxush oqibatlariga olib kelishini ta'kidlashga harakat qiladi.

Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi realistik hikoyachiligimiz endigina tetapoya bo‘lib kelayotgan davrlari uchun xos bo‘lgan an‘analar sintezini namoyish etuvchi ilk asar sifatida biz uchun qimmatlidir.

Xalq orasida mavjud bo‘lgan an‘analarning barchasi hamisha ilg‘or va maqbul bo‘lmagan. Ayniqsa, yaqin kunlarga yetib kelgan yosh qizlarni eshonu mullalarga niyoz qilish an‘anasi buning yorqin misoli bo‘la oladi. Ulkan shoir va adib Abdulhamid Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi an‘anaviy sintez yo‘lida yozilgan asar sifatida diqqatga sazovor.

Jadid adabiyotining uch buyuk namoyondasi Abdurauf Fitrat – milliy dramaturgiyaga, Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchilik maktabiga, Abdulhamid Cho‘lpon yangi she‘riyatga tamal toshini qo‘yganligi tarixiy haqiqat, ular adabiyot va millat oldida o‘z farzandlik va ijodkorlik vazifasini sharaf bilan uddalagan XX asr so‘z san‘atining eng buyuk siymolari. Ularning dastlabki ijod namunalaridanoq chin adabiyotning o‘tkir tarovati, so‘zning sehri, qudrati sezilib turadi. Adabiyotshunos Ozod Sharofiddinovning “Cho‘lponni anglash – so‘z san‘atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho‘lponni anglash – uning buyuk umumbashariy g‘oyalarini, uning yuksak tuyg‘ularini yurakka singdirib olishdir. Cho‘lponni anglash – vatanni, ko‘hna Turkistonimizni Cho‘lpon ko‘zi bilan ko‘rib, Cho‘lpon yuragi bila seva bilmoqdir”,[2, 46] – deb yozishi bejizga emas.

Hikoya bir-biriga mutlaqo zid voqealarning uyg‘unlashtirilishi asosida nomlangan. Lola – bahor farzandi. Qor esa qishning alomati. Yoinki sovuq, izg‘irin kunlarda lola yashay olmaganidek, keksa kishi bag‘rida yosh kelinchak ham yayray olmasligi hikoyaning g‘oyasini tashkil etadi va ramziy-kinoyaviy mazmun kasb etadi.

Mazkur hikoya to‘rt qismdan iborat bo‘lib, uning har bir qismida jonli turmushning bir lavhasini ko‘rish, yaqin o‘tmishimizga xos xalqona hayotni his qilish mumkin. Hikoyaning dastlabki qismida hali hayotning oq-qorasini tanimagan, qiyinchilik va mashaqqatlarga duch kelmagan beg‘ubor va ma’suma qizlarning hovuz atrofidagi o‘zaro o‘yin-kulgulari tasvirlangan. Sharofatxon, Toji qassobning qizi Turg‘unbush, Eshmat qorovulning arzandasi Tillaxon, Fazilatxon, Abdulla Jalolning qizi To‘tixon.

Saltanatning yoshi o‘n olti-o‘n yettilarda. To‘rt devorning asiri bo‘lishni onalaridan o‘rganayotgan bu sho‘x-shodon qizlar ro‘zg‘or ishlaridan bo‘shab, biroz erkinlikka erishganlarida hovuz bo‘yida yig‘ilishib, ko‘ngil chigilini yozishadi, xuddi yosh bolalar singari zavq-shavqqa to‘lib o‘ynashadi. Yozuvchi qizlarning to‘p o‘yinlarini tasvirlash orqali ularning xarakterini ochib beradi.

Hikoya qahramonlari maroq va ishtiyoq bilan davom etayotgan o‘yinlarini bir noxush xabar to‘zg‘itib yuboradi. Ular Sharofatxonga sovchi kelganligi to‘g‘risida eshitganlarida bir muddat esankirab qoladilar.

Hikoyaning ikkinchi qismida ilgari katta boy va savdogar bo‘lgan Samandar sinib, bor boyligidan ajralib qoladi. “Bor-yo‘g‘ini qarzga sotib berganidan so‘ng, juda so‘fi bo‘lib, eshonlarnikida chuvalashib qolgan”. Samandar endilikda o‘zini eshon Sulton Orifning xizmatiga bag‘ishlaydi. Boshiga tushgan musibat uchun Allohga yuz burish o‘rniga, xuddi o‘zi singari xom sutgan emgan bir bandaga umid bog‘laydi, u eshonning muridiga aylanadi. U mutaassib va nafs bandasi bo‘lgan eshonga ko‘r-ko‘rona ergashishi va undan umid qilishi natijasida ahvoli bundan ham og‘irroq bo‘lishini xayoliga ham keltirmaydi. Inson qadr-qimmati oyoqosti bo‘lgan joyda baxt bo‘lmasligini, insonning baxti qadr va sevilishda ekanligini anglamagan johil Samandar, vaziyatdan chiqib ketish uchun eshonga qimmatbaho nazr qilmoqchi bo‘ladi. Ammo uning bisotida bunday narsaning o‘zi qolmagan edi. Boshi qotib, nima qilarini bilmay o‘tirgan paytda “qarib quyilmagan, achib suyilmagan” eshonning o‘zi uning qizini so‘rab, sovchi yuboradi. Xursand bo‘lgan Samandar o‘n yetti yashar qizi Sharofatni mahalladagi “shu qiz qaysi xudo yorlaqaganniki bo‘lur ekan, kimning uyini obod qilar ekan?” deb orzumand bo‘lgan yigitlarga emas, eshonga berishga rozi bo‘ladi.

Cho‘lpon hikoyada kinoya, istehzo, piching singari tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan, muallif munosabatini shu yo‘l bilan ifodalashni ma’qul ko‘radi. To‘y tasviri berilgan lavhalarda bu hol yanada bo‘rtib ko‘rinadi.

“– Kuyov pochcha! Taqsim qanilar? Qoch! Qoch! – degan tovushlar ko‘tarildi.

Bir vaqtlar oppoq soqolli bo‘shashgan bir chol – kuyov to‘ra ustiga zarbof to‘n kiyib, katta o‘rama belbog‘ o‘ragan holda birmuncha oqsoqol muridlari o‘rtasida sekingina sudralib aravaga yaqinlashdi.

Yana xalq o‘rtasida:

– Ko‘taring, kuyov pochcha, ko‘taring!

– O‘zingizni tetik tuting, taqsim!

– Ha, taqsim, ko‘taring!” [3, 285]

O‘n chog‘li aravada eshonning uyiga olib borilgan kelinchak Sharofatni oppoq soqolli eshon aravadan bazo‘r ko‘tarib oladi. U bir-ikki qadam bosgach, kelinni yerga qo‘yadi. Yig‘ilganlar esa uni masxaralashda davom etaveradi:

“– Barakalla, taqsim, barakalla!

– Bo‘sh kelmadilar, taqsim!

– Hali bellari baquvvat ekan taqsimning!

Bu shovqin, qiy-chuv, to‘polon yarim kechagacha borib to‘xtadi. Haligi tomosha o‘rni bo‘lgan ko‘chada kishilar g‘arib, qop-qorong‘i, jimjit bir go‘ristonga aylandi”.

Eshonga yosh qizlarni nazr qilish an‘anasining xunuk va bema‘ni holat ekanligi hikoyaning boshidan oxirigacha adibning matnoshi kinoyasidan anglashilib turadi.

Hikoyadagi to‘rtta lavha ham uning mazmunini to‘ldiradi, muallifning g‘oya va adabiy-estetik qarashlarini ochib beradi. Jamiyatda odat tusiga kirgan mutaassiblik, fikriy mahdudlik, jaholatning quliga aylangan kishilarning fojiasi, aslida, o‘sha tuzumning, o‘sha jamiyatning ham og‘riqli nuqtasi, kasalligi, tanazzuli.

Hikoyada yana bir epizod o‘quvchining diqqatini tortadi. Eshonning uyida bo‘lib o‘tadigan zikrni yozuvchi jonlantiradi, voqealar kitobxonning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi: “Bir kun eshonniki katta va qizg‘in bir zikr bo‘ldi. Zikrga boshqa shaharlardan ham o‘tli nafas bilan o‘qiyturgan hofizlar keldilar. Xonaqoning ichi zich bo‘ldi. Erta bilan bomdoddan so‘ng boshlangan zikr xuftonga yaqin zo‘rg‘a tugadi. Bir necha kishi o‘zidan ketib, u yer-bu yerda yumalashib qoldilar. Yongan so‘fiylardan bir-ikkisi jazavaning ortiqigidan, borib o‘zlarini hovuzga tashladilar. Qisqasi, bu kun qiyomat bo‘ldi” [4, 292].

Parchada muallifning zikr marosimiga bo‘lgan munosabati so‘z ohangidan, ustma-ust qo‘llanayotgan kinoya va kesatidlardan aniq ko‘rinib turibdi. Sir emas, dinni o‘ziga niqob qilib olgan ayrim kishilar yoki guruhlar barcha zamonlarda bo‘lgan va ular inson kamoloti yoki el-yurt saodati uchun emas, o‘zlarining manfaatlari uchun shu yo‘lni tanlashgan.

Tarixda shunday harakatlar avj olgan davrlar ham bo‘lganligi, ular xalqni aldab oson boylik orttirib davru davron surganlari ham bor gap. Boqimandalik, mehnatsiz daromad topish ilinjidagi bunday oz sonli kishilar jamiyat uchun xavfli. Dinni o‘ziga bayroq qilib olib butun dunyo xalqlari hayotiga rahna solayotgan ekstremistik guruhlar misolida buning zamonaviy qiyofasini ko‘rish mumkin.

Unutmaslik kerakki, Cho‘lpon hech qachon dinga qarshi bo‘lmagan, u din orqasidan foyda ko‘ruvchilar, xalq hisobiga kun kechiruvchilar, fikriy qoloq, mahdud, johil, ma‘rifatsiz, ilmsiz soxta dindorlarni yoqlamagan. Bu hol “Kecha va kunduz” romanida, shuningdek, A.Qodiriy, G‘.G‘ulomning qator asarlarida ko‘rinadi. Jumladan, G‘.G‘ulomning “Hiylayi shar‘iy”, “Haj qabul bo‘ldi” hikoyalarida ham mutaassib, ma‘rifatsiz soxta dindorlar fosh qilingan.

Cho‘lpon “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida o‘tmishdagi illatlarning inson taqdiriga bo‘lgan salbiy ta‘sirini ishonarli va hayotiy tasvirlaydi, muallif voqelikka personajlar nutqi orqali munosabat bildiradi, o‘zi esa imkon qadar voqelikka aralashmaydi. Faqat eng zarur o‘rinlardagina muallif izohini ko‘rishimiz mumkin.

XX asr boshida, hali hikoya janri endigina adabiyotga kirib kelayotgan paytda yaratilgan bu hikoya g‘oya va mazmun, badiiy tasvir va psixologizm, qisqalik va aniqlik, til va uslubi bilan bugun yaratilayotgan hikoyalar bilan bemalol bellasha oladi. Xalqning kesatiq, istehzosi va muallif munosabatidan nazr qilish odatining insoniylikka zid ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Cho‘lponning ushbu hikoyasi to‘g‘risida O.Sharafiddinov shunday fikr bildiradi: “Rivoj etgan

realistik uslubda doimo ana shunday rang-baranglik bo'ladi, ohanglar xilma-xilligi, tasvir vositalarining boyligi kuzatiladi. Cho'lpon... o'zbek adabiyotida tom ma'nodagi realistlik yozuvning shakllanishiga ham asos soldi" [4, 10].

Cho'lponning yana bir hikoyasi "Oydin kechalarda" o'tgan asr boshlaridagi o'zbek oilasi va uning fojiasi to'g'risida. Cho'lponning badiiy adabiyotga bo'lgan munosabati jadidlarning qarashlaridan ma'lum ma'noda farq qilganligi ma'lum. U "...bir xil, bir xil, bir xil" deb keskin norozilik bildirishining bosh sababi, jadid adabiyotining oddiy xalqqa tushunarli tashviqot tili ekanligi bilan bog'liq. Jadid adabiyotida muallif fikri, asar g'oyasi birinchi o'ringa chiqib, badiiylikka yetarlicha diqqat qaratilmagan. Publitsistik ruhda yaratilgan XX asr birinchi choragidagi aksariyat asarlarning vazifasi xalqni ma'rifatga chorlash, bid'atlardan voz kechishga undash, to'y va ta'ziya, nazr kabi ishlarda aql bilan ish tutishga da'vat, farzandlarga ta'lim va tarbiya berishga chorlovdan iborat edi. Cho'lpon 1918-yilda Zakijon Validiy bilan Boshqirdistonga borib ishlaydi. U yerda jahon adabiyoti, ayniqsa, tatar, rus adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. Yig'inlarda adabiyot haqidagi fikrlari tamomila o'zgaradi, uning safardan qaytgach yozilgan "Go'zal" she'ri, haqiqatan ham, mutlaqo boshqacha ohang va uslubda. Oradan bir yil o'tib yozilgan "Yorqinoy" dramasi jadid adabiyoti bilan bellashadigan yangi ruhdagi asar. Boy hissiyot, yuksak pafosga yo'g'rilgan bu drama jadid adabiyoti namunalaridan tubdan farq qiladi.

Badiiylilik mezonlari talablarini badiiy adabiyot uchun juda muhim hisoblagan Cho'lpon o'z davri adabiy-estetik qarashlari bilan kelisha olmagan. Adib "Ulug' hindiy" maqolasida shunday yozadi: "... ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir: Botu, G'ayraty, Oybek, Julqunboylarni o'qiymen, quvontiradir, xolos! Ular mening uchun yongan chiroqlar bo'lsa ham, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy va Hakimzodalarni o'qumaymen, o'qumaymen, meni shu holga solg'on o'shalar!" [5].

Cho'lpon bu maqolani e'lon qilgan paytda hali A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani nashr etilmagandi. Cho'lpon va Qodiriy ijodining ilk davri she'riyat bilan boshlangan va jadidlardan ilhomlanib yaratilgan bo'lsa ham, ularning adabiy-estetik qarashlari keyinchalik tafovutli bo'lgan. Bu ikki zabardast ijodkor qalb va qiyofa birlashgan chin adabiyot yo'lini topgan edilar.

Badiiy so'z oldiga mana shunday yuksak talablar qo'ygan Cho'lponning o'z ijodiga befarq bo'lmasligi, tabiiy. Bu narsa uning "Oydin kechalarda" hikoyasiga ham tegishli deyish mumkin.

Hikoyada farzand tarbiyasi, qaynona-kelin munosabatlari qalamga olingan. Boshlanishida yomon taassurot qoldiradigandek ko'ringan qaynonaning mushtipar, hayotda ro'shnolik nima ekanligini bilmagan, to'rt devor orasidan tashqarini ko'rmagan, qanoatli, insofli, andishali ayol ekanligi ko'rsatiladi. Kellingning tunda yig'isini eshitib, uyg'onib ketgan qaynona avvaliga kelinidan norozi bo'ladi. Chunki kellingning "uy-joyi, kiyim-kechak, hamma narsalar tayyor... navdadek kuyov yonida... yana hech uy-ro'zg'or ishini qilmaydi, mundog' yomon qiz bo'ladimi? Shuning uchun u:

"Olmay Qodirjon o'lsin.

Bermay – otasi.

O'stirmay – onasi.

Shuning uchun bugun xo'p adabini berdi.

Xo'b yig'latdi!",

– deb kayfiyati buzilib, qarg'angan ayol vaziyatni bilgach, keliniga achinadi, unga dardkashlik qiladi, kelinini ayaydi. Chunki kelin boriga tushgan ko'rgulik unga tanish edi, u xuddi shunday xo'rlik va azoblarga chidab, ko'nikib yashab kelayotgandi. Hikoyada Cho'lponning boshqa asarlarida bo'lgani kabi diniy ahkomlarning yemrilishi, oliy qadriyatlarining qadrsizlanishi, inson haq-huquqlarining poymol qilinishi, ma'rifatsizlik oqibatida bir oilaning barbod bo'lishi, jaholat tazyiqi bo'rtib ko'rinadi. Adib serso'zlilikdan qochadi, qahramon holatini bayon qilmaydi, voqeaning o'zini ko'rsatadi.

Hikoya qahramoni Qodirjon hatto o'zini anglash darajasida emas, qayerga kelganini ham bilmaydi. U o'zbek millatiga xos odob, ota-onaga hurmatni ham unutgan johil. Xo'sh,

bunday erkak qanday oila boshlig'i bo'ladi, bolalariga qanday tarbiya beradi. bu toifadagi kishilardan mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni, atrofdagilar, jamiyat nima naf ko'radi? Bu illat qayerdan paydo bo'lgan va qachon? Ichkilikbozlik, fohishabozlik avval chorizm, keyin sho'rolar tomonidan norasmiy tarzda ommalashtirilgan. Xuddi shu yo'l bilan millatni yo'qotish, uni mahv etish, biror narsa haqida jiddiy fikr yuritishdan saqlab turish mumkin edi. Buni yaxshi bilgan istilochilar millatni ichdan kemirishni reja qilishgan edi. Shu bilan xalqni manqurtga aylantirib, uni asoratda, qullikda saqlab turmoqchi edilar. Dahriylikni targ'ib qilgan kommunistik mafkura millatni tili, dini, tarixi va qadimiy an'analaridan ayirishni maqsad qilishgan va buning chorasini ichkilikbozlik va axloqiy buzuqlikda ko'rishgandi.

Jadid adabiyotida ayni shu ikki masalaga katta e'tibor qaratilgan. Behbudiyning "Padarkush"idan boshlab, Hoji Muin, Nusratulla Qudratullo, Abdulla Qodiriy, Abdulla Balxiy, Shukrullagacha bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilishgan. Shu davrda yaratilgan "To'y", "Baxtsiz kuyov", "Juvonmarg", "Axmoq", "Ko'knori", "Mazluma xotin" kabi asarlarda ham shu illat keskin qoralangan.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Abdulla Qodiriyning "Uloqda", Abdulhamid Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Oydin kechalarda" hikoyalari o'zbek hikoyachiligining dastlabki ko'rinishlari bo'lishiga qaramasdan, hikoya matni asosida milliylik va an'anaviylik masalalari "yارق" etib ko'zga tashlanadi va uni jadid yozuvchilari muvaffaqiyatli amalga oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юнусов М. Барҳаёт анъаналар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 17.
2. Шарофиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 46.
3. Чўлпон. Асарлар. III жилдлик, II жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1993. – Б. 285-291.
4. Шарофиддинов О. Чўлпоннинг кичик насрий асарлари. Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. 2-сон. – Б. 10.
5. Дўстқораев Б. Икки буюк сиймо. – Ўзбекистон АС. 2009, 13-сон.

IKKI JADID MUNAVVARI – HAMZA VA CHO'LPON MUNOSABATLARI XUSUSIDA

Otabek JO'RABOYEV,
O'zbekiston, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi, f.f.n., katta ilmiy xodim.

O'tgan asr boshlarida Turkistonda keng faoliyat ko'rsatgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan shubhasiz Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulhamid Cho'lpon nomlarini ta'kidlash haqli bo'ladi. Ko'plab boshqa jadidlar kabi bu ikki ulug' ijodkor ham adabiy, ham amaliy faoliyatlari bilan peshqadam jadidlardan bo'lgani hujjatlardan ma'lum. Shu bilan birga, bu shoirlarning bir-birlarini so'z san'atkori sifatida hurmat qilishlari va qadrlashlari ham manbalarda zikr etilgan.

Afsuski, 1990 yillarning oxirlari va 2000 yillarga kelib Hamza ijodiyotiga biryoqlama qarash va noo'rin munosabatda bo'lish kampaniyasi avj ola boshladi. Buning yorqin namunasi – o'zi soha mutaxassisi bo'lmagan va predmet tarixini yaxshi bilmagan olimning tor manfaat ortidagi siyosiy chiqishini eslash kifoya [1, 3].

Xuddi shu kabi bu davrga kelib Cho'lpon shaxsiyati va ijodiyotiga urg'u berib, Hamza faoliyati va ijodini kamsitish kabi hollar ham uchray boshladi. Shular orasida go'yoki xalqimizning asl farzandlari, otashin shoirlar Hamza va Cho'lponni bir-biriga zid qo'yish, ularni raqib o'laroq talqin etish kabi fikrlar ham paydo bo'ldi.

Albatta, bunday qarashlar asl tarixiy hodisa va material-hujjatlarni bilmasdan, o'rganmasdan yuzaga kelgan edi. Aslida Hamza va Cho'lponni bir-biriga juda ham iliq hamda samimiy

munosabatda bo'lishgan. Bu o'rinda biz ana shu masalaga birmuncha oydinlik kirituvchi ikki maktub borasida batafsil to'xtalmoqchimiz.

XX asr o'zbek madaniyati va adabiyoti tarixiga oid juda manbalar arxiv materiallari tarzida Respublikamizning ko'plab arxiv fondlarida saqlanmoqda. Ana shunday noyob arxivlardan biri O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi "O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi" fondidir.

Bu noyob arxivda XX asr mobaynida O'zbekistonda yashab, ijod etgan ko'plab ijodkorlar – yozuvchi, shoir, dramaturg, publitsist, adabiyotshunos va boshqalarning shaxsiy arxiv hujjatlari yig'ilgan bo'lib, hozirgi hisobga ko'ra 63.000 adadni tashkil etuvchi katta xazinadir, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Mazkur nodir fondagi qariyb 2.000 ga yaqin hujjatlarni o'z ichiga oluvchi Hamza Hakimzoda Niyoziy arxividir. Ularda adib ijodi, faoliyati va shaxsiy hayoti bilan bog'liq yozma materiallar, turli hujjatlar o'rin olgandir. Shular orasida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon faoliyati bilan bog'liq ayrim yozma ma'lumotlar ham aks etgan arxiv materiallari mavjud [2, 23-24].


Hamza safdoshi Cho'lpon bilan bog'liq ikki noyob hujjatni saqlagan. Ayni shu bitiklar bizni qiziqtirgan masalaga yaqqol dalil bo'lib xizmat qila oladi. Bu hujjatlar Hamzaga yo'llangan Cho'lponning ikki maktubidir [3, 72-77].

Cho'lponning ushbu xatlarining har ikkisi ham "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan bog'liq bo'lib, ular 1916 yil dekabr oyida yozilgan. Ma'lumki, bu vaqtlarda Cho'lpon Andijonda turib, ushbu gazeta uchun faoliyat ko'rsatgan edi.

Xatlarning shu bilan bog'liq ba'zi jihatlari haqida akademik Naim Karimov ham fikr bildirgan edi [4, 153-154].

Quyida maktublarning asli va ularning joriy yozuvdagi tabdili, hamda qisqacha tavsiflarini keltirmoqdamiz.

1-maktub (695 raqamli hujjat).



Tavsifi: Arab alifbosida mayda nasta'liqda qora siyoh bilan oddiy, sarg'imtir tusdagi pochta qog'oziga yozilgan. Matndagi ruscha so'zlar esa kirill alifbosida berilgan. O'lchami: 9x14 sm.

Xat matni:

"Muhtaram Hamza afandi!

Iltilos qilaman, ushbu xatni oluv bilan tezlik ila "Sadoi Turkiston"ning Inchi adadimiza bir yaxshi she'r – Hurriyat xususida yozub yuboring.

Adres bu:

Андижан.

Редакция газеты "Туркестанский голос" – "Sadoi Turkiston" uchun.

Ehtirom bilan: idora nomina Abdulhamid. 6 dekabr, 1916"

(PS – yonlamasiga yozilgani)

"Javob 15nchi dekabrg'acha kelmoq lozim.

Iloji bo'lsa 15nchi yoki 12nchida munda bo'lsun."

Maktub qog'ozining old qismi (pochta blankasining old tarafi):

"Господину Х.Х.Ниязову

Книж. магаз. «Гайрат» в Коканд.


Topshirilg'aydir tezlik bilan Hamza Hakimzoda janoblari'ga"

Blankada uchta muhr bor: ikkitasida "Андижан – 8.12.16", bittasida "Коканд – 9.12.16" yozuvlari mavjud.

Demak, ushbu xatni Cho'lpon 1916 yilning 6-dekabr kuni yozgan 8-kunigina pochta orqali jo'nata olgan. Xat 9 dekabr kuni Qo'qonga yetib kelgan. Xulosa qilish mumkinki, u Hamzaning qo'liga 9 yoki 10 kuni tekkan.

Yosh Abdulhamidning, avval, 15-dekabrda javob olish istagi, yana xatining matni tugamay 12-kuniyoq "munda bo'lsun" (Andijonda – demoqchi) deya shoshiltirishi ham biror sabab bilan bog'liq bo'lsa kerak. Harqalay, Hamza Hakimzoda bu "buyurtma"ni jiddiy qabul qilgani va tezlik ila "Hurriyat" mavzuida bir she'rni yozib, Andijonga yo'llaganini Cho'lponning ikkinchi xati orqali bilib olamiz.

2-maktub (696 raqamli hujjat)



Tavsifi: Arab alifbosida mayda nasta'liqda qora siyoh bilan oddiy, sarg'imtir tusdagi pochta qog'oziga yozilgan. O'lchami: 9x14 sm.

Xat matni:

"Hamza afandi!

She'ringiz olindi, darj etilur.

She'ringizda: "Qo'rquv yo'qdi majozi kavmakondin

Ishonchlar ko'b erdi (o'g'on)din...

(Matndagi qavs belgilari muallif tarafidan qo'yilgan – O.J.)

Yana biroz pastda:

"Movri g'ayrdin burar piston..." deb yozilgan narsalar bor. Shulardan yuqoridagi (o'g'on) degan so'zni keyingi bir satrni hammasini bizga ochiq qilub yozub yuboring. Bo'lmasa birar narsa chiqarub bo'lmaydur...

Yana: "Tavashshuh! (to'ri...)ga..." debsiz, "to'r"dan maqsad nima?

Ta'rix uchun "ganji o'zbey Sadoi Turkiston" debsiz.

Munda "o'zbey" bir turli ajoyibroq tuyuladi.

She'r yaxshi, gazeta sahifasini ziynatlar, yana yozsangiz; ammo bu so'zlaringizga javob yozingiz.

Adresi idora: "Turkestanskiy go'lus".

Ehtirom ila idora nomina Abdulhamid. 12/XII. 916 z."

Maktub qog'ozining old qismi (pochta blankasining old tarafi):

"Господину Хамза Хакимовичу Ниязову

в г. Коканд

Мечеть Таракчилик.

Gazeta ifak materyag'a bosilmaydur; bir donani sanduqqa saqlarsiz."

Bu blankada ham uchta muhr bor: bittasida "Андижан – 12.12.16", bittasida "Андижан – 13.12.16", yana bittasida esa "Коканд – 13.12.16" yozuvlari mavjud.

Mazkurdan bilish mumkinki, Cho'lpon 12 dekabr kuniyoq Qo'qondan – Hamzadan javob maktubini olgan. Demak, Hamza tayinlangan muddatdayoq she'rni yozib jo'natgan. Abdulhamid bu safar ham o'sha zahotiyoyoq javob yozgan. Biroq, pochta Andijondan chiqadigan sana dastlab 12 dekabr, keyingi muhrda esa 13 dekabr qo'yilgan. Qo'qonga ham xat shu kuni yetib kelgan.

Matndagi ruscha so'zlar kirill alifbosida yozilgan. *"Ifak materya"* (ipak material) bilan bog'liq jihat bilan qiziqqanimizda esa, bu davr matubot tarixi uzoq yillar shug'ullangan san'atshunoslik fanlari nomzodi, muharam ustoz olim Sirojiddin Ahmedov oydinlik kiritdilar. Domlaning ma'lumotiga ko'ra, "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarning dastlabki sonlari ipak materialga bosilgan ekan. Cho'lpon Hamzaga gazetaning endigi sonlari shunday ipak materialga emas, oddiy qog'ozga bosilishi haqida eslatmoqda.

Demak, ma'lum bo'lishicha, 18 yashar Abdulhamid va bu vaqtda shoir o'laroq ancha tanilib qolgan Hamza Hakimzoda o'rtasida yaxshi va hurmatli munosabatlar o'rnatilgan. "Cho'lpon "Sadoi Turkiston" gazetasi idorasida xizmat qilgan kezlarda ana shu hurmat bois uni o'z she'rlari bilan gazetada qatnashishga taklif etgan" [4, 153].

Bu ijodiy hamkorlik va o'zaro yaxshi asarlar yaratishga undash keyinchalik ham davom etgan, deyish mumkin. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Sirojiddin Ahmadning fikrlariga ko'ra: "Cho'lpon Hamzaning ijodini, iste'dodini yuksak qadrlagan, shu bilan birga uni badiiy barkamol, jahon adabiyoti talablari darajasida asarlar yozishga undagan" [5, 4].

Misol uchun, Cho'lpon 1926 yil 8 iyulda Hamzaga yozgan xatida *"Qadim qadrdon Hamza!"* deya boshlaydi va uni yanada go'zal sahna asarlari yaratishga chaqiradi (o'sha ko'rsatilgan fondi, 1409 raqamli hujjat).

Yuqoriroqda ta'kidlangan har ikki maktub ham bu fikrlarning qanchalik to'g'ri ekanligini yana bir karra ko'rsatib turibdi. Avvalo, o'sha davr ziyolilari o'rtasida urf bo'lgan chiroyli ibora

– “afandi” soʻzi bilan Hamzaga murojaat qilinmoqda. Keyin esa, Hamzaning sheʼriy iqtidorini koʻzda tutib, tez fursatda yaxshi bir asar yarata olishini bilgan holda, aynan unga chiqilgan.

Shu bilan birga, xat matni davomida Choʻlponning zakiiy kitobxon va sheʼrni nozik tushunuvchi ziyoli sifatida shakllanayotganini koʻrsatuvchi ayrim jihatlar seziladi. Birinchidan, Hamzaning Choʻlponga yoʻllangan sheʼri matnida qoʻllanilgan “oʻgʻon” va “toʻri” soʻzlari hamda baʼzi misralar unda ishtiboh tugʻdiradi. Oʻz navbatida yosh muharrir muallifdan ularga izoh talab etadi. Albatta, mazkur – “Hurriyat”ga bagʻishlangan sheʼrning toʻliq matnini oʻrgangan holda yanada aniqroq fikr bildirish oʻrinli boʻladi. Lekin, masalaga umumqaraganda, ikkinchidan, Choʻlponning eʼtirozlari asosan toʻgʻri boʻlib, u soʻzning sheʼr kontekstidagi oʻrni masalasiga diqqat etmoqda.

Bir soʻz bilan aytganda, Choʻlponning ushbu ikki maktubi shoir, dramaturg va jamoat arbobi Hamza bilan ijodiy aloqalarining boshlanish davriga oid muhim hujjat boʻlib, har ikki yetuk adibning hayoti hamda ijodiy aloqalarini oʻrganishda muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Қуроноу. Тарихий ҳақиқатни қарор топтириш – муҳим маънавий вазиғамиздир // Халқ сўзи. 2014, 23 август. №163 (6093).
2. Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий архивининг каталоги. 2-том. –Тошкент: Фан, 1991.
3. О.Жўрабоев. Чўлпоннинг икки мактуби хусусида // “Чўлпон адабий меросининг ёш авлодни ватанпарварлик, миллий тараққийёт ва фидойилик руҳида тарбиялашдаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. –Тошкент: Mumtoz soʻz, 2018. 72-77-бетлар.
4. Н.Каримов. XX аср адабийети манзалари. Биринчи китоб. –Тошкент: Oʻzbekiston, 2008.
5. С.Аҳмад. Икки муҳим тузатиш // Ўз АС. 1997, 14 март. №11 (3396).

CHOʻLPON VA JADIDCHILIK

Shahlo HOJIYEVA,
Oʻzbekiston, OʻzMU, PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada Choʻlponning jadidchilik harakatiga qoʻshgan hissasi, uning safdoshlari bilan olib borgan ijodiy munosabatlari haqida fikr yuritilgan. XX asr boshlaridagi Turkistonning murakkab ijtimoiy ahvoli, Vatan va millat taqdiri masalalari badiiy talqin qilingani, istiqlool orzusi yoritilgani haqidagi ilmiy kuzatishlarini bayon etganligi toʻgʻrisida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: jadidchilik, rahnamo, chorizm asorati, Turkiston muxtoriyati, Rennsans.

Abdulhamid Choʻlponning qisqa, qirq yillik umri koʻhna tarixning shafqatsiz davriga jo boʻldi. Maʼlumki, Choʻlpon dunyoga kelganida yurt allaqachon chorizm asorati, tasarrufi ostida edi. Dunyo boʻylab esayotgan ozodlik shamoli faqat mustamlaka oʻlkalarda emas, mustamlakachi yurtlar, jumladan chor Rossiyasining oʻzida ham katta toʻntarishlar sodir qildi. Qolaversa, birinchi jahon urushi yetkazgan aziyatlar Turkistonda ham xalq hayotining bir necha baravar ogʻirlashuviga sabab boʻldi. Shunday bir ogʻir sharoitga qaramasdan Choʻlponning otasi Sulaymon bazzoz oʻz davrining ziyoli va ishbilarmon kishilaridan boʻlgani maʼlum. U oʻgʻli Choʻlponni ham ishbilarmon va ziyoli boʻlishini istagan. Bu haqida choʻlponshunos olim Dilmurod Qurinov shunday fikr yuritadi: “Sulaymonqul bazzoz oʻgʻlini ham savdo ishiga jalb qilmoqqa harakat qilgan – gavjum joyda doʻkon ochib bergan, Choʻlpon ham qobil farzand oʻlaroq doʻkonni yurgizgan, biroq koʻngliga oʻtirishmaganidan boʻlsa kerak ishi hech yurmagan. Sababi Choʻlpon koʻngli boshqa - u ich-ichida maʼrifatchilik yoʻlini tanlagan, oʻzini shu ishga bagʻishlamoqqa qaror berib boʻlgan edi. Yana ham aniqrogʻi, u millat taraqqiysiga qalami bilan, adabiyot vositasida xizmat qilmoqqa qasd etgan” [4,10].

Birinchi jahon urushidan so'ng siyosiy o'zgarishlar, tarixiy voqealar almashinuvi shu qadar tezlashdiki, natijada millatning asl farzandlari – ziyolilari qatag'on girdobiga tushdi. Xususan, Turkistonda muxtoriyat o'rnatilishi va uning qirg'in bilan tugatilishi, sho'ro tartibining zo'ravonlik asosida o'rnatilishi, fuqarolar urushi, qatag'onlar – bular sodir bo'lgan voqealarning asosiylari, xolos. Ikkinchi tomonda inqiroz, qoloqlik va jaholat botqog'ida o'zini-da yemirayotgan millat boshiga tushgan kulfatning og'ir yuki. Ana shu voqealar "tug'ma shoir" – tug'ma idrok va iste'dod egasining beg'ubor yoshlik ayyomini to'zonlar bilan to'ldirgani shubhasiz. Shuning uchun ham unda olamga, atrof-muhitga va tarixiy vaziyatni o'zgartirishga qodir kuchlarga munosabat juda erta shakllandi. 1918-yilda tatar ma'rifatparvari va yetakchisi Mullanur Vohidov (1885 – 1918) vafoti munosabati bilan yozilgan kattagina she'ri ham bunga dalil bo'la oladi. U shunday satrlar bilan boshlangan:

So'ng davrda yo'qsul Sharqning tarixi,
Bir bet bo'lsin, oq satrni ko'rmadi.
Dunyo tarixini yozgan muarrix
Yaxshilikka qalamini burmadi.
Sharqning qaysi burchagini qarasang,
Yo'qlik, o'lim, zulm, qarg'ish ko'rarding.
"Tomug'" degan so'zni bilmak istasang,
Sharqni boshdan-oyoqqacha yurarding.
Bir zamonlar yer yuzinda o'z boshli
Ulug', shonli, madaniyat tug'dirgan
U go'zal Sharq, shirin tuproq so'ng zamon
Bo'ldi chetlar panjasida ko'z yoshli...

Adabiyotshunos olim, Cho'lpon ijodi tadqiqotchisi Botirxon Akram ushbu marsiyaga shunday fikr yuritadi: "Ochiq-oshkor kurashga chorlash ruhi – erksevarlik yo'lidagi isyonkorlik Cho'lponga birdan va osongina kelgan emas, "Internatsional"ni birinchi bo'lib o'zbekchalashtirganda, boshqa inqilobiy ruhdagi she'rlar, jumladan tatar inqilobchilari rahnamosi Mulla Nur Vohidovning fojeali o'limiga bag'ishlangan marsiyasi, shu ruhdagi she'riy tarjimalarida shoir mutlaqo samimiy edi. U fevral inqilobi keltirgan umumhurriyat g'oyalarini katta umidlar bilan qarshilagan, faqat Oktyabr to'ntarishidan keyingi vaziyatda yuz bergan ishtiboh va iztiroblar, umid va aldanishlar fojeasi ulug' shoirni ne chog'liq vijdon qiynoqlariga solgani yolg'iz uning o'ziga va Allohga ayon" [1, 39].

Cho'lpon iqtidorining kamol topishida uning bolalik davrida olgan ta'limi va tarbiyasi, shubhasiz, muhim o'rin tutadi. Otasi Sulaymon bazzoz o'z davrining ko'zga ko'ringan savdogari, tadbirkorlaridan biri bo'lishi barobarida "Rasvo", "Volai Rasvo" kabi taxalluslar bilan she'rlar yozgan, andijonlik qalamkashlar doirasiga mansub kishilardan edi. Tabiiyki, u o'z o'g'lining ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan. Akademik Naim Karimovning yozishicha, Sulaymon "zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo'lgani bois boshqa mamlakatlarda ro'y berayotgan voqealardan, xususan, shu mamlakatlardagi savdo-sotiq ishlaridan xabardor bo'lish maqsadida bir necha xorijiy gazetalarga yozilgandi. Abdulhamidning dunyo haqidagi, Sharq va G'arb mamlakatlaridagi xalqlar haqidagi tasavvuri va bilimi shu nashrlar yordamida shakllanib bordi" [3, 6].

Uning 15 yoshida, 1913-yili Ismoil Gaspirinskiydek mashhur kishiga maktub yo'llashi e'tiborga molik voqealardan bo'lib, o'sha maktubda "Shalola", "Turk yurdi", "Shahbal", "Vaqt", "Iqbol" va "Tarjumon" gazetalari materiallaridan yaxshi xabardorligi oila muhitining nechog'li ma'rifatli ekanidan dalolat beradi.

1917-yil fevralda Rossiyada sodir bo'lgan burjua qo'zg'oloni va davlat to'ntarishi unga tobe va mustamlaka o'lkalarda qisqa muddat ozodlik umidiga, zaif bo'lsa-da, harakat baxsh etgandek bo'ldi. Qo'qonda yangi mustaqil davlat e'lon qilinib, uning qurilishi bilan ming-minglab ziyolilar mashg'ul bo'ldi. Yangi davlatning Madhiyasini yozish hali yigirmaga ham kirib ulgurmagan Cho'lponga nasib etdi. Bu tasodif emas edi. 1914-yildayoq yosh Abdulhamid millat ziyoli vatanparvarlari e'tirofini qozona boshlagan edi. Shu yili 18-aprelda "Sadoi Turkiston"

gazetasi sahifasida “Turkistonlik qardoshlarimizga” she’ri oldidan shunday satrlar yozilgan edi: “Dunyoning qaysi bir chetiga ko‘z solsak va qaysi millatning ahvoliga nazar qilsak, ul millatning saodati, rivoji va taraqqiysi uchun boshlab shul millatning yoshlari va yosh fikrli qahramonlari sabab bo‘lmakdirlar. Olarning yosh ko‘ngillari har bir narsadan g‘olib bo‘lub, g‘aflat, jaholat qal’alarini zo‘r ila urub yo‘q qilmak orzusida bo‘lurlar. Ham ba’zilari orzulariga muvaffaq bo‘lub, butun bir millatning yoshi, qarisi, eri va xotiniga yolg‘uz o‘zlari rahbar bo‘lurlar. Yoshgina qalblari ila yorug‘lik va ilm, maorif nuriga boshlarlar. Bunday yoshlar har bir mamlakatda, oz-ko‘p, o‘ziga yarasha bordir. Alhamdulillah, bizim Turkiston turklari orasidan ham shunday yoshlarimiz va yosh fikrli bolalarimiz ko‘rinmakka boshladi. Dalil uchun o‘shli 12 yashar M.Sanjarbek afandi ila andijonli 15 yashar Abdulhamid afandini ko‘rsatuv yetsa kerak” [2, 330].

Akademik Naim Karimov fikricha, Cho‘lponning 1914-yilda “Sadoi Turkiston” gazetasida bosilgan “Turkistonlik qardoshlarimizga” she’ri, “Qurboni jaholat”, “Do‘xtur Muhammadiyor” hikoyalari, “Maktab” sarlavhali publitsistik maqolasi, “Adabiyot nadir?”, “Muhtaram yozuvchilarimizga” adabiy tanqidlaridayoq uning “ijodiy dasturi o‘z ifodasini topgan edi”. Bunday jo‘shqin ijodiy faoliyat, 16 yoshdayoq katta e’tirofga arzirli asarlar yaratish, muhimi, ijodiy dasturga ega bo‘lish unga bo‘lgan umidni ishonchga aylantirdi. Yangi davlat Madhiyasiga muallif tanlanganda undan boshqa munosibini topish qiyin edi.

Lekin gap Madhiyada emas, yangi muxtoriyat vujudga kelishi Cho‘lponning vatanparvarlik g‘oyalariga mos hodisa edi. Shuning uchun ham shoir uni olqar, unga borlig‘ini berishga tayyor edi. Afsuski, u oz fursatda yanchib tashlandi va uning faollari ta’qib qilindi. Turkiston Muxtoriyati unutilgunga qadar uning Madhiyasini yozgan shoir ko‘zlardan yiroqroq bo‘lsagina yashab qolishi mumkin edi. Buni anglagan Zaki Validiy Cho‘lponni Orenburgga olib ketadi. Bu yerda u Boshqirdiston Muxtoriyat hukumatini tuzish ishida ishtirok etadi.

Bu jarayonlarning hammasi shoirda yurt ozodligi g‘oyasini o‘stirdi va uning siyosiy qarashlarini yangilangan vatan, yuksalgan millat g‘oyalari asosida shakllantirdi. Tabiiyki, bu g‘oyalar ijodda ham yangilanishlarni taqozo etar edi. Aytish mumkinki, shundan keyin Cho‘lpon jadidchilik harakatini tom ma’noda tushundi va bu harakatning asosiy a’zolaridan biriga aylandi.

“Cho‘lpon ijodining zamini va osmoni – Vatan. U hur va muzaffar Turkiston kuychisi. Cho‘lpon o‘zini yurtning pok istaklari kuychisi deb bilgan. Va hech qachon pokiza istaklardan kechmagan. Cho‘lpon orzu-istaklarining sofliги shundaki, shoir Ona Turkiston tuprog‘i kelgindi yovlar tomonidan toptalishiga qarshi munosabatini yashirmagan. Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur avlodlarining tarixi, tili, madaniyati, fan va san’ati buhronga uchrab, siquvga olinayotganini baralla so‘zlay olgan. Cho‘lponni ana shuning uchun ayblashgan” [5, 242].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Cho‘lpon jadidchilik harakatining rahnamosi bo‘lgan Gasprali nazariga tushdi, u bilan xatlar yozishib, fikr almashdi, jadidchilik harakatining otasi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyga “ota” deb murojaat qildi va uning o‘limidan qattiq aziyat chekdi, o‘zi esa ushbu harakatining a’zosiga aylandi va Ona Turkistonni bir butun ko‘rishni istadi. Undan tashqari Fitrat, Mullanur Vohidov, Anvar Posho kabi jadidchilikning faol a’zolari g‘oyalarini tushundi va ularni qo‘llab, quvvatladi. Shuning uchun ham Cho‘lpon mustabid tuzumning qurboni bo‘ldi. Uning orzu-armonlari mustaqil O‘zbekistonda ro‘yobga chiqdi va istiqlool tufayli adolat tiklanib, nomi adabiyot osmonida yorqin porlamoqda. Uchinchi Renessans poydevorini qo‘ygan jadidlar g‘oyalari bugungi kunda davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрам Ботирхон. Шоирнинг ёруғ юлдузи. – Т.: “Zilol buloq”, 2019.
2. Исохлар. /Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.И. – Тошкент: Академнашр, 2016.
3. Каримов Н. Чўлпон ҳақида сўз. /Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. Ж.И. – Тошкент: Академнашр, 2016.
4. Куронов Д. Жадидлар. Абдулҳамид Чўлпон. Рисола, Тошкент: Ёшлар нашриёти уйи, 2022.
5. Ҳаққул Иброҳим. Мушоҳада ёғдуси. – Т.: “Фан”, 2009.

O'ZBEK DRAMATURGIYASI RIVOJIDA HAMZANING O'RNI

Saodat MO'MINOVA,
O'zbekiston, QarDU, f.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziyning drama janri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, uning dramalarida davr voqeligining badiiy aks ettirilishi kabi masalalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: drama, yangilik, davr, janr, dramaturgiya, voqelik, qahramon.

Yangi o'zbek adabiyotining yuzaga kelishi, shakllanish va rivojlanish tarixida Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'ziga xos o'rni bor. Hamza qoldirgan merosning asosini she'rlar, maqolalar, nasriy va dramatik asarlar tashkil etadi. Bugungi adabiyotshunoslik bu adabiy merosga hayotiylik va haqqoniylik mezonlari asosida yondashmoqda.

Hamza XX asr o'zbek ma'rifatchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri edi. U usuli savtiyaga asoslanuvchi jadid maktablarini tashkil etdi. O'z tajribalari asosida shu maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar yaratdi. Hamza ijodining tadrijiga e'tibor berilsa, uning milliy uyg'onish davridagi muhim ijtimoiy harakat hisoblangan jadidchilikning yirik namoyandasi ekanligi ayonlashadi. Uning "Faqirlik nimadan hosil o'lur", "Bid'atmi, ma'jusiya'tmi?", "Muallim afandilarimizga ulug' rijomiz" kabi maqolalarida mamlakatdagi ijtimoiy hayotning ayanchli manzaralari tasvirlanib, xalqni ma'rifatga olib chiqish yo'llari izlanadi.

Ma'lumki, XX asr avvalida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar asrlar davomida Sharq mumtoz adabiyoti an'analari ruhida taraqqiy etib kelayotgan o'zbek adabiyotida dramatik tur paydo bo'ldi. Dramaning tug'ilishi o'zbek adabiyoti uchun xuddi roman janri kabi yangi hodisa edi. Hamza ana shu adabiy hodisaning boshida turdi va o'z dramalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Hamza dramaturgiyaning butun talablariga javob bera oladigan ("Zaharli hayot" (1916), "Maysaraning ishi" (1926), "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" (1927) kabi go'zal shakl va mazmunga ega pyesalarni yaratdi. Bulardan tashqari, "Burung'i saylovlar", "Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari", "Qozining sirlari", "El quzg'unlari" kabi dramalari ham mavjud.

Hamzaning 1916 va 1920-yillarda yozilgan "Boy ila xizmatchi", "Loshmon fojialari", "Farg'ona fojialari" kabi asarlari matni saqlanib qolmagan. Faqat "Loshmon fojialari"ning "Istibdod qurbonlari" degan qismi hamda "Boy ila xizmatchi" dramasi afishasi saqlanib qolgan. Yaqin-yaqinlargacha teatrlarimizda qo'yilib kelingan "Boy ila xizmatchi" dramasi esa dramaturg Komil Yashin afishada aks etgan mazmun bo'yicha qayta tiklagan [1, 60].

Hamza o'zining dramalari, birinchi navbatda, "Maysaraning ishi" asari bilan ("Burungi qozilar qozilar yoki Maysaraning ishi" deyiladi asl nomi) o'zbek adabiyotida tragikomediya janriga asos soldi. Albatta, Hamza komediyalari, birinchi navbatda, o'zbek xalq og'zaki ijodi – xalq qo'g'irchoq teatri, askiyachilik va Nasriddin Afandi latifalari, xalqning hazil-hajviy ertaklari zaminida tug'ildi. Shu sababli uning komediyalarida xalq ijodi an'analarning salmog'i katta, ulardagi milliy jozibaning kuchliligi ham shundan.

Jadidchilarning euzu niyati sahna asarlarini teatrlarga qo'yib, xalqning ko'zini ochish edi. Chunki millatning aksariyat qismi o'qishni bilmas, bilganlarida ham kitob olib o'qishga sharoitlari yetishmas edi. Vaziyatdan chiqishning eng ma'qul yo'li Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek teatr edi: "Teatr nimadur? Javobig'a teatr ibratnomadur, teatr va'zxonadur, teatr ta'zir adabidir. Teatr o'ynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teatr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini aynan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasidan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir" [2, 175].

Hamza Hakimzoda Niyoziy sahna asarlarida hayot yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Masalan, XIX asrning so'nggi choragida Chor Rossiyasi qo'l ostida qolgan, mahalliy

amaldorlar ham oddiy xalqni beayov ezib yotgan bir davrda yozilgan “Maysaraning ishi” dramasi voqealari o’sha zamondagi hayotiy muhitdan kelib chiqqan holda yaratilib, bunda qahramonlarning yashash tarzini ifodalovchi elementlar tasviri, yashash sharoiti aniq keltirib o’tiladi. Asar 3 pardadan iborat. “Maysaraning ishi”dagi Maysara, Cho’pon, Oyxon, Nodira, Tohir mustahkam katta kuch bo’lib birlashgan. Haqiqat jamiyatning oddiy fuqarolari tomonida; hokimiyat, zo’rlilik, pul-boylik qozilar, amaldorlar tomonida. Hamza Hakimzoda mazkur zamon va makonga uyg’un tarzda jonli, kitobxon yoxud tomoshabin qalbida chuqur joy oladigan obrazlarni yaratadi. Ayniqsa, sodda, to’pori, beg’ubor qalbli, hazilkash qahramon Mullado’stning xatti-harakatlari, so’zlari dastlab kulgi uyg’otsa, keyinchalik voqealar rivojida uning taqdiriga hamdardlik, achinish hissi uyg’onadi. U o’z taqdirini kulgu bilan, ko’tarinkilik bilan qabul qilayotganini ko’ramiz, bu esa bir tarafdin tirikchilik tashvishi, bir tarafdin noilojlik belgisidir. Mazkur detal orqali ijodkor o’sha davrda o’zbek xalqi qullik, mutelik iskanjasida bo’lganini Mullado’st obrazi timsolida ta’kidlab ko’rsatadi. Drama janrining murakkab jihatlaridan biri qahramon portretini yaratish masalasi bo’lib, asarda muallif nutqining yo’qligi sababli ba’zi sahna asarlarining boshida har bir obrazga ta’rif berilsa, ba’zan bir qahramonning tashqi va ichki dunyosi haqida boshqa bir qahramon nutqi orqali bilib olish mumkin.

Asarni o’rganish davomida o’quvchida bosh qahramon Maysara emas, Mullado’stday tuyuladi. Chunki Hamza mavzuni ochishda Mullado’st fojeasini asosiy nuqtaga ko’chiradi va bu fojeani kulgili tarzda tasvirlaydi. Mullado’st muammosi maishiy muammo bo’lib, o’quvchini ko’tarinki kayfiyat bilan yozuvchining badiiy niyati tomon yetaklaydi. Asarda Mullado’st obrazining ishtiroki fojea va komediyaning birlashishiga yaqqol misoldir. Asarda davr tanazzuli - qozi, a’lam obrazlari orqali ko’rsatilgan bo’lib, ayni o’sha davrda millatning qayg’usi bilan yashashi, yonishi lozim bo’lgan shaxslar o’z nafslari bilan ovora ekanliklari fojeali holat sifatida tasvirlanadi.

Asarda jamiyatni bu manfur botqoqdan olib chiqish vazifasi ayol kishiga, ya’ni Maysara obraziga yuklangan. U aql-farosatli, uddaburon, so’zamol ayol. Dramaturg jarayonda maqsadga erishish, jamiyatning chirkin holatlariga zarba berish uchun tabiatan zaifa qilib yaratilgan ayolga faollik ato etadi va o’z badiiy niyatini amalga oshiradi. Asar davomida Maysaraning puxta o’ylab qilgan tadbiri, jasorati har bir millat vakiliga xos bo’lgandagina jamiyat o’zgarishi mumkin degan xulosa bor. Mullado’stning nutqi bizni qanchalik zavqlantirsa, kuldirsa Maysaraning so’zlaridan har inson o’z erki uchun yo’ldagi g’ovlarni hatto hiyla bilan bo’lsa ham olib tashlash kerakligini anglaymiz. Davr zulmini chuqur anglagan ayol tilidan muallif gapiradi. Zamonaning dardli, alamli nuqtalarini fosh qilishga harakat qiladi.

Maysara. Otang rahmatlikning senga vasiyat qilib qoldirib ketgan yigirma tilla puliga qozi eshonni tonib ketishlarini sababi bor ekan. Shu kunki sen bilan otang topshirib qoldirgan o’sha talab xatni olib borib berdik. Bizning qo’limizdan xatni olib qolgandan so’ng, ul bediyonatlar darhol boshqa qog’ozga “vaqf qildim” degan so’zlarni yozdirib, boshqadan bostirib chiqib bizni o’rta orada siyosatga tortdilar.

Bizning omilimiz o’z boshimizga yetganga ko’ra, aqlimizga nima bo’ldiki, to’g’ri qoziga bormay, shahar hokimiga borsak. Men-ku otam rahmatlikdan burungi qozilar hikoyalarini ko’pgina eshitgan edim. Endi bir zolimning hiylasi bilan shuncha dunyoni tashlab ketaveramizmi, Cho’pon? Uchsiz yurak yurakmidir?!

Cho’pon. Endi, xola, men hech bir narsa anglamay qoldim. Shariat falon degan yurt qozilari, eshonlari, xon, hokimlari, sayid, to’ra, xo’jalari, xalifa, zokir, avliyolari - barchalari bo’lsin xiyonat, olchoqlik, fohishabozlik, zolimlik, jafakorlik, turli-tuman yaratganning amri bilan bizlarni qo’rqitganlar — yomon ishlarda o’zlari boshdirlar. Ularga tangrining davlat va saodat berishdan boshqa balosi yo’qdir. Dunyoning borlik; zahmatlari, kulfatlari har palla bizlarga o’xshash, yomonlikdan qo’rqanlar ustida, falakning aylanishi shundoq bo’lgandan so’ng, shariat kursisida o’tirgan yurt qozilari shundoq ishlar qilgandan so’ng, o’zining baloyi nafsi uchun farzandi qatoridagi fuqarolarning nikohlik haramlariga ko’z olaytirish bilan ovora bo’lib yurgan shahar ujimlaridan qanday umid tutarmiz, xola! Mening ra’yimga yursangiz, er yigitga

mol chikora! Qo'y, mol ketsa ketsin, bosh sog' bo'lsa toparmiz. Qo'y, to'rt ko'z tugal yo'l olganimiz ancha g'animatdir. (Bosh tutib uyga cho'mar)" [3,176].

Yuqoridagi Maysara va cho'pon o'rtasidagi suhbat orqali o'sha davr amaldorlarining haqiqiy basharalari, oddiy xalqning ayanchli holati ochib beriladi. Maysara o'ta tadbirli, mulohazali hamda jasur ayol. U so'zamolligi, mehribonligi, jonkuyarlighi bilan atrofidagi qahramonlarni o'z farzandidek ko'rib ularni bir maqsad yo'lida, ya'ni erk yo'lida birlashtiradi. Undagi shijoat, mardlik, dovyuraklik erkaklarda ham topilmas edi.

Ushbu asar tom ma'noda zamona ko'zgusi sifatida ko'z o'ngimizda XX asrning o'sha mash'um yillari, xalqning turmush tarzi, quvonch va qayg'ulari gavdalantiradi. Asarda tasvirlangan har bir obraz o'ziga yuklatilgan vazifani to'g'ri ado etganligi tufayli asar teatr sahnasidagina emas, adabiyot tarixida ham o'z munosib o'rniga ega bo'ldi.

Hamza drama janri imkoniyatlaridan to'g'ri foydalandi, o'zi teran his qilgan hayotiy haqiqatlarni, davrga xos muammolarni chuqur anglagan holda taraqqiyotdan orqada qolgan, og'ir sharoitda yashayotgan, eng achinarlisi, buni his qilmagan, insoniyligini unutgan xalqimiz fojiasini Maysara, Mo'llado'st, Oyxon, Cho'pon singari qahramonlar taqdirida badiiy ifodasini yorqin ko'rsatib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Hamza dramaturgiya sohasida barakali ijod qilib, adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan noyob syujetli, badiiy jihatdan baquvvat sahna asarlarini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur Ubaydullo. Sarg'aymas sahifalar. - Toshkent, O'zbekiston. 1991. - 159 b.
2. Mahmuxo'ja Behbudiy. Nashrga tayyorlovchi, to'plovchi, so'zboshi va izohlar muallifi prof. B.Qosimov. - Toshkent, Ma'naviyat. 2006. -278 b.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. Uchinchi tom. Dramalar. -Toshkent, 1988. -287 b.

ADABIY-ESTETIK TAFAKKUR – POETIK OBRAZ YANGILANISHI ASOSI

Dildora RAXMONOVA,
O'zbekiston, TDYU, PhD, katta o'qituvchi,

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyoti namoyondasi To'lagan Xo'jamiyrov Tavallo ijodi haqida so'z yuritiladi. Uning ijodida poetik obraz yangilanishi uchun asos bo'lgan adabiy-estetik tafakkur tadriji tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Jadid adabiyoti, Tavallo, estetik tafakkur, obraz, yangilanish, adabiy-estetik ideal, millat, ma'rifat.

Jadid adabiyoti vakillari garchi adabiyotni estetik tafakkur vositasidan ko'ra ko'proq jamiyatni uyg'otish quroliga aylantirgan bo'lsalar-da, bu hayqiriq va da'vatlar insonni tafakkuriga munosib sharoitda yashashga, o'zidan balandroq bo'lishga undadi. XX asr boshidagi o'zbek she'riyatida xuddi shu tendensiya Tavallo ijodida ham aks etdi. Uning she'riyatidagi obrazlar, eng avvalo, o'z davri tafakkurining mahsuli edi. Bu obrazlar zimmasida millatni uyg'otish mas'uliyati mavjud edi. Shu bois ham Tavalloning adabiy-estetik qarashlari nafaqat mumtoz ijodkorlarimiznikidan, balki o'z zamondoshlarinikidan ham farq qilardi. Bu, tabiiyki, jadid davri adabiyoti an'analari, yangilangan adabiy tafakkur hosilasi edi. Boisi bu davrga kelib, adabiyotda estetik o'lchovlar o'zgardi. Sababi adabiyotning vazifasi inson qalbini poklash, ta'sirlantirishdan ko'ra ko'proq ijtimoiy muammolarga munosabat bildirishdan iborat bo'la boshladi. A.Davlatova ta'kidicha, "Badiiy asar faqatgina ijtimoiy voqealar tasviri bilan chegaralanib qolsa, tabiiyki, uning badiiyatiga putur yetadi. Lekin aynan XX asr boshlari adabiyotiga mana shunday talablarning qo'yilishi ijtimoiy turmushni yaxshilashga qaratilgani nuqtayi nazaridan o'zini oqlaydi. Demak, adabiyotshunoslik ham asarlarning shu jihatini e'tiborga oldi" [1; 17].

Tavallo ijodida yangilangan obrazlardan biri “**g‘ani**” obrazi bo‘lib, shoir ijodida u ikki xil qiyofada namoyon bo‘ladi: 1) o‘z mulkini keraksiz hashamlarga sarf etayotgan, ilm-ma‘rifatdan yiroq boylar obrazi; 2) millatning ma‘naviyati, taraqqiyoti uchun kurashayotgan, topganini taraqqiyot uchun sarflayotgan boylar obrazi.

Tavallo, millatning o‘ziga to‘q g‘anilariga alohida umid bilan qaraydi. Ulardan millat taraqqiysi uchun homiylik va shijoat kutadi. Millatni taraqqiy ettirish uchun ham, Turkistonning avvalgi shonini qaytarish uchun ham eng avvalgi qadam dunyoviy maktablar barpo etishdan boshlanadi. Shoir ayni holatda ham millatning o‘ziga to‘q kishilaridan, ularning marhamatidan umidvor bo‘ladi. Afsuski, boylar maktab qurish, ma‘rifatga mablag‘ sarflash o‘rniga topganlarini keraksiz hashamlarga, to‘y-u marakaga sarf etadilar:

Millata maktab kerak, yo ‘qmu g‘anilar, o‘ylangiz,

Sarf etar to‘yu azo deb necha ming, bari riyo.

Shoir: “G‘anilar himmat etsa biz faqirlar, qiroatxona, maktablar ochishmoq” umidida ekanini yozadi. Biroq millatning boylari maktab ochish u yoqda tursin, hatto qimmatchilikdan aziyat chekayotgan millatdoshlariga ham rahm etmaydilar. Ammo shoir ijodida saxovatli, ma‘rifatli boylar obrazi ham uchraydiki, Tavallo ularning nomlarini alohida hurmat bilan tilga oladi.

Yuqoridagi tasvirlardan kelib chiqib aytish mumkinki, “Bungacha badiiy asarlarga, asosan, hukmdorlar, favqulodda sifatga ega kishilar qahramon qilib olingan bo‘lsalar, bu davrga kelib, adabiy personajlar, ko‘proq, oddiy kishilar, ziyolilar orasidan qidiriladigan bo‘ldi” [2, 5]. Tavallo ijodidagi ayni shunday obrazlardan yana biri **Otalar** obrazidir. Muallif bu obrazga millatning taraqqiy etmasligining sababchiligi vazifasini yuklaydi, aslini olganda jaholat botqog‘iga botgan otalarning tipik qiyofasini yaratadi:

Necha bid‘atni qilmoqqa berib siz imtihon dedim,

“Otamiz o‘rgatib ketdi” debon inkor yo‘x, yo‘x, yo‘x.

Ko‘rinib turganidek, bu o‘rinda ota obrazi asriy g‘aflat botqog‘iga botgan ajdodlarning umumlashma qiyofasini o‘zida aks ettirmoqda. Bu o‘rinda shoir bid‘atni otamiz o‘rgatib ketgan deb qattiq tutib olgan odamlar holatini tasvirlash orqali ta’sirchanlikni yanada oshiradi. “Yozuvchi hayot oqimidan hayajonli voqealarni tanlab oladi va shu voqealar zaminida xotiramizda bir umr saqlanib qoladigan pishiq xarakterlar yaratadi” [3, 71]. Bu kabi voqealar asnosida obrazni tasvirlash uning yanada konkretlashuviga, ta’sirchanligining oshishiga sabab bo‘ladi va Tavalloning badiiy obraz yaratish mahorati yanada yorqin tarzda yuzaga chiqadi.

Shoir millatning necha yilki ma‘rifatsizlik botqog‘iga botishining sababini quyidagicha izohlaydi:

Yubormay maktaba o‘g‘lin, “Manim davrimda yur, o‘yna!”

Debon, ko‘r tarbiyatni teskori qilg‘on atomiz bor.

“Shoir ham o‘z hissiyotlari, kechinmalari, falsafasi, dunyoqarashi, dardi, alami, iztirob va quvonchlarini muayyan so‘zlar, obrazlar, kartinalar, detallarning haqqoniyligi va nafosati bilan anglatadi” [4, 83]. Tavalloning nuqtayi nazari aniq. U mamlakatda ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib borganini, boz ustiga o‘sha yillari hosil deyarli bitmay qurg‘ochilik kelgani, oziq-ovqat tanqisligi butun Rusiyadagi singari Turkistonda ham yuz berganligini tasvirlaydi. Shoir millatni ozodlikka chorlaydi, “Yo‘liqdi millatimiz to‘da vahshiy ro‘dapolarg‘a” deya taassuf qiladi. Vatanni bosqinchilardan ozod qilish uchun o‘zini, o‘zligini tanigan, g‘ururli kishilar, yurtning chinakam egalari tarbiyalanishi kerakligini ta’kidlaydi. Shubhasiz, ayni shu tarbiyachilar millatning otalaridir:

Tarbiyat farzand uchun maktabga uch pul bermasa,

O‘g‘li qadrin bilmagon yana atolardin na sud?

Biroq farzandining ta’limidan uch pulni qizg‘angan otalardan millat taraqqiysi uchun kurashni kutish ushalihi dushvor bo‘lgan orzu misolidir. Zero, ular:

Maktabda pul desamiz modar, padarlar bermayub,

To‘yda sarpo behudani ko‘tarolmaz dor hech.

O‘z mablag‘ini ilm-u ma‘rifatdan qizg‘anib, to‘y-u ma‘rakalarda kimlargadir sarpo yopishni sharaf deb bilgan otalarning dunyoqarashi o‘zgarmasligi chinakam fojidadir. Ilm-ma‘rifatga mablag‘ ajratish millat yoshlarining porloq kelajagini ta’minlash barobarida ma’nili hayot

kechirishning asosi hamdir. Buning uchun, eng avvalo, otalarning o'zlari uyg'onishi, bid'atni tark etishi joiz:

Yetdi endi, otalar, bid'atni siz tashlarga vaqt,

Mone' bo'lmang, umr ko'rsun, yashasun yoshlarga vaqt.

Tavallo qardoshlarining boshqa millatlar yutug'idan ibrat olishini, "millatg'a yordamda bo'lmoqi"ni orzu qiladi. Buning yechimini esa "ijtihad va ittifoq"da ko'radi.

Xulosa qilish o'rinliki, jadid adabiyotining eng asosiy xususiyati bo'lgan millat manfaatlarini ifodalash, "navhali" she'rlar bitishdan tashqari, bu da'vatlarni shu xalq tilida ifodalay olish, quyi qatlamlarga qadar kirib borish maqsadi ham turardi. Tavalloning ham oliy maqsadi ash'orga tashna qalblar chanqog'ini qondirishdan ko'ra millatni uyg'otish, taraqqiyotga yo'llash kabi ulug'vor maqsadlar bilan vobasta edi. Bu ko'proq u yashagan zamon va millatning ahvoli bilan bog'liq bo'lgan. Zero, "Chin she'r – xalq dilini, ezgu istagini, dard alamini so'zlovchi, buyuk dunyo binosiga, zamonaga daxldor voqealar mohiyatini ochuvchi, o'qiganlarning qoni haroratini tezlatuvchi, hayajonga soluvchi, o'ylatuvchi samimiy she'r. Bunday she'r eskirmaydi. U hamisha yangiligicha turadi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Фил. фан. номз... дис. – Т., 2011.
2. Мирзаев С. XX аср ўзбек адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
3. Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985.
4. Ғафуров И. Лириканинг юраги. – Тошкент, 1982.
5. Иброҳимов М. Ўзбек адабий танқиди. Антология. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011.

TURKISTONDA MILLIY MATBUOT VA ADABIYOT

Abdumurod ARSLONOV,
O'zbekiston, TerDU, PhD

Nodira EGAMKULOVA
O'zbekiston, TerDU, PhD

Аннотация. Ushbu maqolada XX asr boshlari o'zbek adabiy jarayoni – jadid adabiyotining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'siri masalalari yoritilgan. 1905-yil chor hukumati tomonidan qabul qilingan Manifest va uning ahamiyati, mohiyati haqida manbalarga tayanilgan holda fikr yuritilgan. Turkistondagi matbuot, matbaa ishlariga to'xtalangan. Jadid adabiyotidagi muhim yangilanishlar, badiiy tasvir usuli, adabiy aloqalar borasidagi mulohazalar o'z aksini topgan.

Калит so'zlar: Turkiston, jadidchilik, Manifest, vaqtli matbuot, adabiy jarayon, adabiy aloqalar.

Turkistonda milliy matbuot ishlari (garchi biroz kechroq bo'lsa-da) 1905-yildan so'ng yuzaga keldi. Bunda 1905-yil ro'y bergan siyosiy jarayonlar, xususan, Manifest asosiy omil bo'ldi. Sababi, 1905-yil chor hukumati tarafidan Manifest e'lon qilinishi natijasida imperiya musulmon aholisining ijtimoiy-siyosiy hayoti butunlay o'z yo'nalishini o'zgartirdi [1, 37]. Rossiyaning Koreya va Manjuriya ustidan hukmronlik uchun yaponlar bilan kechgan va tarixda rus-yapon urushi (09.02.1904 – 05.09.1905) deb nom olgan muhoroaba qudratli imperiya uchun og'ir mag'lubiyat va tahlikali vaziyatni yuzaga chiqardi. O'zining ikki millionlik qo'shini bilan to'rt yuzminglik yapon qo'shiniga urushni boy berish Rossiya imperiyasi qudratiga soya solgan kuchli zarba bo'ldi. Urush Portsmut sulhi bilan 1905-yil 5-sentabrda yakunlangan bo'lsa ham, uning asoratlari uzoq davom etdi. Rossiyaning bu mag'lubiyati 1905-yilgi Rossiya inqilobini

keltirib chiqardi: "...o'ylamag'on yerdan yopunlar chiqib, eski hukumatni tamom oyoqdan qoldirib.... xalqning umidin butun-butun kesmoqg'a sabab bo'ldi" [13, 1] Va natijada mamlakatdagi tartibsizliklarga barham berish maqsadida podshoh Nikolay II farmoni bilan 17-oktabr sanasida Manifest (Farmoyishi oliy) qabul qilindi. Manifest matnining avvalida uning qabul qilinish sababi sifatida "ulug' mamlakatning ko'b joylarida chiqqan fitna va betartiblik" [7, 42] ka barham berish nazarda tutiladi. Bu tartibsizliklarning "mamlakatning butunligig'a va birligig'a zarar keltur"ishidan cho'chigan Nikolay II "chin ixloslik fuqarolarini" Rusiyani o'z vatanlari deb bilib "tinch va osoyishtaliqni barpo qilmoq"qa chaqiradi. Mazkur Manifest 3 banddan iborat bo'lib, birinchi: fuqarolarga so'zda, dinda, yig'inda, jamiyatda erkinlik berilishini; ikkinchi: siyosiy partiya va davlat dumasini ta'sis etilishini; uchinchi: barcha qonunlar Davlat dumasida joriy qilinishini nazarda tutardi. Butun Rossiya aholisi Manifestni iliq qarshi oldi, unga umid bog'ladi. Imperiyaning turli nuqtalarida chop etiluvchi gazetalarda Manifest haqida maqolalar e'lon qilindi, matbuot ishlarida jonlanish kuzatila boshlandi. Avloniyning xabar berishicha, Manifestdan so'ng 1905-1917-yillar oralig'ida o'lkada o'zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal nashr etilgan [4, 115-123].

So'z erkinligining birinchi nishonasi bo'lgan "Taraqqiy. O'rta Osiyoning umrguzarlig'i" gazetasida Manifest bergan imkoniyatlardan vaqtida foydalanib qolishga da'vat etildi [9, 1]. Jumladan, Davlat dumasini uchun har bir viloyatdan vakil saylanib, Peterburgda bo'ladigan umumiy majlisda mazkur vakillarning takliflari inobatga olinib, "maslahat va mashvarat qilushib hamalari ittifoqlik ilan zakun ya'ni qonun va qoida barpo qil"inishini batafsil tushuntirib, Turkistondan ham munosib vakil saylashga da'vat etiladi hamda "o'shal odamlar maslahatxonada o'z viloyatlarining nafi va xayriyatlari to'g'risida so'z aytub sa'y va taraddud bilan ish qilmoqlari lozim"ligini ta'kidlaydi. Manifest tufayli hayotlari "minba'd yaxshi va ...farog'atchilikda" kechishini, lekin shu bilan birga "har bir ishni bilib va fahmlab" hushyor turmoqlariga chaqiradi. Bir qarashda Manifest o'lka xalqlariga erkinlik olib kelgan, Rossiyadagi inqilob va tartibsizliklarga barham bergandek tasavvur uyg'otadi. Lekin Manifestdan keyin chiqqan gazetalarning bir yilga ham bormay hukumat tomonidan to'xtatilishi, muharrirlarning turli xil so'roq va jarimalarga tortilishi ushbu "erkinlik"ning haqiqiy mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Manifestning birinchi qurboni bo'lgan "Taraqqiy" o'zining ilk sonidayoq bu "hurriyat"ning: "to'shak ustida og'zig'a suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekanini" [13, 1] ochiq-oydin yozdi va bu bilan "hukumat va uning ma'muriyatiga qarshi o't ochdi" [4, 116]. Ushbu Manifest bergan "zaif va lanj" hurriyatga andarmon bo'lib qolmay, dindoshlarini kurashishda davom etishlariga chaqirdi. Bu maqola Manifestning soxta yuzini ochib tashladi, va shuning barobarida rus hukumatining senzura siyosati, yerli xalqlarni barcha huquqlardan mosuvo etib kelayotganligi, matbuot va maorif ishlarida doimiy to'siq ekanligi kabi ko'plab "yopiq" masalalarni qo'zg'ab qo'ydi. "Taraqqiy" o'zining bu maslagi bilan uzoqqa borolmasligini ham yaxshi bilardi, Turkistondagi barcha nashrlarning taqdiri qanday tugashini sezgani uchun ham u "o'z tomiriga bolta uruvchi" maqolalar berishdan cho'chimadi. "Taraqqiy" haq gaplarni aytdi, biroq o'z navbatida, turkistonlik musulmonlarning aksar qismi Manifestning mohiyatiga to'liq tushunib yetmadi, zarra uchqunni alangalatib yuborolmadi. Manifestda aytilgan Duma, saylov, deputat tushunchalarini to'liq anglab, (birinchi) Duma majlislarida ishtirok etishga huquqiy bilimlari yetadigan vakillar (6 nafar bo'lishi kerak edi) topilmadi. Ikkinchi Duma vakillari ham diplomatik munosabat o'rnata olmaganliklari, "...so'zi fuqaro nafi va hukumat zararig'a bo'lgani uchun" [10, 8] Dumadan chiqarib yuboriladi. Va turkistonliklar va sibirliklar uchinchi Dumaga vakil yuborish huquqidan mahrum qilinadilar. Behbudiy bu holatni tahlil qila turib, "ahli huquqdan va dorul funundan" chiqqan siyosat ilmidan xabardor vakil yuborilmaganligi turkistonliklarning eng katta xatosi deb bildi: "Haqiqata ayb o'zimizni nodonligimizdandur. Chunki beilmmiz, ya'ni ilmi siyosat, iqtisod va qonuni ijtimoiyadan butun bexabarmiz".

1905-yil Oktabr Manifestidan so'ng jadidchilik o'zining rivojlanish bosqichiga o'tdi [2, 49]. O'lkada milliy matbuot nashrlari chop etilishi yo'lga qo'yildi. Jadidlar aynan matbuot va adabiyot orqali o'z g'oyalarini targ'ib etish uchun yo'l topdi, oz bo'lsa ham xalq ongida o'zgarish yasashga erisha oldi. Musulmonlari jamiyat ishlarida faol bo'lishga, zamonaviy

bilimlarni o'rganishga da'vat eta oldi. Matbuotning yuzaga kelishi, jonlanishi adabiy jarayon uchun asosiy minbar vazifasini o'tadi. Jadidlar o'z dasturlarini matbuot sahifalari yordamida keng yoya oldi. Usmonli turk, tatar, Misr matbuotining tajribalari o'zlashtirildi.

XIX asrning o'rtalariga kelib, tarqoq adabiy jarayon birlashdi. Va milliy uyg'onish davri adabiyotiga qadam qo'yildi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi 50-60 yilni qamrab oluvchi [16, 171] milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi va 20-yillarning o'rtalarigacha davom etdi [17,2].

O'zbek adabiyotining biror bosqichi milliy uyg'onish davri adabiyotichalik siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yaqin kelmagan, birlashib ketmagan. Adabiyotning ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib ish tutishi, o'z yo'nalishini belgilashi ayni shu davr adabiyoti misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jadid adabiyotining dastlabki namunalari "o'tish davri" (1905–1917 yy.) mahsuli hisoblanib, yangi janr, yangi uslubga ishlov berish davomida sayqallandi. XX asrning 20-yillariga kelibgina u "har jihatdan to'laqonli adabiyotga aylandi" [18, 128]. Bu bosqichda (1905–1917 yy.) "adabiyotimizning dunyoviy mazmun tomon burilishi, ma'rifatparvarlik ruhining yetakchiligi, jadidchilik qarashlarining mo'lligi, g'oyaviy pafosning kuchliligi, badiiylikning zaifligi va an'anaviy she'riyat turlari ila bir qatorda drama, roman singari janrlarning embrional shakllari maydonga kelishi kabi belgilar bilan xarakterlanadi" [21, 23]. Adabiyotdagi yangilanishlar, g'oyaviy kurashlar, bahs-munozaralar bu davr adabiyotiga xos bosh xususiyat bo'ldi. O'zbek adabiyoti realistik xarakterga ega bo'la boshladi. Bu bosqichda jadid adabiyotining Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat kabi buyuk qalam sohiblarini yetishtirgan adabiyot janrlar qorishiligi, tajribalar silsilasini boshidan kechirayotgan edi. Shu bois bu davrda yaratilgan asarlarga odatiy qoliplardan biroz chetga chiqqan holda baho berish adolatdan bo'ladi. Hozirgi adabiy jarayondagi estetik talab bilan XX asrdagi talabni solishtirib bo'lmaydi. Badiiy jarayonni bugungi kun nazariyasi va tanqidi nuqtai nazaridan tekshirib bo'lmaydi. Aslida biz badiiy yaydoq fikrlar, to'laqonli bo'lmagan adabiyot deb aytadigan baholarimiz nisbiy, biryoqlama yondashishdan boshqa narsa emas.

Bu davrga kelib adabiyotning matbuot bilan uzviyligi kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar o'rtasida chegara yo'qoldi, bir-biriga o'tib turardi. Buni felyeton misolida ko'rish mumkin. Matbuot sahifalarida "Felyeton", "Kichik felyeton" kabi alohida ruknlar ko'rina boshladi. Adabiyotning nasr turi asosiy tajribalar, yangilanishlar, badiiy kashfiyotlar va izlanishlar maydoni bo'ldi. Jadidlar teatr san'ati an'analari turk, tatar qardoshlaridan o'zlashtirdi. Ulardan farqli o'laroq milliy koloritni aks ettirgan o'zbek tilida yozilgan maishiy hayotimiz aks ettirilgan pyesalar yozishdi. Jadid adabiyotiga kelib qahramonlarni boy kambag'alga ajritish emas balki yurt taqdiriga befarq bo'lmagan yoki loqayd inson xarakterlariga tamoyillariga ko'ra ajratila boshlandi. Adabiyotning qiymati ijtimoiy hayot bilan ijtimoiy faollik bilan belgilanadigan bo'ldi. Ijodkorlar senzura, bosim, ta'qiq sabab tanqidiy qarashlarini, milliy o'zlikka daxldor fikrlarini niqoblash, zamon va makonni ko'chirish vositasida ifodalash usuliga o'tdilar.

Jadid ijodkorlari yangi o'zbek adabiyotini yangi janrlar bilan boyitdilar. Jadid adabiyotining birinchi bosqichi 1905-1917 yillarda kechdi. Bu davrda o'zbek adabiyoti o'z yo'nalishini keskin o'zgartirdi, yangi qiyofa kasb etdi. Adabiyotda realizm unsurlari mustahkamlana bordi. O'zbek adabiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi esa xalq ijtimoiy ongining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi [21, 32].

Matbuot turkistonlik ziyolilarni tashqi dunyoga chiqishlarida muhim vosita bo'ldi. Turk, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlarining teatr, matbuot, maorif sohasidagi tajribalari qo'llanila boshladi. Ushbu ishlarni yoyishda Ismoil Obidiy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yavushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makaev, Kabir Bakir, Fotih Bakir kabi qardosh ziyolilar Turkistonda turib faoliyat olib bordilar. Vaqtli matbuotimizda uchrovchi "Sayyoh", "Bir musofir", "Samarqandiy", "Buxoroli", "A.F", "Qardosh", "Muxbir" [18, 52] kabi imzolar aynan Turkistonda faoliyat olib borgan tatar, turk muxbirlarga tegishli edi. Shu bilan bir qatorda, turkistonlik jadidlar M.Behbudiy, M.Shermuhammedov, Cho'lpon, Mo'minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoevlar "Tarjimon", "Sho'ro", "Vaqt", "Ulfat" kabi tashqi davriy nashrlarda faol ishtirok etishdi.

Turkistonda ham “Tarjimon”, “Mulla Nasriddin”, “Iqbol”, “Turk yurdu”, “Sho‘ro” mushtariylari ko‘paydi. Jumladan, Orenburgda nashr etilgan “Sho‘ro”(1908 – 1918) jurnalining sahifalari ham turkistonlik va tatar ziyolilarining fikr almashish va aloqa maydoni bo‘lgan edi. Behbudiy, Cho‘lpon, So‘fizoda, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhamedov, Sadriddin Ayniy, Lutfullo Olimiy, Ajziy, Mo‘minjon Muhammadjonov, Rojiy Xolmuhammad Oxundiy kabi taraqqiyparvarlarning ushbu jurnaldagi muntazam ishtiroki [18, 56] ham bunga dalil bo‘la oladi. Umuman olganda, ushbu gazeta-jurnallar Turkiston matbuoti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishdi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi. Tashqi davriy nashrlarda Turkiston mavzusi alohida o‘rin egallay boshladi. G‘arb adabiyotidan tarjimalar amalga oshirila boshladi. Jadidlarning mana shunday adabiy-madaniy aloqalari, asosan, ikki xil yo‘lda rivoj topgan. Birinchisi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘plab madaniyat, san‘at, ta‘lim xodimlarining, ijodkorlarning bir-birlari bilan bevosita aloqada bo‘lganlari, sayohatlar davomidagi tanishuvlar, Turkiston o‘lkasida muqim yoki uzoq vaqt yashab, hamkorlikda ijod qilish yo‘li bo‘lgan. Ikkinchisi, matbuot sahifalari orqali tanishuv, tanituv, ta‘srilanuv yo‘lidir. Va nisbatan bu ikkinchi yo‘l ko‘proq ta‘sirga ega bo‘lgan. Bizdagi muvaqqat nashrlarda nafaqat turkistonliklar, balki turk, tatar, afg‘on, eron shoirlarining ham o‘z ijodiy namunalari bilan faol qatnashganliklarining guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, Rijoizoda Mahmud Akrom, Dog‘istoniy, Kafkoziy, Javdat, Shayx Olim Eroniy, Mahmud Tarziy, Zuhuriddin Fathiddinzoda kabi shoirlar ijodini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga, ingliz, nemis, xitoy adabiyotidan qilingan tarjima asarlar alohida o‘rin egallaydi. Gyotening “Faust” (parcha), D.Defoning “Robinzon Kruzo” asari, xitoy nasridan namunalarni misol qilib keltirish mumkin.

Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No‘shiravon Yavushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov kabi bir qator ziyolilarning tanqidiy maqolalari, tahlillari turkistonlik jadidlarning, ijtimoiy qatlamning fikriy uyg‘onishida muhim o‘rin tutgan. Turkiston matbuoti nashrlarida uchrovchi iqtiboslar o‘zbek, turk, tatar, ozarbayjon, eron, arab uyg‘onish harakati vakillarining bir-birlari bilan matbuot orqali har doim munosabatda bo‘lganiga yana bir dalili bo‘la oladi. Aslida, rus va xorij matbuotidan iqtiboslar berib borish mahalliy matbuot uchun senzura o‘rnatgan talablardan biri bo‘lgan. Ko‘pchilik muharrirlarning matbuot ochishga ruxsat olish uchun tayyorlagan dasturlarida mana shu band ham qayd etib o‘tilgan [7, 190]. Sababi, ularning o‘zi ham muntazam ravishda tashqi davriy nashrlar bilan tanishib borganidek, o‘z gazeta va jurnallari uchun ulardagi eng ahamiyatli xabarlardan iqtiboslar olgan. “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz”, “Saboh”, “Quyosh”, “Chehranamo”, “Al-Hilol”, “Sho‘ro”, “Mulla Nasriddin”, “Islom majmuasi”, “Siroju-l-axbor” kabi vaqtli matbuot nashrlaridan keltirilgan iqtiboslarni deyarli barcha nashrlarda kuzatish mumkin.

Xulosa

XIX asr oxiri XX asrboshlarida adabiy jarayon siyosiy ijtimoiy jarayonlar bilan yonma-yon faoliyat olib bordi. 1905 – 1917 yillar jadid adabiyoti uchun eng qizg‘in va hal qiluvchi davr bo‘ldi. Matbuot jadidlar dasturini amalga oshirishda minbar sifatida xizmat qildi. 1905-yilgi Oktabr Manifesti milliy matbuotning boshlanishi uchun siyosiy turtki bo‘ldi. Adabiyotning qiymati ijtimoiy hayot bilan, ijtimoiy faollik bilan belgilana boshladi. 1906-yildan boshlab Turkistonda milliy gazeta va keyinroq jurnallar nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi. Jadid adabiyoti qisqa, shu bilan birga, shiddatli davrda kechdi, juda murakkab adabiy jarayonni boshidan kechirdi.

Matbuot turkistonlik ziyolilarni tashqi dunyoga chiqishlarida muhim vosita bo‘ldi. Turk, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlarining teatr, matbuot, maorif sohasidagi tajribalari qo‘llanila boshlandi. Jadidlarning adabiy-madaniy aloqalari, asosan, ikki xil yo‘lda rivoj topgan. Birinchisi, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘plab madaniyat, san‘at, ta‘lim xodimlarining, ijodkorlarning bir-birlari bilan bevosita aloqada bo‘lganliklari, sayohatlar davomidagi tanishuvlar, Turkiston o‘lkasida muqim yoki uzoq vaqt yashab, hamkorlikda ijod qilish yo‘li bo‘lgan. Ikkinchisi, matbuot sahifalari orqali tanishuv, tanituv, ta‘srilanuv yo‘lidir. Va nisbatan bu ikkinchi yo‘l ko‘proq ta‘sirga ega bo‘lgan. Tashqi davriy nashrlarda Turkiston mavzusi alohida o‘rin egallay boshladi. G‘arb adabiyotidan tarjimalar amalga oshirila boshlandi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Abdirashidov, Zaynabidin. 2016. Turkiston jadidlari va milliy g'oya targ'iboti / Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Toshkent
2. Abdirashidov, Zaynabidin. 2014. Study of Jadidism in Independent Uzbekistan. Asian Research Trends new Series №9.
3. Ahlulloh bin Xayrulloh. 1907. Xo'qand maktub. Tujjor. 9.
4. Abdulla Avloniy. 1993. Burungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi / Milliy uyg'onish. Toshkent
5. Ayn. Muzaffarzoda. 1915. Til va imlo masalasi. Sadoyi Turkiston. 63.
6. Biz musulmonlarni hurriyatda haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz marta yo'q. 1906. Taraqqiy. 1.
7. Дўстқораев, Бойбўта. 2009. Ўзбекистон журналистikasi тарихи. Тошкент.
8. Farmoyishi oliy. 1905. Turkiston viloyati gazet. 42
9. Manifest. 1906. Taraqqiy. O'rta Osiyoning umrguzarlig'i gazet. 1
10. Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li. 1907. Duma va Turkiston. Tujjor. 8.
11. Mahmudxo'ja Behbudiy. 1915. Til masalasi. Oyina. 12
12. Muharram Namangoniy. 1914. Tilimizga qoidaning luzumi bormi? Sadoyi Turkiston. 64.
13. Munavvarqori Abdurashidxonov. 1906. Bizni jaholat – jahli murakkab. Taraqqiy. 1.
14. Muftiy dorulqazo Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li. 1907. Felyatun. Tujjor. 13.
15. Nazarov, Baxtiyor. va b. 2012. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent.
16. Qosimov, Begali. 2011. Уйғонган миллат маърифати. Тошкент. 2011.
17. Qosimov, Begali. va b. 2004. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент.
18. Qosimov, Begali. 2002. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент
19. Qosimov, Begali. 1986. Салом, келажак. Тошкент.
20. Саид, Зиё. 1974. Танланган асарлар. Тошкент.
21. Sodiqov, Sanjar. 2011. Haqiqat va adolat quyoshi. Toshkent.
22. Saidov, Ulug'bek. 2004. Yevropa ma'rifatchiligi va milliy uyg'onish. Toshkent.
23. Чаён. 1906. Айтсанг айбларин очу, айтмасанг ҳақни босу. Тарақкий. 14.

IS'HOQXON TO'RA IBRAT SHE'RIYATINING MAVZU KO'LAMI VA JANR XUSUSIYATLARI

**Ozodaxon BOLTABOYEVA,
O'zbekiston, NamDU, PhD**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandasi, jamiyatshunos olim, pedagog, publitsist, tilshunos, tarixshunos, taraqqiyparvar shoir Ibrat lirikasining mavzu ko'lami hamda she'rlarining janr xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ishqiy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va hajviy lirika, g'azal, musaddas, yangi davr adabiyotiga xos tamoyillar.

Is'hoqxon To'ra Ibrat ijodida mumtoz adabiyot an'analari bilan birga zamonaviy adabiyotga xos tamoyillar aks etgani kuzatiladi. She'rlarida ham mumtoz adabiyot an'alarini davom etishi, ham yangi davr adabiyotiga xos xususiyatlar bo'y ko'rsatishi, ya'ni bir vaqtning o'zida ikki jarayon yonma-yon kechganligi shoir mahoratini, uning yuksak salohiyat egasi ekanini anglatadi.

Is'hoqxon to'ra Ibrat nazmiy ijodida o'z fikr-u-qarashlarini, orzu-umidlarini sodda, lekin ta'sirli ifoda etadi. Uning she'rlari o'zining mazmuni va ilgari surgan g'oyalariga ko'ra xalqchil, insonparvar xarakterga ega. U ijtimoiy hayotda yuz berayotgan har bir yangilikni, ilm-fan yutuqlarini o'z she'rlarida aks ettirib, ushbu jarayonlarga munosabat bildirgan olgan hozirjavob shoirlardan sanaladi.

Ibrat lirikasi **ishqiy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va hajviy** mavzularda yaratilgan.

Shoir ishqiy g'azallarida o'ziga xos tasvir usulidan foydalanib, hayotiy ishq vositasida ilohiy go'zallikni tarannum etadi. Masalan, shoir quyidagi g'azalning har bir misrasida ma'shuqa go'zalligini ta'riflar ekan, uning ko'zi o'z yuzidan taralgan nuri tufayli munavvar ekanini aytadi:

*Ey niholi qomati sarvi sanavbardin o'tar,
Lablarin qirmizligi shahd-u shakkardin o'tar.*

*Yuzlari ko'z nurini aylar munavvar har zamon,
Ko'zlari shu'lasi obdori gavhardin o'tar [1, 49].*

Shoir ma'shuqa qomatini sarvi sanuvbardan, labini shahd-u shakardan ustun qo'yib, ko'z o'ngimizda tengsiz bir go'zallikni gavdalandiradi.

Ibrat lirikasi sodda va ravonligi, vaznlarining o'ynoqiligi, tasvirlarning o'ziga xos yuksak badiiyat bilan yaratilganligi jihatidan ahamiyatlidir:

*Ey yori sumanbari yagona,
Bayzo ruhi charxi oshiyona.*

*Hajring o'ti ichra man talabgor,
Vaslingda chu sham'i yona-yona.*

*Dargohingga bosh qo'yarg'a ko'nglum,
Aylar edi nomozni bahona [1, 48].*

Ilohiy ishq tarannum etilgan ushbu g'azalda "sumanbar – oqbadan", "bayzo – oq, ravshan" so'zlarini qo'llagan shoir "yagona yori sumanbar", "charxi oshiyondagi bayzo ruhi" kabi bir-biriga mutanosib obrazlardan foydalanib, **tanosub** san'atining go'zal namunasini yaratadi. Ma'shuqa vasliga yetish istagida bo'lgan oshiq hajr o'ti, ishq olovi ichra shamdek yonishga rozi ekanini aytadi. An'anaviy tarzda oshiq parvonaga, sham esa ma'shuqaga tashbeh etiladigan tasvirdan chekingan shoir o'zini shamga qiyoslamogda.

Uning "Tarixi chopxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Turkiston ahlig'a xitob", "Gazeta xususida", "Tabrik Namangondin", "Tarixi manzumayi vagon Ibratdin yodgor" kabi she'rlari Vatan, yurt istiqboliga bel bog'lagan fidoyi inson nafaqat nasriy, publitsistik asarlarida, balki she'riyatda ham o'zining xalqona ohangini yarata olganligini bildiradi. XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayotning turli o'zgarishlari shoirlar ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular she'riyatining shakl va mazmun chegarasi o'zgardi. Bu jarayon yangi jamiyat hayotiga faol aralashuv, an'anaviy ishqiy-tasavvufiy mavzulardan chekinib, asosan, ijtimoiy-siyosiy mavzularda qalam tebratish ehtiyojini tug'dirdi. Jumladan, Ishoqxon Ibratning "Tarixi traktur" she'rida ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan dolzarb mavzu qalamga olingani bois, yangi davr adabiyotiga xos tamoyillar asosida baytlar miqdori oshgani kuzatiladi, ya'ni 7, 9 baytli g'azal yozishga odatlangan Ibrat ushbu g'azalda ijtimoiy yangilik haqidagi qarashlarini 16 baytda ifodalaydi.

XX asr boshlarida qozilik mansabi yuqori tabaqaning boyish manbalaridan biri hisoblanar va ayrim qozilar boylar bilan kelishib, o'z huquqini bilmaydigan fuqaroni bor-yo'g'ini shilib olishni kasb qilib olgan edi. Bunday qozilarni o'zbek ma'rifatparvar shoirlari Muqimiy "Dodxohim", Zavqiy "Voqeayi qozi saylov", Shavqiy "Ahli riyo", Ochildi Murod Miriy "G'azali dar e'tiroz", Is'hoqxon to'ra Ibrat esa "O'lursan" va "Qoziyi qotil" nomli g'azallarida asl manzarasini tasvirlab, xalqni hushyorlikka chaqirishgan. Ibrat nomigagina qozi bo'lib olib, shariat qoidalariga zid ish yuritadigan din peshvolaridan, munofiq qozilardan xalqni himoya qildi. U haqiqatgo'y, hurfikir, o'qiganiga amal qiluvchi haqiqiy musulmon kishi edi, shuning uchun ham o'z ijodida zo'ravonlik bilan kun ko'ruvchi, poraxo'r qozilarni qo'rqmay tanqid qilgan. Masalan, "Qoziyi qotil" g'azalida ko'rinishidan haqiqatgo'y, shariatpesha musulmon, hayotda esa qabih, munofiq bo'lgan qozini shunday tasvirlaydi.

Ibrat o'zbek va fors tilida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. Uning fors tilidagi she'rlari "Turkiston viloyati gazetini"ning ayrim sonlarida uchraydi. Masalan, Ibratning "Tarixi hammom" she'ri fors tilida, g'azal janrida yozilgan. 16 baytdan iborat bo'lgan ushbu g'azal 1905-yil Ibratning o'z hisobidan qurdirgan hammomi ta'rifi haqida:

*Sayyidi Is'hoqxo 'ja dono,
Qozi shar'i millati bayzo.
(Sayyidi Is'hoqxo 'ja dono millat oftobi, shariat qozisidur)*

*Kard hammom baroye naf' avom,
Az inoyat Qodiri yakto.
(Qudratli va tengsiz Alloh inoyati bilan xalq manfaati uchun hammom bino qildi)
Onki oyad darun garm obe,
G'usl oyad ba xonai tanho.
(U yerda cho'milish uchun alohida xona, issiq suv mavjud)*

*Bizu kuronos mug'tasili,
Har yaki ro namudand judo.... [2, 3]
(Har bir ayol-u erkak uchun alohida cho'milish xonasi ajratilgan)*

Ibratning ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan tarix she'rlari publitsistik maqolalarida ham berib borilgan, jumladan, 1903-yil 8-martda "Turkiston viloyatining gazet" № 9-sonida shoirning tarixiy mavzudagi "Voqeayi zilzilayi Andijon" tarix-she'ri chop etilgan.

1902-yil 10-dekabrda sodir bo'lgan ushbu zilzila tafsilotlari va andijonliklarga berilayotgan yordam haqida she'r bitgan ko'plab shoirlar ijodi "Turkiston viloyatining gazet"da muntazam berib borilgan. Masalan, bu zilzila haqida Olim, Muhyi, Rahimxo'ja eshon, Ostonaqul Muhammad, Muqimiy, Xo'jaxon qozi, Fozil Yunusxon o'g'li, Sho'hiy va Said Abdumajid Shavqiy kabi o'nlab shoirlar marsiya yozishgan.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida Karimbek Kamiydan so'ng Is'hoqxon to'ra Ibrat ham Andijon zilzilasi bilan bog'liq o'n uch bandli musaddas shaklida she'r yozgani va bu tarix she'r o'ziga xos uslubda ya'ni, **aruzning ramali musaddasi maqsur** vaznida yaratilgani ma'lum bo'ldi. She'r zilzila tufayli ko'p talofot ko'rgan andijonliklarga hamdardlik bildirish ruhida yozilgan. Zilzila tafsilotlari haqida shoir Allohning hukmi bilan ramazon oyining o'n beshinchi kunida Andijonda kuchli zilzila yuz bergani, bu vaqt soat tungi ikki yarim bo'lib, jumla aholi ro'zadorligi haqida bayon etadi:

*Eshiting ey dahr eli, xalqi jahon,
Fe'li falak fitna hadas tav'amon.
Bo'ldi Qadar hukmi bila Andijon,
Munhadam ul shahri vo tolofi jon.
Ketti bino boshi tahi po o'lub,
Tarix ango zilzila g'abro o'lub.....[3, 2]*

She'rda jamiyatdagi adolatsizlik, fitna va ig'volarning haddan oshib ketishi, halollik va barakaning yo'qolganligi bois zilzila yuz berganligi haqida aholi orasida tarqalgan turli-tuman mish-mishlar ham qalamga olingan. Musaddasda zilzila tufayli madrasa-masjidlar vayron bo'lgani, ularni tiklash uchun ko'p mablag' ketishi va yuz bergan zararni qoplash uchun keltirilayotgan yordam haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Musaddasning takrorlanib keluvchi ikki misrasida shoir zilzila sodir bo'lgan sanani abjad hisobida she'rga soladi. Maqola so'nggida: "Ulul alboblarg'a ma'lum va makshuf o'lg'oykim, zilzilayi g'abro o'lub Ibratidydin. Bino boshikim harf "B" dur. Isqot qilinsa, bir ming uch yuz yigirma hosil bo'lsa kerak", – deb, zilzila hijriy 1320-yil, milodiy 1902-yil sodir bo'lganligi bayon etilgan. Ushbu musaddasda qo'llangan "bu tun", "butun" so'zlari orqali ham **tajnis** san'atidan foydalanib, ajoyib so'z o'yini hosil qilingan va bundan sezish mumkinki, Ibratning san'atkorlik mahoratini, uning asarlaridagi badiiy mahorat masalalarini yoritish tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ibratning tarix san'ati aks etgan asarlari adabiyotshunoslikda bir necha tarixiy ma'lumotlar sanasini aniqlashda o'ziga xos o'rin tutadi. Uning lirik merosi insonlar qalbiga ezgulik, ishonch, saxovat va go'zallik hadya etgan bo'lsa, bu tuyg'ularni his eta olganlar hayotiga, albatta, yuksalish, ilm-ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat kirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.49.
2. Turkiston viloyatining gazet, 1905. – № 23.
3. Turkiston viloyatining gazet, 1903 yil, 8 mart. № 9-son.

JADID HAJVIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHI

Gulruxbegim RAVSHANOVA,
O'zbekiston, QarDU, PhD, dots.

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida paydo bo'lgan va rivojlangan jadidlar hajviyotining rivojlanish bosqichi hamda jadid she'riyatida hajvnavislik hodisasining poetik talqinini aniqlashda hajviy she'riyatdagi mavzu, muammo, g'oya, pafos kabi tushunchalarning terminologik ma'nolariga aniqlik kiritildi.

Kalit so'zlar: yumor, tanqid, satira, hajvnavislik, jadid, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

Hajviyotning o'zbek she'riyatida tadrijiy takomili va badiiyati o'z-o'zidan yuzaga kelgan adabiy hodisa emas. Negaki, tarix sahifalarida aks etgan faktlar bugun o'zining haqqoniy qiyofasini namoyon qilishga imkon tug'dirdi. Biz ana shu mezondan turib, hajvning tadrijiy takomili va badiiyatiga munosib baho berishga erishamiz. Demak, buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning quyidagi fikrlari nihoyatda muhimligi bilan ahamiyatlidir:

“Har qanday san'at asarining fazilatlarini uchta xususiyat bilan belgilanadi:

1. Asarning mazmuni bilan: mazmun qanchalik salmoqli bo'lsa, ya'ni odamlar hayoti uchun muhim bo'lsa, asar shuncha yuksak bo'ladi.

2. Tashqi go'zallik bilan: bunga san'at jinsiga mos keladigan mahorat orqali erishiladi.

3. Samimiyat bilan, ya'ni muallif tasvirlayotgan narsasini o'zi jonli tarzda qabul qilishi bilan. Bu shartlarsiz har qanday san'at asarini qabul qilayotgan odamga muallif tuyg'usini yuqtirish amri maholdir”.

Yunon faylasufi Epikur qayd etishicha: “Chindan ham, biz ijodiy izlanishlar chog'ida o'zimiz anglay olmagan narsa-hodisalarga oid fikrlarimizdan to'g'ri xulosalarga kelishimiz zarur. Buning uchun har bir so'zning isbot talab qilmaydigan birlamchi, asl mohiyatini bilishimiz zarur. Shundagina sezgi-tuyg'ularimizga, favqulodda fikriy portlash imkoniyatlariga, taassurotlarga va boshqa mezonlarga tayansa bo'ladi”. Bu fikrlarga necha ming yil bo'lgan esa-da, hozir ham dolzarbligini yo'qotgan emas. Shu ma'noda, ijodkordagi kuchli depressiya (shodlik va g'am g'ayg'u) mevasi uning kim ekanligini va qanday mahoratga egaligini to'laqonli namoyon etishga qodirdir.

Shuni qayd etish kerakki, bu xildagi kayfiyat nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonning ilg'or mamlakatlarida ham inson qadri, haq-huquqlarini teran taniy borishi, ong va tuyg'uning o'sishi, millatlararo strategik aloqalar turfaligi ham bir-biriga ta'sir qiluvchi katta adabiy kuchni hosil qilganligi ayni haqiqatdir. Negaki, inson botinidagi istak-xohishlar vaqt o'tishi bilan davr zulmidan omonda bo'lish, o'zining inson ekanligini anglab yetish borasidagi azim tushunchalarning hayotga moslashishi natijasida yanada mustahkamlana bordi. Mumtoz asarlar ruhiyatidan ibtido olgan hajviy munosabat inson taqdiriga mas'ul bo'lgan xalq rahbarlarining azal-azaldan sira kelishib bo'lmas darajada kurtak otishi natijasida yanada boshqacha rakursda poetik talqin qilinishiga sabab bo'ldi. Ba'zan o'zidan chiqqan xon va beklarning zulmidan aziyat chekkan avom, vaqti-vaqti bilan tashqarining yovuz kuchlari negizida sodir bo'lishi tabiiy bir hol edi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ma'rifatparvarlik va jadidlar davri adabiyoti chorrohasida mazkur janr o'zining shakli shamoyili hamda ifoda tarzini ranginlashtirdi. Bu haqda so'z yuritgan muqimiyshunos olim G'ulom Karimov shunday yozadi: “Muqimiy ijodiy merosida hajviyot (satira va yumor) salmoqli o'rinni ishg'ol qiladi. Muqimiy hajviyoti uning ijodidagi asosiy motivlar bilan organik ravishda bog'liq bo'lib, shoir qiyofasini to'liq tasavvur qilishga, ma'rifatparvar shoir sifatida xarakteristikasini berishga yordam qiladi”. Ko'rinadiki, mazkur janrning ilk ildizlari xalq dostonlari (folklor)ga borib tutashuvini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Millatning genetik rivoji va odamlarning yashash uchun kurash singari azaliy qadriyatlari lirik yo'sinda aytilgan qo'shiqlarning arxitektonikasini tizimlashtirishga yo'naltiriladi. Bu o'z-o'zidan mavjud janr adabiyotda yashovchanlik kasb etib, u turli xil asarlar bag'rida sinkretik yo'sinda inkishof qilinib kelingani ravshanlashadi.

Adabiyotshunos Q.Yo‘lchiyev davrga baho berar ekan shunday fikrlarni ilgari suradi: “XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib she‘r strukturasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Buning bosh sababi ikki asr o‘rtasidagi katta ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlardir. Chunki o‘sha davrda dunyo bo‘yicha o‘z davri uchun global voqealar yuz berayotgan edi. Bunda texnokratik va qudratli davlatlar ustunlik qilayotgan, dunyoni bo‘lib olish uchun kurash ketayotgan edi. Natijada hayotda jiddiy o‘zgarishlar, xalqimiz uchun urf bo‘lmagan odat va yangiliklar joriy etilayotgan payt edi. Mazkur muammolar ijtimoiy hayotning aksi sifatida adabiyotda ham iz qoldirdi. Avvalo an‘anaviy she‘riyatdagi voqelikni tashkil etish va badiiy matnga olib kirishdagi subyektivlikning ko‘pligi, ularni real hayotdagi muammoni hal qilishda, tasvirlashda o‘ta jimjimadorlik va ramziylik miniatyuraviylikning kuchliligi, o‘quvchini mazkur shakldagi so‘z san‘atini tushunishdagi qiyinchiliklari kabi muammolar she‘r strukturasiga o‘zgarishlar olib kirdi”. Natijada shuni qayd etish zarurki, XX asr boshlarida jadidlarning g‘oyat keskin yurishlari badiiy shakl takomilida Arastu e‘tirof etgan adabiy tur va janrlarning turfalashuviga keng zamin tayyorladi. Ba‘zan nasr (Qodiriy), nazm (Cho‘lpon, Hamza), dramaturgiya (Avloniy, Behbudiy, Fitrat) sohasida Turkiston jumhuriyatining umummilliy strategiyasi, adabiyotning mafkuraviylashuvi, milliy o‘zlik va ozodlik uchun mislsiz kurashlar, ziddiyatlar, to‘qnashuvlar oqibatida yanada o‘z mavqeini namoyon qilganligi haqiqat. Sabab shuki, chinakam ziyolilar o‘zidan oldingi davrlar hayotida parokanda bir holatga kelib qolgan islohotlarni qabul qilishmadi. Badiiy shakl tarixida kuchli tanqidiy ruh teranlashdi. Inson taqdiri, intellektual kapitalga bo‘lgan intilishlar, millat kelajagi yo‘lidagi say‘-harakatlar yanada barqarorlashdi. Mavjud aqidalarga tamomila zid va qarshi chiqish jadid ma‘rifatparvar ziyolilarining oliy e‘tiqodi va burchiga aylandi. Cho‘lponu Qodiriylar, Fitratu Behbudiylar yaratgan asarlar markazida Ulug‘ Turkiston qayg‘usi turganligi hech kimga sir emas.

30-yillar ostonasida “Qizil qalam” tashkiloti va 1937 yilgi qurultoyga qadar hukm surgan sho‘ro aqidalari mavjud tuzumga qarshi chiqqan ziyoliki bor, barchasini birma-bir hayot sinovidan, so‘rog‘idan o‘tkazdi. Ko‘pchilik millatparvarlar hibsonalarga tashlandi, Sibirga surgun qilindi. Badiiy adabiyot ana shu yerda o‘zining ijtimoiy inqirozi sari katta qadam tashlashiga to‘g‘ri keldi. Azaldan xalq dushmani sifatida qaralgan tafakkur sohiblari adabiy hayotning manzaralarini ikki xilda tasavvur qilishga bel bog‘ladi. Ayni shu pishib yetilgan ma‘naviy-madaniy tanazzul misli ko‘rilmagan yo‘qotishlarning sodir bo‘lishiga bosh omil bo‘ldi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

XX asr adabiy hayotining tuzum yo‘riqnomasiga bo‘yin sunishi sobiq ittifoqining yakkahokimlik siyosatini avj olishiga turtki bo‘ldi. Aynan mana shu jihat hajviyot janrida davr muammolarini aks ettirishning turli yo‘sin va usullarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Urush va urushdan keyingi adabiy hayot zamzamarlarida hajviy izlanishlar bir muncha turg‘unlik tamoyiliga aylangan bo‘lsa-da, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oybek singari adibu shoirlar izlanishlarida “yashab qolish” malakasini namoyon qilib ulgurdi. G‘.G‘ulomning “Shum bola”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning she‘riy asarlari kuchli tanqidiy ruhni “kulgi” zamirida aks ettirish tamoyilining vujudga kelishiga poydevor bo‘ldi.

XX asrning 20-30 yillarida hukm surgan adabiy kayfiyat xalqning turmush tarzini yaxshilash va ta‘lim, tarbiyani hayot-mamot masalasi sifatida og‘riqli masalalardan biri deb qaragan jadidlarimiz ijodida hajviyot boshqacha tarzda yangradi. Kulgi va iztirob birligi adabiy asarlarda sintezlashuv jarayonini tubdan yangilab yubordi. Raqamlarga e‘tibor beraylik. 1850 yildan keyin xonliklar tanazzuli badiiy solnomalarda aks etgani o‘z yo‘liga, ijtimoiy dard salmog‘i ortib borgan sayin odamlarning kelajakka ishonchi mavjud tuzum iskanjasida “bo‘g‘ila” boshladi. Bu esa, o‘z navbatida Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi millatparvarlarning orzu-umidlari adabiy asarlarda qattiq siquvga olingani bilan ham ham belgilanadi. Nima sababdan? Nega? Kabi savollar jadidlar botinida bitmas iztirob bo‘lib dunyoga kelaveradi. Ulug‘ Turkiston qayg‘usi jiddiy adabiyot shaklida ham, satirik shaklda ham o‘z borlig‘ini namoyon qilishda davom etishini bugun hech birimiz unutmaymiz. Garchi olomonga nima kerakligini ham ular yaxshi bilishadi. Din peshvolarining betaqvoligi, iymonga kufr yetishi, zalolatning urchishi chinakam ziyolini tashvishga solgani sir emas.

Qodiriy asarlarida jiddiyat ham o'ziga xos tarzda ifoda qilingani o'quvchini teran o'yga toldirishi shundandir:

“Qildi bu vaqt bizda javlon to'y,
Oqchasi yo'qni etdi hayron to'y.
Bir-biridin oshurdilar to'yni,
Topdi ravnaq, g'ayrati-la bayon to'y.
Besh kun o'tmay to'yni so'ngidin,
Ketibon mulklar bois fig'on to'y...
Ey g'aniylarimiz, ey faqirlarimiz,
Amr etibdurmu bizg'a Qur'on to'y?!” [3, 24]

Turkistonning boshiga yog'ilayotgan kulfatlarni jiddiyat bilan tasvir etarkan, Qodiriydek ijodorni tavishlantirishi haqiqatdir. Biz bu ahvolotdan xabarni uning nafaqat she'riy, balki nasriy asarlarida ham kuzatamiz. Mana, birgina misol “To'y” radifli she'rining o'ziyoq fikr-mulohazalarimizni to'laqonli tasdiqlab turibdi. “To'y”ning zahmatidan bir iztirob cheksa, bu umumkayfiyatga aylanib borayotgan isrofgarchilik illatidan yana qayg'uga cho'madi. “Ahvolimiz” she'rida ham yozuvchi hajv va iztirobni jiddiy tarzda bayon qiladi. Bir qarashda shoirona lutf va imo, belgi uni millat kelajagini o'ylaydigan ziyoli sifatida teran iztirobga botiradi. Uning istagi qaniydi xalq zor bu g'aflatdan tezroq uyg'ona degan ichki bir nurli istak turganini payqash qiyin emas.

Tarixga e'tibor bersak, hajviy polotnolarning tug'ilish omillari XX asrdagi kabi ko'p va xo'p inkishof qilingan emas. Butun dunyo bo'ylab hukm surgan “bo'lib olish va boshqarish” instinkti insoniyat tarixida misli ko'rilmagan yakrangliklarni keltirib chiqargani sir emas. Akademik Naim Karimov bu haqda shunday yozadi: “O'tgan asr boshlarida Turkiston xalqining og'ir iqtisodiy ahvolda yashaganining asosiy sababi o'lkadagi tuzumning chirigani, mamlakatning bir necha asrlar davomida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy buhronni boshidan kechirganidir. Lekin shu bilan birga shu davrda ba'zi bir “milliy” odatlar ham bo'lganki, ular shu og'ir vaziyatning yanada mushkullanishiga sabab bo'lmay qolmagan. Agar shu odatlardan biri to'y bo'lsa, ikkinchisi giyohvandlik, uchinchisi xotinbozlik va to'rtinchisi – eng asosiysi esa ilmsizlikdir. Bu qusurlarning hammasi xalqni chirmab tashlagan nodonlikning oqibati edi. Jadid ma'rifatparvarlari ana shu to'rtta illatga – nodonlik va jaholat oqibatlariga qarshi yakdillik bilan kurash olib bordilar”. Darhaqiqat, jadid ma'rifatparvarlari tomonidan bildirilgan vaqtli matbuotdagi chiqishlar xoh u jiddiy tarza, xoh u kulgili, satirik ruhda bo'lmasin, qay yo'sinda bo'lishidan qat'iy nazar milliy g'urur va ongni o'stirish, g'aflat uyg'usidan xalqni tezroq uyg'otish bo'lgan. Bular u yoki bu tarzda hajv yo'li bilan ham xalqqa yetkazilib, zora ularga ta'sir qilish maqsadida bitilgan. Mazkur urinishlar darmaturgiyada ham salmoqli o'rini egallaydi. Behbudiyning “Padarkush”, Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Avloniyning “Advokatlik osonmi?” asarlaridagi kulgi zamiridagi iztirob ana shu illatlarga qarshi turishga N.Karimov ta'kidlagan 4 ta unsurga qaratilganligi bilan e'tiborga shoyondir. Demak, Ulug' Turkiston qayg'usi millat ziyolilarining birinchi ishi, tashvishi va kelajakka umid hamda ishonchning zaminidir desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. – T., “G'.G'ulom ASN”. 2019. –B.31.
2. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. – T., “FAN”. 2008. - B.55.
3. Nazar Eshonqul. Mendan “men”gacha. – T., “Akademnashr”. 2014. – B.185.
4. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. – T., “Sharq”. 2003. - B.12.
5. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T., “Akademnashr”. 2010. – B. 139-140.
6. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – B.308.

7. Yoʻldoshev Q. Soʻz yolqini. – T., “Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2018. – B.258.
8. Vohidov E. Sheʼr dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. – T., “Sharq”. 2001. – B.180.
9. Shukurov N. Jonim – sheʼriyatim. Oʻzbek adabiy tanqidi. Antologiya. – T., “Turon-Iqbol”. – B.104.
10. Karimov N. Uch buyuk siymo. – T., “Mumtoz soʻz”. 2019.

BEHBUDIYNING ADABIY TANQIDGA DOIR QARASHLARI

Oybarchin ABDULHAKIMOVA,
Oʻzbekiston, TDOʻTAU, PhD

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxoʻja Behbudiyning adabiy tanqidning mohiyati, estetik va ijtimoiy vazifasi, dramatik asarlarning ilmiy tasnifi, teatrning adab va ibrat maktabi sifatida Vatan va millat taraqqiyida tutgan oʻrni haqidagi qarashlari ilmiy baholangan. Adibning “Tanqid – saralamoqdur”, “Teyotr nadur” singari maqolalari zamonaviy milliy tanqid takomilida alohida oʻrin tutishi, muallif adabiy-estetik qarashlarini toʻlaqonli ifoda etishi tahliliy asosda dalillangan.

Kalit soʻzlar: tanqid, munaqqid, drama, teatr, adabiy-estetik qarash, metodologiya, tanqidiy fikr.

Zamonaviy oʻzbek tanqidchiligiga milliy uygʻonish davrida asos solindi. Abdurauf Fitratning oʻzbek mumtoz va milliy uygʻonish adabiyotiga oid tadqiqotlari, Choʻlponning mashhur “Adabiyot nadir”, Abdulla Avloniyning “Sanoeʼ nafisa”, Abdurahmon Saʼdiyning “Goʻzal sanʼat dunyosida” maqolalari, Vadud Mahmudning adabiy tanqidga oid asarlari ana shunga xizmat qildi. Mazkur mualliflarning faoliyati adabiy tanqid rivojiga samarali taʼsir koʻrsatganini eʼtirof etgan holda, taʼkidlash zarurki, Mahmudxoʻja Behbudiyning bu boradagi ishlari alohida eʼtiborga molikdir. Zero, professor Begali Qosimov alohida taʼkidlaganidek: “Behbudi adabiy tanqidga katta eʼtibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan soʻng Bu sohaning xos xususiyatlarin tayin etib, adabiyotda uning tenghuquqliligi masalasini oʻrtaga qoʻydi” [4, 226].

Adabiy tanqidga taʼrif berish ehtiyoji sezilsa, adabiyotshunos olimlari munaqqidlarimiz bugungi kunda ham Behbudiyning “Tanqid – saralamoqdur” degan iborasini takror va takror tilga oladilar. Negaki, bu taʼrifda adabiy tanqidning nafaqat vazifasi, balki asl mohiyati teran ifodalangan. Ulugʻ mutafakkirning shu nomdagi maqolasida esa, taʼbir joiz boʻlsa, adabiy tanqidning barcha zamonlarda ham ahamiyatini yoʻqotmaydigan yoʻli, yoʻrigʻi chizib berilgan. Boshqacha aytganda, bu maqolada adabiy tanqidning metodologiyasi puxta va aniq ishlab chiqilgan.

“Sarroflar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, – deb yozadi muallif, – muharrirlar ham umumiy hol va maishatqa taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa soʻz ila “tanqid” atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda oʻqulaturgon kitoblarni maʼnan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur” [1, 173].

Muallif, birinchi navbatda, tanqidning jamiyatda tutgan mavqei, unga munosabat qanday boʻlishi kerakligi masalasiga diqqat qaratadi. Uning fikricha, tanqid – nuqsonlarga munosabat bildirmoqdur. Uni dushmanlik qisatida qabul qilmaslik zarur. Faqat bir sharti bor: tanqidiy fikr shaxsiyatga toʻqinmsligi kerak. Lekin biror muallim, mudarris yoki muharrirning qilgan ishlaridan, shaxsiyatidan xaloyiqqa zarar yetadigan boʻlsa, uni tanqid qilish shaxsiy ish boʻlmay, jamiyat uchun foydali yumush hisoblanadi. Demak, Behbudiyning nuqtai nazari boʻyicha, jamiyatga, xaloyiqqa zarar keltirishi mumkin boʻlgan har qanday ish, kim tomonidan sodir etilishidan qatʼi nazar, tanqid qilinishi zarur. Muallif faqat adabiy tanqid haqidagina emas, tanqidning barcha yoʻnalishlari boʻyicha qamrovli mulohaza yuritadi. Uning fikricha, tanqiddan maqsad islohdur, yaʼni muayyan xato va nuqsonni tuzatmoqdur. Shu bois uni toʻgʻri qabul qilish zarur va bu millatning madaniy darajasini koʻrsatuvchi muhim omildir. Lekin muallif bizning

xalqimizda tanqidga to'g'ri munosabat shakllanmaganidan afsuslanadi. Mana, bu haqda u nimalarni yozgan: "Bizni(ng) Turkistonda yangi maktablar xeyli bordur. Yangi risola xeyli bosilib turubdur. Jaridalar'ga maqola va she'rilar o'qulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davriga yetishganimiz yo'q. Ittifoqo, tanqid shaklida bir nimarsa yozilsa, bizlarga qattiq tegar. Yozganlarimizni(ng) buzuqligi va fikrimizni(ng) xatoligi, ishimizni(ng) noqisligini biror kishi ko'rsatsa, achchig'imiz kelur. Va ul odamni dushman ko'rub, shaxsidan nafrat va fikrig'a norozilik bayon eturmizki, bul bizni(ng) yangidan ishg'a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur" [1, 173].

Behbudiyning yozishicha, millat taraqqiyga erishmog'i, uning madaniy darajasi yuksalmog'i uchun tanqidni to'g'ri qabul qilish, nuqsonlardan to'g'ri xulosa chiqarish zarur. Bunday munosabatning shakllanmagani esa, taassufga loyiqdir. Bu holni tezlik bilan isloh etish kerak. "Biz eskilarni ayblaymizki, – deb yozadi u, – alarga islohdan so'zlasak, chiday olmaydurlar. Ammo o'zimizning maktab, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid so'zini tinglamaymiz. Munaqqid bizni(ng) to'g'rimizg'a ming so'z ila bayoni mudao etar ekan, biz oni(ng) ichidan o'n so'zini noma'qul topib, yuzig'a urarmiz. Va yoinki vajhsiz oning so'zini raddu o'zig'a e'tiroz etarmiz. Agarda ul desaki, man sizg'a bir ming kalima nasihat yo tanqid so'yladim, durust, o'n kalimasi sizg'a bejo ekanki, qaytib oldim, to'qson to'qqiz kalimasig'a ne dersiz? Na javob berarmiz?" [1, 173-174].

Muallif aksar vatandoshlarining tanqidiy fikrni tinglash, bu haqda chuqur mulohaza yuritish darajasiga erisha olmaganini taassuf bilan qayd etadi. Kavkazlik sayyoh Muhammad Sayyid afandining Turkiston maktablari to'g'risida tanqidiy qarashlari ifodalangan maqolasiga asossiz e'tiroz bildirilganini bunga misol qilib ko'rsatadi. "Oyna" jurnalining 27, 28, 29, 30-sonlarida bosilgan tanqidiy ruhdagi chiqishiga javoban "Sadoi Turkiston" gazetasida mazkur muallifga va tahririyatga norozilik izhor etilganini "hanuz tanqidga loyiq bo'la olmaganimiz"ga dalil sifatida keltiradi. Behbudiy bundan quyidagicha xulosa chiqaradi: "...biz hanuz tanqidg'a layoqat paydo etganimiz yo'q. Yana qadima kasallarimizdan – "norizo", "xotiri qolmasinu..." illatlari hanuz ketgani yo'q... Munday ketabersa, qiyomatdan ming yil so'ngra-da, Turkistong'a taraqqiy yo'q. Agarda "xotir qolmasun" qoidasi maslak tutilsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak".

Tabiiyki, o'tgan asr avvalida aytilgan bu fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha bo'lsin yo'qotgan emas. Adibning estetik konsepsiyasi mohiyatini ifodalagan qarashlari adabiy tanqid shakllanishi va milliy zaminda takomil topishida alohida o'rin tutdi. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov aytganidek: "Mahmudxo'ja Behbudiy siyosatshunos va publitsist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi" [3, 84]. Shu bois uning adabiyot va teatr tanqidiga doir konseptual fikrlari zamonaviy adabiy tanqidning paydo bo'lishi va rivojlanishida asos-zamin vazifasini o'tadi.

Behbudiyning "Teyotr nadur" maqolasi uning adabiy-estetik qarashlarini ancha to'laqonli ifoda etgani bilan alohida ajralib turadi. Ushbu savolni qo'yar ekan, muallif "...teyotr ibratnamodur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'ziri adabiydur", deya javob beradi [2, 175]. Teatr xususida turlicha bahslar ketayotgan, yangilikni qabul qilishni istamaydiganlar teatrqa qarshilik ko'rsatayotgan bir kezda Mahmudxo'ja Behbudiyning bu maqolasi odamlarga chaqmoqdek ta'sir qildi. Ularni tafakkur qilishga, aql ko'zini ochishga undadi.

Avvalo, teatrning ijtimoiy, adabiy-estetik vazifasi xususida so'z ochgan muallif uning "va'z va tanbeh etuvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni qabih va zararini aniq ko'rsatuvchi" san'at turi ekanini ta'kidlaydi. "Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildiruvchi" ekaniga urg'u beradi. Taraqqiy qilgan millatlar teatrni ulug'lar uchun adab va ibrat maktabi deb atashiga diqqat qaratadi.

Teatrta ta'rif berar ekan, Behbudiy uni yaxshi va yomon odatlarni saralaydigan munaqqid, deya baholaydi. San'atning bu turi, muallif fikricha, alohida ta'sir quvvatiga ega. Uning yozishicha: "Har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur" [2, 175].

O'zbek tanqidchilari orasida birinchilardan bo'lib muallif dramatik asarlarning ilmiy tasnifi haqida so'z yuritadi: "Teyotrxona sahnalarida qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur". Dramatik turning uch janri: 1) fojea (tragediya), 2) mazhaka (komediya), 3) drama haqida so'z yuritir ekan, Behbudiy ulardan har birining xos xususiyatlari, birini boshqasidan ajratib turuvchi belgilariga alohida e'tibor qaratadi.

Muallif teatrning hikoyat yoki nasihat kitoblaridan farqi xususida to'xtalar ekan, san'atning bu turiga mana bunday baho beradi: "...maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur". Drama nazariyotchilarining unda yetakchi unsur harakat ekani haqidagi fikrlariga diqqat qaratilsa, Behbudiyning bundan yuz yil avval bu janrga xos ana shu xususiyatini teran anglagani hayrat va e'tirofga loyiqdir.

Mazkur maqola so'ngida Mahmudxo'ja Behbudiy o'z qalamiga mansub "Padarkush" dramasi haqida sahnaga qo'yilgani, undan kelgan daromadning maktablarga sarflangani xususida ma'lumot beradi. U o'z asarini "tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo'linsa", tarzidagi fikrlarni bildiradi. "Padarkush"ni "...kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih (nasihat asosiga qurilgan – O.A.) va nofe' (foydali) asardur" deya baho bergan vatandoshlariga minnatdorlik bildirish barobarida, asarning "qabihini yozg'on kishig'a ziyodaroq tashakkur aytmoqqa madyun" ekanini ta'kidlaydi. Shuning o'zi Behbudiyning o'zi bildirgan nazariy fikrlarga hayotda qat'iy amal qilganini, millat manfaatini o'z shaxsiy qiziqishlaridan ustun qo'ya olgan ulug' siymo bo'lganini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning tanqid haqidagi qarashlari o'sha zamonda qanchalik ahamiyatli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham shunchalik qadrlidir. Mutafakkirning tanqidga doir fikrlari, birinchidan, zamonaviy o'zbek adabiy va teatr tanqidchiligidan shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin tutdi. Ikkinchidan, tanqidchilikning metodologik asoslari ishlab chiqilishiga zamin tayyorladi. Uchinchidan, bugungi yosh avlodning adabiy-estetik va tanqidiy dunyogarashini o'stirish ishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехбудий Махмудхўжа. Танқид – сараламоқдир. – Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов). - Тошкент: Маънавият, 2006.
2. Бехбудий Махмудхўжа. Теётр надур. – Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. - Тошкент: Маънавият, 2006.
3. Жабборов Нурбой. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010.
4. Қосимов Бегали. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.

FITRAT PUBLISISTIKASINING IJTIMOY-ESTETIK TALQINI

To'liqin KENJAYEV,
O'zbekiston, QarDU, PhD, dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida Fitratning publitsistik asarlari tadqiqi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z va iboralar: publitsistika, millatparvarlik, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-estetik talqin, ilmiylik, badiiylik.

Fitratning publitsistik asarlari o'zining ijtimoiy salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida uning "Munozara", "Hind sayyohi", "Oila", "Rahbari najot" va matbuotda e'lon qilingan publitsistik maqolalari jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga, ijtimoiy davr manzarasini to'laqonli tasavvur qilishga zamin hozirlagan edi.

“Munozara”, “Hind sayyohi”, “Oila” kabi publitsistik asarlarida Fitratning adabiy-estetik dunyoqarashi turli rakursda o‘z ifodasini topgan. Chunki mazkur asarlarda adibning yozuvchilik, shoirlik, dramaturglik faoliyatiga xos adabiy uslub xossalari zohir bo‘lgan bo‘lsa, publitsistik maqolalari orqali jamiyatning ma’rifatparvar kishisi sifatida tanilgan. Olimning mana shunday serqirra faoliyati har jihatdan millat ma’naviyatini yuksaltirishda tayanch maqomida bo‘lib kelgan. Mustaqillik davrida Fitratning publitsistik adabiy merosiga munosabat tubdan o‘zgardi. Qator adabiyotshunoslar tomonidan ushbu merosni qayta tiklash va nashr etish ishlari amalga oshirildi. Negaki, publitsistika adib adabiy merosining bir qismi o‘laroq o‘sha davr adabiy muhitining asl bahosini berishda, taloto‘plarni, ijtimoiy sharoitni haqqoniy yoritishga asos edi. Qolaversa uning publitsistik asarlari va maqolalariga tayanib badiiy va ilmiy tadqiqotlarini o‘rganish an‘anasi shakllangan edi. Fitratning ijtimoiy faoliyati, jadidchilik harakati, adabiy-estetik, siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy qarashlari va tanqidiy tafakkuri ilk bor uning publitsistikasida o‘z tasdig‘ini topdi. Jadid adabiyoti bilimdoni B. Qosimov bu haqida shunday yozadi: “Fitrat ijodiy merosining muhim qismini uning nasriy asarlari va publitsistikasi tashkil qiladi. U o‘z hayoti davomida yuzlab jangovar maqolalar, o‘nlab ijtimoiy keskir risolalar, hikoyalar yaratdi. Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo‘ii matbuotida faol ishtirok etdi. Uning ilk risolalari (“Munozara”, “Bayonoti sayyohi hindi”, “Oila”, “Rahbari najot” kabi) fors tilida yozilgan. Bularning to‘rttalasi ham bugungi kunda o‘zbekchalashtirilib, nashr qilingan va ko‘tarib chiqqan mavzu-masalasiga ko‘ra deyarli har biri voqea sifatida qabul qilingan edi”[1, 382]. Haqiqatdan ham, Fitratning publitsistik ishlari jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan.

Ko‘rinadiki, B.Qosimov yozganidek, Fitratning ilk qarashlari uning publitsistik ruhda bitilgan nasriy asarida o‘z ifodasini topgan edi. Ya’ni, mudarris va farangi kabi tipik obrazlar timsolida ma’rifatparvarlik g‘oyalari talqin qilinganini ko‘ramiz. Aytish lozimki, Fitratning ayrim boshqa asarlari singari “Munozara” ham mustaqillik davriga kelib asl holicha matbuotda chop ettirildi. Aytaylik, “Munozara” asarining forsiy tildagi nusxasi ilk bor 1911 yilda (Behbudiyning so‘ng so‘zi bilan o‘zbek tilida) Turkiston viloyatining gazetida Hoji Muyin tomonidan nashr qildirilgan. Tuzum senzurasiga uchragan asarning to‘liq matni bizgacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetib kelmagani xususida B.Qosimov, H.Boltaboyev kabi olimlar o‘z mulohazalarini bildirganlar. Masalan, H.Boltaboyev o‘zining “Fitrat va jadid adabiyoti” kitobida “Munozara” asarining tug‘ilishi haqida atroflicha fikr yuritadi. Fitrat ushbu asarni nashr qildirish uchun o‘qish bilan birga Istanbul oshxonalarining birida ishlab pul to‘plagan, Turkistonga yetib kelish jarayonida yo‘lda rus senzurchilari qo‘lida asarning o‘zgartirilgani, shunday bo‘lsa-da, Turkistonda teatr sahnasida ijro qilinganini ta’kidlab shunday yozadi: “Bu tarjima sahifasiga mo‘ljallangan variant bo‘lganligi uchun, tez orada Toshkent va Samarqand teatrlarida qo‘yilgan. Tarjima, avvalo, tomoshabinlar saviyasi va sahna imkoniyatlarini nazarda tutib bajarilgani uchun, asarning muhim o‘rinlari tushib qolgan, uning til va uslubi ham tomosha asarlarning “tili”ga qarab tortilgan. Qolaversa, qissa Amir va Rus hokimiyati tomonidan ta’qib qilinish davrida sahnaga chiqqani uchun ham, undagi siyosiy sharhlar tushib qolgan, ba’zi qahramonlar va tilga olingan tarixiy shaxslarning nomlari ham o‘zgartirilgan” [3, 139].

1997 yilda “Sharq yulduzi” jurnalida forschadan H. Boltaboyev tarjimasida qayta chop ettirilgan “Munozara” asari Istiqlol davrida, bizningcha, muallifning milliy dardi, o‘y-maqсадlarini ko‘rsatish barobarida, jadidchilik harakatining mohiyatida qanday ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy yuksalish borligini ommaviy anglatishga qaratilgan edi. Qolaversa, Buxorodagi ijtimoiy vaziyat, ma’rifatsizlikni ko‘rsatish orqali mustamlaka siyosatidan jabr chekib kelayotgan o‘lkalarni uyg‘otish, milliy ozodlik g‘oyasini singdirish kabi euzu niyat ko‘zlangan edi.

Jadidshunos B.Qosimov va Fitratshunos H.Boltaboyev talqinida mazkur asarning mana shunday mushtarak jihatlariga e’tibor qaratiladi. Faqat B. Qosimov publitsistik drama namunasi deb talqin qilgan asarni, H. Boltaboyev zamonaviy qissa sifatida tahlilga tortadi. Eng muhimi, ikki olim qarashlari negizida ham xolislik, tarixiylik prinsipi ustuvor ekanligini e’tirof etish lozim. Agar fikrimizni H. Boltaboyevning “Maslakdoshlar” maqolasiga tayanib rivojlantirsak,

olimning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti”larining ham Gasprinskiy asari bilan mushtarak jihatlari talqin etilganiga guvoh bo‘lamiz. I.Gasprinskiy bilan Fitrat ijodidagi g‘oyaviy yaqinlik avvalo ularning millatparvarligida ko‘rinadi. Shuningdek, ular o‘z asarlarini xorijiy tilda yozganligi, erksevarlik va allomalarning ijtimoiy hayotda tutashgan nuqtalari izohlanarkan, quyidagicha yozadi: *“Dorur-rohat...” bilan “ Hind sayyohi bayonoti”ni bog‘lab turgan rishtalarni kuzatganda, har ikki asar ham xorijlik sayohatchining o‘tkir nigohi bilan tasvirlanganini, bu taftishchi sayyohlarning Shayx jalol va Qozi (“Doru-rohat”) da hamda Yigit va Tabib (“Hind sayyohi bayonoti”)da uchrashuvida juda ko‘p ma’naviy muammolar tahlil etilganini eslash mumkin. G‘aspirali romani bilan “Hind sayyohi...”gina emas, Istanbulda nashr qilingan “Munozara” jiddiy bog‘lanadi. Ularni bog‘lab turgan rishtalarni faqat jadidchilik g‘oyalarigina aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi*” [3, 122]. Bunday qiyosdan maqsad jadidchilik harakatining rahnamolaridan bo‘lgan Gasprinskiy va Fitratning dunyoqarashi, estetik ideali tutashgan nuqtalarni aniqlash, ularning maslagidagi mushtarak maqsadni ko‘rsatishdir. Tilda, dilda, amalda birlik g‘oyasini ilgari surgan Gasprinskiy ijodiyning faoliyati nafaqat Fitrat, balki jadidchilik harakatining dasturulamali sifatida o‘zining shonli izini qoldirgan edi. Istiqlol davrida Fitratning publitsistik asarlarini bunday metodda tadqiq etish uning umumijodiga xos konsepsiyani belgilashda qo‘l keladi. Ikkinchidan, Fitratning H.Boltaboyev tomonidan mustaqillik davrida tadqiq etilgan “Bedil bir majlisda” asaridir. Bunda olimning falsafiy publitsistik mushohadalari, Bedil hayoti va ijodi, uning badiiy merosi asosida bayon qilindi. Asarning janr xususiyati, kompozitsion qurilishi, ifoda shakli o‘ziga xos bo‘lib, Fitratning adabiy-estetik qarashlari, jadidcha nuqtai nazari ilmiy-publitsistik adabiy-badiiy uslubda tasvirlangan. Asar 1923 yilda Moskvada nashr qilingan. Adabiyotshunoslar tomonidan bu asar janri haqida turli fikrlar bildirilgan. Dastlab falsafiy ocherk, yetmishinchi yillarda nasriy qissa, mustqillik yillarida badiha esse janri sifatida e’tirof qilingan. Keyinchalik badiiy asarlari doirasida o‘zining ramziy ifodasini topgan. Ayniqsa dramalarida bunday adabiy zanjir yaqqol ko‘rinadi. Bu borada ingliz hukumatining Hindistonda olib borgan siyosati, Sharq va G‘arb masalalari, mustamlakachilikning sabablari, musulmonlarga bo‘lgan munosabat olim tomonidan har tomonlama yoritiladi. Olim Fitratning ushbu maqolasidagi publitsistik qarashlarini drama personajlari nutqi bilan muqoyasa qilarkan, inglizlarning Sharqni egallashdan muddaosi Hind o‘lkasi timsolida Turkiston ekanligi ko‘rsatiladi. G‘arb odati, dini bilan Sharq an‘analari, urf-odatlarini farq qilishi, xususan, ishq borasida ikki mintaqaning qarashi ikki xil ekani milliy ozodlik talablariga muvofiq qiyosiy-tipologik metod asosida ochilgani ta’kidlanadi. Ko‘rinadiki, Fitratning publitsistik maqolalari uning badiiy asarlarini tadqiq etishda umumijodiga xos poetik konsepsiyani anglashda, badiiy matn qatidagi ramziy ma’nolarni yoritishda poetik ochqich vazifani bajradi. Bu uslub Fitratning publitsistik va badiiy asarlararo mushtarak jihatlarning tipologik xususiyatlarini umumlashtirib o‘rganishda imkon beradi. To‘rtinchidan, tadqiqotda Fitratning publitsistik asar va maqolalaridagi fikrlarga suyanib, uning adabiy-tanqidiy qarashlarini, estetik idealini, sho‘ro jamiyatining unga bo‘lgan munosabatini atroflicha o‘rganish metodi nazarda tutiladi. Bunda olimning publitsistik izlanishlari ichida “Yopishmagan gajaklar” maqolasi markaziy nuqtada turadi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida B.Qosimov, H.Boltaboyev, B.Nazarov kabi olimlar mazkur maqolani turli jihatdan tahlilga tortadilar. Fitratning qomusiy olim ekanligi mana shunday tadqiqotlarda oydinlashadi. Uning badiiy va ilmiy merosi aro ko‘chib yuruvchi estetik ideali, jadidcha nuqtai nazari, adabiy-tanqidiy qarashlari qomusiylik kasb etadi. Shunga muvofiq qiyosiy aspektida talqin etish Fitratning adabiy merosini kompleks o‘rganish metodologiyasini adabiyotshunoslikka tadbiq etishga sharoit yaratadi. Shu boisdan mustaqillik davrida adabiyotshunoslar tomonidan Fitratning badiiy-ilmiy merosini tadqiq etishda aftobiografik-struktural, psixologik metod yutuqlariga tayaniladi. Masalan, oldingi faslda so‘z yuritganimizdek, U.Jo‘raqulov Fitratning estetik idealini belgilashda 1909 yil Istanbulda chop ettirilgan “Munozara” asaridagi qarashlarga suyanadi. Jadidshunos B.Qosimov tadqiqotlarida Fitratning “Yopishmagan gajaklar” asari atrofida kechgan munozaralarda uning ijodiy faoliyati qoralanib, taqlid qilish shamoli esa boshlagani asoslanadi. B.Nazarov boshchiligidagi yozilgan “O‘zbek adabiyoti taniqidi tarixi” kitobida ham ushbu maqola

tanqidiy nuqtai nazardan baholanadi. Avvalo, mumtoz adabiyotga doir tadqiqotlari uchun Fitratning panturkist, panislomist, millatchi sifatida ayblanishi tarixiy-madaniy merosni qayta tiklamay turib millatni uygʻotish, maʼrifatli qilish mumkin emasligini anglashi natijasida koʻplab ilmiy risolalar yaratilgani taʼkidlanadi.

B.Qosimov, B.Nazarov, H.Boltaboyev, U.Joʻraqulov kabi olimlarning nazariy qarashlarida oydinlashdi. Bunga koʻra, Fitratning badiiy publitsistikasidagi ijtimoiy-estetik qarashlari negizida millatparvarlik, maʼrifatparvarlik, milliy ozodlik, milliy uygʻonish gʻoyalari aks etishi yoritilgan. Olimning badiiy-publitsistik asarlarida dramatik pafos, epik tasvir, falsafiy mushohada yetakchi ekanligiga eʼtibor qaratilgan boʻlsa, uning publitsistik maqolalarida yagona ijtimoiy-estetik qarash ustuvor ekanligi kuzatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Б ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: “Маънавият”, 2004. – Б.382.
2. Қосимов Б ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: “Маънавият”, 2004. – Б.383.
3. Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: А.Навоий номидаги ЎЗ.миллий кутубхонаси”, 2005.

USMON NOSIR ADABIY MEROSINING TASNIFIY TAHLILI

Shahnoza QAHHOROVA,
Oʻzbekiston, Xalqaro innovatsion universitet,
PhD, dots.

Farhod QIYOMOV,
Oʻzbekiston, QarshiDU, katta oʻqituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotining yirik vakili Usmon Nosir adabiy merosi lirik, liro-epik, dramatik, tarjimalari nuqtai nazaridan tasnif qilingan va ijodkorning mahorati tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: lirika, drama, poema, tarjima, poetik tuygʻu, lirik kechinma, obraz, gʻoya, badiiy mahorat.

Usmon Nosir qisqa vaqt ichida adabiyotning sara namunalaini yarata olgan ijodkordir. Uning ijodida lirik, liro-epik, dramatik va tarjimachilik kabilar yetakchilik qiladi. Shu nuqtai nazardan uning ijodiy faoliyatini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *lirik asarlar;*
2. *dramalar;*
3. *poemalar;*
4. *tarjimalar.*

1. Lirik asarlari. Shoir asarlarining katta qismini lirika tashkil etadi. Hatto uning sheʼriyatida “Lirika” nomli maxsus sheʼr borligi Usmon Nosirning lirik asarlar yaratishga naqadar ishtiyoqmand boʻlganini koʻrsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Oʻtkir Rashidning fikrlariga koʻra, Usmon Nosir yuqoridagi sheʼrini yozgan davrlardan boshlab uning ijodining yangi davri, yangi oqimi, yangi toʻlqini, yangi toshqini boshlandi. Bu toshqin shoir ijodining kamolot bosqichi edi. Bu bosqichda u yetakchi shoirlar kabi falsafiy fikrlashni, teran mushohadani, voqeani poyetik tasavvur qilishni oʻrganib, bu xususiyatni oʻz sheʼrlariga badiiy sodda ifodalarda singdirdi. Uning lirikasida siyosat va ijtimoiy turmush hayotiylik, originallik, chuqur hissiyot, poyetik tuygʻu, intim kechinmalar bilan sugʻorildi, yurak sadosi boʻlib yangradi

va mehr o'ti bo'lib olovlandi. Shuning uchun ham shoir shu yillardagi she'riy majmualariga "Yurak" va "Mehrim" deb nom qo'ydi... [2, 215]

Avvalo, lirika va uning xususiyatlari, uni boshqa turlardan ajratuvchi muhim sifatlari xususida to'xtalish maqsadga muvofiq. Dilmurod Quronovga ko'ra, lirika adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya'ni, epos va dramadan farqli o'laroq, lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Shu bois ham lirik asarda voqelik lirik qahramon qalb prizmasi orqali ifodalanadi, yana ham aniqrog'i, lirikada kechinmani tasvirlash uchun yetarli miqdordagi voqelik "parchalari", detallargina olinadi.

Usmon Nosir lirikasida ham kechinmlarning o'ziga xos ifodasi bor. Xususan, uning ko'p bora e'tirof qilingan "Yurak" she'rida ana shunday ifodalar ko'zga tashlanadi. "Yurak" she'ri shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini o'zida jamlagan she'rlar sirasiga kiradi. Shoir Yurak obrazini o'zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg'ulari, orzu-o'ylarining mujassam timsoli deb biladi. Ya'ni uning Yurakka murojaati, aslida, o'z shaxsiga, ijodiga murojaatidek yangraydi. Ijodkor "Yurak" she'rida yuragini go'yoki she'rlarini kuylayotgan soz deya ta'riflaydi:

*Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zinga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim... [3, 93]*

Usmon Nosirning jo'shqin yuragi kengliklarga chiqib, o'lkalarni ko'rib, taassurotlarga to'ldi. Hali go'daklik chog'laridayoq u taassurotlarga tashna edi. U olam tasvirlarini isyonkor yuragiga ko'chirishga oshiqardi. Yangi-yangi taassurotlarda yashash unga yoqar, behad zavq bag'ishlardi. U hech narsaga beparvo qaray olmas va hech narsaning qoshidan beparvo, beg'am o'tolmas edi.

She'r bu – shoir qalbidning tub-tubidan otilib chiqqan bokira tuyg'ularning nurli jilosidir. Shoirning tuyg'ulari nuri ilohiyga qorishmas ekan, uning yozganlari oddiy iboralaridagina iborat bo'lgan satirlardan nariga o'ta olmaydi va o'quvchi qalbiga yetib bormaydi. Bugun biz chin yurakdan o'qib o'rganmoqni istagan shunday bir adabiyot vakili borki, u to'g'risida so'z yuritib, "Usmon Nosir nurli shoir..." deb aytganida qanchalar haq edi adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurov [6].

Millatning otashnafas shoiri Usmon Nosir she'riyatida o'zgacha ruh, erkin va jarangdor bir ovoz borki, bu sehrli ovoz adabiyot ihlosmandlarini hamisha o'ziga maftun etib kelgan. Usmon Nosirning shunday bir she'rlaridan "Bog'im" she'rida ham she'rxon qalbini o'rtab, ruhiyat olamini poklanishiga sabab bo'lgudek his-tuyg'ular ifodalangan.

*O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to'lgan butun.
Gullari chaman-chaman,
Men ularni ichaman:
Ko'nglimda yashnar bahor...
Nur bilan to'lgan butun. [3, 174]*

Ushbu misralarni o'qish davomida Usmon Nosir she'rning nomini bejizga "Bog'im" deb nomlamaganligini va shoir "Bog'im" deganda Adabiyot gulshaninig eng latif va jozibador olami bo'lmish fasohat ya'ni she'riyat olamini va shu olamda o'zi yaratgan "bog'"ni nazarda tutganligini anglaymiz. Shoir aytgan: "Fusunkor! Nurlar bilan to'lgan, Gullari chaman-chaman" bo'lmish ushbu "bog'" shoirning kindik qoni to'kilgan o'z Ona Vataniga, millatiga bo'lgan sof va samimiy muhabbatining ramzi sifatida ongimizga muhirlanadi.

Ibrohim G'ofurov Usmon Nosir haqida shunday yozadi: "Ichdan nurlanish juda noyob hodisa. Insoniyatning kamdan-kam farzandlariga nasib bo'ladi. So'zning ichdan mo'jiza kasb etib nurlanishini men Boborahim Mashrabda, Mirzo G'olibda, Geyneda, Lorkada, Cho'lponda, Usmon Nosirda kuzatganman" [6].

Usmon Nosirning she'rlari va dostonlari oralab bulutlar bilan olishayotgan va bulutlar orasidan yanada yaraqlab chiqayotgan va hissiyotli yuraklarni behad to'liqlarga soladigan nurafshon oy kezadi. Oy, shamol, bulut – go'zallik va hayot yaratishdek qodir tabiatli bulutlar Usmon Nosir she'rlariga fusunkorlik baxsh etadilar.

Uning barcha she'rlarida qismat tilga kirgan satrlar, bandlar bor! Balki qismat uning qalbida juda erta tilga kirgandir. Lekin she'rlarida qismatning ovozi o'ttiz uchinchi yildan to'xtovsiz eshitila boshladi. Esingizdami, uning dastur she'ri "Yurak"dagi so'nggi satrlar: "Yoril, chaqmoqqa aylan sen, Yoril! Mayli tamom o'lsam!.." Men buni qismat ovozi deb bilaman. Shoir o'z taqdirini bashorat qilishga o'tgan edi. Yoki mashhur "Monolog"ni eslang. Bunda barcha o'tli satrlar – qismat ovozi. Va ayniqsa: "Ehtimolki, tamom qilmasdan – Umrin tugar..." Chamasi, "Nil va Rim" ham boshdan-oyoq qismat sasi. "Lampam yonur... yaralangan qanotdek og'ir O'y bosadi. Yuragimda go'yo sel yog'ar..." Usmon Nosirning bu sirli she'rda Homer bilan bahslashuvi ham, Rim sahnasida gladiator bilan yo'lbars olishuvi ham, xalqning bu qonli manzaradan zavqlanishlari ham va nihoyat, "Rim – o'yindan o'lim kutgan jinni teatr" satri ham bari-bari o'z taqdiriga bashoratlar edi.

Shoir she'rlari bashoratning anglashilmas ajib sirli tasvirlariga to'lgan. Uning har satridan bu buyuk insonning qismati ko'rinib turadi.

2. Dramalar. Usmon Nosirning 18 yoshidan 24 yoshgacha bo'lgan davri ijodining yuksalgan davri hisoblanadi. Shu qisqa 6-7 yil ichida u beshta she'rlar to'plami ("Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim") va ikki doston ("Norbo'ta", "Naxshon") hamda to'rt drama ("Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman") yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Albatta, Usmon Nosir tomonidan ijod qilingan dramalar ham boshqa asarlari qatori o'z davrida yuksak e'tirof qilindi. Albatta, muayyan asarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan yetakchi vosita bu – obraz yaratishdir. Usmon Nosir dramalarida ham ana shu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning obraz yaratish mahorati, qahramon kechinmalari va voqealarni go'zal yo'sinda ifodalashi, voqealar rivojida kutilmagan, keskin burilishlar yasay olishi dramalarida yaqqol seziladi. Buni uning "Tanlangan asarlari"ga kiritilgan "Atlas" dramasi misolida ham ko'rish mumkin. 11 pardali ishbu dramada 5 ishtirokchi qatnashgan. Dramada Atlas ismli talaba qizning taqdiri aks etgan. U Orzumandning sof muhabbatini anglamay, nafsga qul bo'lgan dotsent Nozim Kamolovning chirkin yolg'onlariga aladanadi. Natijada butun hayoti izdan chiqadi.

Usmon Nosir qahramon kechinmalarini, ruhiy olamini ko'rsatishda nazmiy uslubdan foydalanadi. Jumladan, asar boshida Orzumandning sevgi tug'yonlari quyidagicha aks etadi:

Hayoli – sevgimning visoli,

Mazmuni – oylardan oppoqdir.

Ko'nglimga har narsa yumshoqdir,

Go'yoki har narsa misoli.

U, umrim ufqida bir shafaq,

Injudir tonglarda oqargan.

Bahori bog'imda barg yozgan,

Bir g'uncha chechaklar... bir yumshoq... [4, 95]

Ijodkor obrazlarning ichki olamini, qarashlarini, kechinmalarini tasvirlashda, umuman, qahramon xarakterini ochishda sh'eriylar uslubdan foydalanadi.

Asarda har bir obraz alohida xarakter. Ularda yasamalik yo'q. Qahramonlar bilan tanishgan kishi, ularni real hayotda mavjud insonlardek qabul qiladi. Jumladan, bosh qahramon Atlas sodda va samimiy qiz. U hamma narsaga va barcha insonlarga ishonuvchan, yolg'ondan uzoq yuradigan qiz timsoli. Atlas hayotning faqat oq tomonlarini ko'radi. Lekin hamma ham hayotga u kabi boqmaydi. Jamiyatda Nozim Kamolovga o'xshagan nafs bandalari ham bor. Ular ana shunday beg'ubor kishilardan o'z manfaati yo'lida foydalanadi. Kishilar uchun muqaddas tuyg'ular Kamolovga o'xshaganlar uchun oddiy bir ermak. Atlasning nadomati asarda shunday tasvirlangan: "Bilmaganman, sezmaganman, g'am yili sochimni yozdi. U oq tarayman, deb

to‘zdirdi. Kechiring, men bilmadim. Dunyo to‘la hasrat desa, inonibman. Erkam, qo‘zichog‘im desa, aldanibman. Men undan toza muhabbat qidiribman. Ayta bersam, yuragimda dardim, tilimda nolam ko‘p...” [4, 119].

Dramada fizik olim, professor Semyon Nekolayevich obrazi muhim o‘rin tutadi. U barcha qahramonlarni to‘g‘ri yo‘lga soladigan, tushkunlikda tasalli, og‘ir damlarda maslahatgo‘y bo‘ladigan faylasuf timsolidir. U bir o‘rinda sevgilisidan ayrilib, hayotdan zada bo‘lib qolgan, o‘zini yo‘qotgan Orzumandga shunday nasihat qiladi: Odamzod tarixining Dante, Betxoven kabi kishilari ham muhabbatdan muvaffaqiyatsiz bo‘lganlar. Ammo ularning yaratganlari... bilasizmi, Dantening she‘rlari, Betxovenning muzikasini minglab, millionlab baxtli muhabbat kishilari o‘qiydilar, tinglaydilar...” [4, 112].

Boshqa bir o‘rinda yaqin kishilar bir-biri uchun javobgar bo‘lishi xususida shunday xulosa qiladi: “Do‘stlarimizning hayotlari uchun biz javobgar. Bizning umrimiz va o‘limimiz ertaning yo‘lida bo‘ladi. Shuning uchun ham, biz do‘stlarimizning hayotlari uchun javobgar”.

Asarda barcha qahramonlar ana shu timsol atrofida aylanadi. Yakunda ikki sevishtan (Orzumand va Atlas) ham shu timsol oldida yana birlashadi. Ertangi kunga umid bog‘laydilar. O‘z hayotlarida yangi sahifa ochadilar.

Usmon Nosir ushbu qahramon tilidan o‘zining hayot falsafasi, muhabbat haqidagi qarashlarini so‘zlaydi. Uning fikricha, inson hech qachon kurashdan to‘xtamasligi lozim. Yo‘qsa, tanazzul muqarrar. Asarning bosh g‘oyasi – shu.

3. Poemalar. Shoirning har bir asari ezgulik g‘oyalariga yo‘g‘rilgan. Uning qahramonlari qalbi pok, orzulari cheksiz kishilardir. Usmon Nosirning dostonlari ham ezgulik g‘oyalariga burkangan. Qahramonlari esa oliyjanob, mehnatkash, vatanparvar, hayotdan zavq olib yashaydigan insonlar. Buni birgina “Tojixon” dostoni misolida ham ko‘rish mumkin. Ijodkor masnaviy janrida bitgan mazkur poemasida ham chin ma’noda mehnatkash o‘zbek ayoli timsolini yaratgan. Muallif Tojixonni o‘zgacha ta’rif etgan:

*O‘rtacha bo‘y, qorachadan kelgan juvoncha,
Uddaburo, ishbilarmonn ko‘zli juvoncha,
Hurmat senga! Sen Vatanning erka qizisan,
Osmonida porlab turgan bir yulduzisan.
Ilhomimning parisi sen, ravonligi sen,
Fikrlarning o‘tkirligi, ayonligi sen...
O, dalalar, qirg‘og‘i yo‘q sohilsiz dengiz,
Qush uyg‘onmay, Tojixonni shunda ko‘ringiz...
Tog‘ bulog‘i kabi baland, kuchli qaynardi...
Bolasiga ichikkanday bo‘lib yayrardi.
Odam qancha epchil, ziyrak va dov ekanin,
Ko‘rsatdi u – lola kabi yashnar deganim...*

Usmon Nosir asarni tabiatning jo‘shqin jilolari bilan boshlaydi. Undagi go‘zallikni madh etadi. Diqqat tortadigan jihat shuki, muallif tabiat latofati va undagi haroratni asta-sekinlik bilan Tojixon timsoliga ulaydi. Bu orqali u ona tabiatning bor fazilatlarini o‘z qahramoni ruhiyatiga singdirgan. Unda shunday satrlar bor:

*Quyosh hali yer yarmining nari yog‘ida,
Kechagi yel tinmay o‘ynar qir yanog‘ida.
Qizg‘ish bo‘lib botar edi ufqdagi oy,
Uzoqlarda shildir-shildir oqar edi soy...
Bilmadimki, sahardagi Zuhra yulduzin
Haddi bormi tenglashgani ko‘rganda yuzin?
“O‘lgur paxmoq” deya so‘kkan mushfiq onasi
Endi ko‘rsin, o‘sha Toji – gavhar donasi... [4, 9]*

Shoirning “Norbo‘ta” dostonida esa urushda matonat ko‘rsatgan jasur o‘zbek o‘g‘loni haqida so‘zlanadi. 1932–33-yillarda Qo‘qonda yozilgan ushbu asarda Norbo‘ta yurt himoyasi yo‘lida qahramonliklar ko‘rsatgan, safdoshlarini ham shu ulug‘vor ish uchun ruhlantirgan, hatto shu

yo'lda jonfido qiligan obraz sifatida gavdalanadi. Uning jasorati ushbu tasvirlarda juda yorqin namoyon bo'lgan:

*Abjir yigit o'tdan hayiqmay,
Ko'zi qonga to'lib, ayiqday
Kuch sezdi-yu, otni to'ntardi,
Pulemyotni darrov o'ngardi...
Qani, dushman dov qilolsa-chi,
Biron qadam ham jilolsa-chi!*

Doston so'ngida ayniqsa Norbo'taning jasoratini, mardligi, ona yurtga sadoqati yaqqol seziladi. U Vatan himoyasi uchun har qanday xatarni qarshilashga va kurashishga qodir o'g'lon bo'lib maydonga chiqadi. Dushman qo'li baland kelsada, sadoqati, burchi uni jang qilishga chorlaydi:

*Dushman kuchli ekanin bilgach,
Bunga dili guvohlik bergach,
Otryadlarni uzoq ketkizmay,
Qarshidagi qirdan o'tkizmay,
Bor o'qini rasamat qilib,
O'z jonidan kechib, ishqilib –*

Yo'lni ancha bog'lab turdi Nor. [4, 39]

Qisqa qilib aytganda, Usmon Nosirning barcha dostonlarida yurt manzaralari, shu o'lkaning jasur, mard, oqko'ngil o'g'il-qizlari timsoli aks etadi. Shuningdek, ulardagi vatan madhi, xalq va millat tarannumi o'quvchi ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazib, qalblarda ona yurtga muhabbat, sodiqlik tuyg'ularining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday xususiyatlari bilan ham Usmon Nosir ijodi zamonlar osha yashashda davom etmoqda.

4. Tarjimalar. Usmon Nosirning rus tilida chop etilgan nodir asarlarni ommalashtirish, ularni mohirona tarjima qilib, o'zbek kitobxoniga yetkazib berish borasidagi xizmatlari ham beqiyosdir. U Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon" ("Iblis") dostonlarini maromiga yetkazib tarjima qilgani ma'lum. Bu borada Uyg'un Usmon Nosirning tarjimonlik faoliyatini alohida urg'ulab yozganlarini eslash kifoya: "U o'z mahoratini tarjima sohasida ham yaqqol ko'rsatdi. Uning Pushkindan, Lermontovdan qilgan tarjimalari eng yaxshi, eng muvaffaqiyatlaridan hisoblanadi. Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", Lermontovning "Demon"i Usmon Nosirning mohirona tarjimasi orqali o'zbek adabiyoti xazinasiga gavhar bo'lib qo'shildi, xalqimizning sevib o'qiydigan dostonlariga aylandi" [1, 236].

Tarjimon asar ruhiga kira olib, asar mag'zini "o'ziniki"ga aylantirib olsagina uning o'g'irmalari muvaffaqiyatga erishadi. Usmon Nosirning tarjimalari ana shu xususiyati bilan diqqatga sazovor. Xususan, tarjimon yuqorida ta'kidlangan rus shoiri Mixail Lermontovning "Demon" dostoni mazmunini "o'ziniki"ga aylantirib olgan. Asar xuddi o'zbekchada bitilgan kabi, ravon, haroratli o'qiladi. Ayni chog'da aytish joizki, tarjimada "Farmoningga yig'lab cho'kay tiz" degan "ortiqcha" misra paydo bo'lib qolgan. Bu misra Usmon Nosirda bor-u, Lermontovda yo'q. Shu o'rinda buning sababi nimada, tarjimonning bunga nechog'li haqqi bor, degan haqli savollar tug'iladi. Nazariyaga qarasangiz, haqqi yo'qdek. Asliyat va tarjimoni qiyoslagandan keyin esa anglashiladiki, tarjimon doston ruhiga shu darajada chuqur kirganki, go'yo uning ijodkoriga aylangan. Xuddi Lermontov kabi ijodkor ruh kayfiyatini qog'ozga to'kkan:

*Dengizlarning tublarin quchay,
Bulutlardan balandga uchay.
Yer ne'matin senga tutay qiz,
Farmoningga yig'lab cho'kay tiz,
Sevgin meni!.. [4, 180]*

Darhaqiqat, go'zal, haroratli misralar! Aynan shu misra mamlakatning eng baland tog'i cho'qqisiga tikilgan bayroqqa o'xshaydi. Bu o'rinda bayroq o'sha mamlakatning borligiga, kuch-qudratiga yo'naltirilgan bir ramz bo'lgani yanglig', "Farmoningga yig'lab cho'kay tiz"

misrasi ham oshiqning sevgilisiga bo'lgan cheksiz ishqidan bir dalil, nishon. Aynan shu misrada uning ma'shuqasi uchun har narsaga tayyor ekanligini ayonlashadi. Qolaversa, aynan shu misra "Usmon Nosir" deb atalgan tarjimon, ayni paytda, shoir-mamlakat qudratini ham ko'z-ko'z qilguvchi bayroqdir. Birgina shu bayroqqa qaraboq tarjimonning yusak iste'dodiga guvoh bo'lish, undan hayratlanish mumkin. Bu misralar asliyatda quyidagicha:

Я опускаю на дно морское,

Я полечу за облака.

Я дам тебе все, все земное –

Люби меня!.. [5]

Tarjimadagi ijodkorlik ("Farmoningga yig'lab cho'kay tiz") ni qofiya ("qiz – tiz") taqozosi deb ham talqin qilish mumkindir, ehtimol. Lekin gap faqat bunda emas. Asl matnga diqqat qaratilsa, undagi qofiya g'alizligi seziladi ("морское – земное" – qofiya emas). Bu borada tarjima varianti ustun ekanligini e'tirof etmoq kerak. Lekin asliyat o'zicha go'zal. U shu darajada go'zalki, hatto qofiyaga muhtoj emas. "Я опускаю на дно морское, Я полечу за облака" misralarining ma'no, ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjimasi "Dengizlarning tubiga tushaman (tushay), Bulutlarning ortiga uchaman (uchay)" bo'lar edi. Usmon Nosir Lermontov chizgan manzarani u taklif qilgan badiiy gap konstruksiyasiga ko'ra emas, balki o'z so'zlari bilan qayta yozadiki, natijada "Dengizlarning tublarin quchay, Bulutlardan balandga uchay" kabi oltin misralar, chinakam ijod namunasi dunyoga keladi. Chunki dengizning tubiga tushish bilan uni quchish, bulutlarning ortiga uchish bilan ulardan balandga uchish o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Xuddi oddiy gap bilan she'riy misra orasidagi tafovut kabi.

Tarjima tarixiga nazar tashlasak, asosan, ikki xili ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Biri – taglamali (подстрочный) tarjima, ikkinchisi – mazmun tarjimasi. Aslida, badiiy tarjimaning necha xili bo'lishiga qaramay, eng muhimi, asar ruhi to'g'ri tarjima etilmog'i shart. Shu ruh berildimi, qolgani katta-kichik tahrirlar bilan tuzatilishi mumkin. Ruh berilmasa-chi, barchasi bekor: chiroyli so'zlar, silliq gap konstruksiyalari, hikmatli so'zlarning o'rinli ekvivalentlari – barchasi bekor ketadi.

Ushbu o'rinda nuhim bir masalaga diqqat qaratmoqchimiz. Bugun adabiyot tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ijodkorlar qalamiga mansub asarlarning topilishi va ularning ilmiy jamoatchilikka taqdim qilish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin ayrim hollarda juda noyob topilmalarning ham bee'tibor qolayotgani ayni haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Уйғун. Ҳаёт ва шеърят ошиғи / Асарлар. Олти томлик. Олтинчи том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1978.
2. Усмон Носир замондошлар хотираси ва мухлислар васфида: мақолалар, хотиралар, шеърлар. – Тошкент, 2022.
3. Усмон Носир. Танланган асарлар. 2 томлик. 1-том. – Т: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968.
4. Усмон Носир. Танланган асарлар. 2 томлик. 2-том. – Т: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1970.
5. http://az.lib.ru/l/lermontow_m_j/text_0160.shtml
6. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-usmon-nosir.html>

BARMOQ – MILLIY SHE'RIYATIMIZNING ASOSIY VAZNI

Shohida Karamova,
O'zbekiston, Qarshi DU, f.f.n., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillaridan keyin barmoq vazni milliy she'riyatimizning asosiy vazni bo'lib qolganligi, bugungi ijod ahli uchun aruzdan ko'ra barmoq qulay, barmoqda biroz "erkinlik" borligi hamda barmoq vazni har bir individual uslubda o'ziga xos tarzda istifoda etilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Barmoq, vazni, aruz, ritm, misra, hiyo, turoq, sarbast, milliy she'riyat, qofiya.

Barmoq vaznida, aruzdan farqli ravishda, ritm hosil qilish uchun misralarda hijolarning sonidan tashqari, cho'ziq-qisqaligi muvofiq kelishi shart emas, barmoq shunisi bilan shoirga biroz yengillik beradi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining asosiy vazni barmoq bo'lib qolayotganining sababi faqat shundagina ham emas, balki hozirgi davr kontekstida ijodkorning ham, o'quvchining ham she'rni barmoq orqali idrok qilishida, she'r deganda miyaga birinchi galda barmoq vaznidagi she'rning kelishida. Albatta, aruz – bugungi shoir uchun ham, bugungi o'quvchi uchun ham qiyin vazn. Chunki XX asrda she'riyatimizda barmoq to'la ustuvorlikni qo'lga oldi, sarbast ham yetarli darajada qo'llanmoqda. Aruzdan esa ancha uzoqlashdik. Bu faqat aruzga munosabatning o'zgarishi ("muzey eksponati", A.Qahhor), sho'ro mafkurasining o'tmish madaniyatini butunlay inkor etib, yangi proletar madaniyat yaratish dasturi (aruz ham ana shu siyosiy munosabat "qurboniga aylandi" desak ham bo'ladi) bilangina bog'liq emas. Aruzdan uzoqlashish qisman yozuv va til xususiyatlarining o'zgarishiga ham borib taqaladi. Chunki aruz "matematika" sini tashkil qilgan juzv, sabab, vatad, fosila kabi aruzning tabiiy yo'ldoshi bo'lgan qofiyadagi o'zak va qo'shimcha elementlari (raviy, ta'sis, xuruj, vasl, mazid va h.k.) tushunchalar to'g'ridan-to'g'ri arab yozuvi bilan bog'liq. Xuddi shunday o'nlab omillar ta'sirida aruz nafaqat she'riyatimizdan, balki idrokimizdan ham siqib chiqarildi. Zamonaviy she'rxon ham, ko'p hollarda shoir ham she'r deganda barmoq vaznidagi she'rni angelaydi, aruzning fonetik nozikliklarini deyarli tushunmaydi, aruzdagi she'r berilsa, barmoq ritmida o'qiydi.

Muayyan tarixiy muhitda she'rni idrok etishning vazn bilan bog'liq jihatiga birinchi marta adabiyotshunos olimi N.Afoqova e'tibor qaratgan edi. U jadid she'riyatida aruzdan barmoq va sarbastga o'tilish jarayonini tadqiq qilar ekan, kutilmagan shunday bir fikrni aytadi: "Bugungi shoir yoki adabiyotshunos nazarida barmoq har qancha "yengil vazn"[3.4] bo'lmasin, hisobga olish kerakki, davr shoirlari she'riyatni aruzda idrok qilganlar. Ular uchun shartli ma'noda barmoqdan ko'ra aruz yengil vazn bo'lgan" [1, 87]. Tadqiqotchi XX asr boshlari jadid shoirlari ijodida barmoqning qo'llanishidagi ayrim qiyinchiliklarni aynan shu holat bilan izohlaydi: "Bu davrda adabiyotning o'zgargan mazmuni yangi shaklni talab qilayotgan, aruzdan boshqa sistemaga o'tish masalasi maydonga chiqqan edi-yu, ammo barmoqning mohiyati – u har qancha qadim turkiy vazn bo'lmasin, adabiy jarayonda faoliyat ko'rsatayotgan har bir shoir tomonidan hali to'liq, chuqur anglanmagan edi. Davr nuqtai nazaridan she'riyatni asosan aruz orqali idrok qilgan shoirlar, tabiiyki, barmoqni istifoda etishda birmuncha qiynaldilar. Bu – aruz va barmoqning aralash qo'llanishida, barmoqda turoqlarning buzilishi, fikr ifodasi uchun zarur bo'lgan so'zlarni ixchamlashtira olmaslik yoki ataylab shunga yo'l qo'yish natijasida qo'shimcha turoq (yoki misracha)larning paydo bo'lishi kabi shakllarda namoyon bo'ldi" [1, 105].

Chindan ham "barmoq bugungi shoir, tadqiqotchi va kitobxon uchun aruzdan ko'ra oson bo'lib ko'rinishi vazn hosil bo'lish asoslarida emas, davr she'riyatining qanday idrok qilinishida", - degan fikr to'g'riga o'xshaydi. Cho'lponning "Ko'ngil", "Kishan", Hamza Hakimzodaning "Ishchilar, uyg'on!", "Dardiga darmon istamas", "Yasha, Sho'ro!", "O'zbek xotin-qizlariga" (bu she'rlarning Hamza qalamiga mansubligi yoki o'zgartirilgani boshqa masala, biz hozir faqat she'rning g'oyaviy-badiiy mazmuni va vazn muvofiqligiga diqqat qaratdik) kabi kuchli ijtimoiy mazmun bilan sug'orilgan she'rlari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

“She’r va shoirliq degan soʻzlar bizda yangigʻina bir narsa emas. Turk ulusi oʻz borligʻini ochungʻa koʻrsatkali she’r va shoirliqni bilibgʻina kelgan” (Fitrat) boʻlishiga qaramasdan, bugungi kunda adabiyot sohasidan uzoq boʻlgan oddiy xalq vakillari uchun she’rda albatta qofiya, vazn va band orqali hosil qilingan tekis ritm boʻlishi kerak. Oʻsha oʻquvchini hatto sanʼat asari uchun oʻta muhim boʻlgan pafos, obrazlilik, badiiy toʻqimani hosil qilgan barcha unsurlarning oʻzaro uygʻunligi kabi hodisalar uncha qiziqirmaydi. Oʻsha oʻquvchilarning aksariyati uchun baʼzan yuqorida eslatilgan she’r ritmidan tashqari, sentimental tuygʻular yoki didaktika, sanʼatpardoqlik yetarli. Bu mulohazalardan muddao kimningdir adabiy saviya, didini kamsitish emas, balki she’rni idrok etish, hatto vazn kabi shakliy bir hodisaga munosabat ham tarixiy xarakterda ekanini taʼkidlashdir.

XX asr boshlaridayoq Abdurauf Fitrat she’rni shakl deb tushunishning ildizlari chuqur ekani, ammo bu toʻgʻri emasligini taʼkidlab aytgan edi: “Soʻnggi arab adiblari she’rni “Kalamu muvazzanin muqaffanin”, - deya taʼrif qila(r) edilarkim, bu “vaznli, qofiyali gap” demakdir. Bizning shoirlarimiz ham she’rni shul bino qabul etdilar. Shuning uchundirkim, “vazn” va “qofiya”si boʻlgʻan turli maʼnisiz soʻzlarning sharafina ishongʻan sayin she’rning haqiqatidan uzoqlashib qoldilar. Yetti-sakkiz soʻzni bilgili bir vaznda tizib, ketinda bilgili bir soʻzni qofiya qoʻymoq bilan she’r orasinda yerdan qoʻkkacha ayirma bordir. She’rda kishilarning qonini qaynatgʻuchi, singirlarini oʻynatgʻuchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qoʻzgʻatgʻuchi bir kuch, maʼnaviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi boʻlmagʻan soʻz vazn va qofiyasi boʻlsun she’r boʻla olmaydir” [1, 106].

Qizigʻi shundaki, Fitratni yuz yillar oldin ranjitgan munosabat hali-hali oʻsha: oddiy oʻquvchi tugul, ayrim adabiy tanqidchi va adabiyotshunoslar ham “yetti-sakkiz soʻzni bilgili bir vaznda tizib, ketinda bilgili bir soʻzni qofiya qoʻymoq”ni she’r deb taqdim etayotirlar. Biz tadqiq qilayotgan tarixiy-ijtimoiy muhitda:

barmoq – hukmron mavqeda,

aruz – “xos”larga xos deb,

sarbast esa – “she’r emas” deb qaraladi. Turli dalillar bilan rad etishga qancha urinmaylik, she’r va unga ommaviy munosabatning manzarasi hozirgi vaqtda shunday. Aruzda yozilib, “...kishilarning qonini qaynatgʻuchi, singirlarini oʻynatgʻuchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qoʻzgʻatgʻuchi bir kuch, maʼnaviy bir kuch”i umuman boʻlmagan sayoz mashqlarning ham ijtimoiy tarmoqlarda koʻklarga koʻtarilishi, hatto adabiy-tanqidiy taqriz, maqola va tadqiqotlarda maqtalishi ham aruzda yoza oladigan qalamkashni “xos”, koʻpchilik uddalamagan ishni udalayapti deb bilishning oqibatidir. Zamonaviy aruz namunolari jamlangan “Gʻazal gʻizoli” toʻplamidan joy olgan koʻplab she’rlarda umuman she’r ruhi yoʻq. Buni kitobga soʻzboshi yozgan navoiyshunos olim O. Davlatov ham alohida taʼkidlagan: “Mazkur bayoz faqat yetuk she’rlardan iborat toʻplam emas. Unda ham omonat misralar, takror fikrlar, boshqa devonlardan koʻchib oʻtgan she’riy ifodalar uchrab turadi. Salafning ijodiy topilmalaridan taʼsirlanish baʼzida taqlid chegarasiga yaqinroq borgan holatlar ham anchagina” [2, 7].

Koʻplab tadqiqotlardan maʼlumki, milliy she’riyatimizning asl vazni – barmoq va sarbast, aruz bizga YI-YIII asrlardan keyin fors she’riyati orqali kirib kelgan, ammo turkiy tilda aruz vaznidagi ilk asar deb “Qutadgʻu bilig”ni bilamiz. Chunki ungacha boʻlgan yozma adabiyot namunolari bizda saqlanmagan. Barmoq – turkiy tilning xususiyatlariga juda muvofiq tushadigan vazndir. Yuqorida aytilganidek, bugungi ijod ahli uchun aruzdan koʻra barmoq qulay, barmoqda biroz “erkinlik” bor.

XX asrning 20–30-yillaridan keyin barmoq vazni milliy she’riyatimizning asosiy vazni boʻlib qoldi. Asos eʼtibori bilan oʻzgarmagan boʻlsa-da, har bir individual uslubda oʻziga xos tarzda istifoda etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afoqova N. Jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. – 87-bet. (258 bet).
2. Davlatov O. Gʻazal gʻizolining sayyodlari // Gʻazal gʻizoli (bayoz). – Toshkent, “Adabiyot”, 2021. – 7-ber. (208 ber).
3. Fitrat A. Aruz haqida. – Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1997. – 4-bet.

JADID ROMANLARIDA BADIY MODIFIKATSIYA

Nilufar SULTONOVA,
O'zbekiston, QarDU, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida A.Qodiriy asarlari tadqiqi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pafos, publisistika, millatparvarlik, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-estetik talqin, ilmiylik, tanqid, badiiylik.

XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat jadidchilik harakatidir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydulloxo'ja Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov turardi.

Mustaqillik davriga kelib, Abdulla Qodiriy boshlab bergan, keyinchalik yevropa va rus romanchiligi ta'sirida shakllanish va takomil bosqichlarini bosib o'tgan an'anaviy romanchilikda sezilarli shakl-mazmun o'zgarishlari ko'zga tashlana boshladi. Dastlab arab va turk nasri an'analari muayyan ma'noda davom ettirgan o'zbek romanlari ham modifikatsiya qonuniyatlarini namoyon etgan bo'lsa-da, sovet davrida bu jarayon sotsialistik realizm ta'sirida bir oz sustlashdi. Ammo bora-bora, ayniqsa, 80-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran o'z ichki imkoniyatlari doirasida yangilanish bosqichiga kirdi.

Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, A.Qodiriy romanlarida yevropada "valter-skottcha" roman nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy romanchilikka xos strukturaviy xossalari seziladi. "XX asrning 30-yillarida "V.Skott romani" rus adabiyotiga kirib keldi va o'zi uchun yangi bo'lgan adabiy-poetik muhitga moslashdi, yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'ldi" – deya yozadi bu haqda adabiyotshunos G'.Murodov. – A.Pushkinning "Kapitan qizi", L.Tolstoyning "Urush va tinchlik" epik asarlarida "shotland sehrgari" (V.Skott nazarda tutilmoqda- N.S.) maktabining ijodiy ta'siri mavjud.

"V.Skott" romani tajriba va an'analari XX asr so'z san'ati, jumladan, Markaziy Osiyo tarixiy romanchilik tajribasida ham davom etdi. Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Oybek epik ijodida bunday adabiy-badiiy vorisiylikni ko'rishimiz mumkin". Bu ilmiy axborotning mavzuimizga aloqador jihati shundaki, badiiy modifikatsiya hodisasining birinchi tarixiy omili – bu, adabiy an'ana hisoblanadi. Dastlab rus prozasiga ta'sir o'tkazib, Pushkin, Tolstoy tarixiy romanlari strukturasining shakllanishiga olib kelgan V.Skott an'analari G'.Murodov to'g'ri ta'kidlaganidek, o'zi uchun yangi bo'lgan adabiy-poetik muhitga moslashdi, yangi sifat, xususiyatlarga ega bo'ldi. Bu degani biron bir janr yoki janr komponentlari tashqi prozanasilik an'analari milliy nasrchilik shakllariga singdirgan holda o'zgacha shakl-mazmun hosil qilsa, turlansa, shakl-holatini o'zgartirsa, modifikatsiya hodisasi yuz bergan hisoblanadi. Bu holat nafaqat epik tur yoki roman janrida, shu bilan birgalikda boshqa tur va janrlar doirasida ham sodir bo'lishi mumkin.

"Valter-skottcha" roman o'z mazmun mohiyatiga ko'ra tarixiy shaxsni emas, tarixiy voqeani roman markaziga qo'yib tasvirlaydi. Unda harakatlanayotgan obrazlar guruhi esa xayoliy-to'qima, yoki milliy folklor rivoyatlari, dostonlariga o'xshatma obrazlar bo'lib, tarixiy voqelikni

yoritib berishda poetik vosita vazifasini o'taydi. A.S.Pushkinning "Kapitan qizi" romani tarixiy Pugachyov qo'zg'oloni voqealariga bag'ishlangan bo'lib, asar markazida tasvirlangan Grinyov, Masha, mayor Mironov va boshqa obrazlar "valter-skottcha" roman obrazlariga xos umumiy xususiyatlarni qabul qiladi. Shu tarzda roman oldiga qo'yilgan muallif g'oyasi ochiladi.

O'z faoliyatini tarixiy romanchilikdan boshlagan o'zbek romanining ilk namunasida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. "O'tmishning eng kirlik va qora davri, so'nggi xonliklar zamoni" bo'lgan tarixiy davrni epik tasvirlashga bel bog'lagan A.Qodiriy yevropa va rus romanchiligining V.Skott, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy an'alaridan foydalanib, milliy romanchilikka asos soldi. Bir so'z bilan aytganda, milliy epik tafakkurda mavjud bo'lgan "Tohir Zuhrolar", "Farhodu Shirinlar", "Chor darvesh"lar qissasi A.Qodiriy qalami ostida zamonaviy shakl-shamoyil oldi. Mana shunday oshiqona (romantik) syujet an'analari tarixda bo'lib o'tgan voqealar, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Homid obrazlari, tarixiy shaxslar hisoblangan Xudoyorxon, Musulmonqul, Normuhammad qushbegi kabi obrazlar bilan badiiy munosabat hosil qilib o'z shakl-xossasini o'zgartirdi.

Keyingi davr qodiriyshunoslarning talqinlariga ko'ra milliy rivoyat janrlarining modifikatsiyaga uchrashi faqat folklor an'analari bilan chegaralanmaydi. Bunda o'zbek zaminiga ming yillar oldin kirib kelgan islom dini va uning muqaddas kitobi - Qur'oni karim qissalarinig ham jiddiy ta'siri va hissasi bor. Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov o'zining "Birinchii o'zbek romani - "O'tkan kunlar" nomli monografik tadqiqotida qayd etishicha, Qodiriy romani syujeti Qur'oni karimda zikr etilgan Odam ato, Momo Havo va iblis uchligi o'rtasida sodir bo'lgan voqea, "ilk syujet" asosida yoritilgani, yozuvchining islom muhitida shakllangani, Qur'oni karim va shariat ahkomlari asosida tarbiyalangani, bu ilmlarni mukammal bilishi romanning shunday yangi shakli maydonga kelishiga olib kelgan. Olimga ko'ra, mana shu uch obraz o'rtasida kechadigan sevlash, sevilish va raqobatdan iborat voqealar umuminsoniyatga xos. A.Qodiriy shu syujet asosida o'z davridagi oshiq va ma'shuq holatini vosita qilib siyosiy, ijtimoiy, maishiy hayotimizdagi shaytanat nayranglarini tasvirlagan. Qur'onda aytilganidek, shaytanat oldindan va abadiy mavjud bo'lib qoladi. Har bir zamon, davr epik tafakkur egalari o'z ijtimoiy davrlariga xos mana shunday siyosiy, ijtimoiy va maishiy shaytanat dunyosini qandaydir darajada aks ettiradilar. Ammo A.Qodiriy romanida bu jarayon aniq, umuminsoniyat turmushining bir "kichik modeli"dek tasvirini topgan [1].

"Inkor qilmaymiz, - deb yozadi bu haqdagi xulosasida olim, - Qodiriy davrida ham, undan oldin, undan keyin ham jahon romanchiligi o'z o'quvchilariga qator original syujetlarni taqdim etdi. Yevropa, Amerika, rus, ukrain, turk, arab, eron, ozarbayjon, arman, gruzin, qozoq, qirg'iz va boshqa xalqlar romanchiligida jahon adabiyotshunoslari tomonidan yuksak baholangan, hisobsiz o'quvchilariga ega bo'lgan, asrlar osha yashab kelayotgan romanlar oz emas. Ammo bularning birortasi, biz ilgari surgan samoviy, umumbashariy mezonlar bilan o'lchanganda, Qodiriy romaniga tenglasha olmaydi. Zotan bunday original syujet asosida ming yillik sharq-islom an'analari, xususan, o'zbek xalqining teran ildizlarga ega ma'naviy zahiralari turadi" [2].

U.Jo'raqulovning bu fikrlarini badiiy modifikatsiya hodisasiga tatbiq etadigan bo'lsak, A.Qodiriy romanining Pushkin va Tolstoy romanlaridagi singari bir qatlamli modifikatsion qamrovga emas, balki folklor va diniy asosga ega ikki qatlamli modifikatsion qamrovga ega ekanligi aniq bo'ladi.

Akademik N.Karimovning yozishicha: "Cho'lpon oktabr o'zgarishi arafasidagi O'zbekistonda yuzaga kelgan tarixiy sharoit va "sinf"lar nisbatini ikki syujet (1-chiziq - Zebi, Qurbonbibi, Razzoq so'fi, Eshon bobo obrazlari chizig'i; 2-chiziq - Miryoqub va uning atrofidagi Akbarali mingboshi, noyib, Mariya obrazlari chizig'i- N.S.) chizig'ining tasviri orqali ko'rsatib bergan. Maishiy voqealar silsilasi bilan boshlangan roman, pirovardida, XX asrning 10-yillarida yashayotgan O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy manzaralarini yaqqol mujassamlantiruvchi asar darajasiga ko'tarilgan" [3].

Darhaqiqat, "valter-skottcha" roman an'analari A.Qodiriydan keyingi o'zbek romanchiligida ham muayyan nasriy naziranavislik tarzida davom etdi. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani faqat bir qarashda notarixiy roman bo'lib tuyuladi. Ammo aslan olganda Cho'lpon romanida aks ettirilgan tarixiy voqealar Turkiston jadidchilik harakatining dastlabki

davri sifatida A.Qodiriy romanidagi tarixiy davrning davomi hisoblanadi. Keyingi zamon xonlarining bo'shangligi, loqaydligi sababli ma'naviy qashshoqlikka olib kelingan, iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati zamonaviy mamlakatlardan ortda qolgan Turkiston XIX asr oxiri, XX asr boshlariga kelib, tetapoya tarzida bo'lsa-da yangilanish va islohot yo'liga kira boshlagan edi. Aslan A.Qodiriyning dunyodagi o'zgarishlarni ko'rib xonga shikoyat qilish uchun kirmoqchi bo'lgan Otabek obrazidayoq bu g'oya uchun asos yaratilgan edi. Cho'lpon mana shu g'oyani konkretlashtirdi. Tarixiy zamonda, oq poshsho va uning to'ralari hukmronligi ostidagi Turkiston xalqi orasidan yetishib chiqqan jadidlar siymosi bu asardagi asosiy g'oya tashuvchi obrazlarga prototip bo'lib xizmat qildi. Cho'lpon shu tarixiy voqealarni miridan-sirigacha tasvirlash uchun O'lmasjon, Zebi, Miryoqub, mingboshi, Razzoq so'fi kabi obrazlarning syujet liniyalaridan unumli foydalanadi. Raqib obrazi timsolida konkretlashtirilgan faol shaxs emas, ijtimoiy hayotning o'zi beriladi [4].

Cho'lpon nasri masalalari haqida teran tadqiqotlar olib borishni jiddiy tarzda davom ettirayotgan professor D.Quronov bu haqda shunday xulosalarni o'rtaga tashlaydi: "Biz Cho'lpon romaniga yondashganimizda adib uchun ayni shu mavzudagi romanga qo'l urish ijtimoiy-shaxsiy zarurat edi, degan qarashdan turtki olamiz. Cho'lpon uchun o'tmishni badiiy idrok etish vositasida: a) o'zini qiynagan ijtimoiy muammolarga javob topish-u zamonasining mohiyatini anglash; b) o'zining kechmish hayotida MA'NI, orzu- intilishlarida asos bo'lgan-bo'lmaganligini bilish; v) o'zi anglagan haqiqatni ifodalash orqali mavjud ijtimoiy voqelik va aldamchi siyosatga nisbatan qalb isyonini imkon darajasida chetga chiqarish tom ma'noda ichki ehtiyojga aylangan edi" [5]. Olimning bu fikrlari Cho'lpon romanida ham ijtimoiy voqelik bosh o'rinni egallaydi degan xulosamizni tasdiqlaydi. Muallifni qiynagan kechmish hayoti, amalga oshmagan orzu-armonlarini anglash jarayoni nihoyat uni mavjud ijtimoiy hayot hukmroni – aldamchi siyosatga nisbatan qalb isyoniga olib kelgan. Albatta, bu romanda A.Qodiriy romani orqali izchil davom ettirilgan ijtimoiy dard, shu dard egasining isyoni keng epik tasvir etilgan. Otabekning salmoqdor, keng ko'lamli ijtimoiy dardi O'lmasjon, Zebi, Miryoqubga kelib konkretlashgan, real hayot va unda yashaydigan mazlum shaxs va jamiyat dardining mushtarak badiiylashtirilgan shakliga aylangan. "O'tgan kunlar"da raqib vazifasini umuminsoniy ko'lamdagi shaytanat dunyosi, shaytoniy shaxsiyat bajargan esa, "Kecha va kunduz"da raqib maqomini real, tarixiy zamonda mustamlaka ko'rinishida erkin harakatlanayotgan ijtimoiy hayot egallagan.

Oybekning "Qutlug' qon" romanigacha bu an'ana, bizning o'ylashimizcha, izchil davom etgan. Oybek o'z romaniga asos qilib olgan yadro – substansiya dastlab A.Qodiriy, keyin Cho'lpon romanidagi syujet va obrazlardir. Bu muallif A.Cho'lponga o'xshab xamirturushni Qur'on qissalari, yevropa romani yoki faqat birinchi o'zbek romanidan olmaydi. U A.Qodiriy va A.Cho'lpon qilgan xamirdan qo'shib, bir oz shakl o'zgarishiga uchragan, o'z zamonasi g'oyalariga moslashtirilgan, qisman yaqin o'tmish, o'z nigohi bilan ko'rgan tarixiy zamon voqealarini tasvirlaydi. Bu ijtimoiy voqelik asosini 1916 yilda Toshkentda ro'y bergan mardikorlik voqeasi, mardikorlar qo'zg'oloni tashkil etadi. Ammo Yo'lchi va Gulnor muhabbatini berishda A.Qodiriyning oshiq va ma'shuqidan ta'sirlangani aniq seziladi. Ularning muhabbatlaridagi pokizalik, nazokat, sadoqat, liriklik kabi fazilatlar Cho'lpon romanida ochiq sezilmaydi. Raqib esa zamona zayli, sinfiylik g'oyalarining ta'siri ostida boy, mulkdor, ma'lum darajada zulmkor Mirzakarimboyga aylanadi. Bu tomonlama Oybek Cho'lpon romanidagi Mingboshi obraziga muayyan modifikatsion ishlov beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.-B. 190.
2. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. – B. 164.
3. Karimov N. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani / Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Sharq, 1995. B. – 285.
4. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. Birinchi kitob. Kecha. – Toshkent: Sharq, 1995. –B.96
5. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 284.

HAMZA SHE'RLARIDA ZAMONDOSH AYOLLAR OBRAZI ("Oymisan yo qamara..." she'ri tahlili misolida)

Nodira XOLIKOVA,
O'zbekiston, TDO'TAU, doktranti, f.f.n.

Annotatsiya. XX asr boshida Turkiston o'lkasida xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqei birmuncha o'zgardi. O'zbek jadid she'riyatida xotin-qizlar obrazi juda keng istifoda etilib, bu mavzuda ko'plab ma'rifatparvar ijodkorlar singari Hamza Hakimzoda Niyoziyning hissasi cheksiz bo'ldi. Maqolada o'tgan asrning benazir san'atkori Tamaraxonimga bag'ishlangan she'r tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Tamaraxonim, Parij, erk, ona-Vatan, ma'rifat, paranji tashlash kampaniyasi, "hujum", mutassiblik.

XX asrda Turkistonda tarixiy vaziyat tamomila yangi o'zanga o'tib, maqsad ham, inson ham, adabiyot ham "ijtimoiylashdi". Davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she'riyat "ro'mon va tiyotru" kitoblari bilan raqobatga kirishishi, ularning imkoni doirasidagi vazifalarni qisman bo'lsa ham zimmasiga olishni taqozo etgani ravshanlashadi.

Bu hodisani xotin-qizlar bilan aloqador lirik matnlar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. O'tgan asrning dastlabki choragida Hamza Hakimzoda Niyoziy bu mavzuga nisbatan ko'proq yondashgan va masalaning jiddiyatini tushungan holda millatga yuzlangan. She'riyat zohirdan o'z an'anaviy shakllarini saqlagan holda mohiyatan o'zgarib, yangilanib bordi. Hamza lirik qahramonining yori – ona-Vatan. Uning ijodida ayollar mavzusi dardli va keskin ohangga ega. Shoirning bor tilagi – ayollar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma'rifatli qilish, jamiyatda hukm surayotgan "johillik" kishanlaridan qutulishga da'vat etishdan iborat edi.

Hamzaning "Oymisan yo qamara..." she'ri benazir o'zbek san'atkori Tamaraxonim haqida. Ilk bor "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1971 yil 1-sonida e'lon qilingan bu she'rning yozilish tarixi haqida Tamaraxonim bunday yozadi: "Farg'ona shahridagi binolardan birini bizga repetitsiya o'tkazish uchun berilgan edi. Tez kunda kontsert programmasi tayyor bo'ldi va avvalo Farg'ona, so'ng Marg'ilon, keyin Qo'qonga borib, tomosha ko'rsatdik. Biz yo'lda ketar ekanmiz, Hamza poezdda unda-munda menga ko'z tashlab, miyig'ida kulib, uzun qog'ozga she'r yozar edi. Ertasi konsert vaqtida Hamza mening o'yinimdan keyin sahnaga chiqib, boshimga tillaqosh taqdi-da, bu she'rni xalqqa o'qidi..." ("O'zbek tili va adabiyoti", 1971, 1-son, 77-bet).

*Oymisan yo qamara,
Beling nozik kamara,
Noming ekan Tamara,
Jahonga kulib qara.
Shon-shavkat keltirding san
Elimizdan Parijga,
Yasha, endi ko'rma g'am,
Yasha, singlim Tamara [1, 304].*

Ayol kishining sahnaga chiqishi Turkiston hayotida aql bovar qilmaydigan ish edi. Lekin olti yoshli qizalog'ining go'zal harakatlarini ko'rib, katta iste'dod ulg'ayotganini ilg'agan Tamaraning onasi "Mana, ko'rasiz, u hali Parijda raqsga tushadi!" – deya g'ururlanib aytgan, biroq bu gapni eshitganlar onaning ustidan kulishgan. Vaqtlar o'tib Parijdagi tantanali chiqish yosh raqqosa Tamaraning kelajakdagi zafarlariga debocha bo'ldi. Uning san'atga cheksiz ishtiyoqi va havasi kun sayin ortib borar edi. Ayni damda o'ziga va hatto ota-onasiga yomon ko'z bilan qarovchi kimsalar ham ko'payib borar edi. Otaga, qizini tiyib olmasa, ta'zirini berishlarini aytib, tahdid qilishgan (afsuski, shunday bo'lgan ham, Tamaraning otasini o'ldirib ketishgan). Ammo bir voqea Tamaraning taqdirini o'zgartirib yuborgan. Xalq orasida madaniy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish yuzasidan mas'ul etilgan Hamza boshchiligidagi "Sharq" tashviqot poezdi uning shaharchasiga kelib to'xtaydi. Kimdir Hamzaga juda iste'dodli yosh raqqosaning

xabarini beradi. Shunday qilib yoshgina Tamara 1918 yil ilk marta sahnaga chiqib, atigi 26 yoshida ayol san'atkorlar ichida birinchi bo'lib O'zbekiston xalq artisti unvonini qozonadi.

Tamaraxonimga bag'ishlangan bu she'rda aslida xalqimizning barcha iqtidorli, qobiliyatli, san'atchi xotin-qizlari madh etilgan. Ularning iste'dodini bo'g'ayotgan, chimmatlarga burkab dunyoni ko'rsatmayotgan ayrim mutaassiblar Hamzaning o'tkir tig'li so'zlariga duchor bo'lishgandi:

Shayxlar jannat deb haryon

Lof chekkanlari yolg'on.

Berolmas ikki jahon

Bu samardek samara.

She'r ommaga, "qora el"ga qarata aytilgan bo'lib, unda xalqning muayyan vakillariga murojaat, arz, shikoyat va nido ham bor edi. Buni ustoz Ulug'bek Hamdam juda yaxshi izohlaydi: *"Hamza aytmoqchi "qora el"ning tushunishi oson bo'lishi uchun jadid shoirlari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o'ringa qo'yadilar – narsalar o'z nomi bilan ataladi. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirlarining aksariyat she'rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq – va'zdir. Shu sababli ham jadid she'riyatida obrazli ifodadan ko'ra ritorik priyomlar muhim ahamiyat kasb etadi"* [2, 99-100].

Hamzaga zamondosh ijod ahli ham millatning ilmu ma'rifati, ziyosi, erki va istiqboli muammosining yechimini, eng birlamchi, xotin-qizlarni ma'rifatli qilishda deb bilgan. Ulkan ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy arab ayollarining turmushi haqida shunday yozadi: "Yerli arablarda qatorda ko'p bo'lur, sahroi xotunlari qochmaydi. Shaharlilarini Turkistonga nisbatan "yarim satr" (yarim o'ralgan), ammo o'zlarini yaxshi tutarlar. ... jome'larida dastalar ila muslimalar kelib nomoz o'qimoqda... Masjid ravoqlarining kunjida o'z uyida tikish tikib o'tirgani ko'riladur, ammo faraji ilan" [3, 16]. Ko'rib turganimizdek, Behbudiy ayolga xos ibo va hayoni faqatgina libos bilan bog'liq emasligini ta'kidlamog'chi bo'lgan. Jadid ma'rifatparvarlari bu to'g'rida hamisha yakdil fikrda bo'lishgan.

"1927 yil bahorida Toshkentda partiya kengashi juda tezlik bilan Turkiston ayollarining paranjisini yechish maqsadida o'z oldiga 6 oylik muddat qo'ydi. Ya'ni oktyabr revolyutsiyasining 10 yilligi sharafiga Turkiston ayollarini paranjidan qutqarish harakati boshlandi, unga "Hujum" deb nom berildi. "Hujum" harakati mohiyatan eski, mog'or bosgan illatlarga qarshi hujum va ularni bartaraf etishni nazarda tutgan bo'lsa ham, Turkiston va Ozarbayjonda u avvalo ayollarning paranji tashlashi va ozod bo'lib, savod chiqarishini maqsad qilgan" [4].

Tamaraxonim singari paranji-chimmatga o'ranishni istamagan, o'z haq-huquqlarini talab qilib chiqqan xotin-qizlar kun sayin oshib borayotgan edi. Hamzaning shu yillarda yozilgan asarlarida siyosiy mafkura qolipiga moslashish kayfiyati seziladi. Unda hatto sho'ro mafkurasiga xizmat qiluvchi shior va chaqiriqlar yo'q emas. Biroq shunday bo'lsa-da, asarlarida erk va ma'rifatga undash g'oyasi dolzarbligicha qolgan. Jumladan, Hamzaning o'sha yili yozilgan "O'zbek xotin-qizlariga" she'ri "Yangi Farg'ona" gazetasining 22 fevral sonida "Chig'iriq" bo'limida "Tovontesha" imzosi bilan bosilib chiqqan:

Keldi ochilur chog'ing o'zliging namoyon qil,

Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.

Maktab, anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi

Ilmu fan tig'i birlan jahl bag'rini qon qil [1, 196].

Aynan paranji tashlash kampaniyasi boshlangan paytda yozilgan mazkur she'r ko'plab mahalliy mutaassib dindorlarda noto'g'ri taassurot uyg'otgan. Nafaqat erkaklar, hatto ayrim ayollar orasida ham paranji tashlashga tish tirnog'i bilan qarshi kurashganlari yo'q emas edi [4]. Biroq Hamza kabi jadid ma'rifatparvarlari ko'zlagan maqsad faqatgina "shakl" bilan emas, aynan "mazmun" bilan bog'liq edi.

Millat ziyolilari xotin-qizlarga ko'rsatilgan jabr-zulmga qarshi chiqib, ularning to'laqonli mustaqil shaxs sifatida tan olishni targ'ib qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ayollar ma'rifati haqida shunday degan edi: *"Ayol eng hurmatga sazovor insondir. Unga erkinlik berilishi,*

ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratilishi, moddiy va ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lishi lozim. Shariat ayolning ma'lumot olishini ta'qiqlamaydi, aksincha buyuradi" [5]. Dastlab jadidlar tomonidan targ'ib qilingan xotin-qizlar ma'rifati, erki va hurriyati g'oyalari keyinchalik sho'ro mafkurasiga qo'l kelgan. Shu bois ilm-ma'rifat g'oyasi targ'ibi bilan "Hujum" kampaniyasi harakatlari go'yo uyg'unlashib ketdi.

Yuqoridagi she'r tahlili shuni ko'rsatadiki, Hamzaning ayollar obraziga bag'ishlangan she'rlarida erk va ozodlik g'oyalari targ'ib etildi. Zero, har bir shoirning estetik ideali – jamiyat ravnaqiga, insonlar tafakkurini o'stirishga va zamon talabiga javob beradigan barkamol avlodni yetishtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga she'riyatdagi ijtimoiy pafos, zamon ruhi va kayfiyati o'ziga xos munosabat va tasvirni yaratgan. Zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning estetik ideali haqidagi tasavvuri namoyon bo'lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 304.
2. Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи З.Қобилова. – Т.: Фарғона, 2019. – Б. 99-100.
3. Яхшиликков Ж., Убайдуллаева Н. Жадидчилик ва Бехбудий. –Тошкент: Фан, 2004. – Б. 112. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т., 1997. – Б.16.
4. <https://hudud24.uz/paranzhi-sirlari-turkiston-ayollarining-khurriyatga-erishish-julidagi-kurashlari-khakida/>
5. Жадидлар ҳаракати//<http://jadid.myl.ru/publ/1-1-0-10>

JADIDLAR IJODIDA ZIYOLI OBRAZI

G'iyosiddin SHODMONOV,
O'zbekiston, QarDU, PhD

Shohista SHERMAMATOVA,
O'zbekiston, QarDU, talaba

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidlar ijodida alohida o'rin tutuvchi, ular ilgari surgan g'oyalarning badiiy ifodasiga aylangan ziyoli obrazi xususida so'z boradi. Unda jadidlar ijodi atroflicha tadqiq etilgan, istiqlol yillarida yuzaga kelgan ilmiy asarlardan foydalanildi. Shuningdek, XX asrda yaratilgan jadid adabiyotining durdona asarlaridan namunalar keltirildi. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik, sotsiologik, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kalit so'z va iboralar: jadidlar, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, drama, nasr, g'oya, ziyoli obrazi, ma'rifatchilik.

Professor Begali Qosimov "Jadid" so'zining "yangi", "yangilik tarafdori" degan ma'nolari bilan birga uning "yangi tafakkur", yangi inson", "yangi avlod" singari keng mazmuni ham borligini e'tirof qilgan [4, 61]. Shu boisdan millatni uyg'otish, uni ma'rifatli qilish, ozodlikka olib chiqishga intilgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda "jadid" degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa "jadidchilik" deb nomlandi.

Ma'lumki, jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelib, XX asr boshlarida to'liq shakllangan. U o'zining chuqur asoslariga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi va kuchli ijtimoiy, siyosiy hamda amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o'zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakat

xususida adabiyotshunos olim Begali Qosimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: “Jadidchilik oqim emas, harakatchilik. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakatchilik. Jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar g‘ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” [4, 62].

Jadidchilik harakatining ilk maqsadi Avloniy ta’biri bilan aytganda, “qora xalqni oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga” kirishish bo‘lgan. Ana shu maqsad yo‘lida yangi tipdagi maktablarni ochish, yosh avlodni savodli qilishga harakatlar kuchaygan. Jadidlar bu jarayonlarda, millatga, ayniqsa, shu millatning yosh avlodlariga yangi fikr, yangi g‘oyalarni yetkazish uchun maqolalar, ocherklar, she’r va hikoyalar zarurligini sezdilar. Shu tarzda jadid adabiyoti rivojlana boshladi.

“Jadid” istilohining kirib kelishi Ismoilbek Gaspirali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog‘liqligi ilm ahliga ma’lum. U shunday yozadi: “1884-sanasi Boqchasaroyda bir maktab(n)i usuli jadida (yoki usuli savtiya) qo‘ymish edim”. 90-yillarda bu yangi usul Turkistonga yetib keladi. 1893-yili Ismoilbek Gaspiralining o‘zi Buxoroga kelib, amir bilan uchrashadi va yangi maktab ochishga muvaffaq bo‘ladi. Ismoilbek Gaspirali tashabbusi bilan paydo bo‘lgan bu yangilikni Turkiston maktablarida Avloniy, Hamza, Shakuriy kabi ilg‘or pedagoglar hayotga joriy eta boshladilar va maktablar uchun qator darsliklar yaratdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidiy va boshqalar jadid g‘oyalarini yoyishda nashriyot ishlariga, matbuot sohasiga katta e’tibor berdilar. Ular va ularning hammaslari “Vaqt”, “Osiyo”, “Shuhrat”, “Hurriyat”, “Ulug‘ Turkiston”, “Sadoyi Turkiston” gazetalarida Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ravnaqi uchun zarur bo‘lgan muammolarni ko‘tarib chiqdilar, kezi kelganda, mustamlaka siyosatiga qarshi fikrlarni ilgari surishda jasorat ko‘rsatdilar.

“Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. ...Millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsun” [4, 239]. Mana shu ehtiyoj va zaruriyat natijasi o‘laroq o‘zbek dramaturgiyasining birinchi namunasi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi maydonga keldi.

Milliy uyg‘onish, millat o‘zligini anglatish jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil etadi. Xususan, jadidlar tomonidan turli janrlarda yaratilgan asarlarda gavladangan ziyolilar obrazi:

birinchidan, jadidlar ilgari surgan bosh g‘oya – millatni uyg‘otish, o‘zligini tanitishning badiiy ifodasi;

ikkinchidan, ma’rifatchilik g‘oyasining bosh targ‘ibotchisi bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek dramaturgiyasining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasi hisoblangan “Padarkush” dramasi qahramoni bo‘lgan ziyoli obrazi ham jadidlar dardi, orzu-maqsadlarini o‘zida jamlagan va ularni xalqqa yetkazishga xizmat qilgan obrazdir. Ziyoli tomonidan boyga kuyunchaklik bilan aytilgan quyidagi so‘zlar fikrimiz dalilidir:

“Hozir yangi va boshqa bir zamondur. Bu zamong‘a ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘ldan ketgandek, axloq obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qumoqg‘a sa’iy qilmoqimiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav’ naf’lik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorg‘acha bizlarga farz qilgandir” [3, 43].

Aslida asarda yana bir jadid – ziyoli timsoli bor. U asar boshida ko‘rinish beradigan Domullo obrazidir. Bunday deyishimizga ikki asos bor. Birinchidan, muallif asar qahramonlarini tanishtirayotganda bu obrazga quyidagicha ta’rif bergan: *“Domullo – yangi fikrlik bir mulla, 30-40 yashar”*. Ikkinchidan, uning boy bilan suhbatida jadidlarga, davr ziyolilariga mushtarak mulohaza sohibi ekani yaqqol anglashiladi:

DOMULLA. Xo‘b, xo‘b, boyvachcha katta bo‘lubdur, Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o‘qiydur, yoinki eski maktabga?

BOY. Ikki-siga ham bormaydur.

DOMULLA. O'z hovlingizda o'qutaturg'onsiz?

BOY. Yo'q, yo'q. Men o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q.

DOMULLA. Ajoyib, sabab nedurki, o'qutmaysuz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

Bundan tashqari, asardagi Ziyoli obrazining unga munosabati ham fikrimizni dalillaydi:

ZIYOLI: Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish (odamlarga qarab), bu shaharda boylarga amri ma'ruf qilaturg'on mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domullani topib, ziyorat qilmoq kerak.

Yuqorida tilga olingan obrazlar asarda asosiy g'oyani tashiydi. O'g'lini o'qitishga da'vat etgan ziyolilar so'zlariga quloq solmagan boy o'sha davrning g'aflat uyqusida qolgan kishilarining umumlashma obrazidir.

Jadidlar o'z g'oyalari va fikrlarini qay usulda yetkazishmasin umumiy mushtaraklik sezilib turadi. Ijodiy yoki ijtimoiy-siyosiy faoliyat bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro hamfikirlik ko'zga tashlanadi. Buning isbotini Munavvar qori Abdurashidxonovning quyidagi fikrlarida ko'ramiz: "Ko'p dindorlarimizni ko'ramizki, o'z farzandlarini aslo maktabga bermay, ...dunyo va oxirat saodati o'lg'an ilm va maorifdin mahrum qilmoqdan hech bir ibo qilmaslar" [2, 16].

"Padarkush"ning dastlab Samarqandda 1914-yilning 25-yanvarida sahnaga qo'yilganida "Oina" jurnali tomoshabinlar kayfiyatini quyidagicha bayon qilgan edi: "Boyni hamboza (xurrak) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulardi. ...Domla va ziyolini nasihati xaloyiqni ko'nglig'a ta'sir etardi, hatto va'zu pandga yig'laganlar bor edi... Bu fojia va alamlik manzarani parda yopar. Xalqqa haddan ziyoda ta'sir. Ba'zi kishilar fojiadan ko'z yumarlar" [4, 240]. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda, spektakl o'z maishatiga o'ralib dunyoni unutgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta'sir etgan edi [4, 240].

Yana bir shunday obraz Fitratning 1920-yilda yaratilgan "Chin sevis" dramasida aks etgan. Asar hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Qahramonlardan biri Yevropada o'qib kelgan ziyoli Karimbaxsh obrazidir. U bir vaqtlar Yevropani maqtar edi. Endi esa fikri o'zgargan: "Ovrupada bilim bor, lekin insof yo'q. Ovrupaning bilimi qoplonning tishi, tirnog'i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yemak to'g'risida ko'p ish ko'rmishdir...", - deydi xotini Fotimaxonim bilan suhbatida. Xotini Yevropani maqtash fikridan nega qaytganini so'raganda esa: "Qaytganim yo'q. Ovrupa ilmlarini o'rganmak, albatta kerakdir. Ovrupada o'qumoq, ovrupalilarni insofli, adolatli deb maqtash uchun emas, unlardan o'zimizni saqlagani, tishli, tirnoqli bo'lmoq uchun kerakdir" [1, 10].

Aslida, asarda Turkistonda sodir bo'layotgan voqealar asos qilib olingan edi. Bejizga Mahmudxo'ja Behbudiy: "Bizlarga lozimki, o'z naf'imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o'qiyluk. Davlat mansablariga kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xizmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk", [3, 152] deya uqtirmagan.

Asarda, avvalo, ma'rifatchilik talqinining o'zgarganiga guvoh bo'lamiz. Asar avvalida ziyoli Karimbaxsh nazdida Yevropa ideal, ilm-ma'rifatga timsol edi. Tafakkur ko'zlari ochilgani sari boshqa manzara namoyon bo'la boshladi. Ularning og'izdagi gaplari qilayotgan ishlari o'rtasidagi jarlik tobora ravshanroq ko'rina boshladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi qahramonlari Mahmudxon va Maryamxon ham o'z davrining uyg'oq, ziyoli, millat istiqboli uchun kurashgan yoshlardan edi. Lekin ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo'lgach, ilojisiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga, mutaassiblarga qarshi isyon sifatida o'z hayotlariga qasd qiladilar.

Bunday xotimadan ko'zlangan maqsad esa kitobxon yoki tomoshabinlar qalbida Mahmudxon va Maryamxonlarga nisbatan muhabbat, rahm-shafqat, ularni fojiaga olib kelgan mutaassiblik, jaholatga qarshi nafrat tuyg'ularini mavj urdirishi kerak edi [5, 395].

Ziyoli timsolining yana bir yorqin ifodasi Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida mavjud. Unda ijodkor jadid obrazi orqali bu g'oyalarni dramaturgiyadan nasrga ko'chiradi. Xususan, poyezdda Miryoqub bilan hamsuhbat bo'lgan jadidning fikrlari ham bunga misoldir:

“...Bizning baxtsizligimiz – nodonligimizda, xolos. Millat uygʻonsin, koʻzini ochsin, oʻqisin, bilim olsin, madaniy millatlar qatoriga kirsin, soʻngra u ham oʻz davlati, oʻz baxti, oʻz saodatini quradi.

Millatni uygʻotish – uygʻonganlarning vazifasi. Mana siz: ancha eslik, hushyor, ziyarak odam koʻrinasiz. Davlatimgiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet oʻqimaysiz. Shu zamonda mundan yomon gunoh bormi? Qanday yaxshi gazetlar bor. Orenburgda, Qozonda, Ufada, Bokuda, Astraxand, ayniqsa Moskvada, urush bitgandan keyin chetdan oldirib oʻqing! Boqchasaroyda besh soʻm pul yuborsangiz, bir yilgacha har kuni “Tarjumon” keladi” [6, 173].

Haqiqatan ham, Munavvarqori Abdurashidxonov taʼkidlaganidek, “Bugungacha Ovrupo xalqi osmonga uchar ekan, bizda soch va soqol nizolari, ovrupalilar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun elektrik bilan isitilur va yoritilur ekan, bizda maktablarda joʻgʻrofiya va tibbiyot oʻqitish-oʻqitmaslik ixtiloflari... davom etadi” [2, 18].

Suhbat davomida Miryoqubning “oʻgʻlimni oʻris maktabiga beraman” degan soʻziga javoban jadid: “Bu fikringiz xato. Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab boʻlmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hissini oʻstirib, oʻz millatini tanitgandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni oʻqisin. Undan keyin Germaniya, Frantsiya, Angliya mamlakatlariga, hatto dunyoning narigi chekkasidagi Amerikaga yuborib oʻqitish kerak...” - deb javob beradi [6, 176]. Bu fikrlar bugungi kun uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Xulosa qilib aytganda, millatni uygʻotish, oʻzligini tanitishdek masʼuliyatli vazifa jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan birga ijodida ham teng olib borilgan. Bu asarlardagi ziyolilar obrazi jadidlar maqsad-gʻoyalarining ifodasi boʻlib xizmat qilish bilan birga, ularning muvaffaqiyatli amalga oshishida ham katta yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3-жилд. - Т.: Маънавият, 2003.
2. Abdurashidxonov M. Jadidlar. Nashrga tayyorlovchi S. Xolboyev. - Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
3. Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 1999.
4. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2008.
5. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиети. - Т.: Маънавият, 2004.
6. Чўлпон. Кеча ва кундуз. - Т.: Шарқ, 2000.
7. <https://www.bukhari.uz/?p=22991&lang=oz>

JADID DRAMATURGIYASIDA INSON VA ISTIQLOL KONSEPSIYASI (Behbudiy va Fitrat dramalari misolida)

**Maxsuda BERDIMURATOVA,
Oʻzbekiston, TerDU, f.f.n., dotsent**

Annotatsiya: Mazkur maqolada oʻzbek adabiyotshunosligida hukm surgan 10-yillardagi jadid adabiyotining asosiy xususiyatlari hisoblangan qarashlarga biroz oʻzgartirish kiritgan Amerikada XX asr oʻzbek adabiyotini oʻrganish ilmiy maktabi asoschisi Eduard Ollvordning fikrlari mulohazaga tortilgan.

Kalit soʻzlar: jadid adabiyoti, “Padarkush”, ramzlar, Eduard Ollvord, Inson, Istiqlol.

XX asr boshlarida jadid ijodkorlarimiz oʻz oldilariga va jamiyat kun tartibiga tamoman yangi barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini qoʻygan edilar. Yangi asr shiddatli talotoʻplar bilan

boshlandi va endi eskicha yashab bo'lmay qoldi. Prof. B.Qosimov bu haqda yozadi: "Jadidchilikning asosida "jadid" so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi" demakdir. U shunchaki "yangi" yo bo'lmasa, "yangilik tarafdori" degani emas. Balki "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etadi" [1, 5]. Keling, endi konsepsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Konsepsiya [lat. conceptio] – 1) qarashlar tizimi, hodisa, jarayonni u yoki bu tarzda tushunish; 2) biror asar, ilmiy ish va shunga o'xshash narsalarning yagona, yetakchi, asosiy g'oyasi, aniqlovchi fikri [2, 7].

Demakki, yangi Inson tushunchasi haqidagi qarashlar yig'indisi Inson kontsepsiyasi atamasi zahirida jam bo'ladi. Inson kontsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-etnik tadriji barcha zamonlarda tadqiq etilgan. Aflotun yangi davlat qurish nazariyasi, jamiyatda har bir soha vakillarining o'rnini, vazifasi, davlat va jamiyat munosabatlari haqida bahs yuritib, yangi jamiyatdagi inson kontsepsiyasining qator tamoyillarini sanab o'tgan [3, 464]. Yangicha badiiy tafakkur nuqtai nazaridan inson kontsepsiyasini o'rgangan olim Georg Vilgelm Fridrix Gegel qarashlari so'nggi uch asrdan buyon asosiy parametrlarda yetakchilik qilib keladi. XX asrda Zigmund Freyding inson haqidagi ilmiy-nazariy qarashlari adabiyotning keyingi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mixail Baxtin "insoniy evrilish – o'zlikni anglash bilan birgalikda kechishini, inson konsepsiyasining bir necha bosqichlari borligini ta'kidlaydi. Nikolay Berdyayev esa shaxs inson qobiliyatining butun ma'naviy-ruhiy ustuni, insonni ijod va ozodlik bilan bog'lovchi inson kontsepsiyasining asosidir degan fikrni ilgari suradi [4, 77].

Hamma davrlarda inson jamiyatning kapitalidir. Hox u xoja bo'lsin, hox qul bo'lsin, inson boylikdir. Badiiy adabiyotda ham Inson tushunchasi islomiy qarashlar bo'yicha Olamning gultoji. Har bir inson bir Olam. Bir insonning yo'q bo'lishi bir olamning yo'q bo'lishidir.

XX asrning 11-yiligacha o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri yo'q edi. Aristotel san'atni mimesis taqlid natijasi deb atagan. Ammo shunday bo'lganida edi, bizda ham dramaturgiya ertaroq ro'y bergan bo'lur edi. Shekspir davrida dramaturgiya o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan ekan, buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. Shekspir ijodi, jumladan dramaturgiyasi oziqlangan sarchashma ingliz xalq og'zaki ijodidir. Ingliz xalq og'zaki ijodi murakkab, sintetik san'atdir. Ko'pincha unda turli xil san'at turlarining elementlari birlashadi. Bular – so'z (og'zaki), musiqiy, teatr. Uni turli fanlar – tarix, psixologiya, sotsiologiya, etnologiya, (etnografiya) o'rganadi. U xalq hayoti va marosimlari bilan chambarchas bog'liq. Ming bor eshitgandan, bir bor ko'rgan afzal, - degan maqol ingliz, xususan, Shekspir asarlariga qanchalik singdirib yuborilgani diqqatga sazovordir.

XX asrning 11-yiliga kelib, o'zbek jadid adabiyotiga ham dramaturgiya janri kirib keldi. Ilk dramatik asar "Padarkush" yoxud o'qimag'on bolaning holi" deb nomlanadi. Behbudiyning "Padarkush"ini, umuman 10-yillardagi jadid adabiyotini biz juda jo'n, sodda, quruq da'vat va chaqiriqlardan iborat deb hisoblaymiz. "Jadidchilikning ruhi va mazmunini o'zida bekamu ko'st namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o'ynaydi. Bu adabiyotning ilk namunalari badiiyatiga ko'ra u qadar yuksak emas, g'oyalar yaydoq beriladi. Yalang'och da'vat va chaqiriqlar, shiorbozlik ko'zga tashlanadi" [5, 128]. Jadidchilik ilmiy maktabining asoschisi B.Qosimov shunday fikrni o'rtaga tashlagan. Biz bu fikrga qo'shilamiz.

Amerika o'zbek jadid adabiyotini o'rganish ilmiy maktabi asoschisi Eduard Ollvordning Behbudiy "Padarkush"i haqidagi fikrlari o'zgacha. Uning fikricha, "Padarkush" oddiy asar emas. Undagi ismlar bekorga tanlanmagan. "Padarkush" dramasidagi ismlar hammasi timsol bo'lib, asarda ko'chma ma'no tashishga xizmat qiladi. Masalan, boyning o'g'li Toshmurod. Tosh va murod birikmalaridan yasalgan. Tosh-turkiycha so'z bo'lib, qattiq. Murod - arabcha so'z bo'lib, ko'pligi murodot, niyat maqsad deganidir. O'zining qattiq niyatiga yetgan, toshmehr. Ko'ngli qattiq yigit. O'z otasiga bemehr.

Tangriqul – uning do'sti. Tangri va qul so'zlarining birikmasidan yasalgan ism. Tangrining quli Tangri yaratgan bandani o'ldiradi. Unga qullik qilmadi. Toshmurodning yana bir do'sti Nor. Nor – arabiy so'z bo'lib, ko'pligi niyron. Birinchi ma'nosi: shu'la, o't, olov degan ma'noni bildiradi. Ikkinchi ma'nosi – anor. Bu do'zax olovi deganidir. Davlat – bu ham boyning o'g'li

Toshmurodning jo‘ralaridan. Ismi Davlat bo‘lsa ham 3-4 so‘mga zor bir bo‘z yigit. Mazkur ism bu asarda ironiya ma’nosini ifodalaydi. Davlat bir so‘mga zor yigit. Barcha dinlarda, xususan islom dinida odam o‘ldirish qattiq qoralanadi. Insonga jonni Yaratgan ato etdimi, vaqti kelib o‘zi qaytarib olishi kerak. Aynan Tangriqul Toshmurodning otasi boyni pichoqlab o‘ldirgani uchun unga shu ism tanlangan. U garchi ismi Tangrining quli bo‘lsa-da, behuda inson qonini to‘kkani uchun u do‘zaxning lang‘illagan olovida yonishga mahkum.

Xayrullo – boyning mirza va mahrami, 18-20 yashar. Mazkur ism ham ikki qismdan iborat. Xayr- arabcha so‘z bo‘lib, ezgulik, yaxshilik degan ma’noni bildiradi. Ismning ikkinchi qismi Illo, Ollo bo‘lib, Allohning ezgulik, yaxshilik qiluvchi bandasidir. Xayrullo boyga sadoqat bilan xizmat qiluvchi yaxshi yigit. Uning yaxshi fazilati ismida ham aks etgan. Liza – rus xotini, qabiha shaklida. Qabiha arabcha so‘z bo‘lib, ko‘pligi qaboyih – yomon ish, ifloslik degan ma’noni bildiradi. Barcha jadid ijodkorlari asarlarida boshqa millatga mansub axloqsiz ayol obrazi uchraydi. Behbudiyning “Padarkush”ida ham Liza obrazi shunday vazifani bajaradi. U erkaklarni qabul qiladi va Artunning so‘ziga ko‘ra, pulni oldi bilan so‘raydi. Ichib kayf qilib o‘tirgan yigitlarning pullari yetmaydi va boyning o‘g‘li Toshmurod ularni uyiga boshlab kelib, pul o‘g‘irlashga majbur bo‘ladilar. Barcha yomonliklar axloqsizlikdan boshlanishini Behbudiyni mazkur dramada yaxshi ko‘rsatgan. Mayxonachining arman millatiga mansubligi ham Turkistonning o‘sha paytdagi hayotini to‘la ochib beradi. Kunlik pul tushib turadigan nuqtalarning barchasini armani va juhudlar egallab olgan, o‘zbeklar esa dalada edi. Chor mustamlakasi bilan birga xalqimiz hayotiga ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi illatlar kirib kelgani mazkur asarda to‘laqonli ochib berilgan. Toshmurod o‘qimagan johil bola. U johilligi sabab otasini o‘ldirdi. Asardan chiqadigan xulosa shuki, butun millat bolalari shunday bo‘lsa, nima bo‘ladi?

Asardagi barcha ismlar amerikalik olim ta’kidlaganidek, kinoyaga asoslangan bo‘lib, ular asar mohiyatini ochishda kalit vazifasini bajaradi. Demak, XX asr boshiga kelib milliy adabiyotimizga yangi tur va janrlar bilan birga, rus adabiyoti orqali jahon adabiyotidan o‘tkir ironiya ham kirib keldi. Bularning barchasi zahirida “inson”, “yangi inson”, “yangi insonni tarbiyalash” kabi jamiyat uchun nihoyatda qiyin bo‘lgan masalalar turardi. O‘zbek mumtoz adabiyotida asrlar davomida Payg‘ambarimiz obrazi komil inson timsoli bo‘lib keldi. Jadid ijodkorlari dinni rad etmadilar, aksincha yangi avlodni ham islomiy ham dunyoviy ilmlar bilan qurollantirishni maqsad qildilar. Jadid ijodkorlari oldida tom ma’noda yangi barkamol ideal inson obrazini yaratish vazifasi turardi. Ammo tom ma’nodagi yangi barkamol insonni tarbiyalash qanchalar qiyin bo‘lsa, uning obrazini, ya’ni ideal inson obrazini badiiy adabiyotda yaratish undan ham qiyin edi. Shuning uchun jadid ijodkorlarimiz o‘zlari uchun juda qulay bir yo‘lni topdilar. Bu ideal insonning antipodini yaratish edi. Shu yo‘l tufayli A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon”idagi mulla Abdurahmon, “O‘tgan kunlar”dagi Homid obrazlari yaratildi.

Jadidlar kun tartibiga qo‘ygan yangi inson ma’rifatli bo‘lishi lozim edi. Ma’rifatdan ozod jamiyat sari qadam qo‘yilishi bu mantiqan juda to‘g‘ri edi. Chunki inson o‘z haq-huquqini bilmasa, savodi bo‘lmasa, qanday qilib u ozodlik haqida orzu qilishi yoki unga erishishi mumkin. Turkistondagi jadidchilik ma’rifat libosidagi ozodlik edi. Turkistondagi fikriy uyg‘onish, milliy ozodlik g‘oyalarining badiiy adabiyotda aks etishida shuhbasiz Abdurauf Fitrat markaziy o‘rinni egallaydi. Birgina uning daromatgariyasi bu sohada eng peshqadam o‘rinni egallaydi, deb bemalol ayta olamiz.

Fitratning “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” asarida voqealar Hindistonda bo‘lib o‘tadi. Buning uchta sababi bor, bizningcha. **Birinchidan**, asar voqealarining boshqa joyda bo‘lishi bu kitobxon uchun ekzotika. Qiziqarli va kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. **Ikkinchidan**, yozuvchi uchun himoya vositasi. Asar voqealarini boshqa joyga ko‘chirib tasvirlash badiiy adabiyotdagi shartlilik. **Uchinchidan**, Fitrat haj safaridan qaytayotganda, hamyonini o‘g‘irlatib, bir qancha vaqt Hindistonda qolib ketadi va qaytish pulini ishlab topgandan so‘ng vatanga qaytgan. Hindiston mavzusi Fitrat uchun begona emas, u yerni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Fitratning mazkur dramalaridagi insonlar tom ma’noda yangicha fikrlaydigan insonlardir. Aslida Fitratning o‘zi boshqacha fikrlagani, rus va g‘arb imperialistik siyosatining mohiyatini anglab yetgani uchun

ham uning qahramonlari shunday fikrlaydi. Fitrat dramalari qatida Istiqlol orzusi yashiringan edi. Istiqlol arabcha soʻz boʻlib, mustaqillik; oʻz-oʻzini boshqarish, avtonomiya degan maʼnolarni ifodalaydi. Buni biz “Chin sevish”dagi Karimbaxsh va Nuriddinxon obrazlarida koʻramiz. Bir vaqtlar Ovruponi maqtagan Karimbaxsh endi uni maqtamaydi. “Ovrupoda bilim bor, lekin insof yoʻq. Ovruponing bilimi qoplonning tish-tirnogʻi kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib yemak toʻgʻrisinda koʻb ish koʻzlamishdir”. Qizigʻi, Nuriddinxon ham shunday fikrlaydi. Oʻzi Yevropa tahsilini olgan yigit Yevropadan hafsalasi pir boʻlgan. “Ovrupoda hayvonliqdan boshqa narsa yoʻqdir. Ovrupolilarda ruh yoʻqdir. Bunlar ruhoniy lazzatdan bir narsa onglamaylar. Chin sevish va haqiqiy ishqning tub yeri Sharqdir. Majnunlar, Farhodlar kabi ishq paygʻambarlari Sharqda yetishdilar”. Ehtimol, har ikkisinin fikrlashi bir xil boʻlgani uchun Karimbaxshxon qizi Zulayhoni Nuriddinxonga loyiq koʻrar. Qancha mol-davlati koʻp boʻlmasin, Rahmatulloh oʻzining tuban fikrlashi bilan Karimbaxshning qalbidan tobora uzoqlashib boradi. “Hind ixtilolchilari”dagi Rahimbaxsh va Dilnavoz, “Chin sevish”dagi Nuriddinxon va Zulayho har ikki asardagi qoʻsh oshiq va maʼshuqalar yerdagi tubanliklardan balandga, koʻkka uchmoqni orzu qiladilar. Oʻz maʼshuqalarini balandlarga yuksalishga undaydilar.

Koʻkka parvoz qilish orzusi jadid adabiyotida eng koʻp uchraydigan detallardan. Yerdan umid nishonasini koʻrmagan Fitrat dramalari qahramonlari ham koʻkka-da uchmoq istaydilar. Goʻyoki “Qiyomat”dagi Pochamir koʻknorni orzu qilgani kabi. Choʻlpon va Fitrat asarlaridagi Koʻkka parvoz qilish detali bu jadidlar koʻksida bir umr yashirib kelgan Istiqlol edi. Bu davr adabiyotida oshiqona sheʼrlarini oʻtga yoqib, ozodlikni shior qilish va oʻz muhabbatini maʼrifatga izhor qilish bir anʼanaga aylandi. Adabiyotda Inson va Istiqlol kontsepsiyasining ifodalanishi dunyoning turli burchaklaridagi mintaqalarda boʻlgan. Lekin har xil vaqtda sodir boʻlgan. Milliy ozodlik harakatlari dunyoning har mintaqasida har xil vaqtda boʻlishi tarixiy sharoit bilan bogʻliq hodisadir. Masalan, shunday milliy ozodlik harakatlari lotin Amerikasida ham boʻlib oʻtgan va Panamalik shoir Modasto Moxako shunday yozadi:

Ortiq kuylamasman ishq-muhabbatni,
Ilohiy sheʼrlarga bormaydi qoʻlim.
Vatanda ozodlik boʻlmagunicha,
Ashuvlamiz bitta: hurlik yo oʻlim.

Shu tariqa, professor B.Qosimov eʼtirof etganidek, 10-yillar adabiyoti unchalik ham yalangʻoch va quruq daʼvatlardan iborat emas ekan. Garchi oʻzbek jadid adabiyotining ilk dramasi boʻlsa-da, “Padarkush” ramz va timsollar bilan toʻyingan bir asar ekanligi kuzatishlarimiz davomida maʼlum boʻldi.

Abdurauf Fitrat gʻarb imperialistik siyosatining mohiyatini erta anglab yetdi va dramalari bilan jadid adabiyotida Inson va Istiqlol kontsepsiyasini teran bir nazokat bilan anglagan va uni oʻz asarlari qatiga goʻzal bir tarzda singdira olgan ijodkor sifatida jadid adabiyotida alohida iz qoldirgan ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy uygʻonish – T.: Maʼnaviyat. 2002. –B 5.
2. Komilova S. Zamonaviy oʻzbek adabiy jarayoni konsepsiyasi. www.saviya.uz.
3. Камилова С. Современный рассказ: содержательный вектори и повествовательные стратегии. –Ташкент; Фан ва технология, 2016.- С. 7.
4. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop. – Toshkent: Akademnashr, 2015. –B.77-84.
5. Berdyaev N. Jamiyat hayotida soʻz va voqelik. // Jahon adabiyoti, Toshkent: 2006. – B.170-177; Samopoznaniya. –Moskva, 2017.http://www.litres.ru/pages/biblio_book
6. B.Qosimov. Milliy uygʻonish. –T.: Maʼnaviyat, 2002. –B. 128.

JADID ADIBLARINING IJODIDA MILLAT TALQINI

Normurod AVAZOV,
O‘zbekiston, TDO‘TAU, PhD, dots.

Annotatsiya. Muallif tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning davomchilari bo‘lgan jadidlarning ijodida millat talqini o‘rganib chiqilgan. Unda millat va milliyat masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, Fitrat, A.Qodiriy ijodining taraqqiysi Behbudiyning ijodining ta‘sirida vujudga kelganligi tahlilga tortilgan. Jadidlar ijodidagi bosh g‘oya – Turkiston mustaqilligi va millat qayg‘usi uchun kurash ekanligi amalda ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadid; millat; o‘lka; ilm; ma‘rifat; g‘aflat; istiqbol.

Turkiston o‘lkasida jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmagunicha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi” degan xulosasiga qo‘shilgan edilar. Millatning kelajagi uchun kurash milliy g‘oyasi jadid adabiyotining boshqa vakillari asarlarida ham yaqqol namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz. Ular ham Behbudiyning g‘oyasi targ‘ibotchilari hamda bevosita davomchilari hisoblanadilar.

O‘zbek jadid adabiyotida millat taqdiri va uning kelajagi hamda taraqqiyotini o‘zida aks ettirgan shoir va yozuvchilarimiz orasida Abdurauf Fitratning asarlari alohida ajralib turadi. Fitrat o‘zbek jadid adabiyotida she‘rlari, nasriy, dramatik, adabiy-tanqidiy, publisistik asarlari bilan katta hissa qo‘shgan.

1923-yilda “Turkiston” gazetasida Vadud Mahmudning “Behbudiyning va uning tegrasida yig‘ilgan yozg‘uvchilar” maqolasida: “Behbudiyning o‘zbeklarning ijtimoiy turmushlaridan olib tamoshag‘lar yozish yo‘lini ham boshlagan va o‘z to‘garagidagilarga o‘ng eshigini ochib bergan edi. Fitrat shu davrning qattiq milliyat ruhi bilan sug‘orilgan yosh va qizg‘in bir milliy qahramoni bo‘lib, adabiyot maydoniga otlandi” [1, 4-b.]

Fitrat ijodining mazmunida millat taqdiri, istiqloq mavzusi, yurt qayg‘usi, Vatan tuyg‘usi tashkil qiladi. Jadid adabiyotining yetuk vakili hisoblangan Fitrat go‘zal she‘rlari bilan barmoq vazniga asos solgan. Uning “Yurt qayg‘usi”, “Yurt qayg‘usi (sochma)”, “Yurt qayg‘usi (bir o‘zbek tilidan)”, “Yurt qayg‘usi (Temur oldinda)”, “Kim deyay seni?”, “Bir oz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Mirrix yulduziga”, “Ovunchoq”, “Yana yondim”, “Shoir”, “Behbudiyning sag‘anasini izladim”, “O‘git”, “Sharq”, “O‘qituvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham” she‘rlari shular jumlasidandir.

Fitratning “Behbudiyning sag‘anasini izladim” she‘ri millatning otasi va fidoyisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning vafoti munosabati bilan yozilgan.

Cho‘kmishdi yer uzra olam to‘sug‘i,
O‘ksuklik boyqushi qanot qoqardi.
Botuvda qizarib turgan bulutdan
Ezilgan ko‘nglima motam yog‘ardi –
misralar bilan boshlangan.

Shoir aytadiki, butun olam yer yuziga cho‘kkan, ko‘nglimda o‘ksuk, g‘amginlik hukmronidir. U boyqush kabi qanot qoqadi, ya‘ni boyqushday joylashib olgan. (Hammamiz bilamizki, boyqush yomonlik xabarchisi). Ko‘nglimning to‘rlarida ozgina bo‘lsa-da qolgan (bo‘lgan) umiddan, ya‘ni u ham botib ketayotgan bulutday, ezilgan ko‘nglimga yanada motam bo‘lib yog‘iladi.

Haqsizlik shahrining qon hidi yeli
Armonim gulidan bir yaproq uzub,
Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.
Ul nozli yaprog‘im so‘lib, sarg‘ayib,
Yo‘qsul qolg‘anlarday har yon yugurdi.

Mustabid tuzumning haqsizligidan qon hidlari sezilib turibdi, dunyo qadar bo‘lgan ishonchimning katta bir qismini uzib tashladi. Bu armonimni gulsiz, quruq cho‘llarga

aylantirdi. Ko'nglimdagi nozik bo'lgan o'sha yaprog'im so'lib, sarg'aydi. Uning o'zi yolg'iz qolganidan har tamonga o'zini o'rib, yuguradi, chopdi.

Zolimlar, mazlumlar, zulumlaring-da,

Qayg'ular, alamlar, o'lumlaring-da,

Bariga uchradi, barchasin ko'rdi,

O'z yo'qotqonin izladi, so'rdi.

Bir darak topmagach, birdan bir tikildi.

Milliy zulmga uchragan millatga nisbatan mustabid tuzumning ko'rsatgan zolimliklari, mazlumlarga nisbatan ularning ko'rsatgan tahqirliklari, ular millatning jonidan o'tkazib yuborgan qayg'ularining barchasini ko'rdi, bariga chidadi, hatto, millatning o'limlarini ham boshdan o'tkazdi (1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloni; 1916-yil Jizzax qo'zg'oloni). Ammo, o'zi yo'qotganin, ya'ni millat haqni-huquqni izladi, qidirdi, so'radi, topdi, kurashdi. Millatdan bir madad kelmadi, Muxtoriyatda ham haqiqat amalga oshmaganidan keyin arosatda bir nuqtaga tikildi. Najotni topolmay to'xtadi, turdi. Zolim mustamlakaning zulmidan to'ydi.

Bor kuchini to'pladi.

Zolimning taxtini titratgan bir tovush

Qichqirdi:

- Otamning qabrini qay yerga yoshurding?!

Bot so'yla!..

Kirli toj ko'b qo'rqdi botur tovushdan,

Seskanib, titrab ..yoshrunder

Bir javob bermasdan.

Ich-ichidan bor kuchini yig'di, to'pladi. Vujudlari junbushga keldi. Mustamlakachi zolimga qarshi, uning taxtiga qarshi, uni yuqotmoqchi bo'lgan zulmga mag'rur ovoz bilan baqirdi, qichqirdi. Millatning otasi qabrini qaelarga berkitding?! Nega yashirding?! Nega uni yo'qotding! Javob ber, zolim hukumat! Shoirning shunday keskin tuyg'ulari o'z aksini topdi.

Shoir uni kirli toj deb atadi. Uning bir og'iz "kirli" so'zi – bu zolim mustamlakaning o'lkada olib borayotgan vahshiyona siyosati edi. Bu kirli toj dunyolarni larzaga soluvchi bu botir tovushdan seskanib ketdi, bir titrab oldi. Jimliklarga burkanib, sekin yashrindi. Hech qanday javob bermasdan, orqada turgan, yetilib kelayotgan millatdan qo'rqdi.

Abdurauf Fitratning she'rlarida millatning taqdiri, ozor chekkan millat, milliy zulim, yurtning qayg'usi o'ziga xos ravishda tasvirlanadi. Uning "Yurt qayg'usi (sochma)", "Yurt qayg'usi (bir o'zbek tilidan)", "Yurt qayg'usi (Temur oldinda)" shular jumlasidandir.

"Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" [2, 368–369]da: "she'rlar ruknning sarlavhasidan ko'rinib turganidek, yurt – Vatan qayg'usiga bag'ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi. Epchil millatlar darhol istiqloq rejalarini ko'ra boshladilar. Turkistonning taqdiri qanday bo'ldi? Ayniqsa, so'nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga ko'milgan, o'z qiyofasini yo'qota boshlab, o'zga millat yetoviga tushgan Turkistonning. Fitratni qiynaydigan dard – shu!"

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,

Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir?

"Milliy uyg'onish o'zbek adabiyoti"da bu she'r to'g'risida: "She'rda muxtoriyat g'alabasining nash'u namosi balqib turibdi. Uyg'ongan xalq bilan birgalik tuyg'usi, otalar sharafi va ular ruhi oldidagi burch, el-yurt xizmati sururi yaxshi ifodalangan" [3, 369]. Qo'shimcha qilib aytish lozimki, lirik qahramon onasi, ya'ni bu-Turkiston. U mustabidlikda, qaramlikda. Uni qutqarmoq uchun millatning joni, nomusi, vijdoni, imoni kerak. Lirik qahramon millatga qarata aytadiki, mening tomirlarimda Temur va Chingizlarning qoni oqmoqda, toshmoqda. Men millat uchun jasorat qilishga shaylanganman. Turkistonni qutqarish uchun qon zarur bo'lsa, qon berishga, ya'ni kurashib o'lmoqqa ham roziman. Agar seni ko'ksingga dushman o'z qilichini yuragingga urgani kelgan bo'lsa, men unga ko'ksimni tutaman, qalqon bo'laman.

Ey, millat atrofingga boq, dushman Turkiston dunyosini, uning sabr-kosasini dengizday to'ldirib, toshqinlatib yubordi. O'lkada o'rnashib olgan bunday dushmanni yo'qotish, uni yo'q qilish uchun to'fon kabi katta kuch bo'lishi lozim. Turkistonim millating chor atrofiga qarasin, oyoqqa tursin, kurashga otlansin. Yurtini, o'lkani dushmandan himoyalash, tozalash uchun butun yurtini qo'riqlaydigan arsloni bo'lishi kerak!

Abdurauf Fitratning ijodida nasriy va dramatik asarlari ham millat taqdirini ko'rsatuvchi, yoritib beruvchi tomonlari bilan ham alohida ajralib turadi. Uning "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi" muallifning qayd etishicha, 1909-yili yozilgan [4, 46-93].

Muallif asarning muqaddimasida: "Buxoroning najib (yorug') millati bo'lgan vatandoshlarim, birmuncha vaqtdan beri jadid va qadim o'rtasida ixtilof chiqqani ba'zi millat xoinlarining xato va fasodlaridan boshqa narsa emasdir. Muqaddas vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydilar" [5, 46].

Shuningdek, Fitratning "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" asarlari davrning voqealari ataylab boshqa mamlakatga ko'chirib qalamga olinadi. Ammo, asarning ruhi va mazmunidagi ichki kechinmalar, botiniy ma'no, Turkistonda millatning ko'zini ochishga yo'naltiriladi. Muallifning "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni" asarlarida ham voqealar, ya'ni harakatlar o'tmishga ko'chirilib, o'tmishdagi voqealarni millatga ko'rsatish orqali Turkiston o'lkasida o'rnatilgan ijtimoiy – siyosiy tuzum, ya'ni ahvol yoritib ko'rsatiladi.

Behbudiy aytgan "Moziy – istiqbolning tarozisidir" mashhur iborasi, A.Qodiriyning "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar" iborasi o'rtasida bog'liqlik bu tasodif emas, aksincha, bu ikki ashrof zotlarning kelajakka bo'lgan murojaatlari edi. Shu jihatdan, bu ikki siymoning ijodiga murojaat qilish, ularni o'rganish va taqqoslash xayrlik ishdir. Qolaversa, har bir qalam tebratuvchida mamnuniyat hissini uyg'otadi yoki farz va qarz degan xulosalarni ko'z oldingizda jonlantiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy nomlarini bir – birlariga yonma – yon qo'yar ekanmiz, bu ahli solih insonlarning ijodidagi topqirliklar, jo'shqinliklar, nozik tu'yg'ular, jasoratlar, islohot uchun kurashlar ularning ijodlarini yagona maqsadlarga birlashtiradi.

Behbudiy Turkiston o'lkasida ma'rifatsizlikdan ota qotiliga aylanib borayotgan farzandlarning tarbiyasini birinchi o'ringa qo'ydi. U qadimiylar va mustamlakachilar sirtmog'idan faqat ma'rifiy yo'l bilangina qutulishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning "Padarkush"i o'lkada mavjud bo'lgan tarbiyasizlik illati uchun tipik asar bo'lgan bo'lsa, A.Qodiriy ham "Padarkush" ning orqasidan "Baxtsiz kuyov"ni yozdi [6, 173-194].

Turkiston o'lkasida xalqning ma'rifatsizligi orqasidan yoshlar xatolarga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov"da o'lkada mavjud bo'lgan illat, ya'ni, orzu – havas deb yoshlarning hayotlarini qurbon qilishi o'zbeklar hayotidagi tipik xususiyat ko'rinishi sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotining buyuk yozuvchisidir. Uning asarlarida chuqur milliylik yarqirab turadi. Uning ijodi 1913-1914-yillarda boshlangan. Dastlab she'rlar ham ijod qilgan. Muallifning butun ijodida millat va uning kelajagi, milliylik aks etib turadi. Jumladan, uning "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga bir qaror", "Fikr aylag'il" she'rlari mavjud. "Fikr aylag'il" she'ri Behbudiyning "Oyina" jurnalida 1915-yil 12-sonida bosilib chiqqan. Bu ham tasodif emas. Ikki buyuk ijodkorning munosabatini ko'rsatadi. Shuningdek, "Millatimga bir qaror" she'ri millatga xitobnoma tarzida yozilgan [7, 7-11].

Kel ey, millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o'lsun,

Bu kundan o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun,

Qilaylik bul kuni g'ayrat hama birdan qilib himmat,

Jaholat cho'l sahrosiga min'bad sabzavor o'lsun.

Abdulla Qodiriy millatga qarata xitob qiladiki, bu kundan e'tiboran maslahatlashib bir qaror qilinsinki, o'tgan ishlarga pushaymon qilmasdan, birlashib, himmat qilaylikki, ishga g'ayrat bilan kirishaylik, cho'l sahrosidagi jaholat ham gullagan maydonga aylansin!

Ayashmay kumush-oltunni hama boyonlar aslo,
Solub dorulfununlar ham makotiblar hazor o'lsun.
O'qushsun millat avlodi bizni doim duo aylab,
Qilib tahsil ulumlarni fununa yaxshi yor o'lsun.

Millat uchun kumush – oltinlarni ayamadan ishlatib, ular uchun maktablar va dorulfununlar barpo etib, millatimiz o'qib, fanlarni o'rganib, bizni ular har doim duo qilsinlar. Ularning tahsillari o'zlariga, millatga buyursinlar.

A.Qodiriyning "To'y" she'ri hajviy usulida yozilgan bo'lib, zamona kulfati, millatning loqaydligi, mustamlakachilik illatlari qoralanadi. To'y boy va badavlatlar uchun pisand bo'lmasa-da, millat vakillari, ya'ni, beva-bechora hamda mehnat ahllari uchun fojeaga aylanayotganligi aytiladi.

A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida "mavzuni moziydan, yaqin o'tgan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo'lgan keyingi "xon zamonlari" dan belgiladim" deydi [8, 3]. Bunday deyishiga sabab ayni davrda o'lka Chor bosqinchilari tomonidan va mahalliy amaldorlarning zulmi kuchaygandan – kuchaygan edi. Romanda milliylik masalasi birinchi o'rinda turadi. Millatning taqdiri masalasi roman mavzusining tub negizini tashkil etadi. Bosqinchi mustamlakachilar o'zlarining shaxsiy manfaatlarini va boylik orttirish maqsadida millatning zalolatda qolishini qo'yidagilardan ham bilib olishimiz mumkin. Asarning "Qipchoqqa qirg'in"i romanning uchinchi bo'limidan o'rin olgan. Unda: "Yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida, bir-birini yeb ichgan mansabparsat, dunyoparast va shuhratparsat muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi.. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv qo'yadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'liga qoldirgan bo'larmiz. O'z naslini kofir qo'liga tutqun qilib topshiruvchi – biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! [9, 301-b]". Shuni alohida ta'kidlash joizki, roman yetuk milliy asar ekanligi, uning milliy sharoitni, urf-odatni, milliy qadriyatni, milliy qahramonlarni yoritganligiga olimlarimiz ko'proq e'tibor berib keldilar. Asrning mustabid tuzumning ta'sirida yozilganligiga va shu tamondan asarning millatga bo'lgan ta'siri to'g'risida ham ko'proq to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir narsani ta'kidlashni istar edimki, ramon qatag'onlik va sovet qatag'onligi, qolaversa mustaqillik yillarda nashr qilinib kelinmoqda. Roman matnlarida turli davrlarda "ulug' millat"ga tegib ketadigan joylarning matniga o'zgartirish kiritilgan holatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, yuqridagi keltirilgan matnda: "chor istibdodi Turkistonimizni egallar" jumlasini o'rnida "o'ris istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan" [10, 7-153] aslidan o'zgartirilganini ko'ramiz.

A.Qodiriyning publisistik ijodiga qaraladigan bo'lsa, millat va uning taqdiri bilan bog'liq mavzularidagi hamohanglik, dadillik, topqirliklar, muammolarni hal etishga qaratilgan kuchli tanqidiy qarashlari, Behbudiy boshlab bergan Turkistonni islohatlarga aylantirish g'oyasi amaliy jihatdan maydonga chiqqanligi bilan ajralib turadi. Mustamlakchilik davridagi shafqatsizliklar ham ochib tashlanadi. Jumladan, "Saylovmi, bosqinchilikmi?", "Qimmatchilik hasrati", "Dumbasi tushub qolgan emish", "Tilanchilik yoxud yengil kasb", "Bozor surushtirmaydur", "Azob boqchasida yig'i – sig'i kechasi", "Qazoyi osmoniylar", "Haqiqat – ochib so'zlashdadur", "Qurbonlik o'g'rilari", "Mochalov", "Layli va Majnun", "Dardi yo'q kessak", "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" kabilar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.M. Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozg'uvchilar. "Turkiston" gazetasi, 1923 yil 10 dekabr.
2. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizaev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 368 b.
3. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizaev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 369 b.
4. Fitrat A.Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 46-93 b.

5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 46 b.
6. Qodiriy A. Diyori bakr. Uchinchi jild – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. – 7-11 b.
7. Qodiriy A. Diyori bakr. Uchinchi jild – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. – 7-11 b.
8. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 3 b.
9. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 3 b.
10. Qodiriy A. O'tgan kunlar. – Birinchi jild. – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. – 7-153 b.

BADIIY ASARDA “KECHA, TUN” SO‘ZLARINING G‘OYAVIY-BADIIY QIRRALARI

Nilufar CHO‘LIYEVA,
O‘zbekiston O‘zMU doktoranti, PhD

Annotatsiya: Maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani va Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasi tahlilga tortilgan bo‘lib, mualliflar qo‘llagan “kecha”, “tun” so‘zlarining asar g‘oyaviy mazmunidagi, badiiyatidagi ma‘no qirralari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: roman, qissa, ramz, metafora, muallif niyati, badiiy g‘oya, uslub.

Cho‘lpon ijodining serqatlamligini, fikrlarining asliyatga yaqinlashtirish funksiyasini ta‘minlovchini, ayni paytda, sobiq mafkuraga bo‘lgan o‘z pozitsiyasini niqoblash tamoyilini bajaruvchilar u qo‘llagan ramz va metaforalardir. Mazkur fikrlarni aksariyat holda uning she‘riyati, balki nasri haqida ham aytish mumkin. Xususan, “Kecha va kunduz” romani sarlavhasidagi “kecha” so‘zining o‘ziyoq muallif niyati, g‘oyalari va asarning kompozitsion xususiyatlarini ifodalaydi, deyish mumkin. Bu borada adabiyotshunos D.Quronov shunday yozadi: “Ma‘lumki, 30-yillar adabiyotida eng ommalashgan badiiy konstruksiyalardan biri “inqilobgacha – inqilobdan so‘ng” tarzida bo‘lib, u o‘tmishni qoralash orqali zamonani alqash maqsadiga xizmat qilgan edi. Cho‘lponning asari ikki qismdan iborat ekan, ularning birinchisida inqilob arafasidagi hayot tasvirlansayu “Kecha” deb nom berilsa, ikkinchisida inqilob va undan keyingi yillar qalamga olinsa-yu “Kunduz” atalsa, — demak, adib yangi tuzumning afzalliklarini axiyri anglab yetibdi-da, sho‘ro pozitsiyasiga o‘tibdi-da?! Cho‘lpon uchun sotsialistik vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan o‘quvchi va ziyrak mafkura xizmatchilarida ayni shu xil fikrni hosil qilish muhim edi. Romanning nomlanishi shu xil zarurat bilan bog‘liqligi adabiyotshunos S.Husaynning tergovda bergan ko‘rsatmasidan ham anglashilib turadi: “Uning (Cho‘lponning – D.Q.) tushuntirishiga ko‘ra, “Kecha” romanning faqat birinchi qisminigina tashkil etadi, asarning ikkinchi qismi esa “Kunduz” deb atalajak. Cho‘lpon bu so‘zlarni aytar ekan, uni yana o‘tmish to‘g‘risida yozyapti, deb ayblamasliklari uchun romanni shunday ikkiga bo‘lishga majbur bo‘lganligini so‘zladi” [1,146-147].

Ko‘rinadiki, “kecha” so‘zining “o‘tmish” ma‘nosi muallif tomonidan qo‘llangan chalg‘ituvchi ma‘no ekani ayonlashadi. Zero, Cho‘lpon va unga o‘xshash millat oydinlari uchun erksiz tuzumda ijod qilish, hatto yashash juda og‘ir, tahlikali edi. Ammo “Kecha va kunduz” romanida o‘zining joriy jamiyat, millat bilan bog‘liq haqiqatlarini ayta oldi. Zebi timsolida Turkistonning ertasi tor-mor bo‘layotgani, bu esa, aslida, shunga yo‘l qo‘yib berayotgan yumuq ko‘zlarning fojiasi ekani ta‘kidlanadi. D.Quronov sarlavhadagi mazkur so‘zning qo‘llanishi haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan shunday deydi: “Bizningcha, adib yurtidagi ma‘naviy qashshoqlanishni yuzaga keltirgan va uning hosilasi sifatida yanada biqirlashgan muhitni “Kecha” deb baholaydi. Cho‘lpon talqinidagi “Kecha”ning butun dahshati shundaki, u odamlarni ma‘nan majruh etadi, ma‘naviy tanazzulga yetaklaydi” [1,147]. Shuningdek, asarda “kecha” shunchaki jamiyatning, millatning tutab yotgan qaro kuni emas, balki muayyan qora makonni ifodalaydi. U shunday zulumatki, nafsning urchishi, ilmsizlik, munofiqlikning ko‘lankalari bilan to‘la, buni faqat cho‘lponlar yoritadi.

Bugungi nasrimizda ham “kecha, tun” so‘zlari muayyan badiiy g‘oya tashib, turfa anglamlarni ifodalamoqda. Jumladan, Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida “tun”

turli ma'nolarda qo'llangan. "Tun panjaralari" qissasida tun ramzdir. Ya'ni, tun – xotira, tun – qora qismat, tun – yolg'izlik, tun – o'zgarmas, abadiy yozdiq, tun – nafs, shaytoniylik ma'nolarini ifodalaganki, ijodkor bir so'zni bir badiiy matn (asar)ning o'zida polisemantik ramz sifatida qo'llay olgan. Ijodkorning "Qora kitob" qissasidagi kitob ramziy detali haqida ham shunday deyish mumkin. So'z qo'llashning bu kabi ma'noviy "qurama"ligi mustaqillik davri o'zbek adabiyoti uchun tamomila yangi hodisa. Bundan tashqari, N.Eshonqul badiiy matnda bir so'zga shuncha ma'noni "sig'dirish" bilan birga, shu ramzni istiora orqali ham ifodalay oladi. Natijada ma'noviy ko'chimning g'aroyib kompozitsiyasi vujudga keladi. Ya'ni yuqorida keltirilgan: "Tun romga ko'kraklarini qo'yib, qora kiygan kampirdek menga sinovchan tikilib o'tiribdi..." jumlasida tun – qora qismat yerda ayni shu ramziy ma'noda inson (insoniyat)ni azaliy, eski, ko'pni ko'rgan qari kampir (istiora) misoli sinashda davom etayotgan yozdig'a o'xshatilmoqda.

Retrospektiv vaqt oqimi orqali qahramon o'tmishiga, bolaligiga, u kechgan Tersota makoniga ko'z tashlaydi. Yana ortga qaytadi, shunda zamon-vaqt yanada konkretlashadi: "Shayton ham xonamda mana shunday yoz kechalarining birida, hali Sulaymon bilan tanishmasdan oldin... "beorom o'tgan" tunlarda paydo bo'lgan edi" [4, 164]. Muallif qissa syujetida bu kabi noreal tasvirlarni qo'llab, qahramon "yashayotgan" zamon-makon bilan azaliy (Sulaymon payg'ambar, Antoniy, Sezar, Kleopatra mavjud bo'lgan) zamon-makonlarni osongina birlashtira oladi. Qissadagi ana shu uzoq va ulkan xronotop voqealar ro'y berayotgan asosiy vaqt-zamon – tun bilan "niqoblanadi". Qahramon tilidan aytiladi: "Tunda mening boshqalarnikiga o'xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o'tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so'nayotgan yulduzlarday ko'z oldimdan bir-bir uchib o'tadi" [4, 163]. Asar sarlavhasidan ma'lumki, qahramon uchun tun – panjara: uning insonlar, borliq haqidagi qarashlari, o'z hislari bilan, o'zi bilan yakkama-yakka yuzlashtiradigan ham, mukarram tuyg'ular yog'dusini ko'rishga imkon beradigan, dilga tushajak "nuri a'lo"ning ko'zni qamashtiradigan qiyagina shu'lasini-da his eta oldiradigan zulmat qurshovi hamdir. Qissa epigrafi sifatida Navoiyning "Boshimg'a, ko'rki, ne tun kelturibsen" misrasi bejizga keltirilmagan. Misrada asliyatimizni tuyish va aslimizga intilish, uni topish yo'lidagi azob-uqubatlarimiz, mashaqqatlarimiz mujassam, anglamoqchi bo'lganlarimiz yashirin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, "kecha, tun" so'zlari har ikki asarda ham ulkan bir dardni tashiydi. Shu ma'noda, millat, insoniyat uchun qutqu soladigan nafs, jaholatni qoralovchi ta'kid, o'z qalbini va jamiyatning tartibotlarini asli qanday bo'lishi kerakligiga ishoradir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov. Cho'lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. – 288 b.
2. N.Karimov. Cho'lpon. – T.: Sharq, 2003. – 464 b.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Roman. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 320 b.
4. Eshonqul N. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2008. – 400 b.

O'ZBEK SHE'RIYATIDA ERK TALQINI

Muhayyo RAYXONOVA,
O'zbekiston, QarDU, PhD

Rayhon FAYZULLAYEVA,
O'zbekiston, QarDU, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek she'riyatida inson erki, ozodlik, hurriyat, vatan, tarix, mustaqillik kabi masalalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: erk, Turkiston, istiqbol, ruboiy, poetika, istiqbol.

Erkin va ozod yashash har bir xalqning azaliy orzusi bo'lib, millatlar bu shonli hurlik uchun kurashib kelganlar. Bizning Turkistonimiz ham bir necha bor qonli bosqinlarni boshdan

kechirgan, bosqinlar qurboni bo'lgan bo'lsa-da, ma'nau-ruhan yengilmagan, taslim bo'lmagan. Ayniqsa, XIX asrning oxiriga kelib Chor zulmi kuchaygach, xalqning ilg'or vakillari bu zo'ravonlikka qarshi bosh ko'tara boshladilar. Tarixiy manbalarga ko'ra, XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning boshigacha Turkistonda mingdan ortiq katta-kichik qarshilik harakatlari, kurashlari bo'lib o'tgan. Erk ozodlik yo'li – mashaqqatli og'ir yo'l, uzoq yo'l.

Turkiston o'lkasining siyosiy- ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, jihatdan inqirozga yuz tutganini ko'rib, bundan iztirob chekkan o'g'lonlari, ma'rifatparvar hamda jadidlar talaygina. Jumladan, Fitrat 1917-yili fevral inqilobidan keyin "Hurriyat" gazetasini tashkil etdi, unda xalqni istiqlol uchun kurashga da'vat etuvchi she'r va maqolalarini e'lon qildi. Uning "Hurriyat" gazetasida bosilgan "Yurt qayg'usi" nomli she'r va sochmalarida Turkistonning hurligi uchun kurashga bel bog'lagan lirik qahramonning "Men sen uchun tug'ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o'larman, ey turkning muqaddas o'chog'i!" degan da'vati baralla eshitiladi.

Istiqlolni yo'qotilganidan kuyingan Cho'lpon esa, so'nggi xonlarning "el va yurtni saqlash uchun" "tuzukkina chora, tadbir qilmagan"ligida. Shoirning qator she'rlarida istiqlol uchun kurash manzaralari aks etgan.

*Biz, yo'qsillar boshqalarga qul bo'lib,
Chet oyoqlar tovonida ezildik,
Har yaramas, har buzuqning tagida
Alam tortgan, jabr ko'rgan biz edik.*

Inson erki, ozodlik, millat va Vatan timsoli, shoir she'rlarida xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, uni "Amalning o'limi", "Ko'ngil", "Men va boshqalar" hatto "Binafsha"she'rlarida ham uchratish mumkin.

*Ko'nglimda yig'lagan malaklar kimlar?
Sharqning onalari, juvonlarimi?
Qarshimda yig'lagan bu jonlar kimlar?
Qullar o'lkasining insonlarimi?
Na uchun ularning tovushlarida
O'tgan asrlarning ohangi yig'lar?
Na uchun yozmishning o'ynashlarida
Har yurish ko'nglimni nashtardek tig'lar?*

Shoir o'z she'rlaridan birini "Ko'ngil" deb nomlagan ediki, bejiz emas, istiqlol, erk uchun ketayotgan kurash edi. Shoir nazdida mutaassiblik, jaholat azobini ko'proq ular tortdi.

*Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan;
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!..*

Biz milliy mustaqillik davri adabiyotini haqli ravishda "Istiqlol davri adabiyoti" deymiz [1, 136]. Bu atama 1991-yildan keyingi davr adabiyotini ifoda etadi. Ammo istiqlol g'oya sifatida milliy adabiyotimizda jadid adiblar ijodidayoq mavjud edi. Bu g'oya o'tgan asrning 60-yillarida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyeva; 70-80-yillarda esa Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Tilak Jo'ra, Qutlibeka Rahimboyeva kabi adiblar ijodining ham asosiy leytmotivini tashkil etdi. To'g'ri, ularda (hech bo'lmaganda, XX asrning 80-yillariga qadar) milliy istiqlol mavzusi jadidlarda bo'lgani kabi to'la idrok etilgan, anglangan va ochiq-oydin emas edi. Ammo ular inson haq-huquqlari poymol etilayotganini, jamiyat to'g'ri yo'lda emasligini tushunib yetgan edilar. Istiqlol orzusi bu adiblar asarlarida mavhumroq – jamiyat illatlarini qoralash, inson saodatli yashaydigan tuzumni sog'inish, inson haq-huquqlarini talab qilish shakllarida ifoda topdi. Aytish mumkinki, yuqorida nomlari sanab o'tilgan ijodkorlar xalqni uyg'otdilar, unda ijtimoiy fikr paydo qildilar, unga inson haqlarini tanitdilar. Bu ma'naviy inqilob boshida, so'zsiz,

Abdulla Oripov turdi. Shoirning istiqlool davrida yaratgan asrlarini kuzatsak, uning milliy istiqloolni nihoyatda katta quvonch va ayni paytda xavotir bilan kutib olganini, millat hayotidagi bu tarixiy voqeani o'z shaxsiy shodligi sifatida qabul qilganining guvohi bo'lamiz.

Abdulla Oripovdek tarixiy voqelikni ichki sezim bilan baholay oladigan mutafakkir shaxsning milliy istiqloлга munosabati ko'r-ko'rona faxr-iftixor, balandparvozlikdan iborat bo'lib qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun uning qalbidagi ohanglar goh quvonchga to'la, goh hazin tus oldi. U istiqloldan qanchalar g'ururga to'lsa, bu yo'lda qurbon bo'lgan ajdodlar qismatidan shunchalar o'kinadi, istiqlolning istiqbolidan xavotir tuyadi. "Yelkamizga oftobning tekkanligi rost bo'lsin", deb yozadi bir o'rinda. G'oyaviy-poetik yuk "rost bo'lsin" degan nihoyatda o'zbekona jumlagi yuklangan.

"Vatan uchun yashaylik" she'ri beixtiyor xalqona go'zal ohangni yodga soladi. Bu – yo'ldan o'tib ketayotgan musofirning shunchaki bir xirgoyisi yo dardli qo'shig'i emas, hamisha bir-biriga yelkadosh turadigan, olis yo'lda hamqadam bo'la oladigan jasoratli va kurashchan yovqur qalb sohibining yorqin taronasi:

*O'n gulingdan bir guling ochilmagan derdilar,
Yo'llaringda sochqilar sochilmagan derdilar.
O'n guling ham charaqlab ochildi-ku, oh, yurtim,
Yo'llaringga zar-kumush sochildi-ku, oh, yurtim.*

Bu misralarda vatanning o'tmishi va kelajagi, baxtsizligi va baxti, kechagi og'ir qismatdan o'ksinish va bugungi taqdirdan saodatmandlik hislari mujassam. Bu lahzalar uzoq-yillar intiq kutilgan edi, ana shu achchiq sog'inish, erkka tashnalik, zorlikni aynan "oh" undovi ifodalab kelgan – g'oyaviy-badiiy yuk ana shu undovga tushgan. Aslida, bu so'z faxriya ruhidagi, yuksak shodlik hislarini ifoda etgan qo'shiq matniga begona. Agar shu so'zni ishlatish kerak bo'lsa, dastlabki ikki misradaishlatish kerak edi. Ammo asosiy g'oyaviy-badiiy niyatini umumiy ruhga begonadek tuyulgan so'z orqali ifoda etish – shoir uslubining xos jihati ekanini yuqorida ham ko'rdik. "Oh" orqali lirik qahramon ruhiyatidagi hislar kutilmaganda suv ostidagi qizil olmadek qalqib chiqqan. Aslida, inson juda mushkul chorasiz vaziyatda oh tortadi, quvonchga to'lgan odam esa faqat o'zining nochorlik, xorlik, zulm iskanjasida kechgan butun umrini eslagandagina oh tortib yuborishi mumkin.

Milliy ma'naviyatimizning javhari sanalgan adabiyot, ayniqsa, she'riyatimiz o'rni turli tarixiy davrlarda bir xil darajada bo'lmaganligi ayon. Sho'ro davrida ijod erki barham topib, fikrlaydigan shaxslar birma-bir qatag'on doriga tortildi. Ana shu foje qismatdan to'g'ri xulosa chiqarish va istiqlool mohiyatini bus-butunholda millat qalbiga singdirish, badiiy talqin qilish adabiyot ahlining bosh vazifasidir. Shu ma'noda, Abdulla Oripov o'z ijodi bilan jamiyat, millat va tarix oldidagi shoirlik, farzandlik vazifasini uddalay oldi, deyishga haqlimiz.

Milliy mustaqillikka erishilgandan keyin ham ozodlik, hurriyat mavzusi shoir ijodining asosiy mavzularidan biri bo'lib qolaverdi. 2004-yil 4-avgustda yozilgan "Ozodlik" she'rini bitdi. Unda shunday voqea tasvirlanadi: qadim ajdodlar quyosh tutilganda o'zlarini butkul yo'qotib, qo'rquv va titroq ichida, samoga termulib "Quyosh bandi bo'ldi, Quyosh sirtmoqqa tushdi" deb faryod chekishgan. Ular buni qiyomatdan xabar, kufr ko'paygani, zilday gunohlarga yuborilgan jazo deb qo'rquvga tushganlar. Shunda hazrati payg'ambar (s.a.v.) shunday deb xitob qilgan ekanlar: Quyosh tutilganda, qulni ozod qil! Oxirgi to'rtlikda shoirning asosiy maqsadi ayonlashadi:

*Nechog'li tansiqsan ozodlik so'zi,
Seni falaklar ham ko'targay boshga.
Koinot mash'ali bo'lsa ham o'zi,
Ozodlik kerakdir hatto quyoshga.*

Sarlavhada qisman aks etgan asosiy g'oyaviy-badiiy niyat qisqa hayotiy hikoyadan keyin umumlashma sifatida aniq in'ikos topadi. Hatto poetik parallel (quyosh tutilganda qulni ozod qilish bilan quyoshga ham ozodlik kerakligi) ham biroz soddaroq, matematik xarakter kasb etadi. Ammo mazmun, xulosa nihoyatda jozibali: insoniyat hayotining davomati ozodlik bilan shartlangan, demoqchi shoir. Ya'ni, qul ozod qilinsa, quyosh qayta porlaydi, Yerga hayot baxsh etadi.

2009-yilda esa shoir “Hurriyat” sarlavhali she’r yozdi. U ozodlik qadridan so‘z ochadi. Shoir nazarida:

*Odamzot bor ekan ko‘kka ko‘z tikib,
Orzu qilganini kutgay betoqat.
Tarix tuhfa bersa, olgay u so‘zsiz,
Hurriyat atalmish gavharni faqat.* [2, 143]

Umuman olganda, Abdulla Oripovda sho‘ro davridan ko‘ra istiqlol yillarida ozodlik, hurriyat, inson erki mavzusi ko‘proq va ochiqroq qalamga olindi.

*Yantoqning tomiri uzoqqa ketar,
Bardoshda tengsizdir yantoqxo‘r tuya.
Unisin odamlar tikan deb atar,
Bunisin kamsitar tuyasan deya.
Ularning qismati ajabdir, ajab,
Faqirlik evazi – ozod nafasdir.
Gul bo‘lsang qaygadir qo‘yarlar qadab,
Magar ohu bo‘lsang – joying qafasdir.* [3, 4]

2010-yilda yozilgan bu she’r gul, tikan, qafas obrazlari bilan daf’atan “G‘urbatda g‘arib...” deb boshlanuvchi ruboiyni esga soladi. Ikki shoir erk, hurriyat atalmish qadriyatni o‘quvchiga ikki tomondan turib ko‘rsatadi. Alisher Navoiyda erksizlik, Abdulla Oripovda esa erkning bahosi motivi; Alisher Navoiyda bulbul va gul, Abdulla Oripovda tikan va tuya, gul va ohu timsollar markazga qo‘yilgan. Hammasi an’anaviy timsollar. Navoiy erksizlikka mahkum etilgan odamning holati (2-misra), ruhiyatini (1-, 3-4-misra) tasvirlaydi. Abdulla Oripovda ham fojeaviylik ruboiydagidan kam emas: “Faqirlik evazi – ozod nafasdir”! She’rdagi asosiy tezis shu va u she’rni ikkiga bo‘lib turibdi. Shu chiziqning ikki yog‘ida tuya – tikan obrazlari gul – ohuga aniq simmetriklikda qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu ikki she’r Vaqt masofasi osha poetik dialogko‘rinishida bir-birining peshvoziga yurayotgandek.

Yuqoridagi she’rlar, tahlillar ham ko‘rsatib turibdiki, Abdulla Oripov istiqlolni yuzaki emas, tarixning past-baland yo‘llarida qullik asoratidan zada bo‘lgan xalqning mutafakkir farzandi o‘laroq chuqur idrok etgan. U erk va hurriyatni ham xalq va davlat, ham alohida olingan inson rakursida turib idrok etadi. Tarix tuhfa etgan istiqlolni hushyorlik bilan asrash – unga erishish mushkulligini xalqning ulug‘vor ruhini o‘zida mujassamlashtirgan shoir ichki sezim bilan his etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘shjonov M., Meli S. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000
2. Oripov A. 3-jild (2013) Toshkent: Sharq NMIU.
3. Oripov A. TA. 7-jild. Yantoq va tuya. (2013) –Toshkent: Sharq NMIU.

JADID SHOIRLARI IJODIDA IJROVIY LIRIKA.

**Umida ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston, QarDU, PhD**

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi o‘zbek she’riyatidagi ijroviy lirika nazariyasi, uning mazmun-mohiyati va poetikasi jadid adabiyoti vakili Cho‘lpon ijodi misolida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ijroviy lirika, lirik qahramon, immanent, lirik she’r, ijro mahorati, kredo.

Lirikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri-uning subyektivligi sanaladi. “Ammo, lirikadagi subyektivlik ijodkorning birgina o‘z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishni bildirmaydi. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa, o‘z zamonasining faol fuqarosi, vijdoni va hakami ekan, uning asarlarida faqat umumxalq, ko‘pchilik uchun muhim, xarakterli hodisa va kechinmalar in’ikos etsagina, keng kitobxonlar ommasining qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli lirika oldiga qo‘yiladigan zaruriy talablardan biri – mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishidir. Bu – lirik asar ijtimoiy va axloqiy mavzular bilan cheklanib qolishi kerak, yoki mumkin, degan so‘z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo‘lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini ifoda eta olsa,

shularning hammasi lirikaning mazmuniga kiradi” [1, 173]. Shunday ekan, lirikada ijtimoiy voqelik, tabiat va jamiyat hodisalari markazida turgan shoir shaxsiyati, uning ongi –tafakkuri, dunyoqarashi, nuqtayi nazari, estetik bahosi, badiiy umumlashmalari poetik idrok va ifodaning salmog‘ini belgilab beradi. Shu ma’noda, lirika janrlari hamda poetik shakllarda aks ettirilgan ko‘ngil holatlari va manzaralari mazmuni bilan, aniq va konkret ma’no-mohiyati bilan xarakterlanadi. Muayyan makon va zamonda o‘z ifodasini topgan konkret inson o‘ylari va kechinmalari lirika tabiatidagi tarixiy mazmun-mundarijani belgilar ekan, bunda shoir shaxsining ana shu obyektiv voqea-hodisaga bergan badiiy-estetik bahosi asarning janrini, tarixiyligini tayin etadi. “Siyosiy, peyzaj, falsafiy, ishq-muhabbat lirikasi deya tasniflanishi lirikaning hayot, ijtimoiy voqelik, tabiat va jamiyat bilan aloqalari nihoyatda kengayib ketganligini ko‘rsatadi. Bu taxlit tasniflar lirikaning mavzu-problemlari miqyosi nechog‘lik kengayib ketganligining yana bir tasdig‘idir” [2, 175]. Rus va qardosh xalqlar, Yevropa adabiyotshunoslik ilmda qabul qilingan mazkur tasniflash tamoyili o‘zbek olimlarining asarlarida ham e’tirof etilmoqda.

Ma’lumki, XX asr o‘zbek lirikasi namunalarini mavzu jihatdan tasniflash adabiyotshunoslik tomonidan o‘rganilib, ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilgan: “Lirik asarning janrini aniqlashda she’rlarning mazmuni, ruhidan bo‘rtib ko‘rinuvchi stilistik xususiyatlari va obrazli strukturasidan kelib chiqish lozim. Ana shu prinsiplar asos qilib olinsa, lirika janrlarini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. XX asr o‘zbek lirikasida quyidagi janrlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Publitsistik lirika. 2. Intim lirika. 3. Simvolik-ramziy lirika. 4. Hajviy lirika. Lirik poeziyadagi bu janrlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi”[5, 181]. Mazkur prinsipni olim E.Xudoyberdiyev ma’qullamagan holda o‘z qarashlarini bayon etgan: “Bunday prinsip mazkur adabiy turni falsafiy lirika, vatanparvarlik lirikasi, siyosiy yoki grajdanlik lirikasi, muhabbat lirikasi, tabiat lirikasi kabi ko‘rinishlarga bo‘lishni taqozo etar edi. Bu prinsip lirik asarlarning barchasini qamrab olishga, ko‘p tomonlama tasnif qilishga urinishning natijasi edi. Biroq bu prinsipni maqsadga muvofiq deb hisoblab bo‘lmaydi. Chunki, uning qo‘llanilishi natijasida masalaning murakkab tomonlari e’tibordan chetda qolib ketadi [2, 209].

Adabiyotshunos olim D.Quronov hozirgi she’riyat janrlarini yuzaga kelgan o‘zgarishlar, yangilanishlarni e’tiborga olib, lirik kechinma subyekt va obyekt nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflaydi: 1) ijroviy lirika; 2) personajli lirika; 3) meditatif lirika; 4) tavsifiy lirika (uning ko‘rinishlari: peyzaj lirikasi, voqeaband lirika) [7, 394].

Bizningcha, olim D.Quronovning tasniflari masalaning mohiyatini to‘liqroq ochib beradi. Sababi, lirikaning bosh xususiyati subyektivlik, shoir qalbida kechadigan kechinma, ana shu kechinma uyg‘otgan sezgilarni voqe qilish san’atidir. “Lirikada shoir shaxsiyati birinchi planda namoyon bo‘ladi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz. Ammo, lirikadagi subyektivlik ijodkorning birgina o‘z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishni bildirmaydi. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa, o‘z zamonasining faol fuqarosi, vijdoni va hakami ekan, uning asarlarida faqat umumxalq, ko‘pchilik uchun muhim, xarakterli hodisa va kechinmalar in’ikos etsagina, keng kitobxonlar ommasining qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli lirika oldiga qo‘yiladigan zaruriy talablardan biri – mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishidir. Bu – lirik asar ijtimoiy va axloqiy mavzular bilan cheklanib qolishi kerak, yoki mumkin, degan so‘z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo‘lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini ifoda eta olsa, shularning hammasi lirikaning mazmuniga kiradi” [1, 173].

She’rda tasvirlanayotgan kechinma har doim ham shoirga tegishli bo‘lmaydi, masalan, sevgi iztiroblari haqida yozilgan she’r muallifining sevgi dardida yonishi qat’iy talab etilmaydi. Fikrimizcha, unda o‘quvchi bu holatni his qiladi, she’rda tasvirlangan holatni anglab tushunadi, garchi o‘zi real hayotida bunday voqelikka duch kelgan bo‘lmasa-da, har bir inson qalbida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha o‘zgarish va tuyg‘ular imkoniyat tarzida yashaydi. Ijroviy lirikada hikoya qilish mavzusi odatda ma’lum bir davr yoki janr an’analari xos bo‘lib, ularda qahramon xakteri shartli ravishda ifodalanadi. Xususan, turkiy xalqlar adabiyotida xalq og‘zaki ijodi namunalariga oid xalq qo‘shiqlaridagi qo‘shchi qo‘shig‘i, qiz qo‘shig‘i, podshohlar yoki sarkardalar (“To‘nyuquq”, “Kul Tigin”, “Bilga Xoqon” bitiktoshlari, VI – VIII asr);

mumtoz adabiyotda ijtimoiy hayotdagi muammolarni ifodalash maqsadida yozilgan gʻazallar (XV-XIX asrlar); XX asrga kelib, jadid adabiyotida erksizlik qurbonlari (“Sharq qizi”, 1922; “Qiz qoʻshigʻi”, 1923, Choʻlpon); erksizlikka qarshi kurashuvchan shaxs (“Yurt qaygʻusi” turkumidan “Bir oʻzbek yigiti tilidan” 1917, Fitrat) tilidan aytilgan sheʼrlar buning isbotidir.

Adabiyotshunos Ulugʻbek Hamdam oʻzbek sheʼriyatida ijroviy lirikaning paydo boʻlish asosini shunday izohlaydi: “Jadid ijodkorlarning yangi adabiyot haqidagi tasavvurlari asosini ‘roʻmonlar va tiyotru kitoblari’ tashkil qilganining sababi – olam va odamni anglashga boʻlgan ehtiyoj edi. Mazkur hol lirikadan ham oʻzgarishni talab etardiki, bu uning uchun yashab qolish va ravnaq topish sharti boʻlib qoldi. Aytmoqchimanki, sheʼriyatning koʻngildan voqelikka yuz burishi eng avval shu obyektiv zarurat tufayli sodir boʻlgandir. Zero, davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun sheʼriyatning ‘roʻmon va tiyotru’ kitoblari bilan (yaʼni lirikaning epos va drama bilan) raqobatga kirishishi, ularning imkon doirasidagi vazifalarni, qisman boʻlsa ham, zimmasiga olishi zarur edi. Buning uchun esa, sheʼriyat chuqur ichki struktur oʻzgarishga uchrashi, eng avval, subyektiv tashkillanish nuqtayi nazaridan isloh qilinishi lozim edi. Asrlar davomida lirikaning obyekti koʻngil boʻlib keldi, sheʼr shoirning – lirik ‘men’ning koʻngil izhori sifatida tushunildi. Voqelikka yuz burgan sheʼriyat esa endi shoirninggina emas, oʻzga odamning koʻngliga nazar solmoqqa, dilidagini idrok qilmoq va ifodalamoqqa jazm etdi. Va bu holda endi oʻsha oʻzga odam sheʼrning lirik subyekti, shoir uchun boʻlsa badiiy idrok obyekti sifatida namoyon boʻladi.

Yuqorida aytilganlar shoirning oʻzga shaxsga evrilib olib uning koʻnglidagilarni izhor etishi voqelikni idrok qilish, davr ruh-kayfiyatini ifodalashga intilish natijasi, uning usullaridan biri degan fikrni tasdiqlaydi. Yangi oʻzbek sheʼriyatida rus adabiyotshunoslari “rolevaya lirika” deb ataydigan, bizda “ijroviy lirika” deb atash urf boʻlgan bunday sheʼrlar Choʻlpondan keyin keng ommalashdi” [8, 252-254].

Lirikada “Men”ning ijro xarakterini ochish uchun matndan tashqari omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarga shoirning immanent xususiyati asos sifatida kiritiladi. Millatparvar shoir Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon milliy ozodlik uchun kurashgan shoirlardan biri. Shoir immanenti – birovga boʻysunmaslik, gʻurur va oriyat. Qaramlik, hayotda birovga boʻysunib yashash uning xarakteriga yot xususiyat. Bu jihat shoirning “Qiz qoʻshigʻi” sheʼrida oʻz aksini topgan. Sheʼrda lirik qahramon erkinlik istaydigan oʻzbek ayoli orasidan tanlanib, uning tilidan oʻksuk koʻngul qushining qafasga tushib, erkin nafasga yetolmagani, bunday siqiq qafasda yayrab boʻlmasligini “Yomon kunlar tushdi mening boshimga” deb izohlaydi. Muallif ayolga teran hamdardlik bildirgan holda, uning tabiiy haq-huquqlarini himoya qilib bong uradi, qalblarni uygʻotishga harakat qiladi. Sheʼr mazmuni yuksak badiiy mahorat bilan oʻziga xos poetik obrazlar orqali ifodalanadi. Qaro kunlarning botishi *qip-qizil qonli osmonga oʻxshatilishi, yomon hidga toʻlib tonglarning otishi, jannat kabi bogʻlarning bulbulsiz qolishi, osmon boʻyi togʻlarning qulunsiz qolishi kabi metaforalar* erksizlik natijasini koʻrsatadi.

“Choʻlponning fikricha, shoʻro tuzumi va rus istibdodi boshqa-boshqa narsalar emas. Biri ikkinchisining bevosita davomidir. Shakli va vositalari oʻzgargan, xolos. Bu – muhim nuqta. Shoir “Qoʻzgʻalish” sheʼrida yozadi:

Ey! Sen meni qul oʻrnida ishlatuvchi afandi,

Titra, qoʻrqim, bogʻliq quling bosh koʻtargan kuch endi!

Bu fikr-tuygʻular, shoirdagi ehtiros toʻla gʻazab va nafrat shoʻrolar davrida tarbiya topgan oʻquvchi uchun shamol tegirmonlariga dagʻdagʻa qilayotgan Don Kixotning “jazavasi” boʻlib tuyulishi mumkin. Lekin aslida, shoir vaziyatni juda teran anglagan edi. Bir tomonda, erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomonda ochlik-qahatchilik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan “sinfiy kurash”, ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Xullas, toʻrt tomon ham ihotalangan. Shoirni bu hol larzaga soladi. U “qirilib tugalish dahshatidan” larzaga tushadi”[9].

Ayni paytda bu kurashlarning har biri hayot-mamot kurashi edi. Biri ikkinchisi bilan chambarchas bogʻlanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga koʻra eng muhimi, erk, istiqlol uchun

ketayotgan kurash edi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Cho’lpon erksizlikka qarshi kurash va ozodlikka intilish kabi g’oyalarni “Qiz” tilidan lirik hikoya qiladi:

Ko’z yoshimda yuvsam
Yurtning bag’rini.
Tilim bilan so’rsam
Oqqan qonini.
Qafaslarni buzib,
Uchsam osmonga;
Kishanlarni uzib,
Yetsam jononga!..[10, 66]

O’sha paytda erk va ozodlik uchun kurashish, o’z tuyg’ularini oshkora izhor etish o’zbek xotin-qizlariga yot xususiyat edi. Cho’lpon ularning ayni damdagi ichki holatini qiz obrazida ijro etib, o’zining erkka tashna qalbining armonlarini ham to’kib soladi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, ijroviy lirika birinchi shaxs tilidan aytiladigan lirik hikoya bo’lib, muallif fikri o’zga shaxs tilidan o’quvchi ongiga singdiriladi va unda muallif immanenti aks ettiriladi. Shu xususiyati bilan jadid ijodkorlariga ko’proq “so’z aytish” imkonini bergan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent: “O’qituvchi“, NM1U, 2005. - B.173.
2. Словарь литературоведческих терминов / Редакторы-составители: Л.И.Тимофеев, С.В.Тураев. - М.: Просвещение, 1974. - С. 175.
3. Гинзбург Л. О лирике. – М.-Л., 1964. - С. 44-62; Гринберг Л. Три грани лирики. Современная баллада, ода и элегия. Издание второе. - М.: Художественная литература, 1985. - С. 142-254; Пospelов Г.Н. Лирика среди литературных родов. – М.: Изд. Московского университета, 1976. - С. 62-85.
4. Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М.: Наука, 1964. – С. 173-237.
5. Shukurov N, Hotamov N, Xolmatov Sh, Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: O’qituvchi, 1979. –B.181.
6. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Madaniyat va san’at institutlari uchun darslik. – T.: O’qituvchi, 1995. – B. 209.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 394.
8. Hamdamov U. Yangi o’zbek she’riyati. – Toshkent: Adib , 2012 . – B .252-254.
9. Qosimov B. Abdulhamid Cho’lpon. <https://ziyo.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uyg'onish/>.
10. Cho’lpon. Asarlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 1994. – B.66.

YANGI O’ZBEK SHE’RIYATINING MAZMUNYI YANGILANISHI

Latofat TAJIBAYEVA,
O’zbekiston, QDU, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi o’zbek she’riyatining mazmuniy yangilanishiga asos bo’lgan omillar haqida so’z yuritiladi. Nazariy fikrlar misollar bilan dalillangan holda ma’rifatparvarlik adabiyoti ta’sirida jadid adabiyotining yuzaga kelgani ochib berilgan.

Kalit so’zlar. She’riyat, ma’rifatparvarlik, jadid, vatan, millat, ilm, ozodlik, adabiyot, realistik, hajviy.

XIX asr oxirida ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan o’zgarishlar, o’z navbatida, adabiyotda ham mazmuniy o’zgarishlar sababchisi bo’ldi. Yangi o’zbek adabiyoti o’zining yuzaga kelishi va rivojlanishi asnosida oddiy xalq ommasining turmush darajasini yoritib bordi. U, shu sharoit yaratgan g’oyaning ifodasi sifatida maydonga kelib, turli adabiy-madaniy omillar ta’siri ostida rivojlandi. Shuning uchun yangi o’zbek adabiyotining mohiyatini, uning ijodiy-estetik asoslarini

xalqchillik, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari tashkil qiladi va mazmun mohiyati shu g'oyalar zaminida belgilanadi. Hayotning bevosita ta'siri va realistik mavzu bo'lajak realist shoirning e'tiborini xalq hayoti tomon yo'naltirdi. Shu yo'sinda nafis so'z xalq turmushiga xizmat qildirildi [1, 147]. Ma'rifatparvar shoirlar ijodida Vatan taqdiri uchun kurash, Vatan ishq, qanchalik yuksak pardalarda kuylangan bo'lsa, jadid davri ijodkorlari ham vatan mavzusini shunchalik baralla kuylaganlar. Tavalloning "O'z vijdon – vujudima xitob" sarlavhali she'rida quyidagi satrlarni o'qishimiz mumkin:

Ey, qo'lum, pul tutma hech, millatga yordamlashmasang,
Bo'lma xushnud, ey dilim, millat g'amin g'amlashmasang,
Ravshan o'lma, ey ko'zum, yoshing to'kub namlashmasang,
Fikrim ochilma, agar she'ring yozib hamlashmasang.

Shoir o'z-o'ziga xitob qilarkan, butun fikr-xayolim kecha-kunduz millat g'amiga qaratilgan, millat salomat ekan men farog'atda yashayman, sen g'am chekarsan men ham g'ussaga botaman deya fig'on qiladi. Tavallo va uning safdoshlarining vatan uchun bunchalik qayg'urganligi, xalq dardini o'z dardi deya qabul qilgani ularning nechog'lik vatanparvar bo'lganligidan dalolat beradi.

Birgina Cho'lpon she'rlarining o'ziyoq jadid shoirlarining vatanga muhabbati, samimiyatini belgilab beradi:

Ey ahli vatan! Bosdi sani muncha g'afolat,
G'arq ayladi muncha sani daryoi jaholat,
Tishdi sani boshing uzra shum zallayu razolat,
Boq! Holingga nalar bo'la? Gar bo'lsa basorat?
Qoplab kelur millatingni zulmatu g'orat,
Inson sifating vor esa tur! Ayla jasorat!

Cho'lponning yonib, o'rtanib yozgan misralari har bir o'quvchini o'ylanishga, xalq dardini yurakdan his qilishga undaydi. Shoir qaysi mavzuda she'r yozmasin, barchasining asl mohiyati vatan taqdiriga borib taqaladi. Xalq dardi, millat ertasi shoir nazdida eng oliy tushunchalar hisoblangan. Cho'lpon xalqiga past nazar bilan qarovchilarga qarata "xalq to'liqindir, xalq olovdir, xalq kuchdur" deya javob beradi. Agar xalq istasa "Yo'qliqni-da, ochlikni-da yo'q etar, O'z yurtini har narsaga to'q etar..." kabi misralari bilan xalqning mislsiz kuch- qudratga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Yangi o'zbek adabiyotining muhim mazmuniy o'zgarishlaridan yana biri ma'rifatparvarlik g'oyasidir. Bu g'oya xalqning taraqqiyotga bo'lgan intilishi zaminida tug'ildi. O'zbek maorifparvarlarining barchasiga birdek xos bo'lgan xususiyat shuki, ularning barchasi ilm-ma'rifatni, hurriyat, yangicha turmush tarzini yoqlaydi. Ahmad Donish, Furqat, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Dilshod, Anbar Otin ijodlarida bu motivda yozilgan ajoyib asarlar ko'plab uchraydi. Avaz O'tar mumtoz adabiyot qolipida qolib ketmaganligi, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgani uchun o'z davrida ham hozir ham muxlislarning yuksak muhabbatiga sazovor bo'lgan. Hayotdagi adolatsizlik va tengsizlik, mehnatkash xalqning o'z mehnati rohatini ko'rmay mudom ezilishini shoir quyidagicha ifodalab berdi:

Digar naxli chekib mehnat birovlar,
Vale ondin ko'rar rohat birovlar.

Barchamizga ma'lumki, Turkistonda Rossiya hukmronlik qilgan davrlarda xalqimiz o'z mehnati bilan topgan noniga ham egalik qila olmagan. Zulm va sitam shunchalik haddan oshgan ediki, xalqni ochiqdan ochiq talon-taroj qilishar, bu ham yetmagandek, aybdor sanab turli xil jazolar va balolarga giriftor etishardi. Xalq boshiga tushgan bunday ko'rguliklarni oshkora yozish uchun esa shoirdan tog'day jasorat talab qilingan. Adolatsizlik va xo'rlikka qarshi chiqishning birgina yo'li bu ilm-ma'rifat edi! O'z huquqini bilmagan, o'zligini tanimagan odam esa zo'ravonlik va qiynoqlar ichida yashashga mahkum! Ana shu g'oyani anglab yetgan xalqning eng oldi ziyoli qatlami bo'lgan shoirlar o'z she'rlarida ilm-ma'rifatni targ'ib qila boshlashdi. Bu kabi mazmuniy o'zgarishlar Kamiy ijodida ham o'z aksini topadi:

Har kishida ilmu, san'at bordur,
Baxtu davlat ul kishiga yordur,
Bo'lsa agar ilmu hunardin holi ul,
Ey Kamiy, olamda, bilkim, xordur ul.

Ilm-ma'rifatsiz kishi xoru-zorlikka giriftor bo'lishi, kimki ma'ifatga yuzlansa, baxt-u iqbol kulib boqishini realistik uslubda ifodalar ekan, shoir o'z davri insonlarining g'aflatda qolmasliklarini chin ko'ngildan istashini sezishimiz mumkin. Shoir o'z davri ijodkori sifatida Turkistonni qoplagan jaholat va nodonlik, tutqunlik va turg'unlik haqida qalam tebratadi. O'z millatining ham boshqa taraqqiy topgan millatlar qatorida farovon va baxtli hayot kechirishini orzu qiladi.

Yangi o'zbek she'riyatida jamiyat illatlarini fosh etish ham an'anaga aylana bordi. Jumladan, veksels hodisalari, saylov jarayonlari, soliq yig'ish voqealari, radikal jamoalar faoliyati, yosh qizlarni qari kishilarga turmushga uzatish holatlari yangi davr shoirlarining e'tiboridan chetda qolmadi. Ular bunday voqealarga goh g'azab va nafrat bilan, goh achchiq hajv bilan o'z munosabatlarini bildirib boshladilar. Muqimiy "Saylov" she'rida saylov degan hodisa paydo bo'lganini, bu holat ko'plarni ajablantirganini, saylovda saylanish uchun har-xil makr-u hiylalar o'ylab topilganini kulgi ostiga oladi:

Uloshib chaslariga, bellarida axcha ro'zu shab,
– Turing zinhor, ya'ni men tarafga yaxshilab maxtab
Banogoh bo'lmasun deb ba'zi shanqilarni ko'zi chan,
Sochib qarzi quvola, pul ko'tarub, istayub mansab,
Bo'lolmay, ko'p kishini sindirib, qildi gado saylov.

Ko'rinib turganidek, saylovning asl mohiyatini dastavval ko'pchilik anglab yetmagan edi. Amaldorlar esa saylov hodisasiga boshlariga kelgan balo sifatida qaray boshladilar. Bu holatlarni Muqimiy tilga olar ekan, mansabga o'tirish uchun, saylovda ko'p ovoz yig'ish uchun johil amaldorlar o'ylab topgan hiyla, nayranglarni kulgi ostiga oladi. Meni maqtab, menga ovoz bering deb kimlargadir pora bergan, hatto mansabga o'tirish uchun yoppasiga qarz olib, kimlarningdir og'zini moylab, keyin amalga o'tirolmasdan qarzga ko'milganlarni hajv qiladi. Ularning bunday harakatlariga keskin munosabat bildiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ijtimoiy hayotdagi evrilishlarning adabiyotga hamda adabiyotning millat tafakkuri va ruhiyatiga ta'siri natijasida milliy she'riyatning yangi xususiyatlari namoyon bo'la bordi. Dastlab mazmuniy o'zgarish tafakkur yangilanishiga sabab bo'luvchi realliklar va ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergani kuzatiladi. Bu davrda millat va uning taraqqiyoti, ma'rifat, hurriyat she'riyatning yetakchi mavzulariga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: 2006.
2. Qosimov Y. O'zbek she'riyatida poetik fikrning yangilanishi: Filol. fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent, 1991.
3. Jabborov N. Cho'lpon she'riyatining timsollar olami / Cho'lpon va uning adabiy merosi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018. – B. 38-44.
4. Jabborov N. Cho'lpon she'riyatida milliy istiqloq orzusining badiiy talqini / Cho'lpon ijodi va zamonaviy adabiy jarayon. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – B. 45-52.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA TARIXIYLIK MASALASI

Kamol HAKIMOV

O‘zbekiston, TDO‘TAU, o‘qituvchi

Annotatsiya. Adabiy tanqidning asosiy vazifasi badiiy asarga xolis baho bermoqdan iborat. Ammo mustabid tuzum, siyosiy mafkura san’at asariga asl bahoni berishga faqat xalal beradi. Mazkur maqolada birinchi o‘zbek romani ”O‘tkan kunlar”ga akademik Oybekning munosabati, tahlil jarayonida yoritish uslubi, shuningdek, boshqa bir qancha adabiyotshunos olimlarning asarga nisbatan individual yondashuvlari, tahlil va talqinlari o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, jadidlar, oybekona talqin, tarixiy va zamonaviy mavzu, tahlil va talqin, san’at va ilm, adabiyot va tarix, xarakter, individual shaxs.

Yaxshi asar qora bulut ortidagi ko‘kni titratayotgan momaqaldir o‘xshaydi. Uning vahimasida ham shodlik, ham mahzunlik bor. Quvonchi shuki, tabiatning bu qudrati yashillikni sog‘ingan qaqroq yerlarga hayot, hosilidan umidini uzib boshlagan qadoqdor yerchilarning diliga o‘ziniki bo‘lgan ne‘matlarning daxlsiz ekani haqida darak berib turadi. Fikrning tub mohiyatida HURRIYAT deb ataluvchi ozod qarash, musaffo nafas yotadi. Hurriyatga ehtiyoj Xalq erkiga johillarcha raxna solinganda osha boradi. “O‘tkan kunlar” romani ana shunday tasvirga monand bir asar o‘laroq, erk va zulm chegaralari tutash bir vaziyatda dunyoga keldi.

Rus olimi Yuriy Borevning fikricha, san’atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini bajaradi [1, 42]. Bir vaqtlar o‘zini Leninning haroratli shogirdi sanagan Abdulla Qodiriyning qarashlarida bolsheviklar tuzumiga nisbatan munosabat neytrallasgan, bir qadar mavhum mazmunga ega, shu bilan birga, mohiyatan Turkiston manfaatlarini ko‘zlamagan kuchlarning sharafiga, ayyorona maqsadlari haqida xulosalar uzil-kesil shakllanib boshlaydi. “Hurriyat” gazetasining 1917-yilgi sonida professor Abdurauf Fitrat “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi – bolshevik balosi” degan ogohlantiruvchi xabar bilan chiqqanida Qodiriy birinchi romani uchun yetarlicha manbalar to‘plagan, ijod laboratoriyasida o‘tmishdan xabar, kelajakka bashorat berguvchi ulkan badiiy-ilmiy meros jamlangan edi. Har qanday badiiy asarda muallifning individual “men”i, shaxsiyati ijodkor uslubiga qarab turlicha shaklda, hajmda namoyon bo‘ladi. Biografik metod asosida badiiy asarni muallif shaxsi orqali idrok etish yotadi (Y. Borev fikri).

Oybek “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” nomli salkam 50 sahifalik tadqiqotining kirish qismida ”o‘zbek romanchiligi otasi” haqida to‘xtalar ekan, ilk asarlarida uning jadid, she‘rlari ham jadid poeziyasi doirasida bo‘lib, barcha she‘rlari ta’limiy, tashviqiy xarakterda yozilgan degan ilmiy qarashni ilgari suradi. Bir tomondan Qodiriy qisqa hajmdagi nasriy asarlari hamda lirikasiga nisbatan bunday ta’rif berilishi tabiiy bir holdir, chunki ma’rifatparvarlarning davomchilari bo‘lgan jadid adabiyoti vakillari ijodida ham ta’lim-tarbiya masalalari asosiy mavzulardan sanalardi. “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylagil” she‘rlarida Qodiriy, asosan shu masalaga e’tibor qaratadi:

“Ko‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulga sotamiz...”

Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g‘ayrat qiling,

Uxlaganlarni agar qodir esak uyg‘otamiz”. (“Ahvolimiz” she‘ridan)

Shuningdek, Oybek Qodiriyning ilk ijodiy izlanishlaridan tortib to yozuvchi ijodining javohirini tashkil etuvchi nodir adabiy merosiga qadar ulkan badiiy yodgorliklarni mikroskopik tahlil-u talqin qilishda, adabiy matnga baho berishda imkon qadar zamonasozlik illatidan yiroq pozitsiyada turib xolis baho berishni unutmagan holda ish tutadi. Professor B.Karimov yozadi: “Ruhiyat moddiyatga yemish bo‘layotgan 30-yillar muhitida turib oybekchasiga yozilgan “Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” risolasi ... uning “O‘tkan kunlar”dek dilbar romanga tegishli o‘rinlari faqatgina sinfiylik doirasidagi biryoqlama talqinlardan ... emas, albatta. Zotan romanga,

go‘zallik olamiga bunday munosabat Oybek fenomeni, Oybekning iste’dodi va ilmiy salohiyatiga munosib emas. Oybek ikki o‘t orasida turib, Qodiriy to‘g‘risida yozdi, imkoni boricha xolis fikrlar bildirdi va ko‘p o‘rinlarda dilidagi haq gaplari, o‘zi tushungan haqiqatlar yuziga siyosiy parda tutishga majbur bo‘ldi” [5, 31]. Darhaqiqat, mazkur tadqiqotda Oybek san’atkor-munaqqiddan ko‘ra ko‘proq tarixchi-realist bo‘lib qalam suradi; hissiyotga boy nafis badiiylik o‘rnini, asosan, ”qanday bo‘lsa shundayligicha” degan mo‘tadil yondashuv egallaydi. Quyidagi fikrlarda realist ijodkor hamda ilmiy metodologiya qonuniyatlariga chuqur berilgan tarixchi siymosidagi Oybekni ko‘ramiz: “Tarixiy voqealar fonida tarixning mohiyati emas, “to‘qima” qahramonlar, ba’zan tarixiy shaxslarning hayoti, kurashi ko‘rsatiladi. Asarga tarixiy xarakter bergan butun bo‘yoqlarni o‘chirsak, ... bir turkum shaxslarning shaxsiy dramasi, qahramonlarning sevgisi, oilaviy tragediyasigina qoladi” [2, 167]. Oybekning ayrim mulohazalari munaqqid Sotti Husaynning qarashlari bilan mushtarakdir. Jumladan, S.Husayn ham “O‘tkan kunlar” romani faqat nomigagina tarixiy bo‘lib, unda jonli o‘tmishning nafasi yo‘qligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Biroq Oybek Qodiriyning nafis ijod olamini anglashga bo‘lgan faol intilishi (professor Bahodir Karim ta’biricha), ijod namunalariga siyosiy g‘araz fonida baho bermasligi, tarixiy-sotsiologik omil asos qilib olinganiga qaramay asar janri xususiyatlariga hamda syujet mohiyatiga bosqichma-bosqich kirib borishi bilan yuksak darajaga ko‘tarilib boradi. Qodiriy ijodiga baho berar ekan, Oybek antiteza usulida ba’zi qarashlarini boshqa o‘rinda ayni mavzuga daxldor holatlarda tuzatib ham boradi go‘yoki. Masalan, uning **“tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar asarning g‘oyaviy-badiiy o‘qidan chetroqda ko‘rinadilar”**, degan xulosasida Abdulla Qodiriy ijodining nihoyat darajada serqirra, sertarmoq ekaniga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni “Tarixga qaytib ish ko‘rmoq xayrli” ekanini Qodiriy aslo unutmagan holda tarozining ikki pallasini teng ushlashni asosiy maqsadi qilib oladi: bir pallada mustamlaka o‘lka taqdiri; ikkinchi pallada Yusufbek hoji, Otabeklar misolida hurriyat va taraqqiyot tamalini qo‘yguvchi millatni shakllantirish. O‘z-o‘zidan ma’lumki, muvozanat bo‘lmog‘i uchun har ikki palla o‘z marralarida barqaror turmog‘i lozim. Tarixiy syujetning muhim belgilaridan biri: tarixiy haqiqatga erishishda, hayotni badiiy qayta jonlantirishda badiiy obrazlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Deylik, bosh qahramon tarixiy shaxs bo‘lsa-da, badiiy asarda uning tarixiy xizmatlarini xronologik shaklda tavsiflash usuli badiiyat qonuniyatlariga ziddir. Moziy kartinasi asliga monand shaklda ham berilmaydi; obrazlar oldiga jonli hayotni aslicha ko‘rsatib berish majburiyatini ham qo‘yish hech bir mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Sho‘rocha qarashlarga ko‘ra individual shaxs bo‘lishi mumkin emas, unda xarakterli xususiyatlar ham, ommani o‘z atrofida birlashtira oladigan fenomenal jihatlar ham mavjud emas(aslida, bunday saviyaga ega bo‘lmoq mumkin!-K.H). Karl Marksning”... ijod namunasida obrazlarning harakat yo‘nalishlari, ularning xarakterli xususiyatlari muhim emas, balki ularni ENG FAOL ONLARIDA mehnat inqilobiga chorlovchi TARIXIY ZARURIYAT muhimdir”, degan birgina jumlasida adabiyotning noyob namunalarini mafkura zindonlariga bandi qilish haqida o‘qilgan sovuq va adolatsiz hukmning dag‘dag‘asi yaqqol seziladi. Oybek nasrda haqiqiy realist edi. Shu bois ham “Navoiy” romanida xalq ichra faol, ammo tuyg‘ulari tuyumsiz, ko‘ngil zorlari unsiz qahramon siymosini yaratdi. Muallif Navoiy obrazini ijtimoiylashtirib yuboradi; insoniylik aynan ijtimoiy faollik bilan o‘lchanadi, degan bitiksiz qonun nafis san’atni nazoratga oladi. Biroq Oybek bu kabi g‘ayrioddiy xulosalarga o‘z erkicha kelmaydi, albatta. Biz yuqorida uning o‘z qarashlariga antiteza qilgan holda asl haqiqatlarni shivirlab bo‘lsa-da, aytib borganiga kichik misol keltirdik. Holbuki, uning ham ilmiy, ham ijodiy faoliyatida bunday murakkab, go‘yo o‘zligiga xiyonat qilayotganday sezilguvchi og‘ir hissiyotlar, hodisalar talaygina. Misol uchun, olim Qodiriyning ilk romani tahlilida **tarixiy voqealar asarning dramatik qismini, badiiy to‘qilmasining uzviy elementini yasamaydi**, degan to‘xtamga keladi, ammo tarixiy roman va unga xos belgilar haqiqagi nazariy qarashlarini bayon etar ekan, **tarixiy faktlar, voqealar, tarixiy vaziyat va boshqa tarixiy detallar qahramonlarning shaxsiy taqdirini ko‘rsatish uchun faqat fon, ko‘rgazmali dekorativ vositalar rolini o‘ynaydi** [2, 122] (Xuddi shunday talqin adabiyotshunos M.Qo‘shjonovda ham mavjud – K.H.), deya g‘oyat asosli hukmni ilgari suradi. Bu uning nazariy, ilmiy va ijodiy yondashuvida turli ziddiyatli farazlar mavjud ekanligi bilan emas, balki adib, asosan, ziddiyatli

davrning farzandi ekanligi, u yashagan davrning, shaxsga munosabat masalasining tahlikali qamrovi, majburiyatlari, talablari bilan bog'liq desak to'g'riroq bo'ladi. Akademik Matyoqub Qo'shjonovning bu boradagi fikrlari ham Oybek qarashlari bilan mos keladi: "Har bir haqiqiy san'at asari tarixiydir. Tarixiylik ruhi bilan sug'orilmagan realistik asar yo'q. Tarixiylik zamonaviylikni rad qilmaydi, balki ko'pincha zamonaviylikni keltirib chiqaradi. Tarixiy mavzu – tarixiy nomlarni saqlab qolish, voqealarni xronologik sanab o'tish bilan bo'ladigan ish emas"[3, 28]. Bu borada, ya'ni "O'tkan kunlar" romanining mavzusi haqida bildirilgan nazariy qarashlar orasida professor Uzoq Jo'raqulovning mazkur asar **"shaklan tarixiy, mohiyatan zamonaviy"** [4, 102] mavzuda degan g'oyat o'tkir xulosasi ushbu roman mavzusi haqidagi barcha savollarning yakuniy, mantiqiy javobi bo'la oladi. Shuningdek, Oybekning "O'tkan kunlar" romanidagi rasmiy maktublarda, buyruqlarda tarixiy: arabiy, forsiy so'zlar quyuq (ya'ni me'yoridan ortiq – K.H) qo'llangan, degan fikriga javoban U.Jo'raqulovning "O'tkan kunlar" tarixiy roman bo'lgani uchun, unda tarixiy til elementlarini ham muvofiq darajada qo'llash zarurati bor edi, deya romanning til xususiyatlari borasidagi xulosasini misol qilib keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, "O'tkan kunlar" romanida tarixiy shaxslarning o'tmish o'zanini o'zgartirib yuborishidan ko'ra tarixiy hodisalarning insonlar taqdiriga keskin ta'siri yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Odamzod hodisot qurshovida qoladi, voqealarda tragik jarayon vujudga keladi, vaziyat inson nazoratiga bo'ysunmaydi yoxud mavjud holatni o'zgartirishga qahramonlarning oilaviy-maishiy muammolari, ba'zan sentimental xarakteri yo'l qo'ymaydi; ommaning estetik qarashlari sokinlikka asoslanadi. Pichoq suyakka qadalmaguniga qadar, ba'zan bir necha bor sanchib olinganda ham mulohazakorlikni qo'ldan boy bermaslik asar qahramonlariga xosdir.

Oybekning "O'tkan kunlar" romani tadqiqidan shunday xulosaga kelish mumkin:

1) muallifning tarixiy manzarani ta'min etishga muvaffaq bo'lgani, voqealar tarixiy kartinalar doirasida ochib borilgani, asarning tili musiqiy, kartinali til ekaniga alohida e'tibor qaratadi;

2) olimning mazkur tadqiqotdagi zargarona topilmalaridan biri shuki, romanda obraz psixologiyasiga tabiat hodisalarining hamohangligi–Kumushning ahvoli bilan to'kilgan yaproqlar orasida garmoniya vujudga kelganini ta'kidlab o'tadi;

3) Xo'ja Ma'ozdagi kuchli shamol hamda Otabekning ruhiyatida bo'ron o'rtasida uzviy simvolik aloqa borligiga urg'u beradi;

4) asarni tahlil etish jarayonida olim jahon romanchilik an'alarini jiddiy o'rganib, epik janrlar xususiyatlari, tarixiy roman qonuniyatlarining o'tkir bilimdoni sifatida ish olib bordi;

5) tadqiqot zamonasoz publitsist–shiorchining emas, haqiqiy olimning qarashlari yig'indisi sifatida taassurot uyg'ota oladi.

Oybek 30-40-yillarda ziyolilarning oltin boshida davrning zulm qilichi o'ynab turgan bir vaqtda ham ilmiy va ijodiy faoliyatida buyuk So'zga sodiq qolgan, san'at musaffoligi uchun shiddat ko'rsatgan jasorat egasi sifatida adabiyotimizda o'zining boqiy umrini topgan adiblardan. Zamon kelib, Oybek nomi jaholat qorong'uliklarini yoritgan jadidlarning munosib davomchisi sifatida e'tirof etilmoqda; shu o'rinda jadid bobolarimiz haqidagi ba'zi noxolis qarashlar istak qalamining emas, siyohqalb kuchlarning istagi ekanini ham unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Боров Ю. Эстетика. – М.: Политиздат. 1988. – С. 42.
2. Ойбек. МАТ. (20 томлик). 14-том. – Тошкент.: Фан. 1979. – Б.122.
3. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент.: Шарқ. 2019. – Б.28.
4. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: F.Фуллом АСН. 2015. – Б.102.
5. Карим Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан. 2006. –Б.31.

Annotatsiya. Maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning o'zbek adabiyotini shakllantirish va rivojlantirishga qo'shgan hissasi, ijodining o'ziga xos jihatlari, shoir lirikasining 20-yillar o'zbek she'riyati tarixida tutgan o'rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'rifat, erk, kishan, tarjima, ko'ngil, "Tarjimon", "Vaqt", ma'naviyat, ma'rifat.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyotini shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, adabiyotimizni zamonaviy adabiy janrlar bilan boyitgan, tarjima maktabi asoschilaridan biri sanaladi. Cho'lpon xalqimizning buyuk va sevimli yozuvchilaridan biri sifatida adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ijodkoridir.

Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'rinib turadi. U xalqni ozod va baxtli ko'rishni istardi. Buning uchun odamlarning jaholat uyqusidan uyg'otish, ma'rifatdan, ilm-u fandan bahramand qilish kerak, deb hisobladi. Ayni paytda rus bosqinchilari millatning ma'rifatli bo'lishiga keng yo'l bermasligini ham bilardi. Erksiz ma'rifatning, ma'rifatsiz esa erkning bo'lmasligi shoirga ayon edi.

Asr boshlaridagi turmushning bunday manzaralarini o'z ko'zlari bilan ko'rgan ziyolilar "Tarjimon", "Vaqt" singari gazetalarni o'qiganlaridan keyin ularni bartaraf etish yo'llarini qidirdilar [1, 15]. Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi Cho'lpon ijodining yo'nalishi bo'lib qoldi.

1914-yilda "Qurboni jaholat" va "Do'xtur Muhammadyor" hikoyalarini e'lon qilib, mustamlakachilik kishanlari ostida ezilgan, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar girdobida g'afolat uyqusidagi vatandoshlarini uyg'otmoqchi bo'ldi.

Abdulhamid Cho'lpon faqat mustamlakachilikka qarshi kurash, erksevarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan asarlar yozibgina qolmay, balki ajoyib she'rlar yozgan shoir sifatida ham mashhurdir. Uning nazm namunalariga nazar tashlar ekanmiz, uning nihoyatda nozikta'b ijodkor ekanligiga yana bir karra amin bo'lamiz:

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.
Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lgini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.
Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Cho'lponning "Qalandar ishq" she'ri XXasrning 20-yillarida yaratilgan sof lirik she'rlaridan biri sanaladi. Lirik qahramon uchun muhabbat saroy, dengiz, dunyodir. Nihoyat u quyosh nuriga- Muhabbat timsoli bo'lgan siymo nuriga toqat qilolmay, yerga botadi. Shoir muhabbati ana shu tarzda ilohiylashtiriladi, uni dunyodagi eng yuksak qadriyat sifatida sharaflaydi. Ana shu nuqtada she'rning g'oyaviy mazmun-mohiyati ochiladi.

"Qalandar ishq" she'ri ko'p jihatdan shoirning "Go'zal" she'ri bilan hamohangdir. Cho'lpon hech kimga o'xshamagan samimiylik, jozibador, ta'sirchan, tuyg'ularining ranginligi bilan o'zgalaridan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi [2, 86].

Cho'lponning deyarli barcha asarlari oddiylik, samimiylik urug'lari bilan sug'orilgan. Ijodkor XX asrning 20-yillarida yozgan she'rlarida vijdon, ko'ngil, kishan obrazlariga ham ko'p marotaba murojaat etgan. "Ko'ngil" she'rida ko'ngilning kishanlar bilan do'stlashib, adolatsizlikni ro'y-rost ko'rib turib ham na dod, na faroyod ko'tarmaslik kabi "odat"lari borligidan o'pkalanadi. Agar shunday davom etadigan bo'lsa, "Haqorat dilni og'ritmas, Tubanlik mangu ketmasmi? Kishanlar parchalanmasmi, Qilichlar endi sinmasmi?"- deb xavotirlanadi. Agar shoir o'ylagani va xavotirlanganidek, ana shu illat bundan keyin ham davom etsa, xalq

qullikda, o'ika esa qaramlikda, tobelikda qolishi hech gap emas. Shuning uchun ham Cho'lpon mustamlakachilik kurashlaridan azob-u uqubat chekayotgan vatandoshlariga qarab hayqiradi:

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsen,

Kishan kiyma,

Bo'yin egma

Ki, sen ham hur tug'ulg'onsen! [3, 46]

Misralardan ayonlashadiki, shoir ona yurtining ozodligi va mustaqilligini ko'rishni istagan hamda shu yolda astoydil kurashgan ijodkorlardan.

Cho'lpon ijodining negizida erkinlik, ozodlik haqidagi orzu-istaklar mujassam. Shoir fikricha, har bir inson hurlik sarchashmasidan bahramand bo'lmog'i lozim, biroq istiqlol shukuhini his etish uchun millat ahli birlashishi, chekinmasligi, jasur va dovyurakligi bilan namuna bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Shoir ijodini kuzatganda, uning millat ozodligi, ma'naviyati va ma'rifati uchun fidoyilik ko'rsatg anligini anglab yetishimiz mumkin.

Ilmga tashnalik, uning zavq va shavqiga oshuftalik azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qadriyatlardan biri hisoblanadi. Cho'lpon ham ma'rifat va ma'naviyat targ'ibotini o'zining ulug'vor burchi deb bildi va uning ro'yobi yo'lida tinimsiz faoliyat olib borgan yorqin siymolaridan biri bo'lib, hamon she'riyatimiz osmonida porloq yulduz misoli charaqlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari.-T.: "O'zbekiston", 2008. 534 b.
2. Karimov N. va b. Adabiyot. -T.: "Ma'naviyat", 2002. 160 b.
3. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash.-T.: "Yozuvchi", 1994. 86 b.

MAHMUDKHOJA BEHBUDI'NIN AYDINLANMASI VEYA BILIM ADAMI POYON RAVSHANOV'UN GERÇEKLERİ

Muhabbat RAJABALIYEVA,
(**Özbekistan**) Ekonomi ve Pedagoji
Universitesi'nin bağımsız araştırmacısı

Özet: Ülkemizde Türkistan modernizminin kurucularından Mahmudhoca Behbudi'nin mirasının araştırılmasına büyük önem verilmektedir. Bu bakımdan edebiyat eleştirmeni Poyon Ravshanov'un "Behbudi Hakikati" adlı araştırması oldukça önemlidir. Behbudi'nin hayatının son günlerindeki trajediler, bilim adamının bu kitabında somut delillere ve arşiv verilerine dayanılarak ele alınıyor. Araştırmacı, Behbudi'nin son günleriyle ilgili tarihi gerçeğe büyük ölçüde ışık tuttu. Bu makalede Poyon Ravshanov'un araştırmaları bilimsel ve edebi açıdan incelenmiştir.

Anahtar kelimeler: Poyon Ravshanov, Behbudiy, Eshoni Shahid, trajedi, devrimci hareket, arşiv, araştırma makalesi .

Cumhurbaşkanı Şevket Mirziyoyev, 2020 Âli Meclis'e hitaben yaptığı konuşmada, Mahmudhoca Behbudi'nin doğumunun 145. yıldönümünü ve onun mirasını derinlemesine inceleme ve onu halkımıza, özellikle de genç nesle aktarma ve daha fazla güç verme çağrısını anlattı . Aydınlanma konusunda ciddi ve ciddi bir bilim adamı, bir araştırma makalesi oluşturmaya karar verdi. [1, s.37]

Sovyetler döneminde Türkistan Cedidlerinin mirasını incelemek yasaktı. 20. yüzyılın 80'li yıllarının sonunda bu alana dokunulmaya başlandı. Ülkemizin bağımsızlığından sonra modern aydınların, özellikle de liderleri Mahmudhoca Behbudi'nin (1875-1919) hayatı, faaliyetleri ve mirasını incelemeye olan ilgi arttı . Büyük âlimin mirası üzerine pek çok kitap yazıldı ve

Behbudi çalışmaları şekillenmeye başladı (A.Aliyev, N.Kerimov, B.Kasimov, P.Ravşanov, D.Alimova, I.Gofurov, H.Saidov, yabancı bilim adamları I.Baldauf (Almanya), E.Olvert (ABD) ve diğerleri.)

Hükümdar Şura döneminde yaşanan karmaşık olaylardan dolayı, birbirine karşı seyreden gemilerin arasına sıkışan teknenin doğal olarak batacağı biliniyor. Türkistan Cedidlerinin lideri Mahmudhoca Behbudi Hazretleri de bu okyanusta helak olmuştur. Büyük şahsiyetin yurt dışı gezisi gerçekleşmedi, gizemli ölümü gerçekleşti, daha doğrusu Bolşevikler Emirliği bu korkunç suçu işlemeye teşvik etti. 25 Mart 1919'dan 2010'a kadar Alloma'nın idamına ilişkin çeşitli varsayımlar ve hipotezler vardı .

Behbudi ulemasının eserlerinde ve milli ansiklopedimizde Alloma'nın son günleri hakkında aynı yorum yapılmaktadır yani: "1919 baharının başlarında M. Behbudi yurtdışına giderken halk tarafından esir alındı. Buhara Emirliği'nin Devrimci Acil Durum Komisyonu üyelerinin yardımıyla götürülür, arkadaşları Muhammedkul ve Mardonkul ile birlikte hapse atılır ve idam edilir. Bu olay bir yıl sonra Semerkant'ta duyulacaktır." [2, s. 9]

Başka bir kaynağa göre ise 1919 yazında Karşı hapishanesinde Mahmudhoja Behbudi, iki suç ortağı Mahmudhoja Orinboy oğlu Mardonqul Shomahmud ve Karşili mahkum Ahmed adında dört masum kişinin öldürüldüğü kaydedildi.

Özbekistan'da görev yapmış gençlik koçu Kaşkadarya'nın tanınmış edebiyat eleştirmeni ve tarih bilgini Profesör Poyon Ravshanov (1941-2020), Behbudi'nin son günleriyle ilgili tarihi gerçeği aydınlattı.

Poyon Ravşanov uzun yıllar boyunca sürekli olarak Türkistan Cedidî hareketinin lideri Mahmudhoja Behbudi'nin hayatı, eserleri ve hayatının son günlerini konu edindi. Onun gözünde yetenekli yazar ve bilim adamı Mahmudhoja Behbudi, Özbek halkının kültürünü ve aydınlanmasını geliştirmek, bağımsızlık ruhunu geliştirmek için millet için hava ve su gibi son derece gerekliydi .

Poyon Ravşanov, hayatının son döneminde bile Behbudi'nin mirasını arşiv ve sözlü tarih verilerine dayanarak sürekli olarak incelemeye devam etti.

25 Mart 1919'dan 2010'a kadar Mahmudhoja Behbudi'nin son günlerine ilişkin spekülasyonlar vardı ve P.Ravşanov'un açık arşiv delillerine dayanarak ölümünden sonra yayınlanan "Behbudi'nin Gerçeği" adlı kitabı buna bir ölçüde katkıda bulundu. Bu kitabın ilk sayfalarında Abdurauf Fitrat'ın "Behbudi saganasını aradım" şiirinin yer alması dikkat çekicidir. Yazarın bu kitapta yüz yıldır gündemde olmayan konulara dair net tespitlerde bulunduğu söylenebilir. Kitapta da belirtildiği gibi Mahmudhoja Behbudi hakikatine ulaşmak son derece zor ve uzun soluklu bir iştir ve zaman geçtikçe yoldaki bilmece ve karışıklıklar çözümünü bulacaktır. Taşkent, Semerkant ve diğer büyük şehirlerin arşiv belgelerinde bu eserdeki yeni fikirleri doğrulayan, tamamlayan ve ortaya koyan deliller bulunmaktadır.[3;125]

Kitaba göre Behbudi Takhtakoracha davan'da yakalanmış ve haber Karshi Beg Toghaybek tarafından Amir Olimkhan'a iletilmiştir. Şehrisabz'dan Karşı'ye getirildi ve şehrin Kohna Chorsu Caddesi üzerindeki 21 numaralı evde bir buçuk yıl boyunca esaret altında tutuldu. Behbudi Mart 1919'da değil, Eylül 1920'de idam edildi ve kendisinin ve arkadaşlarının naaşı Eşoni Şahid mezarlığına gömüldü.

Alloma'nın mezarı bu mezarlıkta Eşoni Şahid türbesi ve Abdulatif el-Nesafi türbesinin yanında bulunuyordu. Bu şehir 1926-1936'da hac yeri haline geldi. Kızılar ve sempatizanları burada yemin ettiler. 1937 yılı baharında Behbudi'nin mezarının üzerindeki revak kırılmış ve duvarlar zarar görmüştür. 1930'ların sonunda Şuraların tutumu değişince Alloma'nın mezarı da unutuldu. 1938 yılında Behbudi bölgesinin adı yeniden Karşı bölgesi olarak anılmıştır.

Başarılı bilim adamı ve edebiyat öğretmeni P. Ravşanov'un "Behbudi Hakikati" adlı kitabı, Behbudi araştırmalarının yanı sıra Türkistan modernizmi tarihine de önemli bir katkı olmuştur. Metinde Behbûdî'nin karmaşık ve ihtilafli hayatı ve faaliyetleri, özellikle de vefatına ilişkin ayrıntıların ve bir âlim olarak konumunun kısa ve öz bir şekilde sunulması, Cedidilik ve hatta Behbûdîlik açısından önemli bir yenilik sayılabilir.

Referanslarni listesi:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2020-yil 24-yanvar) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnoma. – Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU
2. Qosimov B. (2001) Behbudiy Mahmudxo'ja. – 2-jild. – Toshkent: O'zME DIN
3. Ravshanov P. (2022) Behbudiy haqiqati. Tadqiqnoma. – Toshkent: "Akademnashr".

JADIDCHILIK VA O'ZBEK ADABIYOTINING RIVOJLANISH MASALALARI

Klara DUSYOROVA,
O'zbekiston, QarDU, o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakati namoyandalari ishtirokida milliy adabiyotni rivojlantirish masalalarining ko'tarilishi, undagi o'zgarishlar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, adabiyot, Turkiston, gazeta.

KIRISH

XX asr boshlarida o'lkada dastlabki milliy matbuot nashrlari chop etilishi bilan jadidlar aynan matbuot va adabiyot orqali o'z g'oyalarini targ'ib etish uchun yo'l topdi hamda xalq ongida o'zgarish yasashga erisha oldi. Xalqni jamiyat ishlarida faol bo'lishga, zamonaviy bilimlarni o'rganishga da'vat eta oldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev jadidlar faoliyatiga alohida urg'u berib: "...Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib ketayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan hayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi" – deya ta'kidlagan edilar [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Milliy uyg'onish harakatining borishi vaqtli matbuot bilan chambarchas bog'liq kechdi. 1906 yildan boshlab Turkistonda milliy gazeta va keyinroq jurnallar nashr etilishi yo'lga qo'yilishi jadid muharrirlarining tashabbusi, sa'y-harakatlari va mablag'lari bilan amalga oshirildi. Ular qisqa vaqt ichida Turkistonda katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongi uyg'onishiga, dunyoqarashi o'zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi. Jadidlar milliy matbuotining "Taraqqiy" (Ismoil Obidiy, 1906), "Xurshid" (Munavvar qori, 1906), "Tujjor" (S.Saidazimboyev, 1907), "Sadoi Turkiston" (U.Asadullaxo'jaev, 1914), "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i" (B.Soliev, 1917), "Hurriyat" (1917), "Samarqand" (Mahmudxo'ja Behbudiy, 1913), "Turon" (G'.Husayniy, 1913), "Najot" (Munavvar qori, 1917) gazetalari va "Oyina" (1913-1915) jurnali davr taqozosi bilan ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarqalishida samarali vosita va millat ehtiyojiga aylandi.

Xalqning siyosiy ongini o'stirishga qaratilgan maqolalar, jamiyat orasidailmning ahamiyatini targ'ib qilishga chorlovchi adabiy materiallar jamiyatningbarcha qatlamlarigacha ta'sir o'tkazdi. Matbuot yo'nalishida Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jaev kabilar mahalliy matbuotni shakllantirishda muhim rol o'ynadilar. Jadidlar o'z g'oyalarini targ'ib etish quroli sifatida o'zlari yaratgan matbuot nashrlari, ijodiy ishlar, badiiy asarlar va maqolalardan foydalanib kelishdi. "O'lkada jadid taraqqiyparvarlarining g'oya va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan, ularni birlashtiruvchi,

moliyalashtiruvchi siyosiy tashkilot mavjud bo'lmagan bir sharoitda – matbuot Turkiston jamiyatining ijtimoiy ongiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan yagona najotga aylandi" [2].

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida nashr qilingan matbuot badiiy adabiyot, badiiy ijod yordamida davrning keskin g'oyalarini, milliy mafkuraviy qarashlarini ko'tarib chiqdi. Ushbu masalalarni vaqtli matbuotda e'lon qilingan adabiy, ijtimoiy-maishiy, siyosiy ruhdagi maqoladan tortib kichik she'riy parchagacha singib ketganini ko'rish mumkin. An'anaviy she'riyatdagi poetik obrazlar (gul, bulbul, yor, ag'yor) yangi mazmun kasb eta boshladi. "Maktab", "ilm-fan", "ma'rifat", "taraqqiyot" tushunchalari asosiy planga ko'tarildi. Bu davrga kelib mahbubaga emas, aksincha, ilmga, ma'rifatga muhabbat e'lon qilindi. Jadid shoirlari o'zlarining muhabbat haqida yozilgan she'rlaridan voz kechdi. Misol uchun, samarqandlik shoir "Siddiqiy- Ajziy o'zining xuddi shunday "xushta'b"lik ila yozilgan ishqiy she'riyatidan voz kechdi, ularni kuydirib tashladi" [3]. Ahamiyatlisi, jadid she'riyatida millat onalarini g'aflatdan uyg'otish, xotin-qizlarni ilm-ma'rifatli qilish masalasi ham alohida o'rin tutgan. Ahamiyatlisi, jadid she'riyatida millat onalarini g'aflatdan uyg'otish, xotin-qizlarni ilm-ma'rifatli qilish masalasi ham alohida o'rin tutgan.

O'zbek matbuotining taniqli tadqiqotchisi Boybo'ta Do'stqorayevning ma'lumot berishicha, gazetachilik faoliyatida Hamza, Tavallo, Vasliy, Hayrat, Isxoqxon to'ra (Ibrat), Mirzajon Mirzaabror o'g'li Kamolov, Sayyox Darvesh, mulla Xoshimjon Muhammad Solih o'g'li va boshqalarning she'rlari ham bosilgan. Biz o'sha davr gazetalarida sahifalarida, jumladan, Tavalloning bir savdogar tilidan yozilgan "Vaqt g'animat", Mirzajon Mirzaabror o'g'li Kamolovning "Nima bo'ldi biz musulmonlarga?", Urgutiyning "Ishtiyoqi ilm", Mirmuhsin Mirhidoyatovning "Turkiston axdiga xitob", X.M.Akbarovning "Vakti taraqqiydur", Abdullajon Karimjonovning "Usuli jadid haqida she'r", G'ulom Zafariyning "Jaholatimiz", Ahmadjon Mustaqiyning "Dunyodan rozi bo'lmag'on bir do'stima", Halimiyning "Maktab", Sayyoh Darveshning "Maqolae manzuma", Tavalloning "Vujudimdan bir rijo", "Oyna haqida she'r", Sharifzoda Hoib (Xurshid)ning "Ko'ngil", Shamsiddinbek Hamidiyning "Madaniyat emish uloq" kabi she'rlari bosilganidan xabardormiz.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, matbuot jadidlar dasturini amalga oshirishda minbar sifatida xizmat qildi. XX asr adabiy manzarasi jadid matbuotida to'la-to'kis o'z aksini topdi. Bu adabiyotning birinchi bosqichi – 1905 – 1917 yillar adabiyoti Turkistonda milliy matbuotning ilk kurtak yozishi, rivoj olishi davriga to'g'ri keldi. Shu qisqa vaqt jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyotini ham sinovdan o'tkazdi. Matbuot bilan adabiyotning uyg'unlashuvi hodisasi ro'y berdi. Adabiyotni ommaga yetkazish uchun keng tarqalish imkoniyatiga ega bo'lgan gazeta yo jurnallarda nashr etish yo'li tanlandi. Jadid adabiyoti, shubhasiz, jadid matbuoti vositasida keng yoyildi, tomir otdi. Publitsistik hamda adabiy tamoyillar birlashdi. Shu bilan bir qatorda, davr adabiyotiga mos tarzda tanqid yoki boshqacha aytganda, jadid adabiyotshunosligi ham shakllanib, yangilanib bordi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi // №165 (421), 2021 yil 17 avgust.
2. Irzaev B., Ortiqov U. – Jadid matbuoti sahifalarida Turkistondagi siyosiy jarayonlar. "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari" konferensiya materiallari. -T., 2016. B-99.
3. Egamqulova N. XX asr boshlari adabiy jarayoni muammolari (1906-1917 yillar o'zbek vaqtli matbuotimisolida). Fil. fan. b. fal. dok. diss. avtoreferat. –T., 2021.

ИДЕАЛ СПРАВЕДЛИВОСТИ И КРИТЕРИИ ПРОГРЕССА В ИДЕОЛОГИИ ДЖАДИДИЗМА

Феруза ЮСУПОВА,
Узбекистан, НГГТУ, старший преподаватель

Аннотация. В данной статье приводится социально-философский анализ приоритетов социально-духовного идеала джадидов в формировании национальной идеи, которая могла открыть для народов Средней Азии альтернативный путь к созданию нового государства с собственной социальной, политической и экономической основой.

Ключевые слова: идеал, джадидизм, реформирование общества, образование, просвещения, свобода, инновационные процессы.

Движение джадидизма, которое вошло в историю как движение за обновление и реформацию общества, способствовало росту национального самосознания и сыграло существенную роль в становлении и развитии идеологии в Центральной Азии. «...в XX веке наши выдающиеся предки - джадиды-просветители могли бы осуществить в стране Третий Ренессанс. Ведь эти глубоко образованные, самоотверженные личности посвятили себя идее национального возрождения, направили все свои силы и возможности на то, чтобы вывести страну из тьмы и отсталости, освободить нацию от оков невежества. И ради этой великой цели жертвовали собственной жизнью» [1].

Джадиды формировали национальную идею, которая могла открыть для народов Средней Азии альтернативный путь к созданию нового государства с собственной социальной, политической и экономической основой. Они были великими продолжателями вековых традиций гуманизма, свободолюбия и справедливости, утвердившихся в общественной мысли узбекского народа. Программа джадидов сводилась к трем главным принципам - хуррият, муссават, адолат (свобода, равенство, справедливость).

Если справедливость была традиционно утвердившейся идеей в общественном и национальном сознании народа, то свобода и равенство были выдвинуты уже самими джадидами. Под свободой подразумевалось создание свободного и суверенного государства на всей территории Средней Азии. Равенство было общим понятием, связанным с традиционными представлениями, широко распространенными в обществе, где равенство казалось вполне достижимым.

Общее, что объединяло джадидов была открытая поддержка и защита просвещения, свободы, совершенствование норм нравственности и морали, борьба за цивилизованные формы жизни, стремление к улучшению жизни народа. Их главной мечтой стало распространение достижений мировой цивилизации в Туркестанском крае в области образования, науки и культуры.

Одним из специфических черт джадидизма являлось признание просвещения и образования в качестве критерия прогресса. По мнению философа Х.С.Ашуровой, «движение джадидов было нововведением для своего времени» [2, 13]. «В целом джадиды осознали необходимость новаторских идей в развитии национального самосознания для достижения свободы и независимости. Посредством этих идей они призвали к национальному пробуждению, то есть к модернизации общества. Педагоги-джадиды подчеркивали, что национальная система образования могла бы соответствовать требованиям времени и стать реальным ресурсом развития, преодолев ее кризис, изменив содержание образования, формы и методы его организации, создав совершенно новое технологическое обеспечение образовательного процесса [2; 15].

В рамках общеполитического критерия человек, джадидизм производит переоценку критериев общественного прогресса в морали, науке, эстетике, религии, философии. Тем не менее в качестве приоритета духовного идеала джадидов необходимо выделить достижения европейского Просвещения, следовательно, идеологами джадидского

движения в качестве основного критерия прогресса утверждается развитие сфер образования и просвещения.

В плане прогресса произошли значительные общественные преобразования: ликвидация неграмотности, введение всеобщего школьного образования, доступ к обучению детей всех сословий, приобщение широких масс к духовным богатствам - не посредством религии, а через художественную культуру.

В целях социально-культурного развития Средней Азии в новом направлении джадидистские лидеры предложили ряд реформ в области образования, историографии, литературы, печати, религии и искусства. Они выступили с идеями переоценки и усовершенствования этики, веры, правосудия, здравоохранения, улучшения положения женщин, всех сторон общественной жизни.

Лучшие представители джадидизма служили народу и родине. Вся их жизнь была отдана великой исторической миссии — просветить угнетённый народ, показать ему дорогу к счастливой и зажиточной жизни, воспитать в нем чувство собственного достоинства, чувство хозяина той земли, на которой жили его предки, и на которой он живёт поныне. Джадиды были во всех отношениях передовыми людьми своего времени.

Концептуальные идеи просветителей стали духовной предтечей современной практики, генетической основой нынешних стратегий и курса масштабных реформ.

Список литературы:

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников. 01.10. 2020// <https://www.uzdaily.uz/ru/post/55576>

2. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидалирининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (XX асрнинг биринчи чорағи) //Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, СамДЧТИ нашр-матбаа маркази, 2020.

JADID ZIYOLILARI IJODIDA MILLIY ETIKA MASALALARI

**Nilufar UMAROVA,
O‘zbekiston, QarDU, PhD**

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ziyolilari ijodida milliy etika muammolari jadid ijodkorlari ijodi misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, etika, milliy etika, milliy axloq, an‘ana, nafs, tarbiya.

Milliy etika masalasi jadid ziyolilarining barcha asarlarida asosiy ijtimoiy-badiiy konsepsiya hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning badiiy va publitsistik ijodida, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Sidqiy Xondayliqiylar she‘riyatida, Munavvarqori Abdurashidxonov, Saidrasul Saidaziziylar tomonidan yozilgan o‘quv adabiyotlarida, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Tavallo, Abdulla Qodiriy va Cho‘lponlar she‘riyati, dramalari hamda boshqa yo‘nalishdagi asarlarida XX asr boshlari o‘zbek milliy etikasining asoslari aks etgan. Albatta, bu ko‘lamdor muammoni yo‘l-yo‘lakay talqin etish mumkin emas. Jadid adabiyotida milliy etika masalasi alohida maxsus tadqiqotlarga mavzu bo‘ladi. Quyida ulardan ikkitasiga muxtasar to‘xtalamiz.

Bizningcha, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitratning bu masalaga doir ishlari o‘ziga xos. Jumladan, A.Avloniyning “Birinchii muallim”, “Ikkinchi muallim” kitoblari yosh avlodga badiiy so‘z vositasida milliy etikani shakllantirishning yuksak namunasidir. Bunda muallif milliy etikani shakllantirishda uchta muhim asosga tayanadi: 1) xalq ijodiyoti namunalari, xalq donoligiga doir manbalar: “Yamonlik jazosi”, “Axloqiy hikoya”, “Arsilon ila ayiq”, “Hasad balosi”; “Nafsi yomon hayitda o‘lar”; “Bo‘ri ila xotun” va h.k.; 2) mumtoz badiiy-axloqiy asarlar, ommalashtirilgan so‘fiylik tajribalari: “To‘g‘rilik”, “Saxiylik”, “Qanoat”; “Aql”,

“Salovot”, “Baxillik”, “Ittifoq”, “Yaxshilik” va h.k.; 3) ilm-fanga doir yangi zamon xulosalari: “Qo‘shma so‘zlardan”, “Yil, sana”; “Qamariya hisobi”, “Yilning fasli” va h.k. Ayni paytda jadid adabiyotida milliy etika talqini deyilganda, dastlab yodga olinadigan yana bir manba A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari hisoblanadi. Bu asar sharq mumtoz adabiyoti an‘analarining davomi bo‘lishi bilan birga, XX asr talablariga moslashtirilgani, milliylashtirilgani, zamonaviy nuqtai nazardan mazmun, shakl, til va uslub jihatidan turlicha qayta ishlangani bilan diqqatga sazovor. Asarda “Axloq” masalasining kitob boshiga qo‘yilishi ham yuqoridagi fikrimiz isbotiga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobda “Xulq”, “Yaxshi xulq”, “Yomon xulq”, “Tarbiya”, “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi”, “Axloq tarbiyasi”, “Fatonat”, “Diyonat”, “Islomiyat”, “Say’ va g‘ayrat”, “Riyoziyat”, “Shijoat”, “Ilm”, “Sabr”, “Hilm”, “Intizom”, “Miqyosi nafs”, “Vijdon”, “Vatanni suymak”, “Iffat”, “Hayo”, “Xavf va rajo”, “Adolat”, “Sadoqat” va h.k [1] mavzular ostida milliy axloqning asoslari talqin etiladi.

A.Avloniy asarning “Xulq” deb nomlangan bo‘limchasida shunday yozadi: “Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko‘z ila bor narsalarni ko‘rar. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi, yo yomon bo‘ladur...” [3,34]. Bu yerda muallif inson tarkibini tana va nafsga bo‘lish bilan uning sof ijtimoiy mavjudot ekaniga urg‘u beryapti. Nafsning jilovi idrok (aql-farosat) qo‘lida bo‘lsagina u maqtalgan nafs (nafsi hamida)ga aylanishi, aks holda, yomon xulq yuzaga kelishi mumkinligini aytmoqda. Yoki tarbiya haqida shu tariqa fikr yuritadi: “Tarbiya “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug‘indan shul xususda bir oz so‘zlaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘stirmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiya bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur...” Va muallif “demishlar” ta’kidi bilan xalq donoligiga oid quyidagi axloqiy she’rni keltirgan:

Yomon xo‘ tuzalmadi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip, rangi alvon ila,
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,
Va yoki ulangandagi zangidan [3, 36].

A.Avloniy bola va jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning mohiyatini teran his etadi va buni ilmiy-badiiy, ma’rifiy manbalar yordamida asoslaydi. Jismoniy va ma’naviy tarbiyaning uzviy olib borilishiga alohida e’tibor qaratadi. “Maslak tarbiyasi”–imon-e’tiqod, oila, ota-ona, Vatanga muhabbatning tarbiyalanishi bola yoshidan bo‘lishi lozimligini qat’iy ta’kidlaydi. Bu fikrlar shu tomonlari bilan muallifning mumtoz salaflari, hatto dastlabki “Etika” asari muallifi Aristotel qarashlari bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” asarida Turkiston xalqining dunyoviy va ruhiy tanazzuli sabablari qidiriladi. Muallif zamondoshlari tomonidan bu tanazzul sabablari quyidagicha talqin etilishini aytadi, ya’ni:

1. Parishonligimiz va tushkunligimizga sabab yo‘q, bu ilohiy xohishdir.
2. Xudo bu dunyoni kofirlar uchun jannat, mo‘minlar uchun do‘zax qilib yaratgandir.
3. Qiyomat yaqindir, musulmonlar bu dunyoda asta-sekin kamayib bormoqda.

4. Hazrat Payg‘ambarimiz “kulli yavmin badtar” deb aytganlaridek, musulmonlarning kuni kunidan battar bo‘lib bormoqda. Zamondoshlarining bu da’volarini keltirgan muallif ularga shunday javob beradi: “Ma’lumki, bu mulohazalar bilkul puch va botildir” [4, 36]. Muallif milliy ahvolimizdagi tanazzulning bunday yuzaki sabablarini inkor etar ekan, buning hammasiga o‘zimiz aybdormiz degan xulosaga keladi. Qur’oni karim, Hadislardan misollar keltirib fikrini asoslaydi. “Senga yetgan yaxshilik Ollohdandir, musibat o‘zingdan” degan Qur’on oyatini shunday talqin etadi: “Chunonchi shu oyatdan ham anglashiladiki, bizning e’tiborsiz va xoru zor ekanligimizning haqiqiy sababi o‘zimizning nosoz amallarimizdandir” [4, 66]. Asar shu

nosozlikni qanday tiklash mumkin, najot yo'li qayerda, degan savolga javob berish uchun yozilgan va barcha muammolardan, Qur'onda aytilganidek, "aql yurgizib" qutulish mumkinligiga urg'u berilgan. Buning uchun esa jamiyat nafs tarbiyasi, milliy axloqqa jiddiy e'tibor qaratishi, aql yuritib amaliy natijalarga erishuvi lozimligi ta'kidlangan. Kitobning "Vazoyifi nafsiya" bo'limida, jumladan, shunday deyiladi: "Vazoyifi nafsiya – bu insonni muhofaza etish va taraqqiy topishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardir, ya'ni inson o'z nafsini (chunki bu odamiylik zaruriyatidir) kamol toptirish darajasiga yetkazishi lozim. Nafs kamoli bu odamning ham o'ziga, ham o'z hamjinslariga foyda keltirishidir. Agarda nafs solih amalga ulfat va yaqin bo'lsa-yu, yomon, qabih ishlardan nafratlansa, shunda nafs kamolining martabasi hosil bo'lg'ay" [4, 81].

Bulardan ma'lum bo'ladiki, jadidlarning bosh maqsad-vazifalaridan biri milliy axloq (etika)ni tarbiyalash bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Сочинение в черых томах. Том 4. – М.: Мысль, 1983.
2. Кессиди Ф.Х. Этические сочинения Аристотеля /В кн.: Аристотель. Сочинение в черых томах. Том 4. – М.: Мысль, 1983.
3. Авлоний А. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. Нашрга тайёрловчи Бегали Қосимов. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 1998.
4. Фитрат А. Танланган асарлар. Бешинчи жилд – Тошкент: Маънавият нашриёти, 2010. – Б. 63.

OBRAZ BADIY TASVIRINING MANBALARI

Sherzod AKRAMOV
O'zbekiston, QarDU, PhD

Farhod QIYOMOV
O'zbekiston, QarDU

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy ozodlik kurashchilari va jadidlar obrazini yaratish, qiyofasini yangilash va ularning asl yuzini ko'rsatish haqida to'xtalangan. Maqolada milliy ozodlik kurashchilari va jadidlar obrazi badiiy tasvirining manbalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, xalq og'zaki ijodi, milliy ozodlik, bosmachi, tarixiy manba, adabiy manba, rahnamo.

Mohiyatan o'ylab ko'rilganda, muallif biror voqelikni o'rganar, aniqlar ekan unga nafaqat tarixiy fakt asosida, balki ichki tuyg'ular asnosida ham yondashadi. Milliy ozodlik kurashchilari obrazlari o'tmishning eng bahsli, og'ir va sinovli kunlarini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Bu obrazlarning bir qismi aniq tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'lib o'tmishni o'zida aks ettirsa, ba'zilar esa moziy asnosida umumlashma prototip sifatida shakllanadi. Aslini olib qaraganda, ma'lum tarixiy shaxs qiyofasini yaratishdan ko'ra umumlashgan prototipni shakllantirish anchayin mushkul sanaladi. Boisi, umumlashgan prototiplar asnosida yaratilgan obrazning yuki ancha og'ir bo'lib, badiiy asarning o'ziga xos bo'lishi uchun bunday obrazlar badiiy jihatdan butun bo'lmog'i shart. Aks holda umumlashgan prototiplar obraz darajasiga ko'tarila olmasligi bilan bir qatorda, asar ham o'quvchida puch g'oyalar madhiga bag'ishlangandek taassurot qoldiradi. Shu o'rinda olim N.Shodmonovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratish joiz: "Biror ijodkor yoki badiiy asarning o'ziga xosligini belgilashda, bizningcha, quyidagilar asosiy mezonlar hisoblanadi:

1. Mavzuning o'ziga xosligi. 2. Shaklning o'ziga xosligi. 3. Talqinning o'ziga xosligi. Ulardan loaqal bittasi e'tibor bilan yaratilganda ham ijod namunasining o'ziga xosligi ta'minlanadi" [1].

Ayni shu tasnifga asoslanib yuqoridagi har uchala o'ziga xoslikning har biri obrazning o'ziga xosligi va individualligiga borib taqalishiga e'tibor qaratmoqchimiz. Zero, kuchli mazmun, shakl, obrazning badiiy xususiyatlarini mukammal holatda ochib berishga ko'mak beradi.

Garchand, milliy ozodlik kurashchilari obrazlari o'zining ma'lum bir tarixiy prototipiga ega bo'lsa-da, ularda muallifning ijodiy fantaziyasi, badiiy to'qimasi, estetik ideali aks etadi. Bunday obrazlarni tipik obrazlar deyish mumkin. Tipik obrazlar o'zida bir davrga tegishli bo'lgan qandaydir umumlashma xarakterni aks ettiradi. Masalan, Tohir Malikning "Ov" qissasida obrazlarning asosiy qismi tipik xususiyatga ega. Ular ma'lum bir qatlamning xususiyatlarini o'zida aks ettirishi bilan xarakterli. Muallif bunday obrazlarga o'zi istaganicha keng va murakkab vazifani yuklay oladi. Biz Tohir Malikning "Ov" qissasidagi obrazlarni "umumlashma prototip"lar deya baholashni joiz ko'rdik. Asarda Rahmatulloh obrazi aniq tarixiy shaxs bo'lmasa-da, u sobiq Sho'ro davrida shahid ketgan millatning keng tafakkurli, toza qalbli farzandlarining umumlashma qiyofasi bo'lib, bu obraz yordamida muallif o'zining badiiy maqsadlarini, estetik qarashlarini ochib beradi. Qissada Cho'lponning shogirdi deya ko'rsatilgan Mirhosil obrazi esa, Sho'ro davrida halok bo'lgan millatning ziyolilari, shoirlari, yozuvchilarining umumlashgan qiyofasidir. Yozuvchi bu obraz qiyofasida o'ziga xos usuldan foydalanadi, ya'ni o'quvchi Mirhosil obrazi yordamida Cho'lpon obrazini ham o'zi uchun kashf etib, anglab boradi. Mirhosil garchand asarda shoir deb aytilsa-da, yozuvchi biror o'rinda uning o'z she'rlarini o'quvchi hukmiga havola etmaydi. Aksincha, Mirhosil tilidan faqat Cho'lpon she'rlari bilan o'quvchini tanishtiradi. Bu adabiyotda o'ziga xos yangi usul deyishimiz mumkin. Chunki bir obraz vositasida muallif boshqa bir obrazni kashf etish imkonini beradi.

Mirhosil asarning bir o'rnida Cho'lponning quyidagi misralarini o'qiydi:

Erkin boshqalardir, qamalgan menman...

Hayvon qatorida sanalgan menman...

O'quvchi Cho'lponning ushbu misralaridan uning naqadar buyuk ijodkor bo'lgani barobarida, boshidan o'tkazgan azob-uqubatlarining g'oyatda ulkanligini his etadi. Zero, insonning erkinlik istagi uning butun vujudiga singigan eng ulug' istaklaridan biridir. Hurlik, erkinlik istagi inson bilan birga dunyoga keladigan, uning eng so'nggi nafasigacha qalbida yashaydigan istaklaridan biridir. Bu istakni hech bir insoniyat qalbidan sug'urib olib bo'lmaydi. Sho'rolar davrida esa insonlar ayni shu istakdan mahrum etildilar. Bu hol albatta, umrbod davom etmog'i, bu holatga hamma birdek ko'nmog'i aslo mumkin emas edi. Millatning shoirlari, ziyolilari, ozodlik kurashchilari ayni shu istak uchun yashadilar, kurashdilar, jon berdilar. Tohir Malik asarida ayni shu ziyolilarning, shoirlarning, ozodlik kurashchilarining umumlashgan qiyofasi aks etadi. Demakki, bu obrazlarning genezisi aynan xalqimizning ichidan, odamlarimiz orasidan olingani ma'lum bo'ladi. Yozuvchi ularda o'zining ham qarashlarini, orzu-umidlarini, maqsadlarini aks ettiradi.

"Ta'kidlash kerakki, badiiy obraz hayotiy material – prototip, yozuvchining ijodiy fantaziyasi – badiiy to'qima va olg'a suriladigan g'oya – estetik idealning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Prototip bilan obraz orasida yozuvchining o'zi turadi. Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qiladigan bo'lsak, prototip shu organizmning skeleti, badiiy to'qima uning eti, estetik ideal esa qoni, joni. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini qoni, jonidan ajratib bo'lmaganidek, badiiy obraz "organizmi"dagi prototipni badiiy to'qimadan, badiiy to'qimani estetik idealdan uzib olib bo'lmaydi. Ular bir-biriga payvandlanib, qo'shib-chatishib ketadi" [2]. Ayni shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Tohir Malik badiiy to'qimasida uning estetik ideali o'z ifodasini topgan bo'lib, bu qahramonlarda reallik va badiiy to'qima birgalikda aks etadi va badiiy vazifa bajaradi. Muallif obrazlarning umumlashma prototipini yaratar ekan, bu prototiplarni to'lig'icha o'ylab topmay, balki tarixga yuzlanadi. Tarix va adabiyotning badiiy kuchidan foydalanib millat qahramonlari, ozodlik kurashchilarining qiyofasini yoritadi. Ayni shu jihatdan Tohir Malik asarida boshqa asarlarga nisbatan estetik ta'sir va badiiylik kuchliroq, mukammalroq tarzda aks etadi. Yozuvchi nafaqat ijobiy qahramonlarni yaratish jarayonida umumlashma prototipga murojaat qiladi, qolaversa, salbiy qahramonlarning qiyofasini yaratishda ham umumlashma prototiplardan mohirona foydalanadi. Biz buni asardagi Qizil askar, Boshliq, Komissar kabi umumlashma prototipga ega bo'lgan obrazlar misolida

ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi bu obrazlarda tarixning eng qora kunlarida o'z millatdoshlari, Vatani, va hatto xalqini sotgan qiyofalarning umumlashma obrazlarini ko'rsatib beradi. Bu obrazlarning genezisini tarixning o'zidan, hayotdan olgan holda yaratgan ekan, natijada obrazlarning ta'sirchanligi, hayotiyligi yanada oshadi. Zero, xalqimiz orasida Sho'rolar davrida tuzumning soxta, puch g'oyalariga aldanib qolgan, xato fikrga tayanib o'z yo'lini topmoqchi bo'lgan minglab Qizil komandirlar, qonli muhit ta'siriga tushib butunlay insoniylik va vijdonni unutgan boshliqlar, o'z nafsini yo'lida eng yaqinlarini ham qurbon qilgan, haqiqatga ko'z yumgan komissarlar ko'p edi. Muallif ana shunday insonlarni hayotda ko'rgan, bilgan va eshitgan. Shu bois ularning umumlashgan prototiplarini mahorat bilan yaratgan va badiiy kamolotga yetkaza olgan. Demak, Tohir Malik asaridagi umumlashma prototiplar genezisi ijtimoiy muhitimizda uchrovchi odamlar bo'lgan, desak xato bo'lmaydi. Eng ahamiyatli tomoni, yozuvchi tilga olgan bu obrazlar nafaqat Sho'rolar davrida bo'lgan, balki, bugun ham oramizda yo'q emas. Ammo tarix vaqt o'tgani sari har narsaga o'zining bahosini beradi. Tohir Malik asarlaridagi obrazlar genezisi o'tmishimizga, uning eng qora kunlariga borib taqaladi.

Milliy ozodlik kurashchilari qiyofasini yaratish jarayonida ijodkorlar tarix va adabiyot uyg'unligida ish ko'rishgan ekan, tarixga badiiylik, jonlilik, ta'sirchanlik baxsh etadilar. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi genezisi tarixning eng olis kunlariga, qiyin vaziyatlariga borib taqaladi. Bu obrazlar genezisini chuqur tushunish, anglash va anglatish ijodkordan ulkan mahorat, badiiy shijoat va bilimni talab etadi. Zero, chinakam adabiyot va yozuvchi maqsadlari mavjud yerda badiiy jihatdan barkamol asarlar yaratilishi barobarida tarixiy haqiqat tiklanadi, yuzaga chiqadi.

Milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratish albatta, birdaniga takomilga yetib qolmadi. Bu obrazlarning asl qiyofasini, kelib chiqish genezisini aniqlash uchun yillar kerak bo'ldi. Astasekinlik bilan Madaminbek, Shermuhammadbek kabi tarixiy shaxslar qiyofasi o'zining asl mohiyatini ochib bordi. Tohir Malik kabi ijodkorlar esa, istiqlol yillari boshida boshlangan an'anani davom ettirgan holda, milliy ozodlik kurashchilarini umumlashma prototiplarini yaratishga intila boshladi. Natijada, o'zbek adabiyotida milliy ozodlik kurashchilari obrazi va qiyofasi paydo bo'ldi. Ishonchimiz komilki, bu an'ana keyinchalik ham o'zbek adabiyotida davom etadi va millat himoyachilari obrazi genezisi ham yanada chuqurlashib, boyib, konkretlashib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodmonov N. Shohidu-l iqbolning o'zbek badiiy-tarixiy nasri taraqqiyotidagi o'rni, manbalari va matnii tadqiqi. – T.: 2009. B.314.
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston. – B.55.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Kafolat print sompanu, 2021. – B.9.
4. Rajabov Q. Madaminbek. – T.: Abu-matbuot konsalt, 2011. – B.30.
5. G'aniyev I., Afoqova N. Ozod ruh falsafasi. – Toshkent.: "FAN", 2006. – B.48.
6. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent.: Ma'naviyat, 1998. J. 1. – B. 48.

JADIDLAR VA O'ZBEK MILLIY DEMOKRATIK MATBUOT MASALALARI

Sherzod USMONOV,
O'zbekiston, QarDU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu moqolada jadid matbuotining shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy o'zbek matbuoti shakllanishida jadid matbuotining o'rni va roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlarning matbuot sohasida muayyan bilim va ko'nikmaga ega bo'lganlikdari va mazkur sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berganliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvarlik, gazeta, jurnal, matbuot, ozodlik harakati, Turkiston, sho'ro tuzumi, milliy g'oya.

“So‘nggi 100 yillikda milliy vijdon uyg‘ongan yerlardan endi imperatorlik saqlanib qola olmaydi, mustamlakachilik siyosati davom etmaydi” [1,59]. Olim “milliy vijdon” iborasi orqali milliy ma‘naviyat tushunchasini ham ifoda etayapti. Chunki, ma‘naviyat insonning o‘z-o‘zini yaratish va o‘zgartirish faoliyati bo‘lsa, uning asosida mavjud bo‘lgan madaniyat insonning sifatiy ta‘riflanishidir. Alalxusus, madaniyat hodisalarida insonning ongi ham, intilishlari ham irodasi ham birlashadi. Va “milliy birdamlik”ni kuchaytirish uchun dastavval milliy madaniyatni yuksaltirish zarur, mohir ziyolilarimiz bu ishni tez bajarishi lozim” – degan ko‘rsatma “milliy birdamlik” uchun “madaniy axloq”ning zaruriyligi vajidan yuzaga kelgan edi. Chunki milliy istiqlol uchun kurashayotgan millatparvarlarning qarashlarida “Vatan milliy madaniyatdir” [2, 61-62] degan tushuncha ustuvor edi. O‘zining yuksak ma‘naviyati va ma‘rifati bilan vaqtida ulkan madaniyat yaratgan turkiy xalqlar uchun milliy ma‘naviy qiyofani tiklash, madaniyatni yuksaltirish millatni mustamlaka zanjiridan ozod qilishning zaruriy talabi edi. Zotan faqatgina chinakam ma‘rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin” ligini teran anglagan jadidlar millatning ma‘naviy qashshoqligidan or etdilar va yozdilar: “Bizni qilaturg‘on aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, hatna, bu ikki balo shundog‘ qattiq bir illatki, o‘lmaguncha qutulib bo‘lmaydur. Shaharlarda o‘rtahol o‘tururga xona va bog‘i bor kishi nikoh uchun ikki ming so‘m va o‘g‘ul hatnasi uchun hech bo‘lmaganda ming so‘m sarf etar... oxiri nima bo‘lur? Nima bo‘lur, deysiz? Ota–bobosidan qolgan mulk va vatanni o‘z ixtiyori ila zo‘raki boyni o‘zi o‘lgandan so‘ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiya sotib, to‘y va ta‘ziya qarzini berar” [2, 147].

Millatparvarning “To‘y va ta‘ziyaga sarf qilinadurg‘on oqchalamizni biz, turoniylar ilm va din yo‘liga sarf etsak, anqarib (qisqa fursatda G.E.) ovrupoilyardek taraqqiy etarmiz”. – deya milliy ma‘naviyat va ma‘rifat haqida qayg‘urushi millatni jaholat botqog‘idan qutqazish yo‘lidagi urinishlaridan edi. Ming afsuski, millatning milliy xarakteridan chuqur o‘rin olgan bu soxta “obro‘talablik” bugunga qadar muammo holidan qolib kelmoqda. Yoki xuddi shu yo‘nalishda yozilgan Cho‘lponning “Turkistonli qardoshlarimizga”, Avloniyning “Zamon ahvolidan”, “Istiqbolimiz uchun bir jigarso‘z” she‘rlari, “Yig‘la Turiston”, “Toru mor etding” she‘rlari millatimiz ma‘naviyatining tuban ketayotganidan tashvishga tushayotgan millatparvar ijodkorlarning qalb tebranishlari hosilasi edi.

Millatni ma‘naviy kamolatga yetkazish, Vatanni jahonning ilg‘or madaniyatli davlatlari qatorida ko‘rish umidi XX asr boshlarida matbuotning keng tarqalishiga, yangi nashrlarga yo‘l ochdi.

“Jadidlar o‘zbek milliy demokratik matbuotining vujudga kelishi uchun jonbozlik ko‘rsatdilar. Behbudiy, Munavvarqori, Obidjon Mahmudov, Ubaydulla Xo‘jaev, Ashurali Zohiriy tirishqoqligi tufayli “Xurshid”, “Turon”, “Samarqand”, “Oyna”, “O‘rta aziyaning umrguzarligi”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Kengash”, “Turk so‘zi”, “Sur‘at” kabi gazeta va jaridalar birin-ketin maydonga kelib mustamlakachiliklar qalbiga qutqu, xalqimiz qalbiga istiqlol, erk tuyg‘usini solishga intildi”. Millatning ma‘naviy va ma‘rifiy ko‘zlarini ochish, unga o‘zligini tanitish va milliy istiqloлга olib chiqishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan jadidchilik harakati asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy hodisa, to‘g‘rirog‘i, o‘z maslak va qarashlari, matbuoti, o‘qitish va idora usuliga ega bo‘lgan Partiya darajasiga ko‘tarildi. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida idorai mashrutachilik (konstitutsion monarxiya) dan jamhuriyatchilikka bor edi. Biroq yuqoridagi fikrlardan “Turkiston xalqlari milliy zulmga butunlay qarshi chiqmadilar va jadidlarning siyosat maydoniga chiqishini kutdilar” – degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki milliy ozodlik kurashining turli bosqichlarida yuz beradigan stixiyali xatti-harakatlar, milliy g‘urur ko‘rinishiga oid ba‘zi ijtimoiy hodisalar millat ruhiyatida ro‘y berayotgan botiniy isyondan darak beradi. Lekin bular aksariyati ong va aql bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Shu ma‘noda ma‘naviyat millatning faqat botiniy subyektiv aqliy va hissiy dunyosi bilan chegaralanmaydi, u millatning obyektivlashgan botiniy va zohiriy, ijtimoiy yashashi va ijod qilishiga doir madaniy muhitni ham qamrab oladi”.

Shu bois, dastavval millatning siyosiy ongini o‘stirish, uni milliy istiqloлга tayyorlash uchun maktabdan boshlangan, so‘ng matbuot, teatr, siyosatga o‘tgan va asosan matbuot kuchiga tayangan jadidlar ijodida “publitsistika shiddat bilan rivojlandi. Birigina Behbudiyning matbuotda bosilgan maqolalarini mutaxassislar 300 dan ziyod chamalaydilar... Mirmuhsin Shermuhamedov 1914-yilda yuzga yaqin maqola e‘lon qilgan edi!” [3, 22]. Maqolalarda ko‘tarilgan masalalar mavzu jihatdan turli-tuman bo‘lib, ularda millat bolalariga yangicha, dunyoviy ilm-fan berishdan tortib teatr, til, adabiyot, siyosat, huquq va hatto safar-sayohat taassurotlari, ya‘ni boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishtirishgacha bor edi. Bu davrga kelib qanday qilib bo‘lmasin, millat ongini uyg‘otish eng muhim vazifa ekanligi anglangan edi. Zero, eng avval ma‘naviyatda millat, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi uning taraqqiyoti va kelajagi aks etadi.

Ayonki, millatning ma‘naviy asoslaridan biri uchung tilidir. XV asrda A.Navoiyning millat uchun, uning ma‘naviy kamolati uchun qilgan eng buyuk xizmatlaridan biri ham turkiy til mavqeini ko‘tarish yo‘lidagi zahmatli mehnati bilan izohlanadi. Chor Rossiyasi barcha mustamlakachi davlatlar kabi millatni manqurtlashtirishning eng oson yo‘li uni milliy tilidan ayirish – “ruslashtirish” ekanini anglab yotgan va shu siyosatni amalga tadbiiq eta boshlagan edi. Bunga qarshi turish uchun millatning milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otish lozim edi.

“Jadidchilik Turkistonda o‘ttiz yil nari-berisi davom etdi. ... Biroq shu qisqa davr katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongi uyg‘onib dunyoqarashi o‘zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi” [4, 28]. Ko‘rinib turibdiki, bu harakat milliy ma‘naviyatini kamol toptirishdan san‘at va adabiyotning kuchiga tayangan edi. Chunki, millatning o‘zligi anglash jarayonida adabiyotning o‘rni biqiyosdir. Asrimiz boshlarida O‘zbekistonda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarda ham milliy adabiyot muhim o‘rin tutdi. “Adabiyot hech qachon bu qadar keskin g‘oyaviy-siyosiy kurashlar maydoniga aylanmagan edi” – degan fikr XX asr boshlarida adabiyotning tutgan mavqeini aniq ko‘rsatib bera oladi. Milliy uyg‘onish haraktida adabiyotning yetakchilik qilish hodisasi jahon taraqqiyoti uchun yangilik emas. XIX asrda Rossiyada paydo bo‘lgan “xalqchilik” (narodnik) harakati rus millatini jaholat botqog‘idan qutqarish uchun kurashgan va rus millati shakllanishida muhim o‘rin tutgan harakat edi. Bu harakatning asosiy kuchi adabiyot vakillari edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Kukalp. “Turkchilik asoslari”. Toshkent, 1998. .
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –T., Ma‘naviyat, 1997.
3. B.Qosimov “Jadidchilik” q: ”Milliy uyg‘onish” T.: Universitet – 1993-yil.
4. B.Qosimov . “Izlay, izlay topganim...”. Toshkent, 1997

BEGALI QOSIMOV – JADIDSHUNOS

**Mohigul ERGASHEVA,
O‘zbekiston, TDO‘TAU, tayanch doktorant**

Annotatsiya. Maqolada Begali Qosimovning jadidshunos sifatidagi faoliyatiga keng o‘rin berilgan. Adabiyotshunosning jadidlarga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlari haqida fikr yuritilgan. Olimning jadidshunos sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari belgilandi.

Kalit so‘zlar: jadid, jadidchilik, tadqiqot, xarakter, yo‘nalish, istiloh, millat, milliyat, ijtimoiy- siyosiy harakat, usuli jadid maktablari, jadidshunos, jadidshunoslik.

Yaxlit hodisa hisoblangan jadidchilik harakatining o‘rganilishiga umrining salkam qirq yilini bag‘ishlagan olimlardan biri Begali Qosimovdir. Olim juda katta ishtiyoq bilan bu mavzuni tadqiq etgani u yaratgan fundamental tadqiqotlardan bilinib turadi. Begali Qosimov haqiqatdan ham jadid adabiyoti va uning vakillari haqida qaynab yozdi. Nafaqat, jadid adabiyoti, balki jadidchilikning tub mohiyati haqida teran mulohaza yuritdi. Olimning jadidshunoslik haqida yaratgan ishlarini o‘rganish tahlil va tadqiq etish bugungi adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biri desak, adashmagan bo‘lamiz.

Begali Qosimov eng avvalo tug‘ma jadid edi. Shu sababli ham u yaratgan ishlarida aniq maqsad, mantiqiy badiiy tahlil, adabiy- estetik talqin tamoyili yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin. Olim harakatni baholar ekan uni ijtimoiy- siyosiy, ma’rifiy yo‘nalishda ekanligini isbot etdi. O‘zigacha, yoki umuman ma’lum yillar harakat haqidagi mavjud qarashlarga munosib tarzda javob bera oldi. “Chor hukumatini yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz shundan iborat bo‘lishi yashirin emas. Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo hizmatchilari, boshqacha ta’bir bilan aytganda, do‘konda o‘lturib nasiya yozadig‘on xodimlar yetkazsak. Bu ishga aqlli odam shu bahoni berishda u yoq, bu yoqni mulohaza qilsun” [1, 27] deb ta’kidlagan edi 1927 yili Munavvarqori Abdurashidxonov. Salkam 100 yil oldin aytilgan mulohazalarni Begali Qosimov o‘z tadqiqotlarida aynan isbotladi. “Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat. Yaqingacha ham u ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik- kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi” [2, 6]. Begali Qosimov jadidchilikning xarakter yo‘nalishini to‘g‘ri idrok etgan holda, jadid so‘zining ma’nosini faqat “yangi” yoki “yangilik tarafdori” emas, balki umuman boshqacha mohiyat kasb etishini tushuntirdi.

Jadidning negizida esa yangi tafakkur, yangi inson, yangi avlod turishini uqtirdi. Begali Qosimovning ta’kidicha, jadidda xuddi shu uch muhim xususiyat birlashgan bo‘lishi lozim.

Turkistonda jadidchilik o‘z davrida shu qadar sermazmun harakat qilganki, bundan xatto chor Rossiyasi qo‘rquvga tushgan. Albatta, insoniyat yaratgan tarix va mazkur tarixdagi hodisalar orasida bu xech narsa bo‘lishi mumkin, ammo, ular uchun bu harakat hamma narsa hayot va mamot, juda katta voqelik edi. Turkiston jadidchiligi ham o‘z-o‘zidan vujudga kelgani yo‘q. Uning ham paydo bo‘lishi, rivojlanishi va halokatiga ma’lum bir sabablarni keltirish mumkin. Eng avvalo, harakatni ilxomlantirgan quch bu Kavkaz va Volgabo‘yidagi jadidchilik deb nomlangan taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasi. Begali Qosimov bu ta’sir va samaraga sababchi bo‘lgan Ismoilbek Gasprali haqida juda ko‘p yozadi. Jadidchilikning tamal toshi bo‘lgan jadid maktablarining Turkistonda ochilishi va faoliyatida ham Ismoilbek Gaspralining o‘rni beqiyos. Ammo shuni aytish kerakki, bu maktablar o‘lkada to‘laonli faoliyat olib bora olmadi, mavjud tartib bunga aslo yo‘l bermadi. Qaysidir ochilganlari ham ma’lum vaqtdan so‘ng o‘z ishini to‘xtatgan. Sababi barchaga ayon. Bunday maktablarda tahsil ko‘rgan o‘quvchilar mustamlakachi davlatga juda katta havf hisoblangan, chunki ular endi “do‘konda o‘lturib nasiya yozadig‘on hodimlar” emas balki, umuman yangi avlod bo‘lishini Chor Rossiyasi ham to‘la anglagan edi. Begali Qosimov ham mana shu maktablar haqida qiyosiy tahlillarni amalga oshiradi, bu bilangina chegaralanmay, chet ellarda tahsil olayotgan talabalarning tarqalish geografiyasini tuzib chiqadi, ularning millati, yoshi, jinsi, keyingi taqdiri haqidagi ma’lumotlarni sinchkovlik bilan o‘rganadi. O‘lkadagi mavjud musulmon maktablari, rus- tuzem maktablarining sonini jadid maktablari bilan qiyoslab tanqidiy munosabat bildiradi.

Turkiston o‘lkasidagi matbuotning vujudga kelishi va uning shakllanishi jadidchilikning rivojiga alohida hissa qo‘shdi. Gazeta va jurnallar jadidchilikning g‘oyaviy asoslariga, milliy uyg‘onish harakatining kundalik masalalariga e’tibor bera boshladi. Jadidchilik maktabdan boshlangan hamda undan keyin matbuotga o‘tgan. Abdulla Avloniyning 1924 yil 24- iyun 295-sonli “Turkiston” [2, 115] gazetasida mo‘jazzgina ma’lumot tarzidagi maqolasi berilgan. Maqola “Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” deb nomlanib, unda Turkistonda mavjud 31 ta gazeta va jurnallar haqida ma’lumotlar mavjud. Shulardan 8 tasi jurnal, qolgani gazetalar bo‘lib, ularning ham umrlari turlicha ekanligini Abdulla Avloniy sanab o‘tgan. Jurnallarning ichida eng ko‘rkami va ma’naviy yoqdan boyi “Yurt” jurnali edi, deb eslaydi. Ammo, uning ham ishi uzoq davom etmaganidan afsuslanadi.

Begali Qosimov ham matbuotni jadidlar faoliyatidagi asosiy nuqtalardan biri sifatida ko‘radi. “Turkiston jadid matbuotining shakllanishida umumturk matbuoti, xususan Kavkaz, Volgabo‘yi, Istanbulda oyoqqa turib kelayotgan va milliy asosga qurilgan muhim rol o‘ynaydi” [3, 40]. Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik, qardoshlik, hamkorlik kabi masalalarga alohida to‘xtalib, inkor qilib bo‘lmas dalillar bilan davr matbuotiga munosabat bildirdi.

Turkiston tarixining eng shonli davri bu – jadidchilik. Aynan mana shu shonli davrning butun mas’uliyatni his qilib, uni kompleks tadqiq qilgan olim esa Begali Qosimovdir. “Domla o‘zbek mumtoz adabiyoti, jahon klassiklari, jadid adabiyoti bilan yonma yon yashab o‘tgan qadimchilar adabiy olamini bafurja o‘rganishni niyat qilgan edi”, [4, 7] deb eslashadi ustozlarimiz.

Xulosa qilinsa, Begali Qosimov umumjadid adabiyotining yirik olimlaridan biri edi. Uning jadidshunoslikka qo‘shgan hissasi esa taxminan quyidagicha:

- a. jadid istilohini to‘g‘ri anglay oldi, harakter- yo‘nalishini belgilab berdi. Mavzuning o‘rganilishi borasida juda qimmatli ma’lumotlarni taqdim eta oldi;
- b. jadidchilikning tamal toshi bo‘lgan usuli jadid maktablari haqida qiyosiy tahlillarni amalga oshirdi. Mazkur maktablarning geografiyasini tuzib chiqdi;
- c. jadidchilikning boniysi Ismoilbek Gaspralini uchinchi muallim deb e’tirof etdi. U haqida talay ilmiy- tadqiqotlar yaratdi. “Uchinchi muallim” , “Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo‘ja Behbudiy” “Ismoilbek Gasprali”, “Ismoilbey va Turkistonda jadidchilik” va boshqalar;
- d. jadid matbuoti va matbuotchiligining Turkiston jadidchiligiga ta’siri va samarasini tushuntirib berdi;
- e. jadid adabiyotining juda ko‘plab ijodkorlarini millatga tanitish yo‘lidan bordi va buning uddasidan chiqa oldi. Aynan olimning sa’y –harakatlari va mehnatlari evaziga millat unuttan, kezi kelganda unuttirilgan Behbudiy, So‘fizoda, Siddiqiy Ajziy, Ibrat, Sidqiy Xondayliqiy, Tavallo, kabilarning asarlari chop ettirildi. Cho‘lpon, Avloniy (Abdulla Avloniy nomli o‘quv qo‘llanma, Abdulla Avloniy adabiy- pedagogik portret ham yaratgan), Fitrat, Yusuf Saryomiy, kabi ijodkorlarning ko‘pjildliklari aynan olimning mehnatlari natijasida yaratildi;
- f. jadidchilikni kompleks o‘rganish lozimligini har doim ta’kidladi. Bu ish ham amalga oshib turli soha vakillari hozirgacha jadidchilikning turli qirralari haqida ilmiy tadqiqotlar yaratmoqdalar. Shuni ham ta’kidlash kerakki, jadidchilik xarakatini xech kim Begali Qosimovday keng miqyosda(kompleks) tadqiq qilgan emas, bu borada olimni mazkur ishlarning boshlovchisi, ya’ni olimlarimiz aytganiday jadidshunoslikning karvonboshisi deyishimizga to‘la asos bor.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Миллий уйғониш таҳрир хайъати И. Қўчқортөв, Б. Қосимов, К. Назаров, У.Долимов, Ш. Ризаев, Ж. Худойбердиев Т., Университет 1993.
2. Қосимов Б. Маслакдошлар Т., Шарқ 1994.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш Маънавият Т., 2002.
4. Жўрақулов У. “Беморлик шарафи мақоласи” “Маънавий ҳаёт”, 2022 йил №4.
5. Сўнгги жадид киссаси. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар Узоқ Жўрақулов, Адиба Қосимова, Шохрух Қосимов. Турон Иқбол, Т., 2012.
6. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. Т., Маънавият, 2011.

JADID OBRAZINING DRAMATIK TALQINLARI

Lola QO‘ZIBOYEVA,
O‘zbekiston, TDO‘TAU, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqola “Sharq yulduzi” jurnalida chop qilingan dramaturg shoirlarimiz Usmon Nosir obrazi talqin qilindi. “Usmon Nosir” tarixiy fojia asarini Iqbol Mirzo qalamida, To‘ra Mirzoning esa “Usmon shoir–osmon shoir” nomli dramatik asarlarida qahramon jasorati, Vatanni sevuvchi, ardoqlovchi, tinchlikparvar, elparvar Usmon shaxsiyati to‘liq ochib berildi.

Kalit so‘zlar: muallif uslubi, tarixiy so‘zlar, vatanparvarlik, qahramonlik, badiiylik.

Kirish: Millatni milliylikda aks etgan jurnal “Sharq yulduzi” mazkur yildagi sonlarida ham dramaturgiyaning sara namunalarini o‘qiymiz. Isroil Saparboyning “Amir Temur” tarixiy dramasi oltinchi sonida, jurnalning to‘rtinchi va sakkizinchi sonlarini buyuk shoirimiz Usmon Nosirning 110 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib unda “Usmon Nosir” [5] tarixiy fojia asarini Iqbol Mirzo qalamida, To‘ra Mirzoning esa “Usmon shoir–osmon shoir” [6] nomli dramatik asarlarini o‘qishimiz, bugungi dramaning tarix sahnasida jonso‘z bag‘ishlagan yaqqol namunalaridir. Vatanni sevis, uni ardoqlash har bir insonning qalbidagi inja bir tuyg‘ularidan. Ana shu tuyg‘uni Dilorom Karimova “Majnun bo‘lib elni sevaman...” deya keyingi avlodga o‘rnak bo‘ladigan fikrlarni o‘z asarida ta’kidlab yozgan.

Mazkur yilda e’lon qilingan dramatik asarlarning mavzu va mundarijasi umummilliy, tarixiy va badiiylik qamrov ko‘lami bilan janr sezilarli darajada yuqori baholanib kelinmoqda. Dilorom Karimovanning **“Majnun bo‘lib elni sevaman”** asari Vatanni sevis, xalqni ma’rifatli qilish yo‘lida jon bergan shoirning ichki hayqiriqlaridir. Shoir Cho‘lpon asar bosh qahramonidir. Muallif o‘z dramasi uning she’rlaridan dialogik kompazitsiya yaratgan. Bu kompazitsiya shoirning ichki hissiyotlarini borligicha ochib bera olgan. Asar shoir va ishchi o‘rtasidagi dialog asosiga qurilgan. “Do‘st”– obraziga alohida yukni bergan muallif do‘st-dushman obrazini shu obrazda jamlagan. Bu esa obraz ko‘pqirraligini hosil etgan. Ayni paytda, Do‘st obrazi orqali jamiyatdagi haqsizlikning barcha ko‘rinishlarini qo‘shirnoq ichida berib o‘tadi. Asar mazmunan millatni uyg‘otish yo‘lidagi adabiyotni yaratishda va erkinlik sog‘inchini kuylaydi.

Shoir: Hayot to‘xtamasdan, harakat qilib turgan vujudimizga, tanamizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qaro kirlar ila xiralangan, ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar! Adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o‘ydan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Buni inkor qilib bo‘lmas.

Qahramon tilidan aytilgan ushbu so‘zlar haqiqat. Shu haqiqat uchun to‘kilgan har bir tomchi qon “Qutlug‘ qon” dir. Vatani–bu qon va jon berib erishilgan ajdodlar yurtidir.

To‘ra Mirzoning **“Usmon shoir – osmon shoir”** dramasi taniqli shoirimiz Usmon Nosirning hayot yo‘li haqida. Bu drama buyuk Sharqning “jasoratli shoiri” haqida yozilgan va uning xotirasiga bag‘ishlangan eng munosib avlodlar tuhfasidir. Muallif dramada Usmon Nosir siymosiga biroz erkinroq yondashgan bo‘lsada, uning shoirga bo‘lgan o‘tli muhabbati, shoir haqidagi tarixiy manbalarni chuqur o‘rganganidan dalolat. Dramaturg Usmon Nosir shaxsiyatiga doir ma’lumotlarni imkon qadar tarix kuzgusida aks ettirishga uringan va bunga erisha olgan. Muallif shoirning fenomenini yaratar ekan inson avvalo chuqur ilm sohibi bo‘lish kerakligini, aqlli va so‘zga juda chechanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Har doim rost so‘zlashini, to‘g‘ri kalomi tufayli erta hazon bo‘lgan umrni tasvirlab beradi. Ma’lumki, sahnalashtirilgan drama badiiy hodisani hayot hodisasiga aylantirib, tomoshabinning sezgi a’zolariga bevosita ta’sir etish qudratiga ega bo‘lgan yagona adabiy turdir. Drama janrining shu imkoniyatga egaligini hisobga olgan dramaturg asarda shoirni haqiqatni kuylovchi bir bulbul deb ta’rif beradi. Usmon Nosir har doim o‘z asliyati unutmeydigan, o‘zligini qadrllovchi qahramon shoir millatimizning faxri sifatida ulug‘lanadi. Dramada uch ustun bor. Bu ustunlarni avvali Shoirning–o‘zligi va erkinligi. Oila – Ona mehri. Muhit–fitnalar, yaqinlarining xiyonati.

Asar yor-yor sahnasi bilan boshlanadi. Bu esa janrning sincretik hususiyatini bildiradi bugungi kunda bu janr hususiyatiga qo‘shimcha bir ma’no yuklashda xizmat qiladi. Xolambibining Namangandan Qo‘qonga uzatilishi va Usmon unda 4 yoshli bola bo‘lganligi birinchi sahnadan shoirning ilmga chanqoqligini, u otasidan Samarqandga borib tahsil olajagini so‘raganda otasi ilm yo‘lida Chinga ham borish kerak deb o‘g‘lining bu niyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ikkinchi ko‘rinishda birinchi kursdan to‘rtinchi kursga o‘z qobiliyati tufayli kursdan kursga qabul qilingan Usmon o‘z bilimi aql-farosati tufayli erishadi va ijob qila boshlaydi. Tengdoshlarining g‘ayirliqli tufayli unga bo‘lgan fikrlar o‘zgara bordi. Hatto do‘stlari ham unga xasad bilan qaray boshladi. Asarning tuguni shu yerdan boshlanadi. Haqiqat uchun kurashib shoir tilidan asarda **“Millatni ilm yuksaltiradi”** degan g‘oyaning umumbashariy ko‘rinishini qahramon tilidan aytilishi uning shaxsiyatining asl mag‘zini ko‘rsatish jihatidan muhimdir.

Asarning yana bir muhim g'oyasi borki o'z ichimizdagi do'stlarimiz, bizning dushmanlarimizdir. "O'zimizning tomirimizga o'zimiz bolta urmoqdamiz". Bu bizning eng og'riqli nuqtamizdir. Dramaning oltinchi ko'rinish ana shu fikrlar bilan alamli bitilgan. Lekin shoir o'z aslimizni barchamiz bir ota-onadan Odam Ato va Momo Havo avlodlari ekanimizni unutmasligimizni, birdamlikda hech qanday kuch bizni mahf etolmasligi ta'kidlangan. Oxirgi sahna juda ta'sirli chunki unda Onaning qalbi tasvirlanadi. Sog'inchi, qayg'usi, alamli nolasini shu to'rtlikda ifodalab beradi...

Xolambibi: *Naq yigirma besh yoshdadir,
Ko'ngli oy quyoshdadir,
Tuxmat nomli tosh boshdadir,
"Usmon o'g'lim-osmon o'g'lim".*

Asar oxirida xulosa berishni, inson xato qilsa albatta jazosi borligini dramaturg do'stlarining pushaymonligida, onasining oldiga kelib kechirim so'rab, tavba qilganligini o'z qilgan ishiga butun hayoti davomida vijdon azobida qolganligini kuchli pafos bilan tasvirlaydi.

Jurnalning to'rtinchi sonida Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir" tarixiy fojiasi berilgan. Dramaturg shoir tilidan o'z ichki tug'yonlarini ko'rsatadi. Go'yo uning she'rlari gapirayotgandek. Asarda 25 yoshida adabiyotdan haydalgan shoir hali ham she'rlarida tirikdir. Adabiyotshunos olim Naim Karimov asar hususida shunday xulosalar beradi. "Asarda uch qahramon bor biri shoir, ikkinchisi uning she'rlari, uchinchisi esa "Ona"—vatan timsoli. U o'z she'riyatida shoxona libosda ko'rinadi". Olim ta'kidlaganlaridek shoir adabiyot maydonida ana shu betakror libosiga munosib bo'la oldi. Asarda tergovchi bilan suhbatida hech qachon o'zligidan kechmagan jasoratli inson qiyofasini va tergovchida insoniylikdan asar ham qolmagan vaxshilikni dramaturg dialoglarda tasvirlab bera olgan.

Tergovchi: Og'aynichalish, biz devorni yiqiladigan tarafga qaratib itaramiz...

Usmon Nosir: Yasha Turon...

Onaning qalb tug'yonlari hech bir qolipga va tasnifga sig'mas... Asardan parcha keltirish bilan kifoyalanaman.

Usmon Nosir: Onajonim, sog' bo'lsang,
Sevinchim mening.
O'zim har joyda, dilimda –
Mehring o'ti sening...

Usmon Nosir haqida yozilgan bu ikki drama tarixiy tamoyildan kelib chiqqan holda yozilgan bo'lsada, lekin ularning atroflicha farqlari va o'xshash jihatlari mavjud. Buni biz kichik bir tadqiqot doirasida o'rganar ekanmiz bir xil mavzuning turlicha yondashishni har bir millat vakilining o'zgacha muhabbati dil so'zlarini o'qiymiz. To'ra Mirzo ham Iqbol Mirzo ham Usmon Nosirni shijoatli, irodali, aqlli, ilimli, qaysar, yosh bo'lishiga qaramay juda matonatli qilib tasvirlagan.

Yolg'on, tuhmat, fitnalar qurboni bo'lgan shoir hayotini yoritib berishda ham umumiylik ko'rinadi. Ona timsolida ham ikkala adib bir xil тасвирний ifodalarni bergan. Lekin ota obrazida ikki xil tushuncha paydo bo'ladi. Iqbol Mirzo shoirning o'gay otasini qattiq qo'l, yetimligini yuziga solib o'tgan otani tasvirlaydi. To'ra Mirzo o'gay otasini ilmga chanqoq bolani ilm yo'lida qo'llab quvvatlovchi bir ma'naviy ko'maklashuvchi mehribon inson sifatida tasvirlab o'tadi. Bu ikki fikr ham asarning hech bir detaliga xalaqit qilmagan. Muhimi shoirning hayoti o'zi orzu qilmagandek o'tadi.

Umumiylik jihatni yana bir ko'rinishda yanikim, tergovchi tilidan aytilgan gaplar millating birlashmaydi, o'z ichlaringdan yemirilib boryapsanlar degan fikrlar ikkala asarning ham tarix haqiqatini ko'rsatishdan dololatdir. Iqbol Mirzo shoirning qalbidagi Nasimaga bo'lgan ishqini ham tasvirlab unga atab yozgan she'rlarini ham keltirib o'tgan. Asarga biroz lirik ruh kiritgan.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad, "Uslub o'zgarmasa, dunyoqarash, hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa, shu yo'lda turfa tajribalarga qo'l urmasa, bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda loaqal o'z ijodida ham biror yangilik yaratishi amrimahol" [2, 236], – degan edi. O'ylaymizki, bu uslub bilan ikkala adib ham o'z

haqiqat fikrlarini ayta olgan. Usmon Nosir soʻzlarining miqyosi, kechinmalarining miqyoslariga koʻra oʻz xalqining qalbi deb aytsak, bunda mubolagʻa yoʻq. U tom maʼnoda xalq timsoliga aylanish yoʻliga kirgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегали Қосимов Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият 2004.
2. Иброҳим Ғофуров “Мангу латофат” Т.–“Шарқ” 2008. Б. 236
3. Жўрақулов. У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
4. Жўрақулов. У “Шарқ-у Ғарб Ренессанс адабиёти: Навоий ва Шекспир” “Илми Балогат” нинг маншаъи илмий мақоласидан.
5. Шарқ юлдузи. 2022. 4-сон
6. Шарқ юлдузи . 2022. 8-сон

FITRATNING JADIDCHILIK QARASHLARI XUSUSIDA

Nurali MURODILLAYEV,
Oʻzbekiston, TDOʻTAU, magistrant

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fitratning jadidchilik qarashlari “Munozara” asari hamda “Mirrix yulduziga” sheʼrlari misolida oʻrganilib, shoirning adabiy-estetik qarashlari konkret misollar asosida yoritildi.

Kalit soʻzlar: jadidchilik, milliy uygʻonish, ozodlik, Turkiston, maʼrifat.

XX asr jahon xalqlari tarixida millatlarning ozodlik yoʻlidagi mislsiz shonli kurashlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu asrning yigirmanchi yillarida barcha xalqlar kabi, ayniqsa, turkiy xalqlar – Turkiston uchun olib borgan kurashlari alohida oʻrganiladigan vatanparvarlik namunasidir. Vatan ozodligi, millat taraqqiyoti hamda xalqning farovonligini oʻylagan bir guruh millat ziyolilari – jadidlar bu yoʻlda katta jonbozlik koʻrsatdilar.

Turkiston ozodligi va birligi yoʻlida jon fido qilgan jadid bobolarimiz orasida Abdurauf Abdurahim oʻgʻli Fitrat faoliyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ijodi alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Sababi butun hayoti, ijodi va faoliyatini el-u yurt ozodligi, millat taraqqiyoti hamda mustaqilligi yoʻlida baxsh etgan Fitrat, asrlar davomida har tomonlama qullik zanjirlari bilan zanjirlangan xalqning har sohada: ilm-fan, taʼlim-tarbiya, davlat boshqaruv tizimi, umuman olganda, butun jamiyatni isloh qilish gʻoyalarini ilgari surdi. Shu bilan birga, oʻz oldiga qoʻygan maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilguvchi qahramonlar qiyofasini, ularning orzu-umidlari va armonlarini badiiy asarlarida gavdalandirgan ulugʻ jadid ijodkorlardan edi.

Fitrat “Qiyomat”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Munozara”, “Yurt qaygʻusi”, “Mirrix yulduziga” kabi koʻplab asarlarida jadidchilik gʻoyalarini yoydi, maʼrifatparvarlikni keng targʻib qildi. Jumladan, “Qiyomat” bilan hikoyasi bosh qahramoni Pochamir qiyofasida xuddi shu masalalarni talqin etadi. “Shaytonning tangriga isyoni” nomli sheʼriy dramasida bu muammo yanada keskinroq qoʻyiladi. Goʻyoki diniy xurofot tanqid qilingan dramada muallif oʻzining asl gʻoya va maqsadlarini tag maʼnoli, yashirin shaklda ifodalaydi. Tangri, Shayton, Malak va Odam aro boʻlib oʻtgan oʻtkir munozara, bahslar asosida adib asar yozilgan davrda oʻz xalqi uchun nihoyatda muhim boʻlgan Vatan erki va shaxs erkinligi muammolarini badiiy gavdalandiradi.

“Munozara” asarida adib XX asr boshlaridagi Buxoro ahvolini, Buxoro orqali Turkiston va butun millatning ahvolini xorijlik ulamo nigohi bilan kuzatdi, bu roʻy berayotgan hodisotlarni uning aqli bilan baholadi. Farang ulamosi va hind sayyohi garchi Buxoroga yot odamlar boʻlsalar-da, shu zaminga doʻst kabitdirlar. Ularning har bir soʻzlari va harakatlarida shu muqaddas yurtning sevishlari, uni eʼzozlashlari, uning buyuk tarixi va merosiy qadriyatlariga yuksak hurmatlari sezilib turadi. Ular millat va uning ahvoli haqida oʻzlarini biroz chetga tortib turib fikrlaganday boʻladilar. Aynan shu jihatdan ularning yorqin bir xolisliklari koʻzga

tashlanadi. Xolis odamda muhabbat yoki nafrat bo'lmaydi. Farang sayyohining ham, hind sayyohining ham xolisligi zahirida ulkan, samimiy muhabbat va dard borligi aniq bilinib turadi. Buxoro va millat ishlarini xolislar fikri orqali baholash va ular to'g'risida xolis xulosa chiqarishni ko'zlagan Fitrat ilk munozaraviy asarlariga boshqa xalq vakillarini qatnashchi – qahramon qilib oldi. Chetdan kelgan odam yuksak nazar sohibi bo'lsa, albatta, hamma narsalarni barcha o'tkir qirralari bilan ko'radi va bu ishlarni jahon ma'rifati nuqtayi nazaridan baholaydi. Millatning uyg'onishini chindan istagan Fitrat yana bir boshqa juda muhim narsani ham ko'zlaydi, ya'ni Buxoro vositasida butun Turkiston xalqlari ahvolini g'arbona oynak bilan adabiy-badiiy tahlildan o'tkazadi. Jadidchilik g'oyalarini har qanday usul va vosita bilan yoyishni xohlagan Fitrat uchun adabiyot eng katta vosita edi. Bundan vositalardan mohirona foydalanadigan Fitrat "Mirrix yulduziga" she'rida yozadi:

Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqg'ani!
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarga tushibsan,
Tuvg'aningga nechun sira gapurmasdan turibsan?
So'yla, yulduz, holing nadir? Nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar,
So'yla, yulduz, sening dag'i quchog'ingda bo'lurmi? [1, 36]

Ushbu misralarda shoir Mirrix yulduziga murojaat qilib, "Go'zal yulduz" timsolida vatan ozodligini tashbehlaydi, Turkistonning haqiqiy ahvolini shoirona vasf etadi. Ayni paytda, XX asr boshlariga kelib, millatning ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotidagi johillik avj nuqtasiga yetganligi, ilmsizlik, ma'naviy tanazzulning ichki va tashqi sabablari bisyor ekanligi, ayniqsa, ichki sabablar jiddiyoq ekanligi obrazli tasvirlanadi.

Ichki asosiy sabablardan biri – millatning bexabarligi edi. Xalqning ko'pchilik qismi dunyo ishlaridan, boshqa mamlakatlar va xalqlarning hayoti, turmush darajasi, o'z haq-huquqlari va ular uchun kurashish kerakligidan xabardor emas edi. Achinarlisi, Turkistonda temir yo'llar qurilgan, mustamlakachilik ruhida gazetalar vaqti-vaqti bilan chiqib turar, isloh ruhida gazeta-jurnallar kelib turar, biroq, xalq ularni bilmas, o'qimas, eng yomoni, bilishni istamas edi.

Bormi senda, o'ksuz yo'qsulning qonin –
Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar.
Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uchi xoqonlar [1,36]

"Go'zal yulduz" timsoli Fitratga Turkiston voqeligini ochiqdan ochiq, bo'rttirib ko'rsatib berish imkonini yaratadi. Odamlar Mirrix (Mars) yulduzidan jangovarlik belgilarini izlashadi. Fitratning boshqa biror yulduzga emas, balki aynan Mirrixga murojaat qilishi o'ziga xos ma'no tovlanishlari bilan she'rxonning e'tiborini tortadi. Shoir yulduzga emas, yer yuzida juda ko'p narsalarni o'zgartirishga, adolat o'rnatishga qodir alp o'g'longa qarata so'ylayotgandek ham bo'ladi. Jangovarlik, adolatpeshalik timsoli bo'lgan yulduzga o'ta odil so'zlarni aytishga jur'at etadi. Uning jur'ati faryod kabi tinglanadi. Fitratning Mirrix yulduziga qilgan murojaatida keskinlik ruhi sezilib turadi. Ushbu keskin munozara shoirga ustma-ust keskin, behad alamli savollar berish imkonini beradi. Savollarning yuki juda og'ir, savollarda millatni fojiga olib kelgan omillar o'z aksini topadi. Shoir bu savollariga Mirrixdan javob ololmaydi. Javob savollarning o'z ichiga yashiringan edi. Biror millat tarixda tanazzulga uchragan bo'lsa, buning o'z ichki va tashqi sabablari bo'ladi. Ichki va tashqi sabablarning zalvorini solishtirilsa, albatta, har qanday holda ham ichki omillar ustunlik qiladi. Dushman ichki sabablarni juda yaxshi o'rganib, o'z g'alabasiga to'la ishonch hosil qilsagina bosqinchilikka jur'at etadi, va aynan shu ichki sabablar tufayligina yenga oladi. Shuning uchun jadid bobolarimiz singari Abdurauf Fitrat ham millatning ichdan har tomonlama uyg'onishini, jahon xalqlarini oldi bo'lishi, johillikdan qutilib, ilm-ma'rifatga oshno bo'lishini xohladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar, 1-jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000. – 256 bet.
2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, – 2008. – 600 bet.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdurauf-fitrat-1886-1938>.

CHO‘LPONNING “YANGI MEN” SHE’RIDA YO‘LOVCHI OBRAZI TALQINI

Mehri KENJAYEVA,
O‘zbekiston, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. XX asr yangi o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos davrni boshlab bergan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodining turfa qirralarini bugungi adabiyotshunoslik sohasi to‘liq tadqiq etmagan. Shu ma’noda ushbu maqola shoir lirikasida va ijtimoiy dard yo‘g‘rilgan she’rlarida yo‘lovchi obrazining badiiy talqinlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, “Yangi men”, yo‘lovchi obrazi, siyosiy muhit, kinoya uslubi, ijtimoiy dard.

She’riyat badiiy-estetik zavq berishdan – ko‘ngil ishi sifatida azaliy va abadiy vazifasini bajarishdan tashqari ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy ta’sir kuchi – umumongning tadrijiy ravishiga, evrilishlariga (“uyg‘onish”iga) bemisl turtki berishi bilan ham qudratlidir. Bu kuchning oqibatlarini, xususan, keyingi yuzyilliklarda jahonning turli anarxik siyosiy doiralari yaxshi anglaganlar va she’riyat “pinji”ga berkitilgan “isyon”u “haqiqat”ni izlab, zarur o‘rinlarda “topib”, imkon qadar bartaraf etishga urinib kelganlar.

Dunyo kechmishiga notanish bo‘lmagan ushbu holat XX asrning dastlabki choragida Turkiston muzofotlarida o‘z erkidan mahrum bo‘l(ayot)gan xalqning ruhiyatiga xoh badiiy, xoh publisistik yo‘sinda bo‘lsin ta’sir o‘tkazish (uyg‘otish) orqali ijtimoiy-siyosiy muvozanatlarni tiklash ilinjida qalam tebratgan bir guruh ziyolilarning ham boshiga tushdi. Ular safida Cho‘lponning millatni ozod qilishga da’vat etuvchi she’riyati, ramzlari, tashbehlari, ifodalari, matbuotdagi chiqishlari ham qatag‘onga uchradi. Bu jarayonning g‘oyaviy-nazariy konsepsiyalarini mustabid tuzum vakillari tatbiq etgan bo‘lsa, uni amaliyotga ko‘chirish ishlarini o‘zimizning qora ko‘zlar “zimma”siga oldi. Bu haqida atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning “Cho‘lponni anglash” risolasida batafsil bayon etilgan [1, 14].

O‘z yurtdoshlarining matbuotda “anticho‘lponizm” ruhidagi bot-bot chiqishlari shoir qalbini qorong‘i etmay qolmagan, albatta. Bunday xurujlar o‘tgan asrning 30-yillari avvalida, ayniqsa, kuchaydi. Cho‘lpon har jihatdan mahdudlanib, borayotgan muhit, imkoniyatlar va Bosh Orzuning ayanchli taqdiri haqida o‘ylarkan, qalbi larzaga keladi. Chorasizlik domida qolgan ilinjning kinoya ohangi Cho‘lponning keyingi she’rlarida ifoda etilgan yo‘lovchi zehniyatining aks sadosi kabi eshitiladi. Birgina shoirning biz tadqiqotga tortgan “Yangi men” [2, 519] she’rida lirik qahramon (yo‘lovchi)ning baayni ruhiy iztiroblari kesatq vositasida o‘z ifodasini topgan.

Asl muqobili Ozarboyjon turkchasida yozilgan “Yangi men” she’rida dastavval yo‘l boshiga shahdu shiddat bilan otlangan yolg‘iz yo‘lovchining alaloqibat kuchdan qolib, turli xiyonatlari, tuhmatu bo‘htonlar, adolatsizliklar qarshisidagi notavon holati gavdalanadi:

*Menda endi qayg‘ular yo‘q,
Men bahorlar kabi shanman,
Kechalarning o‘limiga
Qahqahalar solgan manman!*

*O‘lik ruhli kechalardan
Sir kutishlik menda yo‘qtur,
Men istamam, qora savdo,
Kishaningni Majnunga ur! –*

satrlarida lirik qahramon bir qarashda xuddi tergov izolyasida tavbasiga tayantirilgan, tazyiqlar ostida “boshqa qilmayman”, deya ont ichirtirilgan mahbus holatini eslatib yuborsa, she’rning keyingi satrlarida qattol tuzumning qilichi yalang‘ochlangach o‘z jonini sug‘urtalashga

intilayotgan (Majnun bo‘lmagan, sog‘lom, “endi ahmoq emasman” ma’nosidagi kesatiq) kishi holati namoyon bo‘ladi. She’rning poetik ahamiyati va Cho‘lpongagina xos bo‘lgan nozik mahorat esa “Yana men” she’ridagi badiiy niyatni uchinchi jihatga buradi. Ushbu uchinchi rakurs – kinoya, istehzo, kesatiqdir. Xuddi shu rakurs otdan tushsa ham hech qachon egardan tushmaydigan shoir menini birinchi planga chiqaradi. Taniqli olim D.Quronov Cho‘lpon ijodiga bag‘ishlangan qo‘llanmasida quyidagi fikrlarni keltiradi: “She’rlarining birida Cho‘lpon “men o‘zlikdan ko‘pdan beri uzilib, ko‘plik ichra singib ketgan tanamen” deya e’tirof etgan edi. Darhaqiqat, adabiyotimizda ijtimoiy dardni Cho‘lponchalik shaxsiylantira olgan shoirni topish mahol. Shundan bo‘lsa kerak, shoirning aksar she’rlaridagi ko‘pchilikka murojaatlari uning o‘z qalbiga qaratilgandek, qalbiga murojaati ko‘pchilikka qaratilgandir” [3, 41]. Shoirga xos bu xususiyat, bizningcha, uning she’rlarida tamsil etilgan yo‘lovchining shaxsiy dardlarini ijtimoiylashtiradi.

Navbatdagi bandlarda she’rning ritmik-intonatsion jihatlari va badiiy bo‘yoqdorligi oshib boradi:

*Mening yangi vatanimda,
Na Majnun bor, na-da zanjir!
Munda har bir ishlaganning
Baxti quchog‘iga kelur!*

*Munda mehnat bir hukmdor,
Amr etadi, charchatmaydi,
Chunki mashshoq o‘z soziga
Sevgisini yo‘qotmaydi –*

satrlarida butun dunyo yo‘qsullar tuzumining istiqboldagi aniq maqsad-muddaosi, endi bu yog‘iga bosh ko‘taruvchi, inyon qiluvchi, xalqni ozodlik sari chorlovchi “majnunlar” yo‘qligi va tabiiyki, jonini haspo‘shlaganlar uni omonda “zanjir”siz saqlashi, Vatan, millat taqdiri ana shunday sotqin, qo‘rqoq va befarq insonlar qo‘lida qolayotganligi achchiq kinoya va alam bilan bayon etiladi. Bu o‘rinda Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning bor iztiroblari ko‘z yosh misoli yuzaga sizib chiqadi. “Cho‘lpon o‘z orzu-istaklari, ideali nimaga aylanganini ko‘rish uchun xayolini osmonlarga sayr ettiradi va ideali quruq xayolga aylanib qolganiga amin bo‘ladi” [4.79]. Bitmas-tugamas mehnatga ekspluatatsiya etilayotgan xalq, xomashyo olish paviloniga aylanayotgan yurt qayg‘usi, shu tahlit bir xil mashg‘ulotni bajarib, “bir xil sozni chalib charchamaydigan” cholg‘uchi ahvoli o‘tkir kesatiq bilan aks ettiriladi. Shoir bejiz “*Na Majnun bor, na-da zanjir*” va “*Baxti quchog‘ida kelur*” satrlaridan so‘ng undov qo‘ymaydi. “*Munda mehnat quvnab-quvnab / Mo‘jizalar yaratadi. / Munda har kun sho‘x qo‘shiqlar, / Kuylar ila tong otadi*” – bandidagi satrlarda avtoritarizmning oqibatlariga ishora etilsa,

Millionlarning biri kabi

Men ham har kun ter to‘kaman, –

deya ulkan imperiyani zaryadlovchi sanoqsiz betareyaning biri kabi bo‘lib, mutlaqo begona mustabidlar manfaati uchun o‘z avlodlarining hayoti mutelik va qora mehnatda o‘tmasin uchun yozg‘iradi: “*Har kun yangi hayojonlar, / Zafarlarga ko‘nikaman!*”.

Ko‘p qatori sirtdan o‘ynab-kulib, ichdan tanazzulni his etayotgan yo‘lovchi timsoli, uning sa’y-harakatlari Cho‘lpon talqinida so‘nggi umid uchqunlariday, kurashning nochor usullariday taassurot uyg‘otadi.

Millionlarning biri kabi

Men ham quvnoq, men ham shanman,

Kechmishlarning o‘limiga

Qahqahalar solgan manman!.. –

deya she’rning yakuniy bandini pafos bilan yakunlarkan, lirik qahramoning “qahqahalar solgan” ayanchi, o‘quvchining qulog‘iga chalinadi, bir seskantiradi. Ushbu she’r bitilgan 1934 yilda sobiq tuzumda repressiya va tazyiqlar avj olgan edi. Cho‘lpon shunday qaltis yillarda ham ijodining poetik qiyofasini, badiiy qiymatini saqlab qololdi. Daho ijodkor, jafokash millatparvar sifatida munosabat bildirishning “oraliq yo‘li”ni topa bildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.
2. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр, 1991. – Б. 519.
3. Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.
4. Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Фил. фан. ном. ...дисс. – Тошкент: 2011. – 162 б.

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR TABIATI TAHLILI

**Muslima AHMADJONOVA,
O‘zbekiston, NamDU, talaba.**

Ilmiy rahbar: dots. Ozoda BOLTABOYEVA.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodi, shuningdek, uning “Kecha va kunduz” romanidagi obrazlar tabiati tahlil etilgan. Bu obrazlar orqali ibodkor o‘z davrining ijtimoiy, ma’naviy va ma’rifiy holatini ochib bergani misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik harakati, roman janri, milliy uyg‘onish, ma’rifat, obraz tabiati, ijtimoiy-siyosiy hayot, jamiyat manzarasi, janr.

Jadidchilik harakati o‘z davrining qora osmonida chaqnagan chaqmoqdek harakatga keldi va butun xalqni uyg‘otishni maqsadiga aylantirib oldi. Bu yo‘lda jadidlar qancha qiyinchiliklarga duch kelmasinlar, o‘z fikr, yo‘l hamda harakatlaridan to‘xtamadi. Qurol bilan kiradigan jangga jon bilan kirdilar. Shunday jonini qurbon qilgan jadidchilik harakatining eng yosh vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lib, bu asar o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarining e’tiroflariga sazovor bo‘lgan. Roman asr oshgan asarlar sirasiga kiradi. Bu asarni qanday sifatlar yashovchan qildi? Quyida mavzu va g‘oyaning asar umrboqiyligini ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

Romandagi bosh mavzu inson tabiatini oydinlamoqlik. Inson yaralganidan buyon uning tabiatidan chiqib ketmaydigan manfaatparastlik, nafsga erk berib yuborish romanda eng mayda epizodlargacha singdirilgan, eng ko‘p ishlangan, me’yoriga yetkazilgan. Mana shu me’yoriga yetish asarning eng katta yutug‘i bo‘lib, asarning qimmatli g‘oyasi ham shu mavzu ortidan keladi. Miryoqub o‘zidan ancha pastda hisoblaydigan, xohlasa, bir kunda eski joyiga o‘tkazib qo‘ya oladigan Akbaraliga qulluq qilishdan or qilmaydi, shuncha yil bir dasturxondan choy ichsa- da, uning pullarini o‘zlashtirishni ko‘zlaydi, xotinini rad qilmaydi. Miryoqubning noyib to‘ra bilan munosabatlari manfaatlar asosiga qurilgan, ammo bundan ko‘p foyda topgan. Shunga qaramay, u nafsni jilovlashni istamaydi, noyib to‘raning xotinidan ham ishi uchun foyda kelishini o‘ylaydi. “Miryoqub kishilar bilan munosabatga kirisharkan, avvalo, undan keladigan foydani – o‘z manfaatini ko‘zlaydi” [3, 129]. Zunnun esa uylanmoqchi, uylanish uchun bu xotinni o‘zidan biroz uzoqlashtirishi kerak. U nega uylanish uchun shunchaki ketib qo‘ya qolmaydi. Tayyor ish. Rus xotindan pul undirib turishi ham tayin. Hayotida o‘zidan boshqasi yo‘qligiga amin bo‘lsa-da, to‘yini o‘tkazib berishni aytgan Miryoqubga bu rus ayolni bemalol tortiq qiladi. Akbarali sodda, ammo ahmoq emas. Uning mulohazalaridan ma’lumki, u ham rusni yoqlamaydi, ammo u amalidan ayrilib, dushmani deb bilganlari oldida uyalib qolishni istamaydi. Shu boisdan hech narsaga aqli yetmaydigan mingboshi bo‘lish uning manfaatlariga to‘g‘ri keladi. U uchun aqlni urintirmay, uxlatib qo‘ygan ma’qul. Razzoq so‘fining qizini qamashganida taqsi haqida “Faqat ne chora, u kishi berib o‘rganmaganlar, olib o‘rganganlar; “O‘rgangan ko‘ngul o‘rtansa qo‘ymas”, “U kishini berishga o‘rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo‘lib turib, eshikdan gadoy kirsa, qo‘liga qaraydi, nazri yo‘qmikin?” [Cho‘lpon, 2004: 290]. qabilida yuritgan fikrlariga e’tibor bersak, u shunchaki ko‘r murid emas, u piringning qanday ekanligini yaxshi biladi, ammo uning etagidan ishlamay non yeb yurgani, u orqali so‘fi bo‘lib, jaamoat ichida qandaydir o‘ringa ega bo‘lgani, oila ichiga yuqoridan kelolgani uchun piringning asl yuzi

haqida o'ylash manfaatlarini bezovta qiladi. Qizining qaro baxti evaziga pul ishlashdan uyalmaydi. Sadri cho'loq kabi. U ham qizining ortidan shaharga ko'chishni orzulaydi. Otalar farzandini o'z manfaatlariga qurbon qiladi. Ular egasi yomon parazitga o'xshaydi, bironing hisobiga kun ko'rishga harakat qiladi. Razzoq doim eshon va xotinidan foydalanib, tekinxo'r bo'lib yashaydi. Miryoqub mingboshining, mingboshi esa Miryoqub hisobiga kun ko'radi. Asarda o'z kunini ko'radiganlar sanoqli. Qurvonbibi, O'lmas, Xolmat, dehqonlar, lekin ular juda nochor yashaydi. Eshon necha yillik muridi dardini eshitmoqlikni bejizga "Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus?" qabilida kesmaydi [Cho'lpon, 2004: 291]. Elga doston qilingan qotil uning shogirdiga aloqador ekanligi uning obro'si uchun to'g'ri kelmaydi, yana bu taqsirga pulni qo'ldan chiqarish juda og'ir. Poshshaxon shaxsiy manfaati – o'ch olish uchun yosh qizni qurbon qiladi. Pullar sharofati bilan Miryoqubga turmushga chiqish maqsadida Zebini o'ldirish qasdiga tushadi. Akbaralini rashk qilish orqasidan Sultonxonga shunchalik qasdlashgan xotin Miryoqubning rus ayoli bilan ketganiga qattiq kuymaydi. Axir Poshshaxon "Miryoqubday qora chiroy- u ko'zli, tanijoni sog', o'zi bardam, bazmchi, aysh- u ishlatni hamma vaqt shirin suhbat bilan boshlaydigan, ozoda va shirin so'zli erkakni qanday" topadi?! [1, 262]. Xadichaxon alamlarini yo'qotish uchun qizi kabi bir qizni baxtsiz qilayotgani haqida o'ylab o'tirmaydi, unga o'z alamni tarqatish muhim. Hakimjon Akbarali dargohida tuz totuvchilardan. U ham Zunnun, Miryoqub kabi nafsini qadriyatlardan ustun qo'yadi. Sultonxon Poshsha kabi o'zini chalg'itish uchun gunohga botishdan tap tortmaydi. Mariya Ostrovaning xo'jayini gapiga qaraganda, u qilayotgan ishini o'z xohishi bilan pul topish maqsadida tanlagan. U xiyonat tufayli xo'jayini qo'l ostiga kelgandir, ammo uni biz tanigan paytda ishratxonada ishlashga hech kim majbur qilmaydi. Hatto xo'jayin tomonidan unga "Oson pul topish olchoqlik bo'lsa, mardikorlik qilishga nafsingiz ko'nadimi?" [1, 134] savoli beriladi. Afsuski, Mariyaning tez katta pul topish manfaatiga mardikorlik ishi to'g'ri kelmaydi. Umrinisa Sultonxondan narsa undirish payida unga girdikapalak, jadidlar Abdusamaddan manfaatdor bo'lgani uchun uning ko'pxotinligini boshqalarniki kabi ovoza qilmaydi, Qosim laylak o'zini ko'rsatib olish umidida xabarchilikka chopadi. Umuman, asarda o'smir qizlarning samimiy munosabatlaridan boshqa samimiy munosabatlarni topish mushkul. Imomlarning biri vaqfni o'zi uchun ishlatasa, biri o'ziga ziyon yetmasligi uchun ochiq-oydin adolatsizlikka unsizgina ko'nadi. Buni qarangki, unda aybni yuvmoqlik uchun imkon tug'iladi, ammo u Razzoqqa bo'lgan voqeani aytish o'rniga tezgina xonaqodan chiqib ketishni tanlaydi. Xullas, asardagilar shaxsiy manfaati-yu, nafsini tinchitish uchun hech narsadan tap tortmaydi. To'rt zinokor ayol, manfaatparast to'rt din vakili anchagina bo'rttirilgan, biroq shu bo'rtiqlik Markesning kinoyalari kabi kitobxonga kuchli ta'sir etadi. Inson borlig'ini yaxshiroq ko'ra olish uchun oyna bo'ladi. Inson zoti o'z foydasi uchun boshqalarga ozor berar, foydani qadriyati, iymon e'tiqodidan ustun ko'rar ekan o'zi va yaqinlarini baxtsiz qiladi. Nafsiga cho'kib ketgan insoniyat takrorlanuvchi baxtsizlikni yaratadi. Fojialarini muqarrar qiladi: Akbarali nafsini zaharladi, Razzoq qotil bo'ldi, xotini va qizini yo'qotdi, eshon nomiga nomunosib holda qazo qilmadi, Miryoqub oilasini buzib, farzandlarini yetim qilib, o'g'lini fohisha qo'lga topshirish arafasida, Poshsha vijdon azobi o'rtab, ado qilishi tayin, boylarning masjidda mingboshining xotinlari buzuqligi haqida gapirganiga, qaraganda, Sultonxon ham, Poshshaxon ham el og'ziga tushib, otalari tomonidan voz kechilish oldida... Ular yashovchi makon Makonda kabi vayron bo'ladi. Vayrongarchilik sababiyati tuzum, din, madaniyat emas, insonga yopishib olgan nafsga bo'sh kelishdir. Nafsga qarshi turilmas ekan, tuzum, tizim, madaniyat, zamon, makon almashadi, baxtsizlik, insonning ichki va tashqi vayronaligi almashmaydi. Cho'lpon jadidlik e'tiqodi-yu, tuzum talabi ortiga qatlagan asosiy fikrdan biri – shu. Va bu muammo Odamdan uning so'nggi avlodigacha bo'lgan bandayi ojizlarni bezovta qilar ekan, bu mavzu umrboqiydir. Muammoning asosiy sababi iymonning zaiflashuvidir. Romanda millatning ayanch ahvoliga "ota- bobolar, burungilar yo'lidan" chiqmaslik emas, undan uzoqlashib ketish ham sabab ekanligi tasvir etiladi. Noyib to'ra shunday deydi: "Biz ruslar aroq ichishni hammadan yaxshi bilamiz... Senlar ham iste'dodli xalq ekansan, bizdan o'tkaza boshlading" [1, 147]. Ayni boshi namozga yetmaydigan Akbarali ko'p ichishi bois yaqin orada olamdan o'tishi haqida o'y suriladi. Bu o'zlikdan ayrilishning eng yuzaki tasviri xolos. Millat iymonni paranji, soqolda deb biladi. Ular asl o'zligidan Allohdan uzoqlashgan. Din peshvolarining biri bachchaboz, biri xotinboz, yurt ustiga kun ko'ruvchi, biri o'n so'mlik uchun indamay kofir bilan musulmon nikohini o'qib qo'yuvchi, biri o'ziga bu dunyoda zarar yetishidan

qo‘rqib, Allohdan o‘zgasi oldida ham tizzalari qaltirayveradigan shaxs. Mana shu tasvir iymondan uzoqlashgan eski avlod tasviri edi. Yangi avlod vakili nima qilyapti? Jadidlar ham rivojlanish yo‘lini, avvalo, Allohdan uzoqlashganlarni iymonga qaytarish va ta’limni targ‘ib qilish yo‘lidami? Sharaffidin tilidan asarning asosiy g‘oyalaridan biri beriladi: “Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo‘lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hisni o‘stirib, o‘z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga ixtisosga millatni asramoq uchun millat bolalari ongini begonaga berib qo‘ymoq mumkin emas. Zero, ongli xalqni yengmoq, shuuriga, mafkurasiga ta’sir qilmoq juda mushkul. Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, o‘zbek realistik prozasining taraqqiyotida Abdulhamid Cho‘lponning munosib o‘rni bor. Milliy adabiyotimizda zamonaviy nasrchilik endigina shakllanayotgan pallada ijod qilgan Cho‘lponning ijodiy izlanishlari nasrimizning poetik xazinasini boyitishga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shildi. Cho‘lpon o‘z ijodi bilan nasriy janrlarning turfa imkoniyatlarini namoyon qildi, turli poetik usul va vositalarni dadil tajriba qilib, ularning milliy adabiyotimizda o‘zlashib qolishiga puxta zamin hozirladi va yangi yo‘nalishlarni ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho‘lpon. Tanlangan asarlar, 2-jild – T: Fan, 1992.
2. Adabiy turlar va janrlar – T: Fan, 1991.
3. Quronov D., Adabiyot nazariyasi. – T: Fan, 2022, – B 129.

NOZIMAXONIM IJODIDA MA’RIFAT TALQINLARI

Munisa NISHONOVA,

O‘zbekiston, QarDU, talaba

Ilmiy rahbar: Umida ABDULLAYEVA, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid adabiyotining uslubiy xususiyatlari ayollardan bo‘lgan jadid shoira Nozimaxonim ijodi orqali talqin etiladi. Shoira she’rlarining poetik xususiyatlari mumtoz adabiyot vakillari ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: lirika, she’riy tizimlar, adabiyot qoidalari.

Adabiyot – ruhiy tarbiya vositasi. Inson ma’naviyatiga yuksaltiruvchi kuch. “Adabiyot- fikr tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarini so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarini yaratmoqdir” [1, 13].

Insonning shaxs sifatida shakllanishida adabiyotining o‘rni beqiyos. “Adabiyot ommaviydir. U jamiyat fikriga suyanadi. Adabiyot ozchilik bilimdonlar doirasida emas, butun ommaning eng kamida xalqning marifatli sinflaridan madad oladi. Adabiyot butun jamiyat mulkidir” [9, 22]. Yozuvchi o‘z asari orqali ko‘nglidan kechayotgan fikrlarni, o‘ylarini kitobxonga yuqtiradi. Uni biroz fikrlashga undaydi. Shu xususiyatlari bilan ham adabiyot ruhiy tarbiya vositasi hisoblanadi. “Adabiyot arboblarning va ular yaratgan ajoyib asarlarning xalq orasida hurmatga sazovor bo‘lganidan guvohlik beruvchi ayrim dalillarni eslasak “Adabiyot” deb atalmish mo‘jizaning qudrati yana ham ayon bo‘lib qoladi” [6;13]. Kitobxon bevosita badiiy asarni o‘qir ekan, asardagi qahramonlar hayotiga razm soladi, kuzatadi va o‘ziga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaradi. Asardagi salbiy qahramonlarga nisbatan ularda nafrat uyg‘onadi, va ularga o‘xshamaslikka harakat qiladi. Aksincha ijobiy qahramonlarga ruhan yaqinlashadi, quvonch va iztiroblariga sherik bo‘ladi. Adabiyotning mohiyati ham ana shunda.

“Albatta badiiy asarlarda kishilarga kundalik hayot bilan bog‘liq muammolar xususida aniq maslahatlar berilmaydi. Lekin badiiy asarlar ta’sirida har bir kishining dilidagi, albatta, o‘zidagi kamchiliklarni tuzatish, nojo‘ya ishlardan o‘zini tiyish istagi tug‘iladi. Bu esa adabiyot odamlarning bir-birini tushunishi, hayotni idrok etishi va shu asosda o‘zini anglashiga yaqindan yordam berishini bildiradi” [2, 8].

Yozuvchi o‘z asarida zamon bilan hamohang tarzda jamiyat muammolari, kamchiliklari, yutuqlari haqida fikr yuritadi. Ijodkor tanlagan mavzu xalq uchun umumiy yoxud hayot haqiqatlari bilan chambarchas bog‘langan mavzular bo‘lsagina asarning o‘qishliligi ta’minlanadi.

“Haqiqiy yozuvchi doimo kurashchi, jangchidir”. U jamiyat hayoti haqidagi hodisalarga befarq qarab turolmaydi. A.P.Chexovga ko‘ra, “Kimki hech narsa istamasa, hech narsadan umidvor bo‘lmasa, hech narsadan xavotirlanmasa u san‘atkor bo‘lolmaydi” [6, 39].

XX asrning boshlarida yashab ijod etgan jadid ijodkorlari butun umri va faoliyatini millat erki, ma‘rifati va ma‘naviyati uchun kurashga bag‘ishladi. Fitrat, Cho‘lpon, Behbudiy, Usmon Nosir kabi o‘nlab ijodkorlar bugungi kunda millatimiz faxri va g‘ururiga aylandi. Jadidchilik faoliyatiga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar bilan bir qatorda ayol ijodkorlarining ham jadid sifatida faoliyat olib borganligi va qatag‘onga uchraganligi aniqlandi. Ulardan biri Nozima xonimdir. Jadid adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan toshkentlik Nozima xonim (1870- 1924) – shoira, o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi jurnalist, publitsist. Tatar, arab, fors tillarini o‘rgangan. O‘zbek va fors mumtoz adabiyotini ayniqsa, Sa‘diy Hofiz asarlarini o‘qigan. Yigirma yoshlaridan shoira “Beshyog‘ochlik Nozima xonim” nomi bilan mashhur bo‘lgan. She‘rlari “Shuhrat”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston” gazetalarida chiqib turgan. Uning xalqni ma‘rifatparvar chorlovchi, ularni erk sari yetaklovchi bir qancha maqolalari e‘lon qilingan. “Insonga qancha erk darkor”, “Xotinlar huquqiga oid”, “Ilm va ma‘rifat borasida bir- ikki so‘z” kabi maqolalari va bir qancha g‘azallari shular jumlasidandir.

“Nozimaxonim o‘zining “Faryod” she‘rida Turkiston ijtimoiy turmushini ko‘rsatib bergan. Shoira bu she‘rida o‘sha paytda Turkiston jamiyatida avj olgan isroflari to‘ylar va oilaviy marosimlarni tanqid qilib boqimanda kayfiyatida yashayotgan insonlarning choyxonada to‘planib o‘tirishni qoralaydi [7, 44].

Nozimaxonim ijodidagi bosh mavzu erk. Tadqiq etish jarayonida shoira ijodida asosan xalq dardiga sheriklik va uning dardlarini o‘ziniki deb bilish g‘oyalari yetakchilik qilganini ko‘ramiz. Bu bilan shoira ijodi faqatgina dardga sheriklik yoki xalq holidan faryod chekish degan fikrga borib bo‘lmaydi. Aksincha, shoira dadil so‘zlari bilan xalqni ma‘rifatparvarlikka, ma‘naviy qoloqlikdan qutilishga da‘vat etadi va bunga o‘zi ham astoydil ishonadi. Kelajakka umid bilan qaraydi. U o‘z asarlarida jamiyatdagi muammolarni ochiq aytganligi, hurfiylik uchun ko‘plab muammolarga uchraydi.

Istasam marham ajab ermasksi sendin ey tabib,

Uvaysiyning yuqoridagi baytida lirik qahramon dunyoning lahzalik farog‘atlariga aldangan, o‘tkinchi hoy-u havaslarga berilgan insonlar zahmidan bemorlanadi. Nozimaxonim mumtoz adabiyot vakillarining ijodini xususan Nodira ijodini ham xayrixohlik bilan o‘rgangan. Shuning uchun ham Uvaysiy ilgari surgan g‘oyalari Nozimaxonim ijodida ham qisman namoyon bo‘ladi.

Jumladan:

Jahr zikru xonaqohdin yuz yugirmoq vaqtidur,

Dahrning zavq-u safosi bizga mehmondur bu kun.

Nozimaxonim ham Uvaysiy fikriga hamohang tarzda dunyoning zavqi, xursandchiligi o‘tkinchi ekanligiga ishora qiladi.

Adabiyotda shunday mavzular borki, ular davr tanlamaydi. Ular barcha zamonlarda xos. Demak, azaliy mavzular bor ekan, ijodkor qaysi zamon ijodkori bo‘lishidan qat‘iy nazar, ularni o‘z uslubida yoritishga harakat qiladi.

Avaz O‘tar o‘zining “Til” she‘rida o‘zga tillarni o‘z ona tilidek bilish foydayi kon ekanligini, ilm, kasb-hunar ham til orqali rivojlanishini ta‘kidlaydi. Yoshlarni ko‘proq til bilishga chaqiradi.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,

Bilmakka oni g‘ayrat eting foyida kondur.

Ayni shu fikrlarni Nozimaxonim ijodida uchratamiz.

O‘qing rusi zabonin el aro bu yaxshi xislatdur,

Zaboni bezabon bo‘lmoq koni illatdur.

Shoira o‘zga tillarni bilish diniy, dunyoviy bilimlarni egallashga yo‘l ochishini aytish bilan birga til bilmaslikni koni illat deb ataydi. Shu o‘rinda Nozimaxonimning ilgari surgan g‘oyasi Avaz O‘tar fikrlarining mantiqiy davomi sifatida yangraydi.

Komil Xorazmiy o‘zining bir baytida:

Malomat ahlidan ozurdadirlar,

Bu ko‘hna dayrda ahli farosat.

deya, jaholat sabab farosat ahli ya'ni ilm ahlining malomatda qolganini tasvirlaydi. Ya'ni, bu tasvirlardan ilm ahlining o'sha davrdagi ahvolini bilish qiyin emas. Ushbu holatni XX asrga kelib Nozimaxonim ijodida ham uchratamiz:

Xalq demishlar meni bu yurt aro ko'p fozila,
Lek yurmishman hamisha darbadar mahrum bo'lib.

Baytdan anglashiladiki, o'z davrda faqatgina Nozimaxonim emas, balki barcha ilm ahli darbadar bo'lgan. Shoira o'zi orqali ilm ahliga ishora qiladi. Demak ikala ijodkor ijod qilgan davrda ham ilm ahliga yaxshi munosabatda bo'lishmagan. Shoira asarlari mazmunga boy bo'lgani uchun ham ta'sir doirasi kuchli. Albatta, asarda mazmun birinchi o'rinda turishi kerak. "Nozimaxonim ijodida mazmun birinchi o'rinda turishini anglab falsafiy mushohada qiladi. Uning dunyoni anglashga bo'lgan fikrlari sermulo hazali. Hayot haqiqatini ifodalash o'rniga mazmunsiz fikr-u qofiya bilan asossiz ig'volar bilan cheklanishi shoirlarni jazolashni kerak darajada hisoblaydi. Ular hayotning mazmunini anglab yetmasdan, balki behuda umri sarflamoqda deb hisoblaydi. Eng muhimi shundaki, Nozimaxonim zamonining shunday shoirlaridan manfaatdor ekanligini, bulardan shon-shuhrat berish zamonining xatosi ekanligini baralla aytadi. Uning 1913-yilda yozilgan "Ahli nazm haqida" she'rida xuddi shunday g'oyani ilgari suradi.

Afsus nadomat ko'p hoy degan yo'q bir oqil,
Onlarga berdi shuxrat zamonining xatosi. [8, 138]

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, adabiyot – ruhiy tarbiya. Insonga umri davomida hamrohlik qiladigan tuyg'ular manbayi. Fitrat ta'kidlaganidek, "Kimki o'z insonlik darajasini asl holatida taraqqiy qildirsa, bu uning insonlik olamig'a kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar". Demak odamning insonlik olamiga kirishida adabiyotining o'rne beqiyos. Insonni inson qiladigan ham adabiyotidir. U xoh jadid adabiyoti bo'lsin, xoh mumtoz adabiyot bo'lsin bitta vazifa – insonni ruhiy tarbiyalash atrofida birlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Toshkent – Ma'naviyat. –2004
2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent –2017
3. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent – "Ma'naviyat" 2004.
4. Belinskiy V. Tanlangan asarlar O'zbekiston SSR davlat nashriyoti. Toshkent-1955.
5. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2022
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi "O'qituvchi " nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent 2005.
7. Ilmiy axborotnoma . Tarix. 2022-yil, 2-son.
8. "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy- amaliy konferensiya materiallaridan. 2022-yil. (Ahrorova Madina Rahmatovna)
9. Qurbanbayev K. "Adabiyotshunoslik asoslari" fanidan ma'ruzalar matni. Nukus-2011.

3-SHO'BA. JADIDCHILIK VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

JADIDCHILIK HARAKATI BO'YICHA TURKIYADA AMALGA OSHIRILGAN DISSERTATSIYALAR

Saidbek BOLTABAYEV

Turkiya, Karabuk universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Jadidchilik harakati namoyandalari uchun Turkiya hududlari alohida ahammiyat kasb etgan. Buning natijasi o'laroq Turkiyada harakat bilan bog'liq turli mazmundagi katta-kichik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bibliografiya turidagi ushbu ma'ruzada Turkiyada jadidchilik harakati bo'yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari ko'rsatilgan holda ularda ko'tarilgan masalalar, yechimlar va tahlillar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiya, tadqiqot, dissertatsiya.

Tarixdan Turkiston jadidchilarining Turkiya bilan yaqin aloqada bo'lgani ma'lum. Jadidchilar 1908- yilda e'lon qilingan Mashrutiya'dan (Konstitutsiyaviy monarxiya'dan) keyin Ittihad va taraqqiyot qo'mitasi bilan hamkorlik qildilar. Abdurrauf Fitrat kabi jadidchilar Istanbulda ta'lim oldilar. Turkistonlik jadidchilar Kichik Osiyoda Mustafo Kamol Otaturk tomonidan boshlangan milliy ozodlik harakatiga hissa qo'shdilar. Ayni paytda sovet ma'muriyatidan qochgan jadidchilarning bir qismi Turkiyadan panohtopib, Mustafo Kamol Otaturk tomonidan himoyalangan edi.

Turkiston jadidlari uchun Turkiya umid manbai bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, Turkiyada 1908- yildagi inqilob bilan hokimiyatga kelgan Ittihad va taraqqiyot qo'mitasi bilan Turkiston jadidlari o'rtasida yashirin aloqa mavjud edi. Turkistonlik jadidchilar bu yerdagi "Yosh turklar" harakatini o'rnatqilib, "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Yosh o'zbeklar" kabi tashkilotlar tuzdilar. Abdurrauf Fitrat Ittihad va taraqqiyot qo'mitasiga a'zo bo'ldi. Boshqa tomondan, Istanbuldagi Ittihad va taraqqiyot idorasi ham Turkistonga yaqindan qiziqar edi. Turkistonda boshlangan bir necha qo'zg'olonlarda turk zobitlari ham qatnashdilar. Bulardan eng mashhuri Ittihad va taraqqiyot qo'mitasi rahbarlaridan Anvar Posho Turkistonga kelib, milliy ozodlik harakatiga boshchilik qilgan.

Anvar poshoni qo'llab-quvvatlashga harakat qilayotgan jadidchilar, boshqa tomondan Anadolidagi milliy ozodlik harakatiga ham yordam berish niyatida edilar. Imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, Turkiya Buyuk Millat Majlisi Anqara hukumatiga delegatsiya yuborib, moddiy yordam ko'rsatayotgan edilar. Bu hay'atlarni davrning nozik muvozanatlari va og'ir sharoitlariga qaramay qabul qilgan Mustafo Kamol Otaturk jadidchilarni qo'llab-quvvatladi. Shu bilan bir qatorda sho'rolardan qochgan jadidchilar Turkiya Respublikasida boshpana topib, u yerda turli ishlar bilan shug'ullanqanlar.

Bu tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ravishda Turkiyada jadidchilik harakati bo'yicha ko'psonli tadqiqotlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Turkiyada jadidchilik bo'yicha tadqiqotlar dastavval Qozon, Qrim va Kavkaz mintqalariga qaratilganligi ko'rinadi. Bundan tashqari, jadidchilik me'mori hisoblangan Ismoil Gaspirali va Qrim, Qozon va Ozarbayjonlik jadidchilarning muhim yetakchilari haqida Turkiyada ko'plab biografik tadqiqotlar olib borilgan. Quyida bu tadqiqotlar sohalarga ajratilgan holda beriladi:

I. Tarix yo'nalishida

Magistrlik dissertatsiyalari

1. Go'kgo'z, Selenga Saime. (1996). *Jadidchi sotsialistlarning Idil-Ural hududidagi faoliyati (1905-1938)*. Anqara: Hajettepe universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ushbu dissertatsiya Muruvvet Kurhanning ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan bo‘lib, 1905-1938 yillar oralig‘ida Idil-Ural hududida jadidchi sotsialistlarning faoliyatini tadqiq qiladi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab islohotchi ulamolar tomonidan boshlangan diniy va madaniy yangiliklarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

2. Tashkaya, Halim. (2015). *Abdurrauf Fitrat va yosh buxoroliklar uyushmasi*. Istanbul: Istanbul universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ali Arslanning ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu magistrlik ishida Abdurrauf Fitratning hayoti va g‘oyalari tadqiq qilinish bilan bir qatorda Turkistonda jadidchilikning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va Buxoroda “Yosh buxoroliklar” harakatiga aylanishi va ta’sirlari, Buxorodagi istiqlool harakatlari o‘rganilgan.

3. Shafakji, Inji Yelda. (2015). *Qrim-tatar ziyolilaridan Hasan Sabri Ayvazov (1878-1938), hayoti, g‘oyalari va ijodi*. Marmara universiteti Turkiyot tadqiqotlari instituti.

Jadidshunos Ahmet Kanliderening ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu magistrlik ishida o‘z davrining eng faol ijodkorlarlaridan biri bo‘lgan qrimlik Hasan Sabri Ayvazovning faoliyatiga bag‘ishlangan.

4. Yavan, Murat. (2019). *Turkistonning siyosiy va intellektual namoyandalaridan biri Usmon Xo‘jao‘g‘li (1878-1968): hayoti va faoliyati*. Marmara universiteti Turkiyot tadqiqotlari instituti.

Ushbu magistrlik ishi ham Ahmet Kanliderening ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan. Tadqiqotda Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning hayoti va g‘oyalari ochib berishga harakat qilingan. Bunda uning o‘zi tomonidan yozilganlarga asoslangani bilan bir qatorda u haqida yozilgan birlamchi va ikkinchi darajali manbalardan foydalanilgan.

5. Timurhan, Aslinur. (2019). *Rizoiddin b. Fahriddin, Ahmet Hodi Maqsudiy va aka-uka Remiyevlar faoliyati doirasida Qozon jadidchiligi*. Anqara: Anqara Hoji Bayram Vali universiteti.

Varis Chakan ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu magistrlik ishida Qozon tatarlari o‘rtasidagi jadidchilik harakatiga amaliy va nazariy hissa qo‘shgan ziyolilar faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Rizoiddin b. Fahriddin, Ahmet Hodi Maqsudiy va aka-uka Remiyevlarning din, matbuot, ta’lim, intellektual va iqtisodiy faoliyatlari tadqiq etilgan.

6. Karabajak, Emre. (2019). *Volga tatar jadidchiligi va uning Usmonli proteksionistik g‘oyalariga ta’siri*. Istanbul: Bo‘g‘ozichi universiteti Otaturk tamoyillari va inqilob tarixi instituti.

Nodir O‘zbekning ilmiy rahbarligini yuritgan ushbu tadqiqotda Usmonlilar proteksionistik iqtisodiy g‘oyalarini shakllantirishga jadid harakatining ta’siri haqida so‘z boradi. Bunda Usmonli davlatiga ko‘chib borgan tatar ma’rifatparvari Oqyigitzoda Musoning faoliyati asos qilib olingan.

7. Karayigit, Gul. (2019). *Fayzulloh Xo‘jayev va Buxorodagi jadidchilik harakati*. Zonguldak: Zonguldak Bulent Ejevit universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ilmiy rahbar sifatida Nurettin Hatuno‘g‘lu ishtirok etgan ushbu magistrlik ishida Fayzulloh Xo‘jayevning hayoti, faoliyatlari o‘rganilgan holda Buxoro jadidchilik harakatidagi ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek uning tarixchi jihati va tajribalari bilan yozgan asarlarida ta’kidlagan maqsadlari muhokama etilgan.

8. Nazli, Besra. (2020). *Turkistondagi siyosiy jarayonlar va Turkiston ozodlik harakatlari, qirg‘iz qo‘zg‘oloni bo‘yicha tahlil (XVI asr va XX asrlar oralig‘i)*. Elazig‘: Firat universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Fusun Kara tomonidan ilmiy rahbarlik qilingan ushbu tadqiqotda 1916-yil 4-iyulda Qo‘qonda boshlangan milliy ozodlik harakatining tarixiy jarayonlari, boshqa hududlarga, jumladan Qirg‘izistonga tutashishi va “urkun” nomi bilan tanilishi, bu jarayonlarda Qirg‘izistondagi jadidchilarning faoliyatlari tadqiq etilgan.

9. Baba, Mert Jan. (2020). *Ayaz Ishoqiyning Rossiya musulmonlarining mustaqillik kurashidagi faoliyatlari*. Anqara: Gazi universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Varis Chakan ilmiy rahbarlik qilgan bu magistrlik ishida Muhammad Ayaz Ishoqiyning nashriyot faoliyati va Rossiya musulmonlarining istiqloq kurashi yoʻlidagi siyosiy kurashlari davr sharoitlarini hisobga olgan holda muhokama qilingan.

10. Gur, Fatih. (2020). *Sovet davridan oldin va sovet davrida Oʻzbekistonda taʼlim*. Qirgʻiziston-Turkiya Manas universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Yunus Emre Gurbuz ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan ushbu dissertatsiyada Oʻzbekistonda rus chorizmi davridan boshlangan va SSSR davridagi oʻzgarishlar bilan davom etgan taʼlim siyosati tarixi haqida soʻz boradi. Tadqiqotning birinchi bobida jadid maktablari va rus-tuzem maktablarining maqsad va oʻquv dasturlari toʻgʻrisida soʻz yuritilib, bu geografiyada taʼlimning oʻrni va ahamiyati manbalar asosida tahlil etiladi.

11. Akdeniz, Ayshe. (2020). *Tatar jadidchiligida din arboblari, ziyolilar va savdogarlarning roli (Olimjon Barudiy, Abdulloh Battal Taymas, Ahmad Boy Huseyinov)*. Anqara: Anqara Hoji Bayram universiteti.

Dissertatsiya Mehmet Shahingoʻz ilmiy rahbarligida tayyorlangan. Unda Olimjon Barudiy yoʻnalishidagi din arboblarning jadidchilikka taʼsiri, shuningdek siyosat, taʼlim va nashriyot sohasidagi faoliyatlari bilan tanilgan Abdulloh Battal Taymas, harakatni moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlaganlardan Ahmad Boy Huseyinov kabi shaxslarning faoliyatlari tahlilga tortilgan.

12. Kushmuratov, Shavkat. (2021). *Turkistonda jadidchilik harakatining yoyilishida Mahmudxoʻja Behbudiyning roli*. Istanbul: Sabahattin Zaim universiteti.

Mehmet Ali Boʻlat ilmiy rahbarligida tayyorlangan bu dissertatsiyada Turkistonda tarqalgan jadidchilik harakati va bu harakatning rivojlanishida Mahmudxoʻja Behbudiyning roli turli tarixiy jarayonlar asosida ochiq qilingan.

13. Oʻrunbayev, Asli. (2021). *Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, yetakchilari (1920-1924)*. Karabuk universiteti.

Abdullah Yakshining ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan ushbu magistrlik ishida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi, davlat arboblari, undagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot tadqiq etilgan.

14. Aktash, Murat. (2022). *Turkiston milliy birlik qoʻmitasining tarixiy kelib chiqishi va faoliyati*. Yoʻzgat: Boʻzʻoq universiteti.

Ilmiy rahbar sifatida Ebubekir Gungoʻr ishtirok etgan ushbu tadqiqotda jadidchilik harakatining natijasi sifatida Turkiston ziyolilari tomonidan asos solingan va mustaqillik uchun kurashga aylangan Turkiston milliy birligining tashkil topishdan oldingi davri va faoliyatini tadqiq qilingan.

Doktorlik dissertatsiyalari

1. Kidiraliyev, Darhan. (2001). *Turkistondagi jadidchilik harakati va uning Turkiya bilan aloqasi*. Istanbul: Istanbul universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ushbu doktorlik ishi mashhur Oʻrta Osiyo tarixchisi Mehmet Sarayning ilmiy rahbarligida tayyorlangan boʻlib, toʻgʻridan-toʻgʻri Turkiston jadidchiligi bilan bogʻliq Turkiyada amalga oshirilgan ilk jiddiy tadqiqot hisoblanadi. Unda rus istilosidan oldingi va keyingi davrdagi Turkiston, Turkistondagi jadidchilik harakatining asoslari, Ismoil Gaspirali va Turkistonda usuli jadid maktablari, Turkistonda jadidchilikning asosiy namoyandalari, Jadidchilarning siyosiy-madaniy faoliyatlari, Turkiston jadidchilari va milliy muxtoriyatlar davri, Turkiston jadidchilarining Turkiya bilan aloqalari kabi masalalar tadqiq etilgan.

2. Alp, Alper. (2010). *Qozon tatarlarining siyosiy pozitsiyasi va yoʻnalishlari (1905-1916)*. Anqara: Gazi universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Vahdet Keleshyilmaz ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu doktorlik ishida Rossiya imperiyasining inqilobiy harakatlar bilan larzaga kelgan bir davrda Qozon tatarlarining siyosiy sohadagi faoliyati muhokama qilinadi. Unda qoʻqonlik ziyolilarning, shuningdek musulmonlar fraksiyasining faoliyatlari, qadimchilar va vaysiylarning siyosiy oʻzgarishlarga doir qarashlari va ularning Rossiya musulmonlari ittifoqi bilan aloqalari oʻrganilgan.

3. Gungo‘r, Ebubekir. (2013). *Qirg‘izistonda yangi ta‘lim tizimi, jadidchilik va Ishenali Arabayev*. Antalya: Akdeniz universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ushbu doktorlik ishi Haldun Ero‘g‘luning ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan bo‘lib, zamonaviy ma‘noda qirg‘iz xalqidan chiqqan muallim sifatida Chor va Sho‘rolar davrida muhim ishlarni amalga oshirgan Ishenali Arabayev faoliyatlariga bag‘ishlangan.

4. O‘zso‘y, Emre. (2021). *Jadidchi ma‘rifatparvar Muhammad Fotih Karimiy: hayoti, faoliyati va ijodi (1870-1937)*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Bu doktorlik ishiga ham Haldun Ero‘g‘lu ilmiy rahbarlik qilgan. Unda Idil tatarlaridan yetishib chiqqan Muhammad Fotih Karimiyning siyosiy, nashriy, adabiy va fikriy faoliyatlariga to‘xtalgan holda tahlilga tortilgan.

II. Dinshunoslik yo‘nalishida

Magistrlik dissertatsiyalari

1. Zeki, Izzetullah. (2014). *Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va Turkiston ulamolariga ta‘siri: Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar Qori misolida*. Ko‘nya: Nejmettin Erbakan universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ahmet Turan Yukselning ilmiy rahbarliga tayyorlangan ushbu magistrlik ishida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, tarixiy taraqqiyoti, u ta‘sir ko‘rgan va ta‘sir qilgan soha va shaxslar, Turkiston jadidchiligining asoschisi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, ijodi, tafakkuri, toshkentlik jadid namoyandalardan Munavvar Qorining hayoti, faoliyati, ijodi va fikrlari yuzasidan tadqiqot olib borilgan.

2. Chelik, Rejep. (2020). *Rizouddin bin Faxriddin va uning fiqhiy qarashlari*. Samsun: O‘ndo‘kuz Mayis universiteti.

Ayhan Ak ilmiy rahbarlik qilgan ushbu ishda Rizouddin bin Faxriddinning fiqh, kalom, tarix, ta‘lim kabi sohalaridagi asarlarida uchrovchi usul va furu‘ haqidagi ba‘zi qarashlari o‘rin olgan bo‘lib, bu qarashlarning Rossiya musulmonlari uchun fiqhiy amaliyotlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Doktorlik dissertatsiyalari

1. Marash, Ibrahim (2000). *Idil-Ural turklaridagi jadidchilik harakati (1850-1917)*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Hayrani Altintash ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu dissertatsiya jadidchilikning diniy sohadagi faoliyatlariga bag‘ishlangan. Unda jadidchilarning asosiy falsafiy, diniy masalalar, fiqh va ijtimoiy masalalarga oid qarashlari o‘rganiladi va shu orqali jadidchilarning diniy tafakkurni yangilash haqidagi g‘oyalari ochib beriladi. Bu orqali jadidchilarning g‘oyalari qaysi sohalariga yo‘naltirilganligini aniqlanadi. Shuningdek ta‘limda yangilanish harakatining Qozon hududiga kirishi, bu boradagi ilk tadbirlar va jadidlarning fikrlari muhokama qilinadi. Bu orqali jadidchilarning ta‘lim-tarbiya sohasida yangilik kiritish yo‘lidagi fikriy yo‘nalishlari ham ochib beriladi.

2. Kadirov, Mederbek. (2016). *Sovetlar qulashigacha bo‘lgan davrda Qirg‘izlarning islom tushunchasining tarixiy ildizlari va ba‘zi diniy tuzilmalar*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Hasan O‘nat ilmiy rahbarligida tayyorlangan bu doktorlik dissertatsiyasida XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatiga qirg‘iz xalqi tomonidan qanday qaralgani. Ta‘lim va tarbiyadan tortib hayotning barcha sohalarini qamrab olgan ijtimoiy harakatga aylangan ushbu harakat qirg‘iz tarixiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgani, o‘z davrining qirg‘iz ziyolilarini yetishtirishda muhim rol o‘ynagani ilmiy asoslar bilan tadqiq etilgan.

3. Suyargulov, Rifat. (2018). *XIX asr va XX asr boshlarida Idil-Ural mintaqasi jadidlarining asosiy kalomiy masalalarga doir qarashlari*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Idil-Ural jadidchilarining diniy masalalarga doir qarashlari o‘rganilgan bu tadqiqotga Muammer Esen ilmiy rahbarlik qilgan. Tadqiqotning birinchi qismda “Ilohiyot”, ikkinchi qismda “Nubuvvat”, uchinchi bo‘limda “Oxirat va sam‘iyat” mavzulari tadqiq qilingan bo‘lsa, to‘rtinchi bo‘limda boshqa kalomiy mavzularga doir qarashlar o‘rganilgan.

III. Til va adabiyot yo‘nalishida

Magistrlik dissertatsiyalari

1. Abdazimova, Dilrabo. (2015). *Turkistondagi jadidlar harakatining matbuot organlaridan biri bo‘lgan “Oyna” jurnali bo‘yicha tadqiqot*. Nig‘de: Nig‘de universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Til va adabiyot sohalarida ilk magistrlik tadqiqotlaridan biri bo‘lgan ushbu ish Hikmet Ko‘rashning ilmiy rahbarligida tayyorlangan. “Oyna” jurnalining 11-20-sonlari asosida amalga oshirilgan bu tadqiqotda barcha maqolalarning sarlavhalari va mualliflari asosida jadvali tuzilgan. Maqolalar mualliflarining ismlari va mavzulariga ko‘ra tahlil qilingan va indekslangan. Shuningdek jurnalning ushbu sonlari to‘liq transkripsiyalangan.

2. Rasuliy, Abdul Fatah. (2015). *O‘zbek jadid adabiyoti ijodida “jadid – qadim” qarama-qarshiliklarining aks etishi: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon ijodi misolida*. Mug‘la: Mug‘la Sitqi Ko‘chman universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ali Abbas Chinar ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu dissertatsiyada Behbudiyning “Padarkush”, Fitratning “Bayonoti sayyoh hindi”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarlari qiyosiy tahlil qilinadi va “jadid – qadim” qarama-qarshiligining aks etishi ko‘rsatiladi.

3. Erbinsin, Derya Hamiye. (2016). *Idil-Ural muhojir siyosiy adabiyotida YAqa Milliy Yul va Ayaz Ishoqiyning siyosiy ifoda uslubi*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Idil-Uralda jadidchilik bo‘yicha ilk dissertatsiya tadqiqotlaridan birini amalga oshirgan Selenga Saime Go‘kgo‘zning ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu ishda Ayaz Ishoqiyning “Milliy yo‘l” va “Yangi milliy yo‘l” jurnalidagi faoliyatlari o‘rganilgan. Shuningdek muallifning ushbu jurnallardagi asarlari “Tanqidiy nutq tahlili” usuli bilan o‘rganib, milliy o‘zlikni shakllantirishda qo‘llanilgan nutq va strategiyalari izohlangan.

4. Aslan, Aslihan. (2019). *Cho‘lponning maqolalari (Tahlil-matn)*. Erzurum: Otaturk universiteti Turkiyot tadqiqotlari instituti.

Ilmiy rahbar sifatida Huseyin Baydemir ishtirok etgan ushbu magistrlik ishida Cho‘lponning maqolalari avvalo quyidagicha tasnif qilingan: 1) adabiy va tanqidiy maqolalar; 2) dramalari va drama haqida maqolalari; 3) adabiy shaxslar haqidagi maqolalari; 4) matbuotga doir maqolalari; 5) ijtimoiy voqeliklar haqidagi maqolalari; 6) siyosiy masalalarga doir maqolalari. To‘plam 72 ta maqolaning turk tiliga tarjimasi berilishi bilan bir qatorda ushbu maqolalar tematik nuqtai nazardan o‘rganilgan.

5. Aydin, Kubra Sheyma. *Fotih Emirxonning “Tengsizlar” va “Yoshlik” dramalari (tarjima-tahlil)*. Kastamo‘nu: Kastamo‘nu universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Samet Azap ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu magistrlik ishida Qozon tatarlarining ma‘rifatparvar shaxslaridan biri bo‘lgan Fotih Emirxonning “Tengsizlar” va “Yoshlik” dramalari turk tiliga o‘g‘irilgan, adabiy jihatdan tahlil qilingan.

6. Yildiz, Samet Ali. (2022). *Abdurauf Fitratning roman va hikoyalarida jadidchilik izlari*. Kastamo‘nu: Kastamo‘nu universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ushbu tadqiqot ham Samet Azap ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan. Unda Fitratning she‘rlari bilan bir qatorda, “Hind sayyohining qissasi”, “Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi”, “Yurt qayg‘usi”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari” asarlaridagi jadidchilik harakatining izlari o‘rganiladi.

7. Kahraman, Ali Yo‘ldash. (2023). *Jadidlar davri Qozon-tatar teatri va Galiesgar Kamol pyesalari (tarjima-tahlil)*. Mug‘la: Sitqi Ko‘chman universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Fatma Shahan Guneyning ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu tadqiqotda Oktabr inqilobidan keyin yozilgan Galiesgar Kamol dramalarining tarjimasi doirasida jadidchilik mavzularining tasnifini o‘z ichiga oladi.

Doktorlik dissertatsiyalari

1. Go‘kche, Hulya. (2008). *Jadidchilik davrida Idil-Ural hududida turk-tatar grammatika faoliyatlari*. Anqara: Anqara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ufuk Tavkul ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu tadqiqotda jadidchilik davrda yozilgan arab yozuvli tatar tilining grammatikasi bo'yicha tadqiqotlar va XX asr boshidan hozirgi zamon grammatika tadqiqotlari qiyosiy usulda o'rganilgan.

2. Kuchukag'ao'g'lu Tunch, Sinem. (2020). *O'zbek turkiylarining zamonaviylashuvida "Oyna" jurnalining o'rni*. Egey universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ilmiy rahbar sifatida Sherife Chag'in va Yavuz Akpinar ishtirok etgan ushbu doktorlik ishida avvalo Behbudiyygacha Turkistondagi ommabop nashrlarga to'xtalgan. Keyinchalik "Oyna" jurnali shakl va mazmun nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Tadqiqotning asosiy qismida "Oyna" jurnalidagi maqolalar ta'lim, adabiyot, til, matbuot, ijtimoiy-siyosiy mavzular bo'yicha tasniflanib, ularning o'zbek xalqi modernizatsiyasidagi roli o'rganilgan.

IV. Siyosatshunoslik yo'nalishida

Magistrlik dissertatsiyalari

1. Reyhan, Hakan. (2002). *Sultan Galiyevning siyosiy tushunchasi*. Anqara: Gazi universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Kadir Cangizbay ilmiy rahbarligida tayyorlangan ushbu magistrlik ishi qozonlik mutafakkir va siyosatchi, Osiyodagi musulmon turkiy xalqlarni federal sotsialistik davlat doirasida birlashtirishga qaratilgan harakatlari bilan tanilgan Mirsaid Sultan Galiyev bilan bog'liq. Unda davrning tarixiy/ijtimoiy sharoitlari bilan bir qatorda Galiyevning siyosiy faoliyatlari, Mulla Nur Vohidov va Galiyevning Musulmonlar komissarligi (MUSKOM) tarkibidagi faoliyati, bolsheviklar ma'muriyati bilan aloqalari, bular orqali Sulton Galiyevning siyosiy tafakkuri va Galiyev strategiyalarining bugungi kundagi ta'siri o'rganilgan.

2. Ishbilir, Asli. (2022). *Jadidchilikning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlari*. Qiriqqal'a universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Tadqiqot iqtisod sohasida Mehmet Dikkayaning ilmiy rahbarligi ostida tayyorlangan. Unda jadidchilik harakatining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri o'rganiladi.

Doktorlik dissertatsiyalari

1. Qillio'g'li, Mehmet Erkan. (2020). *O'zbekistonda to'rt tarz siyosat va o'zbek modernizatsiyasi: ruslashtirish, sovetlashtirish, o'zbeklashtirish va islomlashtirish*. Marmara universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Ilmiy rahbar sifatida Erhan Do'g'an ishtirok etgan bu doktorlik ishida O'rta Osiyoda modernizatsiya davri doirasida mintaqada va O'zbekistonda modernizatsiya jarayoni, bu jarayonning sabab va natijalari ko'rib chiqilgan. Garchi bir-biridan juda farqli ko'rinsa-da, XX asr O'rta Osiyoning modernizatsiyanishi tarafdorlari bo'lgan jadidchilar va ularning muxoliflari bo'lgan qadimchilar, hatto mustaqillik davrida yuzaga kelgan radikal guruhlarining barchasi modernizatsiya jarayonining natijasi ekani turli tahlillar orqali ta'kidlanadi.

2. Shilmambayev, Sayan. (2021). *Qozog'istonda uch tarz siyosat: jadidchilik, millatchilik, turkchilik (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)*. Anqara: Gazi universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Tevfik Erdem tomonidan ilmiy rahbarligi olib borilgan ushbu doktorlik ishida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qozog'iston siyosiy tuzilishining shakllanishi va qozoq millatining davlatchilik uchun kurashi tarixiy jarayonida vujudga kelgan jadidchilik, millatchilik va turkchilik deb nomlangan fikriy guruhlar tadqiq etilgan.

V. Pedagogika yo'nalishida

Magistrlik dissertatsiyalari

1. Po'lat, Umit. (2002). *Turk dunyosida ochilgan ilk jadid maktablari haqida tadqiqot*. Van: Yuzinchi yil universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Nejmettin To'zluning ilmiy rahbarligida amalga oshirilgan ushbu magistrlik ishida XIX-XX asrlardagi ta'lim-tarbiya jarayonlari haqida so'z yuritiladi. Usuli jadid maktablarida ayollar ta'limi, moliyaviy homiylari, Turkistonda va boshqa mintaqalardagi maktablar, bu maktablarda foydalanilgan ta'lim uslublari tadqiq etilib, usuli savtiyaning hozirgi Turkiya ta'limi bilan qiyosi berilgan.

2. Tinibek qizi, Janilmirza. (2019). *XIX-XX asr Turk dunyosida ta'lim islohoti faoliyatlari va usuli jadid harakatining ta'lim falsafasi nuqtai nazaridan tanqidi*. Sakarya: Sakarya universiteti ijtimoiy bilimlar instituti.

Dissertatsiya Rahmi Karakush ilmiy rahbarligida tayyorlangan. Tadqiqotda, jadidchilik harakatining ta'lim jihati falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek u ta'sir qilgan intellektual harakatlar haqida to'xtalib, rol o'ynagan muhim voqealar muhokama qilingan. Tadqiqot yakunida jadidchilik harakatining turkiy dunyodagi aks etilishi o'rganilgan. Jadidchilikning qanchalik o'ziga xos ta'lim harakati ekanligi Uyg'onish davri bilan o'xshash va farqli tomonlariga asoslangan holda tahlil qilingan.

Xulosa

Turkiyada jadidchilik harakati bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bularning katta qismi turli hajmdagi maqola va ilmiy ma'ruzalar bo'lsa, turli yo'nalishlarda magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari ham amalga oshirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida ushbu tadqiqotlar quyidagicha jadvalda ko'rsatilishi mumkin:

Yo'nalishlar	Magistrlik ishi	Doktorlik ishi	Jami
Tarix	14	4	18
Til va adabiyot	7	2	9
Dinshunoslik	2	3	5
Siyosatshunoslik	2	2	4
Pedagogika	2	-	2

Aytish mumkinki, Turkiyada dissertatsiya darajasida ilk tadqiqotlar tarix va dinshunoslik yo'nalishida amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yillarda til va adabiyot sohalarida tadqiqotlarning ortib borgan ko'riladi. Garchi Turkiyadagi o'rta va oliy ta'lim (bakalavr) dargohlarida jadidchilik harakati bo'yicha alohida fanlar mavjud bo'lmasa-da, doktorlik ishlari natijasida harakatning turli nuqtalardan yaxshi o'rganilgani e'tiborga molik. Shu bilan bir qatorda yuqorida ko'rsatilgan jami 38 tadqiqot orasida 14 magistrlik, 5 doktorlik (to'plam 19) dissertatsiyasining to'g'ridan-to'g'ri Turkistondagi jadidchilik harakati bilan bog'liq ekani anglashiladi. Ilk tadqiqotlar asosan Qozon, Qrim va Kavkaz mintqalariga qaratilgan bo'lsa, so'nggi yillarda Turkiston jadidchiligi va uning namoyandalari bo'yicha tadqiqotlar ko'paygani ma'lum bo'ladi.

MILLIY UYG'ONISH DAVRI FARG'ONA VODIYSI SHE'RIYATI VA TURKMAN, TATAR ADABIYOTIDAGI G'OYAVIY MUSHTARAKLIKLAR

**Oybek BARZIYEV,
O'zbekiston, FarDU, PhD.**

Annotatsiya. Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoirlari qalamiga mansub bo'lgan ijtimoiy mazmundagi ayrim she'rlar shu davrning turkman va tatar ijodkorlarining poetik meroslariga g'oyaviy jihatdan qiyoslangan. Shu bilan birga, ikki millat she'riyati o'rtasidagi badiiyat qirralarini ham yoritish maqsad qilib qo'yilgan.

Kalit so'zlar: shoirning o'z taxallusidan radif sifatida foydalanishi, hasbu hollik, ko'ngil holati, aldanish motivlari, dunyodan ko'ngil qolishi, qalb ingrashi.

Milliy uyg'onish davri turkman adabiyotining tipik vakili shoir Mullanas Qodirberdi o'g'li she'riyatida ozod yurt tantanasi tomon kurashish, yurt istiqloli uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan lirik asarlar uchraydi. Shoir o'z yurtida bo'lib o'tayotgan turli ko'ngilsizliklarga uning qo'riqchisi sifatida she'riyat maydoniga kirib keldi. U "Mullanas" nomli murabba' shaklida yozilgan jami 10 bandlik she'riga o'z taxallusini radif sifatida tanlaydi. Murabba'ning har bandida shoir o'ziga murojaat qilgan holda istiqlol g'oyalarini ifoda qiladi.

Shoir tanlagan uslubga yaqin holda ijod qilgan, yozgan g'azalida o'z taxallusini radif sifatida qo'llash an'anasi Qo'qon adabiy muhitining namoyandasi Muhayyir ijodida kuzatiladi.

Shoirning “Muhayyirman” radifli g‘azalida ifodalangan mavzu va ko‘tarilgan muammo Mullanafas she‘ridagi mazmun bilan mushtaraklikka ega:

G‘aflat uyqusida qolding,
Uyg‘on endi, Mullanafas.
Goh sarg‘ayib, gohi so‘lding,
Uyg‘on endi, Mullanafas.

Muhayyir g‘azalida shoir taxallusi o‘zini batafsil tanishtirishga qaratilgan. Farqli jihati shundaki, shoirlardan biri taxallusi orqali o‘ziga murojaat etsa, ikkinchisi hasbu hol xarakterida ruhiy olami bilan o‘rtoqlashadi:

Toki tanidim, bildim sen sho‘xi parivashim,
Aqlimdanu xushimdan begona Muhayyirman.
Ey, sh‘x, jamolingni sham‘iga kuyib-yonib,
O‘rtangani har soat parvona Muhayyirman. [1, 175]

Mazkur shoirlar she‘riyatida o‘z qalbining shikasta bo‘lganligiga ishora qilish yoki uning vayron bo‘lish an‘anasini tasvirlash ishqiy muammolar asosida yoritib berilgan. Ular bu kabi tashbehlar orqali o‘zi yashab o‘tgan muhitda jamiyatdagi real hayot turmush tarzi bilan ko‘ngil holatlarini uyg‘unlashtirgan holda yoritib berganlar:

Qursin-ay yorning firoqi,
Bu dunyo emasdir boqiy.
Shikastlab hijronning o‘qi,
Tegdi, uyg‘on, Mullanafas.

Yuqoridagi mazmun va shoir uslubi Muhayyir ijodida quyidagicha davom etadi. Unda shoirning ko‘ngli buzilganlik holatidan voqif bo‘lamiz. G‘azal baytlari orqali hazrat Alisher Navoiyning “Ko‘ngilning buzilishi – Ka‘baning vayron etilishi”ga qiyos qilingani haqida yozgan sharqona falsafasi yodga tushiradi:

Sen shoh parilarg‘a, ey laylivashim, bilsang,
Majnun kabi bu hayyola devona Muhayyirman.

Bir Ka‘ba bino qilmoq maqsuding agar bo‘lsa,
Tuzgilki bugun ko‘ngli vayrona Muhayyirman.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tatar xalq poeziya san‘ati bilan ham boyib borganligi ma‘lum. Tatar shoiri Said Lutfulla o‘g‘li Ramiyev she‘riyatida aldangan va erk-huquqi toptalgan yurt manzarasi hamda lirik qahramon ruhiyatida jamiyatda ko‘r-ko‘rona yurgizilayotgan siyosat tufayli ingrash motivlari uchraydi. Shoirning ayrim she‘rlari ham Tohir Qahhor tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Uning “Aldanish” deb nomlangan she‘rida o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan yurtdagi kishilarning subutsizligi realistik holda aks ettirilgan:

Qoldi ko‘nglim bu jahondan –
Yo‘qdir, unda hech subut.
Yo‘q haqiqat, aldagay u,
Suv desam men, u der o‘t. [2, 1]

Shoirning fikricha, bu olam bir sarobga aylanib ulgurgan, unda o‘lik va tiriklarning deyarli farqi qolmagan:

Bir sarobdir olam ahli,
Bor na yerlar, bor na ko‘k.
Yo‘q tabiat, yo‘q xaloyiq,
Na o‘lik bor, na tirik.

Said Ramiyevning bu dunyodan ko‘ngli qolishi motivlari bilan bog‘liq his-tuyg‘ulari Qo‘qon adabiy muhitiga mansub bo‘lgan ijodkor Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy g‘azali bilan mazmunan o‘xshash sanaladi. G‘azalning quyidagi baytlari olamda uning holini tushunuvchi bir hamdard mavjud emasligi, shuning uchun kechalari oromi yo‘qligi, tunlari uyqusiz, uyg‘oq ko‘zlar pallas kelganligi, odamlari suhbat ham muz kabi sovuq bir davrda yashab ijod etganligi haqida xabar beradi.

Topmadim olamda holim bilguchi ahli ramuz,
 Shul sababdin kechalar orom yo‘q, bexob ko‘z.
 Shoirlar qalamiga mansub bo‘lgan keyingi band va misralar ular yashab ijod etgan davr va jamiyatda yolg‘onchilik, lafzsizlik urchib borayotganligiga ishora qiladi:
 Bu real holat va manzara Said Ramiyev qalamiga mansub she‘rda
 Yo‘q chini hech narsaning,
 Chin faqat xor-zorligim.
 Bitdim, aldandim, yonurman...
 Bir yonar o‘t borligim –
 tarzda davom ettirilsa, Muhsiniy ijodida u yashab ijod etgan davrdagi suhbatlar bemaza, “tuzsiz” ekanligi va uning egalariga quyidagicha nisbat beriladi:
 Xashvu lag‘vu bemaza ham benamak guftorlar,
 So‘zlarini ichida yo‘qtur chunonchi zarra tuz.
 Said Ramiyevning ijodida ifodalangan alamzadalik holatlari yurtida ozodlik shabadasi esishiga bo‘lgan ishonch tobora so‘nib borayotganligi bilan dalolatlanadi. Shoir yechimini topolmayatgan jumboqlar va savollar iskanjasida azob chekadi. Lekin u savollariga muhim javob topolmaydi. U zulmat ortidagi kunlar ketib, tezroq “tong otishi”ni intizorlik bilan kutadi:
 Teskari dunyoga lan‘at!
 Menga har dam ters boqar,
 Ishq o‘tin yoqsam, u doim,
 Ayriliq shamin yoqar.
 Mazkur bandlarga uyg‘un ma‘no Muhsiniy ijodida yana davom etadi. Shoir o‘zi yashab o‘tgan zamonni “zulmatxona” deb ataydi va qora kunlarni boshidan kechirayotganligini aytib o‘tadi:
 Xayfki, behudalig‘ birla kechurding umrni,
 Ki, havou nafs ra‘yi birla qishu yozu kuz.
 Oftobi sharni qilduk zalilu poymol,
 Endi zulmatxona kunjida yoturmiz tiyra ro‘z. [3, 99]
 Shoir g‘azalida qo‘llagan “tiyra ro‘z”, ya‘ni “qora kun” sifatlashi haqiqatan ham, u yashab ijod etgan zulm-zo‘ravonlik avj olgan, aholining turmush tarzi tubdan izdan chiqib borayotganga haqida ogohlantiradi.
 Said Ramiyev she‘rida qo‘llangan “qora baxt” tavsifi ham Muhsiniy ijodidagi “tiyra ro‘z” ifodasi bilan almashgan holda mazmunan mushtaraklik kasb etadi.
 Tatar shoiri Said Ramiyev she‘rida ko‘ngil kechinmalarini yashirmay yoritish, ularni ro‘y-rost ochib berish holatlari oshkora ifodalangan. U “Ingra, ko‘nglim” nomli she‘rida qalbining zamonaning zo‘rligidan bezigan, alamga to‘lgan holatlariga murojaat qiladi. Bu murojaat she‘r satrlarida “ingra” so‘zining bir necha marta takrorlanishidan, unga alohida urg‘u berilganligidan yanada oydinlashadi. Shoir qalbida yig‘ilib borayotgan iztiroblarini “ingramoq” sifatlashiga ko‘proq yuklagan holda ifoda etadi:
 Ingra, ingra, ingra, ko‘nglim,
 Ingra, bir on to‘xtamay!
 Ingra oylar, ingra yillar,
 Ingra kun-tun to‘xtamay...
 Milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysi she‘riyatida ko‘ngillarning ingrashi va yig‘lashi holatlari bilan bog‘liq holdagi an‘anaviy poetik turkumlilik saqlanib kelgan. Vodiyning bir qator shoirlari o‘zlarining lirik asarlarida goh ijtimoiy tuzum ostidagi hayot zarbidan, goh shaxsiy hayotlarida yuz bergan turli ko‘ngilsizliklar tufayli faryod solib yig‘laganlar.
 Tatar shoirining tanlagan uslub va ko‘ngil kechinmalariga hamohang holda Abdulhamid Cho‘lponning “Ko‘ngil” nomli she‘rida mazmuniy yaqinlik mavjud. Shoir she‘ri ham ko‘ngilga murojaat qilishdan boshlanadi. Unda ham faryod qilishga va dod solishga majbur bo‘lib turgan kishilar hayoti aks ettiriladi. Mohiyat ehtiboriga ko‘ra, har ikki she‘rda ham lirik qahramon –

shoirlarning o'zlari bo'lib, ular jamiyat aholisi tilidan nutq so'zlagani holda erkinlikka mushtiq bo'lgan ko'ngil holatlarini yoritib beradilar:

Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding? [4, 444]

Said Ramiyev ham shoir Cho'lpon kabi ijtimoiy hayotning tobora tubanlik botqog'iga botib borayotganligining guvohi bo'lib, she'r misralarida yurakdan ingrab yozadi. U yuragidan qaynab chiqayotgan hasratlarini o't deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoirlari Muhayyir, Abdulhamid Cho'lpon, Husaynquli Muhsiniylarning qalamiga mansub bo'lgan ijtimoiy mazmundagi ayrim she'rlar shu davrning turkman va tatar ijodkorlarining poetik merosiga uyg'un jihatlar kuchli seziladi. Dunyoni tubdan yangilanish ehtiyoji tug'ilgan aynan bir davrda yashab ijod etgan qardosh millat vakillari, ya'ni o'zbek, turkman, tatar shoirlari ijodida jamiyatning noraso yurgizilayotgan siyosatidan ko'ngil qolish motivlarini oshkora kuyladilar hamda ularning ijodida aholini birlik tomon chorlash, ozod va obod Vatan istiqbolini ko'rish yo'lidagi yagona istak ostida birlashish g'oyalari ilgari surildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаййир. Девон / Нашрга тайёрловчи: Деҳқонов А. – Тошкент: Мухаррир, 2010.
2. [www.ziyo.uz.com.Tataradabiyoti.SaidRamiyevshe'riyati](http://www.ziyo.uz.com/Tataradabiyoti.SaidRamiyevshe'riyati).
3. Мухсиний. Барҳаёт гулшан. (Девон) / Нашрга тайёрловчи: Неъматов У. – “Фарғона” нашриёти, 2008.
4. Чўлпон. Яна олдим созимни / Тўпловчилар: Каримов Н., Турдиев Ш. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

TURKISTON MADANIY HAYOTINING TURK MATBUOTIDA YORITILISHI

Sarvarbek TULIBOYEV,
O'zbekiston, TerDU, o'qituvchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlari turk matbuotida Turkiston madaniy hayotiga doir qarashlar, jumladan, jadidchilik harakati, millat oydinlarining matbuotdagi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, asr boshidagi ijtimoiy-maishiy, siyosiy-iqtisodiy holatning matbuotda yoritilishi va bunga turk matbuotining ta'siri haqida atroflicha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: matbuot, jadidchilik, Turkiston, gazeta, madaniy hayot.

Ushbu mavzuda so'z yuritar ekanmiz, avvalo, Turk matbuotining paydo bo'lishi haqida biroz ma'lumot berib o'tishni lozim topdik. Dunyo turklari orasida matbuotning paydo bo'lishi ilk marta Usmonlilar imperiyasi davrida ko'zga tashlanadi. Aytish mumkin, qator jabhalarda ilg'or sanalgan Usmonli imperiyasi bu borada g'arbdan anchagina ortda qolgan edi. G'arbda ilk matbaaga 1436-yilda nemis olimi Iogann Gutenberg tomonidan asos solinib, birinchi kitob 1440-yilda nashr etilgan. Usmonli Imperiyasi o'sha davrda gullab-yashnagan bo'lsa-da, salkam 300 yilga yaqin kechikish bilan birinchi turk bosmaxonasi 1727-yilda tashkil etilgan. Ayrim manbalarda Usmonlilar imperiyasida matbaachilikning kech rivojlanishiga davr din ulamolari tomonidan ko'rsatilgan qarshiliklar sabab qilib ko'rsatilgan.

Ba'zi tadqiqotchilar ushbu taxminlar asossiz deb bilishadi. Jumladan, professor Nurettin Guz “Bosmaxonaning mamlakatga kech kirib borishi va uning rivojlanmaganiga din va ulamoning hech qanday aloqasi yo'q. Ular bosmaxonaga qarshi bo'lmagan, aksincha, uning tashkil etilishi ulamolar tomonidan qo'llab-quvvatlangan”- degan fikrlarni bildirib o'tadi [1, 166].

Texnik taraqqiyotning yetarli emasligi bosmaxona rivojlanmaganligining asosiy ikkinchi sababi sifatida ko'rsatiladi. Shuning natijasida 1742-yilda qog'oz taqchilligi boshlanib, qog'oz

ishlab chiqarish sexini tashkil etish uchun mamlakatga Polshadan ikki usta olib kelinishi manbalarda qayd etiladi [1, 166].

XVIII asrning birinchi yarmidagi 13 yil, ya'ni 1718–1730-yillar turk adabiyotida “Lola davri” deb yuritiladi. Bu atamani birinchi bo‘lib Yahyo Kamol qo‘llagan. 1913-yil Ahmad Rafiq Oltinoy e‘lon qilgan “Lola davri” nomli kitob bu davrning o‘ziga xos o‘rni borligini, adabiyotda, san’atda rivojlanish davri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Turk adabiyoti tarixida “Lola davri” deb atalgan bu davrning muhim voqealaridan biri Istambulda bosmaxonaning ochilishidir. Parijga elchi sifatida jo‘natilgan Mehmed Chalabiyning o‘g‘li Mehmed Said Afandi, asli Vengriyada tug‘ilgan, islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafrrika (1674–1745) bilan hamkorlikda sultonning va shayxulislomning roziligini olib, 1724-yili Istambulda birinchi turk nashriyotini ochadilar. Ayrim qarshiliklarga qaramasdan nashriyot 1729-yili ishga tushadi. 1729–1742 yillarda tarix, geografiya, grammatika, lug‘at, sayohatnomalar kabi 17 nomda kitoblar bosiladi. Bu madaniy hayotdagi katta voqea edi [2, 107–108].

Bugungi Turkiya hududida chop etilgan birinchi gazeta Sulton Mahmudxon II davrida 1831-yil 11-noyabrda Istanbulda nashr etilgan “Taqvimi vaqoye” (Voqealar taqvimi) nomli rasmiy gazetadir.

Bu Usmonlilar imperiyasi chegaralarida nashr etila boshlangan birinchi Usmonli turk gazetasi edi. Gazeta Usmonli turk tilidan tashqari arab, arman, fors, fransuz va yunon tillarida nashr qilinadigan haftalik gazeta bo‘lib, rasmiy va norasmiy e‘lonlar bilan bir qatorda, imperiya ichidagi hamda xorijdagi muhim voqealarga oid yangiliklar ham chop etiladi.

“Taqvimi vaqoye” rasmiy gazeta bo‘lgani uchun maqolalarda asosan davlat qarashlari ko‘proq aks etgan. 1860-yildan boshlab faqat rasmiy e‘lonlar va imperiyada qabul qilingan qonun matnlari ko‘proq nashr etila boshlandi.

Shuningdek, gazetada Usmonli imperiyasi siyosatini boshqa davlatlarga yetkazishda, shuningdek, xalqaro munosabatlarda ham o‘ziga xos vosita vazifasini bajargan deyish mumkin.

“Taqvimi vaqoye”dan to‘qqiz yil o‘tib “Jaridayi havodis” gazetasi o‘z faoliyatini boshlaydi. Mazkur gazeta Uilyam Cherrill ismli ingliz tomonidan chop etiladi. Gazeta jamoasi mahalliy aholidan iborat bo‘lib, davlat ruxsatisiz uning nashr qilinishi, xohlagan mavzuda yozishi mumkin emas edi. Biroq, uning xorijdagi vaziyatni turk kitobxonlariga yetkazishi, dunyodagi yangi ixtirolar, topilmalar haqida imperiya aholisiga ma‘lumotlar berib borishi mumkin edi va bu holat, tabiiyki, aholi orasida gazetaga bo‘lgan qiziqishni oshirgan [3, 44].

Ma‘lumki, Usmonlilarda nashr etilgan dastlabki gazetalar faoliyati hukumatning qat’iy nazorati ostida bo‘lib, 1860-yillarda shaxsiy sa’y-harakatlar natijasida “Tarjimoni ahvol” gasetasi yuzaga keldi.

Tanzimot adabiyotining timsoli va boshlanishi bo‘lgan “Tarjimoni ahvol” 1860-1866 yillar oralig‘ida Istanbulda nashr etilgan birinchi xususiy gazetadir. 1860-yil 22-oktyabrda Ogoh Afandi va Shinosiy tomonidan faqat yakshanba kunlari chiqadigan gazeta 1861-yil 22-apreldagi 25-soni bilan haftada uch kun (yakshanba, seshanba, payshanba) kunlari nashr etila boshlanadi. Vaqt o‘tishi bilan gazeta “Jaridai havodis” gazetasi bilan raqobatlashish uchun nashrini besh kunga uzaytiradi. Bu gazetada Ahmad Vofiq Posho, Ziyo Posho va Rafiq Beylarning maqolalari tez-tez bosilib turardi. Bu maqolalarda Usmonli jamiyatining qoloqligi sabablari va o‘lkada sodir bo‘layotgan voqealar muhokama qilinib, ba’zi jihatlar tanqid ostiga olinardi.

Turkiyada 2-konstitutsiyaviy monarxiyaning e‘lon qilinishi bilan matbuotda senzura qo‘yilgan ta’qiq bekor qilindi. Usmonli imperiyasida yashagan turli til va dinlarga mansub har bir xalq o‘z fikrlarini bildirgan gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi [4, 141]. Ma‘lum bo‘lishicha, Ikkinchi Konstitutsiyaviy monarxiyaning dastlabki uch yilida 607 ta davriy nashr nashr etilgan. Shuningdek, keyingi yillarda, jumladan, 1908-1918-yillar oralig‘ida 918 ta davriy nashrlar nashr etilgan. Bulardan 722 ta turk, 49 ta fransuz, 42 ta fransuz-turk, 11 ta ingliz, 67 ta arman, 5 ta arman-turk, 70 ta yunon, 3 ta nemis, 11 ta arab, 1 ta arab-turk, 5 ta fors, 1 ta fors-turk, 1 ta alban, 5 ta turk-kurd, 3 ta turk-cherkes tilida, ibroniy tilida 8 ta, serb-turk tilida 1 ta,

bolgar tilida 1 ta, rus tilida 1 ta va yana 25 ta xorijiy tillarda hamda turkiy tillarda jami 1038 ta gazeta va jurnal nashr etilgan [5, 215].

Turli mafkura va da'volar bilan paydo bo'lgan matbuot nashrlari orasida islomiy va turkiy (yoki turonchi) jurnal va gazetalar alohida o'rin tutadi. Bu davrda deyarli har bir nashrda Usmonlilar davlati va uning tashqarisidagi turk hamda islom dunyosida sodir bo'layotgan voqealarga alohida o'rin ajratiladi. Mintaqaga oid xabarlar bilan bir qatorda, turkiy-turonchi va yangilikchi-islomchi yozuvchilar hamda ziyolilarning maqolalari tez-tez ko'rina boshladi. Ayni paytda Turkistonda juda faol davr boshlanganligi, (jadidlarning maydonga kela boshlashi (*S.T.*)), Rossiyaning o'zgarib borayotgan boshqaruvi va tobora og'irlashib borayotgan "ruslashtirish" siyosati ham turk matbuotida kundalik dolzarb masalaga aylanib bordi [6, 152].

O'sha davrning eng muhim islomiy nashri, shubhasiz, birinchi soni 1908-yil 24-avgustda nashr etilgan "Siroti Mustaqim" jurnali edi. Jurnal Rossiya hukmronligi ostida yashagan musulmon turklarning diniy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy faoliyati bilan yaqindan qiziqdi. Shunga ko'ra jurnalning turli sonlarida chor Rossiyasi rejimi va ma'murlarining musulmon turklarga nisbatan o'zlashtirish va bosim siyosatlari maqola va xabar sifatida keng muhokama qilindi. Jurnalda Rossiya turklari, jumladan, turkistonlik ziyolilarning maqola va maktublari ham o'rin olgan bo'lib, bular orqali o'quvchilar musulmon turk dunyosidan xabardor bo'lishlari mumkin edi [7, 8].

"Siroti Mustaqim" dunyo musulmonlarining "ovozi" bo'lgani bilan ham diqqatga sazovor edi. Shuningdek, yana bir muhim jihati uning sahifalarida rus turklariga oid yangiliklarning kengroq yoritilganligi bo'ldi [8, 18].

Xususan, Turkiston jadidchilarining yetakchisi Mahmud Xo'ja Behbudiyning bir qancha maqolalari mazkur jurnalda ommaga taqdim etiladi.

Ayniqsa, Buxoro haqidagi maqolalarni tez-tez uchratish mumkin. Qolaversa, "Siroti Mustaqim"ning Buxorodagi maxsus muxbiri bo'lgan G'iyosiddin Hasaniy ismli muallifning Buxoro haqida ba'zilar imzolangan, ba'zilar imzosiz ko'plab maqolalari bor. Hatto Buxoroda sodir bo'lgan tarixiy voqealar, masalan, 1910-yil fevralida sunniy va shia o'rtasidagi to'qnashuv "Buxorodan Muxobiru Maxsus" sarlavhasi bilan batafsil bayon etilgan. Professor Z.Abdurashidov o'z tadqiqotlaridan birida Buxoro haqidagi ilk xabar "Siroti Mustaqim" jurnalining 1909-yil 21-oktabrdagi 57-sonida e'lon qilindi, deb ma'lumot berib o'tadi. Shuningdek, 1909-yil kuzida yangi usul maktabi atrofidagi tartibsizliklar va 1910-yil yanvaridagi shia-sunniy nizolaridan so'ng turk matbuotida Buxoroga bag'ishlangan materiallar soni juda ko'payganini kuzatish mumkin. Ushbu maqolalarda, asosan Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayot ko'proq tahlilga tortiladi. Ammo, Buxoroga bo'lgan qiziqish tez orada so'nadi. 1912-yildan boshlab Turkiston mavzusi turk nashrlari kun tartibidan deyarli tushib qoladi. Voqealarning bunday kechishiga, ehtimol, Bolqon yarim orolida boshlangan harbiy harakatlar sabab bo'lgandir, deydi olim [9, 79].

Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ta'siri shu qadar bo'ldiki, birgina Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallarning sayohatchilar, ziyoratchilar va savdogarlar orqali Turkistonga kirib borishi pirovardida jadidlar nafaqat, islom olamidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lishdi, qolaversa, ular (jadidlar) ko'pgina jihatlarni o'z faoliyatlari davomida qo'llay boshladilar. Bu haqida Sadriddin Ayniyning xotiralarida bir qancha ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudi, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi asrning ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Eron va Turkiyada sodir bo'lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabarlar ham aynan shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi.

Jadidparast yoshlar orasida Istanbul va boshqa musulmon shaharlardan kelayotgan gazetalarining ta'siri sezila boshlaganidan Buxoro amiri Rossiya hukumati bilan hamkorlikda gazeta o'qilishining oldini olish choralarini ko'ra boshlaydi. "Siroti Mustaqim"ning faoli,

mashhur islom sayyohi va yozuvchi Osiyoning ko'p joylariga sayohat qilib, "O'lami Islom" nomli kitob yozgan Abdurashid Ibrohim (1857-1944) Buxoro madrasalarida ko'rgan manzarasini "Qozonlik rus zobiti Buxoro madrasalarida "zararli" nashrlar tarqalayotganligi, ayrim jurnallarda buzg'unchi g'oyalar singdirilgan maqolalar yozilayotganligi va bu maqolalarga xayrixohlik talabalar orasida keng tarqalayog'naligini tekshirgan" ligini eslab o'tadi [10, 50].

Manbalardan shun narsa ma'lum bo'ladiki, Turkistonda "Siroti Mustaqim"dan keyin e'tiborni tortgan yana bir nashr "Taarufi Muslimin" jurnali ekanligini taxmin qilish mumkin. Gazeta asosan e'tiborini Rossiya musulmonlarining ozodlik kurashiga qaratgan. "Taarufi Muslimin"ni boshqargan shaxs asli kelib chiqishi Buxorolik Abdurashid Ibrohimdir. Gazetada Rossiya hududlari ayniqsa Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar aks etgan maqolalar tez-tez bosilib turardi. Ba'zi hududlarda jurnalning ko'ngilli muxbirlari bor edi. Masalan, Buxorodan yozganlar orasida faqat Abdurauf Fitrat o'zining aniq imzosi bilan maqolalar bergan bo'lsa, boshqalar esa taxallusdan masalan, "Sherik" yoki oddiygina "Buxoro muxbiri"dan foydalanganlar.

Gazetadagi Turkistonga bag'ishlangan maqolalarda o'lka ruslar qo'lida qolib, qiynoqqa solinganligi katta tashvish bilan ifodalangan. Ba'zilar Buxoro amiri va boshqa amaldorlarni befarqlikda ayblar ekan, hukmdorlarning o'ylamasdan qilayotgan ishlari haqida gapiradilar. Turkiston masalalarini tez-tez kun tartibiga olib boradigan nashr, albatta, mintaqada katta qiziqish uyg'otadi. Chunki Buxoro jadidlari yetakchilaridan biri Abdurauf Fitratning Buxoro vaziri Nasrulloh Parvonachiga ochiq maktubi ushbu gazetada e'lon qilingani bejiz emas. Nasrulloh bekning bosh vazir etib tayinlanishi munosabati bilan fors (tojik) tilida yozilgan maktub turkiyga tarjima qilinmasdan asl holida hijriy 1328, milodiy 1910 yil, 25-adad, 2-jild; 8-dekabr, payshanba sonida e'lon qilingan. Asarni dastlab fors tilidan tarjima qilib, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1996-yil 9-may sonida e'lon qilgan H. Boltaboev o'zbek fitratshunosligiga shu kungacha noma'lum bo'lgan bu maktubni taqdim etgan Tokio universiteti professori, doktor Xisao Kumatsuga minnatdorchilik bildirib o'tadi [11, 3].

Turkistonda yangi g'oyalarning tarqalishiga hissa qo'shgan yana bir Usmonli nashri Ahmad Hilmiy tomonidan Istanbulda nashr etilgan "Hikmat" gazetasidir. "Hikmat"ning birinchi soni 1910-yil 21-aprelda chiqqan. Ahmad Hilmiy ushbu gazetasida Turkiston masalalariga ham e'tibor qaratgan. Abdurauf Fitratning maqolalari esa gazetaning O'rta Osiyodagi o'quvchilari sonini oshishiga xizmat qilgan. Fitrat bu gazetada maqolalarini asosan, fors tilida nashr ettiradi. Gazetada bir yilga yaqin faoliyat ko'rsatgan Fitratning jami yettita maqolasi chop etiladi. Bundan tashqari, Fitrat 1910-yil davomida o'zining mashhur "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlari ustida ishlagan. 1911-yili Fitrat, qiyin moddiy ahvoriga qaramasdan, turli joylarda ishlab topgan pulidan jamg'argan mablag'iga Ahmad Hilmiyning "Hikmat" nashriyotida o'zining yuqorida nomi zikr etilgan ikki badiiy asari va "Sayha" she'riy to'plamini chop qiladi.

Turkiston bilan qiziqqan va bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida tez-tez "gapiradigan" matbuotdan yana biri "Turk Yurdu" jurnalidir. Mashhur turkiyshunos olim Zaki Validiy Tog'on o'zining "Xotiralar"ida Turkistondagi safari davomida ko'rgan-kechirganlarini xotirlar ekan, "...Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir To'raqul bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) menga alohida yaqin do'stlar bo'ldilar. Nazir o'sha vaqtda vatanparvar turkchi edi. Istanbulda chiqadigan "Turk yurti"ni o'qirdi" – deydi olim [13, 132].

Qrimda jadidchilikning asoschisi Ismoilbek Gaspirali tomonidan 1883- yildan beri nashr etilgan "Tarjumon" gazetasi Turkiston madaniy hayoti taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Sadriddin Ayniy chet el matbuotining mintaqaga kirib kelishi haqida gapirar ekan, "Tarjumon"ni alohida tilga oladi:

"... Hayrat Hindistonda fors tilida chiqadigan "Hablul matin" gazetasini, Misrda fors tilida bosiladigan "Chehranamo" gazetasini ba'zan qayerlardandir topib kelar edi. Biz bu gazetalar orqali dunyoning ahvoli bilan oz bo'lsa ham tanishar edik. O'sha vaqtlarda Abdulqodir maxdum degan bir saboqdoshimiz bo'lib, qayerdandir "Tarjimon" gazetasini topib kela boshladi. "Tarjimon" qrimda nashr qilinardi edi, uning yarmi tatarcha, yarmi ruscha edi" [14, 63-64].

Turk matbuoti faqatgina Turkiston matbuotiga ta'sir qilib, uni "uyg'otib"gina qolmadi. Pirovardida yangi usuldagi maktablarning aynan jadidlar tomonidan tashkil etilishi millatni ma'rifatli qilish yo'lidagi yana bir keskin burilish edi. Chor hukumati "ruslashtirish" siyoasi natijasida Turkistonga ko'chirib kelingan "mujik"larning boshlarini silab, mahalliy xalqni ezish va feodal qoloqlik sharoitda ushlab turish uchun misli ko'rilmagan tubanliklarni amalga oshirdi. Natijada, mahalliy xalqning har jabhadagi ahvoli chidab bo'lmaz darajada mushkullashdi.

Turkiston xalqlarining shu davrdagi hayoti, dunyoqarashi, saviyasi, mentalitetga xos salbiy xislatlar, tobora ildiz otib borayotgan illatlar Behbudiyning "Padarkush" pyesasida, Fitratning "Munosara"sida, Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" hikoyalari va va boshqa o'nlab jadid adabiyoti namunalarida qattiq qoralandi. XX asr boshlaridagi turmushning o'ta ayanchli holatga kelib qolganligini o'z ko'zlari bilan ko'rgan ziyolilar, yuqorida nomlari tilga olingan gazeta va jurnallarni o'qiganlaridan keyin, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydilar. Ismoil Gaspirinskiy 1893-yili Samarqand va Buxoroga tashrifi davomida M.Behbudi va A.Shakuriy singari millat peshqadamlari bilan tanishishi asnosida Buxoroda tashkil etilgan "usuli jadid" maktabi, keyinchalik Samarqand, Qo'qon, Toshkent, Andijon singari shaharlarda ham jadid maktablari tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, millat oydinlari xalqni ma'rifatli qilish, ularga yo'l ko'rsatishning eng qulay usuli sifatida matbuotdan foydalandilar. Gazeta va jurnallarning nashr etilishi butun turkiy adabiyotga yangi janrlar: maqola, roman, hikoya, tanqid kabi janrlarning kirib kelishiga yo'l ochdi. Islohotchilar xalqni savodli qilish, yangi yaratilgan adabiyotni ommaga tanishtirish maqsadida ularga yetib boradigan eng qisqa yo'l "gazeta"dan foydalanganlar.

Ta'kidlash joiz, Turkiston matbuot vositasida qardosh va maslakdosh, tildosh va dindosh turk olamiga chiqdi. Ular bilan o'z taqdirini bir ko'rib, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir tanu-bir jon bo'lib kurashishga ishonch hosil qildi. Bir so'z bilan aytganda, jadid matbuoti millatni uyg'otib, uni mustaqillik uchun tayyorlashni sharaf bilan amalga oshirdi va eng qiyin vaziyatlarda ham millat yonida turdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Nurettin, "Türkiye'de Matbaanın Kurulması", Gazi Üniversitesi Basın-Yayın Yüksekokulu Dergisi, 1986-1987/8-9, Ankara, 1989.
2. A.Alimbekov. Turk adabiyoti tarixi (XIII-XVIII asrlar). O'quv qo'llanma. Toshkent – 2005.
3. T.Hıfzı, 2. Mahmut'tan Holdinglere Türk Basın Tarihi, Remzi Kitabevi, İstanbul, 2014.
4. D.Oya, II. Meşrutiyet'in İlanının İstanbul Basını'ndaki Yansımaları (1908), İ.Ü.Siyasal Bilgiler Fakültesi Dergisi, No:38 (Mart 2008).
5. O.Süreyya, Türk Basın Tarihi 1728-1922 1831-1922: Osmanlı İmparatorluğu Dönemi, Oral Yayınları, Ankara, 1970.
6. Ö. Seveda, Meşrutiyet Dönemi Basımından Örneklerle Türkistan, Kesit Yayınları, İstanbul, 2016.
7. K.Hisao, 20.Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri, Turhan Kitabevi Yayınları, Ankara, 1993.
8. Ö.Nadir, Abdürreşid İbrahim'in İkinci Meşrutiyet Yılları: Tearüf-i Müslimin ve İslam Dünyası Dergileri, Toplumsal Tarih, v.4, n.20, August 1995.
9. Z.Abdurashidov. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi: Istanbuldan bir nazar.// "O'zbekiston: til va madaniyat"// 2022-y. №3.
10. I.Abdürreşid, 20. Asrın Başlarında İslâm Dünyası, İstanbul 1987.
11. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati"/ 1996 yil 9-may, № 19.
12. Z.Validiy To'g'on. "Xotiralar". Tarjimon: Sh.Turdiyev. "Sharq yulduzi" 1993-y. 5-6-sonlar.
13. A.Sadriddin, "Qisqacha tarjimai holim", Tanlangan asarlar. 8 jildlik, 1-jilt, "Badiiy adabiyot", Toshkent–1960.

4-ШҮҮБА. ЖАДИДЧИЛИК ВА ТУРКИЙ ТИЛЛАР МУАММОСИ

ВЫРАЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВ ЛЕКСИЧЕСКИМ ПУТЕМ НА ТУРЕЦКИХ ЯЗЫКАХ

Хаджар ГУСЕЙНОВА,
Азербайджан, Азербайджанский Государственный
Педагогический Университет, профессор

Аннотация. Широко использовалось лексическое выражение количества на разных языках мира, в том числе турецких. Этот метод связан с древними временами развития мировых языков. На азербайджанском языке: *çox-çox*//много-много, *təzə-təzə*//свежий-свежий; на русском языке: *большой-большой*; на японском языке: *си-животное*; *си-си-животные* и т. д.

До недавнего времени грамматическая категория количества в Азербайджано-турецкой лингвистике не становилась объектом систематического и всестороннего анализа. Как и другие категории, количественная категория была в центре внимания многих лингвистов в разное время, но до недавнего времени проблема, которую мы изучали, не получала всестороннего и систематического изучения.

С древних времен лексические единицы на Азербайджанском и в других тюркских языках выражали содержание количества. Вот несколько примеров архаических турецких слов, которые пользовались в древнетюркских письменных памятниках, таких как: *tük*//*тук*- множество; *kör*//*коп*-все вокруг; *okus*// *окус*- более; *ükün*//*укун* - группа; *arqa*// *арга* – *множест- во*; *qatı*// *гаму* - все и так далее.

Однако многие лингвисты рассматривали категорию количества прежде всего как философскую категорию. При таком подходе необходимо говорить о количественном проявлении общества - всех формах объективной реальности. То есть нужно учитывать количество вещей, качество, движение и другие процессы.

В исследовании использовались историко-сравнительный метод и современные лингвистические методы.

Вывод, который мы сделали из исследования, заключается в том, что слова которое выражают количества использовались в тюркских языках с древних времен: слова *топакуча*; *сыкма-горстка*, *конопля*; *хишма- горстка* и другие, встречающиеся в диалектах и в настоящее время, имеют значение количества. Мы видим, что в древнетюркских письменных памятниках, а также в диалектах нашего языка глаголы, употребляемые с этими словами, иногда принимают форму множественного числа с суффиксами; Один из лексических способов выражения количества – эти слова означающие множества, используемых в разных турецких языках; Процесс повторного использования слов в турецких языках без исключения выражает количественную множественность объекта или понятия (полное и неполное редупликация); Иногда в лексическом выражении количества может использоваться повторение разных слов: *uşaq-tuşaq*// *ушаг-мушаг*; *şəhər-məhər*// *шехер-мехер* ...

Ключевые слова: количества, множественность, лексема, категория, турецкий, редупликация

ВСТУПЛЕНИЕ:

в выражении количества лексическим путем, объекты исторически сравнивались друг с другом, иногда сравнивались количество или качества вещей. Лексическое выражение количества широко использовалось в различных языках мира, включая турецкий. Этот метод также связан с древними временами развития мировых языков.

Существительные имеющие в себе множества, встречающиеся во многих языках мира, используются как архаичные языковые единицы, сохраняющие следы древности.

В древние времена использование повторения слов для выражения количества лексическим путем, как редупликация, наблюдалось в языках многих народов, а также в тюркских и азербайджанских языках. Например; На азербайджанском языке: *çox-çox*// чох-чох (очень много), *təzə-təzə*// тезе-тезе (свежее-свежее); по-русски: большой-большой; по-японски: си-животное; си-си// животные и др.

1) Выражение количества лексическим путем в древнетюркских языках

В азербайджанском и других тюркских языках лексические единицы с древних времен выражали количественное содержание. Примеры таких турецких слов, которые пользовались в древнетюркских письменных памятниках: *tük* - множество; *kor*// коп (все); *öküs*// окус (чох -много); *ükün*// укун (*dəstə*-отряд); *gamus*// гамус (*hamı*-все) (Qaribova, 1994: 123) и тд.

Доказательством того, является слово «*tagma* // *taghma* // *ğami* // *ğama*- (*hamı*- тагма-все)», которое в турецких языках означает неопределенное количество» (Брокелман, 1954: 164).

В древнетюркских письменных памятниках, а также в средневековых литературных образцах активно развивался процесс выражения понятий количества и общности в лексических единицах. В современном азербайджанском языке есть разные слова, обозначающие объемные предметы. Например; стадо, отряд, армия, народ, люди, собрание, дождь, армия и т. д.

Лексема «*sü*//*су*» использовалась в древнетюркских памятниках в значении войска. Как видно, в слове “*sü*” не использовался морфологический признак-окончание. Например: 1) *Kağan sü tasikdi, onok süsi*- *Kaghan sü tasikdi, onok süsi* // *Kağan су тасикди, онок суси* (Qaribova, 1994: 95); 2) *Kağanıma ötündüm, sü joritdim* (*Kaghanıma ötündüm, sü zhoritdim*) // *Каганыма отундум, «су» жоритдим* (Qaribova, 1994: 94).

2) Выражение количества лексическим путем на азербайджанском литературном языке и диалектах.

Проблема выражения количества в лексических единицах активно используется как в азербайджанском литературном языке, так и в диалектах и разговорных языках. Например, слова «топа, сыкма, (сжатие), конопля и другие, встречающиеся в диалектах, имеют содержание множества, что означает неопределенное число с множественным значением. Например: 1. *Uşax bir xışma darı oluf yerə töküldü* // *Ushakh bir khışma darı oluf yerə töküldü* // *Ребенок превратился в просо и упал на землю* (Ширалиев, 1962: 391); 2. *Sura gördi ki, qapının üsdində bir tupa haçar var* // *Sura gördi ki, gapının üsdində bir tupa hachar var* // *Сура увидела куча ключей на двери* (Ширалиев, 1962: 153).

На азербайджанском языке используются не только лексические единицы турецкого происхождения, но и лексические единицы, арабского и персидского языках. Например; *xalq*//*khalg* (халг-народ); *samaat*// *jamaat* (джамаат-люди), *ləşkər*// лешкер (армия) и т. д. слова такие.

Одной из основных особенностей количественного выражения лексических единиц, выражающих значение множества, является совместимость этих лексических единиц с формой множественного числа глагола в более древние периоды турецкого языка.

В древнетюркских письменных памятниках, а также в диалектах нашего языка мы видим, что глаголы, используемые вместе с этими словами, иногда принимают форму (суффиксы) множественного числа. Например: 1) *Ləbinə əhli-nəzər çeşmey-i-heyvan dedilər, Gərçi uşmaq hurisi, cümlə ona can dedilər* (Xatai, 2005: 94) // *Läbinä əhli-näzär cheshmey-i-heyvan dedilər, Gärchi uchmaq hurisi, jümlə ona jan dedilər* (Khatai 2005: 94) // *Лебине ехли-незер чешмейи-хейван дедилер, Герчи учмаг хуриси, джумле она джан дедилер* (Хатаи, 2005: 94).

Такие слова, как “*xalq*//*khalg* (халг-народ), *samaat*//*jamaat* (джамаат-люди), *əhali*//*āhali* (ехали-население), *tayfa* (тайфа-племя) и т.д. вступившие в азербайджанский язык из

арабско-персидских языков, фактически выступали в качестве носителей грамматических количественных показателей в этих языках. В турецких языках слова, которые мы перечислили, имеют только содержание множественного числа, и, хотя они не имеют морфологического признака из-за их грамматической формы, в нашем языке они принимаются как существительные множественного числа.

Поэтому в турецких языках эти слова понимаются как самостоятельные лексические единицы множественного числа, и выполняют функцию существительных содержащих значение множественного числа: *qatı* (гаму-все), *sü*(су-армия) и т. д. Такие примеры позволяют нам еще раз доказать, что множество - это древнейший оттенок количества, и что турки смогли подойти к вещам, выражающим общность, с количественной точки зрения.

В то же время сочетание существительных, обозначающих множественное число, с формой множественного числа глагола показывает, что на ранних этапах развития языка в большей степени соблюдались устоявшиеся нормы языка.

3) Выражение количества с числительными

Числа, употребляемые в азербайджанском языке под названием неопределенное число, состоят из слов «меньше, больше, много, мало, столько, сколько и т. д.». После этих слов существительные обычно не принимают суффиксы множественного числа. Однако иногда после этих слов необходимо поставить суффикс. Например; *çox adamlar// chokh adamlar* (много людей), *çox ağaclar// chokh aghajlar* (много деревьев), *çox kəndlər// chokh kəndlər* (много деревень), *çox şəhərlər// chokh şəhərlər* (много городов) и так далее. Упомянутые нами неопределенные форма числительных имеют разные смысловые значения: 1) Они означают неопределенное количество объекта: *xeyli adam// kheyli adam* (много людей), *bir qədər kitab// bir gədər kitab* (несколько книг) и так далее. 2) Указывает количество движения: *çox danışmaq// chokh danışmaq* (много говорить), *az oxumaq// az okumaq* (меньше читать), *bir az dincəlmək// bir az dinjəlmək* (немного отдыхать) и т. д. 3) Иногда эти слова также служат для уменьшения количества. Например; *çox az// chokh az* (очень мало), *xeyli az// kheyli az* (намного меньше), *bir qədər az//bir gədər az* (немного меньше) и так далее. 4) Увеличивает неопределенное количество, добавляя еще в начале слова «çox// chokh». Например; *çox-çox// chokh-chokh* (слишком много), *bir az çox// bir az chokh* (на много больше), *xeyli çox// kheyli chokh* (слишком много) и так далее. 5) Слова «ən, lap, daha// ən, lap, daha» (очень, больше) пользуются в начале выше сказанных слов и служат для увеличения количества. Например; *ən çox, daha az, lap çox// ən chokh, daha az, lap chokh* (больше, еще больше, еще еще больше...) и т.д.

Один из лексических способов выражения количества в разных турецких языках это те слова которое содержит смысл множества. Например; На азербайджанском языке: *çox, xeyleli// chokh, kheyli* (много, много-много) и т. д.

Еще в древнетюркских письменных памятниках существовали слова «*kör, ükü*» и т. д. имеющие содержания множества. Эти слова, которые действуют как неопределенное форма числительных, выражают большое количество вещей, действий, а иногда и качества, в зависимости от того, какие слова используются рядом с ним. Например; 1) *üküs budun// ükü budun* (много людей); 2) *üküs türlüğ// ükü türlüğ* (очень разный), 3) *üküs emgätmägi// ükü emgätmägi* (не мучай) и т. д.

4) Выражение множественного числа с повторениями слов

Процесс повторного использования слов в турецких языках, без исключения, выражает количественное изобилие объекта или концепции. История этого метода также очень древняя, и в древности он был более продуктивным, чем морфологический метод. Это связано с тем, что люди перед грамматическими категориями выражали все философские категории в разных лексических единицах. Редупликация также является лингвистическим процессом того периода. В зависимости от того, повторяются ли слова, участвующие в повторении, одинаково или разнообразно, повторение делится на две группы, называемые полными и неполными:

4.1) Полное редупликация: полное редупликация существительных

I. Полное редупликация – это выражение количества вещей через повторяющиеся того же слова. В азербайджанском языке слова, относящиеся к этой группе, в основном сочетаются с глаголом «olmaq» (олмаг-быть) и выступает в роли сказуемого. Например; *tel-tel olmaq// tel-tel olmag// тел-тел олмаг; parça-parça olmaq// parcha-parcha olmag// парча-парча олмаг; dilim-dilim olmaq// dilim-dilim olmag// дилим-дилим олмаг; çilik-çilik olmaq//chilik-chilik olmaq// чилик-чилики олмаг* и так далее.

Двойные слова имеют функцию выражения того, что количество концепций, которые они выражают, больше одного. В письменных памятниках часто встречаются двойные слова-существительные, обозначающие делимое количество вещей: 1) *Yüzü gül-gül, zülfü sünbül, gözləri ceyran kimi, Qaşları şol yayə bənzər ol hilalı sevmişəm//Yüzü gül-gül, zülfü sünbül, gözləri jeyran kimi, Gashları şol yayə bənzər ol hilalı sevmişəm* (Хатаи, 1964:116); // 1) *Йузу гул-гул, зулфи сунбул, гозлери джейран кими, Гашилары шол йайе бензер ол хилалы севмишем* (Хатаи, 1964:116);

2) *Gül-gül oldu arizin görübən şəmi-dil, Düşsə zülfin əksi şol gül yağlıq üstə dal-dal// Gül-gül oldu arizin görübən şəmi-dil, Düşsə zülfin əksi şol gül yağlıq üstə dal-dal* (Хатаи, 1964:116) // *Гул-гул олду аризин горубен шами-дил, Душсе зулфин екси шол гул йаглыг усте дал-дал* (Хатаи, 1964:116).

Двойные существительные во многих случаях выполняют функцию обозначения и выражают количественное множество предметов и понятий. Например; *bol-bol pambıq// bol-bol pambıq// бол-бол памбыг (много хлопка), qaşıq-qaşıq dərman// gashig-gashig dərman// гашиг-гашиг дерман (лекарства по ложке), ətək-ətək pul// ətək-ətək pul// етек-етек пул (куча денег), dəstə-dəstə uşaqlar//dəstə-dəstə ushaglar// десме-десме ушаглар (отрядь детей)* и так далее. Хотя слова, используемые в таких композициях, не выражают качество или знак по отдельности, они служат только для выражения количества предметов и вещей, хотя и используются в атрибутивной позиции. Например;

1) *Can dilərsən can kesə, gey bizə gəl, tək can apar. Etek-etek gözlerimden lalevi- mərjan apar// Jan dilərsən jan kesə, gey bizə gəl, tək jan apar. Etek-etek gözlerimden lalevi- mərjan apar* (Китаби-Дада Горгуд, 2004: 38); // *Джан дилерсен джан кесе, гей бизе гел, тек джан апар. Етек-етек гозлеримден лалевии- мерджан апар* (Китаби-Дада Горгуд, 2004: 38);

2) *Dəxi kəndisi tövlə-tövlə atlarına vardı// Dəxi kəndisi tövlə-tövlə atlarına vardı* (Китаби-Дада Горгуд, 2004:56) // *Дехи кендиси товле-товле атларына варды* (Китаби-Дада Горгуд, 2004:56).

Возможно, что двойные слова, выступающие в атрибутивной позиции, имеют неопределенную числовую функцию. По мнению лингвистов, если в качестве единицы измерения выступает повторяющееся слово, то его можно считать числом.

4.2) Полное редупликация наречий

В результате можно сказать, что двойные слова в турецких языках служили для выражения количества. Иногда слова многократного использования могут выражать количество вещей и объектов, выступая в качестве наречий места или объекта. Например; *kənd-kənd gəzmək//kənd-kənd gəzmək// кенд-кенд гезмек (ходит от деревни к деревне), şəhər-şəhər axtarmaq// şəhər-şəhər axtarmaq// шехер-шехер ахтармаг (искать по городам), addım-addım izləmək//addım-addım izləmək//аддым-аддым излемек (следовать шаг за шагом)* и так далее. Когда эти типы соединений сравниваются с их эквивалентами, можно доказать, что они действительно выражают множество и количественное содержание.

В азербайджанском и других тюркских языках количественная множественность предметов и понятий выражались с повторением слова «çox//chokh» (много). Например; *Zülfünə dolaşdı könlüm, bilmədi aşüftə kim, Zülfün ucundan nə çox-çox (чох-чох) yerə getmiş başlar// Zülfünə dolashdı könlüm, bilmədi aşüftə kim, Zülfün ujundan nə chokh-chokh yerə getmiş başlar// Зулфуне долашды конлум, билмеди ашуфте ким, Зулфун уджундан не чох-чох (чох-чох) йере гетмиш башилер* (Насими, 2004: 82). Кроме того, возможно, что

двойные слова в азербайджанском языке иногда образуются с инфиксом -ba, -bə/-ба, -бе (внутри слова). Вероятно, это связано с формой количества (-ba, -bə), существовавшей в древнетюркском языке. Например; *kəndbəkənd// kəndbäkənd//* кенд-кенд гезмек (по деревням), *diyarbədiyar// diyarbädiyar//* дийәрбедийәр (езде), *ölkəbəölkə// ölkäbäölkä//* олкебеолке (по странам)...

4.3) Полное редупликация чисел

Двойные слова имеют функцию выражения не только количества вещей и существительных, но также количества действия и процесса.

II. Количественные и другие различные аспекты движения и процесса также могут быть выражены через полной редупликации. Первый из них - дистрибутивизация. В этом случае числительные выступают в роли количественного наречия. Например; *bir-bir danışmaq// bir-bir danışmaq//* бир-бир данышмаг (говорить по одному); *beş-beş dayanmaq// besh-besh dayanmaq //* беш-беш дайанмаг (встаньте пять на пять); *on-on keçmək// on-on keçmək//* он-он кечмек (пройти по десять) и так далее.

Иногда интерактивное количество действий выражается в повторении слов, обозначающих время. Например; *gəc-gəc görünmək// gəc-gəc görünmək//* гедж-гедж горунмек (появляться редко); *tez-tez danışmaq// tez-tez danışmaq//* тез-тез данышмаг (часто разговаривают); *səhər-səhər qaçmaq// səhər-səhər gachmaq//* сехер-сехер гачмаг (бегать по утрам) и тд.

4.4) Полное редупликация деепричастия

В редупликациях иногда используются повторы глаголов- деепричастия: *gedə-gedə// gedä-gedä//* гедэ-гедэ (уходя); *axtara-axtara// akhtara-akhtara//* ахмара-ахмара (искав); *yaza-yaza// yaza-yaza* (записывая) и так далее. Они использовались в основном для обозначения длительного процесса, выражая количество действий через повторение деепричастия. Например; *danışa-danışa yemək// danışa-danışa yemək//* даныша-даныша уемэк (есть во время разговора); *gedə-gedə baxmaq// gedä-gedä bakhmaq//* гедэ-гедэ бахмаг (смотреть проходя мимо); *yaza-yaza danışmaq// yaza-yaza danışmaq//* йаза-йаза данышмаг (писать разговаривая) и другие примеры подтверждают сказанные факты.

Этот тип повторения можно использовать как с глаголами длительного действия, так и с глаголами меньшего действия. В этом случае подразумевается, что действие происходит внезапно в ходе определенного процесса. Например; *danışa-danışa udmaq// danışa-danışa udmaq//* даныша-даныша удмаг (глотать во время разговора) и т. д.

В ходе исследования мы наблюдаем выражение количества в древних письменных источниках, а также в диалектах нашего языка через повторяющиеся деепричастия. Например:

1) *İçüb-içüb Ulaş oğlu Salur Qazanın alnına şərabın istisi çıkdı // İçüb-ichüb Ulaş oğlu Salur Qazanın alnına şərabın istisi çıkdı//* Ичуб-ичуб Улаш оглу Салур Газанын алнына шерабын истиси чыкды-(После питья жар вина выступил на лбу Салур Казана, сына Улаша) (Китаби-Дада Горгуд. 2004: 42); 2) *Qazan çobanı bir ağaca sara-sara möhkəm bağladı// Qazan chobanı bir aghaja sara-sara möhkəm baghladı//* Газан чобаны бир агаджа сара-сара мохкем баглады (Салур Казан крепко- крепко привязал пастуха к дереву) (Китаби-Дада Горгуд. 2004: 46).

Иногда с помощью полной редупликации можно выразить количества признака. Например; *Quru-quru çaylara suçu saldım, Qara-qara tonlu dərvişlərə nəzirlər verdim* (Китаби-Дада Горгуд. 2004: 38)//Я винил высохшие реки и поклялся черным дервишам (*Guru-guru çaylara suçu saldım, Gara-gara tonlu dərvişlərə nəzirlər verdim*) (Китаби-Дада Горгуд, 2004: 38).

В приведенном нами примере из «Китаби-Дада Горгуд» повторяющееся прилагательное обозначает количество и интенсивность вещи, выраженную существительным и знаком, носящим это имя.

Действительно, в народе, в наших диалектах, выражение «черный-черный» имеет то же значение, что и слово «черный», то есть действует как его эквивалент. Например,

вместо словосочетания «*çoxlu qara bulud//chokhlu gara bulud// çoxlu qara bulud*» (много черные облака), можно использовать «*qara-qara buludlar//gara-gara buludlar// gara-gara buludlar*» - множества черных облаков, интенсивно развивается термин черные облака.

На раннем этапе развития тюркских языков существительные с числами использовались либо с суффиксами множественного числа, либо в сочетании с формой множественного числа глагола. Так обстоит дело как с древними письменными памятниками, так и с диалектами. Например; 1) *Öldi eşqindən Nəsimi, iştə dünyadan gedər, Sən murad ilə cahanda yaşa çox-çox yaşlär // Öldi eshgindän Näsimi, ishtä dünyadan gedär, Sän murad ilə jahanda yasha chokh-chokh yashlär*// Олди ешгинден Несими, иште дунйадан гедер, Сен мурад иле джаханда йаша чох-чох йашлер (Насими, 2004:82); 2) *Əlli kişi bir-birinen söbet başdiyəllər// Älli kishi bir-birinen söbet bashdiyəllär*// Элли киши бир-биринен собет башдийеллер (Демирчизаде, 1962: 359).

5) Модели неполной редупликации

Обобщая все вышесказанное, можно сделать вывод, что процесс редупликации - одна из особенностей древнейших периодов тюркских языков. Однако в языке может использоваться не только полное дублирование, но и неполное дублирование.

В отличие от полной редупликации, неполная редупликация не повторяется, как говорится. В турецком языке встречаются различные формы неполной редупликации. Через эти повторения снова выражается количественная множественность различных аспектов объектов и движений: 1. Количество объектов: в этом случае используются некоторые типы неполной редупликации:

1. Первая часть слова отдельно не употребляется: *dər-dəmir, kör-kömür, zir-zibil, qır-qızıl //där-dämir, kör-kömür, zir-zibil, gır-gızıl və s.*

В этом типе примеров мы встречаем развитие согласных «р, л, м» в конце первой части слова.

2. При неполном редупликации иногда первое слово остается прежним, второе слово меняется, имеет событие аблаута. Например; *dərə-dürə//därä-dürä*// дере-дуре; *ağac-mağac// aghaj-maghaj*//агадж-магадж; *kağız-kuğuz//kaghız-kughuz*//кагыз-кугуз; *ev-mev//ev-mev*//ев-мев; *dağ-mağ// dagh-magh*// даг-маг; *təpə-tüpə//täpä-tüpä*//тепе-тупе и т. д.

3. В случае неполной редупликации в других группах слов ни одно из двух слов не может использоваться отдельно. В этом случае слова одним слогом используются в основном для выражения множественного числа. Например; *xart-xurt// khart-khurt*// харт-хурт; *çaq-çuq// chag-chug*//чаг-чуг; *taq-tuq//tag-tug*//таг-туг; *şaq-şuq//shag-shug*//шаг-шуг и так далее. Слова-существительные, участвующие в этом процессе, обозначают множество. Например, если мы говорим *uşaq- muşaq// ushag- mushag// ушаг-мушаг* (много детей) мы имеем в виду не одного ребенка, а нескольких детей. В этом случае предполагаемое количество далеко от конкретности, что выражает неопределенность. Таким образом, в формах неполной редупликации происходит асемантизация одного из компонентов.

6) Редупликация в структуре предложения

Можно встретить процесс **редупликации**, выражая количества множественности в глаголах несколько иначе. В этом случае часть глагола повторяется несколько раз, а полученный компонент добавляется к основному глаголу. Этот процесс может происходить несколькими способами:

1. Первый слог глагола повторяется и добавляется к глаголу. Например; *zir-zir zirildamaq// zir-zir zirildamag*// зыр-зыр зырылдамаг; *gur-gur guruldamaq//gur-gur guruldamaq*// гур-гур гурулдамаг; *qır-qır qirildamaq// gır-gır qırildamaq*// гыр-гыр гырылдамаг и так далее.

2. Между повторяющимися элементами добавляется инфикс -ha/- ha. Например; *vizhaviz vizildamaq// vizhaviz vizildamag*; *qırhaqur quruldamaq// gırhağur guruldamaq*; *gurhağur guruldamaq// gırhağur guruldamağ* и так далее.

3. Иногда корень глагола повторяется и добавляется к основному глаголу. Например; *alov-alov alovlanmaq//alov-alov alovlanmaq; parça-parça parçalanmaq//parça-parça parchalanmaq* и так далее.

Форма редупликации, сформированная на основе этой модели, встречается даже в древнетюркских письменных памятниках. Пример из эпоса «Китаби-Дада Горгуд»: *Yalab-yalab yalabıyan incə tonlum, Yer basmayıb yürüyən, Qar üzünə qan dammış kibi qızıl yanaqlım// Yalab-yalab yalabıyan injä tonlum, Yer basmayıb yürüyən, Gar üzünə gan dammış kibi gızıl yanaglım//* Йалаб-йалаб йалабыян индже тонлум, Йер басмайыб йурийен, Гар узуне ган даммыш киби гызыл йанаглым (Китаби-Дада Горгуд, 2004: 93) - в примере выражение “*yalab-yalab yalabıyan*” означает «сиять, гореть».

Выражение «*alaf-alaf yanmaq// alaf-alaf yanmaq//алаф-алаф йанмаг*», используемое в некоторых диалектах азербайджанского языка, отражает то же значение. Слова «алаф» и «ялаб» - родственные слова с одним корнем. Здесь, в азербайджанском языке, мы иногда сталкиваемся с подением буквы –“у (й)” в начале слов. Например; *yılan-ılan// yılan-ılan; yıldız-ıldız// yıldız-ıldız; yıldırım-ıldırım// yıldırım-ıldırım* и другие слова - это примеры того, что мы говорим. Слова «*alaf* и *yalaf// alaf* и *yalaf*» - эти турецкие слова с одним и тем же корнем, образованные от корня «*yal*», что означает «сжигать» (Древнетюркский словарь, 1969: 93).

7) Множество качества

В нашем языке мы также встречаем примеры, в которых количество качества выражается через редупликации, а не количество объекта или действия. Существуют следующие формы: 1) *sarı-marı//sarı-marı//сары-мары; qara-mara//gara-mara//гара-мара; qırmızı-mırmızı//gırmızı-mırmızı//гырмызы-мырмызы* и так далее. Поскольку эти слова начинаются с согласными буквами, второе слово следует использовать с согласной «м»; 2) *az-maz// az-maz// аз-маз; ucuz-mucuz// ujuz-mujuz// уджуз-муджуз; ağ- mağ// agh- magh// аг-маг* и так далее. Эти слова начинаются с гласной, а другая сторона развивается с согласной «м»; 3) *qara-qura//gara-gura//гара-гура; arıq-uruq// arıq-urug// арыг-уруг* и т. д. произошло изменение второго элемента повторения этой формы; 4) *sapsarı// sapsarı// сапсары; gömğöy//gömğöy//гомгой; dümdüz// dümdüz//думдуз* и так далее. На словах множественность качеств выражается созданием степени множества прилагательных.

Ф. Джалилов отметил морфемы «р и s» как основной метод формирования степени множества прилагательных в азербайджанском языке (Джалилов, 1962: 228). Однако согласная буква “R” также используется для этой цели. Пример; *tərtəmiz//tärtämiz*. Ф. Джалилов соединил инфиксы «b, p, m, f», обозначающие интенсивность, с морфемами -ba, -bi, обозначающими множество. В этом случае можно соединить инфиксы «s, g», выполняющие ту же функцию, с морфемами -Vr // - Vz // - Vs, обозначающей множества.

8) Множество количества

В лексическом выражении количества иногда может использоваться повторение разных слов:

1. При повторении слов со схожими значениями; *qohum-əqraba//gohum-əqraba; qurd-quş// gurd-guş// гурд-гуш* и так далее, слова со схожим значением выражают количество, когда они используются вместе, потому что они разделяют одинаковую семантическую нагрузку. Например; *səs-səmir//säs-sämir//сес-семир; sorğu-sual//sorghu-sual//соргу-суал* и т. д. В этих соединениях первый компонент имеет турецкое происхождение, а второй компонент имеет производное (арабско-персидское) происхождение. Возможна и противоположность этого процесса: *arzu-dilək// arzu-diläk// арзу-дилек ; gül-çiçək// gül-chichäk// гул-чичек* и так далее.

То же языковое явление встречается и в древнетюркских письменных памятниках. Например: 1) *Ötüken yir olurup arkis-türkis isan neng bungug jok //Ötükən yerdə oturub karvan qafilə göndərsən heç bir sıxıntıñ olmaz // Ötükən yerdə oturub karvan gafilä göndärsän heç bir sıxıntıñ olmaz//* Отукен йерде отуруб карван гафиле гондерсен хеч бир сыхынтын олмаз (Раджабов, 1993: 66); 2) *Ecümüz- apamız tutmis yir sub idisiz bolmazin tijin Az budunuğ itip joratip//Əcdadımızñ tutmuş olduğı yer, su sahıbsız olmasın deyə, Az millətini tənzim və tərtib*

edip// Äjdadımızın tutmush oldughu yer, su sahıbsız olmasın deyä, Az millätini tänzim vä tärtib
edip// Эджадымызын тутмуш олдугу йер, су сахибсиз олмасын дейе, Аз миллетини
тензим ве тертиб едип (Раджабов, 1993: 70).

Результат

Само понятие множества имеет определенное значение близости. Чтобы разные объекты существовали вместе, они должны быть пространственно близки друг к другу.

Древние люди представляли близость между членами относительно ограниченной семантической группы, возможно, самым примитивным образом, то есть пространственную близость, и процесс, с помощью которого слова в такой группе развивались и стабилизируются как двойные слова для выражения множественности, связанные с этим.

Древние тюркские народы понимали и выражали множественное число. И суффиксы, и слова использовались для выражения множества. Использовались слова, обозначающие множественное число: *ordu* (армия), *halq* (народ), *taufa* (этнос) и т. д., Использовались и различные другие средства, как сочетания слов. Примером этого являются и различные структуры повторения слов.

Список литературы:

1. Аталай В. «Диваню-лугат-ит тюрк» Анкара. 1941 г.
2. Джалилов Ф.А. Морфонология азербайджанского языкознания. Баку.1988 г. 285 с.
3. Демирчидаде А. Стилистика азербайджанского языка. Баку. 1962 г.
4. Гарибова Жале. Способы выражения количественной категории в азербайджанском языке. дис. Баку. 1994. 163 с.
5. Раджабов А. Мамедов Ю. Орхоно-енисейские памятники. Баку. 1993. 390 с.
6. Ширалиев М. Основы диалектологии Азербайджана. Баку. 1962.
7. «Древнетюркский словарь» Ленинград. 1969.
8. Брокелман С. Восточно-турецкая грамматика исламской литературы *Mittelasiens*. Анг / 1954.
9. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Санкт-Петербург, 1893. В 2 томах, 542 с.
10. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. М.1989, 363 с.
11. Китаби-Дада Горгуд. Баку: Издательство Ондер, 2004, 376 с.
12. Хатаи. Избранные произведения. Азернешр, Баку, “*Shärg-Gärb*”, 2005, 384 s.
13. Избранные произведения Насими. В двух томах. Баку, «Издательство Лидер», 2004, 376 стр.
14. Ергин М. Избранные произведения. “*Önder*”, Bakı, 2004, 424 s.
15. Г. Бурханеддин. Избранные произведения. Баку: *Öndär*, 2005. 728 s.

O‘ZBEK TILI SOFLIGINI SAQLASHDA JADIDLARNING O‘RNI

Xo‘jamurod Jabborov,
O‘zbekiston, QarDU, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini sofligini saqlash, adabiy lashtirish va milliy lashtirish jarayonida jadidchilik harakatining o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek, til, milliylik, soflik, adabiy til, shevalar, leksika, adabiy norma, jadid, jadidchilik.

Jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarish, yangilik, islohotlar u xoh katta bo‘lsin, xoh kichik bo‘lsin tilda namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zgarish, yangilik va islohotlar inson ruhiyatiga, ongu tafakkuriga, ayniqsa, uning tiliga kuchli ta’sir qiladi. Bunday o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘layotgan, turli tillardan kirib kelayotgan so‘z va terminlar esa davrning talab va ehtiyojlariga moslashib borib, insonning lisoniy imkoniyatlarini oshiradi va uning lug‘at boyligini o‘zgartiradi.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida mana shunday jamiyatdagi o'zgarishlar natijasida o'zbek tili leksikasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Har qanday til o'z taraqqiyoti davomida boshqa til yoki tillar bilan aloqada bo'ladi, bu aloqa jarayonida ular bir-biridan leksik, morfologik va boshqa soha birliklarini qabul qilishi va buning sabablari barchaga ma'lum bo'lgan dalildir.

Ona tilimizning zamonlar osha yashashi va insonlarga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishida har bir davrdagi o'zgarishlar o'z ta'sirini o'tkazadi. "Davr o'tishi bilan barcha voqeyilik kabi tilda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu tabiiy jarayon sifatida tushunilishi kerak" [1, 18].

O'zgarish va yangilanishlar jarayoni tilning leksikasida yanada faol va zaruriy tarzda kechadiki, biz buni o'tmishda yozilgan asarlarni o'qishdayoq darrov ilg'ashimiz mumkin. Tildagi bu o'zgarish bevosita insonning ongli va stixiyali ta'siridangina emas, balki ijtimoiy ong va tafakkurning uzluksiz rivoji, tilning inson ongiga va ehtiyojlariga moslashish jarayonlari bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

O'zbek tilining XX asrdagi holatiga e'tibor qilsak, bu jarayon juda murakkab kechganligini anglash mumkin. Sobiq Sho'ro davrida rus tilining o'zbek tiliga faol ta'siri XX asrning 20 yillaridan to 90-yillargacha davom etdi. Bunday ruslashtirish siyosatining asosiy maqsadi mahalliy aholi tilini mensimaslik, tilning sofligini buzish, o'z ona tilisida ish yuritish tizimini izdan chiqarish va rus tilida olib borish edi. Shu sababli ham bu siyosat o'zbek adabiy tilida ish yuritish tizimini rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Uning oqibatlari hozirgacha davom etmoqda.

Bunday ruslashtirish jarayonida hukmron mafkuraning til siyosatiga qarshi o'zbek millati ziyolilari, xususan, jadidlarning tilni adabiylashtirish, milliylashtirish borasidagi ongli va izchil harakati avj oldi.

"Bu o'rinda jadidlarning jurnallari ham Turkiston xalqlari milliy ongini o'stirish va o'zligini anglashda katta xizmat qilganini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida 1915 yildan chiqqan "Oyina" jurnalining faoliyati diqqatga sazovordir. "Oyina" o'zbek tilining sofligini saqlash uchun kurashda va ruslashtirish jarayonining salbiy ta'siridan saqlashga chaqirdi. "O'z xalqchilligimizni yo'qotsak, - deb yozgandi edi "Oyina", - e'tiqodimiz ham o'z-o'zidan yo'qoladi. Til muhofazasi eng muhim majburiyatdir" [2, 302].

Ammo shuni alohida ta'kilash lozimki, sobiq Sho'ro tuzumi davrida jadidlarning ongli va izchil harakati bilan tilga faqat sun'iy va salbiy ta'sir ko'rsatishga emas, aksincha yerli xalq tilini sofligi va tozaligi uchun kurash, uni adabiy til maqomiga ko'tarishga ham jiddiy ahamiyat berildi. O'zbek adabiy tilining rivoji va uning barqarorlashuvi uchun xalq shevalariga asoslanish juda muhim ekanligiga O'zbekistonda sho'rolar hokimiyatining dastlabki davrlaridayoq 1929 yilda bo'lgan O'zbekistonda til islohoti va imlo konferensiyasida e'tibor qaratildi. 1929 yil til islohoti va imlo konferensiyasi Qarori asosida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksikasini barqarorlashtirish, milliylashtirish va keng ommaga tushunarli bo'lishini ta'minlash yuzasidan ham bir qator tadbirlar olib borildi, o'zbek xalq shevalarini o'rganish va shu asosda leksik normalarini belgilash ishlari boshlandi. Shuning natijasi o'laroq adabiy til leksikasi shevalardagi eng maqbul va zarur so'zlar bilan boyitildi. Til leksikasining rivojlanishida ichki va tashqi imkoniyatlardan tashqari, o'zbek badiiy adabiyotining ham ta'siri ijobiy bo'ldi [3, 87].

XX asrning 20-yillardagi jadidchilik harakati o'zbek tilini sofligi uchun, uning lug'at tarkibida yot so'zlarni qo'llamaslik, iloji boricha turkona so'zlarni qo'llash harakatida bo'ldilar. Bu haqda "O'zbek adabiy tili orfografiyasining yangi loyihasi"da shunday deyiladi: "Rus imperializmi hukmronligi davrida paydo bo'lgan jadid adabiy tili asosan jadidchilik mafkurasini o'tkazishga muvofiqlashtirilgan bo'lib, uning asosida chig'atoy adabiy tilini qayta tiklash yotadi. Shunisi xarakterliki, jadid adabiy tili chig'atoy adabiy tilini shahardagi og'zaki, jonli tilga qarshi qo'yish yo'lidan emas, balki ularni moslashtirish, qisman yaqinlashtirish yo'lidan boradi. Buni shu davrdagi jadid gazetalari va dramatik asarlarda ko'rish mumkin". Ayniqsa, "Chig'atoy gurungi"ning milliy til islohoti borasidagi faoliyati milliy ma'rifatparvarlarimizning xalqning buyuk boyligini saqlab qolish yo'lidagi katta xizmatlarini umumlashtirgan. "Chig'atoy gurungi"ning qarashlariga qarshi turgan kuchlar gazeta va jurnallarda, alifbo va imlo loyihalarida

o'zbek tili lug'at tarkibidaga arabcha va forsha so'zlarga qarshi ochiqdan ochiq hujum boshlagan edilar. Jadidchilik namoyondalarining aksariyati esa umumturkiy va mahalliy sheva leksikasini adabiy tilga ko'proq kiritish tarafdorlari sifatida maydonga chiqdi. O'zbek tilining asl turkiy tabiatini saqlash yo'lidagi boshqa barcha urinishlarga mustabid sho'ro hokimiyati o'z vaqtida shunday nazariy va amaliy zarbalar beradiki, ularning natijasi o'zbek yozma adabiy tili lug'at tarkibida sovet-baynalmilal so'zlarning salmog'i yil sayin orta borganligida yanada yaqqol namoyon bo'ldi [4: 78].

Bu davr leksikasini kuzatib shuni sezish mumkinki, 30 yillardan boshlab rus tilining faol ta'siri natijasida o'zbek tilida, shuningdek, o'zbek shevalarida ruscha-internatsional so'zlarning miqdori ancha ortdi. Bu – yangi predmet, yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va ularning atamalarining o'zbek tiliga kelib kirishi bilan, arxaiik arab-fors so'zlarining sovet-internatsional so'zlar bilan almashtirilishi orqali sodir bo'ldi [5; 38].

1929–1933 yillar davomida ham o'zbek tili leksikasi rivojida turkiy tillar ychyn myshtarak lyg'at boyligi yaratishga yrinishlar bo'ldi. Lekin ularning barchasi tilning o'z ichki qonuniyatlari asosida filtratsiyaga uchradi. Eski o'zbek adabiy tili leksikasidagi qadimiy turkiy so'zlarni tiklash tendensiyasi chig'atoychilik oqimi harakati bilan mahkam bog'langan edi. Byndan tashqari, qadimiy turkiy so'zlar davr talablariga javob bermas va yangi tushunchalarni ifodalay olmas edi. Shy sababli by oqimning tytgan usuli o'z vaqtida keskin qoralandi va qattiq tanqid ostiga olindi.

O'sha davr matbuotini diqqat bilan kuzatsak, shu narsa ayon bo'ladiki, ziyolilarning til masalasiga doir bahs-munozaralari ham gazeta va jurnallarda uzluksiz e'lon qilib borilgan. Bu maqolalarda milliy tilni soflicha saqlash, til leksikasiga hamma tushunadigan so'zlarni olib kirish va ommalashtirish, sheva so'zlarining eng maqbullarini adabiylashtirish, barchaga tushunarli tilda ijod qilish, yot so'zlarni olib tashlash kabi mavzular atrofida kechgan.

Xususan, 1929–1933 yillar davomida o'zbek adabiy tili leksikasining rivojida ilmiy-fanniy, siyosiy-iqtisodiy, umuman jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan yangi tushunchalarni turkiy so'zlar bilangina ifodalash, so'zlarning fonetik va morfologik strukturasi ymymiy turkiu tillar qonuniyatiga bo'ysundirish asos qilib olingan edi [6, 78].

O'zbek adabiy tili so'z boyligidagi asosiy leksik qatlamlarda yuz bergan o'zgarishlarni kuzatish shundan dalolat beradiki, 1922 yildan buyon internatsional so'zlar qatlami adabiy tilning umumiy lug'at tarkibida dastlabki 2 protsentsdan 15-16 foizgacha ko'tarildi. Bu davr ichida arabcha so'zlar miqdori ancha kamayib ketdi. To'g'ri, badiiy asarlarda, jumladan, she'riyatda arabiy so'zlarning, xususan, mavhum tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralarning ma'lum darajada salmog'i ortdi.

Jadidlarning ona tili mavqeini ko'tarish, mumtoz o'zbek adabiy tilini xalqqa yaqinlashtirish borasidagi harakatlari ancha keng qamrovga ega. Biz buni ularning badiiy ijod jarayonida sof turkona so'zlardan foydalanishga intilganligidan ham sezishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek, Behbudiy, Botu, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat kabi ma'rifatparvarlar asarlarini kuzatish jarayonida bilib olshimiz mumkin.

Zamonasining ilg'or ziyolilari bo'lgan jadidlar xalq milliy ongining va umummadaniy darajasining yuksalishi yot (o'zlashma) so'zlardan xoli, keng omma uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilni shakllantirish bilan uzviy bog'liq ekanini chuqur fahmlab, matbuotda adabiyotda va teatrd adabiy til leksikasini soflicha saqlash, milliylashtirishga harakat qildilar. Eng muhimi ona tili o'zbek tilini taraqqiy ettirish va uni keng jamoatchilikning asosiy aloqa vositasi bo'lishi uchun katta e'tibor qaratdi.

Xullas, o'zbek tilini soflicha saqlashda jadidchilik harakatining o'z o'rnini shu bilan belgilanadiki, ular o'zbek tili leksikasining XX asr boshlarida tilni tozaligi, rasoligi, soflicha uchun tinimsiz kurash olib bordilar. Bunday jarayonlar juda murakkab kechgan bo'lsa ham bu jarayonlarda jadidlarning xizmatlari nihoyatda katta bo'ldi.

Foydalanilagan adabiyotlar:

1. Собиров А. Она тилимиз булоқ сувидек тоза ва истеъмолга яроқли бўлиши керак //“Тилшуносликнинг долзарб масалалари” VI китоб. – Тошкент, 2013.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П., Усмонов Қ.
3. Джурабоева З. Тил экологияси: муаммо ва ечимлар // “Тилшуносликнинг долзарб масалалари. VI китоб. – Тошкент, Академнашр, 2013. -Б. 9-13. – Тошкент: Шарқ, 2000. - Б.302.
4. Совет даври ўзбек адабий тилининг тараққиёти III том. – Тошкент, 1991. -Б.78.
5. Каримов С. Тил таълимида меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент : Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 267.
6. Жамолхонов Х., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. (1, 2 китоб) – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2019. – Б. 432.

CEDİTÇİLİKTE DİL VE EDEBİYAT GAYELERİNİN UYGULANIŞI VE BİR KARŞILAŞTIRMA

Prof. Dr. Yusuf AVCI

**Türkiye, Çanakkale Onsekiz Mart Üniversitesi
Türk Dünyası Değerlerini Uygulama ve Araştırma Merkezi Müdürü,
Eğitim Fakültesi-Türkçe ve Sosyal Bilimler Eğitimi
Türkçe Eğitimi Ana Bilim Dalı Başkanı**

Özet. Ceditçiler düşüncelerini halka anlatmak ve uygulamalarda örnek olmak için kitaplar, gazeteler yayınladılar. Gramer kitapları yazdılar. Ceditçi Fıtrat'ın Sarf ve Nahiv kitaplarını dil ekolleri bakımından inceledik. Nesir dilinin gazete örneği olarak 1918'de İstanbul'da yayınlanan “Sabah Gazetesi” ile 1918’Taşkent’te yayınlanan “Hürriyet” gazetesinin Türkçecilik yönünden yani anlaşılabilirlik bakımından yazı dillerini karşılaştırdık.

Anahtar Kelimeler: dilcilik, anlaşılabilirlik, gramer, Sarf, Nahiv

Giriş

Fıtrat, milletine hizmet etmek için Ali Şir Nevâi'nin hayatını ve mücadelesini örnek almıştır. Nevâi'nin eser verdiği her konuda eser vermiş, onun mücadele ettiği ilmi ve siyasî her basamakta hizmet etmiştir. Bu yönüyle Fıtrat'a “Asrımızın Ali Şir Nevai”si diyebiliriz.

Ceditçiler, her konuda olduğu gibi eğitim sistemi ve dilde de yenilikler yapmıştır. Yaptıkları bu yenilikleri kendi hayatlarında uyguladıkları gibi yazdıkları eserlerde de uygulamış ve açıklamışlardır.

Çalışmanın Amacı

Bu çalışmanın amacı, Fıtrat'ın dil ve eğitim sisteminde savunduğu yenilikleri çıkardığı gazete ve yazdığı dil bilgisi kitaplarına uygulayışını tespit etmektir.

Yöntem

Çalışmada Fıtrat'ın çeşitli çeşitli gazete yazıları ile dil bilgisi kitapları savunduğu yenilikleri uygulayışı bakımından incelenmiştir. Çalışmada nitel araştırma yöntemlerinden doküman analizi yöntemi kullanılmıştır.

Bulgular

Eserlerinde bir idealin, bir derinliğin ve teorinin olmaması düşünülemez. O eserlerinde Sovyet ideolojisinin penceresinden bakmaz. Türk diline bakış açısı, Kaşgarlı Mahmud'un tasniflerine dayanır. Sarf isimli eseri bu yönüyle alanında bir ilktir. Fıtrat bu eserlerinde Özbek Türkçesi yerine çoğu kere “Türkçe” terimini tercih ederek Türk dilini bir bütün olarak görür.

Fıtrat'ın Nahiv'i (1927) üretken dönüşümlü dil bilimi akımının temelini oluşturur. Cümleyi zihni yapıdaki esas unsurların etrafında genişletir. Bu yaklaşım şekli de üretken dönüşümlü dil bilimi akımının düşünce şekli ile ilişkilidir.

“Türk dilinin genetik köklerinde derin ve yüzey yapı sistemi vardır. Çomski'nin Dönüşümlü Üretken Dil Bilimi akımının dayanağının Türk diline ait olduğunu görüyoruz. Fıtrat'ın Sarf ve Nahiv eserleri gerçek anlamda “Dönüşümlü Üretken Dil Bilim akımının” ilk örnekleridir. Bu sebeple “Dönüşümlü Üretken Dil Bilim akımının” fikir öncüsünün Fıtrat olduğunu söyleyebiliriz” (Avcı, 2022).

Türk dilinin özelliklerini doğru tespit eden Batılı araştırmacılar da vardır. Maks Müller'in dilin oluşumundaki düşünce yapılarına işaret ettiği görüşlerini Ahmet Cevat Emre aktarır. Ahmet Cevat Emre, Müller'e göre “Türk gramerini okumak bu dili konuşmak ve yazmak öğrenmeye en küçük bir arzu olmadığı halde bile gerçekçi bir zevktir. Türkçenin gramerinde duru bir dil yapısı görüyoruz, onda düşüncenin iç oluşlarını seyredebiliyoruz, bir billur kovan içinde bal peteklerinin oluşunu seyredebildiğimiz gibi” (1933, Müller 1875) olduğunu söyler.

Ceditçi Fıtrat'ın amacı Türkleri, doğduğu topraklarda bağımsız yaşayan, kültürel değerlerini koruyan, hayat standardı yükselmiş ve bilimden yararlanabilen insanlar olarak görmektir. Önce, çocuklara alfabeyi yeni yöntemlerle öğretme davası olarak başlayan bu hareketin, sonraları çeşitli zamanlarda Rusların istilasına uğrayan ve çarların baskısı altında uzun devirler bilim ışığı görmeyen Türk halklarının bir eğitim ve kültür davası hâline geldiğini ve yine bazı dönemlerde de haksızlığa, emire karşı baş kaldırma, demokratikleşme ve bu yolla hak arama gibi siyasî görevler yüklendiğini görüyoruz.

19. yüzyılın sonlarına kadar, küçükler de büyük öğrencilerin okuduğu medreselere giderdi. Köylerde ise Türklerde her mescidin yanında bir okul bulunurdu. Bunların yanında “meptik” denilen bu ilkokullarda öğretim yöntemleri “usulsüzlük” denilecek kadar eskimiş bozulmuş durumdaydı. Bu “falaka mekteplerinin” öğretmenleri ise mahallenin imamları olurdu. Kız çocuklarına yasak olan bu erkek öğrenci okullarında yazıya önem verilmeden sadece okuma öğretilirdi” için Ceditçilerin en büyük derdi okul sıkıntısı olmuştur.

Rusya'da Şubat 1917 ihtilalinden sonra, Türkistan Ceditçileri, Münevver Kari liderliğinde “Şuara-yı İslâm” isimli bir teşkilat kurarlar. Bu teşkilat onların Kültür hayatındaki ilk açık teşkilatıdır. Sovyet hükümetinin ilk devirlerinde Ceditçiler, kendi milli kültür politikalarını değişik gazeteler çıkarmak suretiyle devam ettirme imkânı bulduklarını düşünürler.

Fıtrat, eserlerinde terim konusuna da değinir. “Komisyon tarafından kabul edilen terimler kesin olup bütün okul kitaplarında da bu terimler kullanılacaktır” (Fıtrat, 1927:2). şeklinde bağlayıcı bir karar alınmasına rağmen kesinlikle ısrar edilmez, kullananın tercihinin bırakılır. Bazı kavramlar için şimdilik her iki terimin de kullanılması kararına varılır.

Fıtrat, milletin uyanışının atalarını, ülkesini vatanını tanıdıktan, kendisini anladıktan, kendi tarihini kültürünü bilerek onunla övünmeye başladıktan sonra gerçekleşeceğine inanıyordu. Bu düşüncelerle Fıtrat, Timur Han'ın türbesini ziyarete gider. Türbede Timur Han'a seslenişinde dünya görüşünü, amaçlarını yansıtır.

“Ulu hakanım! Türklük şerefi yağmalandı. Türk için bıraktığınız devlet bitti, Türk adına kurduğunuz hakanlık yağmaya gitti... Senin gücünle dünyanın hocası olan Türk, karanlıklara gömüldü... Bunlara ben sebep oldum. Senin Turanını kendim dağıttım, senin Türklüğünü kendim ezdirdim, senin emanetlerine hıyanetliği kendim yaptım... Ben elime geçirdiğim kılıcını, çalarak atmasaydım, Turanım yağmalanmazdı...!” (Fıtrat, 1917b). Yok, sen kimsesiz değilsin. İşte ben bütün varlığımla sana yardım etmeye hazırım... Ben senin için yaratıldım, senin için yaşıyorum, senin için öleceğim... Karanlıklar içinde ışiksiz kalan gözler için; toprağından sürme almaya geldim... oturan ve kan ağlayan Türkün halini arz etmeye geldim, hakanım! (Fıtrat, 1917a).

Ceditçilerin düşünceleri hayatlarına yansır. Bu düşüncelerini gerçekleştirmek için hayatının her devri bir örnektir, modeldir. Gençleri eğitmek için şöyle seslenir:

*Turma yügür, tinma, tiriş, бүкүлме үйкүс, / Hurma, kiriş, korkma, yapış, yürme kozgal!/
El yolni tösiб турған eski bulutlarnıñ /Yandırıp, koy, yırtıp tasla, barçasın yok et!/
Kıla almasañ su işlerni /Seniñ üçün horlıkdır bu!.. /Yıkıl, yok ol, ket! (Aliyev 1982)*

Bu gençlikten beklentilerinden sonra kendi vatan anlayışını Farsça şu şiirinde tarif eder:

“Binma seheri azmi tavafi vatani men/Ah-ah çi vatan, secdeğahi canu teni men./

Hem mahı menü asayışi, izzi şerefi men,/Hem Ka’bei, Kiblei men, hem Çemeni men¹”(Kasım1989).

Bu ifadeleri sadece kelimelere sığdırmak mümkün mü?

1919’un başlarında “Çağatay Gürüngü” topluluğunu kurarlar. “Gürüng”, hükümetin izniyle kurulmuş resmî bir topluluktur. Gurubun programı “Tarih ve Edebiyat Mirasından Yararlanmak”tır. Bu programı Ruslar zararsız gibi görür. Çünkü “Çağatay Gürüngü” kendisini genellikle dil, edebiyat ve imla sorunlarına yöneltmişti.

Fıtrat, düşüncelerini sadece kendi yayın organlarında paylaşmaz. “Tilimiz” makalesi, idarenin yayın organı özelliğindeki “İştirakuyun”da 1919 yılında yayımlanır (Aliyev, 1982).

Fıtrat, dil konusuna, mensubu olduğu toplumun adını düşünmek ve araştırma yapmakla başlar. Ona göre, bu toplumun bir adı olması gerekirdi ki onun dilinin de adı olabilsin (Fıtrat 1927:6-10).

Türkistan'a hâkim olan, Türklüğe düşman güçlerin bu isimlendirmelerdeki amacı, Türkü eritme politikasıdır. Benzer şekilde Batı Türklüğünde de “Türk” adı adeta unutturulduğu için “Türk” adı karşılığında “Sen, yalnız Osmanlısın. Sakın başka milletlere bakarak, sen de millî bir ad isteme! Milli bir ad istediğin anda, Osmanlı İmparatorluğunun yıkılmasına sebep olursun” demişlerdi. Zavallı Türk “vatanımı kaybederim” korkusuyla “Vallahi Türk değilim, Osmanlıktan başka hiçbir zümreye mensup değilim” demeye mecbur edilmişti (Gökalp (1990:49).

Fıtrat, Özbek dili ve edebiyatı hakkında araştırmalara yönelir. Bu araştırmaları sonucunda: “Divan- Lügat-it Türk’te hicri 5. asırda Türk dili iki büyük kola ayrılır ve bunlardan biri bugün Batı Türkçesi dediğimiz ‘Oğuz Türkçesi’ diğeri Doğu Türkçesi dediğimiz ‘Hakani Türkçesi’ veya sadece ‘Türkçe’dir.” şeklinde Kaşgarlı Mahmut’un görüşünü esas alır. Fıtrat, Kaşgarlı Mahmud’un Doğu Türkçesini “Hakani Türkçesi” diye adlandırmasına katılarak, Asya’da Han olan Çağatay’ın adından dolayı Orta Asya edebi diline Çağatay dil ve edebiyatı denildiğini belirtir.

Fıtrat “Özbek Türkçesi” terimini kullanır. Özbek Türkçesine ancak bu bütünlük içinde yani Türkçenin bir kolu olarak yaklaşır. Bu fikirlerini “Tilimiz” isimli makalesinde şu şekilde ifade eder: “...Dünyanın en bay dili Türkçedir, en bahtsız dili yine Türkçedir. Bundan önce (1920’lerde) bahtlıydı diyenler dilimizin halini bilmeden konuşuyorlar”... “Türkçenin bahtsızlığı Arap baskısıyla bağlanmışdır. Araplar ayak bastıkları ülkeye yalnız hükümetlerini değil dinlerini, kuralların da tanıtılabilmişlerdir”

"Dünyanın en büyük hekimi olan İbn-i Sina, Türk'tür. Celaleddin Rumi, Türk'tür. Fars edebiyatının üstatlarından olan Nizami, Türk'tür. Bunlar sadece Türk milletinin değil, bütün dünyanın ulu kişileridir. Türk milleti bunların eserlerinden faydalanamamış belki bunlar kendilerini de iyice tanımamışlardır. Bunlar kendi bilgilerini Türkçe yazsalar, Türk milletinin hali muhtemelen başka türlü olurdu.” ... “Türkçe bahtsızdı binlerce yıldan beri ezilerek gelmiştir. Fakat bitmemiştir. Bitmez, yaşamıştır, yaşar. Çünkü zengindir. Türkçe yaşayacaktır...” (Fıtrat, 1919 akt. Avcı, 1997:192-194).

Görüldüğü gibi Ceditçi Fıtrat, savunduğu görüşleri dil ve dil bilgisi kitaplarında uygulamıştır.

Toplumların günlük yaşantıları ile ilgili güncel olayları gazetelere yansır. Gazeteler dilleri bakımından incelendiğinde, toplumun dili ile ilgili güncel veriler izlenebilir.

Yaptığımız bir çalışmayla 1918 yılında Taşkent’te çıkarılan Hürriyet gazetesin ve İstanbul’da çıkarılan Sabah gazetesini Türkçecilik bakımından karşılaştırdık (Avcı & Doğan, 2023). Her iki gazetedeki cümleler çatı bakımından incelendiğinde, edilgen çatılı cümleler Sabah gazetesinde daha fazladır. Hürriyet gazetesindeki cümlelerde öznenin nesneye göre daha etkili olduğunu gördük. Ayrıca Türkçecilik bakımından Taşkent yazı dilinde, Türk düşünce sisteminin genetiğindeki öznellik özelliğinin daha etkili olduğu görülmüştür. Hürriyet gazetesinin dili daha

¹ Türkiye Türkçesi: Vatanımı tavaf etmeye sabah erkenden gel. Bu ıyle bir vatan ki benim, canım, tenim ve secdeğahımdır. O benim gıçk uezindeki ayım, huzuru, izzetim ve şerefimdir. Hem Ka'bem, hem Kiblem, hem de Cennetimdir.

anlaşılrken fikir ve düşünce bakımından Sabah gazetesi zayıftır. Sabah gazetesinin, Hürriyet gazetesine oranla yabancı dillerden daha çok etkilendiği görülmüştür. Hürriyetteki yazı dili, Türk dilinin düşünce ve mantık sistemine daha uygundur. Anlaşıldığı gibi Ceditçi Fıtrat savunduğu görüşlerini gazete yazılarında ancak bu kadar uygulayabilmiştir.

Sonuç

Yaptıkları her türlü yeniliği bir yaşama şekli olarak belirleyen Ceditçiler, görüşlerini eserlerinde de yansıtır. Fıtrat'ın dil ile ilgili eserleri üretken dönüşümlü dil bilimi akımına kaynaklık eder.

KAYNAKÇA

1. Aliyev, Ahmed (1982) Seniñ Nurlı Köziñde Beht Oqıdım: Özbekistan Avazı. Taşkent, 9 Ocak.
2. Avcı, Yusuf. (1997). Fıtrat ve Eserleri. Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları.
3. Avcı, Yusuf. (2022). Çeditçi Fıtrat'ın Dil Anlayışı ve Dil Ekollerindeki Yeri. Ceditçilerin Eğitim Faaliyetleri: Fikirler, Hedefler, Görevler ve Bunların Türkistan'ın Gelişimine Katkıları Sempozyumu. Taşkent, Özbekistan.
4. Avcı, Yusuf. & Doğan, Hasibe. Gül., (2023). 1918 Yılında İstanbul (Sabah) ve Taşkent'te (Hürriyet) Yayımlanan Günlük Gazetelerdeki Yazı Dillerinin Türkçecilik Bakımından Karşılaştırılması. ULEAD 2023, 7th International Conference On Research In Applied Linguistics, Kahramanmaraş, Turkey
5. Fıtrat, Abdurrauf (1917a) Yurt Kaygısı, II, "Hürriyet, Taşkent, 18 Ağustos 1917.
6. Fıtrat, Abdurrauf (1917b) Yurt Kaygısı, III, "Hürriyet, Taşkent, 31 Ekim 1917.
7. Fıtrat, Abdurrauf (1927) Serf, 5. Baskı, Taşkent.
8. Gökalp, Ziya (1990) Türkçülüğün Esasları. İstanbul: MEB Yayınları.
9. Kasım, Begali (1989) Abdurrauf Fıtrat Halk Ferzendil Saadet, Taşkent, S.7, s.14-15.

JADIDLAR IJODIDA TIL MASALASI

Qo'ldosh PARDAYEV,

O'zbekiston, TDO'TAU, f.f.d., professor

Annotatsiya. Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining vaqtli matbuotdagi til masalasiga oid tanqidiy maqolalari haqida so'z boradi. Xususan, "Al-Isloh", "Oyna", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston" nashrlarida XX asr boshlaridagi maktab va madrasalar hamda badiiy asarlar tiliga oid bahslar tahlil qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'z va iboralar: davr, adabiy til, matbuot, jadidchilik, adabiy tanqid, asr, Turkiston.

XX asr tongida millat ziyolilari o'zbek adabiy tilining qanday rivojlanmog'i kerakligi, buning uchun qanday yo'llardan borish lozimligini keng muhokama qilgan edilar. Bu borada eng to'g'ri yo'l sifatida xalq jonli tili imkoniyatlaridan foydalanish, o'zbek tilini boshqa tillar ta'siriga tushib qolishdan muhofaza qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Jadidlar maktab va madrasalar darsliklari tili va matbuotda chop etilayotgan maqolalarning sof o'zbek tilida bo'lishi uchun kurashdi. Til masalasiga oid bunday tanqidiy maqolalar vaqtli matbuotda muntazam e'lon qilib borildi. Jumladan, "Al-Isloh", "Oyna", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston" nashrlari shular jumlasidandir.

Ibrohim Tohiriyning "Al-Isloh"da chop qilingan "Matbuot va isloh" sarlavhali maqolasi bu jihatdan harakterlidir. Muallif Turkistonda nashr qilinayotgan asarlar va gazeta, jurnallar tili haqida so'z yuritadi. U matbuot xususida fikr yuritib, uni axloqiy –ma'naviy ozuqa beruvchi omil sifatida talqin etadi: "Bir xalqning matbuoti o'shal xalqning ko'nglida yoshiring'on, ko'kragida saqlangan tilaklarini, orzularini eng ochiq suratda ko'rsatadurg'on oynasidur. Bir xalqning matbuoti o'shal xalqning o'tganini, kelajag'ini va ando o'lg'on va o'lajaq umidlarini, farzlarini, yo'llarini, qayg'ularini so'zlaydurg'on bir tildur..." [1, 141]. Maqolaning keyingi satrlarida tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri masalasiga to'xtalib, "Sadoi Turkiston" gazetasining

nomlanishi va uning muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning yurist bo‘la turib tojik tilidan so‘z olib gazetaga nom qo‘yishini tanqid qilib bunday yozadi: “Har bir g‘azetaning buyuk bir vazifasi milliy tilg‘a, “imlo”g‘a ahamiyat berub va shularni isloh qilishdur... gazetaning boshinda yurist Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kishilarini muhofaza edar ko‘zi ochiq huquq olimi tursa-da, bu g‘azeta muhtaram milliy tilimizning huquqina nedandur masohila etmish, ehtiromsizlik ko‘starmishdur. O‘z tilimizda bor bir so‘zni tashlab ikkinchi tildan so‘z olib g‘azetaga ism bersa ham, oz – cho‘q fasohati o‘lur esa-da, muqaddas milliy tilimizg‘a albatta xiyonat o‘lur, jinoyat o‘lur” [1, 145].

Millat ertasini o‘ylab jon kuydirayotgan ma‘rifatparvarlarning barchasi jaholatdan chiqish yo‘llarini izladi va bunday nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qildi. Ibrohim Tohiriy Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Nusratulla Qudratulla va Hoji Muin hammuallifligida yozilgan “To‘y” dramalarining til xususiyatlariga ahamiyat qaratib, keskin tanqid qiladi. Hatto maktab bolalarining insho va imlolariga mengzaydi. “... “Padarkush”, “To‘y” risolachalarina qarangiz”, –deb yozadi muallif. – “Turkistonlilarning o‘z shevalarına yozub nashr etg‘on asarlarında til jihati ilə durustlik va poklik yo‘qdir...” [1, 178].

To‘g‘ri, bu asarlar o‘z davrida keng muhokama qilindi. Hatto “To‘y” dramasining mualliflaridan Hoji Muin bu kamchiliklarni tan olib, “Tanbehga tashakkur” sarlavhasi bilan iqrornoma tarzida maqola yozdi [2, 157]. “To‘y” p‘esasi o‘zbek dramaturgiyasi tarixida “Padarkush”dan keyin yaratilgan ikkinchi asar hisoblanadi. Asarning bosilib chiqishi adabiyot olamida katta quvonch bilan kutib olindi. “To‘y” chop etilganligi haqida qisqacha taqriz bergan “Oyna” asarni “ibratomuz” deb ta‘riflaydi [3, 628]. “Sadoi Turkiston” muallif sha‘niga “yashasun bunday yosh fikrli zotlarimiz!” [6, 55] deya xitob qildi. “...Til to‘g‘risidagi, ba‘zi kamchiliklarni istisno qilganda, o‘z turmushimiz durustgina tasvir qilingan”, deb yozdi. “Al-Isloh” esa asar tilidagi nuqsonlarni tanqid qildi.

“Oyna” jurnalidagi keyingi taqrizda esa asarning til xususiyatlari ancha keng tahlil etilgan [3, 23]. Muallif asarning lahja va imlodagi nuqsonlari borligini ta‘kidlaydi. Masalan, “Eshak”, “Olufta”, “O‘sha valad” kabi so‘zlarni g‘ayriaxloqiylik deb hisoblaydi. Va asarning qayta nashrida bu so‘zlarni isloh qilish zaruratini ta‘kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, “Al-Isloh”dan boshqa nashrlarda ham “To‘y” dramasining kamchilik tomonlari ko‘rsatilgan. Biroq bu masalada ham muayyan munozaralar bo‘lib o‘tgan. Jumladan, Ibrohim Tohiriyning “Al-Isloh” jurnalidagi “Matbuot va isloh” nomli maqolasiga zid ravishda “Oyna” jurnalining 1915-yil 12-sonida imzosiz “Lof” sarlavhali maqola chop etilgan. Maqolada Ibrohim Tohiriy fikrlariga zid mulohazalar uchraydi. Ibrohim Tohiriyga murojaat qilib, “Padarkush” asarining kamchilik jihatini ko‘rsating, degan savolni qo‘yadi noma‘lum muallif. Shundan so‘ng esa “Padarkush” dramasida ayrim ruscha so‘zlar borligiga iqrar bo‘lib, bu hol asarning qimmatini tushirmasligini ta‘kidlaydi. Tojik tili aralashuvini esa ota – bobolar yozgan diniy va axloqiy kitoblar va madrasa tili ta‘siri sifatida izohlaydi. Shu bilan birga “Al-Isloh” jurnalidagi Ibrohim Tohiriy maqolasiga ta‘na qilib, bunday yozadi: “Burung‘i zamonda turk shevasini tojik tilidan tozalab, soddalig‘ina va poklig‘ina qaytaruv ul qadar qiyin bo‘lmasa kerak, Tohiriy bu ikki xatlik jumlasida o‘n uch kalima turkiy, to‘qqiz kalima arabiy – forsiy yozibdurki, o‘z so‘zig‘a o‘zi amal qilmaydur...” [4, 98].

Til haqida “Oyna” jurnalida ham tanqidiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, 1914-yil 11-sonida imzosiz muallif tomonidan “Har millat o‘z tili ilə faxr etar” nomli maqola bosilib chiqqan. Maqolada xuddi yuqoridagi fikrlarga mutanosib mulohazalar bor. Muallif taassuf qilib, boshqa millatlarni misol qilib ko‘rsatadi. Qaysi millat o‘z ona tilini tashlab boshqa begona tillardan so‘z oladi, deya noliydi. Misol qilib, ruscha kalimalarning xalq tilida tez- tez tilga olinuvi, hatto drama, vaqtli matbuot tilida ham ruscha, arabcha va tojikcha so‘zlarning aralashuvini tanqid qiladi: “Ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus, yo qaysi bir arman o‘z tilini qo‘yib bir- birovı ilə turkcha so‘ylaydur. Ammo bizning so‘zlashganimiz vaqtda har bir jumlada bir kalima rus so‘zi eshitilur. Masalan: “Mango bir oz pomogot qiling”, “oni muncha ishtaraf qildilar”, “Falon odamning do‘koni pechat qilindi”. Vaholanki bul so‘zlar hammasi musulmoncha ado bo‘lina olur. Masalan, pomogat – yordam, ishtaraf – jarima, pechat – muhr...

Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘shabersak bir oz zamonda til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z – o‘zi ila albatta yo‘qolur”.

Bu masalada Ashurali Zohiriyning “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1914 yil 13- aprel sonidagi “Ona tili” nomli maqolasi diqqatga loyiqdir. Maqola “Ona tili” deb nomlangan bo‘lsa – da, unda milliy adabiyotning o‘sha davrdagi ahvoli, milliy adabiy til haqida fikr yuritilgan. Muallif maqolaning boshidayoq adabiyotning keng ma‘nosiga mana bunday ta‘rif beradi: “Bir millatning o‘z tilidag‘i kitob, risola, g‘azeta, jurnal va boshqalarig‘a bir so‘z bilan “adabiyot” deyilur. Shuning uchun arabcha kitob va risolalarg‘a “adabiyoti arabiya”, turk, tatarcha bo‘lg‘onlarig‘a “turk adabiyoti”, “tatar adabiyoti” deyilur”.

Ashurali Zohiriyning bu fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas, albatta. Maqolada muallif tili va adabiyoti bo‘lmagan yoki yetarlicha taraqqiy topmagan millatning boshqa xalqlar oldida hurmat va e‘tibori ham yuqori bo‘lmaydi, degan fikrni ilgari suradi: “....adabiyoti bo‘lmag‘on, bo‘lsa ham borliq-yo‘qliq yoki ado bo‘lg‘on chirog‘dek o‘char-o‘chmas bo‘lsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e‘tibori bo‘lmas va har nav’ hayoti ijtimoiya va madaniyadin bahra ololmaydi” [7, 156].

Ziyolilar, ulamolar umuman o‘qimishli yoshlar muqaddas ona tilimizni rivojlantirmoq u yoqda tursin, balki yo‘qotmoqlikka sabab bo‘layotganlarini ko‘rib afsuslanadi, o‘zbek tilini mensimay, fors, arab, tatar tillarida hujjat ishlarini yuritayotgan, bir–birlariga xatlar yozayotgan turkistonliklarni qattiq qoralaydi. U bunday yozadi: “Nechunki ulamolarimizdin biri biror yerg‘a xat yozsa yoki birovg‘a bergan narsasini xotira daftarig‘a yozsa, o‘z ona tilini qo‘yib fors tilida yozadurlar.... yosh o‘smurlarimiz bo‘lsalar o‘z yerliklaridan birini ziyofatg‘a chaqirub xat yozsalar ham usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar, nega ona tilig‘a hurmat shumu?” [7, 160].

Aslida, Ashurali Zohiriy o‘zga millat tillarini o‘rganishga qarshi bo‘lgan emas. Uning: “Durust, forscha, arabcha, o‘ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikkina emas, yaxshi bilaylik, lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyoda bilaylik”, – degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi [7, 165]. Muallif ona tili taraqqiyoti masalasini xalq, jamiyat, davr bilan bog‘lab tekshirishga intiladi. Uning fikricha, xalq va til bir – biri bilan chambarchas bog‘liqdir, birini ikkinchisidan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Milliy uyg‘onish ma‘rifatparvarlari adabiy tanqid, til sofligi badiiy adabiyot rivojining muhim shartlaridan ekanligi xususida shu tariqa munozara yuritdilar, haqiqatni yuzaga chiqarishga intildilar. Qaysi adib o‘z asarida boshqa tildan kirgan so‘zlarni ko‘p ishlatsa, u beayov tanqid qilindi. Hatto, o‘sha davrning eng peshqadam adiblari ham ayab o‘tirilmadi. Bu jihatdan qo‘qonlik Rasuliyning “Oyna” 1915- yil 9-sonida nashr etilgan “Shoir va milliy she‘rlarimiz” nomli maqolasi ahamiyatga molikdir. Maqolada o‘zbek shoirlari she‘rlarining ta‘sirchan emasligi sababini “...muhtaram shoirlarimizni(ng) o‘z shevasida she‘r yozmasdan she‘rlarini(ng) yarmidan ko‘prog‘i usmonlicha va tatarchadan qo‘shilganligidandur...” – deya izohlaydi. Muallif fikrini isbotlash uchun Abdulla Avloniy ijodidan misol keltiradi:

Chujuqlar tarbiyatsiz, ilmdan begonayi sarxush,

Avomunnos g‘iybat hosili afsonayi sarxush.

Shu tariqa qator misollar bilan o‘z fikrini isbotlay olgan muallif “shuaromiz millat anglamaydurg‘on tilda yozmoqlaridan maqsad nimadur?” deya savol qo‘yadi. Rasuliy maqolani shoirlarga qarata: “... emdi yozadurg‘on she‘ringizni o‘z shevamizda yozingiz ... millat she‘ringizni o‘qib foydalansin” – degan fikr bilan yakunlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Hoji Muinning tilga oid qarashlari bu boradagi munozaralar mohiyatini tushunishda, ayniqsa ahamiyatlidir. “Hoji Muin 1913- yilning oxirlariga kelib, adabiy tanqid bo‘yicha maqolasini e‘lon qildi. Shu paytdan e‘tiboran “Oyna” jurnalida uning birorta ham forsiyda yozilgan maqolasi ko‘zga chalinmaydi. Vaholanki, 1914 yilning bahor va yoz oylarida Mahmudho‘ja Behbudiy Samarqandda bo‘lmagan davrda “Oyna”ning taqdiri muharrir sifatida Hoji Muin ixtiyoriga berilgan edi. Hoji Muin ancha tadbirkor bo‘lgani sababli ikki haftadayoq jurnalning texnik va tahririy jihatlarini ancha yaxshilandi. Hoji Muin Mahmudxo‘ja

Behbudiyning istagidan bir oz chekinib, “Oyna”ni sof turkiy jurnalga aylantirib qo’ydi. Biroq jurnal muqovasidagi “turkiy – forsiy musulmon jurnali” iborasini o’zgartirmadi.

“Al-Isloh”da til xususida bo’lgan munozaralar bu muammo hayot-mamot masalasi o’laroq kun tartibiga qo’yilgan bir paytda, ayniqsa, muhim o’rin tutdi. Mutaxassislariga ayon, bu davrda Fitrat boshchiligidagi “Chig’atoy gurungi” bu masalani yanada kengroq miqyosda kun tartibiga qo’ygan edi. Buni Mo’minjon Muhammadjonov “Turmush urinishlari” nomli kitobida mana bu tarzda izohlagan: “Bu gurung”ning maqsadi: o’z tilimizni tuzatish, orasidan arabiy, forsiy tillarni imkoni boricha quvlab chiqarib ularning o’rnig’a o’z tilimizdan topib qo’yish, boyitish eski imloni tashlab maktab bolalarini yangi imloga o’rgatish edi...” [8, 315].

Haqiqatan ham, jamiyat faoliyatida til masalalari alohida o’rin tutgan. “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi?” – deya savol qo’ygan edi Fitrat “Tilimiz” maqolasida, va – “Turkcha!” deb javob bergani holda o’z fikrlariga dalillar keltiradi: “Shoirlik qilmoqchi emasman, so’zning to’g’risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog’inda bo’lg’an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizni holini bilmasdan gapuralar.... Dunyoning eng boy tili bo’lg’an turkchamiz yolg’uz arabcha qumruqlar bilan emas, forsi(y)cha tepkilar bilan daxi ezilmishdir. Ko’zlarimizni to’rt ochib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo’lg’an Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalg’an Forobiy turkdir” [9, 124]. Millatning sha’ni – sharafi, or – nomusi hisoblangan til masalasi jadid ziyolilari ijodida eng dolzarb muammo o’laroq zikr etildi.

Milliy adabiyot va milliy til rivojini bir-biridan ayri tasavvur etish mahol. Bu jihatdan, adabiyot va til haqidagi munozaralar mushtarak bir hodisaning o’ziga xos talqini ekanini ta’kidlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohim Tohuriy. Matbuot va isloh. “Al-Isloh” jurnali 1915-yil, 5-6-sonlar.
2. Hoji Muin. Tanbehga tashakkur. “Oyna” jurnali 1915-yil, 7-son.
3. “Oyna” jurnali 1914-yil, 3-son.
4. “Oyna” jurnali 1914-yil, 2-son.
5. Rasuliy. Shoir va milliy she’rlarimiz. “Oyna” jurnali 1915-yil, 9-son.
6. “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914- yil, 5-son.
7. Ashurali Zohiriy. Ona tili. “Sadoi Farg’ona” gazetasi 1914- yil, 13-aprel.
8. Mo’minjon Muhammadjonov. Turmish urinishlari (Bir mulla bolaning xotira daftari). T.: 1926, 315-bet.
9. Abdurauf Fitrat. Tilimiz. (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). T.: Ma’naviyat, 2009, 124-betlar.

O‘ZBEK MILLIY ZIYOLILARNING 1929-YILGI ALIFBO ISLOHOTIGA MUNOSABATI

Xurshid AHMADOV,
O‘zbekiston, BuxDU, tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida O‘zbekiston hududida lotin alifbosining joriy etish ba’zi masalalari va bu masalalarga milliy ziyolilarning munosabati qisqacha yoritilgan. Mazkur ziyolilardan Abdurauf Fitrat, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Qayum Ramazon, Murod Shamslarning yangi alifboga bo’lgan munosabati va ularga nisbatan bo’lgan qarshiliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: lotin alifbosi, singarmonizm, qurultoy, ziyolilar, arab imlosi, til, imlo.

1925-yil 17-fevral O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topganidan so’ng maorif sohasida ham ko’plab o’zgarishlar sodir bo’la boshladi. Jumladan, arab imlosi islohotidan so’ng 1926-yildan boshlab lotin alifbosini joriy etish masalalari boshlandi. Lotin alifbosi

masalasi nafaqat O'zbekiston SSRda, balki butun sobiq ittifoq tarkibidagi avtonom respublikalarda lotin alifbosini maorif tizimiga joriy etishga doir konferensiyalar boshlandi. O'zbekiston hududida milliy ziyolilar o'zlarining fikr va takliflari bilan butun sovet qurultoylarida va O'zbekiston SSRda bo'lib o'tgan qurultoylarda ishtirok etdilar.

O'zbek milliy ziyolilari orasida lotinlashtirishga o'z hissasini qo'shgan Abdurauf Fitrat, Shokirjon Rahimiy, Elbek, Botu va boshqalarni misol keltirsak bo'ladi. Abdurauf Fitrat nafaqat lotin alifbosini joriy etilishida balki, undan oldin arab imlosi islohotida ham o'z hissasini qo'shgan olim hisoblanadi. Abdurauf Fitratning o'zbek milliy yozuvi, imlosi, alifbosidagi xizmatlari uning o'zbek tilshunosligi tarixida tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatib beradi. Uning bu boradagi xizmatlari arab alifbosini isloh qilishda-milliyalashtirishda, ya'ni o'zbek milliy fonemasiga moslashtirishda va ikkinchisi, milliy imlo tamoyillarini ishlab chiqishda aniq ko'rinadi [1, 12].

1926-yil Bokuda bo'lib o'tgan Turkologlarning til va imlo qurultoyida o'zbeklar nomidan qatnashganlar orasida bo'lgan. Bu qurultoyda Abdurauf Fitratdan tashqari Rahimjon Inog'omov, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Elbek, B.Rahimov, Abdujabborov, Vyatkin- jami 7 kishi bo'lganlar. Bokuga borishdan oldin yuqoridagi olimlarning ikki marta majlislari bo'lib o'tgan. 26-fevral – 6 mart kunlarida bo'lib o'tgan Turkologlarning birinchi Butunittifoq qurultoyiga borgan bir guruh O'zbekiston vakillari lotinchilik oqimiga chindan tarafdor ekanliklarini bildirib o'tadilar [2, 30].

Bu davrda o'zbek xalqi orasida lotin yozuviga o'tishni xohlovchilar ko'pchilikni tashkil qilardi. Shu sababdan qurultoyda O'zbekistonlik vakillar nomidan gapirgan Bekchon Rahmon o'g'li shunday deydi: “Arab madaniyati, arab harufoti va umuman arab ta'siri natijasida O'rta Osiyo xalqlarining umumiy madaniyat ishlarida boshqa xalqlardan necha yuz yillar keyinga qolganliklarini, oyoqqa bosib keladigan yosh o'zbek madaniyatining baynalminalchilik madaniyatga yaqinlashish maqsadida, eski ta'sirlardan ozod bo'lishka tayyor” [3, 80].

Bu davrda, ayniqsa, “Milliy ittihad” tashkilotining faol a'zosi bo'lgan Shokirjon Rahimiy alifbodagi harflarning shakliy miqdori masalasi haqida, arab yozuvida ba'zi harflar 4 xil (so'z boshi, so'z o'rtasi, so'z oxiri va yolg'iz shakli), ba'zi harflar 2 xil shaklga ega ekanligini va savod o'rgatish, telegraf, matbaa ishlarida qulaylikni ta'minlash maqsadida harflar shaklini bittaga keltirishni tavsiya qiladi. Uning “Qizil O'zbekiston” gazetasining 1929-yil 12-may sonida e'lon qilingan “Imlo masalasida bir-ikki so'z” maqolasida tilimizdagi singarmonizm qonuniyati, unlilar masalasi, lab ohangi va bosh harflar masalasi xususida so'z yuritadi [4, 2].

O'zbekiston hududida lotin alifbosini joriy etilishida Botuning ham xizmatlari samarali hisoblanadi.

1921-yilgi til va imlo qurultoyida, Hasanboy Jamolxonovning ma'lumotlariga qaraganda, o'zbek yozuvini lotin grafikasiga aylantirish haqida birinchi marta Botu tomonidan taklif kiritilgan. Lekin Botu “Chig'atoy gurg'ini” nomidan fikr bildirmagan bo'lishi kerak, chunki bu paytda Botu “gurg'in” tarkibida faoliyat ko'rsatmagan, 1921-1927-yillar davomida u Moskva davlat iqtisodiyot universitetida tahsil olgan. Lotin alifbosidagi o'zbek yozuvi haqidagi qaror qabul qilinganida Botu O'zbekiston Maorif vaziri o'rinbosari vazifasida faoliyat yuritmoqda edi. Bundan ko'rinib turadiki, lotin alifbosining qabul qilinishida Botuning xizmatlari juda katta bo'lgan [5, 252].

XX asrning 20-yillarida jadidchilik tarafdorlari arab yozuvining o'zbek tili fonologik tizimini ifodalay olmasligi, shuningdek, harflar shaklini tez yozishga oid bir qator kamchiliklar borligini ta'kidlashdi. Shuning uchun bu yozuvni isloh qilishga kelishdilar, Ashurali Zohiriy arab grafikasini lotin alifbosiga o'zgartirishga dastlab qarshi edi, lekin 1926-yilgi Boku konferensiyasi qarorlaridan keyin fikrini o'zgartirdi, o'zgartirishga majbur bo'ldi. Chunki barcha turkiy xalqlar lotin alifbosini ma'qulladi va bu siyosatga qarshi turishni foydasi yo'lugini bilar edi. 1926-yil Samarqandda bo'lib o'tgan respublika til-imlo anjumanida Nazir To'raqulovning Boku konferensiyasi natijalari haqidagi nutqidan so'ng Ashurali Zohiriy so'zga chiqib, arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tish jarayonida arab yozuvida o'z ifodasini topmagan o'zbek

fonemalari uchun maxsus harflar belgilashni kun tartibiga qo'ydi. Bu masalani ko'tarib chiqishi ham Ashurali Zohiriyning kuchli fonolog ekanligidan dalolat beradi.

Ashurali Zohiriy til sofliğini saqlash jonkuyarlaridan biri bo'lganini uning matbuot sahifalarida chop etilgan qator maqolalari ham tasdiqlaydi. U 1929-yili "Qizil O'zbekiston" gazetasidagi "Til va imlo" maqolasida: "Agar ajnabiy so'zlar olinaversa, tilda soflik bita-bita, sal yilning ichida boshqa so'zlar u tilni qoplab, tanimaslik holga keltiradi va yutadi" deb uqtirgan edi. Ashurali Zohiriy til sofliğini saqlash va milliy tilni rivojlantirishni targ'ib qilgan ekan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning til sohasidagi ilmiy merosini chuqur o'rganadi. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Vaqfiya" asarlari ustida matnshunoslik tadqiqotlari olib borgan. Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va Zahiriddin Muhammadning "Boburnoma" asarlarini chop ettirgan [6, 2].

O'zbek tilining sofliğini saqlash va bolsheviklarning ruslashtirish siyosatiga qarshi bo'lgan Murod Shams til-imlo qurultoyida shunday degan edi: "Singarmonizm masalasiga kelaman. Menimcha singarmonizm saqlanishi kerak. Bu bizni tilimizning xususiyatidir. Bu imloga osonlik beradi. Lekin qanday yo'lga saqlanishi lozim. O'z so'zlarimizda tamoman, chet so'zlarda mumkin qadar istisnolar bilan qabul qilamiz". Bu so'zlardan keyin Murod Shamsni aksilinqilobiy nazariya tarafdori sifatida matbuotda qattiq tanqid qilishadi. U o'zbek tilidagi so'zlarni "o'z so'z" va "chet so'z" deb ajratishni olg'a surganlikda ayblanadi. Murod Shams va boshqa yuqorida keltirilgan ziyolilarning bu chiqishlari Stalinning "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat" to'g'risidagi qarashlariga hamda kommunistik partiyaning milliy siyosati va bolsheviklarning "internatsional g'oyalariga" zid edi [16, 114-115].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekiston SSRda lotin imlosini joriy etilishida milliy ziyolilarning qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, maktablarda yangi alifboning joriy etilishi va o'rgatilishiga katta yordam berganliklari sir emas. Lekin SSSRning yuritgan "madaniy siyosati" yangi imloning uzoq davom etmaganini 1941-yilda lotin yozuvidan kirill alifbosiga o'tilganidan bilib olsa bo'ladi. Yuqoridagi ba'zi ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, dastlab arab imlosining islohoti va so'ngra lotin alifbosining joriy etilishiga mahalliy olimlar xayrixoh bo'lgan, bundan ular mazkur davrda ham mamlakatning rivojlanishi uchun islohotlar o'tkazish dolzarb masala ekanligini isbotlab turganlar. Chunonchi, lotin alifbosining joriy etilishi ortidan ilg'or va zamonaviy texnik vositalardan tez va oson xalq manfaati uchun foydalanishni ko'zlagan bo'lsalar ajab emas. Lekin, shu bilan bir qatorda sovet hukumati o'zining materialistik g'oyalarini yangi alifbo orqali xalq ongiga singdirishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М. Курбонова. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. Тошкент-1997. 48 бет.
2. Yaxshiboyev J. Shokirjon Rahimiy va uning tilshunoslik merosi. Bitiruv malakaviy ish. Toshkent-2018. 30 b
3. Eltazarov J.D. O'zbekistonda XX asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan.
4. Azimov I. Adabiy til barcha uchun birdek tushunarli bo'lishi lozim. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/anons/77>
5. X. Ahmadov. Chig'atoy gurungida til va imlo masalasi. O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi. – Toshkent, 2023. 343 bet.
6. Jamolova D. "Kundan-kun, yildan-yil o'tgan sari tilimiz oqmay qolg'an suvdek muzlamoqqa boshladi" – bir asr oldingi og'riq. <https://oyina.uz/uz/article/1159>
7. Рашидов. О. Ўзбекистон ҳудудида миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонидаги кураши (1917 – 1938 йй.) [Матн] / – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2022.- 280 б.(114-115 б).

5-SHO'BA. TA'LIM BOSQICHLAIDA JADIDCHILIK VA JADID ADABIYOTINING O'QITILISHI

OLIY TA'LIMDA "QODIRIY-O'ZBEK ROMANCHILIK MAKTABINING ASOSCHISI" MAVZUSIDAGI AMALIY MASHG'ULOTNI TASHKIL ETISH

Saodat MO'MINOVA,
O'zbekiston, QarDU, f.f.n., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda Abdulla Qodiriy o'zbek romanchilik maktabining asoschisi mavzusidagi amaliy mashg'ulotni tashkil etish yo'llari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'z va iboralar: metod, mashg'ulot, adib, roman, badiiyat, tahlil

Jamiyatning qaytarzda taraqqiy etishi jamiyat a'zolarining ma'naviy qiyofalariga bog'liq. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan adabiy ta'limning samaradorligini oshirish, uni to'g'ri ilmiy asoslar ustiga qo'yish nafaqat nazariy, balki sof amaliy ahamiyatga ham egadir. Chunki har qanday tarbiya muayyan hayotiy tajriba, ma'lum bir insoniy xususiyatlar tizimi, o'zigagina xos rasmiy belgilar, aniq insoniy ruhiyat ustiga quriladi. Bu esa ulug' adiblarning, xususan, "Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonli yigit" [2, 234], millatimiz fidoyisi, milliy adabiyotimiz faxri Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini, ular yaratgan noyob badiiy asarlarni mukammal o'qitish lozimligini anglatadi.

Quyida oliy ta'limda jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodini, uning o'zbek romanchilik maktabining asoschisi ekanligini o'qitish haqida fikr yuritmoqchimiz.

O'qituvchi amaliy mashg'ulotning mavzusi, rejasi, mavzuga aloqador adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilganidan so'ng, mashg'ulotni boshlaydi. Biz, avvalo, mashg'ulotning texnologik xaritasini tuzib olamiz.

"Qodiriy - o'zbek romanchilik maktabining asoschisi" mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	O'tilgan mavzuni eslatadi. Erishish lozim bo'lgan natijaga talabalarning diqqatini qaratadi.	Tinglaydi
2-bosqich. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1. Mavzuga oid tahlillarni bajartiradi. 2.2. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. Adib hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar asosida "Klaster" jadvalini to'ldirishni vazifa qilib beradi. (1-ilova) 2.3. "Keys" topshiriqlarini bajartiradi.(2-ilova) 2.5. Javoblar taqdimotini o'tkazadi.	Talabalar berilgan topshiriqlarni yakka, yoki kichik guruhlarda bajaradi
3-bosqich Yakuniy (20 daqiqa)	3.1. Talabalarning "Men sevgan adabiy qahramon" mavzusida yozgan esselarini o'qitadi, xulosalarni aytib o'tadi. 3.2. Talabalarning faoliyatini baholaydi. 3.3.Uyga beriladigan topshiriqlarni e'lon qiladi.	1.Savol beradilar. 2.Tinglaydilar. 3. Dars haqida o'z fikrlarini bildiradilar

Topshiriq. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir olgan bilimlaringiz asosida “Klaster” tuzing.

Topshiriqning bajarilishi: guruh 3 ta kichik guruhga bo‘linadi va har bir guruh uchun quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh: Abdulla Qodiriyning tarjimai holiga oid ma’lumotlarni yozish.

2-guruh: Abdulla Qodiriyning hikoya va qissalari, ulardagi obrazlar haqidagi ma’lumotlarni yozish.

3-guruh: Abdulla Qodiriyning romanlari, ulardagi obrazlar haqida ma’lumotlarni yozish.

Har bir guruh orasidan lider tanlanadi va bu liderlar guruh a’zolari bilan birga ishlab, “Klaster” jadvalini to‘ldiradilar va taqdimot qiladilar.

Maqsad: Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi, o‘rganilishi, tarjimai holi haqida batafsil bilimga ega bo‘lish, asarlarini tahlil qilish, romanlari poetikasini aniqlash, adibning o‘ziga xos ijodkor ekanligini ko‘rsatish.

Keys topshirig‘i . “Nozik masala”

Berilgan matnlarni o‘qing va unda aks etgan vaziyatni tahlil qiling.

1-guruh uchun matn:

“— Uylanganmisiz?

— Yo‘q.

Hasanali Otabekning yolg‘iz “yo‘q” bilan to‘xtashiga qanoatlanmadi va bu to‘g‘rida o‘z tomonidan izohlar berishni lozim ko‘rdi:

— *Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalangan bo‘lsa ham, — dedi, — avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo‘lg‘an qarshiliq-laridan bu kungacha to‘y qilolmay kelamiz. Ulug‘ xo‘jamizning qat‘iy niyatlari bu safardan qaytg‘ach bekni uylandirishdir.*

— *Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. — Uylangach, xotining tab‘ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo‘qsa, munchalik og‘ir gap dunyoda bo‘lmas.*

Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

— *So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, — dedi,— ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladiring‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’ bo‘lsin” [1,11].*

2-guruh uchun matn

“— *Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e’tirozlanib, — xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa bas. Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko‘z qirini tashladi” [1,11].*

3-guruh uchun matn

“— *Uylanishdagi ixtiyorimiz, — dedi Rahmat, — ota-onalarimizda bo‘lg‘anliqdan, oladiring‘an kelinlari o‘g‘illarig‘a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o‘zlariga yoqsa bas. Bu to‘g‘rida uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo‘lmay, bu odatimiz ma‘qul va mashru‘ ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo‘lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol men ham xotining‘a muvofiq emasdirman... So‘zingiz juda to‘g‘ri, bek aka” [1,11].*

Keys topshirig‘i:

1. Parcha romanning qaysi bobidan olingan?
2. Parchadagi vaziyatga baho bering. Siz Otabekning o‘rnida bo‘ib qolsangiz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

3. “Oladiring‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’ bo‘lsin” degan jumlaning tahlil qiling. Sizning fikringiz qanday?

4. “— Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e’tirozlanib, — xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan

erga muvofiq bo'lsa bas" jumlasini tahlil qiling va xulosangizni ayting. Homidning fikrlariga munosabat bildiring.

5. "— Jiyan, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing, albatta, ota-onang uchun bo'lib ulardan ranjib yurishingni o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishi-ning ishi emas". Jumladagi fikrga munosabat bildiring.

6. Sizningcha, Homid haqmi yoki Otabek?

Bundan tashqari masalani yechishda talabalarga **"Ikki qismli kundaliklar"** usuli yordam beradi. Bu usul talabalarni matn ustida ishlashda tafakkurini o'stiradi, taqqoslashni o'rgatadi. Matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi.

"Ikki qismli kundalik" uchun talabalar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratadi. Qog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg'otar. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi? Ularda qanday fikrlar uyg'otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi? Qisqasi, matnni o'qirgan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak. Bu talabalarda matnni yanada batafsilroq tushunishlariga yordam beradi.

Ikki qismli kundaliklar

1. 1. "Birodarlar! O'ris askarlari o'z ichimizdan chiqadigan fitna-fasodni kutib darbozamiz tagida qo'r to'ib yotibdi. Shunday mahshar kabi bir kunda biz chin yovga beradigan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon deb qirilishsak, holimiz nima bo'ladi? Bu to'g'rida ham fikr qiluvchilar bormi?" 2. "Yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lda, bir-birini yeb ichgan mansabparsat, dunyoparast va shuhratparsat muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizing odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi.. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv qo'yadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'liga qoldirgan bo'larmiz. O'z naslini kofir qo'liga tutqun qilib topshiruvchi — biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim!"	1. Bu Yusufbek hojining gaplari. Millat, yurt taqdirini o'ylab jon kuydirgan. Bek-amaldorlarni insofga, birlikka chaqirgan. 2. Haqiqiy millatparvar, ziyoli insonning fikri shunday bo'ladi.
--	--

Yuqoridagi metodlarni qo'llaganda, talabalarining faolligi oshadi, mavzu yuzasidan erkin ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar, mashg'ulotdan kutilgan natijaga erishiladi, qiziqarli o'tadi. Mashg'ulot yakunida har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazadi. O'qituvchi darsni yakunlaydi va talabalarining ballarini e'lon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent: Ga'fur G'ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. U.Normatov. Ijodkorning haroratli so'zi. Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2015.

O‘ZBEK JADID ADABIYOTINI O‘RGANISH MASALALARI (ADABIYOTSHUNOS BEGALI QOSIMOV TADQIQOTLARI MISOLIDA)

**Umriniso TO‘RAYEVA,
O‘zbekiston, BuxDU, PhD**

Annotatsiya. Jadidchilik va jadid adabiyoti bo‘yicha o‘zbek va jahon olimlari tomonidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jadidchilik mohiyatini, jadid adabiyotining yuzaga kelishi, dastlabki namoyandalari faoliyatini o‘rganishga kirishgan va ulkan natijalarga erishgan adabiyotshunos olim Begali Qosimovning tadqiqotlari shu yo‘nalishdagi ishlar uchun nazariy va amaliy asos vazifasini o‘tadi. Shu nuqtai nazardan olimning serqirra faoliyati hamisha adabiyotshunosligimiz e‘tiborida bo‘lib keldi. Ushbu maqolada adabiyotshunos, qomusiy olim Begali Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining jadidchilik borasida olib borgan tadqiqotlari qamrab olindi.

Kalit so‘zlar: jadid, jadidshunos, milliy uyg‘onish, jasorat, ma‘rifat, fidoiylik, “Izlay-izlay topganim”.

Jadid adabiyoti yangi o‘zbek adabiyotiga tamal toshini qo‘ygan dastlabki davr sifatida muhim o‘rin tutadi. Ta‘kidlash kerakki, bu davr o‘zbek mumtoz va yangi o‘zbek adabiyoti o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tadi. Shu davrdan boshlab, adabiyotning ijod yo‘nalishi, janrlar tizimi, badiiy tasvir prinsiplari yangilandi, mavzular olami boyidi. Ushbu jarayonga xos xususiyatlarni, shakllanish va takomil bosqichlarini nazariy asosda fundamental tekshirish ilmiy ehtiyojga aylandi. Jadidchilik mohiyatini, jadid adabiyotining yuzaga kelishi, dastlabki namoyandalari faoliyatini o‘rganishga kirishgan va ulkan natijalarga erishgan adabiyotshunos olim Begali Qosimovning tadqiqotlari shu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos vazifasini o‘tadi. Shu nuqtai nazardan olimning serqirra faoliyati hamisha adabiyotshunosligimiz e‘tiborida bo‘lib keldi.

Uning faoliyati nafaqat o‘zbek olimlari, balki xorij olimlarining ham nazariga tushdi. Mazkur jihatlarni inobatga olib, Begali Qosimov ijodining adabiyotshunosligimizda o‘rganilishini ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

I. O‘zbek adabiyotshunosligida jadidshunos Begali Qosimov tadqiqotlariga munosabat masalasi.

II. Begali Qosimovning jadidshunos sifatida xalqaro miqyosda e‘tirof etilishi.

Birinchi guruhga kiruvchi tadqiqotlar ham janriy jihatdan rang-barang. O‘rganish va tahlillar natijasida o‘zbek adabiyotshunosligida Begali Qosimov faoliyatiga munosabatni quyidagicha tasnifladik:

1. *Olim kitoblariga yozilgan so‘zboshi xarakteridagi maqolalar, taqrizlar.*
2. *Ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan adabiy-tanqidiy maqolalar.*
3. *Ijodiy biografiyasini yoritishga qaratilgan ixcham adabiy chizgilar.*
4. *Do‘stlari, hamkasblarining taassurot va esdaliklari asosida yaratilgan xotira maqolalar, yodnomalar.*

1. Olim kitoblariga yozilgan so‘zboshi xarakteridagi maqolalar, taqrizlar. Istiqlool davri o‘zbek adabiy tanqidi nuqtai nazaridan olib qaraganda, sobiq sho‘rolar davrida jadid adabiyoti, tarixi faqat burjua harakati sifatida tilga olingan, ma‘rifatparvar adiblar ijodining ayrim asarlari va faoliyatlari noto‘g‘ri talqin etilgan bir davrda, B.Qosimovning «Milliy uyg‘onish: jasorat, ma‘rifat, fidoiylik» nomli keng ko‘lamli, har jihatdan ilmiy asoslangan yirik tadqiqoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Olimning sho‘ro davri ilmiy faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlaridan biri shu davr bilan bog‘langani va buning natijasi sifatida «Izlay-izlay topganim...» nomli risolaning yaratilganligi ham mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshirgan. Ushbu kitobning yana bir muhim jihati, B.Qosimov ushbu mavzu doirasida o‘zigacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga o‘z prinsiplaridan kelib chiqib yondashadi. Olim ulkan va nihoyatda ziddiyatli davr hisoblangan XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy harakatchilikni milliy istiqlool mafkurasi g‘oyalari asosida tadqiq va talqin etdi. Bu tamoyil, ayni paytda, o‘zining tahlil

prinsiplarini shakllantirayotgan o'zbek adabiy tanqidchiligi faoliyatida ham jiddiy yangilanishlarga turtki bo'ldi [1, 216].

Olimning Turkiston tarixi XX asr boshidagi eng muhim hodisalaridan hisoblangan jadidchilik harakati bilan tanishtirish yo'lidagi izlanishlari samarasi sifatida yuzaga kelgan, adabiyotshunos Sh.Yusupov va O.Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, "40 yilda yaratilgan "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli darsligi jadidchilik davri adabiyotini keng qamrovda o'rganishga imkon yaratdi. Qolaversa, olimlarning ushbu kitob haqidagi turli fikr-mulohazalari, maqolalari chop etildi. Yozuvchi Xurshid Davron 2002-yilda nashr etilgan ushbu kitobga bag'ishlangan maqolasida: "Milliy uyg'onish" kitobi tom ma'noda Begali Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining eng yuksak cho'qqisi sifatida baholanishi kerak. Mening nazarimda, – deydi yozuvchi, bu kitob faqat olis o'tmish hodisoti haqida emas, bugungi kunda ham o'zbek ziyolisini qiynayotgan savollarga javob topishga yordam va yo'llanma beradigan, ma'rifatparvar bobolarimiz tajribalaridan, ularning xato va adashuvlaridan ogohlantiradigan, yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqaradigan dasturilamalidir. Bugungi yangi jamiyat, yangi madaniyat va yangi adabiyot qanday tamoyillar zaminida shakllanishi lozim? Bugun o'zbek kishisi, avvalo, ziyolisi qaysi yo'lni tanlamog'i, nimani himoya etmog'i, nimaga qarshi kurashmog'i, xalqni, uning ilg'or qismini qanday ishlarga da'vat qilmog'i kerak? Ustoz va muallim Begali Qosimov xalqimizning milliy istiqlol uchun kurashida yorqin sahifani tashkil etgan jadid adabiyotini o'rganishga butun umrini baxsh etdi, o'zi ham jadidona fidoyilik bilan yashadi, ijod qildi, ulug' ma'rifatchi insonlarning maqsadi qismatiga, orzulari hayoti mazmuniga aylandi. U bugungi kun jadidi edi" [2]. Olimning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli kitobi 2021 yil noyabr oyida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston Kinematografiya agentligi" xodimasi F.Abdullayeva tomonidan rus tiliga tarjima qilina boshlanganligi ham mavzuning dolzarbligini ifodalaydi [2].

Adabiyotshunos N.Jabborov Begali Qosimovning "Izlay-izlay topganim..." nomli monografiyasi chop etilishi haqida yozgan "Izlay-izlay topilgan xazina" maqolasida ham millatning asl o'g'lonlari, jadid bobolarimiz faoliyatini qanday bo'lsa, shundayligicha o'rganish ta'qiqlangan zamonlarda, sho'rolar asr boshlari o'zbek adabiyotidan to'rt ijodkorni – Hamza, Sadridin Ayniy, Zavqiy, Avazni ajratib bergan, boshqa yuzlab shoiru adiblar faoliyatiga qora chiziq tortilgan murakkab va ziddiyatli bir davrda jadid mutafakkirlari hayoti, ijodini o'rganishga sidqidildan bel bog'lagan olimning jasorati haqidagi qarashlari teran ifodalangan [4, 203-204]. Bu kabi maqola va taqrizlarda olimning jadid davri adabiyoti vakillari, ular asarlarini adabiyot ahliga o'z holicha yetkazish, ma'lum bir davrda millatimiz fidoyilarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida ro'y bergan ulkan yangilanishlar mohiyatini teran anglash imkonini berganligi e'tirof etilganligiga guvoh bo'lamiz.

2. Ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan adabiy-tanqidiy maqolalar. Begali Qosimovning ilmiy faoliyati keng qamrovli. U mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti, milliy uyg'onish davri adabiyoti, matnshunoslik kabi sohalarda fundamental tadqiqotlar yaratdi. Begali Qosimovning bu yo'nalishdagi faoliyati to'g'risida adabiyotshunoslar, shoir, yozuvchi va munaqqidlarning qator maqolalari chop etilgan. A.Oripovning "Ilmda qo'riq ochgan olim", O.Sharafiddinovning "Izlagan olim bo'ladi", R.Tojiboyevning "Ma'rifat fidoyisi", M.Sa'diyning "Muallimning to'yi", N.Komilovning "Tarix haqiqatini aytish zahmati – sharaf", H.Sattoriyning "Beshikka osilgan qo'ng'iroq", S.Axmedovning "Tariximizning tolmas tadqiqotchisi", A.Rasulovning "Ustozlar izidan", M.Alining "Bir daraxtning mevalarimiz", N.Jumaxo'janing "Haqiqatkash olim", S.Umirning "Shijoat", R.Mahmudovning "E'tiqod", Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayevlarning "Fidokor olim", Q.Yo'ldoshevning "Olimning olami", B.Karimovning "Ustoz ibrat", O.Sharafiddinovning "So'nggi jadid qissasi" kabi maqolalari shular jumlasidandir.

2012-yilda nashr etilgan "So'nggi jadid qissasi" (Begali Qosimov zamondoshlari xotirasida) xotira kitobida U.Dolimov, B.Karimov, N.Jabborov, U.Jo'raqulov, Z.Hamidov, Sh.Rizayev, Q.Yo'ldoshev, N.Jumaxo'ja kabi adabiyotshunos olimlar ham uning adabiyotshunoslik ilmiga qo'shgan ulkan hissasini alohida ta'kidlaganlar. Bularidan istilol sharofati tufayli olim milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodiga oldindan mavjud qoliqlar asosida

emas, balki yangi shakllanayotgan milliy mafkura, Vatan va xalq, millat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashganligining guvohi bo'lamiz. Hatto nomlarini tilga olish ham mumkin bo'lmagan jadid adiblari asarlarini, har birining ijod namunalarini kompleks tarzda o'rganishni boshlab berganligi, eng muhimi, XX asr boshidagi jadidchilik harakatiga ilk marotaba to'g'ri metodologik yondashuv asosida tizimli yondashganligi olimning ilm yo'lidagi jasorati edi. Olimning jadid ma'rifatparvar ijodkorlari bo'yicha qilingan tadqiqotlarida tarixiy davr, aniq sana va voqealar, hatto badiiy asarlar g'oyasi mufassal tadqiq etildi, bu adabiy portret tarixiy-adabiy, biografik metodda yaratilgan mutafakkir adib va davlat arbobi Fitrat, shuningdek, Mirmuhsin, Munavvarqori, Qodiriy, Cho'lpon, Siddiqiy Ajziy, Tavallo kabilarning hayoti va ijodini, asarlari, ular chop etilgan konkret vaqt, o'sha vaqtda ruy bergan voqea hodisalar ko'rinishida qiyosiy tahlil etildi. Begali Qosimov o'zi o'rgangan jadid ma'rifatparvarlari singari qomusiy olim sifatida fanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shdi. Buni biz bevosita, yuqorida sanalgan, u yaratgan ilmiy va fundamental tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin.

B.Qosimov ilmiy faoliyatini yoritish va uning ilm-fan oldidagi xizmatlarini e'tirof etib, shogirdlari tomonidan 2002-yilda bibliografik ko'rsatkich tartib berilgan. Bibliografik ko'rsatkich olim ilmiy va ijodiy faoliyatining 2002-yilga qadar qilingan tadqiqotlarini qamrab olgan bo'lib, bizning ushbu dissertatsiya ishimiz olimning istiqloldan oldingi va 2002-yildan keyingi tadqiqotlari qiyosan o'rganildi va tahlil etilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. 2002-yilda tartib berilgan bibliografik ko'rsatkich va mazkur dissertatsiya ishi, Begali Qosimov ilmiy faoliyatining ko'lamini, qamrovi darajasini belgilab berishda muhim sanaladi. Bibliografik ko'rsatkich olim faoliyati qamrovi, ilmiy tadqiqot doirasini kompleks tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etganligi bilan qimmatlidir.

Adabiyotshunosligimizda Begali Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining o'rganilishi, ilk marotaba 1992-yildan olimning 50 yoshga to'lishi munosabati bilan boshlangan bo'lib, ularda, olimning insoniylik fazilatlarini ulug'langan va adabiyotshunoslikdagi xizmatlari u yoki bu darajada e'tirof etilgan. Jumladan, O'zbekiston Qahramonlari A.Oripov, O.Sharafiddinov, adabiyotshunos olimlar M.Sa'diy, N.Komilov, A.Rasulov, M.Ali, S.Axmedov, N.Jumaxo'ja, Q.Yo'ldoshev, B.Karimov, S.Umirov, R.Tojiboyev singari ustozlar, olimning safdosh do'stlari va shogirdlarining maqolalari bu jihatdan e'tiborli. Shunday bo'lsa-da olimning do'stlari, hamkasblarining taassurot va esdaliklari asosida yaratilgan xotira asarlar, yodnoma mazmunidagi maqolalar 2012-yilda chop etilgan ustoz olimning 70 yillik yubileyi munosabati bilan chop etilgan "So'nggi jadid qissasi" (Begali Qosimov zamondoshlari xotirasida) nomli ilmiy kitobida o'z ifodasini topgan. To'plamdan o'rin olgan 100 ga yaqin olim, professor, fan doktorlari va adabiyot ixlosmandlarining esse, xotira maqolalarida B.Qosimov faoliyatining turli qirralari mumtoz adabiyot, matnshunoslik doirasidagi tadqiqotlari, zamonaviy adabiyot va adabiyotshunoslikka doir qarashlari, shuningdek, jahon adabiyoti va adabiy aloqalariga oid ilmiy qarashlari e'tirof etilgan.

Olimning 1967-yilda jadid adabiyotini o'rganish, bu adabiyotning xos xususiyatlarini, shu davrda yashagan ijodkorlar faoliyatini yuzaga chiqarish yo'lidagi dastlabki qadam sifatida yozilgan jadid ma'rifatparvari Mirmuhsin-Fikriyga bag'ishlangan "Mirmuhsin Shermuhamedov va uning adabiy muhiti" nomli dissertatsiyasi uning jasorati edi. Chunki jadid degan so'zni yozish tugul aytish ham tahlikali bo'lgan davrda yuzaga keldi bu tadqiqot. Ushbu tadqiqot natijasi sifatida yozilgan risola "Mirmuhsin Shermuhamedov va uning adabiy muhiti" haqida ham davriy matbuotda o'sha yilda N.Narzullayev, U.O'ljaboyev, 1973-yilda nashr etilgan "Siddiqiy-Ajziy"ning tanlangan asarlari kitobiga munosabat tariqasida S.Halimov, A.Abdurahmonov, 1977-yilda yozilgan "Inqilobiy she'riyat sahifalari" kitobiga U.Dolimov, S.Axmedov, N.Jumaxo'jalarning maqolalari chop etildi. Shu kabi "Abdulla Avloniy", "Izlay-izlay topganim...", "Isyonkor qalb" (Mirmuhsin Shermuhamedovning 90 yilligiga bag'ishlangan. T., 1985), "Salom, kelajak" (1986), "Ismoilbek Gasprali" (1992), "Behbudiy. Tanlangan asarlar" (1997), "O'zbek adabiyoti" darsligi (1999), shuningdek, "Istiqlof fidoyilari" rukni ostida yaratilgan asarlari haqida ham olim va adabiyotshunoslar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Begali Qosimov jadidchilik va jadid adabiyoti, qolaversa, jadidshunoslikka xos

umumiy mavzu va motivlarni aniqlash, ularning rivojlanishini tekshirar ekan, jamiyatda madaniyatlararo munosabatlarga milliylik va umuminsoniylik nuqtai nazaridan yondashgan. Olim tadqiqotlari nafaqat adabiyot tarixidagi oqimlar, mualliflar va asarlar o'rtasidagi taqqoslashlarda mushtarak va farqli tomonlarini aniqlashga e'tibor qaratilganligi bilan qadrlil, balki o'zbek xalqining adabiy-mafkuraviy taraqqiyotini ham ochib berishi bilan muhim ahamiyatga ega. Olim ilmiy faoliyati mundarijasiga razm solar ekanmiz, dastlabki qiyosiy yondashuvlar muammoli mushohada o'rta tashlanganini ("Izlay-izlay topganim..."), keyinchalik esa bu fikrlar kuchli nazariy asoslarga aylanganining guvohi bo'lamiz ("Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti").

Umuman olganda, serqirra millatparvar olim Begali Qosimovning ko'p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari, yaratgan yaxlit tadqiqotlari, u yozgan darslik, qo'llanmalarini o'zbek adabiyotining nihoyatda murakkab va bahsli bo'lgan davri jadidchilik haqidagi xolis xulosalari, tahlillari adabiyotshunoslikda yangi yo'lni ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Б. ва бошқ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. –Т.: Тафаккур қаноти, 2012. – Б. 216.
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ozod-sharafiddinov-songgi-jadid-qissasi>.
3. Сўнгги жаҳид қиссаси” (Бегали Қосимов замондошлари хотирасида). –Т.: Турон-иқбол, 238.

JADID MA'RIFATPARVARLARINING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI

**Okila TURAKULOVA,
O'zbekiston, TDO'TAU, PhD, dotsent,**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta'kidlash lozim. O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi. O'ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev "Biz ma'rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz" degan edilar o'z nutqlarida [1].

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi [2, 433].

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari –Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi

xalqlarni birlashtirish va butun o'lkani milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi" [3,41]. Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar.

Sog'lom farzandlarni tarbiyalash uchun o'qib-o'rganib ilmi, ma'rifatli, eng asosiysi esa, ota-onalar o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta'kidlagan. Jadidlar ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta'kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o'qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o'quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini uqtirganlar. Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi. O'zlikni anglash degani -bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki, har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi. Yosh avlodning maktabdagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g'oyga ham jadidlar alohida e'tibor berganlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraganlar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o'z maktablari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhiningina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalmillik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular, bolalar, yoshlar tarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ularning o'zlari mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerakligini tadbiq etgandir.

- Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

- Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.
- Jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarida innovatsion g'oyalarni joriy qilish edi.

Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o'zgartirishni, ularning ma'naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash g'oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan maqsadni ilgari surdi. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan.2023 yil 6-mart.

2. A.Yu.Axmedov. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2023. B.433.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. B. 41.
4. O.A. Turakulova Textual analysis as a means of developing pupils' reading culture in the process of literary learning. International Journal of Psychosocial Rehabilitation Issue. 15 Jan 2020. – P.3003-3014.
5. O.A. Turakulova. Reading in students during textual analysis as a means of developing culture. 2020. – No.10. – P.181-188.

QATAG'ON QILINGAN IJODKORLAR ASARLARINI QAYTA NASHR QILISH MUAMMOLARI

**Soxibaxon ISLOMOVA,
O'zbekiston, AndDU, PhD**

Annotatsiya: Maqolada XX asrning boshlarida qatag'on qilingan milliy adabiyotimiz darg'alari asarlarining qayta nashr qilish muammolari aniqlanib, ularning yuzaga kelish sabablari Cho'lpon hayoti va ijodi misolida batafsil yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jadid, qatag'on, taxallus, imlo islohotlari, ilmiy-tanqidiy matn, she'rlarning grafik shakllantirilishi.

O'tgan asrning boshlaridagi qatag'onlar milliy adabiyotimiz oydinlari bo'lgan ko'plab yozuvchi va shoirlarimizni ijodi ayni gullagan vaqtida hayotdan olib ketdi. Hurriyatning ilk shabadalari esa boshlagan 80-yillarning oxirlaridan boshlabgina yurtimizda mazkur iste'dod sohiblarining nomlari dadil tilga olinib, ijodi qaytadan o'rganila boshlandi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng esa bu jabhadagi ishlar keng ko'lamda yo'lga qo'yildi. Hozirga qadar o'tgan qariyb o'ttiz yil mobaynida bu borada juda ko'p ishlar qilindi: Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlari vaqtli nashrlarda qaytadan chop qilindi, ularning kitoblari, alohida to'plamlari nashr qilindi. Nihoyat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lponning ko'p jildlik asarlari to'plamlari yaratildi. Ma'naviyat nashriyoti tomonidan turkum kitoblar nashr qilindi va h.k. Aytilganlar, shubhasiz, mazkur yo'nalishda juda ko'p ishlar qilinganini ko'rsatadi. Biroq masalaning ikkinchi muhim tomoni borki, hozirgacha unga yetarli e'tibor berilmay kelinayotir. Gap mazkur qayta nashrlarning sifati, aniqrog'i, hozirgi yozuvga o'girilishi, imlosida kuzatiluvchi har xilliklar haqida. Qayta nashrlarni o'qiganda, ularda so'zlarning va so'zshakllarning yozilishi, ba'zi tinish belgilarining qo'llanilishidagi harxilliklar, ayrim she'rlarning grafik shakllantirilishidagi farqlar, muayyan ijodkor to'plamiga muallifligi tugal aniqlanmagan asarlarning kirib qolishi kabi e'tirozli hollarga bot-bot duch kelamiz. Albatta, bu holatni keltirib chiqargan obyektiv omillar mavjudki, avvalo, shularga to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, qatag'on qilingan ijodkorlarning shaxsiy arxivlari saqlangan emas. Ularning ayrimlari hibsga olingunlariga kadar ehtiyot chorasi o'laroq qo'lyozmalarini yo'q qilganlar; ayrimlarining arxivlari hibsga olingan payti yo'q qilingan yoki ro'yxat qilib olib ketilgan ko'yi bedarak yo'qolgan. Xullas, hozirda qayta chop etilayotgan asarlardan aksariyatining qo'lyozmalar(avtograf)i yo'q. Shu sababli ham ularning asl matni sifatida mualliflar hayotdalgida kitoblar, gazeta-jurnallar, turli almanax va to'plamlarda nashr qilingan matnlarni qabul qilishga majburmiz. Tabiiyki, ushbu nashrlardagi matnlarni mutlaq muallif qo'lyozmasi deb tushunish to'g'ri emas, ularning farqli bo'lishi tabiiy. Chunki har qanday asarning chop etilishidan oldin muharrirlar tomonidan tahrir qilinishi natijasida matnda muayyan o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lishi ehtimoli juda katta. Buning dalili sifatida Abdulla Qodiriyning 1925 yilda nashr etilgan "O'tkan kunlar" romanining 2-qismidan o'rin olgan "Uzr"ini keltirish kifoya. Birinchi qism chop qilinganida ish ustida bo'lmagan adib "imlosi uch-to'rtta imlochilarimiz tomonidan tuzatilib (!) ajoyib bir quroq holiga keldi, musahhihlarimizning musohalalari orqasida

texnika jihatida ko'z ko'rib, quloq eshitmag'an bir yo'sinda chiqdi" [6, 124] deya yozg'iradi. Hech shubhasiz, asarining kitob yoki vaqtli matbuotdagi nashridan bu kabi qoniqmaslik holati boshqa ijodkorlarda ham bo'lganki, bu muallif qo'lyozmasi bilan ilk nashr varianti bitta narsa emasligiga kuchli dalildir. Demak, biz asosiy tayanch matn sifatida qabul qilayotgan ilk nashr matnlariga ham tanqidiy nigoh bilan boqishga burchlimiz. Chunki Abdulla Qodiriy romani nashri bilan bog'liq bo'lgan bu kabi xatoliklar boshqa jadid ijodkorlarining asarlari nashrida ham uchramasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Xulosa qilish mumkinki, o'sha davr matbuotida chop etilgan asarlarning matnini aynan muallif matni deb qaray olmaymiz va buni doimo yodda tutishimiz kerak. Shunday bo'lsa-da, boshqa choramiz bo'lmaganidan qayta nashrlarda ilk nashrlarga asosiy matn sifatida tayanishga majburmiz.

Jadid adabiyoti vakillarining asarlarini nashr qilishdagi muammolardan biri – taxallus masalasidir. Ma'lumki, jadid adabiyoti boshqa davr adabiyotlaridan ijodkorlarining ko'p taxallus va imzolarini qo'llagani bilan ham keskin ajralib turadi. Mazkur holat, bir tomondan, davr matbuotida hukm surgan urf bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'ziga xos ehtiyot chorasi ham edi. Bu taxalluslar va imzolar kimga tegishli ekanligi haqida hujjatli dalillar emas, balki ko'proq og'zaki xotiralarga asoslangan holda aniqlashtirish holatlari ham turli muammolarni keltirib chiqargan. O'sha davrda qo'llangan adabiy taxalluslar haqida Oltoy (Bois Qoriev) ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1967 yil 1-sonidan o'rin olgan "Adabiy taxalluslar haqida" nomli maqolasida ushbu masalaga to'xtalib o'tgan. Maqola muqaddimasida redaksiyadan muallif va mavzu haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan: "Hozirda bu taxalluslarni aniqlash ustida adabiyotshunos Bois Qoriev (Oltoy) ish olib bormoqda. U matbuotni birma-bir varaqlash, shaxsiy xotiralarni tiklash va izlanish-surishtirishlar natijasida jiddiy yutuqlarga erishdi. Mazkur ishda aniqlangan taxalluslar bilan birga aniqlanmaganlari ham keltirilib, o'sha davr vaqtli matbuotida uchraydigan adabiy taxalluslar lug'ati shartli ravishda uch qism(doimiy, o'tkinchi va qisqartirilgan)ga bo'linadi va har bir qism alfavit tartibda beriladi" [5, 51]. Bois Qorievning ma'lumotnomasini ko'zdan kechirar ekanmiz, bir necha ijodkor bir taxallusdan foydalanganiga bot-bot guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Muxbir" taxallusida to'rt ijodkor: Nabi Karimov, Xatam Ikromov, Madamin Ibrohimov, Umurzoq Abduvali o'g'li; "Qishloqi" imzosini qo'llaganlar: Sadriddin Saidmurodov(Ayniy), Ashurali Zohiriy, Xatam Ikromov; "Shapaloq" taxallusidan foydalanganlar: G'ulom G'afurov, G'ozir Yunus, Saidrizo Ali. Bu misollarni ko'plab davom ettirishimiz mumkin. Bir taxallus va imzoning ko'plab ijodkorlarga tegishli bo'lishi muallifni aniqlash masalasida jiddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ba'zi bir taxallus va imzolar bir necha ijodkorlarga tegishli bo'la turib, faqat bittasi qayd etib o'tilgan bo'lishi ehtimoli ham mavjudki, bunga misol tariqasida quyidagi holatni ko'rsatib o'tamiz. "Yolg'onchi" imzosi Bois Qorievning ma'lumotnomasida Sadriddin Saidmurodov(Ayniy)ga tegishli deb berilgan, ammo adabiyotshunos Boybo'ta Do'stqoraev tomonidan aniqlanib, "Go'zal Turkiston" to'plamiga kiritilgan "Musht tushsin" she'rida ham ushbu imzo qo'llanilgan. Holbuki, mazkur to'plamda bu she'r Cho'lpon she'rlari qatorida sanalmoqda. Bu haqda atoqli adabiyotshunos Naim Karimov quyidagicha fikr bildiradi: "Sadriddin Ayniyni shu yillarda Andijonga kelmagani, shuningdek, she'rning tili va uslubida "ayniyona" unsurlarning yo'qligi uni Cho'lpon qalamiga mansub deyishimizga asos beradi" [4, 350]. Demak, "Yolg'onchi" imzosi aynan Cho'lponga tegishli ekanligini bildiruvchi aniq dalil yo'q, lekin shoirning boshqa she'rlari bilan qiyoslab, kontekstual tahlil orqali B.Do'stqoraev va N.Karimovning ushbu she'r muallifi haqidagi xulosalarining to'g'riligini aniqlash zarur. Shunga o'xshash, boshqa taxallus hamda imzolarining qaysi ijodkorga tegishliligi davriy nashrning o'zida, tahririyat hujjatlarida qayd qilingan bo'lsa yoki shoir hayotligida nashr qilingan to'plamlaridan o'rin olgan she'rlarida qo'llangan bo'lsagina aniq ishonch bilan Cho'lponniki yoki o'zga jadid adabiyoti vakilini deyish mumkin bo'ladi. Masalan, 1923 yilda Andijonda chop etilgan "Darxon" gazetasini ko'zdan kechirsak, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Shumgiyoh", "Andijonlik", "Mehmon", "A.S.", "Q." va boshqa ko'plab taxallus hamda imzolarini uchratishimiz mumkin. Atoqli olim R.Shamsutdinov mazkur gazeta va undagi Cho'lponning faoliyati haqida shunday deydi: "Bu gazetaga avval Abdulhay Tojiev, so'ngra Andijon revkomi raisi Ishoqjon G'oziev

muharrirlik qildi. Markazqo'm yo'llanmasi bilan Toshkentdan Andijonga kelgan Cho'lpon bu gazetaga amalda muharrirlik qilgan. Chunki Ishoqjon G'oziev revkom raisi bo'lganligi uchun gazeta ishini to'laligicha Cho'lpon zimmasiga yuklagan edi" [8, 102]. "Mehmon" taxallusi Abdulhamid Sulaymonovga tegishli ekanligi haqida dastlab professor R.Shamsutdin ma'lumot bergan va mazkur taxallus bilan chop etilgan "Unimlik ziyofat" hamda "Bir Po'stin" maqolalarini keltirib o'tadi [8, 116-119]. Andijon viloyat davlat arxivida olib borilgan izlanishlar vaqtida Cho'lponning Andijon revkomi raisi Ishoqjon G'ozievga yozilgan murojaati e'tiborimizni tortdi. Ushbu murojaatning orqasida "Bir Po'stin" maqolasidan parcha shoirning dastxati bilan yozilgan va ajablanarlisi shuki, "Darxon" gazetasida chop etilgan mazkur maqola strukturasi bilan bir xil [9, 573]. Bu hujjat "Mehmon" haqiqatan ham Cho'lponning taxalluslaridan biri ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, jadid adabiyoti vakillari qo'llagan taxallus va imzolar masalasi ochiqlash kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Zero bu boradagi yangilish fikrlar jiddiy xatolarga olib keladi.

Keyingi muammo – davr matbuotidagi holat: turli gazeta-jurnallar o'z faoliyatini til va imlo borasidagi o'z qarashlariga asoslanib olib borgan, muharrir va musahhihlarning til va imlo masalasida bir-biridan ko'p (umumiy saviyasi, shevasi, tilni his qilishi kabi) jihatlarida jiddiy farqlangani bilan bog'liq. O'tgan asrning 10-20-yillari matbuotida o'zbek adabiy tili meyorlarining hali qat'iy belgilanmagani o'zining chuqur izini qoldirgan. Aksar hollarda tahririyatda ishlovchi muharrir va musahhihlar faoliyati bilan bog'liq har bir nashrning o'z "shevasi" bo'lgan. Masalan, Cho'lpon 1923 yilning 11 aprelda "Turkiston" gazetasida e'lon qilingan "Tilimizning ishlanishi" nomli maqolasida bu masalaga atroflicha to'xtalib o'tgan: "Buxoro axbori" yo'ldoshimizning doim ko'zga qadalaturgan bitta zo'r xatosi bordurkim, uni xayrixohlik bilan aytib o'tmak istaganimiz kamchilik til, sheva kamchiligi, to'g'risi, tilga ahamiyat bermaslik xatosidir. Bosh sarlavhasi yonida "adabiy jaridai turkiya" deb yozilgan bu gazeta, ma'lumdirkim, o'zbek shevasida chiqadir. Buxoro hukumatining rasmiy tili ham o'zbekchadir. Buxorodek fors-eron ta'siriga ortiq yutulib ketib, o'z tilidan ajralib qolg'an bir o'lka uchun, u yerdagi ko'pchilik avom uchun tilning ahamiyati juda zo'rdir. Holbuki, "Axbor" yo'ldoshimizda bu jihatga sira diqqat etilmaydir yoki etila olmaydir" [2, 14]. Muhim tomoni, Cho'lponning til borasidagi e'tirozlari mualliflardan ko'ra ko'proq tahririyatga qaratilgan, chunki aynan ular materiallarni "yarim tatar va chala-bula o'zbek shevasi"da chop etishgan deb biladiki, bu yuqorida aytgan fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Holbuki, maqola muqaddimasida "Buxoro axbori" davr talablariga javob bera oladigan eng yaxshi gazetalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Agar o'z davrining eng yaxshi gazetalaridan biridagi ahvol shu bo'lsa, qolganlari qay holatda bo'lganini tasavvur qilish va bu tasavvurni taxlamlarni varaqlab mustahkamlash qiyin emas.

Demak, barcha uchun yagona bo'lgan asosiy imlo qoidalari shakllanmagani hamda davr matbuotida faoliyat yuritgan musahhih va muharrirlarning bu boradagi qarashlari turlicha bo'lganligi ham mavjud vaziyatni yanada qiyinlashtirgan.

Ma'lumki, jadid adabiyoti vakillari ijod qilayotgan davrda yozuvlar bir necha bor isloh qilindi. "O'zbek yozuvining XX asrdagi tarixi murakkab jarayonlarga boy bo'ldi: bu asrda yozuv uch marta tubdan isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko'chirildi. Jahon xalqlarining yozuv tarixida bunday hodisa kam uchraydi" [1, 5]. XX asr haqiqatdan ham 3 yozuvni ko'rishga "musharraf bo'ldi": arab, lotin hamda kirill. 10-20 yillarda asrlar mobaynida qo'llanilgan arab alifbosini tilimiz xususiyatlariga moslashtirish, tinish belgi va uning qoidalarini mukammallashtirish zarurati masalalari sezila boshlaydi. Bu zaruratni barcha o'zbek ziyolilari chuqur anglaydilar va natijada 1918 yilda Fitrat boshchiligida Toshkentda adabiyot, til va imlo masalalari bilan shug'ullanuvchi "Chig'atoy g'urungi" tashkiloti tuziladi. Chunki bu masalalarning ijobiy hal qilinishi juda katta ahamiyat kasb etar edi. Xususan, o'sha davrda qo'llanilayotgan imloda 25 ta harfning to'rt xil shakli – so'z boshida, o'rtasida, oxirida yoki yolg'iz holda ishlatiladigan shakllari bo'lgan, qolgan 7 ta harfning esa ikki xil holatda ishlatiladigan shakli mavjud edi. Ushbu imloda barcha unli fonemalar atigi 3 ta harf bilan

ifodalangan: ^۱ (alif), و (vov), ى (yo). Ba'zi harflar uchta fonemani ifodalagan. Masalan, و (vov) harfi "v" undoshini va "u", "o" unlilarini namoyon qilgan, ى (yo) harfi ham 3 ta fonemani – "e", "i" unlilarini va "y" undoshini ifodalagan. Ayrim fonemalar esa bir necha harflar bilan ifodalana olgan. Jumladan, "t" undoshi uchun ت (te), ط (to); "h" undoshi uchun ه (ho'yi havvoz), ح (ho'yi hutti); "s" undoshi uchun 3 ta harf ث (se), س (sin), ص (sod); "z" undoshi uchun esa 4 ta harf ذ (zol), ز (ze), ظ (zo), ض (zod) qo'llangan.

Bu kabi holatlar maorif, ta'lim tizimida va amaliyotida ko'p qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan, o'quvchilarda tez va ravon o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga monelik qilgan. "Chig'atoy gurungi" aynan shu qiyinchiliklarni inobatga olib, alifbo hamda imlo muammolariga e'tibor qaratishni zarur deb bilgan. 1921 yil yanvar oyida Eski Toshkent ijroqo'mi hamda Behbudiy klubi binosida Birinchi o'lka o'zbek til va imlo qurultoyi bo'lib o'tadi. O'zbekistonning barcha joylaridan kelgan qurultoy qatnashchilari o'z hududlaridagi til va imlo, maorif, sanoye' nafisa haqida anjumanda gapirib o'tdilar. Qurultoy materiallarini sinchiklab o'qib, unda ishtirok etayotgan shaxslarga e'tibor qaratsak, Hamid Yunusuf, A.Yunusuf, o'rtoq Hamid va Hamid Sulaymon kabi ismlarga ko'zimiz tushadi. Bu ismlar bir insonga – Cho'lponga tegishli ekanligi, til va imlo masalasi millat taraqqiyotini ko'zlagan barcha shaxslar uchun birdek muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, qurultoyda Andijon vakili sifatida o'z fikrlarni bayon qilgan. Qurultoyda Cho'lponning hech kimning xayoliga ham kelmagan bir taklifni tashlashi kishini ajablantiradi: "Majlis oxirida o'rtoq Hamid Chig'atoy adabiyotining muassasalaridan bo'lg'an "Navoyi" otig'a bir haykal o'tkarish to'g'risida taklif kiritdi. Bu taklif majlis tomonidan olqishlar bilan qarshu olindi" [7, 49]. Ushbu ma'lumot Cho'lponning mumtoz adabiyotimizga, xususan, Navoiyga bo'lgan ulkan ehtiromini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda 1926 yildan boshlab isloh qilingan arab yozuvi ham, yangi kirib kelayotgan o'zbek lotin yozuvi ham keng qo'llanilgan. 1929-1930 yildan boshlab butun mamlakatda to'la o'zbek lotin yozuvi amal qilinadigan bo'ldi. 1934 yilning 13 martida O'zSSR hukumati tomonidan tasdiqlangan yozuv yana isloh qilindi. Ahamiyatlisi shundaki, qatag'on qilingan ziyolilarning ijodlari mana shu imlo haqidagi bahslar kechayotgan davrda nashr qilingan edi. Jadid ijodkorlar asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda o'tkazilgan ko'plab til va imlo o'zgarishlarini nazardan chetda qoldirmaslik darkor.

Qatag'on qilingan ziyolilarimizga ijod qilish, uni chop etirish, o'z millatdoshlarining g'ami yetmaganday butun turkiy xalqlarning ravnaqi uchun tinmay sa'y-harakat qilish va bularning evaziga hech qanday moddiy foyda ko'rmaganligi, kissasidagi oxirgi pullarini-da ushbu maqsad yo'lida sarf etganliklarini tasavvur qilib ko'raylik. Yana bu ham yetmaganday tinimsiz kuzatuvlar, so'ngsiz tazyiqlar, mudom ta'qiblar ostida yashash, manzili halokat bo'lgan yo'ldan shahdam qadamlar bilan ijod qilib o'tish chinakam fidoyilikdir. Qatag'on yillaridagi ijodkorlarning asarlarini qayta nashr qilishda yuqorida sanab o'tilgan qator muammolar mavjud, ammo bu mashaqqatli ishga bel bog'lash har bir ziyolining kechiktirilmas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H., Sapaev Q. Imlo muammolari. "O'zbek tili va adabiyoti"dan o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – B. 271.
2. Cho'lpon. Asarlar. IV jild. Tilimizning ishlanishi.– Toshkent: Akademnashr. 2016. – B. 368.
3. Cho'lpon. "Tilimizning ishlanishi" // Turkiston. 1923. 11 aprel.
4. Cho'lpon. Asarlar. I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B.350.
5. Qoriev B. Adabiy taxalluslar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1967. – №1. – B. 51-58.
6. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1925. – B.124.
7. Til-imlo qurultoyi masalalari.–Toshkent: Turkiston jumhuriyati davlat nashri, 1922. – B.51.
8. Shamsutdinov R. Qatag'on qilingan yurtdoshlarni xotirlab.–Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 302.
9. Andijon viloyat davlat arxivi, 90-fond, 2-ro'yxat. 573 bet.

MUNDARIJA

	Fidoyi ma'rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko'zgusida	3
D.H. Nabiyev		
1-SHO'BA: O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK MASALALARI		
Nurboy Jabborov,	Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.....	5
Islam Jemeney	Jadid estetikasining shakllanishi.....	9
Uzoq Jo'raqulov	Ismoil Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodiga munosabati	16
Zaynabidin Abdirashidov	Fitrat – mashrabshunos.....	20
Rashid Jumayev	Yo'l obrazi: an'ana va novatorlik.....	23
Odiljon Avaznazarov	Jadid she'riyatida mumtoz an'analar takomili.....	26
Zilola Namozova	Muhsiniy she'riyatida ijtimoiy muhit talqini.....	29
Furqat To'xtamurutov	Komil Xorazmiy masnaviylarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	32
Dilnoza Xudayarova	Komil Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida	36
Nigora Bo'tayeva	Salohiyning gul va bulbul obrazi jadid adabiyoti namoyandasi Abdulla Avloniy talqinida.....	38
Surayyo Shodiyeva	Navoiyning forsiy merosi Fitrat talqinida.....	40
Yusuf Amonov	Komil Xorazmiy ijodida an'anaviy poetik obrazlar tadriji	42
Ziyadulla Kenjayev		
Muhayyo Yaminova		
2-SHO'BA. JADIDCHILIK G'OYALARI VA YANGI O'ZBEK ADABIYOTI		
Nafas Shodmonov	Behbudiy publitsistikasining mavzuiy xarakteri.....	45
Gulnoza Ernazarova	Jadidchilik va milliy adabiyot.....	51
Shahobiddin Nuriddinov	Miskinning ma'rifiy qarashlari.....	55
Orzigul Hamroyeva	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati.....	58
Gulchehra Imomova	Jadid hikoyalarda milliylik va an'analar talqini.....	61
	Ikki jadid munavvari – Hamza va Cho'lpon munosabatlari xususida.....	66
Otabek Jo'raboyev	Cho'lpon va jadidchilik.....	70
Shahlo Hojiyeva	O'zbek dramaturgiyasi rivojida Hamzaning o'rni.....	73
Saodat Mo'minova	Adabiy-estetik tafakkur – poetik obraz yangilanishi asosi.....	75
Dildora Raxmonova		
Abdumurod Arslonov,		
Nodira Egamkulova	Turkistonda milliy matbuot va adabiyot.....	77
	Is'hoqxon To'ra Ibrat she'riyatining mavzu ko'lami va janr xususiyatlari.....	81
Ozodaxon Boltaboyeva	Jadid hajviyotining rivojlanish bosqichi.....	84
Gulruxbegim Ravshanova	Behbudiyning adabiy tanqidga doir qarashlari.....	87
Oybarchin Abdulhakimova	Fitrat publitsistikasining ijtimoiy-estetik talqini.....	89
To'lqin Kenjayev		
Shahnoza Qahhorova,		
Farhod Qiyomov	Usmon Nosir adabiy merosining tasnifiy tahlili.....	92
Shohida Karamova	Barmoq – milliy she'riyatimizning asosiy vazni.....	98
Nilufar Sultonova	Jadid romanlarida badiiy modifikatsiya.....	100
	Hamza she'rlarida zamondosh ayollar obrazi ("Oymisan yo qamara..." she'ri tahlili misolida).....	103
Nodira Xolikova		
G'iyosiddin Shodmonov,		
Shohista Shermamatova	Jadidlar ijodida ziyoli obrazi.....	105
Maxsuda Berdimuratova	Jadid dramaturgiyasida inson va istiqlool konsepsiyasi (Behbudiy va Fitrat dramalari misolida).....	108
	Jadid adiblarining ijodida millat talqini.....	112
Normurod Avazov,	Badiiy asarda "Kecha, tun" so'zlarining g'oyaviy-badiiy qirralari.....	116
Nilufar Cho'liyeva	O'zbek she'riyatida erk talqini.....	117
Muhayyo Rayxonova		

Umida Abdullayeva	Jadid shoirlari ijodida ijroviy lirika.....	120
Latofat Tajibayeva	Yangi o'zbek she'riyatining mazmuniy yangilanishi	123
Kamol Hakimov	"O'tkan kunlar" romanida tarixiylik masalasi.....	126
Dilorom Sodiqova	Cho'lpon- tong yulduzi.....	129
Muhabbat Rajabaliyeva	Mahmudkhoja Behbudin'in aydinlanmasi veya bilim adamı Poyon Ravshanov'un gerçekleri.....	130
Klara Dusyorova	Jadidchilik va o'zbek adabiyotining rivojlanish masalalari....	132
Феруза Юсупова	Идеал справедливости и критерии прогресса в идео- логии джадидизма.....	134
Nilufar Umarova	Jadid ziyolilari ijodida milliy etika masalalari.....	135
Sherzod Akramov		
Farhod Qiyomov	Obraz badiiy tasvirining manbalari.....	137
Sherzod Usmonov	Jadidlar va o'zbek milliy demokratik matbuot masalalari....	139
Mohigul Ergasheva	Begali Qosimov – jadidshunos.....	141
Lola Qo'ziboyeva	Jadid obrazining dramatik talqinlari.....	143
Nurali Murodullayev	Fitratning jadidchilik qarashlari to'grisida.....	146
Mehri Kenjayeva	Cho'lponning "Yangi men" she'rida yo'lovchi obrazi talqini.....	148
Muslima Ahmadjonova	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar tabiati tahlili.....	150
Munisa Nishonova	Nozimaxonim ijodida ma'rifat talqinlari.....	152
3- SHO'BA. JADIDCHILIK VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI		
Saidbek Boltabayev	Jadidchilik harakati bo'yicha turkiyada amalga oshirilgan dissertatsiyalar	155
Oybek Barziyev	Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va turkman, tatar adabiyotidagi g'oyaviy mushtarakliklar.....	161
Sarvarbek Tuliboyev	Turkiston madaniy hayotining turk matbuotida yoritilishi	164
4- SHO'BA. JADIDCHILIK VA TURKIY TILLAR MUAMMOSI		
	Выражение количеств лексическим путем на турецких языках.....	169
Хаджар Гусейнова		
Xo'jamurod Jabborov	O'zbek tili sofligini saqlashda jadidlarning o'rni.....	176
Yusuf Avci	Ceditçilikte dil ve edebiyat gayelerinin uygulanışı ve bir karşılaştırma.....	179
Qo'ldosh Pardayev	Jadidlar ijodida til masalasi.....	182
Xurshid Ahmadov	O'zbek milliy ziyolilarning 1929-yilgi alifbo islohotiga munosabati.....	185
5-SHO'BA. TA'LIM BOSQICHLAIDA JADIDCHILIK VA JADID ADABIYOTINING O'QITILISHI		
Saodat Mo'minova	Oliy ta'limda "Qodiriy – o'zbek romanchilik maktabining asoschisi" mavzusidagi amaliy mashg'ulotni tashkil etish..	188
Umriniso To'rayeva	O'zbek jadid adabiyotini o'rganish masalalari adabiyot- shunos Begali Qosimov tadqiqotlari misolida).....	191
Okila Turakulova	Jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik merosi.....	194
Soxibaxon Islomova	Qatag'on qilingan ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish muammolari.....	196

ILMIY NASHR

MUXAYYO RAYXONOVA

**SHE'RIYAT:
OLAMNI IDROK ETISH VA BADIY TASVIR**

MONOGRAFIYA

Muharrir: *Y.Ziyodov.*
Texnik muharrir: *K.Temirova.*
Musahhih: *Y.Ziyodov.*
Sahifalovchi: *K. Eshmurodova.*

Nashriyot litsenziyasi № 5858-775f-17d6-89d3-a021-1994-5946. 22.07.2020. Terishga 02.10.2023-yilda berildi. Bosishga 10.10.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84_{1/8}. Shartli bosma tabog'i-24,51. Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturasida. Ofset qog'ozi. Nashr bosma tabog'i-25,2. 2023-shartnoma. 36-buyurtma. 10 nusxada. 202 bet. Erkin narxda.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi» MCHJ, 180118.
Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 22-uy.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi», MCHJda chop etildi.
180118. Qarshi shahri, "O'zbekiston ovozi" ko'chasi, 33-uy

